1. Карасик, В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - Волгоград: Перемена, 2002.
2. Маслова, В. А. Лингвокультурология. - Москва: Академия, 2001.
3. Телия, В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996.
4. Кунин, А. В. Курс фразеологии современного английского языка. - Москва: Высшая школа, 1996.
5. Әдизова, Н. Ўзбек маколлари ва мақолаларининг лингвокультурологик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 2018.
6. Rahmatullayev, Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
7. Mieder, W. Proverbs: A Handbook. - Westport: Greenwood Press, 2004.
8. Mieder, W., & Dundes, A. The Wisdom of Many: Essays on the Proverb. - New York: Garland Publishing, 1994.
9. Norrick, N. R. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. - Berlin: Mouton de Gruyter, 1985.
10. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980.

Kamilova Madina Xamidjanovna
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi tadqiqotchisi

OILA VA JAMIYATDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK STRATEGIYALAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirish jarayonida psixologik strategiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi psixologik omillar - motivatsiya, kommunikativ muhit, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi jihatlar yoritiladi. Shuningdek, ota-onalar, pedagoglar va jamiyat institutlarining huquqiy savodxonlikni oshirishdagi psixologik ta’sir mexanizmlari ilmiy asosda o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari oila ichida huquqiy madaniyatni shakllantirishda psixologik yondashuvlar yuqori samaradorlik berishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy savodxonlik, psixologik strategiyalar, oila psixologiyasi, ijtimoiy muhit, huquqiy ong, kommunikatsiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В СЕМЬЕ И ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль психологических стратегий в формировании правовой грамотности в семье и обществе. Анализируются психологические факторы, влияющие на развитие правового сознания и правовой культуры, такие как мотивация, коммуникативная среда, межличностные отношения и социально-психологическая поддержка. Особое внимание уделено механизму психологического воздействия родителей, педагогов и социальных институтов на повышение уровня правовой грамотности. Результаты исследования показывают, что применение психологических подходов значительно повышает эффективность формирования правовой культуры в семейной среде.*

Ключевые слова: *правовая грамотность, психологические стратегии, семейная психология, социальная среда, правовое сознание, коммуникация.*

PSYCHOLOGICAL STRATEGIES IN THE FORMATION OF LEGAL LITERACY IN THE FAMILY AND SOCIETY

Abstract. *This article examines the role of psychological strategies in developing legal literacy within the family and society. It explores psychological factors influencing the formation of legal awareness and legal culture, including motivation, communication climate, interpersonal relations, and socio-psychological support. The study highlights the psychological mechanisms through which parents, educators, and social institutions contribute to enhancing legal literacy. The findings demonstrate that psychological approaches significantly increase the effectiveness of fostering legal culture within the family environment.*

Key words: *legal literacy, psychological strategies, family psychology, social environment, legal awareness, communication.*

Kirish. Oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirish bugungi kunda davlat va jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Har bir fuqaroda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetarli darajada rivojlanishi nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olish, balki jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Huquqiy savodxonlikning ildizi, avvalo, oiladan boshlanishi tabiiy jarayondir, chunki shaxsning dastlabki ijtimoiylashuvi, axloqiy va ma’naviy me’yorlarni anglash jarayoni aynan oilada shakllanadi. Shu bois oilada huquqiy madaniyatni rivojlantirishda psixologik yondashuvlar va ijtimoiy-psixologik omillarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy savodxonlikni oila muhitida shakllantirishda psixologik strategiyalarning qo‘llanilishi oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, muloqot madaniyati va motivatsion omillar bilan chambarchas bog‘liq. Har bir oila a’zosi, ayniqsa ota-onalar, farzandlarda huquqiy ongni rivojlantirish jarayonida namuna sifatida ko‘riladi. Shuning uchun ota-onalarning shaxsiy huquqiy madaniyati, ularning psixologik yondashuvi va muloqot uslubi farzandlar ongida huquqqa nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Oila ichidagi psixologik iqlim, o‘zaro hurmat, suhbatlarning ochiqligi va ijobiy ruhiy muhit shaxsda huquqiy qadriyatlarning kuchli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Jamiyatning o‘zi ham huquqiy savodxonlikni shakllantirishda muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Maktab, mahalla, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va davlat institutlari oila bilan hamkorlik qilgan holda huquqiy madaniyatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda psixologik strategiyalar, masalan motivatsiyani kuchaytirish, interfaol muloqot, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va emotsional qo‘llab-quvvatlash usullari samaradorlikni sezilarli oshiradi. Jamiyat tomonidan beriladigan ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa yoshlarning huquqiy savodxonligini mustahkamlashga yordam beradi.

Oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirish ko‘p qirrali psixologik jarayon bo‘lib, u shaxsning ongida qonunlar, huquqiy me’yorlar va ijtimoiy mas’uliyatning barqaror tasavvur sifatida shakllanishini talab qiladi. Ushbu jarayonning samaradorligi ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularning ilmiy qarashlari huquqiy savodxonlikning psixologik strategiyalarini chuqur anglashga yordam beradi.

Lawrence Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari haqidagi tadqiqotlari shaxsning huquqiy xatti-harakati ongning ma’lum darajalarda takomillashuvi orqali shakllanishini ko‘rsatadi. Kohlberg fikriga ko‘ra, oila va jamiyat shaxsda qonunlarga nisbatan ongli munosabat paydo bo‘lishi uchun muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Aynan oilaviy tarbiya, muloqot va kuzatuv orqali bola qonuniy me’yorlarning mazmunini psixologik jihatdan idrok eta boshlaydi.

Diana Baumrindning ota-onalik uslublari haqidagi ilmiy ishlari oilaning huquqiysavodxonlikka ko‘rsatadigan bevosita ta’sirini ochib beradi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, demokratik ota-onalik uslubi bolada mas’uliyat, o‘z xatti-harakatlarini baholash va huquqiy me’yorga rioya qilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shunday qilib, oilaning psixologik muhit sifatidagi roli huquqiy ong rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Albert Banduraning sotsial o‘rganish nazariyasi esa jamiyatda huquqiy xulq-atvor namunalari kuzatuv orqali o‘zlashtirilishini ta’kidlaydi. Bandura fikriga ko‘ra, shaxs oilaviy va ijtimoiy muhitda kuzatilgan xatti-harakatlarni model sifatida qabul qiladi va ularga ergashadi. Shu bois jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksak bo‘lishi psixologik jihatdan ijobiy o‘rnak yaratadi. Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi ham huquqiy savodxonlik shakllanishida muhit omilining kuchini ko‘rsatadi. U oilani, maktabni, mahallani va keng ijtimoiy tuzilmalarni shaxsning psixologik rivojlanishiga ta’sir qiluvchi o‘zaro bog‘langan tizimlar sifatida talqin etadi. Bu tizimlarning uyg‘un faoliyati huquqiy ongning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Tom Tyler esa jamiyatda qonunlarga bo‘ysunish psixologiyasini o‘rgangan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari fuqarolarning adolat hissi, ishonch, davlat organlarining halolligi va jamiyatdagi ijtimoiy hurmat darajasi huquqiy savodxonlikka kuchli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Tylerning fikriga ko‘ra, jamiyatda adolatning psixologik qabul qilinishi huquqiy xulq-atvorga ijobiy turtki beradi.

Melvin Lerner tomonidan ishlab chiqilgan adolatga ishonch nazariyasi ham oila va jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanishiga daxldor. Unga ko‘ra, shaxslar jamiyatni adolatli deb hisoblaganida, qonunlarga amal qilishga va me’yorlarga rioya qilishga moyilligi ortadi. Bu esa huquqiy savodxonlikning psixologik asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, huquqiy savodxonlikni shakllantirish faqat bilim berish jarayoni emas, balki chuqur psixologik mexanizmlarga tayanadi. Oila, jamiyat, tarbiya, kuzatuv, adolat hissi, muloqot madaniyati va ishonch – bularning barchasi huquqiy ongning rivojlanishida muhim psixologik strategiyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, huquqiy savodxonlikni yuksaltirishda psixologik yondashuvlar va ilmiy asoslangan strategiyalarni qo‘llash zarurdir. Huquqiy savodxonlikning shakllanishida psixologik omillarning o‘rganilishi zamonaviy ilm-fan rivojida muhim yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Chunki psixologiya inson xulq-atvori, fikrlashi va

qaror qabul qilish jarayonlarining asosiy mexanizmlarini o‘rganadi. Shaxsning huquqiy qaror qabul qilishga bo‘lgan tayyorligi, huquqiy normalarni to‘g‘ri qabul qilishi va ularga amal qilishi uning ruhiy holati, ijtimoiy tajribasi va psixologik ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababdan huquqiy savodxonlikni oshirishda faqat huquqiy ma’lumot berish emas, balki shaxsning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olish muhim hisoblanadi. Oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan katta islohotlar zamirida ham psixologik yondashuvning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Chunki inson o‘z huquq va majburiyatlarini tushunishi, ularga ongli munosabatda bo‘lishi va ularni hayotiy faoliyatida qo‘llashi uchun avvalo ichki psixologik motivatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ega bo‘lishi lozim. Oilada yaratilgan sog‘lom psixologik muhit, o‘zaro ishonch va muloqot madaniyati jamiyatda huquqiy savodxonlikning umumiy darajasini oshiradi. Shu bois oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirishda qo‘llaniladigan psixologik strategiyalar, ularning turlari, afzalliklari va samarasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Psixologik omillarni o‘rganish orqali huquqiy madaniyatning chuqurroq shakllanishi hamda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida samarali yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin. Maqola ushbu masalaning nazariy asoslarini ochib berish barobarida oila va jamiyat uchun amaliy tavsiyalarni ham ishlab chiqish imkonini yaratadi. Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirish jarayonini psixologik yondashuvlar nuqtai nazaridan o‘rganishga qaratilgan. Metodologiya bo‘limi tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar, tahlil usullari, ma’lumotlar yig‘ish va qayta ishlash metodlarini umumlashtiradi. Tahlil natijalari huquqiy savodxonlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va ularning samaradorligini baholashga imkon beradi. Tadqiqotning nazariy asosini ijtimoiy psixologiya, ta’lim psixologiyasi, huquq sotsiologiyasi va pedagogika fanlarining ilmiy konsepsiyalari tashkil etadi. Xususan, shaxsning ijtimoiylashuvi haqidagi nazariyalar, ijtimoiy o‘rganish konsepsiyasi, motivatsiya nazariyalari, kommunikativ yondashuvlar va tarbiyaviy psixologik modellar tadqiqotning konseptual asosini shakllantirdi. Huquqiy tarbiya masalalarini o‘rganishda huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy xulq-atvorning psixologik mexanizmlari bo‘yicha yaratilgan nazariy tadqiqotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda asosan sifat tahlil usullari bilan bir qatorda ayrim miqdoriy yondashuvlar elementlaridan ham foydalanildi. Sifat tadqiqoti uchun kontent-tahlil, psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, mavjud ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish va psixologik jarayonlarning nazariy modellarini tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tajriba-sinov sifatida baholandi. Mazkur yondashuvlar oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikka ta’sir etuvchi omillarni chuqur tushunish imkonini yaratdi.

Tadqiqotning asosiy uslublaridan biri sifatida kontent-tahlil tanlandi. Bu usul huquqiy tarbiya, psixologik strategiyalar va oila ijtimoiy muhitiga oid ilmiy manbalarni tizimli ravishda o‘rganish va ularni tematik jihatdan guruhlash imkonini berdi. Kontent-tahlil yordamida psixologik strategiyalarning tasnifi, ularning qo‘llanilish sohalari va samaradorligi bo‘yicha umumlashtirilgan xulosalar shakllantirildi.

“Huquq va huquqiy ustanovkaga munosabat darajasi” so‘rovnomasi orqali olingan natijalar tahlili (n=345)

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)			Farqlar	
	Yosh oila (120)	Yetuk oila (100)	O‘rta yoshdagi oila (125)	F	p
Huquqga munosabat	15,7	17,6	17,8	-2,6	0,05
Huquqiy ustanovka	16,4	16,8	18,9	-2,8	0,05

“Huquq va huquqiy ustanovkaga munosabat darajasi” so‘rovnomasi orqali olingan natijalar tahliliga ko‘ra, «huquqqa munosabat» ($F=-2,6$; $p\leq0,05$) hamda «huquqiy ustanovka» ($F=-2,8$; $p\leq0,05$) omillarida omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi.

Shuningdek, turli mualliflar yondashuvlari o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, ularning nazariy asoslari taqqoslandi. Tadqiqotda sotsiologik yondashuv elementlaridan ham foydalanildi. Xususan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni o‘lchashga oid tadqiqotlar tahlil qilinib, ular oila va jamiyat psixologik muhitining ta’siri bilan bog‘landi. Ushbu yondashuv shaxsning huquqiy savodxonligini shakllantirishda kommunikatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘rnak bo‘lish va motivatsiya kabi psixologik omillarning rolini empirik ma’lumotlar asosida talqin qilish imkonini berdi. Psixologik metodlar orasida kuzatuv va psixologik tahlil elementlaridan foydalanildi. Kuzatuv usuli orqali oiladagi muloqot madaniyati va oila a’zolarining huquqiy mavzularga munosabati haqidagi nazariy tasavvurlar yanada boyitildi. Shuningdek, psixologik tahlil usuli huquqiy xulq-atvorning motivatsion asoslarini, shaxsning psixologik ehtiyojlari va emotsional holatining huquqiy qarorlar qabul qilishdagi rolini tushuntirishga xizmat qildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli ham keng qo‘llandi. Bu usul orqali turli davlatlar va turli ilmiy maktablarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llaniladigan psixologik metodlar solishtirildi. Xorijiy adabiyotlarda keltirilgan treninglar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, emotsional-intellektual mashg‘ulotlar kabi metodlar mahalliy sharoitda qo‘llanishi mumkinligi tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil shuningdek oila tarbiyasida motivatsion yondashuvlar va kommunikatsiya uslublarining turli madaniy muhitlarda qanday samara berishini aniqlashga yordam berdi.

Metodologiyaning yana bir muhim yo‘nalishi sifatida funktsional yondashuv tanlandi. Bu yondashuv psixologik strategiyalarning oilaviy tarbiyada qanday funksiyalarni bajarishini aniqlashga imkon berdi. Masalan, kommunikativ strategiyalar - muloqotni yaxshilash, motivatsion strategiyalar - huquqiy qadriyatlarni qabul qilishni kuchaytirish, emotsional strategiyalar - ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish kabi funksiyalarni bajarishi aniqlangan holda ularning amaliy ahamiyati ochib berildi.

Metodologiya jarayonida tadqiqot obyekti sifatida oila va jamiyatning huquqiy tarbiyadagi roli belgilandi, tadqiqot predmeti esa huquqiy savodxonlikni shakllantirishda qo‘llaniladigan psixologik strategiyalar sifatida aniqlab olindi. Tadqiqotning asosiy vazifalari psixologik omillarni aniqlash, ularning huquqiy savodxonlikka ta’sirini tahlil qilish va samarali strategiyalarni ilmiy asoslashdir.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot metodologiyasi oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayonining psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish imkonini berdi va keyingi bo‘limlarda amalga oshiriladigan tahlillarga nazariy-amaliy poydevor yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ефремова Г.Х., Ратинов А.Р. Правовая психология и преступное поведение. Красноярск, 1988; Они же. Изучение правосознания и общественного мнения о преступности и деятельности правоохранительных органов. М., 1988.

2. Жусупов А.Р., Хасенова А.А. К вопросу о формировании правовой грамотности педагогов // Современные научные исследования и инновации. 2017.

3. Горина, Е. В. Коммуникативные технологии манипуляции в СМИ и вопросы информационной безопасности : учебно-методическое пособие / Е. В. Горина. - Екатеринбург : Издательство Уральского университета, 2016. - 67 с.

4. Бельских И.Е., Бельских О.Е. Экономические реалии образования // ЭКО. 2002. № 1. С. 93-96. (С.93)

5. Агарновская Е.В. Правовая культура и обеспечение прав личности – М.: Наука, 1988. – 120 с. (С.4-5)

Jumaqulova Nargiza Sunatulla qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi
E-mail: nargizabonujumakulova@gmail.com

TA’LIMDA GENDER KONSEPSIYASINING ASOSIY JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida gender tenglikni ta’minlashning ahamiyati, gender stereotiplari ta’sirida shakllanadigan ta’limdagi nomutanosibliklar va ularni bartaraf etish mexanizmlari yoritiladi. Turli mamlakatlarda (Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina) olib borilgan tadqiqotlar asosida genderga sezgir o‘quv dasturlari, o‘qituvchi malakasining gender savodxonlikni oshirishdagi roli va gender tengligi ta’lim natijalariga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Genderga yo‘naltirilgan yondashuvning o‘quvchilar imkoniyatlarini kengaytirishi, ijtimoiy adolat va inklyuzivlikni mustahkamlashi ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, ta’lim, stereotip, gender sezgirlik, o‘quv dasturi, ta’lim natijalari.*

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ГЕНДЕРНОЙ КОНЦЕПЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В статье рассматривается значение обеспечения гендерного равенства в системе образования, влияние гендерных стереотипов на доступ к образовательным ресурсам и механизмы их преодоления. На основе исследований, проведённых в России, Казахстане и Украине, анализируются гендерно-чувствительные учебные программы, роль учителя в формировании гендерной грамотности и влияние гендерного равенства на образовательные результаты. Показано, что гендерно-ориентированный подход способствует расширению возможностей учащихся и формированию инклюзивной и справедливой образовательной среды.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, образование, стереотипы, гендерная чувствительность, учебные программы, результаты обучения.*

KEY ASPECTS OF THE GENDER CONCEPT IN EDUCATION

Annotation. *This article examines the importance of ensuring gender equality in education, the impact of gender stereotypes on learning opportunities, and strategies for overcoming such disparities. Drawing on studies conducted in Russia, Kazakhstan, and Ukraine, the analysis highlights gender-sensitive curricula, the role of teachers in promoting gender literacy, and the influence of gender equality on educational outcomes. The findings demonstrate that gender-responsive educational practices enhance student opportunities and contribute to building an inclusive and equitable learning environment.*

Key words: *gender equality, education, stereotypes, gender sensitivity, curriculum, learning outcomes.*

Ta’limda gender teng huquqli jamiyat yaratish va jinsidan qat’iy nazar barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu konsepsiya ta’limdan foydalanish, o‘quv dasturlari, o‘qitish usullari va materiallari, shuningdek, ta’lim madaniyati va siyosati kabi keng ko‘lamli masalalarni qamrab oladi.

Ta’lim olishda teng imkoniyatlar: Gender stereotiplari va diskriminatsiya talabalarning ma’lum turdagi ta’lim resurslari va imkoniyatlaridan foydalanishini cheklashi mumkin. Misol uchun, “qizlar fan, texnologiya, muhandislik va matematikada (STEM) sohalarida stereotiplar yoxud ijtimoiy qarashlar tufayli kam qamrovda bo‘lishi mumkin”[1]. Rossiyada olib borilgan tadqiqotlardan ham ayon bo‘lishicha, “qizlar va o‘g‘il bolalar ta’lim va kasbiy yo‘nalishni tanlashga ta’sir qiluvchi turli xil qarash va stereotiplarga duch kelishadi”[2].

[1] Stoet.G., Geary. D. C. The gender-equality paradox in STEM education: *Psychological Science*, 2018, 581-593.
[2] Воронцов. А. Гендерные стереотипы в российском образовании: *Вопросы психологии*, 2018. 15-21.

Gender masalasi inobatga olingan o‘quv dasturlari: O‘quv dasturlari va o‘qitish usullari genderga bog‘liq bo‘lishi kerak. Qozog‘istonda olib borilgan ishlarga asosan, “o‘quv materiallariga gender-sezgir yondashuvlarni integratsiyalash o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasida o‘quv yutuqlarining teng taqsimlanishiga yordam beradi”[1].

Gender savodxonlikni oshirishda o‘qituvchining o‘rni: O‘qituvchilar ta’lim jarayonida gender sezgirligini oshirishda markaziy rol o‘ynaydi. Kasbiy rivojlanish dasturlari gender stereotiplari va ularni bartaraf etish bo‘yicha treninglarni o‘z ichiga olishi kerak. “Ukrainada o‘qituvchilarning malakasini oshirish dasturlariga gender stereotiplari va ularni qanday yengish bo‘yicha maxsus treninglar ham kiritilgan”[2].

Adabiyot fanida gender yondashuvning ta’lim jarayoniga joriy etilishi zamonaviy pedagogik konsepsiyalarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Genderga sezgir yondashuv o‘quvchilarning jinsdan qat’iy nazar teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash bilan birga, adabiy matnlarni tahlil qilishda stereotiplarning shakllanishi va mustahkamlanishiga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender stereotiplari mavjud ta’lim tizimida o‘quvchilarning tanloviga, yo‘nalish tanlashiga va, eng muhimi, o‘zini ifoda etish imkoniyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, xalqaro ta’lim tadqiqotlarida qizlarning STEM yo‘nalishlarida pastroq ishtiroki ko‘pincha ijtimoiy tasavvurlar va genderga oid madaniy bosimlar bilan izohlanadi, bu esa ta’lim jarayonida genderga sezgir yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Rossiyada olib borilgan sotsiopedagogik tadqiqotlar ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘g‘il bolalar va qizlar kasbiy yo‘nalishni tanlashda turli ijtimoiy kutishlar va genderga asoslangan baholar ta’sirida qaror qabul qiladilar, bu esa o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini cheklaydi. Qozog‘istonda o‘tkazilgan pedagogik eksperimentlar esa gender-sezgir o‘quv dasturlarining joriy etilishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi tenglashuviga yordam berishini ko‘rsatadi. Xususan, darsliklarda qizlar va o‘g‘il bolalar obrazlarining balansli berilishi, adabiy qahramonlar tahlilida genderga xos stereotiplarni tanqidiy ko‘rib chiqish o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi gender sezgirligining oshirilishi ham dolzarb omillardan biridir. Ukraina ta’lim tizimida o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga gender stereotiplarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha maxsus treninglar kiritilgani amaliy natijalar bergan. Natijalarga ko‘ra, genderga sezgir pedagogik yondashuv qo‘llangan sinflarda o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy faollik, ishonch darajasi va o‘zini namoyon qilish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgan. Bu esa adabiyot fanida, xususan, matn tahlili, qahramonlarni talqin qilish, ijtimoiy mavzularni baholashda o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda gender yondashuvning muhimligini asoslab beradi.

Global ta’lim tadqiqotlari ham gender tengligi yuqori darajada ta’minlangan mamlakatlarda qizlarning matematika va fan bo‘yicha natijalari keskin yaxshilanganini ko‘rsatadi. Bu holat ta’lim tizimidagi gender tenglik siyosati nafaqat ijtimoiy adolatni ta’minlashi, balki o‘quvchilarning umumiy akademik yutuqlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini dalillaydi. Genderga moslashtirilgan adabiyot darslari esa o‘quvchilarning madaniyatlararo bag‘rikengligi, ijtimoiy tafakkuri va tanqidiy tahlil kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi. O‘quv jarayonida gender stereotiplarini tahlil qilish, adabiy obrazlar orqali jamiyatdagi gender rollarini muhokama qilish o‘quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantiradi va kelajakda tenglik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Shunday qilib, adabiyotda gender yondashuvning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi, o‘quvchilar uchun teng sharoit yaratadi va ijtimoiy adolatga asoslangan innovatsion ta’lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, ularni stereotiplarni tanqidiy tahlil qila oladigan faol shaxs sifatida tarbiyalaydi hamda har bir o‘quvchining salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon beradi.

[1] Ахметова. С. Гендерные аспекты в образовательных программах Казахстана. *Наука и образование*, 2017 45-52.

[2] Криворучко.Л. Профессиональное развитие учителей в контексте гендерного подхода.:*Образование и карьера*, 2016. 1(3), 50-56 ст.

- Gender-sezgir o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish O‘quv dasturlarida adabiyot va boshqa fanlarda gender stereotiplarga asoslanmagan materiallarni kiritish orqali o‘quvchilarning tafakkuri kengayadi va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Shu orqali qiz va o‘g‘il bolalarning akademik yutuqlarini tenglashtirish va imkoniyatlarni barqaror taqsimlashga erishish mumkin.
- O‘qituvchilar malakasini oshirish va gender savodxonligini targ‘ib qilish. O‘qituvchilar uchun gender bilan bog‘liq treninglar va malaka oshirish dasturlarini joriy etish o‘quv muhitida stereotiplarning kamayishiga va o‘quvchilarning faolligining oshishiga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘zini namoyon qilish, o‘z qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi.
- Genderga asoslangan baholash va monitoring tizimini yaratish. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yutuqlarini gender farqlari nuqtai nazaridan kuzatish va baholash mexanizmlarini joriy etish ta’limdagi noaniqliklarni kamaytiradi, ijtimoiy adolatni ta’minlaydi va har bir o‘quvchiga teng imkoniyat yaratadi.

Xulosa. Shu yechimlar orqali adabiyotda gender yondashuvga asoslangan ta’lim tizimi nafaqat o‘quvchilarning akademik natijalarini yaxshilaydi, balki ularning ijtimoiy tafakkuri va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Genderni inklyuziv tarzda integratsiyalash ta’lim siyosatining samaradorligini oshiradi va har bir o‘quvchining salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Hotamova, G. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda ayollar nutqining xususiyatlari: Filologiya fanlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2003. – 145 b.
1. Niyazova, G. Detektiv romanlar tilining sotsiopragmatik aspekti va gender xususiyatlari: Filologiya fanlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2011. – 162 b.
2. Mukhamedzhanova, A. Gender va ta’lim: O‘quv dasturlari va pedagogik yondashuvlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020. – 172 b.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Gender Report. – Paris: UNESCO, 2020. – 112 p.
4. OECD. Education at a Glance 2021: Gender Differences in Learning Outcomes. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 96 p.
5. Sadovnik, A., Semel, S. Gender in Education: Theory, Research, and Policy. – New York: Routledge, 2019. – 278 p.
6. Kramarenko, V. Gendernoe vospitanie i obrazovanie: sovremennye podkhody. – Moskva: Nauka, 2017. – 240 s.
7. Bourdieu, P., Passeron, J.-C. Reproduction in Education, Society and Culture. – London: Sage, 1990. – 333 p.
8. Reay, D. Gendering Educational Choice: Social Class and Schooling. – London: Routledge, 2015. – 192 p.
9. UN Women. Gender Equality and Inclusive Education: Policy Guidelines. – New York: UN Women, 2021. – 105 p.

Qo‘yliyev Ulug‘bek Ravshanovich
Buxoro xalqaro universiteti o‘qituvchisi

BO’LAJAK TARIX FANI O’QITUVCHILARIDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik determinantlari tahlil qilinadi. Mantiqiy tafakkur – bu tarixiy jarayonlarni izchil, sabab-oqibat bog‘liqligida tushunish, tarixiy dalillarni tahlil qilish hamda umumlashtirish qobiliyatini shakllantiruvchi muhim tafakkur turi sifatida yoritilgan. Tadqiqotda tarix fanini o‘qitish jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar, interfaol o‘qitish texnologiya-lari, muammoli ta’lim, tanqidiy fikrlash, hamda tarixiy manbalarga tayangan holda mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak tarix o‘qituvchisi, mantiqiy tafakkur, pedagogik determinant, psixologik determinant, tanqidiy fikrlash, kognitiv faollik, refleksiya, interfaol ta’lim, muammoli vaziyat, tarixiy tafakkur.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогические и психологические детерминанты развития логического мышления у будущих преподавателей истории. Логическое мышление рассматривается как важный тип мышления, формирующий способность понимать исторические процессы в их последовательности и причинно-следственных связях, анализировать исторические факты и делать обобщения. В исследовании изучены методы развития мышления в процессе преподавания истории, интерактивные технологии обучения, проблемное обучение, критическое мышление, а также формирование навыков самостоятельного вывода на основе исторических источников. В статье выделены психологические детерминанты, такие как мотивация, когнитивная активность, рефлексия и творческий подход преподавателя, оказывающие существенное влияние на развитие логического мышления. Результаты исследования служат научной основой для разработки педагогической модели формирования логического мышления у будущих учителей истории.*

Ключевые слова: *будущий преподаватель истории, логическое мышление, педагогическая детерминанта, психологическая детерминанта, критическое мышление, когнитивная активность, рефлексия, интерактивное обучение, проблемная ситуация, историческое мышление.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING LOGICAL THINKING IN PROSPECTIVE HISTORY TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the pedagogical and psychological determinants of developing logical thinking among prospective history teachers. Logical thinking is described as an essential type of reasoning that enables understanding of historical processes in a coherent and cause-and-effect manner, analyzing historical facts, and forming generalizations. The study examines methods of developing thinking in the process of teaching history, including interactive teaching technologies, problem-based learning, critical thinking, and the development of independent reasoning skills based on historical sources. The article highlights psychological determinants such as motivation, cognitive activity, reflection, and the teacher’s creative approach, which significantly influence the develop-ment of logical thinking. The research results provide a scientific basis for designing a pedagogical model aimed at fostering logical thinking in future history teachers.*

Key words: *prospective history teacher, logical thinking, pedagogical determinant, psychological determinant, critical thinking, cognitive activity, reflection, interactive learning, problem situation, historical thinking.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki tarix fani insoniyat taraqqiyotining murakkab bosqichlarini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning sabab va oqibatlarini anglashni, dalillar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Shu boisdan, tarix o‘qituvchisi nafaqat faktlarni bi-luvchi mutaxassis, balki tafakkur faoliyati yuqori, tanqidiy fikrlashga, tahlil va sintezga qodir shaxs bo‘lishi zarur.

Mantiqiy tafakkur - bu shaxsning voqelikni izchil, asosli va sabab-oqibat bog‘liqligida tahlil qilish, umumlashtirish, solishtirish va xulosa chiqarish qobiliyatini aks ettiruvchi kognitiv jarayondir. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida ushbu sifatlarni shakllantirish, avvalo, ta’lim jarayonida qo‘lla-niladigan pedagogik yondashuvlar, psixologik omillar va o‘qitish metodlariga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlarini o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda o‘quv jarayoniga innovatsion va interfaol metodlarning joriy etilishi, muam-moli ta’lim, tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarining shakllanishi, tarix fanining mazmunini chuqur tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Biroq, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchining shaxsiy motivatsiyasi, refleksiya darajasi, mantiqiy fikrlash madaniyati hamda o‘quvchilarga individual yondashuvi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirishga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik determinantlar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda amaliy yo‘nalishlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mantiqiy tafakkur masalasi qadimdan falsafa, mantiq va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida o‘rganib kelingan. Arastu (Aristotel, mil. avv. IV asr) tomonidan mantiqiy fikrlashning asoslari - silogizm, deduksiya va induksiya qonunlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular zamonaviy mantiqiy tafakkur rivojlanishining nazariy poydevorini yaratgan. Keyinchalik, R. Dekart (1637) o‘zining “Aqlni to‘g‘ri yo‘lga solish qoidalari” asarida tafakkurda izchillik, aniqlik va tahliliy yondashuv tamoyillarini asoslab bergan. XX asrga kelib, J. Piajening (1950) kognitiv rivojlanish nazariyasi tafakkurning yoshga xos bosqichlarda shakllanishini ilmiy asosda izohladi. Unga ko‘ra, mantiqiy tafakkur insonning kognitiv strukturalari - ya’ni tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va sababiylikni tushunish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. L. S. Vigotskiy (1934) esa tafakkurning ijtimoiy-tarixiy tabiatini yoritib, inson tafakkurining ijtimoiy muloqot va ta’lim jarayonida rivojlanishini ilmiy jihatdan isbotladi. Pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan, D. Bruner (1961) va B. Blum (1956) ta’limning kog-nitiv darajalari orqali mantiqiy fikrlashni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ta’kidladilar. B. Blumning “Taxlil, sintez, baholash” bosqichlarini o‘z ichiga olgan taksonomiyasi o‘quvchilarda yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo‘ldi.

O‘zbekistonlik olimlardan M. M. Rahmatova (2019) o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda motivatsiya, o‘qituvchi faoliyati va ta’lim muhitining ahamiyatiga e’tibor qaratgan. Shuningdek, A. Abduqodirov (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mantiqiy tafakkur o‘quv jarayonida mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi asosiy psixologik sifat sifatida baholangan.

Tarix fanini o‘qitish jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalasi ham bir qator tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Xususan, rus pedagoglari I. Ya. Lerner (1974) va M. N. Skatkin (1982) tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muammoli ta’limning o‘rni va o‘qituvchining metodik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, tarixiy hodisalarni sabablilik, izchillik va mantiqiy bog‘liqlik asosida tahlil qilish o‘quvchilarda tarixiy fikrlashni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Psixologik determinatsiya nuqtai nazaridan esa A. N. Leontyev (1977) mantiqiy tafakkurni shaxsning faoliyatga yo‘naltirilgan kognitiv jarayoni sifatida talqin etgan. U fikrlash jarayonining motivatsion asoslari - qiziqish, maqsad va ehtiyojlarning o‘rganishga bo‘lgan ichki turtkisi sifatida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatgan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ushbu masalaga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Sh. Qurbonova (2020) va D. Sattorov (2021) tadqiqotlarida tarix o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida interfaol metodlar, muammoli ta’lim va refleksiv tahlil asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Yuqoridagi manbalardan ko‘rinib

turibdiki, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy aso-slari ko‘p qirrali bo‘lib, uning shakllanishida shaxsning motivatsiyasi, kognitiv faolligi, o‘qituvchin-ing metodik yondashuvi hamda ijtimoiy-madaniy muhitning o‘rni beqiyosdir. Shu bois, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida mantiqiy tafakkurni shakllantirish - pedagogik ta’sir, psixologik determinantlar va innovatsion o‘qitish texnologiyalarining uyg‘un qo‘llanishini talab etadi. Muhokama. Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalasi murakkab, ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadigan jarayondir. O‘tkazilgan nazariy xtahlillar shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy tafakkur o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat intellektual faoliyatning natijasi, balki shaxsning motivatsion, hissiy va ijtimoiy jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, uni shakllantirish jarayonida faqat bilim berish emas, balki o‘qituvchi shaxsining psixologik tayyorgar-ligi, didaktik mahorati va ijodiy faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarix fanini o‘qitishda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun muammoli ta’lim, interfaol metodlar va refleksiv yondashuv eng samarali vositalar hisoblanadi. Chunki bu metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, sabab-oqibat bog‘liqligini tahlil qilish, tarixiy hodisalarga tanqidiy yondashish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, tarixiy faktlarni tahlil qilish jarayonida mantiqiy izchillik, dalillarga tayangan fikrlash va xolis baho berish tafakkurning yuqori bosqichiga olib chiqadi. Psixologik determinantlar nuqtai nazaridan qaralganda, motivatsiya, kognitiv faollik, re-fleksiya va o‘z-o‘zini baholash mantiqiy tafakkurning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ma-salan, o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va qiziqishi kuchli bo‘lmasa, tarixiy faktlarni tahlil qilish yoki umumlashtirish faoliyati yuzaki bo‘lib qoladi. Shu bois o‘qituvchi o‘z darslarida faqat ma’lumot yetkazish bilan cheklanmasdan, balki talabaning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi sharoit yaratishi kerak. Pedagogik determinantlar esa o‘qituvchining metodik yondashuvi, ta’lim muhiti, kommu-nikativ kompetensiyasi va didaktik strategiyasi bilan belgilanadi. Tajriba ko‘rsatadiki, tarixiy mavzularni faqat xronologik bayon qilish emas, balki tahliliy-solishtiruvchi, muammoli, keys-stadi va loyiha asosidagi metodlar orqali o‘rganish mantiqiy tafakkurni sezilarli darajada rivojlantiradi. Masalan, bir tarixiy davrning sabab-oqibatlarini boshqa davr bilan solishtirish, o‘quvchidan dalil-langan xulosalar chiqarishni talab qilish yoki tarixiy shaxslar faoliyatini axloqiy-nazariy nuqtai naz-ardan tahlil qilish kabi topshiriqlar tafakkurni chuqurlashtiradi.

Shuningdek, mantiqiy tafakkurni shakllantirishda raqamli ta’lim muhitlari (multimedia, in-teraktiv platformalar, tarixiy simulyatsiyalar) ham katta imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tarixiy jarayonlarni vizual tahlil qilish, sabab-oqibat zanjirlarini grafik tarzda ifodalash, virtual laboratoriyalar orqali tarixiy eksperimentlar o‘tkazish - bularning barchasi o‘quvchining mantiqiy fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shundaki, mantiqiy tafakkur - bu yakuniy natija emas, balki doimiy ravishda rivojlanib boruvchi kognitiv jarayondir. U o‘qituvchi faoliyatida tajriba, tahlil, baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali takomillashadi. Shu bois, bo‘lajak tarix o‘qituvchi-larini tayyorlash jarayonida mantiqiy tafakkur nafaqat o‘quv fanining bir qismi, balki shaxsiy kasbiy kompetensiya sifatida baholanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish - bu pedagogik ta’sir, psixologik motivatsiya va metodik yangiliklarning uyg‘unlashgan jarayonidir. Agar tarix o‘qituvchisi bu omil-larni bir butun tizim sifatida qo‘llay olsa, natijada nafaqat tarixiy bilim, balki tahliliy va mantiqiy fikrlash madaniyati rivojlangan shaxslar tayyorlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy tahlillar natijasida aniqlanishicha, bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ularning kasbiy shakllanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Man-tiqiy tafakkur tarixiy faktlarni tahlil qilish, tarixiy jarayonlarni sabab-oqibat bog‘liqligida anglash, mustaqil va tanqidiy xulosa chiqarish, hamda tarixiy haqiqatni ilmiy asosda talqin etish qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu jarayonning samaradorligi pedagogik yondashuvlar, psixologik determinantlar va o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalariga bevosita bog‘liqdir.

Pedagogik nuqtai nazardan, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, keys-stadi, loyiha asosidagi o‘qitish, tanqidiy fikrlash texnologiyalari mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda eng samarali vositalar-dan hisoblanadi. Psixologik omillar esa shaxsning motivatsiyasi, kognitiv faolligi, refleksiya darajasi va ijodiy yondashuvi bilan belgilanadi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirish nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini, balki ta’lim jarayonining sifatini oshiradi. Shu sababli, o‘qituvchi tayyorlov dasturlariga mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi interfaol mashg‘ulotlar, tahliliy topshiriqlar, tarixiy manba asosida muammoli vaziyatlarni hal etish metodlarini kiritish muhimdir. Demak, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari kompleks yondashuvni talab qiladi - bu esa o‘qituvchi shaxsining intellektual, emotsional va metodik jihatdan yetuk bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1 Аристотель. Органон. – Афины, IV в. до н. э.
2 Декарт Р.. Рассуждение о методе. – Париж, 1637.
3 Пиаже Ж.. Психология интеллекта. – Лондон : Routledge, 1950.
4 Выготский Л. С.. Мышление и речь. – Москва : Педагогика, 1934.
5 Брунер Дж.. Процесс образования. – Кембридж, MA : Harvard University Press, 1961.
6 Блум Б.. Таксономия образовательных целей. – Нью-Йорк : McKay, 1956.
7 Леонтьев А. Н.. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва : Наука, 1977.

Raxmanova Dildora Abdinabiyevna
O‘zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti

AKA-UKA GRIMMLARNING “RAPUNSEL” ERTAGINING STILISTIK VA KONSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aka-uka Grimmlarning mashhur “Rapunsel” ertagining lingvopoetik va konseptual tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot nemis xalq ertaklaridagi obrazli vositalar, stilistik troplar va ularning konseptual asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada ertak matnidagi metaforalar, o‘xshatishlar va boshqa badiiy ifoda vositalari tizimli tahlil qilinib, ularning semantik yuklamasi, psixologik funksiyasi va mifologik qatlami ochib berilgan. Tahlil jarayonida kognitiv lingvistika, lingvopoetika va psixoanalitik yondashuvlar qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Rapunsel” ertagidagi stilistik vositalar nafaqat estetik maqsadlarga xizmat qiladi, balki xalq dunyoqarashi, arxetipik tasavvurlar va universal insoniy tuyg‘ularni badiiy shaklda ifodalaydi. Ertak matnidagi obrazlar tahlili orqali nemis ertak an'anasining lingvistik xususiyatlari hamda uning Yevropa folklor kontekstidagi o‘rni belgilangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Rapunsel” ertagidagi har bir metafora va o‘xshatish takrorlanmasdan alohida semantik vazifa bajaradi, bu esa Grimm ertaglarining til siyosatining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ertak matnidagi obrazlar tahlili orqali nemis ertak an'anasining lingvistik xususiyatlari, uning Yevropa folklor kontekstidagi o‘rni hamda jahon adabiyotidagi ta’siri belgilangan. Olingan ilmiy natijalar zamonaviy bolalar adabiyotini yaratishda, ertak matnlarini tarjima qilishda va ta’lim jarayonida qo‘llash uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *nemis xalq ertaklari, Grimm aka-ukalari, Rapunsel, stilistik troplar, metafora, konseptual tahlil, lingvopoetika, obrazli vositalar, semantik tahlil, arxetiplar.*

СТИЛИСТИЧЕСКИЙ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СКАЗКИ «РАПУНЦЕЛЬ» БРАТЬЕВ ГРИММ

Аннотация. *В данной статье проводится лингвопоэтический и концептуальный анализ известной сказки братьев Гримм «Рапунцель». Исследование направлено на изучение образных средств, стилистических тропов и их концептуальных основ в немецких народных сказках. В статье систематически анализируются метафоры, сравнения и другие художественные средства выразительности в тексте сказки, раскрывается их семантическая нагрузка, психологическая функция и мифологический пласт. В процессе анализа применяются методы когнитивной лингвистики, лингвопоэтики и психоаналитического подхода. Результаты исследования показывают, что стилистические средства в сказке «Рапунцель» служат не только эстетическим целям, но и выражают в художественной форме народное мировоззрение, архетипические представления и универсальные человеческие чувства. Посредством анализа образов в тексте сказки определяются лингвистические особенности немецкой сказочной традиции и ее место в европейском фольклорном контексте. Согласно результатам исследования, каждая метафора и сравнение в сказке «Рапунцель» выполняет отдельную семантическую функцию без повторений, что является специфической особенностью языковой политики сказок Гримм. Посредством анализа образов в тексте сказки определены лингвистические особенности немецкой сказочной традиции, ее место в европейском фольклорном контексте и влияние на мировую литературу. Полученные научные результаты имеют практическое значение для применения в создании современной детской литературы, переводе сказочных текстов и в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *немецкие народные сказки, братья Гримм, Рапунцель, стилистические тропы, метафора, концептуальный анализ, лингвопоэтика, образные средства, семантический анализ, архетипы.*

STYLISTIC AND CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE GRIMM BROTHERS' FAIRY TALE "RAPUNZEL"

Abstract. *This article conducts a linguopoetic and conceptual analysis of the famous fairy tale "Rapunzel" by the Brothers Grimm. The research focuses on studying figurative devices, stylistic tropes, and their conceptual foundations in German folk tales. The article systematically analyzes metaphors, similes, and other artistic means of expression in the fairy tale text, revealing their semantic load, psychological function, and mythological layer. During the analysis, methods of cognitive linguistics, linguopoetics, and psychoanalytic approaches are applied. The research results show that stylistic devices in the fairy tale "Rapunzel" serve not only aesthetic purposes but also express in artistic form the folk worldview, archetypal representations, and universal human feelings. Through the analysis of images in the fairy tale text, the linguistic features of the German fairy tale tradition and its place in the European folklore context are determined. According to the research findings, each metaphor and simile in the fairy tale "Rapunzel" performs a separate semantic function without repetition, which is a specific feature of the language policy of Grimm's tales. Through the analysis of images in the fairy tale text, the linguistic features of the German fairy tale tradition, its place in the European folklore context, and its influence on world literature are determined. The obtained scientific results have practical significance for application in creating modern children's literature, translating fairy tale texts, and in the educational process.*

Key words: *German folk tales, Brothers Grimm, Rapunzel, stylistic tropes, metaphor, conceptual analysis, linguopoetics, figurative devices, semantic analysis, archetypes.*

Kirish. Nemis xalq ertaklari jahon folklor merosining eng qimmatli qismlaridan biri hisoblanadi. Aka-uka Grimmlar tomonidan XIX asrda to‘plangan va qayta ishlangan ertaklar nafaqat nemis, balki jahon adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Bu ertaklar o‘zining boy obrazlar tizimi, o‘ziga xos personajlar olami va ularning xalq dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqligi bilan ajralib turadi [1]. Ertaklarda namoyon bo‘ladigan obrazlar muayyan badiiy ifoda vositalari orqali xalq hayoti, orzu-umidlari, ijtimoiy qadriyatlari va axloqiy mezonlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bunday obrazlar orqali ertak nafaqat estetik zavq, balki tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi [2].

Nemis ertaklaridagi qahramonlar aksariyat hollarda oddiy xalq vakillari, jumladan, dehqonlar, hunarmandlar yoki kambag‘al yollanma ishchilardan iborat bo‘lib, ular o‘zlarining mehnatsevarligi, mardligi, halolligi va aql-zakovati bilan ajralib turadi. Aka-uka Grimmlar tomonidan to‘plangan ko‘plab ertaklarda uchraydigan “Hans” obrazini misol qilish mumkin. U har doim oddiy, hatto sodda ko‘ringaniga qaramay, aql-idrok va ezgulik vositasida yovuz kuchlar ustidan g‘alaba qozonadi. Bu obraz orqali xalq aql va halollikni yuksak qadrlagani ifodalanadi [3]. Nemis ertaklarining ajralmas qismi bo‘lgan salbiy obrazlar ham o‘ziga xos badiiy yuklamaga ega. Ularga yovuz o‘gay ona, qaroqchi, jodugar, ochko‘z savdogar yoki yirtqich hayvonlar kiradi. Bunday obrazlar orqali yovuzlik, hiyla-nayrang, ochko‘zlik va yolg‘onchilikning salbiy oqibatlari ifodalanadi [4].

Ayniqsa, ayol obrazlari orasida jodugarlar ko‘p uchraydi va ular sehrli kuchlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Bu esa xalq tafakkuridagi arxaik dunyoqarashni, ayol kuchidan bo‘lgan xavotirni aks ettiradi [5]. Nemis xalq ertaklarida ko‘plab g‘ayritabiiy va sehrli obrazlar ham mavjud: sehrgarlar, jinlar, pari qizlar, afsonaviy hayvonlarning barchasi xalqning orzu-umidlarini ramziy shaklda ifodalovchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Masalan, uch istakni bajaruvchi sehrli jonzotlar yoki buyumlar orqali ertak qahramoni o‘z maqsadiga erishadi. Bu esa real hayotdagi qiyinchiliklarga ertakona yechim topishga bo‘lgan ehtiyojning badiiy ifodasidir [6].

Aka-uka Grimmlarning “Rapunsel” ertagi ham nafaqat syujet va xarakterlar jihatidan, balki til vositalari orqali yaratilgan obrazlar bilan ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ertakda ko‘plab obrazli vositalar orqali muhim konseptual tushunchalar ifodalanadi. Zamonaviy lingvistika va adabiyotshunoslikda ertaklarni o‘rganish uchun turli yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular

orasida strukturalistik, psixoanalitik, kognitiv va lingvopoetik metodlar alohida o‘rin tutadi [7]. Ushbu tadqiqotda biz “Rapunsel” ertagini lingvopoetik va konseptual nuqtai nazardan tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, nemis xalq ertaklarining til vositalari va obrazli strukturasini o‘rganish nafaqat folkloristika va adabiyotshunoslik, balki kognitiv lingvistika va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi “Rapunsel” ertagidagi stilistik troplarning lingvistik shakllarini, semantik yuklamasini va konseptual asoslarini tizimli tahlil qilishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: ertak matnidagi metafora va o‘xshatishlarni aniqlash va tasnif etish; obrazli vositalarning konseptual asoslarini ochib berish; stilistik troplarning qahramonlar obrazini yaratishdagi rolini aniqlash; ertak matnidagi obrazli ifodalarning estetik va psixologik funksiyalarini tahlil qilish; olingan natijalarni kognitiv lingvistika va mifopoetika nazariyalari doirasida talqin qilish.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanilgan: deskriptiv metod – ertak matnidagi obrazli vositalarni aniqlash va tasniflash uchun; semantik tahlil metodi – metafora va o‘xshatishlarning ma’no yuklamasini ochib berish maqsadida; konseptual tahlil metodi – obrazli vositalarning konseptual asoslarini aniqlash uchun [8]; kontekstual tahlil metodi – troplarning ertak syujetidagi funksiyasini belgilash maqsadida; qiyosiy tahlil metodi – turli obrazli vositalarni solishtirish va ularning umumiy xususiyatlarini aniqlash uchun.

Tadqiqot materiallari sifatida aka-uka Grimmlarning “Rapunsel” ertagining asl nemischa matni va uning o‘zbekcha tarjimalari tanlab olingan. Matndan barcha metaforik ifodalar, o‘xshatishlar va boshqa stilistik troplar ajratib olinib, alohida tahlil qilindi. Har bir obrazli vosita uchun quyidagi parametrlar aniqlanadi: lingvistik shakli (grammatik konstruksiya); semantik mazmuni (bevosita va ko‘chma ma’nolar); konseptual asosi (kelib chiqish va maqsad sohalari); funksiyasi (tasvir, baholash, emotsional yuklatish).

Tahlil jarayonida George Lakoff va Mark Johnsonning konseptual metafora nazariyasi [9], Zoltán Kövecses ning metafora tipologiyasi [10] hamda Max Lüthi ning ertak poetikasi bo‘yicha tadqiqotlari [1] nazariy asos sifatida qabul qilindi. Shuningdek, Bruno Bettelheimning psixoanalitik yondashuvi [11] va Carl Yungning arxetiplar nazariyasi [12] ham tadqiqot metodologiyasiga kiritildi.

Matndan ajratib olingan obrazli vositalar bir necha bosqichda tahlil qilindi. Birinchi bosqichda barcha metafora va o‘xshatishlar ro‘yxati tuzildi va ularning takrorlanish chastotasi aniqlandi. Ikkinchi bosqichda har bir trop uchun kelib chiqish sohasi (source domain) va maqsad sohasi (target domain) belgilandi. Uchinchi bosqichda obrazli vositalarning qahramonlar xarakterini ochib berishdagi roli tahlil qilindi. To‘rtinchi bosqichda troplarning syujet rivojidagi funksiyasi va dramatik ta’siri baholandi. Beshinchi bosqichda olingan natijalar umumlashtirildi va nazariy jihatdan talqin qilindi.

Natijalar va mulohaza. “Rapunsel” ertagining tizimli tahlili quyidagi muhim natijalarni berdi. Matn tarkibida jami o‘n bitta metafora va uchta o‘xshatish (Vergleich) konstruksiyasi aniqlandi. O‘xshatishlar mazkur matnda faqat “wie” (kabi) bog‘lovchisi orqali ifodalangan bo‘lib, ular ertak qahramonlarining xarakteristikasini berish va voqealarni tasvirlashda muhim rol o‘ynagan [13]. Masalan, Rapunselning otasi sehrgarning bog‘iga “wie ein Dieb” – “o‘g‘ri kabi” kiradi. Bu o‘xshatish orqali otaning qilmishi noqonuniy harakat sifatida ta’kidlanadi va keyingi voqealar uchun asos yaratiladi. Sehrgar ayol esa qizga “wie eine Mutter” – “ona kabi” g‘amxo‘rlik qilishni va’da qiladi. Bu o‘xshatish orqali sehrgar ayolning boshlang‘ich obrazi mehribon va g‘amxo‘r sifatida ko‘rsatiladi, lekin ertak davomida bu obraz tubdan o‘zgaradi.

Rapunselning sochlari esa “fein wie gesponnen Gold” – “ipga aylantirilgan oltindek nozik” sifatida tasvirlanadi. Bu murakkab o‘xshatishda ikkita element mavjud: noziklik (fein) va oltin rangdagi yorqinlik (Gold). Soch obrazi ertak uchun markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat Rapunselning go‘zalligi timsoli, balki uning qamaldi holatining ramzi hamdir. Uzun soch minoradan pastga tushirilishi orqali tashqi dunyo bilan aloqa o‘rnatiladi, bu esa sochni simvolik ko‘prik yoki bog‘lovchi element sifatida ko‘rsatadi [14].

Matnda hech bir metafora yoki o‘xshatish takrorlanmaydi, shuning uchun ularning har biri alohida birlik sifatida baholanadi va o‘ziga xos semantik vazifa bajaradi. Bu xususiyat

Grimmlarning til siyosati va ertak estetikasining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Har bir obraz yangi ma’no qatlami ochadi va ertak mazmunini boyitadi [15]. Masalan, Rapunsel nafaqat “ipdek nozik oltindek sochlar” egasi sifatida, balki “shirali ovoz” bilan ham tasvirlanadi. Bu metafora orqali Rapunselning ovozi shirin ta’m sezgisi bilan bog‘lanadi, ya’ni eshitish va ta’m modalliklari qo‘shiladi. Bunday sinesteziya (sezgilar qo‘shilishi) obrazning emotsional ta’sirini kuchaytiradi va qahramonning jozibadorligini ko‘p qirrali ko‘rsatadi.

Sehrgar ayol esa shahzodaga Rapunselning endi yo‘qligini anglatish uchun “schöner Vogel” – “go‘zal qush” metaforasidan foydalanadi. Bu metafora orqali Rapunselning erkinligi, nozikligi va asirlikdan qutulishi obrazli tarzda ifodalanadi. Qush obrazi ko‘plab madaniyatlarda erkinlik va osmonga uchish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu yerda ham Rapunsel qafasdagi qushga o‘xshatiladi [1]. Avvaliga sehrgar ayol Rapunselni mehr bilan parvarish qilmoqchi bo‘lishi, uni ona kabi asrash istagi bilan namoyon bo‘ladi. Bu mehribon sehrgar obrazi orqali ota tomonidan farzandini begona ayolga topshirish holati o‘quvchi nazarida oqlangandek bo‘ladi. Ammo ertak davomida Rapunselning istaklariga qarshi harakatlar sodir bo‘lgan sari sehrgar ayolning obrazida salbiy metaforik o‘zgarishlar yuz beradi.

Sehrgar ayol Rapunsel bilan bo‘lgan munosabatda uni qirol o‘g‘liga munosabati uchun “zaharlovchi nigoh” bilan jazolaydi va o‘zini mushukka, Rapunselni esa “qush”ga qiyoslaydi. Bu yerda ishlatilgan “mushuk-qush” metaforasi nafaqat baholovchi balki tasviriy (illustrativ) xususiyatga ham ega [2]. U quyidagi nutq parchasida aniq namoyon bo‘ladi: “du willst die Frau Liebste holen, aber der schöne Vogel sitzt nicht mehr im Nest und singt nicht mehr, die Katze hat ihn geholt und wird dir auch noch die Augen auskratzen. Für dich ist Rapunsel verloren” (Sen sevgilingni olib ketishni xohlaysan, lekin go‘zal qush endi inida yo‘q, u boshqa kuylamaydi. Mushuk uni olib ketdi va u sening ham ko‘zlaringni tirnaydi. Sen uchun Rapunsel endi yo‘q).

Bu metaforik ifoda ertak syujetining dramatik cho‘qqisidir. Sehrgar ayol o‘zini yirtqich mushuk, Rapunselni esa himoyasiz qush sifatida tasvirlash orqali kuch nisbatlarini aniq ko‘rsatadi. Mushuk obrazi yirtqichlik, hiyla va zo‘ravonlik bilan bog‘liq, qush obrazi esa zaiflik, go‘zallik va ozodlik istagini anglatadi [3]. Shahzoda sevganidan judo bo‘lganidan keyin o‘zini tikanlar ichiga tashlaydi. Bu hodisa syujetda keskin burilish yasab, ilgari sehrgar ayol tomonidan ishlatilgan metaforaning kuchli tasviriy kuchga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shahzodaning ko‘r bo‘lib qolishi nafaqat jismoniy, balki ruhiy azobni ham ifodalaydi. Ko‘rlik motivasi ko‘plab ertak va miflarda bilimdan mahrum bo‘lish yoki haqiqatni ko‘ra olmaslik bilan bog‘liq [4].

Bu holat nafaqat syujetning dramatik cho‘qqisiga olib chiqadi, balki obrazli vositalarning syujetda qanday faol rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Sehrgar ayol tomonidan aytilgan “Mushuk uya ichidagi qushni oldi” metaforasi o‘quvchining tasavvurida aniq manzara yaratadi. Bu ertakdagi eng kuchli metaforalardan biri sifatida baholanishi mumkin, chunki u bir vaqtning o‘zida tasvir, baholash va ramziy ma’nolarni birlashtiradi [5]. Bundan tashqari, quyidagi metaforalar “die süße Stimme” (qahramonning shirin ovozi), “der giftige Blick” (sehrgar ayolning zaharli nigohi) ertak syujetida alohida ahamiyat kasb etgan. Zaharli nigoh metaforasi orqali sehrgar ayolning ichki yovuzligi va zararli ta’siri ifodalanadi. Zahar obrazi o‘limga va yo‘q qilishga ishora qiladi, bu esa sehrgarning haqiqiy tabiatini ochib beradi [6].

“Rapunsel” ertagida eng ko‘p uchraydigan metafora va o‘xshatishlar qahramon Rapunsel obraziga taalluqlidir. Diqqatga sazovor jihati shundaki, aynan qahramonlarning tashqi ko‘rinishlari ko‘pincha til vositalari orqali tasvirlanadi. Uning sochlari ikki marotaba, ovozi esa bir marotaba konseptual tarzda tilga olinadi. Bu takrorlanish Rapunsel obrazining markaziy ahamiyatini ta’kidlaydi. Soch va ovoz – bu Rapunselning ikki asosiy belgisi bo‘lib, ular orqali u tashqi dunyo bilan aloqa o‘rnatadi [7]. Ikkinchi o‘rinda esa shahzoda va qarama-qarshi qahramon (yovuz sehrgar)ga oid tasviriy ifodalar uchraydi. Shahzoda obrazi kam so‘zlar bilan berilgan bo‘lsa-da, uning “yurak” (Herz) metaforasi orqali ichki his-tuyg‘ulari ifodalanadi. “Sein Herz war bewegt” (uning yuragi qo‘zg‘aldi) kabi iboralar orqali shahzodaning muhabbati va ishtiyoqi ko‘rsatiladi.

Faqat “OBYEKT” konsepti ikki marta uchraydi. Boshqa kelib chiqish sohalari – masalan: o‘g‘ri (Dieb), ona (Mutter), oltin (Gold) yoki yoqimli ta’m sezgisi (angenehme Geschmacksrichtung) har biri bir martadan tilga olingan. Oxirgisi, ya’ni ta’m sezgisi, ayniqsa

qiziqarli bo‘lib, u maqsad sohasi sifatida ovozga nisbatan ishlatilgan. Bu yerda turli sezgi darajalari (modalitetlar) qo‘shilib, ya’ni eshitish hissi ta’m hissi orqali yanada yaqqolroq ifodalangan [8]. Maqsad sohalari orasida esa “hayot” (Leben) va “yurak” (Herz) kabi keng tarqalgan, klassik konseptlar mavjud bo‘lib, ular odatda tuyg‘ular bilan bevosita bog‘liqdir. Sehrgarning nigohi va shahzodaning yuragi orqali esa ichki psixologik holatlar metaforik tarzda ifodalangan, bu esa obrazlar hissiyotini ifodalashda metaforalarning emotsional yuklama sifatida ishlatilayotganini ko‘rsatadi [9].

Shuningdek, bu tahlil ertakdagi metaforik vositalarning estetik ta’sirini ham tahlil qiladi: ko‘p holatlarda bu obrazlar takrorlanmasligi, har birining alohida semantik vazifasini ta’minlaydi. OBYEKT konsepti na Kohl, na Kövecses izlanishlarida uchraydi, ammo Lakoff va Johnson tomonidan tipik kelib chiqish sohasi sifatida ko‘rsatilgan [9]. Xuddi shuningdek, oltin (Gold) konsepti ham lingvistik tadqiqotlarda kam uchramasa-da, ertalardagi universal ishlatiladigan sohalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Oltin obrazi boylik, qadrlillik va go‘zallik bilan bog‘liq bo‘lib, Rapunselning sochlarini tasvirlashda bu uchta ma’no qatlami birlashadi [10].

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, ertakdagi obrazli vositalar, xususan, soch, ko‘z, ovoz kabi detallarning metaforik va konseptual ifodalanishi orqali mazmun boyitilgan. Zoltán Kövecses, Lakoff va Johnson hamda boshqa tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, bu kabi metaforalar tili orqali madaniy qadriyatlar va insoniy his-tuyg‘ularni yetkazish ertakning asosiy vazifasiga aylanadi [10]. Ertakdagi obrazli ifodalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Grimm ertaklarida til vositalari orqali estetik va tarbiyaviy maqsadlar uyg‘unlashtirilgan. Simvollar, xususan minora, soch, bog‘, ko‘r bo‘lib qolish, cho‘l kabilarning barchasi inson hayotining muhim bosqichlari: ajralish, yetilish, azob, tozalish, qayta tug‘ilish kabi universal arxetiplarga tayanadi [11].

Yung talqinida bu elementlar individuatsiya jarayoni, ya’ni insonning o‘zligini topishga qaratilgan ichki sayohatini ifodalaydi [12]. Minora obrazi izolyatsiya va qamaldi joyni anglatadi, bu Rapunselning voyaga yetish davridagi o‘sish jarayonini ramziy ifodalaydi. Minoradan chiqish esa kattalar dunyosiga kirish, yangi bosqichga o‘tish demakdir. Sochni kesish motivi ko‘plab madaniyatlarda o‘zgarish va yangilanish bilan bog‘liq bo‘lib, Rapunsel uchun bu avvalgi hayotdan ajralish va yangi shaxsiy identifikatsiyani boshlashni bildiradi [13]. Epitetlar (oltin, uzun, chiroyli va boshqalar) vositasida obrazlar badiiy jihatdan bezatiladi va o‘quvchining e'tibori Rapunselning timsoliga qaratiladi. Bu epitetlar nafaqat tashqi go‘zallikni, balki ichki sifatlarni ham ifodalaydi: poklik, begunohlik, buyuk salohiyat [14].

Yig‘ilgan ilmiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, “Rapunsel” ertagidagi stilistik troplar mazkur matnning semantik, psixologik va estetik strukturasini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Troplarning tizimli tahlili ertakning badiiy tabiatini, uning konseptual metaforik asoslarini, qahramonlarning psixologik transformatsiyasini va mifologik qatlamini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shunday qilib, “Rapunsel” ertagini lingvopoetik nuqtai nazardan o‘rganish nafaqat bu ertakning mazmuniy qatlamini ochib beradi, balki uning Yevropa ertak an'anasi doirasidagi badiiy va psixologik o‘rnini belgilashga ham xizmat qiladi [15].

Bundan tashqari, nemis xalq ertaklarida sehrli va ramziy obrazlar o‘ta muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat syujet rivojiga turtki beradi, balki xalqning metafizik tasavvurlari, qadimiy e'tiqodlari va orzu-umidlarini badiiy ifodalashda asosiy rol o‘ynaydi. Sehrli obrazlar ko‘pincha tabiiy qonuniyatlardan chetda turgan kuchlar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, jinlar, afsonaviy mavjudotlar (ajdaho, odamsimon hayvonlar), sehrgarlar, sehrli buyumlar (sehrli tayoq, gapiruvchi qush) orqali insonlar erishib bo‘lmasdek tuyulgan maqsadlariga yetishadi [1]. Grimm aka-ukalarning “Sehrli qush”, “Oltin g‘oz” yoki “Uch istak” kabi ertaklarida sehrli kuch syujetni oldinga siljituvchi markaziy element sifatida xizmat qiladi.

Sehrli obrazlarning yaratilishida qadimiy mifologik qatlamlar seziladi. Masalan, o‘rmon jinlari yoki tog‘ devlari obrazlari nemis xalqining qadimiy german e'tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘rmon yoki tog‘ kabi joylarning sehrli va sirli kuchga egaligi haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi [11]. Ramziy obrazlar esa muayyan tushunchalarni timsollar orqali ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, o‘rmon nemis ertaklarida ko‘pincha hayot yo‘lining sinovlarga to‘la bosqichini ifodalaydi. Qahramon o‘rmon ichiga kiradi – bu uning ichki o‘sish va taraqqiyoti

yo‘lidagi ramziy bosqichidir. Malika obrazlari odatda go‘zallik va poklik timsoli, ajdaho yovuz kuchlar yoki inson nafsi ifodasi bo‘lib xizmat qiladi [12].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, “Rapunsel” ertagidagi stilistik vositalar faqat badiiy bezak vazifasini emas, balki chuqur psixologik va ijtimoiy ma'nolarni ham ifodalaydi. Ertak matnida qayta-qayta uchraydigan minora obrazi ayolning jamiyatdagi izolyatsiyasi va cheklanganligining universal ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Sehrgarning soch orqali minoraga chiqishi va shahzodaning xuddi shu usuldan foydalanishi matndagi simmetriya va ziddiyatni yaratadi – birinchi holda soch qamoqxona vositasiga, ikkinchi holatda esa ozodlik simboliga aylanadi. Bu ikki tomonlama semantik funksiya ertak tilining kontseptual boyligini ko'rsatadi va o'quvchiga bir obrazning turli kontekstlarda qanday qarama-qarshi ma'nolarga ega bo'lishi mumkinligini anglash imkonini beradi.

Ertak matnidagi joy-nomlar va fazoviy tasvirlarning stilistik tahlili nemis xalq ertagining keng geografik va madaniy kontekstga ega ekanligini tasdiqlaydi. Minora, o'rmon va bog' obrazlarining o'zaro ta'siri ertak dunyosining vertikal va gorizontal tuzilishini shakllantiradi: minora yuqori, osmon bilan bog'langan olam, o'rmon xavfli, ammo imkoniyatlar to'la o'rta olam, bog' esa inson istak va ehtiyojlari bilan bog'liq quyi olam sifatida taqdim etiladi. Bu uch fazoviy qatlamning tilga tasviri nemis folklorining mifologik ongini aks ettiradi va Yevropaning boshqa xalq ertaklari bilan umumiy arxetipik asoslarga ega ekanligini namoyish etadi. Shu bilan birga, Grimm aka-ukalari tomonidan qayta ishlangan matnda bu arxetiplar aniq nemis tili va madaniy xususiyatlarining o'ziga xos shakli orqali ifodalangan.

Xulosa va tavsiyalar. Aka-uka Grimmlarning “Rapunsel” ertagining stilistik va konseptual tahlili quyidagi asosiy xulosalarni beradi. Birinchidan, ertak matni lingvistik jihatdan boy va ko‘p qatlamli struktura sifatida namoyon bo‘ladi. Matnda aniqlangan o‘n bitta metafora va uchta o‘xshatish har biri o‘ziga xos semantik vazifa bajaradi va ertak mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Metaforalar va o‘xshatishlarning takrorlanmasligi Grimm ertaglarining til siyosatining o‘ziga xosligi hisoblanadi.

Ikkinchidan, obrazli vositalar ertak qahramonlarining xarakterini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Rapunsel obrazi eng ko‘p metaforik ifodalar bilan bog‘liq bo‘lib, uning sochlari, ovozi va umumiy obrazi turli konseptual sohalar orqali ifodalanadi. Bu qahramon obrazining ko‘p qirraliligini va ertakdagi markaziy o‘rnini ta’kidlaydi. Sehrgar ayol obrazi esa metaforik transformatsiya orqali mehribondan yovuz shaxsga o‘tish jarayonini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, metaforalar nafaqat estetik, balki psixologik va tarbiyaviy funksiya ham bajaradi. “Mushuk va qush” metaforasi orqali kuch munosabatlari, “zaharli nigoh” orqali ichki yovuzlik, “oltin sochlar” orqali go‘zallik va qadrlillik ifodalanadi. Bu obrazlar o‘quvchida emotsional ta’sir qoldiradi va ertak g‘oyasini chuqurroq anglashga yordam beradi.

To‘rtinchidan, ertak matnidagi stilistik troplar universal arxetiplar va mifologik qatlamlarga tayanadi. Minora, soch, ko‘rlik, cho‘l kabi obrazlar turli madaniyatlarda uchraydigan umumiy ramziy tizimga kiradi. Bu esa “Rapunsel” ertagining nafaqat nemis, balki umuminsoniy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, konseptual metafora nazariyasi ertak matnini tahlil qilishda samarali vosita ekanligi isbotlandi. Kelib chiqish va maqsad sohalari, sezgilar qo‘shilishi (sinesteziya), konseptual o‘tkazmalar kabi tushunchalar orqali ertak tilining chuqurligi va boyligini ochib berish mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar beriladi. Birinchidan, nemis xalq ertaklarining lingvopoetik tadqiqotlarini kengaytirish lozim. Boshqa Grimm ertaglarining stilistik tahlili qiyosiy natijalar olish va umumiy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ertaklarning o‘zbek va boshqa tillarga tarjimalarida metaforik ifodalarni saqlab qolish masalasiga alohida e'tibor berish zarur. Ko‘plab metaforalar madaniyga xos xususiyatga ega bo‘lib, ularni boshqa tilga o‘tkazishda ma’no yo‘qotilishi mumkin. Uchinchidan, ertak matnlarini ta’lim jarayonida qo‘llashda stilistik vositalarning psixologik va tarbiyaviy ta’sirini hisobga olish kerak. To‘rtinchidan, zamonaviy bolalar adabiyotini yaratishda an'anaviy ertak poetikasining ilmiy asoslanmagan tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, nemis xalq ertaklaridagi stilistik troplar nafaqat estetik vosita, balki janrning strukturaviy va ma'no hosil qiluvchi elementlaridir. Troplar orqali ertaklar nafaqat voqeani bayon qiladi, balki inson ongining arxetipik qatlamlarini, milliy-madaniy tasavvurlarni, ijtimoiy tajribalarni, axloqiy universallarni badiiy shaklda mujassamlaydi. Shu bois nemis ertaklarining troplar tizimini o'rganish nafaqat lingvopoetik jihatdan, balki psixoanalitik, strukturalistik, kognitiv va mifopoetik nuqtai nazardan ham ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi. Kelajakda bu yo'nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borish, turli ertak matnlarini qiyoslash va ularning til vositalarini tizimli o'rganish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Lüthi M. Das europäische Volksmärchen. Form und Wesen. – Tübingen: Francke Verlag, 1977. – 156 s.
2. Propp V. Morphology of the Folktale. – Austin: University of Texas Press, 1968. – 168 p.
3. Zipes J. The Brothers Grimm: From Enchanted Forests to the Modern World. – New York: Routledge, 1988. – 304 p.
4. Tatar M. The Hard Facts of the Grimm's Fairy Tales. – Princeton: Princeton University Press, 1987. – 255 p.
5. Röhrich L. Märchen und Wirklichkeit. – Wiesbaden: Steiner Verlag, 1979. – 342 s.
6. Röhrich L. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. – Freiburg: Herder Verlag, 1991. – 1896 s.
7. Warner M. From the Beast to the Blonde: On Fairy Tales and Their Tellers. – London: Vintage, 1994. – 464 p.
8. Rölleke H. Die Märchen der Brüder Grimm: Eine Einführung. – München: C.H. Beck, 2004. – 128 s.
9. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
10. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 396 p.
11. Bettelheim B. The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. – New York: Knopf, 1976. – 328 p.
12. Jung C.G. Archetypen und das kollektive Unbewusste. – Zürich: Rascher, 1954. – 464 s.
13. Neumann E. The Great Mother: An Analysis of the Archetype. – Princeton: Princeton University Press, 1955. – 379 p.
14. Eliade M. Patterns in Comparative Religion. – Chicago: University of Chicago Press, 1958. – 484 p.
15. Cirlot J.E. A Dictionary of Symbols. – London: Routledge, 1971. – 419 p.

Sharipova Sitora Shahriddin qizi
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Pedagogik kompetentlik o‘qituvchining kasbiy mahorati, psixologik tayyorgarligi, kommunikativ madaniyati hamda faoliyatining o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi kabi muhim ko‘rsatkichlardan biri sifatida tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tizimida pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchining refleksiv, ijtimoiy, metodik va kommunikativ kompetentligini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, pedagogik kompetentlik, o‘qituvchi shaxsi, kasbiy mahorat, innovatsion yondashuvlar, kommunikativ kompetentlik, refleksiv faoliyat, zamonaviy pedagogika.*

ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация*. В данной статье рассматриваются особенности формирования педагогической компетентности учителя начальных классов. Педагогическая компетентность анализируется как один из важнейших показателей профессионального мастерства, психологической готовности, коммуникативной культуры и направленности деятельности учителя на развитие личности учащегося. В статье также раскрываются вопросы развития личностных и профессиональных качеств педагога в системе начального образования, применения инновационных подходов и современных педагогических технологий. Результаты исследования способствуют определению направлений совершенствования рефлексивной, социальной, методической и коммуникативной компетентности учителя.*

Ключевые слова*: начальное образование, педагогическая компетентность, личность учителя, профессиональное мастерство, инновационные подходы, коммуникативная компетентность, рефлексивная деятельность, современная педагогика.*

SPECIFIC FEATURES OF THE PEDAGOGICAL COMPETENCE OF A PRIMARY SCHOOL TEACHER

Abstract*. This article explores the specific features of developing the pedagogical competence of primary school teachers. Pedagogical competence is analyzed as one of the key indicators of a teacher’s professional mastery, psychological readiness, communicative culture, and focus on the development of the student’s personality. The article also discusses the development of personal and professional qualities of teachers in the primary education system, as well as the application of innovative approaches and modern pedagogical technologies. The research results help identify directions for improving teachers’ reflective, social, methodological, and communicative competencies.*

Key words*: primary education, pedagogical competence, teacher’s personality, professional skills, innovative approach, communicative competence, reflective activity, modern pedagogy.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammosi ilmiy-amaliy masalalarning eng dolzarblaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab bolalarning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, pedagogik jarayon tashkilotchisi va qulay psixologik muhit yaratuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik kompetentlik - bu o‘qituvchining professional muvaffaqiyatining asosi bo‘lib, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni, kommunikativ madaniyatni, refleksiv tafakkurni hamda ta’limga innovatsion yondashuvni o‘z ichiga oladi. Raqamlashtirish, inkluziv ta’lim va shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar sharoitida pedagogik kompetentligini shakllantirishga oid yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilmoqda.

Mazkur maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligining mohiyati, tuzilishi va rivojlanish omillarini ilmiy-nazariy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Mavzuning dolzarbligi. Ta’lim tizimidagi zamonaviy islohotlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsi va kasbiy faoliyatiga nisbatan yangi talablarni ilgari surmoqda. Globallashuv, raqamlashtirish va ta’limga innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi sharoitida pedagogning pedagogik kompetentlik darajasi o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolaning shaxs sifatida shakllanishida, uning bilish faoliyati, axloqiy va ijtimoiy sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining pedagogik kompetentligi nafaqat o‘quvchilarning bilim sifati, balki ularning hissiy holati, o‘qishga motivatsiyasi va keyingi o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik kompetentligini rivojlantirish doimiy professional o‘sishni, refleksiyani, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni va innovatsion faoliyatga tayyorlikni talab etadi. Shu bois uning shakllanish xususiyatlarini tadqiq etish pedagogika fani va amaliyotining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Shunday qilib, mavzuning dolzarbligi pedagogik kompetentligining tuzilishi, mazmuni va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni zamonaviy ta’lim sharoitida har tomonlama tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik fan tadqiqotlarida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Mahalliy va xorijiy olimlar (A. A. Derkach, E. N. Shiyanov, V. A. Slastyonin, N. V. Kuzmina, I. F. Isaev, L. M. Mitina, V. V. Serikov va boshqalar) pedagogik kompetentlikni pedagogning professional faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi integrativ shaxsiy sifat sifatida talqin qiladilar.

V. A. Slastyonin pedagogik kompetentlikni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, shaxsiy sifatlar va kasbiy qadriyatlarning birligi sifatida talqin qiladi. N. V. Kuzmina esa kompetentlikning asosi pedagogning refleksiya, o‘z-o‘zini tahlil qilish va faoliyat natijalarini oldindan ko‘ra bilish qobiliyatida ekanligini ta’kidlaydi.

Zamonaviy tadqiqotchilar (L. A. Petrova, T. A. Kulikova, N. A. Nikitina) pedagogik kompetentlikning tarkibiy qismlariga kognitiv, motivatsion-qadriyatli, kommunikativ va faoliyat komponentlarini kiritadilar. Jumladan, pedagog o‘quv materialini o‘quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtira olishi, innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanishi va ijobiy o‘quv muhitini yaratishi zarur.

Boshlang‘ich ta’lim kontekstida pedagogik kompetentlik alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu bosqichda o‘quv motivatsiyasi, bilish faolligi va ijtimoiy xulq-atvorning asosi shakllanadi. S. G. Molchanova va O. V. Rubtsova tadqiqotlari yuqori pedagogik kompetentlik o‘qituvchining emotsional intellekti, tolerantligi va pedagogik takti rivojlanishiga yordam berishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligi professionallik, shaxsiy qadriyatlar va innovatsion faoliyatga tayyorlikni o‘z ichiga olgan murakkab, ko‘p komponentli hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligi - bu nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, pedagogik tafakkur va shaxsiy qadriyatlarning integratsiyasiga asoslangan tizimli shaxsiy sifat ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim muhitida pedagogik kompetentligini rivojlantirish nafaqat kasbiy bilimlarni takomillashtirishni, balki pedagogning doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga, refleksiyaga va innovatsion faoliyatga tayyorligini shakllantirishni ham talab etadi.

Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik, kommunikativ, axborot, psixologik va ijtimoiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur. Har bir kompetensiya o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlashda o‘ziga xos rol o‘ynaydi.

Alohida e’tibor refleksiv kompetensiyani rivojlantirishga qaratilishi kerak, chunki u pedagogga o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglash, faoliyatini tahlil qilish va uni takomillashtirish imkonini beradi.

Pedagogik kompetentligini shakllantirish tegishli tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni taqozo etadi: malaka oshirish, mentorlik, tajriba almashish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va interaktiv usullarni qo‘llash shular jumlasidandir.

Shunday qilib, pedagogik kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, pedagogning oliy ta’limdan boshlab amaliy faoliyatgacha bo‘lgan barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Tadqiqot komponenti	**Qisqa mazmuni**
Mavzu:	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogik kompetentligining xususiyatlari
Obyekt:	Zamonaviy ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faoliyati
Predmet:	Pedagogik kompetentligining tuzilishi, mazmuni va shakllanish xususiyatlari
Maqsad:	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligini shakllantirishning xususiyatlarini nazariy asoslash
Gipoteza:	Pedagogik kompetentlik shaxsga yo‘naltirilgan va kompetentlik yondashuvlari, refleksiya va innovatsion texnologiyalar asosida samarali shakllanadi
Metodologik asos:	Kompetentlik, shaxs-faoliyat va tizimli yondashuvlar (V. A. Slastyonin, N. V. Kuzmina, E. N. Shiyanov, L. M. Mitina)
Metodlar:	Teoretik - tahlil, sintez, taqqoslash; Empirik - anketa, kuzatish, suhbat; Analitik - ma’lumotlarni talqin qilish
Tadqiqot bazasi:	Buxoro shahri ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari
Amaliy ahamiyati:	Natijalar pedagoglar malakasini oshirish tizimida va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun professional rivojlanish dasturlarini yaratishda qo‘llanilishi mumkin

Jadvaldagi ma’lumotlar tadqiqotning aniq metodologik asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Har bir komponent ilmiy izlanishning mantiqiy ketma-ketligini ta’minlaydi. Obyekt - o‘qituvchining kasbiy faoliyati - kompetentligining real shakllanish maydonini belgilaydi. Predmet esa ushbu jarayonning aniq tarkibiy qismlariga yo‘naltirilgan.

Gipoteza innovatsion, refleksiv va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning kompetentlik shakllanishidagi dolzarbligini ta’kidlaydi. Tanlangan metodologik asos kompetentlikni kompleks tizim sifatida o‘rganishga imkon beradi. Metodlar majmuasi tadqiqotni nazariy va amaliy jihatdan asosli qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligi uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining asosiy sharti ekanini ko‘rsatdi. Adabiyotlarni tahlil qilish pedagogik kompetentlik - bu professional bilim, ko‘nikma, qadriyatlar, pedagogik tafakkur va refleksiv qobiliyatlarni o‘z ichiga olgan integrativ sifat ekanini tasdiqladi. Aniqlandi-ki, pedagogik kompetentligining samarali shakllanishi o‘qituvchining professional tayyorgarligi, shaxsiy sifatlari, o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorligi va innovatsion faoliyatga ochiqligiga bog‘liq. Shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kompetentlik yondashuvlari pedagogning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Сластенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика. – Москва: Академия, 2013.

2. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – Москва: Высшая школа, 1990.

3. Митина Л. М. Психология профессионального развития учителя. – Москва: МГППИ, 2004.

4. Сериков В. В. Личностно-ориентированное образование: проблемы и перспективы. – Волгоград: Перемена, 1994.

5. Деркач А. А. Акмеология. – Санкт-Петербург: Питер, 2002.

6. Чошанов М. А. Гибкая технология проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 2010.

7. Петрова Л. А. Компетентностный подход в подготовке будущего учителя начальных классов. – Москва: Педагогика, 2018.

8. Куликова Т. А. Педагогическая компетентность учителя: структура и основы формирования. – Новосибирск: НГПУ, 2015.

9. Никитина Н. А. Формирование профессиональных компетенций педагогов в условиях современного образования. – Москва: Смысл, 2019.

10. Малова С. Г., Рубцова О. В. Эмоциональный интеллект и педагогический такт учителя начальных классов. // Психология и образование. – 2020. – №4. – С. 55–63.

11. Зимняя И. А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

12. Маркова А. К. Психология труда учителя. – Москва: Просвещение, 1996.

13. Sh. Sharipova. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.

Suvonkulov Alisher Zayirivich
Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TARIX TO'GARAKLARNING METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda tarix to'garaklarning metodik imkoniyatlari bayon etilgan. Shuningdek maqolada, bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy tafakkur va kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar*: pedagogik kompetensiya, tarixiy tafakkur, milliy mentalitet, ijtimoiy kompetensiya, AKT.*

METHODOLOGICAL OPPORTUNITIES OF HISTORY CLUBS IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE HISTORY TEACHERS

Abstract*. This article describes the methodological possibilities of circles based on the socio-philosophical and pedagogical interpretation of the concepts of "historical thinking" and "professional competence". The article also describes the pedagogical conditions for improving the professional competence of future teachers through historical thinking.*

Key words*: pedagogical competence, historical thinking, national mentality, social competence, ICT.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСТОРИЧЕСКИХ КРУЖКОВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Аннотация*. В статье рассматриваются методические возможности кружков, основанные на социально-философском и педагогическом осмыслении понятий «историческое мышление» и «профессиональная компетентность». Также рассматриваются педагогические условия совершенствования профессиональной компетентности будущих учителей посредством исторического мышления.*

Ключевые слова: *педагогическая компетентность, историческое мышление, национальный* менталитет, социальная компетентность, ИКТ.

Tarixdan bizga ma'lumki, har bir millatning taraqqiyotida uning o'tmishi va buguni o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro uzviylik, aloqadorlik o'ziga xos o'rin tutadi. Millat, xalqning o'tmishi "organik ravishda" uning buguni uchun poydevor sanaladi. Binobarin, xronologik rivojlanishning muayyan davrida ro'y bergan voqea, hodisa va jarayon "izsiz yo'qolmaydi", aksincha, yangi ko'rinish, shaklda, yanada takomillashgan holda namoyon bo'ladi. Millatning o'z o'tmishidan xabardor bo'lishi o'zi mansub bo'lgan mental xususiyatlar (milliy xarakter xususiyatlari) mohiyatini anglash, uning ijobiy tomonlarini boyitish, kamchiliklarini bartaraf qilish orqali istiqbolni belgilashga yordam beradi. "Milliy xarakter xislatlariga ega bo'lish milliy o'zlikni anglashga xizmat qiladi. Milliy o'zlikni anglash esa shaxsning o'zgalarga qaram, tobe bo'lmasligi hamda haq-huquqlarining kamsitilmasligini ta'minlaydi. O'zgalarga tobe bo'lmagan shaxs esa erkin, mustaqil bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'z imkoniyatini namoyon eta oldi".[1,4]

O'zbekiston Respublikasining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son (8-oktyabr 2019-yil), "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6079-son (2020-yil 5- oktyabr), "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son (2022-yil 29-yanvar) Farmonlari, "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son (2020-yil 27-fevral) Qarori, shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror

rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 83-son (2022-yil 21-fevral) Qarori kabi me'yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur izlanishlar muayyan darajada xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda “milliy xarakter” tushunchasiga muqobil tarzda “milliy mentalitet” atamasi ham qo‘llanilmoqda. Ushbu tushuncha negizida quyidagi mazmunan ifodalanadi: “millatning tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda kamolga yetgan qobiliyati va ruhiy quvvati. Bu tushuncha millatga xos an'analar, rasm-rusumlar, urfodatlar, diniy e'tiqodni ham o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida u muayyan millatga mansub kishining turmush tarzi, fikrlashi, dunyoqarashini ham bir qadar belgilaydi, gohida uni baholash uchun asos bo‘ladi”.[2,111] Demak, millatning o‘z o‘tmishidan yetarli darajada xabardorligi unda milliy mentalitet sifatlarini shakllantiradi. Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish jarayonini samarali tadqiq qilish, uning mohiyatini to‘laqonli yoritish uchun ilmiy izlanish uchun “yadro” vazifasini bajaruvchi tayanch tushunchalarni ajratib olish va ular orqali qanday mazmun yoritilishidan xabardor bo‘lish ilmiy-pedagogik faoliyatni to‘g‘ri, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Shu bois tadqiqotning umumiy mohiyatidan kelib chiqqan holda quyida tayanch tushunchalarni pedagogik nuqtai nazardan talqin qilish kutilgan natijaga erishish imkoniyatini yaratadi, degan fikrga kelindi: tafakkur, tarixiy tafakkur, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, takomillashtirish.

Tafakkur psixologik kategoriya sanaladi. Shu sababli ko‘plab psixologik manbalarda tafakkur sezgi, idrok, tasavvur bilan bir qatorda atrof-muhit, borliqni o‘rganish, uning mavjudligini anglashga xizmat qilishi ko‘rsatiladi. Sezgi, idrok, tasavvur yordamida o‘zlashtirilgan atrof-muhit, borliq, unda kechayotgan voqyea, hodisalarga xos belgi va sifatlar bosh miya yarim sharlarida o‘ziga xos tahlil qilinib, ularning adekvatligi (to‘g‘riligi)ni tekshirish zarurligi to‘g‘risida xulosaga kelinadi. Ushbu xulosa shaxsning amaliy xatti-harakati, faoliyati orqali tekshirib ko‘riladi va bu jarayon idrok yordamida nazorat qilinadi. Falsafiy, psixologik va pedagogik manbalarda tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, oliy, eng yuqori darajasi sifatida talqin qilinadi.

Xususan, shaxsning obrazlar, tasavvur, tushunchalarni namoyon qilish hamda bog‘lashni aniqlab, ularning o‘zgarish va qo‘llash imkoniyatlarini aniqlab beruvchi bilish faoliyati va uning qobiliyatini belgilaydigan ongning ishlash jarayoni;[3,328] yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog‘liq, aloqador, tahlil va sintez jarayonida voqyelikni bevosita va umumlashtirilgan aks ettirish jarayoni;[4,328] ob'ektiv olamning inson miyasida mavhumlashgan, umumlashgan, til bilan ifodalanadigan aks etishi;[5,239] predmet, hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlarni yaratish, ular o‘rtasidagi aloqalarni izlash va mavjud muammolarni yechish atrof-muhitni barcha ko‘rinishlarda anglangan holda qabul qilish, shuningdek, ularning muhim jihatlarini aniqlash orqali atrof-muhitni barcha ko‘rinishlarda anglangan holda idrok qilish;[5,53] muammoli vaziyatlarni, masalalarni yechimini topish bilan bog‘liq yangi bilimlar shakllanadigan yuqori darajadagi bilish jarayoni;[6,690] “yangi nazariya, g‘oyalar yaratish, bo‘lajak jarayonlarni bashorat qilish”;[6,303] inson ongining bilish ob'ektlari hisoblangan narsa va hodisalar o‘rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo‘lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shakli;[7,80] individning voqyelikni bilvosita va umumlashgan holda aks ettirishga qaratilgan bilish jarayoni;[8,223] atrof-muhitdagi voqyelikni nutq yordamida bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik protsess, sotsial sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir. Keltirilgan ta'riflardan anglanadiki, tafakkur, eng avvalo, ong mahsuli, uning yordamida atrof-muhit, borliqqa oid axborotlar tahlil qilinadi, sintezlanadi va muayyan xulosa chiqarilib, bu haqida til va nutq vositasida boshqalarga yetkaziladi. Tafakkur turli mazmundagi mavjud axborotlarning muhim jihatlarini aniqlash orqali ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, uzviy bog‘liqni topishga, qolaversa, yangi nazariya va ta'limotlarning asoslanishi uchun xizmat qiladi. Mohiyatiga ko‘ra tafakkurining amaliy qiymati shaxs tomonidan atrof-muhit, borliqqa oid axborotlarning idrok qilinishi, ya'ni, o‘zlashtirilishi va unga tayangan holda faoliyatning tashkil qilinishi bilan belgilanadi. Qayd etib o‘tilganidek, tafakkur mavjud axborotlarga tayangan holda chiqarilgan xulosaning til, nutq yordamida ifodalanishi demakdir. Bu esa o‘z navbatida shaxs

tafakkurining namoyon bo‘lishida til, shu jumladan, milliy til alohida ahamiyatga ega omil ekanini anglatadi.

Kasbiy kompetensiyalar va amaliy mashg‘ulotlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni.

O‘zbekistonda qabul qilingan Milliy malaka ramkasi (MMR)ga muvofiq, kasbiy kompetensiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, bilimlar kasb doirasidagi fundamental va amaliy nazariy asoslar majmuini tashkil etsa, ko‘nikmalar ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olish, texnologiyalarni boshqarish hamda mehnat intizomiga rioya qilish qobiliyatini ifodalaydi. Shaxsiy sifatlar tarkibiga mas’uliyat, tashabbuskorlik, ijodkorlik, muammolarni hal qila olish va jamoada ishlash qobiliyatlari kiradi. Ijtimoiy kompetensiyalar esa samarali muloqot qilish, madaniy moslashuvchanlik hamda kasbiy etika me’yorlariga amal qilishni qamrab oladi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi darajasini baholashda kognitiv, individual va ijodiy komponentlarga ustuvorlik berish muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda baholash portfoliotexnologiyalarining (diagnostik, motivatsion, rivojlantiruvchi va korreksiyalovchi) imkoniyatlarini takomillashtirish zarur. Bu yondashuv o‘qituvchi tayyorgarligini har tomonlama va tizimli baholash imkonini beradi [3, 17-b.].

Xalqaro tajribada ham kasbiy kompetensiyalarning tarkibiy qismlari aynan shu asosda belgilanadi. Xususan, Yevropa Ittifoqining Yevropa malaka ramkasi (EQF) tizimida bilim, ko‘nikma va munosabat (attitude) asosiy mezonlar sifatida e’tirof etilgan. Demak, kasbiy kompetensiya faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, balki ularni amaliyotga samarali tatbiq eta olish salohiyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu holat ta’lim jarayonida nazariy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarning ham ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kasbiy ta’limda amaliy mashg‘ulotlar o‘quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali nazariy bilimlar mustahkamlanadi va kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan ko‘nikmalar shakllanadi. Amaliy mashg‘ulotlar shogirdlik, laboratoriya ishlari, tajriba mashg‘ulotlari, ishlab chiqarish amaliyoti, modellashtirilgan treninglar hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi turli shakllarda tashkil etiladi. Ushbu mashg‘ulotlar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodkorlik va tashabbusni kuchaytirish, jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish hamda kasbga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish kabi muhim pedagogik funksiyalarni bajaradi.

Amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularga o‘qituvchi tomonidan oldindan ishlab chiqilgan metodik reja, mashg‘ulot mazmunining dolzarbligi, real hayotga yaqinlashtirilgan topshiriqlar, baholash mezonlarining aniqligi hamda talabalar faolligini rag‘batlantirish kiradi. Masalan, pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning maktabgacha yoki umumta’lim muassasalarida o‘tkazadigan amaliyotlari orqali darsni rejalashtirish, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini tushunish va dars jarayonini samarali boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa kelgusida pedagogik faoliyatda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va kasbiy tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchining faol ishtirokiga tayangan holda tashkil etilib, faoliyat orqali o‘rganishni ta’minlaydi. Bunda muammoli ta’lim, loyihaviy ta’lim va interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Loyihaviy metod o‘quvchining mustaqil amaliy loyiha ishlab chiqishi va uni amalga oshirishiga imkon bersa, jamoaviy ishlar ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi. Mashg‘ulot yakunida amalga oshiriladigan tahlil, mulohaza va refleksiya jarayonlari esa o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda mashg‘ulot maqsadi va vazifalarini aniq belgilash, faoliyat turlarini to‘g‘ri tanlash, zarur resurs va jihozlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash mezonlari shaffof va kompetensiyalarga asoslangan bo‘lishi zarur. Refleksiya orqali o‘quvchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglaydi hamda kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda amaliy mashg‘ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, real kasbiy faoliyatni modellashtirish imkonini beradi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun har bir mashg‘ulotni aniq pedagogik maqsadlar asosida loyihalash, faoliyatga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda shaffof baholash tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun doimiy metodik seminar va treninglarni tashkil etish kasbiy mahoratni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yakuniy natijada, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish va tarix to‘garaklarini samarali tashkil etish jarayoni nafaqat mashg‘ulot shakli sifatida, balki o‘quvchilarning kasbiy shakllanishi va shaxsiy rivojlanishining mustahkam poydevori sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Bu esa pedagoglardan yangilikka ochiqlik, yuqori darajadagi tayyorgarlik va zamonaviy metodik bilimlarni doimiy ravishda rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va kasb-hunar ta’limi sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida : PQ–81-son. – 2022 yil 28 yanvar.

2 Yarmatov R. B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish : avtoreferat. – Toshkent, 2021.

3 Karimov N. R., Iskandarov S. A., Niyozova N. S.

4 Impact of Renaissances in the History of Uzbekistan and Causative Factors of the Third Renaissance // Journal of Law and Sustainable Development. – 2023. – (jild va soni aniqlashtirilishi zarur).

5 Qodirov A. A. Kasbiy ta’lim metodikasi. – Toshkent : Ilm ziyo, 2021. – 312 b.

6 O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Milliy malaka ramkasi (MMR). – Toshkent, 2020.

7 European Qualifications Framework (EQF). – European Commission [Electronic resource]. – URL: https://europa.eu/europass/en/european-qualifications-framework-eqf

8 Musayev O., Abidova Z., Abdalov U. M., Orzikulov B., Narkulov S. D., Rakhimov S., Nematov O.

9 Issues of National Identity in the People of Central Asia // Journal of Law and Sustainable Development. – 2023. – Vol. 11, No. 12. – e2796.

10 Usmonova M. B. Badiiy adabiyotlar vositasida o‘quvchilarda milliy xarakter xislatlarini rivojlantirish (umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rta va yuqori sinflari misolida) : ilmiy ish. – Namangan, 2023. – 4 b.

Tojiboeva Gulxumor Raxmanjanovna
Andijon davlat universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti,
Rafikova Munisa Nematjon kizi
Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti

-o‘qitish jarayonini loyihalashtirish va tashkil etishning yaxlit tizimi, qo‘llash samaradorligi pedagogning mahorati va ijodkorligi darajasiga bog‘liq bo‘lgan metodik ko‘rsatmalar yig‘indisi.(V.A.Slastyonin).

Interfaol metod-biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatib, hayotga tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchining soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasaning o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni tez va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlash va foydalanish muhim hisoblanadi.

Interfaol ta’lim metodlarining turlari juda ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalariniamalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozircha mavjud. Amalyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bugungi kunda dars jarayonini oqilona tashkil qilishda ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo‘lib, ularni mazmunini ochishda ,,Aqliy hujum’’, „Kichik guruhlarda ishlash’’, „Bahs-munozara’’, „Muammoli vaziyat’’, „Yo‘naltiruvchi matn’’ loyiha, „Rolli o‘yinlar’’, „ Loyiha’’ kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash ijobiy natijalarga olib keladi. Bunday metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham aytiladi.

Boshlang‘ich sinf „O‘qish kitobi’’ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyaning ko‘pgina interfaol metodlaridan foydalaniladi.

„Rolli o‘yinlar’’ - har bir ishtirokchi o‘quvchi o‘qish kitobida berilgan biror asardagi qahramon rolini o‘ynar ekan, shu persanajni fikrlarini aniq anglashi va o‘sha qahramon o‘rnida so‘zlashi shart. Shu o‘yin orqali o‘quvchi ma’lum ibrat va xulosalar chiqarishi mumkin. Ushbu metoddan Vatanimiz o’tmishi, ulig’siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ajdodlarimiz haqida aytib o‘tilgan mavzulardan foydalanishimiz mumkin.

„Suhbat metodi’’ tajribada eng ko‘p qo‘llaniladigan va samarali metodlardan biridir. Bu ko‘pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metod dars jarayonida savol-javob vositasida olib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga savol berib yoki ilgari o‘zlashtirgan bilimlarini eslariga tushurish, yoxud mavjud bilimlar asosida yangi mavzulardan tegishli xulosa va natijalar chiqarish, umumlashtirish, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlariga tayanib, yangi xulosalar chiqarishni taklif etish yo‘li bilan bilim, ko‘nikma va malakalar berishi nazarda tutadi. Suhbat quyidagi maqsadlarda olib borilishi mumkin:

-o‘tilgan mavzuning mazmuniga bog‘liq holda o‘quvchilarning hayotda kuzatgan va tajribada ishlatgan fakt (dalil), narsa va hodisalardan nimalarni bilganliklarini aniqlash.

-o‘tilgan mavzu va hatto ilgari o‘tilgan materiallarni (ma’lumotlarni) qayta esga tushirish:

-o‘quvchilarning bayon qilinayotagan ma’lumotni qanchalik idrok qilayotganliklarini aniqlash:

-o‘tilayotgan mavzuga oid ma’lumotlar haqida suhbat olib borish:

-bayon qilinayotgan ma’lumotni takrorlash va mustahkamlash:

-o‘tilayotgan mavzu yuzasidan xulosa chiqarish, umumlashtirish, qoida va ta’riflar ustida ishlash:

-o‘zlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalarni hisobga olish:

-uyga berilgan topshiriq va mustaqil o‘rganilgan ma’lumotlar haqida suhbat o‘tkazish.

„Tez javob “ metodi. O‘qituvchi o‘quvchilar qatori oralab yurib, o‘quvchilardan birini turg‘izadi va mavzu yuzasidan biror yashirin savol beradi . O‘quvchi asardagi shu ta’rif berilgan savolga javobni topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. O‘yin toki bir o‘quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o‘yin davomida o‘quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrofdagi sodir bo’ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi. Bu o‘yindan darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

Matnni tahlil qilishda „SWOT’’ tahliliy metodi (tanqidiy tahlil) ham yaxshi samara beradi. Bunda hikoya mazmuni va undan chiqariladigan xulosa uchun yoki darsda yangi o‘rganilgan lug‘atlarni mustahkamlash uchun ham foydalanishimiz mumkin.

Ushbu usulning maqsadi ;

Mavjud nazariy bilimlarni va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga mustaqil tanqidiy fikrlashni, noodatiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S-(strength)-kuchli tomonlar

W-(weakness)-zaif , kuchsiz tomonlar

O-(opportunity)-imkoniyatlar

T-(threat)- to‘siqlar

Yozuv taxtasiga jadval chiziladi.O‘quvchilarga ushbu tuzilgan jadval tushurilgan tarqatmalar beriladi. O‘quvchilar jadvalni to‘ldirib, shu asosida o‘z fikrini bayon etadi. O‘z –o‘zidan ham o‘g‘zaki, ham yozma nutqi rivojlanadi.

Yuqorida ta’kidlangan interfaol metodlardan tashqari , boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan „Aqliy hujum” , „Tarmoqlar” , „Guruhlar bilan ishlash’’ kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Qachonki, bu metodlar yaxshi samarali natija beradi:

-dars va mavzuning maqsadlari to‘g‘ri aniq tanlanganda;

-mavzuga mos metodlarni tanlab olinsa;

-bir dars davomida turli metodlardan foydalanilsa;

-tanlangan metod o‘quvcgilarga yangi axbarotlarni yetkazib bera olsa, yangi mavzu haqida ekanligini tezda tushuna oladi.

Demak, interfaol usullarni o‘qish darslarida qo‘llash natijasida o‘quvchilar hozirjavoblikka o‘rganadi, ularning lug‘at boyligi oshadi, ilmiy nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi. Interfaol metodlar asosida tashkil qilingan dars albatta, o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, qiziqish esa intilishga, bilimlarni puxta o‘rganishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1 Avliyaqulov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya : darslik. – Toshkent : Tafakkur Bo‘stoni, 2012. – 208 b.

2 Ermatova G. N. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar. – Toshkent, 2019.

3 Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Samarqand: SamDU, 2001. – 88 b.

4 Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar : metodik qo‘llanma. – Toshkent : Nizomiy nomidagi TDPI nashriyoti, 2013.

5 Sidiqova D. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish // Международный журнал «Научный импульс». – 2022.

6 Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : Innovatsiya-Ziyo, 2019.

7 Innoist.uz [Elektron resurs]. – 2024. – URL: https://www.innoist.uz

Рахмонкулов Азизбек Устумкул угли
Магистрант Термезского государственного университет

ОБРАЗ ПРИРОДЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ МИРЕ ПОЭТОВ БОДЛЕРА И БЛОКА

Аннотация. *В данной статье рассматривается художественная интерпретация образа природы в поэзии Шарля Бодлера и Александра Блока. Сопоставительный анализ позволяет выявить особенности их поэтического мировосприятия, системы символов, художественных мотивов и отношения к природе. Установлено, что у Бодлера природа отражает внутренние переживания, эстетическое противостояние прекрасного и безобразного, тогда как у Блока она насыщена мистическими настроениями, духовным поиском, трагизмом и надеждой. Статья раскрывает лингвопоэтическую роль образа природы, его смысловые уровни и эстетические функции в творчестве двух поэтов.*

Ключевые слова*: Бодлер, Блок, образ природы, поэтика, символизм, лирика, художественный образ, эстетика.*

BODLER VA BLOK IJODIY OLAMIDA TABIAT OBRAZI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharl Bodler va Aleksandr Blok ijodida tabiat obrazining badiiy talqini o‘rganiladi. Har ikki shoirning poetik dunyoqarashi, timsollar tizimi, ramzlar poetikasi va tabiatga munosabati qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Bodler she’riyatida tabiat ko‘proq ruhiy iztirob, ichki kechinmalar, go‘zallik va xunuklikning bir-biriga tayanishi orqali talqin qilinsa, Blok lirikasida tabiat mistik kayfiyat, ruhiy uyg‘onish, umid va fojeaviylik oralig‘ida namoyon bo‘ladi. Maqola ikki shoirning poetik olamida tabiat obrazining lingvopoetik o‘rni, ma’no qatlamlari va badiiy-estetik vazifalarini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Bodler, Blok, tabiat obrazi, poetika, simvolizm, lirika, badiiy timsol, estetik qarashlar.*

THE IMAGE OF NATURE IN THE ARTISTIC WORLD OF BAUDELAIRE AND BLOK

Abstract. *This article explores the artistic interpretation of nature in the poetry of Charles Baudelaire and Alexander Blok. Through comparative analysis, the study identifies key features of their poetic worldviews, symbolic systems, emotional landscapes, and attitudes toward nature. The findings show that Baudelaire’s depiction of nature reflects inner turmoil, aesthetic duality, and the interplay between beauty and decay, whereas Blok’s lyrical treatment of nature is imbued with mysticism, spiritual longing, hope, and tragedy. The article reveals the linguopoetic significance, semantic layers, and aesthetic functions of nature imagery in the works of both poets.*

Key words: *Baudelaire, Blok, nature imagery, poetics, symbolism, lyric poetry, artistic symbolism, aesthetic perception.*

Введение. Образ природы в литературе и искусстве всегда занимал центральное место. В частности, в период XIX–XX веков в европейской и русской поэтике методы изображения природы обогатились новыми эстетическими парадигмами. Творчество Шарля Бодлера и Александра Блока является ярким примером этого процесса. В их поэтическом мире природа выступает не только в качестве внешней среды или фона, но и как средство выражения внутреннего мира человека, духовных переживаний и художественных символов, отражающих личный и национальный опыт.

В поэтике Бодлера образы природы тесно связаны с внутренним миром человека, его душевными страданиями, гармонией красоты и уродства, а также с сложными психологическими слоями жизни. Природа выступает метафорическим инструментом, отражающим состояние души и эстетические взгляды поэта. Поэтому в стихах Бодлера

природные образы часто имеют символический и когнитивный уровень, через который проявляются внутренние переживания и экзистенциальные страдания.

У Блока же природа интерпретируется через мистическое настроение, духовное пробуждение, человеческие ценности и гармонию с обществом. Природа у него является средством выражения взаимосвязи человека и мира, а также через поэтический образ отражает надежду, трагедию, духовные устремления и внутреннее пробуждение. Таким образом, поэзия Блока создает художественное пространство, где природа гармонично соединяется с внутренним миром человека.

Научная значимость данного исследования заключается в том, что оно анализирует поэтическое мировоззрение двух поэтов, их символику и отношение к образу природы в социолингвистическом и лингвопоэтическом контексте. Изучение образа природы позволяет выявить эстетические принципы, элементы символизма, выражение личного и национального духа, а также художественно-эстетические функции в творчестве Бодлера и Блока.

Цель исследования - провести сравнительный анализ лингвопоэтических, эстетических и духовно-эстетических функций образа природы в творчестве Шарля Бодлера и Александра Блока. Для достижения этой цели поставлены следующие задачи:

Определить семантические и символические слои образа природы в поэзии Бодлера и Блока.

Провести сравнительный анализ поэтических и эстетических функций образа природы.

Изучить образ природы у обоих поэтов в связи с внутренним миром человека и культурно-художественным контекстом.

Выявить национальные и личностные особенности образа через лингвопоэтические и социолингвистические характеристики.

Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию творчества Бодлера и Блока, а также позволяют выявить общие тенденции изображения природы в поэтике XIX–XX веков.

Анализ литературы. Изучение образа природы в творчестве Бодлера и Блока охватывает лингвистические, социолингвистические, поэтические и эстетические подходы. Исследования ведутся в двух основных направлениях: анализ символики и образов, отражающих индивидуальное и национальное поэтическое мировоззрение, и сравнительный анализ эстетических, символических и когнитивных функций образа природы. Такой анализ позволяет глубже понять семантические и художественные слои природы в поэзии двух поэтов.

Поэтический мир Шарля Бодлера подробно исследован многими учеными. Например, Вальтер Бенджамин (1968) рассматривает Бодлера как важный символ модернизма и изучает внутренние душевные переживания и экзистенциальные страдания через образы природы. Мидер (2004) раскрывает метафорические слои природы в стихах Бодлера через афоризмы и символизм. Лакофф и Джонсон (1980) анализируют когнитивную основу метафор Бодлера, связывая изображение природы с моделями человеческого мышления. Таким образом, у Бодлера образы природы интерпретируются через внутренние переживания, конфликты и гармонию красоты и уродства, отражая личные эстетические взгляды поэта.

У Александра Блока природа проявляется как средство мистического настроения, духовного пробуждения и взаимосвязи человека с миром. Шолохов (2002) рассматривает природу у Блока как символ гармонии между человеком и вселенной. Телия (1996) анализирует образы в лирике Блока с позиции лингвокультурологии, раскрывая их национально-эстетические и художественные слои. Русские исследователи (Карасик, 2002; Маслова, 2001) отмечают абстрактность, мистицизм и связь поэтических метафор Блока с социально-культурным контекстом. Эти исследования помогают глубже понять поэтическую функцию природы у Блока, которая гармонирует с внутренним миром поэта, национальными ценностями и социально-психологическим мышлением.

Сравнительные исследования показывают, что, несмотря на различие культурного и исторического контекста, эстетическая цель образов природы у Бодлера и Блока сходна: отражение душевных переживаний, внутреннего драматизма и эстетических взглядов

(Норрик, 1985; Кристал, 2003). При этом Бодлер ориентирован на индивидуалистическое восприятие, а Блок - на коллективное и мистическое, что выявляет национальные и личностные различия.

Узбекские и международные исследования (Кодирхонова, 2019; Шарипов, 2020) не только изучают образ природы зарубежных поэтов, но и подчеркивают необходимость сопоставления с национальной культурой и языковым контекстом. Это позволяет представить творчество Бодлера и Блока для узбекского читателя с точки зрения лингвопоэтики и культурной восприимчивости.

Таким образом, анализ литературы показывает, что изучение образа природы у Бодлера и Блока требует многопланового подхода: семантического, символического, прагматического, когнитивного и лингвопоэтического. Сравнительный анализ позволяет выявить национальные и личностные особенности восприятия природы, а также глубже понять поэтическое мировоззрение и эстетические взгляды двух поэтов. Полученные материалы формируют методологическую базу исследования и обеспечивают основу для последующего анализа и обсуждения результатов.

Анализ и результаты. Изучение образа природы в поэзии Шарля Бодлера и Александра Блока позволяет выявить ключевые семантические, символические, когнитивные и эстетические особенности их творческого мира. Анализ показывает, что, несмотря на общую художественную цель - отражение внутреннего мира человека и его душевных переживаний, подходы двух поэтов существенно различаются, что связано с индивидуальными и национальными особенностями их поэтического восприятия.

1. Семантический и символический анализ: В поэзии Бодлера природа часто выступает как отражение внутреннего состояния человека, его психологических конфликтов и экзистенциальных переживаний. Образы природы у Бодлера несут метафорическую нагрузку: через них передаются душевные страдания, красота и уродство, гармония и диссонанс внутреннего мира. Например, в сборнике «Les Fleurs du mal» природные мотивы тесно связаны с эмоциональными и философскими размышлениями, что делает их важным инструментом поэтического самовыражения.

У Блока природа приобретает иной смысл: она выражает мистическое настроение, духовное пробуждение, гармонию человека с миром и обществом. Природные образы у Блока служат символами коллективных переживаний, национального духа и социального контекста. Так, в лирике Блока природа часто становится посредником между внутренним миром поэта и окружающей действительностью, выражая надежду, трагизм и духовные устремления.

2. Прагматический и когнитивный анализ: Бодлер в своих стихах использует природу для выражения индивидуалистических мотивов, личных размышлений и экзистенциальных вопросов. Когнитивно, образы природы у Бодлера строятся на причинно-следственных связях и способствуют глубокому пониманию эмоционального состояния человека.

Блок же применяет природные образы для передачи коллективных и мистических концепций. Его природа выражает общественные, духовные и моральные ценности, формируя гармоничное восприятие человека в контексте национальной и культурной традиции. Когнитивные структуры его поэзии включают символические и метафорические элементы, которые помогают понять взаимосвязь между внутренним миром личности и внешним миром.

3. Лингвопоэтический и структурный анализ: Бодлер использует метафору, символизм и синтаксическую компактность для создания выразительных природных образов. Такие образы кратки, но насыщены семантической нагрузкой и передают сложные эмоциональные состояния.

Блок применяет более сложные поэтические формы: ритмичность, параномазию, параллельные конструкции и аллитерацию. Эти средства усиливают художественную выразительность и подчеркивают национально-культурный контекст образа природы. Таким образом, различия в структуре и языке образов природы отражают различие в эстетических предпочтениях и культурных кодах поэтов.

4. Сравнительный анализ и выявленные результаты:

Различие в ментальных ценностях: У Бодлера природа связана с индивидуализмом, личной ответственностью, экзистенциальными переживаниями и эстетическими поисками. У Блока - с коллективизмом, духовностью, мистическим восприятием и национальными ценностями.

Историко-культурный контекст: Для Бодлера образы природы отражают индивидуальный опыт и индустриальное общество, а для Блока - национальную историю, культурные традиции и социальные взаимодействия.

Поэтические и эстетические функции: У Бодлера природа является инструментом выражения внутренних переживаний через индивидуалистические метафоры; у Блока - средством передачи коллективных и духовных ценностей, гармонии и мистического опыта.

Универсальные ценности: Несмотря на различия, образы природы у обоих поэтов передают общечеловеческие ценности: трудолюбие, красоту, доброту, человечность.

Лингвопоэтические различия: Бодлер предпочитает краткие, метафорические и символические конструкции, тогда как Блок использует ритм, параллельные конструкции и аллитерацию для усиления выразительности.

Сравнительное изучение образов природы у Бодлера и Блока позволяет глубже понять их поэтическое мировоззрение, национальный и личностный колорит, а также эстетические принципы. Результаты исследования показывают, что природные образы не только отражают внутренний мир поэта, но и служат важным инструментом межкультурного понимания, позволяя сопоставить эстетические и символические традиции французской и русской поэтики XIX–XX веков.

Обсуждение. Результаты анализа образов природы в поэзии Шарля Бодлера и Александра Блока позволяют выявить как общие тенденции, так и значимые различия в их поэтическом восприятии мира. Природа у обоих поэтов выполняет функцию отражения внутреннего мира человека, передачи эмоциональных состояний и формирования художественного символизма, однако методы и контексты её интерпретации различаются.

У Бодлера природные образы концентрируются на индивидуальных переживаниях, экзистенциальных конфликтах и эстетическом осмыслении красоты и уродства. Такой подход объясняется историческим и культурным контекстом Франции XIX века, где формировалось индустриальное и модернистское сознание, ориентированное на личный опыт и внутренние переживания. Природа у Бодлера становится инструментом метафорической выразительности, через которую поэт исследует психологические и философские аспекты человеческой жизни.

Блок, напротив, рассматривает природу через призму коллективного восприятия, мистических и духовных категорий. Природные образы у него связывают внутренний мир человека с национальной идентичностью, историческим опытом и социальными процессами. Мистика, символизм и ритмическая структура стихов создают впечатление гармоничного единства человека и мира, подчеркивая ценности коллективизма и духовной гармонии.

Сравнительный анализ выявил несколько ключевых аспектов:

Индивидуализм vs. коллективизм: Бодлер акцентирует внимание на личной ответственности, внутреннем мире и субъективных переживаниях, тогда как Блок сосредоточен на коллективной памяти, духовных ценностях и национальном самосознании.

Эстетическая функция: Природа у Бодлера является способом исследования субъективного опыта, у Блока - средством передачи национальных, культурных и духовных ценностей.

Когнитивные и символические особенности: У Бодлера природа формирует когнитивные модели, основанные на рациональности, причинно-следственных связях и индивидуальном осмыслении. У Блока - символические структуры подчеркивают мистицизм, морально-этические и духовные аспекты, создавая эмоционально насыщенный художественный контекст.

Лингвопоэтическая организация: Структура и язык образов природы у двух поэтов различаются: компактность и метафорическая насыщенность у Бодлера сочетаются с

выразительной ритмикой и параллельными конструкциями у Блока. Это различие отражает не только индивидуальный стиль, но и национально-культурные особенности восприятия мира.

Таким образом, обсуждение результатов показывает, что изучение образов природы у Бодлера и Блока позволяет:

выявить глубинные связи между внутренним миром поэта и его поэтическими формами;

понять, каким образом национальная и культурная идентичность влияет на художественное восприятие природы;

оценить универсальные человеческие ценности, выраженные через природные мотивы, и их различную интерпретацию в контексте индивидуализма и коллективизма;

обосновать методологическую необходимость комплексного подхода (семантического, символического, когнитивного и лингвопоэтического) при изучении поэтических образов.

Кроме того, результаты исследования подчеркивают важность межкультурного анализа: сопоставление французской и русской поэтики XIX–XX веков позволяет выявить не только стилистические и тематические особенности, но и различия в эстетическом восприятии природы, обусловленные историко-культурными факторами.

В целом, обсуждение показывает, что природные образы у Бодлера и Блока выполняют многогранную функцию: они одновременно отражают внутренний мир, символизируют коллективные и национальные ценности, а также служат инструментом художественной выразительности и эстетического воздействия на читателя. Это подчеркивает необходимость дальнейших исследований в области сравнительной поэтики и межкультурной литературоведческой аналитики.

Заключение. Проведённое исследование образа природы в поэзии Шарля Бодлера и Александра Блока позволяет сделать несколько ключевых выводов, объединяющих результаты анализа, сравнения и обсуждения.

Во-первых, природные образы у обоих поэтов являются важным инструментом выражения внутреннего мира человека и эмоциональных состояний. У Бодлера природа передаёт индивидуальные переживания, психологические конфликты и экзистенциальные вопросы, тогда как у Блока она отражает коллективные ценности, духовные устремления и гармонию человека с миром.

Во-вторых, выявлены значимые различия в семантическом, символическом и когнитивном восприятии природы. Бодлер ориентирован на индивидуалистическое осмысление, использование метафор и символов для отражения личного опыта; Блок - на коллективные и мистические интерпретации, подчеркивающие национальные и духовные аспекты.

В-третьих, исследование показало различия в лингвопоэтических структурах: краткость, метафорическая насыщенность и компактность у Бодлера сочетаются с ритмичностью, параллельными конструкциями и аллитерацией у Блока. Эти особенности отражают как индивидуальный стиль, так и культурные традиции поэтов.

В-четвёртых, несмотря на различия, обнаружены универсальные ценности, которые объединяют обе поэтики: красота, человечность, моральные нормы, гармония с миром. Эти ценности позволяют рассматривать образ природы как средство межкультурного диалога и сопоставления эстетических традиций разных народов.

Наконец, сравнительное исследование Бодлера и Блока подтверждает, что изучение образа природы требует комплексного подхода, включающего семантический, символический, когнитивный и лингвопоэтический анализ. Это позволяет глубже понять поэтическое мировоззрение, эстетические принципы и культурные особенности поэтов, а также выявить общие и различающиеся элементы в восприятии природы в различных историко-культурных контекстах.

Таким образом, результаты исследования способствуют более полному пониманию поэзии Бодлера и Блока, подчеркивают значение образа природы как средства художественного выражения, и открывают перспективы для дальнейших сравнительных и межкультурных исследований в области поэтики XIX–XX веков.

Список литературы.

1 Беньямин В.. Шарль Бодлер: символ модернизма. – М. : Искусство, 1968.
2 Mieder W.. Proverbs and Symbolism in Baudelaire’s Poetry. – New York : Routledge, 2004.
3 Lakoff G., Johnson M.. Metaphors We Live By. – Chicago : University of Chicago Press, 1980.
4 Шолохов А.. Лирика Александра Блока и символизм природы. – СПб. : Наука, 2002.
5 Телия В. Н.. Лингвокультурологический анализ природы в лирике А. Блока. – М. : РГГУ, 1996.
6 Карасик В. И.. Поэтика символизма и философия природы. – М. : Высшая школа, 2002.
7 Маслова Е.. Мистицизм и символизм в лирике Блока. – СПб. : Филология, 2001.
8 Norrick N. R.. Conversational Metaphors and Poetic Imagery. – Amsterdam : John Benjamins, 1985.
9 Crystal D.. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge : Cambridge University Press, 2003.
10 Қодирхонова Н.. Французская и русская поэзия: сравнительный анализ образа природы. – Ташкент, 2019.

Sayfullayeva Nafisa Zoyirovna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

MODALLIK UNIVERSAL KATEGORIYA SIFATIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada modallikning universal lingvistik kategoriya sifatida shakllanishi, uning turli til tizimlarida ifodalanish xususiyatlari va umumiy nazariy tamoyillari tahlil qilinadi. Modallikning semantik, grammatik va pragmatik qatlamlari o‘rganilib, modal ma’nolarning universal tabiati hamda ularning dunyo tillari kesimida namoyon bo‘lish mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqotda modallikning obyektiv va subyektiv turlari, modal ma’nolarning umumiy (universal) funksiyalari, epistemik va deontik modallikning umumlingvistik ahamiyati ilmiy asosda o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *modallik, universal kategoriya, obyektiv modallik, subyektiv modallik, epistemik modallik, deontik modallik, modal ma’no, universal lingvistika, kognitiv lingvistika, pragmatika, til tizimi, semantika, modal birliklar, tipologiya.*

ИЗУЧЕНИЕ МОДАЛЬНОСТИ КАК УНИВЕРСАЛЬНОЙ КАТЕГОРИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются формирование модальности как универсальной лингвистической категории, её проявления в различных языковых системах и общие теоретические принципы её изучения. Рассматриваются семантический, грамматический и прагматический уровни модальности, раскрывается универсальная природа модальных значений и механизмы их выражения в языках мира. В исследовании освещаются объективная и субъективная модальность, универсальные функции модальных значений, а также общелингвистическое значение эпистемической и деонтической модальности.*

Ключевые слова: *модальность, универсальная категория, объективная модальность, субъективная модальность, эпистемическая модальность, деонтическая модальность, модальное значение, универсальная лингвистика, когнитивная лингвистика, прагматика, языковая система, семантика, модальные единицы, типология.*

THE STUDY OF MODALITY AS A UNIVERSAL CATEGORY

Abstract. *This article examines the development of modality as a universal linguistic category, its forms of expression across different language systems, and the general theoretical principles underlying its study. The semantic, grammatical, and pragmatic layers of modality are analyzed, highlighting the universal nature of modal meanings and the mechanisms through which they are manifested in world languages. The study explores objective and subjective types of modality, the universal functions of modal meanings, and the general linguistic significance of epistemic and deontic modality.*

Key words*:modality, universal category, objective modality, subjective modality, epistemic modality, deontic modality, modal meaning, universal linguistics, cognitive linguistics, pragmatics, language system, semantics, modal markers, typology.*

Kirish. Tilshunoslikda modallik kategoriyasi tilning mazmun yaratish mexanizmlarida markaziy o‘rin tutuvchi universal hodisalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Modallikning universalligi, avvalo, inson tafakkuri va nutq faoliyatida voqelikka nisbatan baho, munosabat, taxmin, ehtimollik yoki zaruriyat kabi mantiqiy-psixologik jarayonlarning doimiy ravishda namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Bunday mazmuniy jihatlar tillarning struktura va tizimidan qat’i nazar, barcha tabiiy tillarda muayyan grammatik, leksik yoki pragmatik vositalar orqali ifodalanadi. Shu sababli modallik nafaqat qaysidir tilning ichki kategoriyasi, balki umumlingvistik (universal) kategoriya sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Modallikning universal tabiati turli til oilalari va tipologik tizimlarda o‘xshash modal ma’nolarning mavjudligi, modal funksiyalarning umumiylik kasb etishi hamda modal vositalarning kommunikativ jarayonda bir xil vazifalarni bajarishi bilan o‘z ifodasini topadi. Epistemik va deontik modallikning tilning semantik va pragmatik qatlamlarida uzviy mavjudligi, obyektiv va subyektiv modallik turlarining barcha tillarda uchrashi bu kategoriyaning universalligini ilmiy jihatdan yanada mustahkamlaydi.

Hozirgi zamon lingvistikasida modallik kategoriyasining universalligini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishi kognitiv yondashuvlarning rivojlanishi, muloqotning pragmatik xususiyatlarini aniqlashga bo‘lgan ehtiyoj, shuningdek, qiyosiy-tipologik tadqiqotlarning kengayishi bilan bevosita bog‘liqdir. Modallikning turli tillarda qanday ifodalanishi, modal ma’nolarning universalligi va ular orasidagi milliy-madaniy farqlarni aniqlash tilning umumiy nazariyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada modallikning universal lingvistik kategoriya sifatida shakllanishi, mazmuniy xususiyatlari, semantik-pragmatik funksiyalari va uni dunyo tillari kesimida o‘rganishning nazariy asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv modallik kategoriyasining umumiy va xususiy tomonlarini aniqlashga, tilning mazmun yaratish tizimini chuqurroq tushunishga hamda lingvistik universaliyalarni aniqlashga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Modallik kategoriyasining universal lingvistik hodisa sifatida o‘rganilishi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tilning mazmun yaratish jarayonida insonning voqelikka bo‘lgan munosabati, bahosi, taxmini, ishonchi yoki buyruq va majburiyat kabi munosabatlar doimo namoyon bo‘ladi. Shu bois modallik kategoriyasi har qanday tabiiy tilda mavjud bo‘lib, uning ifodalanish usullari va semantik-pragmatik xususiyatlari turli til tizimlarida o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘lishiga qaramay, mazmuniy jihatdan umumiylikni saqlab qoladi. Aynan mana shu xususiyat modallikni universal til kategoriyasi sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega qiladi.

Bugungi globallashuv, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi, tarjima jarayonlarining ommaviylashuvi va ko‘p tillilik fenomenining tobora kengayib borishi modallikning universalligini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Til o‘rganuvchi, tarjimon yoki lingvist uchun modal ma’nolarning turli tillarda qanday ifodalanishini aniq bilish muloqot samaradorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, epistemik (bilishga oid) va deontik (majburiyatga oid) modallikning umumiy mazmuni barcha tillarda mavjud bo‘lgani holda, ularning ko‘rinishi va ifodalanish mexanizmlarining turlicha bo‘lishi universal va milliy xususiyatlar o‘rtasidagi munosabatni chuqur tahlil qilish zaruratini tug‘diradi.

Modallikning universalligini o‘rganishning yana bir dolzarbligi kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi bilan bog‘liq. Inson tafakkurining qanday ishlashi, voqelikni qanday baholashi, ehtimollikni qanday belgilashi yoki qaror qabul qilishi kabi psixologik jarayonlarning lingvistik ifodasini o‘rganish zamonaviy lingvistikaning muhim vazifalaridan biridir. Modallik aynan shu jarayonlarning lingvistik ko‘rinishi sifatida til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Bundan tashqari, bugungi kunda kompyuter lingvistikasi, sun’iy intellekt, avtomatik tarjima va matnni semantik tahlil qilish kabi amaliy yo‘nalishlarda modallik kategoriyasining to‘g‘ri aniqlanishi va qayta ishlanishi alohida ahamiyatga ega. Modal birliklarning noto‘g‘ri talqin qilinishi kommunikativ xatolarga olib kelishi mumkin bo‘lgani uchun modallikning universal xususiyatlarini avtomatlashtirilgan tizimlar uchun to‘g‘ri modellashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi jihatlar modallik kategoriyasining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Modallikning universal xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish til tipologiyasini boyitadi, umumlingvistik qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi va tillararo qiyosiy tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Modallik kategoriyasi tilshunoslikda universal lingvistik hodisa sifatida qadimdan e’tibor markazida bo‘lgan bo‘lsa-da, uning mazmun doirasi va kategoriyaviy xususiyatlari turli davrlarda turlicha talqin etilgan. Klassik grammatika an’analarida modallik asosan fe’lning grammatik shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, xx asr lingvistikasida mazkur kategoriya kengroq – semantik, pragmatik, kognitiv va tipologik jihatdan murakkab tizim sifatida talqin qilina boshlandi.

Avvalo, modallikning universal tabiati haqida ilk ilmiy mulohazalar a. A. Potebnya, a. A. Shaxmatov, v. V. Vinogradov kabi rus tilshunoslarining ishlari orqali shakllangan. Ular modal ma'nolarning barcha tillarda mavjudligi, voqelikka munosabatning nutqiy ifodasi universal psixologik jarayon ekanini ta'kidlaganlar. Vinogradovning fikricha, modallik gapning "mazmuniy markazi" bo'lib, tilning barcha darajalarida namoyon bo'lishi mumkin.

Modallikning semantik qatlamlarini chuqur o'rganishda j. Lyons va f. R. Palmerning ishlari alohida o'rin tutadi. Lyons modallikni epistemik va deontik turlarga ajratib, ularning universalligini mantiqiy-semantik mezonlar orqali asoslagan. Palmer esa modallikni universal lingvistik kategoriya sifatida tavsiflab, turli til oilalaridagi modal sistemalarni qiyosiy tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, modal ma'nolar inson ongidagi baholash, tasdiqlash, inkor, ehtimollikni belgilash jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, barcha tillarda muayyan formal va semantik vositalar orqali ifodalanadi.

Zamonaviy kognitiv lingvistika doirasida modallikning universalligini tushuntirishga g. Lakoff, r. Langacker, e. Kubryakova kabi olimlar sezilarli hissa qo'shgan. Ular modallikni mental modellar, dunyoqarash, idrok va ehtimollikni qayta ishlash jarayoni bilan uzviy bog'laydilar. Ayniqsa, lakoff modallikni insonning dunyoni konseptual tasavvur qilishidagi asosiy mexanizmlardan biri sifatida tavsiflaydi.

Modallikning pragmatik tabiati esa J Austin, J. Searle, H. Paul gricelarning nutq aktlari falsafasida keng yoritilgan. Ularning fikricha, modal birliklar muloqotda gaplovchining niyatini, bahosini, ishonch darajasini yoki munosabatini ifodalab, nutqning illokutsion kuchini aniqlaydi. Bu esa modallikning universalligini kommunikativ-pragmatik omillar bilan bog'lashga imkon beradi.

Til tipologiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar, xususan bybee, perkins & pagliuca (1994) tomonidan yaratilgan grammatik evolyutsiya nazariyasi, modal ma'nolarning barcha tillarda uchrashini va ularning grammatiklashuv yo'llari umumiylik kasb etishini ko'rsatadi. Modal fe'llar, yuklamalar, modal partikllar, intonatsion vositalarning ko'plab tillarda bir xil funksiyani bajarishi modallikning universal xususiyatlarini ilmiy jihatdan mustahkamlaydi.

Muhokama. Modallikning universal kategoriya sifatida o'rganilishi tilshunoslikning semantik, grammatik, kognitiv va pragmatik yo'nalishlari kesishgan nuqtalarda shakllanadigan murakkab ilmiy jarayonlar bilan bog'liq. Turli ilmiy manbalarning o'zaro taqqoslanishi shuni ko'rsatadiki, modallik kategoriyasi nafaqat tilda, balki inson tafakkuri, idrok jarayonlari va muloqot strategiyalarida ham universal hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Modallikning semantik mohiyati uning barcha tillarda voqelikka nisbatan ehtimollik, shubha, zaruriyat, istak, ruxsat yoki majburiyat kabi baholovchi munosabatlarni ifodalashi bilan belgilanadi. Semantik universallik modallikning asosiy mazmuniy tamoyillarining umumiyligini ta'minlaydi. Epistemik va deontik modallikning har bir til tizimida uchrashi, ularning semantik vazifalarining o'xshashligi bu kategoriyaning universal mohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Grammatik jihatdan qaralganda, modal ma'nolar turli tillarda turlicha vositalar bilan ifodalanadi: o'zbek tilida yuklamalar, yordamchi fe'llar, fe'lning maxsus shakllari va intonatsiya orqali; ingliz tilida modal fe'llar (may, might, must, should); rus tilida esa modal so'zlar va fe'l konstruktsiyalari orqali namoyon bo'ladi. Ifodalash vositalaridagi bu farqlar modallikning milliy-madaniy ko'rinishlaridan dalolat bersa-da, modal ma'nolarning funksional umumiyligi uning universal xususiyatini saqlab qoladi.

Pragmatik yondashuv ham modallikning universalligini tasdiqlaydi. Modal birliklar muloqot jarayonida gaplovchining nutqiy niyatini, subyektiv bahosini, muloqotga bo'lgan psixologik munosabatini, matnning ilokutsion kuchini va suhbatning ijtimoiy kontekstini belgilab beradi. Masalan, "bo'lsa kerak", "shekilli", "ehtimol" kabi birliklar o'zbek tilida ehtimollikni ifodalasa, ingliz tilidagi "probably", "perhaps", "might" birliklari xuddi shu funksiyani bajaradi. Bu hol modal vositalarning shakli turlicha bo'lishiga qaramay, ularning kommunikativ funksiyalari jihatidan universalligini ko'rsatadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa modallik inson ongining voqelikni idrok etish, baholash va taxmin qilish kabi jarayonlarining lingvistik ifodasi sifatida talqin qilinadi. G. Lakoff, r. Langacker, a. Kratzer kabi olimlar modallikning universalligini kognitiv model sifatida izohlab, modal ma'nolar insonning dunyoni konseptual tasavvur qilishidan kelib chiqishini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, modallik kognitiv jarayonlarga tayanishi va barcha aqliy tizimlarda mavjud bo‘lishi uning universal mohiyatini yanada mustahkamlaydi.

Modallikning tipologik o‘rganilishi ham uning universalligiga dalil bo‘ladi. Bybee, perkins va pagliuca tomonidan olib borilgan grammatik evolyutsiya tadqiqotlari modal ma’nolarning grammatiklashuv yo‘llari ko‘plab tillarda umumiy qonuniyatlarga asoslanishini ko‘rsatadi. Modal fe’llarning kelib chiqishida ehtimollik, istak yoki zaruriyatni ifodalovchi leksik birliklarning grammatiklashuvi barcha tillarda o‘xshash yo‘nalishda kechishi modallikning universal til kategoriyasi ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Modallik kategoriyasining universal lingvistik hodisa sifatida talqin qilinishi zamonaviy tilshunoslikda ko‘plab nazariy va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan murakkab ilmiy masaladir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, modallik barcha tabiiy tillarda ma’lum grammatik, leksik yoki pragmatik vositalar orqali ifodalanar ekan, uning mazmuniy yadrosi — voqelikka nisbatan baho, ehtimollik, zaruriyat, shubha yoki istakni ifodalash — lingvistik universallardan biri sifatida mavjud bo‘lib keladi. Shuning uchun modallik kategoriyasini universal til hodisasi sifatida o‘rganish lingvistikaning turli yo‘nalishlari — semantika, pragmatika, kognitiv lingvistika, tipologiya va matnshunoslikdoirasida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Modallikning universalligini belgilovchi asosiy omillar — modal ma’nolarning barcha tillarda uchrashi, ularning inson tafakkuri va idrok jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi, shuningdek, kommunikativ jarayonda gaplovchining nutqiy niyatini ifodalashdagi funksional o‘xshashliklardir. Epistemik va deontik modallikning har bir til tizimida mavjudligi, modal birliklarning semantik vazifalari hamda ifodalanish mexanizmlaridagi umumiylik modallik kategoriyasining umumlingvistik mohiyatini yanada mustahkamlaydi.

Ifodalash vositalaridagi ko‘rinishlar turlicha bo‘lishiga qaramay, modal ma’nolarning kommunikativ funksiyalari o‘zaro mos kelishi modallikni universal kategoriya sifatida o‘rganish zaruratini asoslaydi. Kognitiv yondashuvlarning rivojlanishi esa modallikni insonning dunyoni idrok etish modeli, taxmin qilish qobiliyati va baholash mexanizmlarining lingvistik ko‘rinishi sifatida talqin qilish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Виноградов В.В.. Русский язык: грамматическое учение о слове. – Москва : Наука, 1972. – 614 с.
2. Шведова Н.Ю. Русская грамматика. – Москва : Наука, 1980. – 712 с.
3. Булыгина Т.В. Очерки по теории модальности. – Москва : Наука, 1982. – 298 с.
4. Арутюнова Н.Д.. Логический анализ языка: модальность и категории модального значения. – Москва: Наука, 1999. – 345 с.
5. G‘ulomov A. O‘zbek tilining grammatikasi. – Toshkent : O‘qituvchi, 1995. – 320 b.
6. Usmonov S. O‘zbek tilida modallikning ifodalanishi. – Toshkent : Fan, 2001. – 210 b.
7. Asqarova M.. Hozirgi o‘zbek tilining sintaksisi. – Toshkent : O‘qituvchi, 2005. – 240 b.
8. Mahmudov N., Sobirov A.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent : O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008. – 350 b.
9. Mengliyev B. Til va nutq pragmatikasi. – Toshkent : Universitet, 2019. – 276 b.
10. Hudoyberganova D.. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent : Innovatsion Ziyo, 2020. – 280 b.

Abdiraxmonova Feruza Qahramonovna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QIB TUSHUNISH MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN TIPLARI VA ULARNING O‘QUV JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya.*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunish malakasini rivojlantirish jarayonida matn turlarining ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Matnning hikoya, tasviriy, tafsifiy, axborotli, argumentativ va badiiy tiplari o‘quvchining mazmunni anglash, asosiy g‘oyani ajratish, mantiqiy bog‘lanishlarni ko‘rish, matndagi voqea-hodisalar ketma-ketligini tushunish va xulosa chiqara olish ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar*:o‘qib tushunish, matn tiplari, boshlang‘ich ta’lim, hikoya matni, tasviriy matn, axborotli matn, argumentativ matn, badiiy matn, o‘qish savodxonligi, tanqidiy fikrlash, mazmunni anglash, matn tahlili, o‘quv jarayoni.*

ТИПЫ ТЕКСТОВ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ПРИ РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ С ПОНИМАНИЕМ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется значение типов текстов в процессе развития навыков осознанного чтения у учащихся начальных классов с научно-педагогической точки зрения. Обосновывается, что такие типы текстов, как повествовательный, описательный, разъяснительный, информационный, аргументативный и художественный, способствуют формированию у младших школьников умений понимать содержание, выделять основную мысль, устанавливать логические взаимосвязи, определять последовательность событий и делать выводы.*

Ключевые слова: *осознанное чтение, типы текстов, начальное образование, повествовательный текст, описательный текст, информационный текст, аргументативный текст, художественный текст, читательская грамотность, критическое мышление, понимание содержания, анализ текста, учебный процесс.*

TEXT TYPES AND THEIR IMPORTANCE IN THE LEARNING PROCESS FOR DEVELOPING READING COMPREHENSION SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation.*This article examines the significance of different text types in developing reading comprehension skills among primary school students from a pedagogical and scientific perspective. It is substantiated that such text types as narrative, descriptive, explanatory, informational, argumentative, and literary texts contribute to the formation of students’ abilities to understand content, identify the main idea, recognize logical connections, determine the sequence of events, and draw conclusions.*

Key words: *reading comprehension, text types, primary education, narrative text, descriptive text, informational text, argumentative text, literary text, reading literacy, critical thinking, content understanding, text analysis, learning process.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarda o‘qib tushunish malakasini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki o‘qib tushunish - faqat matnni o‘qish jarayoni emas, balki undagi ma’no, g‘oya, mantiqiy bog‘lanishlar va faktlarni idrok etish, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi murakkab kognitiv jarayonlarni o‘z ichiga oladigan fundamental kompetensiyadir. O‘quvchining keyingi o‘qish faoliyati, boshqa fanlarni o‘zlashtirishi,

mustaqil fikrlash darajasi va umumiy akademik muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aynan boshlang‘ich davrda shakllanadigan o‘qib tushunish malakasiga bog‘liq.

Matn tiplari - hikoya, tasviriy, axborotli, argumentativ, tafsifiy va badiiy matnlar - o‘quvchining o‘qish jarayonini samarali tashkil etishda alohida ahamiyatga ega. Har bir matn turi o‘zining nutqiy strukturasiga, mazmun tashish uslubiga, g‘oyaviy yo‘nalishiga ega bo‘lib, o‘quvchilarda turli fikrlash operatsiyalarini rivojlantiradi. Masalan, hikoya matni voqealar ketma-ketligini tushunish va mantiqiy bog‘lanishlarni topish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi; tasviriy matn o‘quvchilarda tasavvur, tasvirni anglash hamda detalga e’tibor qaratish malakasini kuchaytiradi; axborotli matn esa faktlar asosida tahlil qilish, umumlashtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida matn turlarini o‘quv faoliyatiga integratsiya qilish, ularni to‘g‘ri tanlash va metodik asosda qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini sezilarli darajada oshiradi. Xalqaro baholash dasturlari - pisa, pirls - ham o‘quvchilarning muvaffaqiyatini aynan o‘qib tushunish darajasi orqali aniqlashi bejiz emas. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham o‘quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda, bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shu bois matn turlarining o‘quv jarayonidagi o‘rni va ularning o‘qib tushunishga ta’sirini o‘rganish, ularni metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va metodistlar uchun muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi.Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘qib tushunish malakasini rivojlantirish global miqyosda dolzarb bo‘lgan masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar - pisa, pirls - o‘quvchilarning o‘quv muvaffaqiyatini baholashda aynan o‘qib tushunishni asosiy indikator sifatida olayotgani ham bu masalaning qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Chunki o‘qib tushunish - ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchining bilim olish jarayoniga bevosita ta’sir qiluvchi asosiy kompetensiya hisoblanadi. Matnni to‘laqonli anglay olgan o‘quvchi boshqa fanlarni ham puxta o‘zlashtiradi, mustaqil fikrlaydi, mantiqiy tahlil qiladi va ijodiy yondashadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu malakaning ahamiyati yanada yuqori. Chunki aynan boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchining o‘qish faoliyatiga asos yaratadi, uning tafakkuri, idroki va o‘quv strategiyalarining shakllanishiga zamin bo‘ladi. Matn turlari bilan ishlash esa mazkur jarayonning eng samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, har bir matn turi o‘quvchi tafakkurining alohida jihatlarini - tasavvur, tahlil, solishtirish, mantiqiy bog‘lanishlarni ko‘ra olish, xulosa chiqarish - rivojlantiradi.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim mazmuni o‘qish darslarini faqat matnni texnik o‘qish emas, balki mazmunni anglash va qayta ishlash jarayoni sifatida tashkil etishni talab qiladi. Bu esa matn turlaridan maqsadli foydalanishning amaliy samaradorligini oshiradi. Axborot oqimining keskin ko‘payishi sharoitida o‘quvchining matnni tanqidiy tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajrata olish, fakt va fikrni farqlash kabi kompetensiyalarni shakllantirish shart bo‘lib qoldi.

Bozor iqtisodiyotida talab va taklif o‘zaro ta’siri natijasida bozor muvozanati shakllanadi. Bozor mexanizmi aynan talab va taklif egri chiziqlari kesishgan nuqtada muvozanat holatini yuzaga keltiradi. Ushbu holatda bozorda taklif qilinayotgan tovarlar hajmi iste’molchilarning sotib olishga tayyor bo‘lgan hajmiga tenglashadi, ya’ni talab va taklif bir-biriga mos keladi. Natijada narxlar barqarorlashadi, bozorda na ortiqcha mahsulot, na tanqislik holati yuzaga keladi.

Muvozanat sharoitida ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini foyda bilan sotish imkoniga ega bo‘ladi, iste’molchilar esa o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlarni maqbul narxlarda xarid qilishi mumkin. Shu sababli bozor muvozanati har ikkala tomon manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi muhim iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Talab va taklif o‘zgarishiga qarab muvozanat narxining qanday shakllanishini tahliliy jadval orqali ko‘rish mumkin. Masalan, narx 10 000 so‘m bo‘lgan holatda talab taklifdan ancha yuqori bo‘lib, bozorda tanqislik yuzaga keladi. Aksincha, narx 14 000 so‘mga ko‘tarilganda taklif talabdan ortib ketadi va ortiqcha mahsulot paydo bo‘ladi. Faqatgina 12 000 so‘m narx darajasida talab va taklif tenglashib, har ikkalasi 70 ming donani tashkil etadi. Aynan shu nuqta muvozanat narxi hisoblanadi.

Muvozanat narxining shakllanishi bozor uchun bir qator ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Avvalo, narxlarning keskin tebranishi kamayadi va bozor barqarorlashadi. Tovarlar yetishmovchiligi yoki ortiqcha yig‘ilishi holatlari bartaraf etiladi. Ishlab chiqaruvchilar rejalashtirilgan foyda olish imkoniyatiga ega bo‘lsa, iste’molchilar o‘z xaridlarini oldindan rejalashtirib amalga oshira oladi. Shu bilan birga, bozor tebranishlarining oldi olinib, iqtisodiy muhitda nisbiy barqarorlik ta’minlanadi.

Biroq muvozanat buzilgan holatlarda salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Agar narx sun’iy ravishda past belgilansa, bozorda tanqislik paydo bo‘ladi. Aksincha, narx haddan tashqari yuqori bo‘lsa, ortiqcha mahsulot yig‘ilib qoladi va ishlab chiqaruvchilar zarar ko‘rishi mumkin. Bunday vaziyatlarda narxlarning keskin o‘zgarishi, norasmiy yoki “qora bozor”ning shakllanishi, shuningdek, iste’molchilar uchun kutilmagan narx shoklari yuzaga keladi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida ham bozor muvozanatining amaliy ishlashini kuzatish mumkin. Xususan, 2022–2023 yillarda ayrim asosiy iste’mol mahsulotlari, jumladan oziq-ovqat, o‘simlik yog‘i va shakar bozorida talab keskin oshdi. Shu bilan birga, import narxlarining ko‘tarilishi va logistika muammolari taklifning qisqarishiga olib keldi. Natijada muvozanat narxi yuqoriga siljidi. Biroq vaqt o‘tishi bilan bozor mexanizmi orqali narxlar asta-sekin yangi muvozanat darajasiga qaytdi. Ushbu holat talab va taklif asosida ishlovchi bozor mexanizmining real hayotdagi samarali faoliyatini yaqqol namoyon etadi.

Bozor mexanizmining afzalliklari va kamchiliklari hamda uni takomillashtirish yo‘nalishlari

Bozor mexanizmi iqtisodiy resurslarni taqsimlashda muhim rol o‘ynaydi va uning bir qator afzalliklari mavjud. Eng avvalo, bozor sharoitida resurslar talab yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltiriladi, bu esa ularning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi. Raqobat muhitining mavjudligi ishlab chiqaruvchilarni mahsulot sifati va xizmat ko‘rsatish darajasini doimiy ravishda oshirib borishga undaydi. Shu bilan birga, bozor mexanizmi narxlarning erkin va shaffof shakllanishiga imkon yaratadi, ya’ni narxlar talab va taklif nisbatiga qarab belgilanadi.

Bozor sharoitida innovatsiyalar uchun kuchli rag‘bat shakllanadi. Yangi texnologiyalarni joriy etgan va samaradorlikni oshirgan ishlab chiqaruvchilar raqobatda ustunlikka ega bo‘ladi. Natijada iste’molchilar uchun tovar va xizmatlar tanlovi kengayib, ularning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari ortadi. Aynan shu jihatlar bozor mexanizmini iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylantiradi.

Biroq bozor mexanizmi bilan bog‘liq ayrim kamchiliklar ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri daromadlar tengsizligining kuchayishidir. Bozor sharoitida yuqori daromad oluvchi qatlam bilan kam ta’minlangan aholi o‘rtasidagi tafovut kengayib borishi mumkin. Shuningdek, ayrim hollarda raqobatning susayishi monopoliyalarning vujudga kelishiga olib keladi, bu esa narxlarning sun’iy oshirilishi va iste’molchilar manfaatlarining cheklanishiga sabab bo‘ladi.

Bozor mexanizmi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlar va xizmatlar, masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash yoki ekologik muhofaza sohalarida yetarli taklifni har doim ham ta’minlay olmaydi. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchilar ko‘pincha ekologik zararlar va uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlarni inobatga olmay, qisqa muddatli foydani ustuvor deb bilishi mumkin. Iqtisodiy inqirozlar davrida esa bozor mexanizmi beqarorlikka moyil bo‘lib, ishsizlik va narxlarning keskin tebranishi kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.

Shu sababli bozor mexanizmini takomillashtirish va uning salbiy jihatlarini yumshatish muhim ahamiyatga ega. Avvalo, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va uni qo‘llab-quvvatlash zarur. Monopoliyalarga qarshi qat’iy siyosat yuritish orqali bozorda teng sharoitlar yaratish mumkin. Texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish jarayonlarini yangilash iqtisodiy samaradorlikni oshiradi hamda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, innovatsion ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish bozorning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Aholi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy mahsulotlar bo‘yicha esa narxlar nazorati ostida bo‘ladigan maxsus ro‘yxatni shakllantirish ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Bozor mexanizmi zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tartibga soluvchi tizimi bo‘lib, talab va taklifning o‘zaro ta’siri orqali narxlar shakllanadi, ishlab chiqarish jarayonlari muvozanatlanadi hamda iqtisodiy resurslar eng samarali sohalarga yo‘naltiriladi. Ushbu mexanizmning ishlashi shuni ko‘rsatadiki, bozor o‘z-o‘zidan tartiblanadigan tizim bo‘lib, unda har bir iste’molchi va ishlab chiqaruvchi o‘z manfaatini ko‘zlagan holda umumiy iqtisodiy uyg‘unlikka erishadi.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan talab–taklif jadval va grafiklari bozor muvozanatining qanday shakllanishini yaqqol ko‘rsatdi: narx muvozanat darajasidan past bo‘lsa, tanqislik yuzaga keladi; aksincha, narx juda yuqori bo‘lsa, bozorda ortiqcha mahsulot hosil bo‘ladi. Bu esa talab va taklifning doimiy o‘zgarishdagi dinamikasini ko‘rsatadi. Narxlarning ushbu ikki kuch o‘rtasida muvozanatlashishi bozorning sof iqtisodiy qonuniyatlari asosida ro‘y beradi va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Talabning iste’molchilar daromadi, demografik tarkibi, o‘rinbosar tovarlar narxi, moda va kelajakdagi narxlar haqidagi kutishlar kabi omillarga bog‘liq ekanligi, shuningdek taklifning texnologiya, ishlab chiqarish xarajatlari, soliq tizimi va bozordagi raqobat kabi omillar ta’sirida shakllanishi iqtisodiyotning murakkab va ko‘p qatlamli tuzilishini namoyon etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bozor mexanizmi bir qarashda oddiy ko‘rinsa-da, aslida u murakkab iqtisodiy signallar, rag‘batlar va qarorlarning o‘zaro muvofiqlashuvi orqali ishlaydi.

Shuningdek, talab va taklifning o‘zgarishi narxlarning tebranishiga, bu esa iqtisodiyotda investitsion muhit, ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi va iste’mol darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Muvozanat narxining shakllanishi bozorning o‘zini-o‘zi tartibga solish qobiliyatini namoyish etadi va iqtisodiy barqarorlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Biroq bozor mexanizmi mukammal emas: monopoliya xavfi, ekologik zarar, jamoat tovarlarining kamligi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi kabi kamchiliklar mavjud. Shu sababli davlatning narx barqarorligini saqlash, raqobatni rivojlantirish, subvensiyalar orqali strategik sohalarni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy tenglikni ta’minlashdagi roli muhimdir.

Umuman olganda, talab va taklif o‘zaro uyg‘unlikda ishlagan taqdirda bozor mexanizmi iqtisodiyotning tabiiy tartibga soluvchisi sifatida faoliyat yuritadi. U nafaqat narxlarni belgilaydi, balki iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar, resurslardan samarali foydalanish va jamiyat farovonligi uchun poydevor yaratadi. Bozor mexanizmini chuqur anglash esa har qanday iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. – New York: McGraw-Hill, 2010. – 744 p.
2. Mankiw N. G. Principles of Economics. – Boston: Cengage Learning, 2018. – 864 p.
3. Baumol W. J., Blinder A. S. Microeconomics: Principles and Policy. – Boston: Cengage Learning, 2016. – 512 p.
4. Case K. E., Fair R. C., Oster S. M. Principles of Economics. – Boston: Pearson Education, 2017. – 720 p.
5. Sloman J., Garratt D. Economics. – Harlow: Pearson Education Limited, 2021. – 896 p.
6. Krugman P., Wells R. Microeconomics. – New York: Worth Publishers, 2015. – 640 p.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha yillik hisobotlar (2019–2023). – Toshkent, 2024.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Inflyatsiya sharhi va pul-kredit siyosati bo‘yicha hisobotlar. – Toshkent, 2023.
9. Todaro M., Smith S. Economic Development. – Boston: Pearson Education, 2020. – 912 p.
10. Stiglitz J. E. The Price of Inequality. – New York: W. W. Norton & Company, 2012. – 448 p.
11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili. – Toshkent, 2023.

Isrofilova Sayida Tolibovna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

O‘SMIRLARNING O‘ZINI-O‘ZI PSIXOLOGIK HIMOYA QILISHIDA OILAVIY MUHIT VA TARBIYANING ROLI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smirlarning o‘zini-o‘zi psixologik himoya qilish jarayonida oilaviy muhit va tarbiyaning ta’siri ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. O‘smirlik davri emotsional beqarorlik, shaxsiy identifikatsiya, o‘z “men”ini anglash va mustaqillik uchun kurash kuchayadigan bosqich bo‘lib, oilaviy munosabatlar ushbu jarayonlarga eng kuchli ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda ota-onalarning emotsional qo‘llab-quvvatlashi, tarbiya uslubi, oiladagi psixologik iqlim, kommunikatsiya sifati va oila ichidagi ziddiyatlar o‘smirning psixologik himoya strategiyalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik, psixologik himoya, oilaviy muhit, tarbiya uslubi, emotsional qo‘llab-quvvatlash, psixologik iqlim, kommunikatsiya, ota-ona munosabati, konstruktiv himoya, destruktiv himoya, stress, moslashuv, shaxsiy identifikatsiya, oilaviy ziddiyatlar.*

РОЛЬ СЕМЕЙНОЙ СРЕДЫ И ВОСПИТАНИЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ САМОЗАЩИТЕ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически анализируется влияние семейной среды и стиля воспитания на процессы психологической самозащиты подростков. Подростковый возраст является этапом, характеризующимся эмоциональной нестабильностью, усилением личностной идентификации, формированием «я-концепции» и стремлением к самостоятельности. Семейные отношения в этот период выступают одним из наиболее значимых факторов, воздействующих на психологическое состояние подростка. В исследовании рассматривается, как эмоциональная поддержка родителей, воспитательный стиль, психологический климат в семье, качество коммуникации и внутрисемейные конфликты влияют на выбор подростком стратегий психологической защиты.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, психологическая защита, семейная среда, стиль воспитания, эмоциональная поддержка, психологический климат, коммуникация, родительские отношения, конструктивная защита, деструктивная защита, стресс, адаптация, личностная идентификация, семейные конфликты.*

THE ROLE OF FAMILY ENVIRONMENT AND UPBRINGING IN ADOLESCENTS’ PSYCHOLOGICAL SELF-DEFENSE

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the influence of the family environment and parenting style on adolescents’ psychological self-protection processes. Adolescence is a developmental stage characterized by emotional instability, intensified personal identification, formation of the self-concept, and a growing desire for independence. During this period, family relationships serve as one of the most significant factors affecting the adolescent’s psychological well-being. The study explores how parental emotional support, parenting style, family psychological climate, communication quality, and intra-family conflicts shape adolescents’ psychological defense strategies.*

Key words: *adolescence, psychological protection, family environment, parenting style, emotional support, psychological climate, communication, parent–child relationship, constructive defense, destructive defense, stress, adaptation, personal identification, family conflicts.*

Kirish. O‘smirlik davri inson rivojlanishining eng mas’uliyatli, murakkab va emotsional jihatdan barqaror bo‘lmagan bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning psixologik tuzilishi va ijtimoiy munosabatlari keskin o‘zgaradi. O‘smirning o‘z “men”ini anglashga bo‘lgan intilishi,

mustaqillik sari tashlangan ilk qadamlari, ijtimoiy mavqe topishga bo‘lgan ehtiyoji uning ruhiy dunyosida yangi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Ana shunday murakkab psixologik jarayonlar fonida o‘smirning o‘zini-o‘zi psixologik himoya qilish mexanizmlari faol harakatlana boshlaydi.

Psixologik himoya mexanizmlari – bu shaxsning ichki ruhiy muvozanatini saqlash, stress va tashqi bosimlarning salbiy ta’sirini kamaytirish, noxush hissiyotlardan himoyalanishga qaratilgan psixik jarayonlar tizimidir. O‘smirlik davrida bu mexanizmlar ong osti darajasida kuchliroq namoyon bo‘lib, emotsional beqarorlik, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va shaxsiy identifikatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘lanadi.

Mazkur jarayonlarning samarali yoki nosamarali shakllanishi bevosita oilaviy omillar bilan bog‘liq. Oila – o‘smirning birlamchi ijtimoiy muhiti bo‘lib, undagi psixologik iqlim, ota-onalarning munosabati, tarbiya uslubi, qo‘llab-quvvatlov darajasi va kommunikatsiya sifati o‘smirning ruhiy barqarorligi va psixologik himoya strategiyalarini belgilaydi. Iliq, qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muhit konstruktiv himoya mekanizmlarini shakllantirsa, konfliktli, nazoratchi yoki befarq oila esa himoya jarayonlarining buzilishiga, destruktiv mexanizmlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda oila instituti va tarbiyaning o‘smir psixologiyasiga ta’siri bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tobora kengayib bormoqda. Psixologlar fikriga ko‘ra, oilada sog‘lom psixologik atmosfera yaratilishi o‘smirning moslashuvchanligi, stressga chidamliligi va ijtimoiy barqarorligini oshiradi. Shuning uchun oilaning o‘smirning psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishdagi o‘rnini chuqur o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining psixologik va ijtimoiy jihatdan eng sezgir bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda o‘smirning xulq-atvori, emotsional reaktsiyalari, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy identifikatsiya jarayonlari tubdan o‘zgaradi. Bugungi globallashuv, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar va tashqi bosimlarning keskin ortgan sharoitida o‘smirlarning psixologik barqarorligi masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Shu sababli o‘smirlarni salbiy psixologik ta’sirlardan himoya qilish, ularni ruhiy barqarorlikka yo‘naltirish zamonaviy psixologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Oila – o‘smirning asosiy ijtimoiy makoni va psixologik tayanch nuqtasi bo‘lib, uning emotsional va ruhiy holati avvalo oiladagi munosabatlar sifati bilan belgilanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilada mavjud bo‘lgan qo‘llab-quvvatlovchi, iliq va barqaror psixologik muhit o‘smirning konstruktiv psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantiradi. Aksincha, konfliktli, sovuqqon, nazoratchi yoki beparvo oilaviy sharoitlar o‘smirda destruktiv himoya strategiyalari kuchayishiga sabab bo‘ladi, bu esa agressiya, ijtimoiy chekinish, o‘ziga ishonchsizlik, past o‘zini baholash kabi muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. O‘smirlarning psixologik himoya mexanizmlarini o‘rganish psixologiya tarixida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zigmund freyd psixologik himoya tushunchasini shaxsning ichki ziddiyatlar va tashqi bosimlardan himoyalanish vositasi sifatida talqin qilib, uning asosiy turlarini (inkor, proyeksiya, sublimatsiya, regressiya va boshqalar) nazariy jihatdan asoslagan. Anna freyd esa ushbu nazariyani rivojlantirib, ayniqsa bolalik va o‘smirlik davrida himoya mexanizmlarining qanday shakllanishini chuqur o‘rgangan. Uning fikriga ko‘ra, o‘smirlik – bu himoya mexanizmlarining eng faol ishlaydigan davridir, chunki shaxsning “men” tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.

Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi oilaning o‘smirning shaxsiy identifikatsiya jarayoni va ruhiy barqarorligiga kuchli ta’sirini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, o‘smirlik davrida “identifikatsiya – rol chalkashligi” bosqichi yuzaga keladi va bu davrda oilaviy qo‘llab-quvvatlov shaxsni barqaror identifikatsiya tomon yetaklaydi, qo‘llab-quvvatlov bo‘lmagan oilalarda esa himoya mexanizmlari salbiy shakllarda kuchayadi.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi oilaning o‘smir rivojlanishidagi markaziy o‘rni va uning barcha psixologik jarayonlarga, shu jumladan himoya strategiyalarining shakllanishiga ta’sirini asoslaydi. Uning fikriga ko‘ra, oilaning emotsional muhitidagi har bir o‘zgarish o‘smirning stressga javob reaktsiyasini va himoya mexanizmlarining sifatini belgilaydi.

G‘arb psixologiyasida g. Vaillant psixologik himoya mexanizmlarini adaptivlik darajasiga ko‘ra tasniflab, konstruktiv (sublimatsiya, humor) va destruktiv (inkor, agressiv proyeksiya) himoya

turlarining shakllanishida oilaning tarbiya uslubi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. R. Plutchikning emotsional tizimlar nazariyasida esa psixologik himoya mexanizmlari emotsiyalarni boshqarishning ajralmas qismi sifatida ko'riladi, o'smirlikda oilaning qo'llab-quvvatlovchi yoki bosim o'tkazuvchi muhit bo'lishi ushbu jarayonlarga sezilarli ta'sir qiladi.

O'zbek psixologlaridan s. Karimova va b. Qodirov tadqiqotlarida oilaviy muloqot, tarbiya uslublari va oila ichidagi emotsional iqlimning o'smirning ruhiy barqarorligiga bevosita ta'siri ilmiy asoslangan. Ularning ta'kidicha, demokratik va qo'llab-quvvatlovchi tarbiya uslubiga ega oilalarda o'smirlar konstruktiv himoyalarni (ratsionalizatsiya, humor, sublimatsiya) ko'proq qo'llaydilar, avtoritar yoki befarq oilalarda esa destruktiv himoya strategiyalari (inkor, qochish, agressiya) kuchayadi.

Shuningdek, oilaviy munosabatlar sifatining o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi va stressga chidamliligi bilan bog'liqligi haqida ko'plab xalqaro tadqiqotlar mavjud. Santrock, harter, larson kabi olimlar o'smirning o'zini baholashi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy ishonchlilik darajasi oilaviy qo'llab-quvvatlov va kommunikatsiya sifati bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

Oilaviy muhit o'smirning psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishida asosiy determinanta hisoblanadi;

Tarbiya uslubi himoya strategiyalarining konstruktiv yoki destruktiv yo'nalishda rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi;

Emotsional qo'llab-quvvatlov o'smirning stressga chidamliligini oshiradi;

Oilaviy nizolar va kommunikatsiya yetishmovchiligi psixologik himoyaning buzilishiga olib keladi;

Sog'lom oila muhiti o'smirning ruhiy salomatligini mustahkamlashda eng muhim psixologik omillardan biridir.

Muhokama. O'smirlarning o'zini-o'zi psixologik himoya qilish jarayonlari asosan shaxsning ichki kechinmalari, emotsional barqarorligi va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog'liq bo'lsa-da, bu jarayonlarning eng muhim va hal qiluvchi omillaridan biri oilaviy muhit hisoblanadi. Oila – o'smirning birlamchi psixologik makoni bo'lib, undagi munosabatlar sifati o'smirning ruhiy holati, xulq-atvori va himoya mexanizmlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Muhokama jarayonida oilaning o'smirning psixologik himoyasiga ta'siri bir necha yondashuvlarda ko'rib chiqiladi.

Birinchidan, tarbiya uslubi o'smirning psixologik reaksiya shakllanishida asosiy omillardan biridir. Demokratik va qo'llab-quvvatlovchi tarbiya uslubi mavjud bo'lgan oilalarda o'smirlar ko'proq konstruktiv psixologik himoya strategiyalaridan – sublimatsiya, ratsionalizatsiya, intellektualizatsiya va humor kabi vositalardan foydalanishi kuzatiladi. Chunki bunday oilalarda o'smir o'z hissiyotlarini erkin ifodalashi, tushunish va qabul qilinishni his qilishi tufayli stressga nisbatan moslashuvchanlik darajasi yuqori bo'ladi.

Aksincha, avtoritar yoki haddan tashqari nazoratchi tarbiya uslubi mavjud bo'lgan oilalarda o'smirlar ko'pincha inkor, regressiya, agressiv proyeksiya, qochish yoki kompensatsiya kabi destruktiv himoya mexanizmlaridan foydalanadilar. Bunday oilalarda o'smir o'z fikrini erkin ifodalay olmasligi, doimiy tanqid ostida bo'lishi yoki emotsional qo'llab-quvvatlov yetishmasligi sababli ichki ziddiyatlar kuchayadi va himoya vositalari noadekvat shaklda namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, oiladagi emotsional atmosfera o'smirning ichki ruhiy barqarorligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan omildir. Iliq, qo'llab-quvvatlovchi, muloqotga ochiq oilalarda o'smirda xavfsizlik hissi kuchli bo'ladi, bu esa unga salbiy holatlarni konstruktiv yo'l bilan yengib o'tishda yordam beradi. Aksincha, sovuqqonlik, konfliktdorlik yoki befarqlik hukm surgan oilalarda o'smirlar xavotir, ishonchsizlik va agressiyaga moyil bo'lib, bu holat destruktiv himoya shakllarining kuchayishiga olib keladi.

Uchinchidan, ota-onalar bilan kommunikatsiya sifati psixologik himoya jarayonining markaziy komponentlaridan biridir. Ochiq va samimiy muloqot o'smirning o'zini tushunilgan his qilishiga yordam beradi; bu holat uning "men-konsepsiyasi"ning sog'lom shakllanishiga va psixologik himoyaning adekvat bo'lishiga xizmat qiladi. Aks holda, muloqot yetishmovchiligi

o‘smirda ichki ziddiyatning kuchayishiga, o‘zini kamsitilgan yoki qadrsiz his qilishiga olib keladi. Natijada himoya mexanizmlari buziladi va shaxsiy barqarorlik izdan chiqadi.

To‘rtinchidan, oilaviy nizolar o‘smirning psixologik himoyasiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ajralish, ota-onalar orasidagi ziddiyat, doimiy tortishuvlar va zo‘ravonlik o‘smirning emotsional xavfsizlik hissini izdan chiqaradi. Bu esa ko‘pincha agressiv xulq-atvor, izolatsiya, inkor yoki qochish kabi himoya strategiyalarining kuchayishiga sabab bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy nizolar o‘smirning stressga chidamliligini kamaytiradi va psixologik himoya tizimini beqarorlashtiradi.

Beshinchidan, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati ham o‘smirning psixologik himoya mexanizmlariga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy qiyinchiliklar, ota-onalarning bandligi, vaqt yetishmovchiligi – bularning barchasi o‘smirning emotsional ehtiyojlarining qondirilmasligiga olib keladi va himoya strategiyalarining nosog‘lom shaklda rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhit o‘smir uchun asosiy psixologik tayanch bo‘lish bilan birga, uning ichki ziddiyatlari, stressga javob reaktsiyalari va psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Sog‘lom oilaviy munosabatlar o‘smirning konstruktiv himoyasini kuchaytiradi, salbiy muhit esa destruktiv himoya strategiyalarini shakllantiradi.

Xulosa. O‘smirlarning o‘zini-o‘zi psixologik himoya qilish jarayonlari murakkab psixik tizim bo‘lib, uning shakllanishida oilaviy muhit va tarbiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davri emotsional beqarorlik, identifikatsiyaning kuchayishi, o‘zini anglash jarayonlarining faollashuvi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda oila – o‘smirning ruhiy barqarorligini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy ijtimoiy institutdir.

Oila ichidagi psixologik iqlim, ota-onalarning munosabati, tarbiya uslubi va kommunikatsiya sifati o‘smirning psixologik himoya strategiyalarining konstruktiv yoki destruktiv shaklda rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Iliq, qo‘llab-quvvatlovchi, o‘zaro hurmatga asoslangan oilalarda o‘smirlar stressga nisbatan barqarorroq bo‘lib, sublimatsiya, humor, ratsionalizatsiya kabi konstruktiv himoya mexanizmlaridan faol foydalanadilar. Aksincha, nazoratchi, konfliktli yoki befarq oilaviy muhitda inkor, agressiya, regressiya yoki qochish kabi destruktiv himoya shakllari kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlarning o‘zini-o‘zi psixologik himoya qilish mexanizmlarining sog‘lom shakllanishi uchun oilaviy muhitning qulay bo‘lishi, ota-onalarning psixologik savodxonligi, emotsional qo‘llab-quvvatlovning yetarliligi va ijobiy tarbiya usullarining qo‘llanishi zarur. Bu esa o‘smirning ruhiy salomatligini mustahkamlashga, moslashuvchanligini oshirishga hamda jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri topishiga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Фрейд З. Введение в психоанализ. – М.: Наука, 1991. – 512 с.
2. Cramer P. Protecting the self: Defense mechanisms in action. – New York: Guilford Press, 2006. – 320 p.
3. Erikson E. H. Identity: Youth and crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.
4. Minuchin S. Families and family therapy. – Cambridge: Harvard University Press, 1974. – 268 p.
5. Bronfenbrenner U. The ecology of human development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
6. Baumrind D. Parenting styles and adolescent development // Developmental Psychology. – 1991. – Vol. 27, No. 5. – P. 856–869.
7. Karimova S. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 256 b.
8. Qodirov B., Tojiyev M. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2014. – 312 b.
9. Sunnatova R. O‘smirlarning emotsional rivoji va oilaviy omillar // TDPU ilmiy axborotlari. – 2020. – № 3. – B. 85–90.
10. Андреева Г. М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2010. – 448 с.
11. Lewin K. Field theory in social science. – New York: Harper & Row, 1951. – 346 p.

Murodova Nigina Iskandarovna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

TALABALARNING IJODIY O‘ZINI NAMOYON QILISHIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarning ijodiy o‘zini namoyon qilish jarayonida emotsional intellektning roli va psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Emotsional intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar hissiyotini tushunish va samarali muloqotga kirishish qobiliyati sifatida talqin qilinib, ijodkorlikning shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Natijalar emotsional intellektni rivojlantirish talabalar ijodiy salohiyatini oshirishning muhim sharti ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, ijodkorlik, o‘zini namoyon qilish, emotsional barqarorlik, ijodiy fikrlash, ta’lim muhitidagi emotsiyalar, shaxsiy rivoj, motivatsiya, kreativ kompetensiya, kommunikativ ko‘nikmalar.*

ЗНАЧЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ТВОРЧЕСКОМ САМОВЫРАЖЕНИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и психологическое значение эмоционального интеллекта в процессе творческой самореализации студентов. Эмоциональный интеллект рассматривается как способность личности осознавать и управлять собственными эмоциями, понимать чувства других людей и эффективно взаимодействовать в коммуникации, выступая важным фактором формирования творческого мышления. Полученные результаты показывают, что развитие эмоционального интеллекта является важным условием повышения творческого потенциала студентов.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, креативность, самореализация, эмоциональная устойчивость, творческое мышление, эмоции в образовательной среде, личностное развитие, мотивация, креативная компетентность, коммуникативные навыки.*

THE IMPORTANCE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN STUDENTS' CREATIVE SELF-EXPRESSION

Annotation. *This article analyzes the role and psychological significance of emotional intelligence in students' creative self-expression. Emotional intelligence is defined as an individual's ability to recognize and manage personal emotions, understand the feelings of others, and engage in effective communication, serving as an essential factor in the development of creativity. The findings indicate that enhancing emotional intelligence is a crucial condition for increasing students' creative potential.*

Key words: *emotional intelligence, creativity, self-expression, emotional stability, creative thinking, emotions in the educational environment, personal development, motivation, creative competence, communication skills.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, o‘zini erkin ifoda etish, mustaqil fikrlash va innovatsion g‘oyalar yaratish kompetensiyalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Ijodiy o‘zini namoyon qilish jarayoni faqat intellektual imkoniyatlar bilan emas, balki shaxsning emotsional holati, o‘z hissiyotlarini boshqarish darajasi va emotsional tajribalarini to‘g‘ri yo‘naltira olishi bilan ham bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, emotsional intellekt talabalarning ijodkorlik darajasini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Emotsional intellekt tushunchasi d. Goulman, p. Salovery va j. Meyerlardan boshlab ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, u shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash,

boshqarish, boshqalar hissiyotini tushunish va samarali muloqot jarayonini tashkil eta olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan talabalar ijodiy topshiriqlarga faol yondashadi, noodatiy yechimlar taklif qiladi, stress holatida samarali qaror qabul qiladi hamda ijodiy faoliyatdan zavqlanish darajasi yuqori bo‘ladi.

Ichki motivatsiya, emotsional barqarorlik, empatiya, kommunikativ ko‘nikmalar va o‘zini anglash jarayoni ijodiy o‘zini namoyon qilishning zarur shartlari hisoblanadi. Shu bois, ushbu maqolada emotsional intellektning talabalarning ijodiy faolligini oshirishdagi o‘rni, uning tarkibiy komponentlari, ta’lim muhiti bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda ijodiy salohiyatni rivojlantirish jarayoniga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ijodiy tafakkuri, innovatsion fikrlashi va o‘zini namoyon qila olish qobiliyati zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mehnat bozorida kreativ kompetensiyalar, nostandart yechimlar ishlab chiqish qobiliyati, emotsional barqarorlik va kommunikativ madaniyat yuqori baholanayotgan bir paytda talabalarning emotsional intellektini rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda. Chunki ijodkorlik faqat intellektual salohiyat bilan emas, balki shaxsning emotsional holati, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish darajasi va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyati bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan talabalar ijodiy topshiriqlarga faol yondashadi, stress vaziyatlarida barqarorlikni saqlaydi, guruh bilan samarali muloqot qiladi hamda yangi g‘oyalarni ilgari surishda tashabbuskorlik ko‘rsatadi. Aksincha, emotsional o‘zini boshqara olmaslik, ichki ziddiyatlar va past empatiya ijodiy faoliyatni cheklashi, talabaning o‘zini erkin namoyon qilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham innovatsion ta’lim texnologiyalari, kreativ yondashuvlar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarining joriy etilishi emotsional intellektning rolini orttiradi. Talabaning o‘zini anglash, o‘ziga ishonch, muloqotga kirishish qobiliyati va ijodiy tashabbuskorligi jamiyatda raqobatbardosh bo‘lishining asosiy mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, emotsional intellektni rivojlantirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki talabalar ijodkorligini qo‘llab-quvvatlashning muhim psixologik omilidir.

Adabiyotlar tahlili. Emotsional intellekt va ijodkorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik so‘nggi yillarda psixologiya, pedagogika va ta’lim tadqiqotchilari tomonidan keng o‘rganilayotgan yo‘nalishlardan biridir. D. Goulman (1995) emotsional intellektni shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, empatiya ko‘rsatish va sog‘lom muloqot olib borish qobiliyati sifatida talqin qilib, uning shaxsiy muvaffaqiyatga ta’siri intellektual ko‘rsatkichlardan ham kuchli bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. P. Salovery va j. Mayer (1990) esa emotsional intellektni emotsiyalarni tushunish, qayta ishlash va maqsadli faoliyatga yo‘naltirishga yordam beruvchi kognitiv-emotsional mexanizm sifatida izohlagan.

Zamonaviy tadqiqotlar (bar-on, 2006; petrides, 2011) emotsional intellekti yuqori bo‘lgan yoshlar ijodiy fikrlash, noodatiy yechimlar yaratish, stressni boshqarish va ijtimoiy moslashuvda yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanini tasdiqlaydi. Ijodkorlik — divergent tafakkur, tasavvur, intuitiv fikrlash va yangi g‘oyalar yaratish jarayonlarini o‘z ichiga oladi (guilford, 1967; torrance, 1974). Bu jarayonning muvaffaqiyati shaxsning emotsional holati, emotsional barqarorlik va ichki motivatsiya bilan bevosita bog‘liq ekanini ilmiy izlanishlar ko‘rsatadi.

Emotsional intellektning ijodkorlikka ta’siri ko‘p jihatdan shaxsning o‘zini boshqarish va ijtimoiy kompetensiyalariga tayangan. Reuven bar-on (2007) modeliga ko‘ra, emotsional o‘zini anglash, impulsni boshqarish, stressga chidamlilik va ijtimoiy javobgarlik ijodkorlik uchun zarur bo‘lgan emotsional sifatlarni shakllantiradi. Petridesning (trait ei) yondashuvida esa emotsional intellekt shaxsiy fazilat sifatida ijodiy tashabbus, o‘zini namoyon qilish va o‘ziga ishonchni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlar (amabile, 1996; sternberg, 2006) ta’lim muhitidagi emotsional qo‘llab-quvvatlov, o‘qituvchi–talaba o‘rtasidagi ijobiy muloqot va xavfsiz psixologik atmosfera ijodkorlikning shakllanishida muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, empatiya, emotsional sezgirlik, o‘quv jarayonidagi motivatsiya va kommunikativ ko‘nikmalar talabalarning ijodiy o‘zini namoyon qilishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mahalliy olimlar (g. Karimova, r. Mavlonova, n. Nishonova) yoshlarning emotsional rivojlanishi va ijodiy salohiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, emotsional barqarorlik, o‘zini anglash va ijtimoiy faollik ijodiy faollikka zamin yaratishini ta’kidlaydi.

Muhokama. Olingan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt talabalarning ijodiy o‘zini namoyon qilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik mexanizmlardan biridir. Ijodkorlik jarayoni shaxsning kognitiv imkoniyatlarigina emas, balki uning emotsional barqarorligi, o‘z hissiyotlarini boshqarish darajasi va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi bilan uzviy bog‘liq. Salovery va mayer tomonidan taklif etilgan emotsional intellekt modeli emotsiyalarni tushunish, boshqarish va motivatsiya jarayoniga yo‘naltirish qobiliyati kreativ faoliyatning barqarorligini ta’minlashini ko‘rsatadi. Ya’ni, o‘z hissiyotlarini boshqara olgan talaba stress vaziyatlarida ham fikrlash faoliyatini to‘xtatmaydi, bu esa ijodiy topshiriqlarning samaradorligini oshiradi.

Muhokama davomida aniqlanganidek, ijodkorlikning shakllanishi ko‘p jihatdan shaxsning ichki motivatsiyasiga, emotsional xotirjamligiga va o‘ziga bo‘lgan ishonchiga bog‘liq. Emotsional intellekti past bo‘lgan talabalar ko‘pincha tanqidga sezgirlik, o‘zini isbotlashdagi qiyinchiliklar yoki xavotir tufayli ijodiy faollikdan chetlashishi mumkin. Aksincha, emotsional sezgirligi yuqori, empatiyaga ega, muloqotga ochiq talabalarda ijodiy tashabbus va kreativ fikrlash ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ladi. Bu holat bar-on, goulman va petrides tadqiqotlari bilan ham tasdiqlanadi.

Pedagogik jarayon nuqtai nazaridan qaralganda, ta’lim muhitidagi psixologik qo‘llab-quvvatlov, o‘qituvchi–talaba o‘rtasidagi ijobiy muloqot va xavfsiz emotsional atmosfera ijodiy o‘zini namoyon qilishning asosiy shartlaridan biri ekanligi ayon bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan beriladigan konstruktiv teskari aloqa, rag‘bat, ishonch va hurmat talabaning emotsional intellektini kuchaytirib, kreativ jarayonlarda faol ishtirok etishga turtki bo‘ladi. Shuningdek, guruhdagi ijobiy ijtimoiy munosabatlar, qo‘llab-quvvatlovchi kommunikativ muhit ijodkorlikni yanada faollashtiradi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt talabalarda ijodiy fikrlashning ichki resursi sifatida namoyon bo‘ladi. U talabaning o‘zini anglash, o‘ziga ishonish, tashabbus ko‘rsatish, muammolarga noodatiy yondashish va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli muloqot qilish kabi kompetensiyalarini faollashtiradi. Raqamli ta’limning kengayishi, kommunikatsiya vositalarining o‘zgarishi va raqobatbardoshlikning kuchayishi sharoitida emotsional intellekt nafaqat shaxsiy rivoj, balki ijodiy salohiyatni ilgari surishning ham muhim sharti sifatida baholanmoqda.

Shu bois, ta’lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirishga yo‘naltirilgan treninglar, interfaol mashg‘ulotlar, muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi metodlar hamda kreativ faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi psixologik yondashuvlarni kuchaytirish zarur. Bu nafaqat ijodkorlikni rivojlantiradi, balki talabalarni shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatga tayyorlaydigan muhim omilga aylanadi.

Metodologik jadval

Tarkibiy qism	Mazmuni
Tadqiqot predmeti	Talabalarning emotsional intellekti va ijodiy o‘zini namoyon qilish jarayoni.
Tadqiqot obyekti	Oliy ta’lim muassasasidagi talabalar.
Asosiy muammo	Emotsional intellekt darajasi talabalarning ijodiy salohiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
Tadqiqot maqsadi	Emotsional intellektning ijodiy o‘zini namoyon qilishdagi rolini aniqlash va ilmiy asoslash.
Tadqiqot vazifalari	1) EI nazariy asoslarini o‘rganish; 2) Ijodkorlik bilan bog‘liqligini tahlil qilish; 3) EI rivojlantiruvchi omillarni aniqlash.
Tadqiqot metodlari	Adabiyot tahlili, kuzatish, so‘rovnoma, psixologik diagnostika (EI testlari), suhbat, statistik tahlil.
Asosiy metodik vositalar	Goulman EI testi, Bar-On EQ-i, Torrance kreativ fikrlash testi, ijodiy faollik so‘rovnomalari.

Tarkibiy qism	Mazmuni
Tadqiqot gipotezasi	Emotsional intellekti yuqori bo‘lgan talabalar ijodiy o‘zini namoyon qilishda yuqori natijalarga ega bo‘ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt talabalarning ijodiy o‘zini namoyon qilishida hal qiluvchi psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Emotsional intellektning asosiy komponentlari — o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, empatiya, emotsional barqarorlik va samarali kommunikatsiya — ijodiy fikrlashning faollashishiga, noodatiy yechimlar yaratish jarayoniga va talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Emotsional o‘zini boshqara olgan talabalar ijodiy topshiriqlarga tashabbuskorlik bilan yondashadi, muammoli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qiladi hamda kreativ salohiyatini erkin namoyon qiladi.

Tahlil natijalari shuni anglatadiki, ta’lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirish ijodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Psixologik qo‘llab-quvvatlovchi muhit, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ijobiy muloqot, xavfsiz emotsional atmosfera va “ochiq fikrlash”ga undovchi pedagogik yondashuvlar talabalarning ijodiy faolligini sezilarli oshiradi. Aksincha, salbiy emotsional muhit, tanqidga haddan tashqari sezgirlik yoki o‘ziga ishonchsizlik ijodkorlik jarayonini cheklashi mumkin.

Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, interfaol mashg‘ulotlar, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiruvchi metodlar va kreativ ta’lim texnologiyalarini joriy etish muhimdir. Bunday yondashuv talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlabgina qolmay, ularning ijodiy salohiyatini ochish, tashabbuskorlikni kuchaytirish va zamonaviy kasbiy talablarga mos raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, emotsional intellektni rivojlantirish talabalarda ijodiy o‘zini namoyon qilishning psixologik asosini mustahkamlab, ta’lim jarayonining samaradorligini, shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini va professional muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Goleman D. Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.
2. Mayer J. D., Salovey P. What is emotional intelligence? // Emotional development and emotional intelligence / Ed. by P. Salovey, D. Sluyter. – New York: Basic Books, 1997. – P. 3–31.
3. Chamorro-Premuzic T., Furnham A. Personality and intellectual competence. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2005. – 320 p.
4. Kaufman J. C., Sternberg R. J. The Cambridge handbook of creativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 512 p.
5. Karimova G. A. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 240 b.
6. Mavlonova R., Nishonova N., Tolipova X. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 368 b.
7. Hasanboeva O. Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik omillari // Psixologiya jurnali. – 2019. – № 2(3). – B. 55–63.
8. Ильин Е. П. Эмоции и чувства. – СПб.: Питер, 2011. – 783 с.
9. Пономарёв Я. А. Психология творчества. – М.: Наука, 1976. – 304 с.
10. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Педагогика, 1982. – 96 с.

Ramazonova Mashhura Oybek qizi
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MOSLASHUV DARAJASINI BAHOLASHNING PSIXODIAGNOSTIK METODLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning moslashuv darajasini baholashda qo‘llaniladigan psixodiagnostik metodlar mazmuni va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Bolalarning yangi ijtimoiy muhitga kirish jarayonida emotsional holati, kommunikativ faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va xulq-atvor reaksiyalarini baholashda diagnostika vositalarining roli yoritiladi. Maqolada loyihaviy metodlar, kuzatuv va suhbat texnikalari, standartlashtirilgan testlar, adaptatsiya shkalalari hamda tarbiyachi va ota-onalar uchun mo‘ljallangan so‘rovnomalar orqali moslashuv darajasini aniqlashning psixologik mezonlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *moslashuv, maktabgacha yosh, psixodiagnostika, diagnostik metodlar, adaptatsiya shkalasi, loyihaviy metodlar, kuzatuv, suhbat, temperament, emotsional holat, kommunikativ faoliyat, moslashuv mezonlari, psixokorreksiya*

ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье проанализировано содержание и практическая значимость психодиагностических методов, применяемых для оценки уровня адаптации детей дошкольного возраста. Освещается роль диагностических инструментов в оценке эмоционального состояния, коммуникативной активности, социальной адаптации и поведенческих реакций детей в процессе их включения в новую социальную среду. Рассматриваются проективные методы, техники наблюдения и беседы, стандартизированные тесты, шкалы адаптации, а также опросники для воспитателей и родителей как основные средства определения показателей адаптации.*

Ключевые слова: *адаптация, дошкольный возраст, психодиагностика, диагностические методы, шкала адаптации, проективные методы, наблюдение, беседа, темперамент, эмоциональное состояние, коммуникативная активность, критерии адаптации, психокоррекция*

PSYCHODIAGNOSTIC METHODS FOR ASSESSING THE ADAPTATION LEVEL OF PRESCHOOL-AGED CHILDREN

Annotation. *This article analyzes the content and practical significance of psychodiagnostic methods used to assess the adaptation level of preschool-age children. The role of diagnostic tools in evaluating emotional state, communicative activity, social adaptation, and behavioral responses during the process of integrating children into a new social environment is highlighted. The article examines projective techniques, observation and interview methods, standardized tests, adaptation scales, and questionnaires for teachers and parents as key tools for determining adaptation indicators.*

Key words: *adaptation, preschool age, psychodiagnostics, diagnostic methods, adaptation scale, projective techniques, observation, interview, temperament, emotional state, communicative activity, adaptation criteria, psychocorrection*

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi ularning psixologik rivojlanishida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, keyingi ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati, shaxsiy o‘sishi va ijtimoiy faolligining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bog‘cha muhitiga kirib borish jarayonida bola turli emotsional, psixologik va xulq-atvoriy

qiyinchiliklarga duch keladi. Bu jarayonning murakkabligi bolalarning individual temperament xususiyatlari, oiladagi tarbiya uslublari, kommunikativ tajribasi va psixologik tayyorgarligi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida moslashuv darajasini aniqlash va nazorat qilishga qaratilgan psixodiagnostik ishlarning samarali tashkil etilishi dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Zamonaviy psixologiyada moslashuv jarayonining o‘z vaqtida aniqlanishi va diagnostika qilinishi bolalarda stress holatlarini kamaytirish, xulq-atvor buzilishlarining oldini olish, emotsional muvozanatni tiklash hamda ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatni oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Psixodiagnostika orqali bolaning emotsional holati, ijtimoiy munosabatga kirishish qobiliyati, kommunikativ faoliyati, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari va shaxsiy o‘sish darajasini baholash imkoniyati yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning moslashuvini baholashda kuzatuv, suhbat, loyihaviy metodlar, adaptatsiya shkalalari, shaxsiy va xulq-atvoriy testlar, ota-onalar hamda tarbiyachilar uchun mo‘ljallangan so‘rovnomalar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlar moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarni aniqlash, psixokorreksion yordamga ehtiyojni belgilash hamda bola rivojlanishini kompleks baholash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi - maktabgacha yoshdagi bolalarning moslashuv darajasini baholashda qo‘llaniladigan zamonaviy psixodiagnostik metodlarni tahlil qilish, ularning afzalliklari va cheklovlarini aniqlash hamda ta’lim amaliyotida ulardan samarali foydalanish yo‘nalishlarini asoslab berishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi ularning jamoadagi faoliyati, psixik rivojlanishi va emotsional barqarorligi uchun muhim omil sifatida qaraladi. Ayniqsa, bog‘cha muhitiga birinchi bor kirib kelayotgan bolalar uchun moslashuv jarayoni qator emotsional va xulq-atvoriy qiyinchiliklar bilan kechishi mumkin. Ularning hayot ritmi, kun tartibi, kommunikativ munosabatlari va faoliyat shakllari tubdan o‘zgaradi, bu esa sezilarli psixologik zo‘riqishni keltirib chiqaradi. Shu sababli, moslashuv jarayonini o‘z vaqtida aniqlash, uning bosqichlarini baholash va qiyinchiliklarni erta aniqlash bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda psixologik moslashuv jarayonini baholashning ilmiy-uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi ularning psixologik xavfsizligini ta’minlash, shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va salbiy hissiy reaksiyalarni kamaytirish imkonini beradi. Psixodiagnostik metodlarning qo‘llanilishi nafaqat moslashuv dinamikasini o‘rganish, balki bolaga individual yondashuvni aniqlash, psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish va ta’lim muassasasi hamda oila o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda o‘zbekiston respublikasida maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish, psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, bolalar salomatligi va psixik rivojlanishiga e’tiborni oshirishga qaratilgan bir qator davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu esa moslashuv jarayonini psixodiagnostika asosida tizimli ravishda o‘rganish zaruratini yanada kuchaytirdi.

Shu nuqtai nazardan, bolalarning moslashuv darajasini baholash bo‘yicha zamonaviy diagnostik metodlarni tahlil qilish va amaliyotga joriy etish maktabgacha ta’lim psixologiyasi oldida turgan muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonini tadqiq etish va uni baholash metodlari psixologiya fanining eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur yo‘nalishga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, moslashuv murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning natijalari bolaning emotsional barqarorligi, temperament xususiyatlari, kommunikativ faolligi va oilaviy tarbiya muhiti bilan bevosita bog‘liqdir.

J. Piaget bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini aniqlab, moslashuvni yangi tajribalarni o‘zlashtirish hamda mavjud bilimlarni moslashtirish jarayoni sifatida baholagan. L. S. Vygotskiy esa ijtimoiy muhit va o‘zaro muloqot jarayoni moslashuvning asosiy determinanti ekanligini ta’kidlaydi.

E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi bolalarning moslashuv jarayonida ishonch, mustaqillik va tashabbuskorlikning shakllanishiga e'tibor qaratadi.

J. Bowlby va m. Ainsworthning bog'lanish nazariyasi bolaning emotsional xavfsizlik hissi moslashuv jarayonining markaziy ko'rsatkichi ekanligini ilmiy asoslab bergan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolaning bog'chaga qiyinchiliksiz kirish jarayoni, avvalo, ota-ona bilan mustahkam emotsional aloqaga bog'liq.

Zamonaviy psixodiagnostika doirasida d. Baumrindning tarbiya uslublari modeli, buss & plominning temperament tipologiyasi, salovey & mayerning emotsional intellekt nazariyasi moslashuv jarayonini baholashda keng qo'llaniladigan mezonlar sanaladi. G. Craig, a. Anastasi, t. Gordon, ledoux kabi olimlarning ishlari adaptatsiya diagnostikasida testlashtirish, kuzatuv, loyihaviy metodlar va suhbat texnikalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqqan.

Аннотация. *В данном исследовании анализируются усовершенствованные методические аспекты новых учебников алфавита в системе начального образования Узбекистана. Особое внимание уделяется дифференцированному подходу, мультимодальным методам (обучение через зрение, слух и письмо) и интерактивным занятиям, повышающим активность учащихся. Методические рекомендации для учителей способствуют внедрению инновационных подходов в образовательный процесс. По сравнению со старыми учебниками, новые отличаются более качественным подбором текстов, логичной последовательностью букв и разнообразием упражнений. Исследование направлено на научное обоснование методических основ и эффективности новых учебников.*

Ключевые слова: *методика обучения грамоте, начальное образование, учебники алфавита, мультимодальный подход, дифференцированное обучение, интерактивные занятия.*

Introduction. In the context of Uzbekistan’s current educational reforms, the teaching of literacy through the new Uzbek alphabet textbooks has become a vital part of the modernization process of primary education. The Law on Education of the Republic of Uzbekistan (September 23, 2020) and the State Program for the Development of Education and Science (November 6, 2020) emphasize improving literacy instruction by using modern pedagogical and psychological approaches suitable for the Uzbek alphabet and language structure.

In practical classroom settings, the improved methodology focuses on teaching each letter of the Uzbek alphabet through a combination of visual, auditory, and kinesthetic activities. For instance, when teaching the letter "Sh", children first observe the letter's shape, then listen to its pronunciation in familiar words such as "sham" (candle) or "shar" (balloon), and finally practice writing it with colored chalk on a board or in sand trays. This multisensory learning process helps students to connect sound, symbol, and meaning naturally.

A central innovation in the new textbooks is the differentiated learning approach, which allows teachers to support each child according to their learning pace and needs. For example, a child who struggles with recognizing the letter "O‘" may use tactile cards with raised letters, while more advanced learners can create short words like "o‘rik" or "o‘choq". This method supports inclusivity, ensuring that both strong and developing learners build confidence in reading and writing.

The methodological guide for teachers, introduced by the Ministry of Preschool and School Education in 2021, encourages the use of interactive teaching tools. Teachers now organize small-group activities such as matching games, word-building puzzles, and storytelling with visual cues that link new letters with everyday Uzbek words. For example, when studying the letter "G‘", learners may create a mini-story using "g‘isht" (brick), "g‘oz" (goose), and "bog‘" (garden) reinforcing both vocabulary and sound recognition1.

Compared to the older generation of textbooks, the new Uzbek alphabet materials have improved the logical order of letters, beginning with those easiest to pronounce and recognize (like A, O, M, S) before moving to more complex ones (G‘, Q, H, Ch). They also contain short culturally relevant texts, poems, and riddles that develop both phonemic awareness and national identity. For example, instead of abstract sentences, lessons now include meaningful lines like "Ona mehribon, o‘g‘il dono" promoting moral values along with literacy.

Literature analysis and research methodology

In modern Uzbek primary education, the process of teaching literacy has undergone a significant transformation, focusing on active learning, creativity, and individual development. The new alphabet textbooks are not just reading materials they are methodological tools designed to foster linguistic awareness and cognitive growth among first-grade learners. These innovations align with the educational principles established by the Law on Education (2020) and the National Curriculum Framework for Primary Education (2021), both emphasizing learner-centered and competency-based teaching.

In practical classroom application, the differentiated approach allows teachers to consider each child's learning pace and readiness. For instance, some students quickly recognize and pronounce letters like "A" and "M", while others may need additional tactile and visual support. Teachers now group students dynamically one group practices writing letters in the air or on sand trays, another works with magnetic letters forming short words such as "olma", "maktab", or "oy". This flexibility not only improves reading fluency but also strengthens students' motivation and confidence.

Another major methodological innovation is the integration of multimodal learning. The new textbooks encourage children to see, hear, and write simultaneously. For example, when learning the letter "S", students listen to the sound through short songs ("Suv-suv shovqin soladi"), trace the letter on colorful flashcards, and then draw simple pictures related to the sound (such as "suv" or "sariq"). Such multisensory integration engages the visual, auditory, and kinesthetic senses, making learning both enjoyable and memorable2.

Interactive lessons play a crucial role in enhancing learners' participation. Teachers now employ innovative educational games like "Find the Letter," "Sound Detective," and "Word Building Race." These games transform reading practice into a collaborative and joyful process. For instance, when teaching the letter "G", the teacher hides objects beginning with that sound ("gul," "go‘sht," "g‘isht") around the classroom. Students identify and name them, linking phonetic recognition to real-world meaning. This method aligns with global literacy trends that promote active engagement over rote memorization.

[1]Islomov, S.R. *"O‘zbek tili alifbosi islohoti – yangicha yondashuv"*.
[2]Nigmatovna, Y.D. *"O‘zbek (ona) tili o‘qitish metodikasi"*.

The methodological guides accompanying these new textbooks provide step-by-step recommendations for teachers. They include sample lesson plans, phonemic awareness activities, and differentiated tasks suitable for mixed-ability classrooms. Teachers are encouraged to integrate national content poems, proverbs, and folk tales to strengthen moral and cultural identity while teaching letters. For example, while learning the letter "O", teachers may use the proverb "Odob - inson ziynati", helping children internalize ethical and linguistic knowledge together.

The first major improvement is the use of differentiated instruction in early grade classrooms. Teachers now design literacy activities that match the learner's level of readiness and cognitive ability. For instance, while one group practices tracing and recognizing letters through tactile cards, another group works with short phonetic words using magnetic boards.

The second important advancement is the application of multimodal literacy methods. Learning letters is no longer confined to reading and repeating; instead, children engage multiple senses-seeing, hearing, speaking, and writing. For example, during lessons introducing the letter "O," learners might watch a short animated clip, trace the letter in the air, pronounce words beginning with "O," and write it on sand trays.

A third modern feature is the inclusion of interactive learning formats that stimulate active participation. Lessons now frequently employ digital storytelling, interactive games, and group-based phoneme puzzles. Platforms such as BilimLand and EduMarket are integrated into classroom activities, allowing students to match letters with images, record their voices for sound recognition, and collaborate in virtual learning tasks.

Phonics-based method (Systematic phonics instruction):

Practical application: In the new Uzbek alphabet textbook, during the lesson on the letter "U", the teacher begins with a short chant:"U - uy, u - uzum, u –usta" This is followed by a tactile activity where students trace the letter "U" with their finger in sand trays while listening to its sound through headphones. Next, they form the word "uzum" using magnetic letters and practise writing it on mini whiteboards.

Next, they form the word "o'rik" using magnetic letters and practise writing it on mini whiteboards.

Multiliteracies method:

Practical application: During a lesson on the sequence of letters T-U-V, students are given a picture story that features a "tosh" (stone) by the "uchbog'" (arch) under the "voqea" (event). Using the pictures, they orally narrate what happened, then map each word to its initial letter T, U, V, and finally write short sentences1.

Interactive game-based learning method:

Practical application: A classroom is set up as a "Letter Hunt Arena." Children wear name-tags and move around stations labeled with new letters: G', Q, X. Each station presents a challenge: at G' station they listen to "g'oz" (goose) quacking, pick the correct "G'" card, then run to the sand tray and write the letter. At Q station they race to build words like "qalam" or "qo'l" from puzzle pieces, then act them out. At X station they match objects beginning with X (e.g., "xona"), then record themselves pronouncing them.

Discussion and results

Comparison table with real project sources:

Textbook generation / version	Old features / methodology (documented)	New features / innovations (documented)	Source / project report evidence
Earlier Uzbek language / alphabet textbooks (pre-reform)	Heavy reliance on rote learning, limited pictorial support, minimal teacher scaffolding.	N/A (baseline reference)	Not explicitly documented in RTI / TLM Uptake reviews functions as the "before" in comparisons.

[1]O'childiyeva, M., Parpiyev, O. *"Boshlang'ich ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar"*.

Textbook generation / version	Old features / methodology (documented)	New features / innovations (documented)	Source / project report evidence
Pilot / early version of reformed textbooks	Some phonics and contextual text, but still partial scaffolding and irregular letter order.	Revision made: phonics illustrations adjusted, texts rewritten for age-appropriateness, alignment of lessons and sequence refined.	The Desk Review of Uzbek Language Arts and Mathematics Student Textbooks and Teacher Guides (USAID / RTI) documents these specific revisions: "phonics illustrations adjusted … texts rewritten for age-appropriateness … adjusted progression of skills for scaffolding, simple to difficult."
Full rollout of new generation textbooks	N/A (not applicable)	Full implementation of scaffolded teacher guidance, multimodal tasks, differentiated instruction, inclusion of forms of formative assessment, improved layout and alignment between teacher guide (TG) and student books (STB)	In Desk Review of Uzbek Language Arts and Mathematics … the authors note completed revisions: phonics illustrations, alignment, improved writing activities across TGs and STBs. Also, USAID hands over almost 500,000 new Uzbek language arts … describes that the new books "integrate student-centered teaching methods and activities."

Example of a specific documented change (from source) and practical interpretation

From the Desk Review report, a documented revision is "phonics illustrations adjusted" and "rewrote selected texts for age-appropriateness."

Practical interpretation in class:

In the old pilot version, phonics illustrations might have shown isolated letters with abstract images. After revision, new textbooks pair letters with culturally familiar and contextually meaningful visuals (for example, letter "o‘" illustrated with olma in traditional Uzbek setting).

Texts that earlier were formal and lengthy are rewritten as compact dialogues or short stories relevant to children's lives (e.g. home, school, daily chores).

These changes help children link phonics to meaning and increase comprehension, reducing cognitive load during letter learning.

Another documented change is "aligned all lesson activities including grammar and writing with themes/topics" in the revision process1.

Classroom example: If the theme is "Family and Home", then letters introduced may appear in words like ota, ona, uy, bola, and writing exercises ask children to write one sentence about their home using those letters. This thematic alignment helps children see relevance and improves retention.

Expected reported effectiveness (practical outcomes) based on sources

Project documentation reports that teachers used student textbooks and methodical guides as primary lesson planning resources (over 80% rate) in pilot settings2.

In distribution reports, new textbooks are described as "high-quality" materials integrating student-centered methods intended to improve early literacy and numeracy skills.

UNICEF / policy analyses emphasize that one of the core reforms in textbook policy includes improving activity types and teacher competencies to support learners.

The desk review report indicates that revisions already implemented based on teacher feedback include improvements in phonics illustrations, consistency of scope and sequences, and better variety of writing tasks.

[1]Mamatqulova, N. (2024). *Yangi o‘qish darsliklarida fonetik tahlilni o‘rgatish metodikasi.*

[2]Karimova, M. & Shodmonova, Z. (2025). *Yangi avlod alifbo darsliklarida kommunikativ yondashuv.*

Conclusion. This research has examined the methodological foundations and observed outcomes of Uzbekistan's new alphabet textbooks in primary education. The analysis reveals that these revised materials are not simply new editions, but reflect a deeper pedagogical transformation: from passive, copy-based literacy instruction to an active, research-informed methodology that embraces systematic phonics, multimodal sensory engagement, differentiated tasks, interactive game-based activities, scaffolded teacher supports and deliberate text design aligned with the children's cultural and linguistic context.

Practical classroom manifestations are evident: lessons structured around sound letter mapping replace mere letter drills, children engage with letters through visuals, audio and tactile materials, learners of diverse ability levels proceed at their own pace and collaborate through games, and teachers adopt flexible grouping and quick formative assessment routines. Evidence from pilot classrooms, textbook policy reviews and distribution initiatives shows consistent improvements in learner engagement, teacher capacity and alignment between textbook design and grade-appropriate challenge.

References.

1. Islomov, S.R. "O'zbek tili alifbosi islohoti – yangicha yondashuv". Toshkent: (2024). PDF: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tili-alifbosi-islohoti-yangicha-yondashuv-2

2. Nigmatovna, Y.D. "O'zbek (ona) tili o'qitish metodikasi". Toshkent: (2024). PDF: https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/23/NamDU-ARM-11093-Ozbek_tili_oqitish_metodikasi.pdf

3. O'childiyeva, M., Parpiyev, O. "Boshlang'ich ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar". Kokand: (2023). PDF: https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/666/452/1117

4. Mamatqulova, N. (2024). Yangi o'qish darsliklarida fonetik tahlilni o'rgatish metodikasi. – Boshlang'ich ta'lim jurnali, №2, 45-52-betlar.

5. Karimova, M. & Shodmonova, Z. (2025). Yangi avlod alifbo darsliklarida kommunikativ yondashuv. – Ta'lim innovatsiyalari jurnali, №1, 33-40-betlar.

Qosimova Ergashxon Komoldin qizi
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TALIM VA TARBIYA UZLUKSIZLIGINING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya uzluksizligi tushunchasining nazariy-metodologik asoslari hamda uning zamonaviy pedagogik jarayondagi amaliy ahamiyati yoritiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatlari, shaxsning uzluksiz kamol topishi, ta'limning barcha bo'g'inlarida tarbiyaviy jarayonning yagona tizim sifatida tashkil etilishi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, uzluksizlik tamoyilini qo'llashda innovatsion pedagogik texnologiyalar, oila–maktab–jamiyat hamkorligi, ijtimoiy muhitning tarbiyaviy resurslari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va kompetensiya yondashuvining o'rni asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim uzluksizligi, tarbiya uzluksizligi, uzluksiz ta'lim tizimi, pedagogik jarayon, innovatsion texnologiyalar, integrativ yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya, kompetensiya yondashuvi, oila–maktab–jamiyat hamkorligi, pedagogik integratsiya.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В данной статье раскрываются теоретико-методологические основы непрерывности образования и воспитания, а также её практическое значение в современном педагогическом процессе. С научной точки зрения анализируются закономерности поэтапного развития образовательного и воспитательного процесса, непрерывное совершенствование личности и организация воспитательной работы как единой системы на всех звеньях образования. Помимо этого, обосновывается роль инновационных педагогических технологий, сотрудничества «семья–школа–общество», воспитательных ресурсов социальной среды, личностно-ориентированного обучения и компетентностного подхода в обеспечении принципа непрерывности.*

Ключевые слова: *непрерывность образования, непрерывность воспитания, система непрерывного образования, педагогический процесс, инновационные технологии, интегративный подход, личностно-ориентированное обучение, духовно-нравственное воспитание, компетентностный подход, сотрудничество семьи, школы и общества, педагогическая интеграция.*

THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF CONTINUITY IN EDUCATION AND UPBRINGING

Abstract. *This article explores the theoretical and methodological foundations of continuity in education and upbringing, as well as its practical significance in the modern pedagogical process. The paper scientifically analyzes the laws of gradual development of the teaching–learning process, the continuous formation of the individual, and the organization of the educational system as a unified structure across all levels of schooling. In addition, the role of innovative pedagogical technologies, family–school–community cooperation, the educational potential of the social environment, learner-centered education, and the competence-based approach in ensuring continuity is substantiated.*

Key words: *continuity of education, continuity of upbringing, continuous education system, pedagogical process, innovative technologies, integrative approach, learner-centered education, moral and spiritual upbringing, competence-based approach, family–school–community collaboration, pedagogical integration.*

Kirish. Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi sharoitida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ta’lim va tarbiya uzluksizligi zamonaviy pedagogikaning asosiy konseptual yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, insonning butun hayoti davomida intellektual, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi yaxlit jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv ta’limning barcha bo‘g‘inlari — maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha — yagona maqsad va tamoyillar asosida uyg‘un tashkil etilishini talab etadi.

Pedagogik adabiyotlarda ta’lim-tarbiya uzluksizligi shaxsning yosh, psixologik xususiyatlari va rivojlanish bosqichlaridan kelib chiqib, o‘qitish va tarbiyalashning izchil, bosqichma-bosqich olib borilishini taqozo etadi. Uzluksizlik faqat mazmunning takroriyligi emas, balki har bir bosqichda ta’lim mazmunining chuqurlashib borishi, kompetensiyalarning kengayishi, tarbiyaviy faoliyat shakl va metodlarining shaxs ehtiyojlariga mos tarzda boyib borishini anglatadi.

Zamonaviy pedagogik qarashlar ta’lim va tarbiyaning uzviy integratsiyasini, innovatsion texnologiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiya modeli, oila–maktab–jamiyat hamkorligi kabi omillarning bir butun tizimda qo‘llanishini talab etmoqda. Ayniqsa, raqamli ta’lim resurslari, interaktiv metodlar, ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi psixopedagogik yondashuvlar tarbiya uzluksizligini ta’minlashning samarali vositasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Ta’lim va tarbiya uzluksizligini ta’minlash bugungi kunda nafaqat milliy ta’lim tizimi, balki global miqyosdagi pedagogik islohotlarning markazida turibdi. XXI asrda jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, axborot va madaniy sohalaridagi keskin o‘zgarishlar insondan doimiy o‘qib-o‘rganish, o‘zini takomillashtirish va ijtimoiy moslashuvchanlikni talab qilmoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa uzluksiz ta’lim va tarbiyaviy faoliyatning tizimli yo‘lga qo‘yilishiga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta’lim islohotlari, xususan, Milliy o‘quv dasturi, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimi, raqamli ta’lim muhitining yaratilishi, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning joriy qilinishi uzluksiz ta’lim-tarbiya konsepsiyasining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni ma’naviy barkamol, axloqan barqaror, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Dolzarblikning yana bir muhim jihati shundaki, zamonaviy o‘quvchi shaxsining rivojlanish sur’ati, uning ehtiyojlari va qiziqishlari tez o‘zgarib bormoqda. Bunday sharoitda ta’limning faqat bilim berishga yo‘naltirilgan an’anaviy modeli yetarli bo‘lmay qolmoqda. Ta’lim va tarbiya jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan, uning emotsional, ijtimoiy, kommunikativ, kognitiv va mushohada ko‘nikmalarini parallel shakllantiradigan uzluksiz mexanizmga aylanishi zarur.

Bundan tashqari, oilaning tarbiyaviy funksiyalari zaiflashuvi, axborot texnologiyalari ta’sirining kuchayishi, yoshlar ongiga salbiy axborot oqimlarining kirib kelishi tarbiya uzluksizligi tamoyiliga yanada katta ehtiyoj tug‘dirmoqda. Oila–maktab–jamiyat hamkorligining uzluksiz yo‘lga qo‘yilishi, zamonaviy pedagogik va psixologik metodlarning qo‘llanishi yoshlarni ma’naviy-axloqiy deviant xulq-atvordan himoya qilishning samarali omili sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, global iqtisodiyotda inson kapitalining ustuvorligi kuchayib borayotgani, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijtimoiy mas’uliyatli yoshlarni tayyorlash zarurati uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Chunki uzluksiz ta’lim tizimida shakllangan shaxs o‘zining butun hayoti davomida bilimlarini boyitishga, o‘z ustida ishlashga va jamiyatda faol pozitsiyani egallashga intiladi.

Muhokama. Ta’lim va tarbiya uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tahlillar va amaliy tadqiqotlar ushbu jarayonning samaradorligi ko‘plab omillar uyg‘unligiga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonining izchilligi va bosqichma-bosqich rivojlanishi shaxsning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy kamolotini ta’minlovchi asosiy mexanizm sanaladi. Bu jarayonning uzluksiz amalga oshirilishi, pedagogik tizimning barcha bo‘g‘inlarida — maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim bosqichlarida — yagona maqsad, mazmun va tamoyillarga tayanishi zarur.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ta’lim va tarbiya uzluksizligi nafaqat mazmuniy izchillikni, balki metodik, tashkiliy va ijtimoiy jarayonlarning uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etilishini talab etadi. Shaxsning yoshga oid rivojlanish bosqichlari, psixologik ehtiyojlari, qiziqishlari, intellektual yetukligi hamda emotsional barqarorligini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish uzluksizlik tamoyilining asosiy talablardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, Vygotskiy, Dewey, Montessori, Erikson kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan rivojlanish qonuniyatlari uzluksiz ta’limning psixologik poydevorini belgilab beradi.

Tarbiya uzluksizligini ta’minlashda oila–maktab–jamiyat hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Oila tarbiyaviy vazifalarining zaiflashuvi, axborot texnologiyalarining kuchli ta’siri, yoshlarning psixologik ehtiyojlaridagi o‘zgarishlar sababli maktab tarbiyaviy jarayonda yanada faol rol o‘ynashi lozim. Shu bilan birga, jamiyatning ma’naviy muhiti, mahalla institutlari, ijtimoiy tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari tarbiya jarayonining muhim tashqi resurslari sifatida qaraladi. Ushbu omillarning uyg‘unlashuvi natijasida tarbiya jarayoni yagona tizim sifatida shakllanadi va uning uzluksizligi amalda ta’minlanadi.

Shuningdek, ta’lim jarayonining uzluksizligini baholashda pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, kommunikativ savodxonligi, emotsional intellekti, innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalari ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchining ijtimoiy-psixologik kompetensiyalari yuqori bo‘lgan taqdirda, tarbiya jarayoni nafaqat samarali, balki o‘quvchi shaxsiga individual yondashuv asosida tashkil etiladi. Bu esa shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish, ma’naviy mas’uliyat, empatiya, muloqotchanlik kabi fazilatlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy tahlil va muhokamalar ta’lim va tarbiya uzluksizligini ta’minlash zamonaviy pedagogik jarayonning eng dolzarb va strategik yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Uzluksizlik tamoyili — shaxsning butun hayoti davomida intellektual, ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan yaxlit tizim bo‘lib, ta’limning barcha bosqichlarida izchil amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

O‘tkazilgan adabiyotlar tahlili va amaliy tajribalarga ko‘ra, uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ mexanizm sifatida qaraladi. Bu tizim pedagogik tamoyillar, psixologik qonuniyatlar va innovatsion texnologiyalar uyg‘unligida shakllanadi. Raqamli ta’lim imkoniyatlari, interaktiv metodlar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim — uzluksizlikni ta’minlovchi asosiy omillar sifatida o‘zini oqlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2020.
3. Inoyatov I., Xodjayeva D. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Jo‘rayev M. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020.
9. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 2019.
10. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2020.
11. Эльконин Д.Б. Психология развития школьника. – Москва: Ин-т практической психологии, 2018.
12. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. – Москва: Просвещение, 2017.
15. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses. – London: Routledge, 2021.
16. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 2018.

Ro‘ziyeva Nigina Otabekovna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

OLIY TA’LIM TIZIMIDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI BOSHQARISHNING SAMARALI METODLARI VA AMALIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni boshqarishning samarali metodlari va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada muammoli vaziyatlarning shakllanishi, ularni aniqlash va tahlil qilish usullari, shuningdek, pedagoglar tomonidan qo‘llaniladigan qaror qabul qilish strategiyalari yoritilgan. Tadqiqotda interfaol metodlar, treninglar, mentorlik, reflektiv yondashuv va raqamli ta’lim vositalarining muammoli vaziyatlarni hal etishda samaradorligi alohida ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *muammoli vaziyat, muammolarni boshqarish, oliy ta’lim, pedagogik jarayon, qaror qabul qilish, reflektiv yondashuv, interfaol metodlar, trening texnologiyalari, mentorlik, raqamli ta’lim vositalari.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ПРОБЛЕМНЫМИ СИТУАЦИЯМИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются эффективные методы и практические подходы к управлению проблемными ситуациями в педагогическом процессе высших учебных заведений. В статье рассматриваются механизмы возникновения проблемных ситуаций, методы их выявления и анализа, а также стратегии принятия решений, применяемые педагогами. Особое внимание уделено эффективности интерактивных методов, тренингов, наставничества, рефлексивного подхода и цифровых образовательных инструментов при разрешении проблемных ситуаций.*

Ключевые слова: *проблемная ситуация, управление проблемами, высшее образование, педагогический процесс, принятие решений, рефлексивный подход, интерактивные методы, тренинговые технологии, наставничество, цифровые образовательные инструменты.*

EFFECTIVE METHODS AND PRACTICAL APPROACHES TO MANAGING PROBLEMATIC SITUATIONS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation. *This article analyzes effective methods and practical approaches to managing problematic situations in the pedagogical process of higher education institutions. The study examines the formation of problematic situations, methods for their identification and analysis, as well as decision-making strategies employed by educators. Special attention is given to the effectiveness of interactive methods, training sessions, mentoring, reflective approaches, and digital educational tools in resolving problematic situations.*

Key words: *problematic situation, problem management, higher education, pedagogical process, decision-making, reflective approach, interactive methods, training technologies, mentoring, digital educational tools.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi jadal o‘zgarishlar va yangi talablarga duch kelmoqda. Ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki pedagogik jarayonda yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va samarali hal etish qobiliyatini ham talab qiladi. Muammoli vaziyatlar - bu ta’lim jarayonida o‘quvchi va pedagog o‘rtasidagi muloqot, tashkiliy jarayon, resurs yetishmasligi yoki texnologik nosozliklar natijasida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlar bo‘lib, ular pedagogning qaror qabul qilish, muammolarni boshqarish va stressni samarali boshqarish kompetensiyalarini sinovdan o‘tkazadi.

Ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish va o‘quvchilarni tayyorlashni, balki pedagogik jarayonda yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlarni aniqlash, tahlil qilish va samarali hal etish qobiliyatini ham talab qiladi. Muammoli vaziyatlar - bu ta’lim jarayonida talabalar va pedagog o‘rtasidagi muloqot, tashkiliy jarayon, resurs yetishmasligi, texnologik nosozliklar yoki kutilmagan pedagogik holatlar natijasida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlardir. Bu vaziyatlar pedagogning qaror qabul qilish, muammolarni boshqarish, stressni nazorat qilish va samarali kommunikatsiya qilish kompetensiyalarini sinovdan o‘tkazadi.

Zamonaviy sharoitda pedagoglar nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida murakkab vaziyatlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishlari zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlarni samarali boshqarish pedagogning reflektiv yondashuvi, qaror qabul qilish tezligi, muloqot madaniyati va stressni boshqarish qobiliyatlariga bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirish, treninglar va mentorlik tizimi orqali qo‘llab-quvvatlash ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida muammoli vaziyatlarni boshqarishning samarali metodlarini aniqlash va tizimli tarzda qo‘llash amaliy ahamiyatga ega. Pedagoglarning malaka oshirish dasturlariga interfaol metodlar, reflektiv tahlil, mentorlik va raqamli vositalardan foydalangan holda real vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatlarini kiritish nafaqat ularning kompetensiyasini oshiradi, balki ta’lim jarayonining barqarorligini va sifatini uzluksiz yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimida muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarbligi shundaki, bu pedagoglarning professional yetukligini oshirish, pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va oliy ta’lim muassasalarining strategik maqsadlariga erishish imkonini yaratadi. Tadqiqotning maqsadi - muammoli vaziyatlarni boshqarishning amaliy usullarini aniqlash, ularni tizimli tarzda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatish va pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Pedagogning muammoli vaziyatlarni boshqarishdagi samaradorligi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar uchun interfaol metodlar, treninglar, mentorlik, reflektiv yondashuv va raqamli ta’lim vositalari kabi samarali boshqaruv vositalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi - muammoli vaziyatlarni boshqarishning amaliy usullarini aniqlash, ularni tizimli tarzda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatish va pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Shu bois, ushbu maqola muammoli vaziyatlarni boshqarishning samarali metodlari va amaliy yondashuvlarni o‘rganish va tizimlashtirishga bag‘ishlanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi jadal o‘zgarishlar, texnologik yangilanishlar va talabalar ehtiyojlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda pedagoglar pedagogik jarayonda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni tezkor va samarali boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur. Muammoli vaziyatlar - bu o‘quv jarayonida resurs yetishmasligi, tashkiliy muammolar, talabalar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar, texnologik nosozliklar yoki stressli holatlar natijasida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlardir.

Ushbu vaziyatlarni boshqarish pedagogning qaror qabul qilish, kommunikativ va stressni boshqarish ko‘nikmalari, shuningdek reflektiv va analitik yondashuvlariga bevosita bog‘liq. Ta’lim jarayonining sifatini oshirish, pedagogik samaradorlikni ta’minlash va muammoli vaziyatlarda tezkor va oqilona yechimlarni ishlab chiqish pedagogik jarayonning dolzarb masalalaridan biridir.

Muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasi oliy ta’lim sifatini ta’minlashda muhim strategik omil hisoblanadi. Pedagogning bu kompetensiyasi ta’lim jarayonining samaradorligi, pedagogik qarorlarning sifatini oshirish va talabalar bilan muloqotni samarali tashkil etish bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, pedagogik faoliyatni kompleks ravishda tashkil etish, innovatsion va interfaol metodlar, reflektiv yondashuv, raqamli vositalar va mentorlik tizimidan foydalanish muammoli vaziyatlarni tez va samarali hal etishga imkon beradi.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida muammoli vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha tizimli yondashuv hali to‘liq joriy etilmagan. Ko‘plab pedagoglar muammoli vaziyatlarda intuitiv qaror qabul qilishga majbur bo‘lmoqda, bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir

ko‘rsatadi. Shu sababli pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, mentorlik va tajriba almashish platformalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida interfaol metodlar, treninglar, mentorlik, reflektiv tahlil va raqamli ta’lim vositalaridan foydalangan holda muammoli vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha tizimli yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqot muammoli vaziyatlarni samarali boshqarish usullarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etishning dolzarbligini oshiradi.

Yuqoridagi jihatlar mavzuning nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatini belgilaydi, chunki pedagoglarning muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasi oliy ta’lim sifatini oshirish va pedagogik jarayonni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Muammoli vaziyatlarni boshqarish masalasi pedagogika va oliy ta’lim sohasida keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Xorijiy tadqiqotlar D. Schön (1983) tomonidan ilgari surilgan “reflektiv amaliyot” konsepsiyasiga asoslanadi. Schön pedagoglarning o‘z faoliyatida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda refleksiya jarayonining ahamiyatini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, J. Dewey (1933) ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni hal etish orqali o‘quvchi va pedagogning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda M. Fullan (2007) va P. Drucker (1999) pedagogik va tashkiliy qaror qabul qilish jarayonlarini boshqarish bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqib, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarning muammoli vaziyatlarni hal etishga qo‘shgan hissasini yoritadilar. Shuningdek, M. Koehler va P. Mishra (2009) tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli texnologik, pedagogik va predmet bilimlarini uyg‘unlashtirish orqali muammoli vaziyatlarni samarali boshqarishning imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Mahalliy olimlar ham muammoli vaziyatlarni boshqarish masalalarini faol tadqiq qilmoqdalar. A. Abduqodirov (2019), N. To‘xliev, O. Tolipov va K. Hasanboeva pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, interfaol metodlar va mentorlik tizimi orqali muammoli vaziyatlarni hal etish usullarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlarida pedagoglarda reflektiv yondashuvni rivojlantirish, treninglar va raqamli vositalardan foydalanish muammoli vaziyatlarni boshqarish samaradorligini oshirishda muhim ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, mavjud adabiyotlar muammoli vaziyatlarni boshqarish bo‘yicha alohida metodlar va amaliy yondashuvlarni tavsiflab bergan bo‘lsa-da, oliy ta’lim sharoitida ularni tizimli ravishda integratsiya qilish, samaradorligini baholash va pedagogik jarayonga kiritish masalalari hali ham yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqot ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Adabiyotlar tahlili va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim pedagoglari uchun muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasi ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Pedagogik jarayonda uchraydigan murakkab vaziyatlar - talabalar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar, tashkiliy muammolar, resurs yetishmasligi yoki texnologik nosozliklar - pedagogning qaror qabul qilish, muammolarni boshqarish va stressni samarali nazorat qilish qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, reflektiv yondashuv, interfaol metodlar, treninglar va mentorlik tizimi muammoli vaziyatlarni boshqarishda eng samarali vositalardan hisoblanadi. D. Schön (1983) va J. Dewey (1933) tadqiqotlarida pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish va murakkab vaziyatlarni hal etishda refleksiya jarayonining ahamiyati alohida ta’kidlangan. Shu bilan birga, M. Koehler va P. Mishra (2009) tomonidan ilgari surilgan TPACK modeli pedagogning texnologik, pedagogik va predmet bilimlarini uyg‘unlashtirib, muammoli vaziyatlarni samarali boshqarish imkoniyatini beradi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar ko‘pincha muammoli vaziyatlarda intuitiv qaror qabul qilishga majbur bo‘lmoqda, bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli interfaol metodlar, reflektiv tahlil, raqamli vositalar va mentorlik tizimini joriy etish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yakuniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasini shakllantirish nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, balki amaliy mashg‘ulotlar va innovatsion pedagogik vositalar yordamida amalga oshirilishi zarur.

Muammoli vaziyatlarni boshqarishda interfaol metodlar va reflektiv tahlil pedagogning o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, xatolardan o‘rganish va kelgusidagi qarorlarni takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa pedagoglarning professional rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlarni boshqarish faqatgina nazariy yondashuvlar bilan cheklanmasligi, balki praktik mashg‘ulotlar, real vaziyatlarni modellashtirish va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik orqali amalga oshirilishi zarur. Shu yo‘l bilan pedagoglarning stressga chidamliligi, qaror qabul qilish tezligi va muloqot ko‘nikmalari sezilarli darajada oshadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim pedagoglari uchun muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasi ta’lim jarayonining sifatini oshirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Pedagogik jarayonda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlar - talabalar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar, tashkiliy muammolar, texnologik nosozliklar yoki resurs yetishmasligi - pedagogning qaror qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va stressni boshqarish qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, muammoli vaziyatlarni boshqarishda reflektiv yondashuv, interfaol metodlar, treninglar, mentorlik tizimi va raqamli ta’lim vositalari eng samarali vositalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagoglar o‘rtasida tajriba almashish, real vaziyatlarni modellashtirish va doimiy malaka oshirish mashg‘ulotlari kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo‘shimcha ravishda, pedagoglar o‘rtasida tajriba almashish, professional hamjamiyatlar va hamkorlik platformalarini yaratish, real vaziyatlarni modellashtirish va doimiy malaka oshirish mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu yo‘l bilan pedagoglarning professional yetukligi oshadi, ta’lim jarayoni barqarorlashadi va oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim sifatining uzluksiz oshishi ta’minlanadi.

Muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy mashg‘ulotlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar yordamida amalga oshirilishi zarur. Bu esa oliy ta’lim tizimining sifatli rivojlanishi va pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Qo‘shimcha ravishda, muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasini shakllantirishning samarali mexanizmlari pedagogik jarayonni innovatsiyalashtirishga imkon yaratadi. Raqamli vositalar, elektron ta’lim platformalari va simulyatorlar pedagoglarga murakkab vaziyatlarni amaliyotda mashq qilish imkonini beradi, qaror qabul qilish tezligi va sifatini oshiradi. Interfaol metodlar va reflektiv tahlil esa pedagogning o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, xatolardan o‘rganish va kelgusidagi qarorlarni takomillashtirish imkonini yaratadi.

Yakuniy xulosaga ko‘ra, muammoli vaziyatlarni boshqarish kompetensiyasini shakllantirish nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, balki amaliy mashg‘ulotlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar yordamida amalga oshirilishi zarur. Bunday yondashuv pedagoglarning professional yetukligini oshirish, ta’lim jarayonini barqaror rivojlantirish va oliy ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abduqodirov A. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirish omillari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019. – 184 b.

2. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. – New York: W. H. Freeman, 1997. – 604 p.

3. Bruner J. The culture of education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1996. – 224 p.

4. Dewey J. How we think. – Boston: D. C. Heath, 1933. – 301 p.
5. Fullan M. The new meaning of educational change. – 4th ed. – New York: Teachers College Press, 2007. – 338 p.
6. Hasanboeva K., Nishonov U. Pedagogik mahorat va zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 212 b.
7. Koehler M. J., Mishra P. What is technological pedagogical content knowledge (TPACK)? // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. – 2009. – Vol. 9, No. 1. – P. 60–70.
8. Schön D. A. The reflective practitioner: How professionals think in action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
9. Tolipov O., To‘xliyev B. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Noshir, 2020. – 256 b.
10. Vygotsky L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
11. Drucker P. F. Management challenges for the 21st century. – New York: Harper Business, 1999. – 224 p.
12. Nishonov U. Oliy ta’limda innovatsion pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi // O‘zbekiston pedagogika jurnali. – 2022. – № 4(2). – B. 45–52.

Saidova Dildora Raxmatovna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYADA INSON VA TABIAT MUNOSABATINING QADRIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekologik ta'lim va tarbiyada inson va tabiat munosabatining qadriy asoslari tahlil qilinadi. Unda insonning tabiatga nisbatan ongli munosabati, ekologik mas'uliyat, ekologik qadriyatlar va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Aksiologik yondashuv asosida inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ekologik madaniyat va ekologik tafakkurni rivojlantirish yo'llari ilmiy asosda tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, inson va tabiat munosabati, ekologik qadriyatlar, aksiologik yondashuv, ekologik madaniyat, ekologik ong, barqaror rivojlanish, ijtimoiy mas'uliyat, pedagogik hamkorlik.*

ЦЕННОСТНЫЕ ОСНОВЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЫ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ

Аннотация. *В данной статье анализируются ценностные основы взаимоотношений человека и природы в экологическом образовании и воспитании. Раскрываются особенности формирования у учащихся осознанного отношения к природе, экологической ответственности, экологических ценностей и механизмов их развития в образовательном процессе. На основе аксиологического подхода рассматривается взаимосвязь человека и природы, пути развития экологической культуры и экологического мышления. Кроме того, исследуются эффективные методы внедрения экологических ценностей в сознание молодёжи, значение сотрудничества учителя и семьи, а также воспитательный потенциал идей устойчивого развития.*

Ключевые слова: *экологическое образование, экологическое воспитание, взаимоотношение человека и природы, экологические ценности, аксиологический подход, экологическая культура, экологическое сознание, устойчивое развитие, социальная ответственность, педагогическое сотрудничество.*

VALUE-BASED FOUNDATIONS OF HUMAN–NATURE RELATIONS IN ENVIRONMENTAL EDUCATION AND UPBRINGING

Abstract. *This article analyzes the value-based foundations of the relationship between humans and nature in environmental education and upbringing. It explores the development of students' conscious attitude toward nature, ecological responsibility, environmental values, and the psychological-pedagogical mechanisms for cultivating them in the educational process. Based on the axiological approach, the article discusses the interconnection between humans and nature, as well as the ways to develop environmental culture and ecological thinking. Additionally, it highlights effective methods for instilling ecological values in young people's minds, the importance of teacher–family cooperation, and the educational significance of sustainable development concepts.*

Key words: *environmental education, environmental upbringing, human–nature relationship, ecological values, axiological approach, environmental culture, ecological awareness, sustainable development, social responsibility, pedagogical cooperation.*

Kirish. Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik qadimdan insoniyat tafakkurining markazida bo'lib kelgan. Tabiat inson hayotining manbai, yashash muhiti va ruhiy oziqasi sifatida beqiyos ahamiyatga ega. Ammo so'nggi o'n yilliklarda inson faoliyatining oqibatida ekologik muvozanatning buzilishi, iqlim o'zgarishlari, resurslarning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishining kuchayishi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda jiddiy inqirozni yuzaga keltirmoqda. Shu

sababli, yosh avlodda tabiatga nisbatan mehr, hurmat va mas'uliyat hissini tarbiyalash bugungi ta'lim-tarbiya tizimining dolzarb vazifasiga aylangan.

Ekologik ta'lim va tarbiya faqat tabiatni o'rganish yoki ekologik muammolarni bilish emas, balki inson shaxsida ekologik qadriyatlarni shakllantirish jarayonidir. Bu qadriyatlar - insonning tabiat bilan o'zaro aloqasini belgilovchi axloqiy me'yorlar, ijtimoiy mas'uliyat va ruhiy uyg'unlikni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida aksiologik yondashuv - ya'ni qadriyatlar asosida o'qitish - ekologik madaniyatni rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda ekologik ta'limning maqsadi nafaqat bilim berish, balki insonda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ekologik tafakkur va barqaror rivojlanish g'oyalariga sadoqatni shakllantirishdan iborat. Bu esa o'quvchilarda ekologik muammolarni hal etish madaniyatini, tabiatni asrashni insoniy burch sifatida anglashni va ekologik qarorlar qabul qilishda mas'uliyatni kuchaytirishni talab etadi.

Mazkur maqolada ekologik ta'lim va tarbiyada inson va tabiat munosabatining qadriy asoslari, ularni shakllantirish mexanizmlari, o'qituvchi, oila va jamiyat hamkorligining ahamiyati hamda zamonaviy aksiologik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi davrda inson va tabiat o'rtasidagi munosabat global ahamiyat kasb etgan masalaga aylangan. Ekologik muammolarning chuqurlashuvi, iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi insoniyat hayot sifati va barqaror taraqqiyotga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu holat insonning tabiatga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, uni yangi qadriyatlar tizimi asosida qayta shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi. Shu sababli, ekologik ta'lim va tarbiyada inson va tabiat munosabatining qadriy asoslarini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va ma'naviy dolzarb masalalardan biridir.

Ekologik qadriyatlar - bu insonning tabiat bilan o'zaro aloqasini belgilovchi ma'naviy mezonlar, mas'uliyat, mehr-muhabbat va ongli ehtiyotkorlikni ifodalaydi. Ularni shakllantirish orqali inson o'zini tabiatning bir bo'lagi sifatida anglaydi, ekologik muammolarga befarq bo'lmaydi va o'z xatti-harakatlarini ekologik xavfsizlik tamoyillari asosida boshqaradi. Shu jihatdan, ta'lim jarayonida aksiologik (qadriyatlarga asoslangan) yondashuv ekologik madaniyatni rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026 yillar uchun", "Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunlarda yosh avlodda ekologik ongni shakllantirish, ekologik madaniyatni yuksaltirish va tabiatni asrash qadriyatlarini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Bugungi ekologik ta'limning dolzarbligi uning barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog'liqligidadir. Chunki ekologik qadriyatlarni singdirish orqali inson faqat tabiatni asrashni emas, balki jamiyat taraqqiyotini ekologik muvozanat asosida tashkil etishni ham o'rganadi. Bu esa yosh avlodni ijtimoiy mas'uliyatli, tabiatni qadrlovchi va uni asrab-avaylashni hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Ekologik ta'lim va tarbiyada inson va tabiat munosabatining qadriy asoslarini o'rganish - bu hozirgi davrda insoniyatning ma'naviy yangilanishi, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror taraqqiyot g'oyalarini amalga oshirishning ilmiy-pedagogik asosi sifatida nihoyatda dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabat masalasi qadimdan falsafiy, axloqiy va pedagogik tafakkur markazida bo'lib kelgan. So'nggi asrlarda esa bu mavzu ekologik inqirozning kuchayishi va insoniyatning tabiat bilan o'zaro aloqalaridagi nomutanosiblik tufayli dolzarb ilmiy yo'nalishga aylandi. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim va tarbiyada inson va tabiat munosabatini shakllantirish shaxsning ekologik ongini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar - A. Avloniy, G. Yakubova, D. Sobirova, M. To'raeva, Sh. Baratov, G. Ismoilova va boshqalar - o'quvchi shaxsini tarbiyalashda ekologik va ma'naviy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligini ta'kidlab o'tganlar.

A. Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida insonning tabiatga nisbatan axloqiy munosabatini jamiyat madaniy darajasi bilan bog‘lab, tabiatni asrashni milliy qadriyat sifatida ko‘rsatadi.

G. Yakubova ekologik ta’limda aksiologik yondashuvni markaziy tamoyil sifatida qarab, ekologik qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish orqali inson va tabiat uyg‘unligini rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Sh. Baratov ta’limda qadriy yondashuvning o‘rni haqida yozar ekan, tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik mas’uliyatni tarbiyalashni shaxsning ma’naviy barkamolligi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qiladi.

D. Sobirova esa o‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirishda interfaol metodlar va amaliy loyihalarning ahamiyatini alohida ta’kidlab, ekologik tarbiyani ta’lim tizimining barcha bosqichlariga integratsiyalash zarurligini asoslaydi.

Chet ellik olimlar - L.S. Vygotskiy, J. Dewey, C. Rogers, A. Maslow, A. Naess, D. Orr, E. Fromm, F. Capra kabi mutafakkirlar - inson va tabiat o‘rtasidagi axloqiy, psixologik va falsafiy aloqadorlikni chuqur tahlil qilganlar.

L.S. Vygotskiy o‘zining ijtimoiy-madaniy nazariyasida inson tafakkurining shakllanishi jamiyat va muhit bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlab, tabiat bilan o‘zaro aloqani ijtimoiy qadriyat sifatida ko‘radi.

J. Dewey “tajribaga asoslangan ta’lim” nazariyasi orqali insonning tabiatdagi amaliy faoliyatini ta’limning markaziga qo‘yadi va ekologik qadriyatlarni tajriba orqali o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.

A. Maslowning “ehtiyojlar ierarxiyasi” nazariyasi ekologik qadriyatlarni insonning o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish ehtiyoji bilan bog‘lab, tabiatni asrashni ma’naviy ehtiyoj sifatida talqin qiladi.

C. Rogers gumanistik yondashuv asosida o‘quvchi shaxsida tabiatga nisbatan mehr, empatiya va hamdardlik hissini tarbiyalash ekologik ongni shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatadi.

A. Naessning “chuqur ekologiya” konsepsiyasi esa insonni tabiatning markazida emas, balki uning bir qismi sifatida ko‘rib, ekologik qadriyatlarni inson hayotining axloqiy mezoniga aylantirishni ilgari suradi.

D. Orr ekologik savodxonlik g‘oyasini asoslab, ekologik ta’limni nafaqat bilim beruvchi, balki qadriy ongni shakllantiruvchi tizim sifatida tavsiflaydi.

Tahlillardan kelib chiqadiki, mahalliy va xorijiy olimlar fikrida bir umumiy g‘oya ustuvor - bu insonning tabiat bilan uyg‘un hayot kechirishi uchun ekologik qadriyatlarni shakllantirish zarurligidir.

Ekologik qadriyatlar insonning ichki dunyosida mas’uliyat, hamdardlik, ehtiyotkorlik, tejamkorlik va tabiatga mehr kabi his-tuyg‘ularni mustahkamlaydi. Shu qadriyatlarni ta’lim jarayonida rivojlantirish orqali ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik madaniyat barqaror shakllanadi.

Muhokama. Ekologik ta’lim va tarbiya jarayonida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni qadriy asosda shakllantirish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki ekologik inqirozning ildizida insonning tabiatga nisbatan befarqligi, iste’molchilik qarashlari va ekologik qadriyatlarning zaifligi yotadi. Shu bois ekologik ta’lim faqat ekologik bilimlarni berish bilan cheklanmasligi, balki o‘quvchilarda tabiatni qadrlash, uni asrash, unga mehr va mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish fazilatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Aksiologik (qadriyatga asoslangan) yondashuv ekologik tarbiya samaradorligini oshiruvchi eng muhim pedagogik yo‘nalishlardan biridir. Bu yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy tajribasiga, emotsional kechinmalariga va ichki motivatsiyasiga tayangan holda ularni tabiatni anglash va qadrlashga o‘rgatadi. Qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchida ekologik mas’uliyatni, empatiyani va inson hamda tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni his etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ekologik ta’limda qadriyatga asoslangan texnologiyalarning samaradorligi shundaki, ular o‘quvchini “biluvchi sub’ekt”dan “faol ishtirokchi”ga aylantiradi. O‘quvchi tabiatni o‘rganish jarayonida nafaqat ekologik qonuniyatlarni tushunadi, balki o‘z xatti-harakatining ekologik

oqibatlarini anglay boshlaydi. Bunday yondashuvda **interfaol metodlar, loyiha asosidagi ta'lim, amaliy ekologik aksiyalar, ijodiy topshiriqlar** va **refleksiya mashg'ulotlari** muhim o'rin tutadi. Masalan, "Tabiatni saqla!", "Yashil hafta", "Ekologik tanlov" kabi faoliyatlar o'quvchilarning ekologik qadriyatlarini mustahkamlaydi, ularni amaliy faoliyatga jalb etadi.

O'qituvchining roli bu jarayonda beqiyosdir. U nafaqat bilim beruvchi, balki **qadriyat tashuvchi va namuna ko'rsatuvchi shaxs** sifatida maydonga chiqadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotda ularning ekologik his-tuyg'ularini uyg'otadi, tabiatga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni shakllantiradi. Shu sababli, o'qituvchining ekologik savodxonligi va aksiologik kompetensiyasi ekologik ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Muhokama davomida yana bir muhim jihat - bu oila va maktab hamkorligidir. Ota-onalar ekologik qadriyatlarni farzand tarbiyasiga singdirishda o'qituvchi bilan birgalikda harakat qilsa, natija yanada samarali bo'ladi. Oila muhitida ekologik madaniyat, tejamkorlik va tabiatni asrash qadriyatlari mustahkamlanganda, bola bu tamoyillarni hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qiladi.

Ekologik qadriyatlarni shakllantirishda o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Boshlang'ich bosqichda tabiatga mehr, o'yin orqali ekologik odatlar; o'rta bosqichda mas'uliyat va ekologik ong; yuqori bosqichda esa refleksiya va ijtimoiy faol pozitsiya shakllanadi. Shu tarzda ekologik qadriyatlar shaxsning ma'naviy poydevoriga aylanadi.

Xulosa. Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni saqlash - bu zamonaviy ta'lim va tarbiyaning eng muhim maqsadlaridan biridir. Ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida qadriy yondashuvni qo'llash inson shaxsida tabiatga nisbatan mehr, hurmat, mas'uliyat va ongli ehtiyotkorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat ekologik bilimlarni egallashni, balki ularni hayotiy qadriyat darajasiga ko'tarishni ta'minlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya samaradorligi o'quvchilarning ekologik qadriyatlarga bo'lgan munosabati, ularning tabiatga nisbatan ichki motivatsiyasi va faol ishtirokiga bevosita bog'liq. Aksiologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni insonni tabiatning ajralmas qismi sifatida anglashga, ekologik mas'uliyatni hayot tamoyiliga aylantirishga undaydi.

O'qituvchi, oila va jamiyatning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari natijasidagina ekologik madaniyat barqaror shakllanadi. Shu bois ekologik qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish ta'lim tizimining barcha bosqichlarida izchil amalga oshirilishi zarur. Bu jarayon O'zbekistonning "Yangi taraqqiyot strategiyasi", "Ekologik ta'lim va tarbiya konsepsiyasi" hamda "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da belgilangan ustuvor yo'nalishlarga hamohangdir.

Xulosa qilib aytganda, ekologik ta'lim va tarbiyada inson va tabiat munosabatining qadriy asoslarini rivojlantirish - bu nafaqat pedagogik jarayon, balki insoniyatning ekologik xavfsiz kelajagini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq.* - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Yakubova G.A. *Aksiologik yondashuv asosida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari.* - Buxoro: BXU nashriyoti, 2021.
3. Sobirova D.A. *Ekologik ta'limda qadriyat yondashuvining o'rni va ahamiyati.* - Samarqand: SamDTU, 2019.
4. Baratov Sh.R. *Ta'lim jarayonida ekologik qadriyatlar tizimini shakllantirish texnologiyalari.* - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. To'raeva M.R. *O'quvchilarda ekologik tafakkur va madaniyatni rivojlantirish metodikasi.* - Toshkent: TDPU, 2022.
6. Vygotskiy L.S. *Myshleniye i rech.* - Moskva: Pedagogika, 1991.
7. Dewey J. *Experience and Education.* - New York: Macmillan, 1938.
8. Rogers C. *Freedom to Learn.* - Columbus: Merrill, 1969.
9. Naess A. *Ecology, Community and Lifestyle: Outline of an Ecosophy.* - Cambridge: Cambridge University Press, 1989.
10. Orr D. *Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World.* - Albany: SUNY Press, 1992.

Seydullayev Maxmud Satiniyazovich
Buxoro xalqaro unevirsiteti magistri

YOSH SPORTCHILARDA UMUMIY (AEROB) CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Kichik maktab yoshidagi bolalarda chidamlilik darajasi ancha past bo‘ladi. Biroq 10 yoshlarga kelib ularda tezkor ishni bir necha marta bajarishga (qisqa masofaga takroriy yugurish), shuningdek, nisbatan uzoq vaqt davomida kam shiddatli ishni (sekin yugurish) bajarishga bo‘lgan qobiliyat oshadi. Demak, sekin yugurish kichik maktab yoshidan boshlab chidamlilikni rivojlantirish uchun muvaffaqiyat bilan qo‘llanilishi mumkin. Birinchi mashg‘ulotlardanoq umumiy chidamlilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim. Bunda bir maromli uzoq davom etadigan sekin yugurishdan foydalanish tavsiya etiladi .Mualliflar mashq paytida umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan usullar va uslublar, shuningdek, bir guruh murabbiylar tomonidan o‘tkazilgan tajriba hamda uning natijalarini ta’riflab berganlar.Biror bir faoliyatda charchoqqa qarshilik ko‘rsatish qobiliyati chidamlilik deb ataladi.*

Kalit so‘zlar: *chidamlilik, aerob xususiyat, mushaklararo koordinatsiya, organizmning bufer tizimlari.*

РАЗВИТИЕ ОБЩЕЙ (АЭРОБНОЙ) ВЫНОСЛИВОСТИ У ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. *У детей младшего школьного возраста уровень выносливости довольно низкий. Однако к 10 годам у них повышается способность выполнять быструю работу несколько раз (повторные забеги на короткие дистанции), а также способность выполнять менее интенсивную работу в течение более длительного времени (медленный бег). Следовательно, медленный бег с младшего школьного возраста может успешно использоваться для развития выносливости.С первых тренировок следует уделять большое внимание развитию общей выносливости. Для этого рекомендуется использовать продолжительный медленный бег в равномерном темпе. Авторы описали методы и приёмы, применяемые для развития общей выносливости во время занятий, а также опыт и результаты эксперимента, проведённого группой тренеров.Способность противостоять утомлению в процессе какой-либо деятельности называется выносливостью.*

Ключевые слова: *выносливость, аэробные способности, межмышечная координация, буферные системы организма.*

DEVELOPMENT OF GENERAL (AEROBIC) ENDURANCE IN YOUNG ATHLETES

Abstract. *The level of endurance in younger school-age children is relatively low. However, by the age of 10, their ability to perform fast tasks repeatedly (such as short-distance repeated running) and to carry out low-intensity activities for a longer period (such as slow running) increases. Therefore, slow running can be effectively used from an early school age to develop endurance.From the very first training sessions, great attention should be paid to developing general endurance. It is recommended to use prolonged, steady-paced slow running for this purpose. The authors describe the methods and techniques used to develop general endurance during training sessions, as well as the experiment conducted by a group of coaches and its results.The ability to resist fatigue during any activity is called endurance.*

Key words: *endurance, aerobic capacity, intermuscular coordination, body buffer systems.*

Umumiy chidamlilik - insonning odatiy bo‘lmagan faoliyatni uzoq vaqt va muvaffaqiyatli bajara olish qobiliyati.

Umumiy chidamlilikning namoyon bo‘lishi asosida inson organizmining funksional xususiyatlari yotadi. Ular har xil turdagi harakat faoliyatiga nisbatan chidamlilik namoyon bo‘lishining maxsus bo‘lmagan asosini tashkil etadi.

Bu, birinchi navbatda, vegetativ funksiyalar, jumladan, energiyaning aerob manbasi unumdorligidir. Masalan, insonning nafas olish imkoniyatlarida o‘ziga xoslik u qadar sezilmaydi. U harakatning tashqi shakliga u qadar bog‘liq emas. Shuning uchun, agar kimdir yugurish mashg‘ulotlari evaziga o‘zining aerob imkoniyatlari darajasini ancha yaxshilab olsa, bu boshqa harakatlarning (yurish, eshkak eshish va x.k.) bajarilish unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Organizmning vegetativ tizimlari ishini takomillashtirishga asoslangan mashq bilan chiniqqanlikning maxsus bo‘lmagan, umumlashtirilgan darajasi chidamlilikning bitta faoliyat turidan ikkinchisiga keng qamrovda o‘tish uchun qulay sharoit yaratadi. Shuning uchun ushbu chidamlilik turini «umumiy» sifatida belgilashga asos bo‘ladi. Mushak ishi davomiyligi ortishi bilan chidamlilikning ko‘chishi oshib boradi (Volkov.N.I va boshqalar, 1994). Umumiy chidamlilikning ijobiy ko‘chish samarasi sport amaliyotida va kasb-amaliy jismoniy tarbiyada keng qo‘llaniladi.[9]

Umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun o‘z tuzilishiga ko‘ra musobaqa mashqlaridan yoki kasbga oid harakatlardan ancha yiroq bo‘lgan, lekin yurak-tomir hamda nafas olish tizimlari uchun yuqori samarali hisoblangan mashqlar tez-tez qo‘llaniladi.

Muallifning ta’kidlashicha, aerob xususiyatdagi ishga bo‘lgan chidamlilik darajasini oraliqli va o‘zgaruvchan uslublarning tegishli rejimlarini qo‘llash yordamida oshirish mumkin. Oraliqli asosiy uslub shu narsani tashkil qiladiki, nisbatan yuklamali ish bajarilgandan so‘ng dam olish oraliqlari vaqtida yurak urish hajmi eng katta ko‘rsatkichlarga yetadi.

Yosh sportchilar chidamliligini belgilab beruvchi omillar. Chidamlilikning namoyon bo‘lishini oldindan belgilab beruvchi omillar quyidagilar: mushaklarning tuzilishi; ichki mushak va mushaklararo koordinatsiya; yurak-qon tomir, nafas olish va asab tizimlari ishining unumdorligi; organizmdagi energiya manbalarining zahirasi; boshqa jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi; harakat faoliyatining texnik va taktik tejamkorligi.

Chidamlilikning namoyon bo‘lishida shunday o‘xshash bog‘liqlik boshqa harakat sifatlarining rivojlanish darajasida ham kuzatiladi. Bu shundan dalolatki, faqat boshqa jismoniy sifatlar optimal darajada rivojlangan bo‘lsagina, chidamlilikning yuqori darajada namoyon bo‘lishiga erishish mumkin.

Musobaqa faoliyatida chidamlilikning namoyon bo‘lish darajasi sport kurashining optimal taktikasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Aerob xususiyatdagi ishda o‘zgaruvchan tezlik bilan ishlash keng qo‘llaniladi. Bunda nisbatan yuqori va nisbatan past tezlik bilan yugurib o‘tiladigan bo‘laklarni o‘zgartirib turish, bo‘laklar shiddatini tomir urishi daqiqada 160-170 zarbagacha bo‘lganda oshirishni hamda oxirida kam shiddatli bo‘lakda YuQT daqiqada 140-145 zarba bo‘lganda kamaytirishni nazarda tutadi.

Chidamlilikni rivojlantirish vositalari. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun turli jismoniy mashqlar va ularning komplekslari qo‘llanilishi mumkin. Ular quyidagi talablarga javob berishi lozim:

nisbatan oddiy bajarilish texnikasi;

aksariyat skelet mushaklarining faol ishlashi;

chidamlilikning namoyon bo‘lishini chegaralovchi funksional tizimlarning yuqori darajada faolligi;

mashg‘ulot yuklamasini me’yorlash va boshqarish imkoniyati;

uzoq vaqt (bir necha daqiqadan bir necha soatlargacha) bajarish imkoniyati.

Sanab o‘tilgan talablarga siklik mashqlar: yurish, yugurish va x.k. ko‘p jihatdan mos keladi. Ko‘pchilik siklik mashqlarni bajarish texnikasi deyarli hamma kishilar uchun oson va yengil. Ularni bajarishda deyarli hamma skelet mushaklari baravar ishtirok etadi va organizmning yetakchi funksional tizimlari faollashadi. Lekin siklik mashqlarning eng asosiysi - bu yuklama shiddati va davomiyligini muayyan kishining salomatlik holati va jismoniy tayyorgarligi darajasiga qat’iy muvofiq holda me’yorlash imkoniyatidir.

Siklik mashqlar yordamida erishilgan umumiy chidamlilikning rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlar tuzilishiga ko‘ra har xil bo‘lgan harakatlardan ish qobiliyatiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqacha aytganda, kichik va katta fiziologik shiddat zonalarida bajariladigan mashqlarda chidamlilikning yuqori darajada ko‘chishi kuzatiladi.

Sport va harakatli o‘yinlar umumiy chidamlilikni rivojlantirishning ancha samarali vositasi hisoblanadi. O‘yin faoliyatining yuqori emotsionalligi uzoq vaqt davomida yuksak harakat faolligini saqlab turishga imkon beradi.

Sport va harakatli o‘yinlar, ayniqsa, bolalik hamda o‘smirlik yoshida chidamlilikni (umumiy, tezlik- kuch) kompleks rivojlantirish uchun ancha qo‘l keladi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash joizki, mashg‘ulot yuklamalarini qat’iy me’yorlash, boshqarish va hisobga olish imkoniyatining yo‘qligi ularning muhim kamchiligi hisoblanadi.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirishda keltirilgan talablarga javob beradigan asiklik mashqlar yordamida ham katta samaraga erishish mumkin. Odatda ularning samaradorligi nafaqat qandaydir alohida mashqning bajarilishi bilan, balki turli mashqlarni ko‘p marta takrorlash orqali ta’minlanadi. Shuning evaziga yetakchi funksional tizimlarga zarur darajada ta’sir ko‘rsatishga erishiladi.

Chidamlilikni kompleks rivojlantirish uchun yordamchi vosita sifatida nafas olish mashqlarini qo‘llash maqsadga muvofiq: nafas olish tezligi, chuqurligi va maromini boshqargan holda o‘zgartirish; o‘pka giperventilyatsiyasi va me’yorlangan nafasni ushlab turish; nafas olishni harakat fazalari bilan sinxronlashtirish; har xil tipdagi: og‘izdan va burundan, ko‘krakdan va qorindan nafas olishni tanlab qo‘llash. Chidamlilikni rivojlantirish uchun tashqi muhit omillari - havo harorati, nisbiy namlik, ultrabinafsha nurlar, atmosfera bosimi va boshqalardan maqsadli foydalanish mashqlarning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Iqlim sharoitlarining har qanday o‘zgarishi organizmda fiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bunda organizmning aynan har qanday iqlim sharoitiga moslashishi muhim emas. Ob-havo - iqlim sharoitlari o‘zgarishiga moslashish natijasida vegetativ asab tizimining reaktivligi oshadi, nafas olish va qon aylanish tezlashadi, oksidlanish-tiklanish jarayonlari kuchayadi va natijada chidamlilik ortadi.

Atrof-muhit omillari orasida tog‘ iqlimi chidamlilikning rivojlanishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Bu uning bir qator o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq: past atmosfera bosimi, kislorodning past parsial bosimi; ultrabinafsha nurlanishning yuqori faolligi va h.k. Chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni dengiz sathidan 1500 dan 2500 m gacha balandlikda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirish usuliyati. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish jarayonida uning namoyon bo‘lishini cheklovchi omillarga nisbatan mashg‘ulot ta’sirini ta’minlash zarur. Bu quyidagi vazifalarni ketma-ket hal qilishni taqozo etadi:

aerob energiya ta’minoti funksional tizimlari shiddatini rivojlantirish. Kislorodning maksimal iste’mol qilinishi (KMIQ) umumlashtirilgan ko‘rsatkich hisoblanadi;

energiya ta’minotining aerob manbai sig‘imini rivojlantirish. Insonning ma’lum bir ishni ushbu ish uchun maksimal kislorod iste’mol qilish darajasida imkon qadar uzoqroq bajarish qobiliyati bilan tavsiflanadi;

aerob energiya ta’minotining funksional tizimlari harakatchanligini takomillashtirish;

funksional va texnik tejamkorlikni yaxshilash. Standart ish birligi uchun energiya sarflanishining kamayishi bilan tavsiflanadi;

organizmning bufer tizimlari quvvati va sig‘imini hamda uni ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini oshirish. Insonning organizm ichki muhitidagi o‘zgarishlarni ko‘tarish qobiliyati bilan tavsiflanadi (tananing yoshga xos harorati, sut kislotasining to‘planishi, tananing alohida bo‘g‘inlaridagi og‘irliklar va h.k.).

Ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar qat’iy tartiblashtirilgan va musobaqa mashqlari uslublari yordamida samarali hal etilishi mumkin.

Aerob imkoniyatlarni oshirish ustida ishlash jarayonida aerob jarayonlar shiddatini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi. Bu jarayon kislorodni maksimal iste’mol qilish va aerob unumdorlikning yuqori ko‘rsatkichlarini uzoq vaqt davomida ushlab turish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan aerob jarayonlar sig‘imi kattaliklari bilan ifodalanadi.

Ko‘pchilik mutaxassislar laktat ostonasini insonning chidamlilikni talab etuvchi jismoniy yuklamani bajarishdagi potensial imkoniyatining ishonchli ko‘rsatkichi deb hisoblaydilar. Laktat ostonasi tinch holat uchun xos bo‘lgan darajalardan tashqari, ko‘payib boruvchi shiddatli jismoniy

yuklama paytida laktatning qondagi akkumulyatsiyasining boshlanish payti sifatida belgilanadi. Agar mushak faoliyati shiddati kichik yoki o‘rta bo‘lsa, laktat darajasi tinch holatdagi ko‘rsatkichdan faqat birmuncha ortiq bo‘ladi. Shiddatning oshishi laktatning yanada tez akkumulyatsiyasiga olib keladi.

Ayrim tadqiqotchilarning ishlari laktat ostonasi anaerob glikoliz tomonga ancha siljishini aks ettiradi. Buning natijasida laktat hosil bo‘ladi. ANAO deganda yuklamaning shiddat zonasi tushuniladi. Bu holatda ishlayotgan mushaklarda sut kislotasining hosil bo‘lishi va uning boshqa organlarda qayta ishlanishi o‘rtasida muvozanat saqlanadi.

Laktat ostonasi va mushakdagi anaerob metabolizm orasidagi o‘zaro bog‘liqlikka taalluqli ancha qarama-qarshiliklar mavjud. Mushaklar laktat ostonasiga erishishdan ancha oldin laktat hosil qiladilar, biroq uni boshqa to‘qimalar chiqaradi. Bundan tashqari, uzluksizlikning ajralish nuqtasi har doim ham ko‘zga ko‘rinmaydi. Shu sababli mutaxassislar ko‘pincha iste’mol qilinadigan kislorod litrga nisbatan laktatning 2,0 yoki 4,0 mmol ko‘rsatkichini erkin belgilaydilar. Bu qonda laktat akkumulyatsiyasining etalon boshlanish payti yoki ishning boshlanish nuqtasidir.

Laktat ostonasi odatda KMIQ foizlarida ifodalanadi. Yuqori shiddatli ishni laktat to‘plamagan holda bajarish qobiliyati katta ahamiyatga ega, chunki laktatning hosil bo‘lishi charchoqni kuchaytiradi. Demak, KMIQ 80% bo‘lganda laktat ostonasi KMIQ 60% bo‘lgandagi laktat ostonasiga nisbatan jismoniy yuklamalarga bo‘lgan yaxshi tolerantlik to‘g‘risida guvohlik beradi. KMIQ bir xil bo‘lgan ikkita kishidan birontasida laktat ostonasi yuqori bo‘lsa, shu kishida chidamlilikni talab qiluvchi jismoniy faoliyat darajasi ancha yuqori bo‘ladi.

Kishining mashqlarda chiniqqanlik darajasiga qarab ANAO 65-90% KMIQ atrofida bo‘ladi. Bu YuQT daqiqada 150 dan 180 zarbagacha bo‘lgan ko‘rsatkichga mos keladi. YuQTning ostona ko‘rsatkichlariga ham tayanish mumkin. O‘rtacha jismoniy tayyorgarlikka ega kishilarda ANAO individual maksimal YuQT dan daqiqada 50-60 zarbaga past bo‘lgan YuQT darajasida chegaralanadi. Ushbu yuklama rejimini jismonan o‘rtacha va yaxshi tayyorlangan, shaxsiy aerob energiya ta’minoti rejimida sifatli tayyorgarlik ko‘rgan kishilar bilan ishlaganda qo‘llash mumkin.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirishniuzluksiz standartlashtirilgan mashqlar uslubini qo‘llash bilan boshlash maqsadga muvofiq. Mashqlarning optimal davomiyligi jismonan bo‘sh tayyorlangan kishilar uchun 20-30 daqiqadan tortib to yuqori darajada chidamlilik namoyon qilinadigan sport turlarida ixtisoslashuvchi malakali sportchilar uchun bir necha soatlargacha bo‘ladi. Lekin uzluksiz yuklamaning optimal davomiyligini asta-sekin oshirib borish lozim. Shuni yodda tutish zarurki, charchash yuklama davomiyligidan ko‘ra ko‘proq uning shiddatiga bog‘liq. Shuning uchun avval uzluksiz yuklamaning zarur bo‘lgan davomiyligiga erishish kerak. Mashg‘ulotlarni me’yorlangan tezkor yurishni yengil yugurish bilan (ko‘proq yurish bilan) birga qo‘llash orqali boshlash maqsadga muvofiqdir. Asta-sekin ko‘proq yugurish qo‘llaniladi (me’yorlangan yurish bilan birga), keyinchalik uzluksiz yugurish (suzish, eshkak eshish va boshqalar) optimal davomiyligigacha yetkaziladi. Yuklamaning zarur davomiyligiga erishib, uning shiddati optimal darajaga asta-sekin oshiriladi. Fiziologik nuqtai nazaridan optimal qo‘zg‘atuvchi - bu to‘qimaning eng katta javob reaksiyasini beruvchi qo‘zg‘atuvchining eng kichik kuchi, ya’ni eng yuksak darajada mashg‘ulot samarasiga erishishga imkon beruvchi yuklamaning eng kichik shiddatidir.

Shug‘ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasi, har xil sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari ANAO ga erishish uchun zarur bo‘lgan ish shiddati ko‘rsatkichlarida jiddiy iz qoldiradi. Masalan, sport bilan kam shug‘ullangan shaxslar uchun ish davomiyligi 30-40 daqiqa bo‘lganda 40-50% KMIQ darajasidagi yuklama aerob jarayoni sig‘imining oshishiga yordam beradi.

Yuqori malakali sportchilar (uzoq masofaga yuguruvchilar, shosseda velopoygachilar) uchun davomiyligi 1-2 soat bo‘lgan yuklamalar ish shiddati 80-85% darajada, ayrim yetuk sportchilar uchun esa 90% KMIQ dan ortiq darajada rag‘batlantiruvchi bo‘lishi mumkin.

Sport o‘yinlari, yakkakurashlarga ixtisoslashuvchi ko‘pchilik sportchilar uchun ish shiddati kislorodni maksimal iste’mol qilish ko‘rsatkichlarining 65-75% darajasida bo‘lishi kerak.

Biroq shuni hisobga olish joizki, ANAO darajasidagi ish hamma hollarda ham aerob imkoniyatlarni oshirish uchun samarali hisoblanmaydi. Chidamlilikning namoyon qilinishini taqozo etuvchi sport turlarida ixtisoslashayotgan yaxshi tayyorgarlikka ega yuqori malakali sportchilar uchun ANAO darajasida mashqlarni bajarish kutilayotgan samarani bermaydi.

Yuklamaning oqilona shiddatini kislorod iste'mol qilish zarur chegarasida aniqlashni YuQT ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirish mumkin, ma'lumki, YuQT (daq. 120-130 dan 170-180 zarbagacha chegarada) va kiclorod iste'mol qilish orasida chiziqli bog'liqlik mavjud. Masalan, yosh sportchilar 50-60% KMIQ darajasidagi shiddat bilan davomiyligi 70 daqiqa bo'lgan mashg'ulot vazifasini bajarishlari lozim. 1.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bunday ishni YuQT daq. 135-155 zarba bo'lganda bajarish kerak. YuQT daqiqasiga 170-180 zarbadan yuqori oshishini keltirib chiqaruvchi yuklamalar anaerob energiya almashinuvi mexanizmlarini keskin tezlashtiradi, bu ayniqsa jismonan bo'sh tayyorlangan kishilarda umumiy chidamlilikning rivojlanishiga yordam bermaydi va yurak - tomir tizimining o'ta zo'riqishini keltirib chiqaradi.

O'rtacha va yaxshi tayyorlangan kishilar bilan ishlashda organizmning moslashuvchanlik reaksiyalarini kengaytirish uchun uzluksiz variantli va o'sib boruvchi mashqlar uslublarini ham qo'llash kerak.Jismoniy mashqlarni bajarish shiddati mashg'ulot yuklamasining yo'nalishiga bog'liq va YuQT bilan baholanadi. Chunki mikrosikllarni tuzishda yuklama past, o'rta, katta va maksimalni aniqlash uchun qo'llanildi. Tortuvchi mikrosikllarda 130 dan 140 gacha bo'lgan, hajmli mikrosiklda 150 gacha, tezlik-kuch tayyorgarligi mikrosiklida 160, texnik-tayyorgarlik ishida o'rtacha 150, tayyorgarlik davrining oxirida o'rtacha 150, yengillashtirishda 140, o'tish davrida 130 atrofidagi mashqlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 2-jild. // Tarjimon: Rasulov A.R. Qayumov A.P. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 740 b.

2. 2.Abdullayeva M. O'zbekistonda qariyalarni ijtimoiy himoyalash // «Keksa avlod manfaatlari davlat himoyasida» mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2002. – B. 38-42.;

3. Абдуллаева М. Социальная защита пожилых людей в Узбекистане // «Интересы старшего поколения под защитой государства»: материалы научно-практической конференции. – Ташкент, 2002. – С. 38–42.

4. Абрамова Т. Ф., Изаак С. И., Квашук П. В. и др. Оценка физического состояния лиц пожилого возраста: методические рекомендации. – М.: Советский спорт, 2001. – 32 с.

5. Аликориев Н. Социологические исследования и научные школы в Узбекистане // Материалы республиканской научно-практической конференции. – Кн. 1. – Ташкент, 2010. – С. 10.

6. Александрова М. Д. Старение: социально-психологический аспект // Психология старости и старения: хрестоматия / Сост. О. В. Краснова, А. Г. Лидерс. – М.: Академический проект, 2003. – С. 35–52.

Sharipov Ilhom Ibodovich
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *O‘qitishdagi yangi texnologiyalarni qidirishga yo‘naltirilgan faoliyat an’anaviy tarzda o‘qitishning zamonaviy talabdan ortda qolayotganligi, turli mintaqalar va xalqlar o‘rtasidagi madaniy-ma’naviy aloqalarning tez suratlar bilan rivojlanib borayotganligi, mavjud pedagogik an’anada asosiy e’tibor bugungi talabalarning xotirasi imkoniyatlari bilangina chegaralanib qolayotganligi, globalizatsiya sharoitida esa o‘qitishga nisbatan yangi texnologiyalarga bo‘lgan ijtimoiy-pedagogik talabning nihoyat darajada o‘sib borayotganligi bilan belgilanadi. Biroq, aynan jismoniy tarbiya o‘quv predmetini o‘qitishda va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish borasida tadqiqot ishlarining kamchilligini ko‘rsatish mumkin.*

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashdan maqsad – o‘qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat. Kasbiy pedagogik faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdir.

Tayanch so‘zlar: *pedagogika, gimnastika, jismoniy tarbiy, harakat faolligi, harakat ko‘nikmalari , jismoniy mashqlar, murabbiylik faoliyati, sport pedagogikasi, texnika va taktika, dastlabki tayyorgarlik, harakat koordinatsiyasi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *Деятельность, направленная на поиск новых технологий обучения, обусловлена тем, что традиционные методы преподавания отстают от современных требований; что культурно-духовные связи между различными регионами и народами быстро развиваются; что существующая педагогическая традиция ограничивается в основном возможностями памяти сегодняшних студентов. В условиях глобализации резко возрастает социально-педагогический запрос на новые технологии обучения. Однако в преподавании предмета «Физическое воспитание» и в совершенствовании технологий подготовки учителей физической культуры к профессионально-педагогической деятельности наблюдается недостаток исследований.Цель подготовки учителей физического воспитания к профессионально-педагогической деятельности заключается в формировании у педагога стремления к новшествам, навыков и умений самостоятельной работы над собой, а также в совершенствовании умений проводить занятия и внеурочные мероприятия с использованием современных педагогических технологий и интерактивных методов. Профессионально-педагогическая деятельность - это создание научных исследований и разработок, проведение экспериментальных работ или создание новых технологических процессов и усовершенствованных продуктов с использованием достижений науки и техники.*

Ключевые слова: *педагогика, гимнастика, физическое воспитание, двигательная активность, двигательные навыки, физические упражнения, тренерская деятельность, спортивная педагогика, техника и тактика, начальная подготовка, координация движений.*

IMPROVING THE CONTENT OF TRAINING FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS FOR PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Abstract. *The activity aimed at searching for new teaching technologies is driven by the fact that traditional teaching methods lag behind modern requirements; cultural and spiritual connections between different regions and peoples are rapidly developing; and the existing pedagogical tradition mainly focuses on students' memory capacity. In the context of globalization, the social and pedagogical demand for new teaching technologies is growing significantly.However, in the teaching of physical education and in improving the technologies for preparing physical education teachers for professional and pedagogical activities, there is a lack of research.The purpose of preparing physical education teachers for professional and pedagogical activity is to develop teachers' initiative toward innovation, their ability and habit of self-improvement, and to enhance their skills in conducting lessons and extracurricular activities using modern pedagogical technologies and interactive methods.Professional and pedagogical activity involves conducting scientific research and development, carrying out experimental work, or creating new technological processes and improved products through the application of scientific and technical achievements.*

Key words: *pedagogy, gymnastics, physical education, motor activity, motor skills, physical exercises, coaching activity, sports pedagogy, technique and tactics, initial training, movement coordination.*

Kasbiy pedagogik faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi-loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Bugungi kunda o‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatini tashkil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Raqobatga qodir mutaxassislarning yangi avlodini, xususan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘z oldiga istiqbolni ko‘zlagan vazifalar qo‘yib, ularni echa olish qobiliyatiga, yuksak tafakkur madaniyatiga hamda ilmiy-texnik va ijtimoiy-siyosiy axborotlardan mustaqil ravishda foydalana olish xususiyatiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash kuzda tutiladi.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi ularning o‘quv jarayonida o‘zini murabbiy sifatida anglashini, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyatining ortiqcha samaradorligini ta’minlaydigan bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda takomillashtirish zarurligini o‘z ichiga oladi.

Jismoniy tarbiya va o‘quv faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish, bir tomondan, real ko‘rsatkichlarga asoslanib, olingan natijalarni o‘z-o‘zini tarbiyalashning ma’lum bir bosqichida kutilgan ideal holat bilan taqqoslash imkonini beradi. Shuningdek o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish xabardorlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, individual ta’lim loyihasi qanchalik samarali bo‘lsa, o‘z-o‘zini nazorat qilishning kengroq funktsiyalari paydo bo‘ladi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish tarkibiga kiradigan tarkibiy qismlarning axborot mazmuni o‘z-o‘zini nazorat qilish funktsiyalari va darajasiga qarab o‘zgaradi, maqsad va ta’lim dasturini tuzatishga, mustaqil ta’lim va ta’limni amalga oshirish vositalari va usullarini tanlashga ta’sir qiladi. Bu o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishni faollashtirish omili sifatida ma’lum bir sohadagi ta’lim kompetensiyasini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya jarayoni va natijalarini o‘z-o‘zini nazorat qilish malakali tasdiqlash, vakolatli tasdiqlash va malakali maslahat zarurligini talab qiladi, ya’ni pedagogik o‘zaro ta’sirni, hamkorlik shakllari va vositalarini kengaytirish zarurligini faollashtiradi.

Boshqa tomondan, o‘qituvchi o‘quvchi tomonidan amalga oshirilgan nazorat harakatlarining hozirgi darajasini baholash, uni oldingi ixtiyoriy va ixtiyoriy o‘zini o‘zi nazorat qilish darajasi bilan solishtirish imkoniyatiga ega. Ixtiyoriy o‘z-o‘zini nazorat qilishni kuchaytirishga qaratilgan pedagogik yordam muammoli vaziyatlarni yaratish, jismoniy takomillashtirishning yangi turlarini joriy etish imkonini beradi, ularning har biri o‘zini o‘zi boshqarishning tegishli funktsiyasi bilan bog‘liq.

O‘z-o‘zini nazorat qilish funktsiyalarini takomillashtirish mavzusi: tananing antropometrik ma’lumotlarini, funktsional tizimlar darajasining ko‘rsatkichlarini tuzatish, jismoniy va psixologik tayyorgarlik natijalarini taqqoslash, shuningdek, salomatlik darajasining o‘zgarishi, harakatlarining texnik ko‘rsatkichlari, sport yutuqlarining o‘sishi kabilar bilan bevosita bog‘liqdir. Demak, o‘z-

o‘zini nazorat qilish turlarini ma’lum darajada o‘zlashtirish bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining reflekslilигini oshirishning ob’ektiv ko‘rsatkichi, o‘quvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash samaradorligi mezoniga xizmat qiladi. Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishni samarali pedagogik qo‘llab-quvvatlashning muhim mezoni - bu pedagogik o‘zaro ta’sir qilishning tabiatidir.

O‘zaro ta’sir pedagogikasining ta’sirini ikki jihatdan ko‘rib chiqamiz:

1) jismoniy tarbiya sub’ektining shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan sohasini optimal tanlash, jalb qilish va amalga oshirishga yordam beradigan sport va pedagogik faoliyat turlarini ko‘paytirish;

2) pedagogik muloqotning shakllari va mazmunini boyitish, uni aniqlash va takomillashtirishga qaratilgan jihatlari hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ, irodali va aqliy qobiliyatlari nazarda tutiladi.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlashning izolyatsiya qilingan mezoni talabaning mustaqil ishining birgalikdagi faoliyati va yo‘nalishlarini moslashtirishga, pedagogik jarayon sub’ektlarining funktsiyalarini, harakatlarini, munosabatlarini solishtirishga imkon beradi.

Motiv ma’lum bir tarzda harakat qilishga tayyorlikning namoyon bo‘lishi sababli, o‘qituvchining vazifasi bunday tayyorgarlik holatini shakllantirish yoki faollashtirish va motivatsiyani tashqi boshqarishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shunday qilib, motivatsiya tushunchasi nafaqat ichki holatni (ichki motivatsiya), balki o‘quvchini ma’lum bir tarzda harakat qilishga undaydigan tashqi ta’sirlarni ham aks ettiradi (tashqi motivatsiya). Zamonaviy jismoniy tarbiya o‘qituvchisining vazifasi talabaning manfaatlarini qondirish, uni faol o‘zini-o‘zi rivojlantirishga qiziqtirish va jalb qilish va kelajakda - o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurati uning ko‘p sonli shaxslari orasida eng yuqori o‘ringa ega bo‘lishiga hissa qo‘shishdir.

Tadqiqotchi Yu. Dragnevning aytishicha bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish xususiyati, axborot va kasbiy rivojlanish sharoitida o‘quvchi shaxsining kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirishni ta’minlaydigan shaxsiy sohani bosqichma-bosqich o‘zgartirishning pedagogik jarayonidir deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda, ularni amaliyotda qo‘llashda qiziqish uyg‘otish, faolligini, ijodkorligini, mustaqilligini oshirish yo‘llarini izlashga harakat qiladi. Shaxsning rivojlangan kasbiy madaniyati, o‘qituvchining sport va pedagogik mahorati - bu o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadiga aylanadigan va uning o‘quvchilar bilan muloqotiga o‘ziga xoslikni beradigan, bunday muhim ko‘rsatkichning individual xususiyatlarini belgilaydigan kasbiy fazilatlari bilan belgilanadigan ideal darajadagi kasbiy kompetentsiyani shakllantirish darajasi sifatida qaraladi.

T.S. Usmonxadjaevning aytishicha, mutaxassislarning jamiyat tomonidan belgilanadigan va kasbiy faoliyati tuzilishini aks ettiradigan pedagogik model mavjud bo‘lib, u pedagogik mahorat va malakaga qaratilgan eng maqbul modeldir .

Demak, kasbiy yondashuvi - kasbiy malaka degan tushunchani o‘z ichiga oladi va u orqali o‘qituvchilar professional faoliyating yuqori natijasiga erishadi. Barkamol shaxsning an’anaviy ta’rifi bu - bilimdon, ba’zi bir sohalardan xabardor bo‘lishi kerak hisoblanadi. Bundan farqli o‘laroq, tadqiqotchi V.P. Bespalko ta’kidlashicha, mutaxassisning namunasi qayta ishlanadi va tashxis etiladi, mutaxassislik darajasining yuqori darajasiga faqat professional faoliyatni amalga oshirish orqaligina erishish mumkin.

Zamonaviy pedagogika fanining istiqbolli sohalaridan sanalgan pedagogikani o‘qitish metodikasi fanida professionallik deganda, pedagog o‘qituvchilarning kasbiy mahorat darajasi tushuniladi, va bu kasb egasiga xos rivojlangan malakaning mutaxassislikka oid yuqori ko‘rinishi bilan ham tavsiflanadi. Kasbiy mahorat kasbiy kompetentlik mohiyatini ochuvchi pedagogik kategoriyalardan biri bo‘lib, u pedagogik jihatdan shaxsga xos quyidagi sohalarini qamrab oladi.


Kasbiy mahoratning to‘rt muhim jihati nazarda tutiladi:

- motivatsion-ixtièriy komponent (motivlar, maqsadlar, ehtièjlar va qadriyatlar);
- funksional komponent (ma’lum bir faoliyat usullari haqidagi bilimlar);
- kommunikativ komponent (fikrlarni to‘g‘ri ifoda etish, tahlil qilish, ishontirish, gapirish, muloqotni tashkil qilish va axborotni uzatish qobiliyati);
- refleksiv komponent (o‘z faoliyati natijalarini boshqarish va baholash qobiliyati).

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassisning kompetentsiya modeli ilmiy qiziqish uyg‘otadi, u quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi;

- modelning ishlash tamoyillari (zamonaviy talablarga muvofiqligi, ishlab chiqarish qobiliyati, o‘zgaruvchanligi, dinamizmi, individuallashuvi);
- Modelning ishlash shartlari (tashkiliy, psixologik, pedagogik, uslubiy);
- modelni amalga oshirish bosqichlari (talabalarning innovatsion tafakkurini shakllantirish; jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion texnologiyalarni o‘rganish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish);
- bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi monitoringi;
- ovatsion turdagi (reproduktiv, adaptiv, ijodiy) mutaxassislarning kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismlari, ularning ta’rifi tabaqalashtirilgan yondashuv va jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonini tuzatishga imkon beradi.
-

Kasbiy mahoratni muhim jihatlari



Mutaxassisning shaxsiy va kasbiy profili yaxlit ierarxik xususiyat bilan ajralib turadi, shuningdek motivatsion, shaxsiy, kognitiv va operatsion tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

Modelda bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy malakasini shakllantirish ko‘rsatkichlarini belgilashga o‘rinish muhim:

- jismoniy tarbiyaning innovatsion texnologiyalarini doimiy ravishda o‘zlashtirishga, ularni o‘quv amaliyotiga ijodiy aylantirishga tayyorgarliki (motivatsion komponent);
- jismoniy tarbiyaning innovatsion texnologiyalarini bilishi (kognitiv komponent);
- jismoniy tarbiya va sport amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning yuqori faolligi (shaxsiy komponent);

➢ jismoniy tarbiya, sport va pedagogik faoliyatning alohida turlarida innovatsion jarayonni tashkil etish qobiliyati va ko‘nikmalarini shakllantirish (operativ komponent). Bunday

➢ ierarxiya bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchsining kasbiy tayyorgarligi muammolarini rasmiy hal qilish imkonini beradi.

Oliy o‘quv yurti sharoitida buni amalga oshirilishi mumkin, ammo u bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining shaxsini uzluksiz kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishni, ularni integratsiyalashuvining alohida shartlari va istiqbollarini hisobga olmaydi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining aniqlangan individual-shaxsiy va kasbiy-faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda (H. Ball, L. Vygotskiy [47], O. Leontiev, A. Maslou, S. Rubinshteyn va boshqalar, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlik tuzilishini uchta o‘zaro bog‘liq komponentlar birligida ko‘rib chiqamiz:

1) motivatsion-emotsional,
2) mazmun- operativ ;
3) aks ettiruvchi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyorgarligining motivatsion va maqsadli komponenti quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi.

Ilmiy tadqiqot materiallarini hisobga olgan holda, kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning asosiy maqsadi kasbiy faoliyatga ijobiy motivatsiyani shakllantirish va rag‘batlantirish, o‘z mahoratini oshirish va o‘zini o‘zi anglashdir.

Shunday qilib, ushbu komponentning motivatsion komponenti quyidagi funktsiyalarni amalga oshirishga yordam beradi:

➢ motivatsion (bo‘lajak o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatida faol bo‘lishiga sabab bo‘ladi);

➢ yo‘naltirish (o‘qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatidagi maqsadning mohiyatini belgilaydi);

➢ tartibga soluvchi (qiymatli yo‘nalishlarni, kasbiy faoliyat motivlarini, ya’ni o‘zgartirish sababini belgilaydi).

Shunday qilib, kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning motivatsion-emotsional komponenti - bu transformatsiya (o‘z-o‘zini rivojlantirish) maqsadlariga erishish uchun qilingan sa’y-harakatlarning yo‘nalishi va hajmini belgilaydigan vositalar to‘plami; kasbiy xulq-atvorning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi, lekin uni ta’minlamaydi.

Ta’lim muassasalariga maqsadli qabul qilish o‘rniga taklif etilayotgan subsidiya va subvensiya orqali qabulni tashkil etish maqsadga muvofiqdir, chunki qishloq joylarni mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash uchun olib borilayotgan bu tadbir kerakli natija bermayapti. Bu erda yana ta’lim uchun berilgan subsidiyalarni qaytarish mexanizmini ko‘rib chiqib, ish sharoitlari talab darajasida bo‘lmagan sharoitlarda ishlayotgan yoshlar tomonidan bu subsidiyalarni-yillik teng miqdorlarda qaytarishni kamaytirish mexanizmini xam o‘ylab ko‘rilsa ijobiy natijalarga olib keladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Abdumalikov R.Yunusov T. «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya taominlashning rivojlantirish», metodik tavsiyanoma, Toshkent, O‘zDJTI,1992 y.

2. Abdullaev A.A. Jismoniy tarbiya vositalari. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona, 1999.

3. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Farg‘ona, 2001.

4. Abdullaev Sh. Dj. Zaripov Ya.K Muborakov X. «Umumtalim maktablarida o‘quvchilar bilan o‘zbek milliy harakatli o‘yinlarini o‘tkazishda ma'naviy tarbiyaning o‘rni». Uslubiy qo‘llanma.- Toshkent “Nikon”, 2003. – 65 bet.

5. Abdullaev Sh. Dj. Narzullaev M.F «Malaka oshirish kurslarida jismoniy tarbiya bo‘yicha davlat talablari bajarilishining diagnostik taxlili» . Uslubiy qo‘llanma. – Buxoro 2004.

Shodiyeva Dilafro‘z Husenovna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

MAKTABDA OTA-ONA VA O‘QITUVCHI HAMKORLIGINING O‘QUVCHI SHAXSIY RIVOJLANISHIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining o‘quvchi shaxsiy rivojlanishiga psixologik ta’siri tahlil qilingan. Unda oilaviy tarbiya va maktab muhitining o‘zaro uyg‘unligi bolaning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida yoritiladi. O‘qituvchi, ota-ona va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqot bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, motivatsiyasini va ijtimoiy faolligini oshirishi ilmiy-nazariy asoslarda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ota-ona hamkorligi, o‘qituvchi, o‘quvchi shaxsiy rivojlanishi, psixologik ta’sir, emotsional qo‘llab-quvvatlash, muloqot, motivatsiya, oilaviy tarbiya, pedagogik hamkorlik, ijtimoiy moslashuv.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА РОДИТЕЛЕЙ И УЧИТЕЛЕЙ В ШКОЛЕ НА ЛИЧНОСТНОЕ РАЗВИТИЕ УЧАЩЕГОСЯ

Аннотация. *В данной статье анализируется психологическое влияние сотрудничества между родителями и учителем на личностное развитие учащегося. Рассматривается, как согласованность семейного воспитания и школьной среды выступает важным фактором, влияющим на личностное становление, социальную адаптацию и эмоциональную устойчивость ребёнка. Отмечается, что эффективное взаимодействие между учителем, родителями и учеником способствует укреплению уверенности в себе, повышению мотивации и социальной активности ребёнка. В статье раскрываются психологические механизмы сотрудничества, пути предотвращения конфликтов и современные формы поддержки личности ученика.*

Ключевые слова: *сотрудничество родителей, учитель, личностное развитие ученика, психологическое воздействие, эмоциональная поддержка, коммуникация, мотивация, семейное воспитание, педагогическое взаимодействие, социальная адаптация.*

PSYCHOLOGICAL IMPACT OF SCHOOL-BASED PARENT–TEACHER COOPERATION ON STUDENT PERSONAL DEVELOPMENT

Abstract. *This article analyzes the psychological impact of collaboration between parents and teachers on the personal development of students. It examines how the harmony between family upbringing and the school environment serves as an important factor influencing the child’s personal growth, social adaptation, and emotional stability. The study highlights that effective communication among teachers, parents, and students strengthens self-confidence, enhances motivation, and fosters social activity in children. The article also explores the psychological mechanisms of cooperation, strategies for conflict prevention, and modern forms of supporting students’ personal development.*

Key words:*parent-teacher collaboration, teacher, student personal development, psychological influence, emotional support, communication, motivation, family upbringing, pedagogical cooperation, social adaptation.*

Kirish. Maktab ta’limi tizimida o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi, uning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishi o‘qituvchi, ota-ona va o‘quvchi o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka bevosita bog‘liqdir. Bola shaxsining rivojlanishi jarayonida oila va maktabning o‘zaro ta’siri eng muhim psixologik va pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Chunki bola dastlab oilada ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini, muloqot madaniyatini va qadriyatlarni o‘rganadi, keyinchalik esa maktab muhitida ularni amaliyotda qo‘llash, mustahkamlash va kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchi shaxsiy rivojlanishida o‘ziga xos psixologik ta’sir kuchiga ega. Bu hamkorlik bolaning o‘zini anglash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirish, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, ijtimoiy faolligini rivojlantirish hamda hissiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onaning farzand tarbiyasidagi ishtiroki va o‘qituvchi bilan doimiy muloqoti o‘quvchi shaxsini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uning qobiliyatlarini to‘liq namoyon etish imkonini beradi.

Shuningdek, bugungi kunda maktab va oila hamkorligi faqatgina pedagogik jarayon bilan cheklanmay, balki psixologik yondashuvlar asosida olib borilishi zarur. Ota-onaning farzandi bilan o‘qituvchi orqali to‘g‘ri aloqada bo‘lishi, bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish, o‘qituvchining mehr-muhabbat va ishonch asosida muloqot o‘rnatishi shaxsiy rivojlanish uchun sog‘lom psixologik muhitni yaratadi.

Shu sababli, mazkur maqolada ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining o‘quvchi shaxsiy rivojlanishiga psixologik ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda ushbu hamkorlikning asosiy psixologik mexanizmlari, pedagogik omillari hamda o‘quvchi shaxsini qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy yondashuvlarning o‘rni yoritiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlash eng muhim vazifalardan biri bo‘lib, bu jarayonni samarali amalga oshirishda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki oila - bolaning dastlabki tarbiya maskani, maktab esa uning ijtimoiy hayotga kirish, bilim olish va shaxs sifatida shakllanish maydonidir. Ushbu ikki muhitning uyg‘un faoliyati bolaning ma’naviy, intellektual va psixologik rivojlanishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

O‘qituvchi va ota-onaning o‘zaro hamkorligi o‘quvchining ichki dunyosiga, o‘z-o‘zini baholashiga, o‘qishga bo‘lgan qiziqishiga va emotsional holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu hamkorlik orqali bola o‘zini qadrlashni, mas’uliyatni his etishni, jamoada muloqot qilishni va o‘z fikrini erkin bildirishni o‘rganadi. Ota-onaning bolaga nisbatan iliq munosabati va o‘qituvchi tomonidan bildirilgan samimiy e’tibor o‘quvchi psixologik barqarorligining asosini tashkil etadi.

Hozirgi globallashuv, texnologiyalar tez rivojlanayotgan davrda bolalar ongiga turli tashqi axborot oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli omillar kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois oila va maktab o‘rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlash, bolaning ruhiy holatini nazorat qilish, unga ijobiy psixologik muhit yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Prezidentning ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga oid qarorlarida ota-ona, o‘qituvchi va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish, o‘quvchi shaxsiy rivojlanishini psixologik qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida ta’kidlanadi.

Demak, ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi faqat pedagogik jarayon emas, balki o‘quvchi shaxsini barkamol inson sifatida shakllantiruvchi psixologik omil sifatida ham qaraladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur mavzuning o‘rganilishi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, ta’lim tizimida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining o‘quvchi shaxsiy rivojlanishiga psixologik ta’siri masalasi mahalliy va xorijiy psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi shaxsining shakllanishida oilaviy muhit, o‘qituvchi shaxsiy namunasi hamda ularning o‘zaro hamkorlik darajasi bolaning emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Chet ellik olimlar - L.S. Vygotskiy, A. Maslow, C. Rogers, A. Bandura, S. Freud, J. Dewey va boshqalar - o‘quvchi shaxsini shakllantirishda ijtimoiy muhit va psixologik qo‘llab-quvvatlashning o‘rni haqida qimmatli ilmiy g‘oyalarni ilgari surganlar.

L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga ko‘ra, bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishi oila va maktab muhitidagi muloqot orqali amalga oshadi. O‘qituvchi va ota-ona bu jarayonda “rivojlanish zonasini” belgilovchi asosiy omillardir.

A. Maslowning “Ehtiyojlar ierarxiyasi” nazariyasida bola o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishi uchun avvalo xavfsizlik, muhabbat va e’tibor kabi ijtimoiy-psixologik ehtiyojlari qondirilishi zarurligi ta’kidlanadi.

C. Rogers ham o‘qituvchi va ota-onaning shartsiz ijobiy munosabati bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashini psixologik jihatdan asoslab bergan.

A. Banduraning “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”ga ko‘ra, bola o‘z xulq-atvorini atrofdagilarning - ayniqsa ota-onasi va o‘qituvchisining - xatti-harakatlarini kuzatish, o‘rnak olish va taqlid qilish orqali shakllantiradi.

J. Dewey esa ta’lim jarayonida oila va maktab hamkorligini jamiyatdagi demokratik qadriyatlar bilan bog‘lab, bu hamkorlikni bolaning ijtimoiy tajribasini kengaytiruvchi omil deb hisoblaydi.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi bolaning psixologik holatini barqarorlashtirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, o‘qishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish hamda ijtimoiy moslashuvni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, bu hamkorlik orqali bola o‘zini anglash, emotsional barqarorlik va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

Demak, mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabda ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi samarali psixologik hamkorlik o‘quvchi shaxsini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uning ruhiy salomatligini saqlash va barkamol inson sifatida shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Muhokama. O‘quvchi shaxsining rivojlanishida oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning psixologik ahamiyati beqiyosdir. Bu hamkorlik o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini, ijtimoiy faolligini hamda emotsional barqarorligini shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning iliq, do‘stona va ishonchli bo‘lishi bolada o‘zini qadrlash, o‘z fikrini erkin ifoda etish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabdagi o‘qituvchi-ota-ona munosabatlarining samaradorligi bolaning psixologik ehtiyojlarini to‘g‘ri tushunish va ularni qondirish darajasiga bog‘liq. Agar o‘qituvchi va ota-ona o‘quvchiga nisbatan bir xil tarbiyaviy pozitsiyada turib, uning xatti-harakatini tushunish, qo‘llab-quvvatlash va to‘g‘ri yo‘naltirishga harakat qilsa, bunday bola ko‘proq o‘ziga ishonadigan, faol va ijobiy shaxs sifatida shakllanadi. Aksincha, oila va maktab o‘rtasidagi kelishmovchilik, befarqlik yoki tarbiyadagi zid yondashuvlar bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘zini qadrsiz his qilish, qo‘rquv yoki passivlik kabi holatlarni yuzaga keltiradi.

O‘qituvchi, ota-ona va o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom psixologik muhitni yaratish jarayonida eng muhim jihatlardan biri bu - muloqot madaniyati**dir**. O‘qituvchi ota-onalar bilan muntazam suhbatlar o‘tkazishi, bolaning yutuqlari va qiyinchiliklari haqida ochiq muloqot olib borishi, ota-onani ham pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirishi zarur. Shuningdek, ota-onalar ham o‘qituvchiga nisbatan ishonch bilan yondashib, farzandining rivojlanish jarayoniga faqat nazoratchi sifatida emas, balki hamkor sifatida qarashi kerak.

Psixologik nuqtai nazardan, bola shaxsining rivojlanishida emotsional qo‘llab-quvvatlash eng muhim omillardan biridir. Agar o‘qituvchi va ota-ona bola muvaffaqiyatini tan olsa, kichik yutuqlarini ham e’tirof etsa, bu bolaning ichki motivatsiyasini oshiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shuningdek, konfliktli vaziyatlarda tomonlarning murosaga kelish, bola manfaatini ustuvor qo‘yish tamoyili asosiy psixologik prinsip hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi an’anaviy shakllardan (ota-onalar yig‘ilishi, suhbatlar) tashqari, raqamli texnologiyalar orqali ham kengaymoqda. Onlayn platformalar, muloqot guruhlari va raqamli kundaliklar yordamida o‘qituvchi ota-onalarga tezkor ma’lumot yetkazishi, o‘quvchining o‘zgarishlarini birgalikda kuzatib borishi mumkin. Bu esa bolaning shaxsiy rivojlanishini tizimli nazorat qilish va ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, o‘qituvchi va ota-ona hamkorligi faqat tashkiliy emas, balki psixologik hamkorlik sifatida qaralishi kerak. Ya’ni, bola shaxsini tushunish, uning his-tuyg‘ulariga e’tibor berish, o‘zini ifoda etish imkonini yaratish hamkorlikning markazida turishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchining ruhiy salomatligini saqlash, ijtimoiy faolligini oshirish va sog‘lom shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘quvchi shaxsining rivojlanishida ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi beqiyos ahamiyatga ega. Ular o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik va o‘zaro ishonchli munosabat bolaning psixologik barqarorligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘qishga qiziqishi hamda ijtimoiy faolligini oshiradi. Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasida sog‘lom hamkorlik mavjud bo‘lgan muhitda bola o‘zini qadrlaydi, o‘z fikrini erkin ifoda etadi va muvaffaqiyatga intiladi.

Ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi - bu faqat pedagogik jarayon emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan psixologik tizimdir. Bu tizim bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, emotsional qo‘llab-quvvatlash, muvaffaqiyatga rag‘batlantirish va ijobiy muloqotni ta’minlash orqali amalga oshadi. Shu bois, maktab ta’limida oila bilan hamkorlikni kuchaytirish, o‘qituvchilarning psixologik kompetentligini rivojlantirish hamda ota-onalar uchun pedagogik-ma’rifiy treninglarni yo‘lga qo‘yish dolzarb masaladir.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ota-ona va o‘qituvchi muloqotini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Onlayn platformalar orqali muntazam aloqa, tahlil va kuzatuv bolaning rivojlanishini tizimli boshqarish imkonini beradi. Shunday qilib, o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchi shaxsini ijtimoiy, intellektual va emotsional jihatdan barkamol inson sifatida shakllantirishda asosiy psixologik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Epstein J. L. School, family, and community partnerships: Preparing educators and improving schools. – Boulder, CO: Westview Press, 2001. – 576 p.
2. Epstein J. L., Sanders M. G., Sheldon S. B., Simon B. S., Salinas K. C., Jansorn N. R., Van Voorhis F. L. School, family, and community partnerships: Your handbook for action. – Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2002. – 407 p.
3. Hoover-Dempsey K. V., Sandler H. M. Parental involvement in children’s education: Why does it make a difference? // Teachers College Record. – 1997. – Vol. 97, No. 2. – P. 310–331.
4. Hill N. E., Tyson D. F. Parental involvement in middle school: A meta-analytic assessment // Developmental Psychology. – 2009. – Vol. 45, No. 3. – P. 740–763.
5. Bronfenbrenner U. The ecology of human development: Experiments by nature and design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
6. Vygotsky L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
7. Erikson E. H. Childhood and society. – New York: W. W. Norton & Company, 1963. – 445 p.
8. Bandura A. Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.
9. Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям. – М.: Педагогика, 1977. – 384 с.
10. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. – М.: Педагогика, 1968. – 464 с.
11. Karimova S. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 256 b.
12. Qodirov B., Tojiyev M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2014. – 320 b.

Ro‘ziyeva Shodiya Abdullayevna
Bukhara international university master's student
Bukhara city, English teacher, School N13

THE CONCEPT OF "BEAUTY" IN LINGUISTICS: ITS APPLICATION IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS AND NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS

Abstract. *This article examines the linguistic representation of the concept of "beauty" through a comparative analysis of Uzbek and English proverbs, exploring how cultural values shape aesthetic perceptions across languages. The study investigates the semantic structures, metaphorical expressions, and axiological dimensions of beauty-related proverbs in both linguistic communities.*

Key words: *beauty concept, paremiology, Uzbek proverbs, English proverbs, cultural linguistics, conceptual metaphor, cross-cultural communication, linguistic worldview*

КОНЦЕПЦИЯ «КРАСОТА» В ЛИНГВИСТИКЕ: ЕЁ ПРИМЕНЕНИЕ В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦАХ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается языковая репрезентация концепта «красота» посредством сравнительного анализа узбекских и английских пословиц, исследуя, как культурные ценности формируют эстетическое восприятие в разных языках. В исследовании рассматриваются семантическая структура, метафорические выражения и аксиологические аспекты пословиц, связанных с красотой, в обоих языковых сообществах.*

Ключевые слова: *концепт красоты, паремиология, узбекские пословицы, английские пословицы, лингвокультурология, концептуальная метафора, межкультурная коммуникация, языковая картина мира*

LISONSHUNOSLIKDA “GO‘ZALLIK” KONSEPSIYASI: UNING O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDAGI QO‘LLANILISHI VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz maqollarini qiyosiy tahlil qilish yo‘li bilan “go‘zallik” konseptining lingvistik ifodalanishi ko‘rib chiqiladi, madaniy qadriyatlar turli tillarda estetik tasavvurlarni qanday shakllantirishi o‘rganiladi. Tadqiqot har ikkala til hamjamiyatidagi go‘zallik bilan bog‘liq maqollarning semantik tuzilishi, metaforik ifodalari va aksiologik o‘lchovlarini o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *go‘zallik tushunchasi, paremiologiya, o‘zbek maqollari, ingliz maqollari, madaniy tilshunoslik, konseptual metafora, madaniyatlararo muloqot, lingvistik dunyoqarash*

Introduction. Beauty is one of the most basic and culturally important concepts in human thought, and it appears differently in various linguistic groups and their idioms. Beauty involves aesthetic evaluation; however, it transmutes and transcends into social and moral implications, spiritual manifestations tied to the collective consciousness of some society. Proverbs are rare fyndaments that offer crucial insights into how various cultures perceive, classify, and measure beauty; they are distilled panoptic knowledge distilled from centuries of accumulation. In the case of beauty, proverbs in Uzbek and English constitute a very interesting study since cultural values, aesthetic philosophy, and moral framework encased in linguistic structure can either converge or diverge.

By methodically investigating the ways in which the concept of beauty is encoded in the paremiology of two typologically and culturally distinct languages, this study fills a major gap in the field of cross-cultural linguistic studies [1]. This research is relevant not only to theoretical linguistics but also to the fields of cultural anthropology, translation studies, and intercultural communication. Although earlier research has examined beauty concepts in a variety of linguistic

contexts, little focus has been placed on comparing Uzbek and English proverbial expressions specifically, especially in terms of their cultural-axiological aspects [2].

Methodology and Literature Review. The basis for this research integrates plural approaches complementing each other in order to allow for a thorough analysis of beauty concepts in Uzbek and English proverbs. Within cognitive linguistics beauty has been studied as a conceptual domain formed through metaphorical mappings, with authors demonstrating that abstract concepts of beauty are understood through concrete physical experiences and spatial metaphors [3]. Studies on proverbs as cultural artifacts have made it clear that indeed, paremiology is key to comprehending cultural cognition, for proverbs express traditional knowledge, norms, and values of behavior in simple-to-remember linguistic forms [4].

The analytical model distinguishes several dimensions of beauty conceptualization in proverbs: the semantics dimension investigates the literal and figurative meanings of beauty-related lexemes; the axiological dimension examines value judgments and moral evaluations attached to beauty; the metaphor dimension observes source domains and mapping patterns in beauty metaphors; the gender dimension looks into how masculine and feminine beauty are conceptualized differently; and the cultural dimension situates beauty concepts within broader cultural belief systems and social practices [5].

Results and Discussion. The comparative metaphorical study of beauty-related proverbs in Uzbek and English highlights the distinct cultural worldviews and axiological frameworks, which come to mold the conventions and aesthetic experiences among the two linguistic groupings [6]. The Uzbek proverbs actually express a hierarchical value system wherein internal virtue and moral qualities are given precedence over any kind of external appearance and this is perhaps because of the fundamental ethic of Islamic worldviews, in interaction with Turkic culture [7]. For instance, the proverb "Chiroy husn-u jamolda emas, fazl-u kamolda" (Beauty is not in appearance and charm, but in knowledge and perfection) explicitly subordinates physical attractiveness to intellectual and moral development, positioning true beauty within the realm of spiritual achievement and ethical cultivation. Similarly, "Chiroyga non botirib yeb bo'lmas" (You cannot dip bread into beauty and eat it) pragmatically dismisses the utilitarian value of physical beauty, emphasizing instead the importance of material sustenance and practical life skills over superficial aesthetics. The proverb "Pardoz qilgan chiroyli, ammo husni bir oyli" (Made-up beauty is beautiful, but its beauty lasts one month) reveals cultural skepticism toward artificial enhancement, suggesting that cosmetic beautification is temporary and deceptive compared to natural, enduring qualities. "Aql-li xotin - uy ko'rki, chiroyli xotin - ko'cha ko'rki" (An intelligent woman is the beauty of the home, a beautiful woman is the beauty of the street) articulates traditional gender ideology where female intelligence and domestic competence are valued more highly for marital success than physical attractiveness, which serves primarily social rather than familial functions [8].

English proverbs exhibit a more balanced and pluralistic approach to beauty conceptualization, acknowledging both intrinsic aesthetic value and the importance of complementary qualities. "Beauty is only skin deep" uses anatomical metaphor to convey that physical appearance represents merely superficial reality, closely paralleling the Uzbek concept expressed in "Tashiga qarama, ichiga qara" (Don't look at the outside, look at the inside), yet the English formulation employs concrete bodily imagery that emphasizes the shallow physical dimension of external beauty. "Beauty is in the eye of the beholder" foregrounds the subjective nature of aesthetic perception and the relativity of beauty standards across individuals, resonating conceptually with Uzbek proverbs such as "Har kimning didi boshqa" (Everyone's taste is different) and "Suluv suluv emas, suygan - suluv" (Beautiful is not beautiful, the one you love is beautiful), both of which recognize personal preference as determinative in aesthetic judgment. "Handsome is as handsome does" establishes a direct equivalence between appearance and behavior, suggesting that true beauty manifests through actions and conduct rather than static physical features, aligning closely with the Uzbek concept in "Yetmish go'zallikning bittasi - mehnat" (One of seventy beauties is labor), which positions productive work as an essential component of genuine attractiveness. "All that glitters is not gold" warns against conflating surface brilliance with intrinsic value, comparable to the Uzbek "Ifor isini yashirib

bo'lmas" (The smell of a chamber pot cannot be hidden), both proverbs cautioning that external presentation may mask true nature.

Conclusion. This contrastive analysis of beauty concepts in Uzbek and English proverbs finds that while some aspects of aesthetic perception are universal across human cultures, others differ significantly in the way they conceptualize, evaluate, and linguistically encode beauty according to their respective cultural values, historical influences, and philosophical orientations. The analysis further reveals the Uzbek proverbial wisdom as invariably subordinating physical beauty to moral and spiritual qualities, a reflection of cultural priorities informed by Islamic ethics and Turkic traditional values that favor inner virtue far above external appearance. English proverbs, in contrast, entertain a balanced pluralism that simultaneously recognizes the intrinsic value of physical beauty and its complementing moral qualities, reflecting a confluence of alternative cultural traditions including classical aesthetics, Christian morality, and humanistic values.

References.

1. Wierzbicka A. Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – 328 p.
2. Sharifian F. Cultural conceptualisations and language: Theoretical framework and applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2011. – 246 p.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
4. Mieder W. Proverbs: A handbook. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004. – 304 p.
5. Karimov I. B. O‘zbek xalq maqollari va matallarida milliy-madaniy qadriyatlar aks etishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2018. – № 3. – B. 45–52.
6. Normatov U. S. Go‘zallik konsepti va uning o‘zbek tilida ifodalanishi // Tilshunoslik masalalari. – 2020. – № 5. – B. 78–86.
7. Rakhmatova M. M. Reflection of aesthetic values in the language: Uzbek “Go‘zal” and English “Beautiful” // Impact: International Journal of Research in Humanities, Arts, and Literature. – 2018. – Vol. 6, No. 6. – P. 40–45.
8. Rakhmatova M. M. Aesthetic judgement: Language as a mirror to reflect “Beauty” // Theoretical & Applied Science. – 2019. – No. 10. – P. 282–288.

Tobakabulova Nesibeli Kaxarovna
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHLAR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emosional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishining psixologik determinantlari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda turli toifadagi imkoniyati cheklangan bolalarning (esitish, ko‘rish, nutq, harakat-tayanch tizimi buzilishlari hamda intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar) emotsional reaksiyalari, stressga beriluvchanligi va affektiv barqarorligiga ta’sir etuvchi ichki hamda tashqi omillar ilmiy asosda o‘rganiladi. Maqolada emotsional zo‘riqishning shakllanishiga sabab bo‘luvchi psixologik determinantlar – o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlari, idrok va kognitiv jarayonlardagi o‘ziga xosliklar, o‘quv motivatsiyasining pastligi, kommunikativ cheklovlar, o‘z-o‘zini baholashning barqaror emasligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi hamda ta’lim jarayonidagi pedagogik yondashuvlar ta’siri – alohida guruhlar sifatida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *imkoniyati cheklangan bolalar; maxsus ehtiyojli o‘quvchilar; emotsional reaktivlik; emotsional zo‘riqish sindromi; psixik rivojlanish xususiyatlari; ta’lim muhitining ta’siri; pedagogik yondashuvlar; o‘quv motivatsiyasi; psixokorreksiya; inklyuziv pedagogika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация. *В статье комплексно проанализированы психологические детерминанты эмоционального стресса у учащихся начальной школы с ограниченными возможностями здоровья. В исследовании на научной основе изучены внутренние и внешние факторы, влияющие на эмоциональные реакции, стрессоустойчивость и аффективную устойчивость детей с ограниченными возможностями здоровья различных категорий (с нарушениями слуха, зрения, речи, опорно-двигательного аппарата и интеллектуального развития). В статье выделены в отдельные группы психологические детерминанты, обусловливающие формирование эмоционального стресса: индивидуально-психологические особенности учащегося, особенности восприятия и познавательных процессов, низкая мотивация к обучению, коммуникативные ограничения, нестабильная самооценка, уровень социальной поддержки и влияние педагогических подходов в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *дети с ограниченными возможностями здоровья; учащиеся с особыми потребностями; эмоциональная реактивность; синдром эмоционального напряжения; особенности психологического развития; влияние образовательной среды; педагогические подходы; мотивация обучения; психокоррекция; инклюзивная педагогика.*

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF EMOTIONAL STRESS IN ELEMENTARY STUDENTS WITH DISABILITIES

Abstract. *This article comprehensively analyzes the psychological determinants of emotional stress in primary school students with disabilities. The study scientifically studies the internal and external factors that affect the emotional reactions, stress susceptibility and affective stability of children with disabilities of various categories (students with hearing, vision, speech, musculoskeletal disorders and intellectual development disorders). The article considers the psychological determinants that cause the formation of emotional stress - individual psychological characteristics of the student, peculiarities in perception and cognitive processes, low motivation for learning, communicative limitations, unstable self-esteem, level of social support and the influence of pedagogical approaches in the educational process - as separate groups.*

Key words: *children with disabilities; students with special needs; emotional reactivity; emotional stress syndrome; psychological development characteristics; the influence of the educational environment; pedagogical approaches; learning motivation; psychocorrection; inclusive pedagogy.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan samarali ishlash masalasi alohida ilmiy-nazariy e’tibor talab qiladi. Ushbu toifa bolalar psixofiziologik rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar, sensor, intellektual yoki motor cheklovlar, shuningdek, ijtimoiy-psixologik omillarning murakkab o‘zaro ta’siri tufayli emotsional zo‘riqishlarga nisbatan yuqori darajada sezgir bo‘ladi. Maktabga moslashuv jarayonining murakkabligi, kommunikativ qiyinchiliklar, o‘quv yuklamasining o‘ziga xos talablari va atrof-muhitning psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi ularda turli ko‘rinishdagi emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishiga zamin yaratadi.Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda uchraydigan emotsional zo‘riqishlar nafaqat ularning o‘qish jarayonidagi faolligiga, balki shaxsiy rivojlanish, o‘zini boshqarish, ijtimoiy muloqotga kirishish, motivatsiya va o‘quv faoliyatining barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ushbu jarayonning psixologik determinantlarini aniqlash, ularning kelib chiqish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish, emotsional zo‘riqishni kamaytirishga qaratilgan samarali psixologik-pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.Mavzuning dolzarbligi shundaki, ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning kengayishi bilan imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik salomatligini saqlash masalasi markaziy o‘ringa chiqmoqda. Emotsional zo‘riqishning psixologik determinantlarini chuqur tahlil qilish esa ushbu o‘quvchilar bilan individual yondashuv asosida ishlash, ularni samarali ijtimoiylashtirish va o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi yangi ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shuning uchun ushbu tadqiqot imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional zo‘riqishning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli ravishda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar kontekstida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Imkoniyati cheklangan bolalar psixologiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar emotsional zo‘riqishning shakllanishi ko‘p omilli murakkab jarayon ekanini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar ushbu masalaning bir qator psixologik determinantlarini asoslab beradi.L.S. Vigotskiy o‘z tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolalarning emotsional holatlari ularning ijtimoiy muhitda qabul qilinishi va kommunikativ imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, emotsional zo‘riqishning asosiy manbai bolaning “ijtimoiy vaziyatda rivojlanish imkoniyatlarining chegaralanishi”dir. Bu yondashuv hozirgi kunda inklyuziv ta’lim psixologiyasining nazariy poydevoriga aylangan.A.R. Luriya tadqiqotlarida eshitish, ko‘rish, nutq kabi funktsional cheklovlar bolalarda stressga yuqori sezuvchanlik, tez charchash va emotsional noturg‘unlikni kuchaytirishi qayd etilgan. Luriya bo‘yicha, miya funksional tizimlaridagi o‘ziga xos o‘zgarishlar emotsional reaksiyalarning me’yoridan chetga chiqishini tez-tez keltirib chiqaradi.Elkonin bolalardagi o‘quv faoliyatining shakllanishi jarayonida emotsional barqarorlik muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘quv motivatsiyasining pastligi, ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning cheklanganligi va kognitiv jarayonlardagi tebranishlar imkoniyati cheklangan bolalarda zo‘riqishning kuchayishiga olib keladi.Piaget bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar ularning emotsional reaksiyalariga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan. Ayniqsa, boshlang‘ich yoshdagi nogiron bolalarda atrofdagi jarayonlarni adekvat idrok qilmaslik o‘z-o‘zini baholash pastligi va zo‘riqishga moyillikni oshiradi.

O‘zbekistonlik psixolog va defektolog olimlar ham ushbu yo‘nalishda qator muhim izlanishlar olib borgan.

M. Yo‘ldoshev va O. Qodirov tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolalarning emotsional rivojlanishida oila mikromuhitining roli alohida ta’kidlanadi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash past bo‘lganda zo‘riqish darajasi ancha yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional zo‘riqish muammosi zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda muhim ilmiy masala sifatida e’tirof etilmoqda.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, emotsional zo‘riqishning shakllanishi faqat individual psixologik xususiyatlar bilan emas, balki ta’lim jarayonining tashkil etilishi, pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, S. Ashurova va G. Raxmonova olib borgan ilmiy izlanishlarda o‘quv jarayonida kuzatiladigan psixologik bosim, pedagogik faoliyatda individuallashtirilgan yondashuvning yetishmasligi hamda ijtimoiy stigma emotsional zo‘riqishning yetakchi determinantlari sifatida ko‘rsatiladi. N. Jo‘rayeva tadqiqotlari esa integratsiyalashgan sinflarda tahsil olayotgan bolalarda o‘zaro taqqoslash, o‘zini past baholash va moslashuvdagi qiyinchiliklar emotsional zo‘riqishni keskin kuchaytirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

So‘nggi yillarda emotsional zo‘riqishni tushuntirishda biopsixososial model keng qo‘llanilmoqda. E. Werner, R. Lazarus va S. Folkman tadqiqotlariga ko‘ra, emotsional zo‘riqish biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro murakkab ta’siri natijasida shakllanadi. Ushbu yondashuv doirasida biologik cheklovlar, shaxsning psixologik xususiyatlari, jumladan o‘zini boshqarish darajasi va affektiv barqarorlik, shuningdek ijtimoiy muhit – maktab muhiti, tengdoshlar bilan munosabatlar va o‘qituvchining pedagogik uslubi bir butun tizim sifatida emotsional zo‘riqishning kuchi va namoyon bo‘lish shaklini belgilaydi.

Xorijiy tajriba, xususan D. Goleman va H. Gardnerning emotsional intellekt nazariyasi ham mazkur muammoni chuqur yoritadi. Ularning fikricha, bolalarda emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish, ayniqsa imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Emotsional savodxonlikning pastligi stressga chidamlilikning keskin pasayishiga olib keladi, bu esa o‘quv jarayonida emotsional zo‘riqishning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim yoshida emotsional rivojlanish bola shaxsining shakllanishida yetakchi omil hisoblanadi. Ushbu davrda emotsional holat o‘quv faoliyati, ijtimoiy moslashuv va o‘zini anglash jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Imkoniyati cheklangan, ya’ni sensor, intellektual, nutqiy, motor yoki kompleks nuqsonlarga ega bolalarda emotsional jarayonlar odatdagi rivojlanishdan farqli ravishda barqaror bo‘lmaydi. Ularda reaktivlik yuqori, charchash tez sodir bo‘ladi, hissiy javoblar esa tez qo‘zg‘aluvchanlik, xavotirlanish, o‘zini past baholash yoki aksincha himoya-agressiv reaksiyalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional beqarorlikning asosiy sababi psixofiziologik resurslarning cheklanganligi va ijtimoiy muhit tomonidan yetarli qo‘llab-quvvatlanmaslik bilan bog‘liqdir.

Emotsional zo‘riqish tushunchasi bolaning psixologik resurslari tashqi talablar va ichki ehtiyojlar o‘rtasidagi nomutanosiblik tufayli qisqa yoki uzoq muddatli ortiqcha tashvish holatini boshidan kechirishi bilan tavsiflanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun emotsional zo‘riqishning bir necha turi xosdir. Akut zo‘riqish test, sinov yoki yangi vaziyatlar bilan bog‘liq holda to‘satdan yuzaga keladigan kuchli emotsional reaksiyalarni ifodalaydi. Kronik zo‘riqish esa muntazam psixologik bosim va doimiy stress manbalari ta’sirida shakllanadi. Latent zo‘riqish tashqi tomondan sezilmasligi bilan ajralib tursa-da, ichki fiziologik va affektiv jarayonlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ushbu zo‘riqish turlari ko‘pincha aralash holda namoyon bo‘ladi.

Emotsional zo‘riqishning shakllanishida biologik va neyropsixologik omillar muhim o‘rin tutadi. Ayrim sensor yoki aqliy cheklovlar markaziy asab tizimi faoliyatida o‘ziga xos o‘zgarishlar bilan kechadi. Masalan, eshitish yoki ko‘rish nuqsoniga ega bolalar atrof-muhit signallarini to‘liq qabul qila olmagani sababli ortiqcha kognitiv zo‘riqishga duch keladi. Nutqiy buzilishlar esa fikrni ifodalashdagi qiyinchiliklar orqali ijtimoiy vaziyatlarda emotsional tanglikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy muhit ham emotsional zo‘riqishning yetakchi determinantlaridan biridir. O‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovchi yoki tanqidiy munosabati, sinfdagi ijtimoiy aloqalar, tengdoshlar tomonidan qabul qilinmaslik, stigmatizatsiya va ajratilganlik hissi emotsional beqarorlikni kuchaytiradi. Inklyuziv sinflarda ijtimoiy munosabatlar yetarlicha tashkil etilmagan hollarda tashqi bosimning ortishi kuzatiladi.

Pedagogik omillar ham alohida ahamiyatga ega. O‘quv jarayonining noto‘g‘ri tashkil etilishi, murakkab va moslashtirilmagan topshiriqlar, individuallashtirilgan yondashuvning yo‘qligi hamda baholashning subyektivligi emotsional zo‘riqishni kuchaytiradi. Bunday sharoitda imkoniyati cheklangan o‘quvchilar o‘qituvchi talablariga javob bera olmaslikdan qo‘rqib, doimiy tashvish holatida bo‘ladi.

Oilaviy muhit bolaning emotsional holatini belgilovchi muhim determinant hisoblanadi. Ota-onaning yetarli psixologik qo‘llab-quvvatlamasligi, ortiqcha nazorat yoki befarqlik bolada xavotir va zo‘riqishni kuchaytiradi. Aksincha, iliq oilaviy muhit va ijobiy muloqot stressga chidamlilikni oshiradi. Shuningdek, shaxsiy-psixologik xususiyatlar, jumladan o‘zini past baholash, tashabbuskorlikning kamligi, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligi va vaziyatlarga ortiqcha sezgirlik emotsional zo‘riqishga moyillikni kuchaytiradi.

Emotsional zo‘riqishning o‘quv faoliyati va ijtimoiy moslashuvga ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib, u kognitiv jarayonlarning sekinlashuvi, motivatsiyaning pasayishi, ijtimoiy munosabatlarning buzilishi, agressiv yoki yopiq xulq-atvor shakllarining yuzaga kelishi va o‘zini baholashning izdan chiqishida namoyon bo‘ladi. Bu holatlar bolaning maktabdagi muvaffaqiyati, ruhiy salomatligi va keyingi ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois emotsional zo‘riqishni kamaytirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhimdir. Individual psixologik yordam, moslashtirilgan inklyuziv ta’lim strategiyalari, oila bilan hamkorlik va sinfdagi ijobiy psixologik muhitni shakllantirish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning emotsional farovonligini ta’minlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishi ko‘p omilli, tizimli va dinamik jarayon bo‘lib, u bolaning psixofiziologik rivojlanishi, ijtimoiy atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari hamda ta’lim jarayonining sifati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tadqiqotning ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional zo‘riqishning shakllanishi biologik cheklovlar bilan izohlanadigan ichki determinantlar hamda pedagogik, ijtimoiy va oilaviy bosimlar bilan bog‘liq tashqi determinantlarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.Bir tomondan, neyropsixologik resurslarning cheklanganligi, sezgi organlaridagi buzilishlar, nutq va aqliy rivojlanishdagi kechikishlar emotsional jarayonlarning beqarorligini kuchaytiradi. Boshqa tomondan, maktab muhiti, o‘qituvchining yondashuvi, baholash tizimi, tengdoshlar bilan ijtimoiy muloqot va oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi zo‘riqishning shakli va intensivligini belgilovchi asosiy tashqi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.Tahlil shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jarayonda individuallashtirilgan yondashuv yetishmaganda, o‘quv yuklamasining me’yoridan ortiqligi yoki sinfdagi psixologik muhitning salbiyligi natijasida imkoniyati cheklangan bolaning psixologik himoya mexanizmlari faoliyatining susayishi yuz beradi.

Shunday qilib, imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional zo‘riqishlarning psixologik determinantlari ko‘p qatlamli tizim sifatida qaraladi va mazkur tizimdagi har bir omilga ilmiy asoslangan, amaliy ehtiyojlarga mos yondashuv zarur. Ushbu masalani chuqur tushunish inklyuziv ta’limda samarali psixologik yordamni tashkil etish, bolalarning ruhiy farovonligini ta’minlash va ularning to‘laqonli shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Vygotskiy, L. S. Osnovy defektologii. - Moskva: Pedagogika, 1995.
2. Vygotskiy, L. S. Problemy detskoy psixologii. - Moskva: Prosveshcheniye, 1984.
3. Luriya, A. R. Neyropsixologiya detskogo vozrasta. - Moskva: MGU, 1998.
4. Elkonin, D. B. Psixologiya razvitiya shkol’nika. - Moskva: Akademiya, 2001.
5. Piaget, J. Psixologiya intellekta. - Sankt-Peterburg: Piter, 2008.
6. Goleman, D. Emotional Intelligence. - New York: Bantam Books, 1995.
7. Lazarus, R., & Folkman, S. Stress, Appraisal and Coping. - New York: Springer, 1984.
8. Malofoev, N. N. Spetsialnaya pedagogika i psixologiya. - Moskva: IKP RAO, 2012.
9. Yo‘ldoshev, M. Maxsus pedagogika asoslari. - Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
10. Ashurova, **S.** Inklyuziv ta’limning psixologik-pedagogik asoslari. - Toshkent: Fan, 2020.

Orziyev Mahmud Zaynievich
Buxoro xalqaro universiteti Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Sobirov Feruz Xalil o'g'li
Buxoro xalqaro universiteti tarix fani o'qituvchisi

TURKISTON MAHALLIY OT ZOTLARI XUSUSIDA ("TURKISTON TO'PLAMI" MATERILALLARI ASOSIDA)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarimi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi mahalliy ot zotlari, ularning iqtisodiy, harbiy va madaniy ahamiyati haqida "Turkiston to'plami" materillari asosida tahlil qilingan. Asarda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'kasining tabiiy va xo'jalik resurslaridan foydalanish jarayonida otchilikning tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, mahalliy ot zotlari – Qirg'iz(Qozoq), Qorabayir va Turkman otlarining nasl xususiyatlari, ularning boshqa mashhur zotlardan farqi, armiyadagi roli, narxlari hamda ularni rivojlantirish yo'lidagi urunishlar haqida ma'lumot berilgan. Manbada otlarning chidamliligi, harbiy xizmatdagi afzalliklari, xalq seleksiyasi asosida shakllangan o'ziga xos jihatlari va bu bu sohada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari yoritildi. Maqola Turkiston otchilik tarixini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so'z: *Turkiston to'plami, mahalliy ot zotlari, Qirg'iz oti, Qorabayr oti, Turkman oti, Rossiya imperiyasi, kavaleriya, otchilik tarixi, XIX asr, xalq seleksiyasi, tarixiy manba.*

О ТУРКЕСТАНСКИХ МЕСТНЫХ ПОРОДАХ ЛОШАДЕЙ (НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ «ТУРКЕСТАНСКОГО СБОРНИКА»)

Аннотация. *В данной статье на основе материалов «Туркестанского сборника» анализируется развитие местных пород лошадей Туркестана во второй половине XIX — начале XX века, а также их экономическое, военное и культурное значение. Рассматриваются особенности политики Российской империи по использованию природных и хозяйственных ресурсов края, в том числе роль коневодства. Особое внимание уделено характеристикам кыргызских (казахских), карабаирских и туркменских пород лошадей, их отличиям от известных европейских пород, их применению в кавалерийских частях армии и стоимости. В статье также приводятся сведения о выносливости, приспособляемости и селекционных особенностях местных пород, а также о научных и практических исследованиях в области коневодства. Материал служит важным источником для изучения истории коневодства в Туркестане.*

Ключевые слова: *Туркестанский сборник, местные породы лошадей, кыргызская лошадь, карабаирская лошадь, туркменская лошадь, Российская империя, кавалерия, история коневодства, XIX век, народная селекция, исторический источник.*

ON THE LOCAL HORSE BREEDS OF TURKESTAN (BASED ON THE MATERIALS OF THE "TURKESTAN COLLECTION")

Annotation. *This article analyzes the development of local horse breeds in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries based on the materials of the "Turkestan Collection." It explores the economic, military, and cultural significance of horse breeding within the framework of the Russian Empire's colonial policies and its exploitation of the region's resources. Particular attention is given to the characteristics of Kyrgyz (Kazakh), Karabair, and Turkmen horse breeds, their distinctions from well-known European breeds, their role in cavalry units, and their market value. The article also discusses the endurance, adaptability, and selective breeding traditions of local horses, as well as early scientific studies in this field. The material serves as an important source for the study of horse breeding history in Turkestan.*

Key words: *Turkestan Collection, local horse breeds, Kyrgyz horse, Karabair horse, Turkmen horse, Russian Empire, cavalry, horse breeding history, 19th century, folk selection, historical source.*

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini istilo qilib, o'lkaning barcha iqisodiy imkoniyatlarini o'z manfaatlariga bo'ysundirish yo'lini tutdi. Olib borilgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy siyosat Rossiyaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan taraiqqiyotiga xizmat qilishi, shuningdek o'lkada imperiyaning mustahkamlanib olishiga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Turkiston general-gubernatorligi mavjud bo'lib turgan davrda (1867-1917 yy) dastlab Fon Kaufman tashabbusi bilan yaratila boshlangan "Turkiston to'plami" Turkistonning Rossiya imperiyasiga qaramlik davri tarixini yoritishda muhim manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu to'plamda Rossiya mustamlaka siyosati va Turkiston xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan imperiya manfaatlari yo'lida foydalanish borasidagi ko'plab tarixiy dalillar mavjud.

Turkiston xalqlari tarixida muhim ahamiyat kasb etgan otlar ularning turlari, otlardan xo'jalik, ijtimoiy - siyosiy, harbiy manfaatlar yo'lida foydalanish borasidagi ma'lumotlar ham "Turkiston to'plamida" salmoqli o'ringa ega. "Turkiston to'plami" dagi Otlar bilan bog'liq ma'lumotlar asosan Turkiston o'lkasida uzoq o'tmishda xalq seleksiyachiligi asosida vujudga kelgan ot zotlari, ularning o'sha davrdagi mashhur Ingliz, Don, Venger va boshqa ot zotlaridan farqili jihatlari, soni, mahalliy otlardan imperiyaning kavaleriya qisimlarida foydalanish kabi qator masalalarga bag'ishlangan.

Yuqoridagi fikrlarga misol tariqasida Turkiston to'plamining 425-tomida YE.U. imzosi bilan nashr etilgan maqolani keltirishimiz mumkin. Ushbu muallifning fikriga ko'ra imperiya armiyasining kavaleriya qismlarini ingliz zotli otlar bilan ta'minlashdan ko'ra Qirg'iz (Qozoq) otlari bilan ta'minlash arzon bo'lib, o'sha davr Yevropaning qudratli davlatlarida mavjud otlarning soni haqida quyidagi raqamlarni keltiradi. Avstro-Vengriya imperiyasi armiyasida 3.569.000, Germaniya armiyasida 3.352.000, Fransiya armiyasida 3.000.000, Buyuk Britaniya armiyasida 2.970.000, Italiya armiyasida 657.000 bosh ot borligi, Rossiya imperiyasining Qirg'iz dashtlarida esa kavaleriyaga qismlariga yaroqli 4 mln ot borligi, Qirg'iz otlarining kuchlilik, chidamlilik, chopqirlik kabi xislatlariga atroflicha to'xtaladi.

O'sha davr harbiy taktikasiga ko'ra armiya kavaleriya qismlaridagi otlar chopog'on, baland bo'yli va kuchli bo'lishi zarur edi. Bu masalaga o'sha davr davlatlari katta ahamiyat berib, turli ot zotlarining turli tabiiy – iqlimiy sharoitlarda poygalarini o'tkazish orqali aniqlashga harakat qilganlar. "Turkiston To'plami" da Turkistondagi ot zotlarining ham poygalarda ishtiroki, otlar poygasining tashkiliy masallari, poygalar masofasi, natijasi haqidagi ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Poygalarni butun imperiya hududida, turli sharoitlarda o'tkazilganligi, poygalarning o'rtacha masofasi 20 vyorst uzoqlikni tashkil etishi, ushbu masofada ingliz zotli oti 40.95 daqiqa natija ko'rsatgan bo'lsa, Qirg'iz oti 23 vyorst masofani 36 minut 30 sekunda bosib o'tganligi haqidagi fikrlar mavjud. Turkiston mahalliy ot zotlarining ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, turli mualliflar matbuot orqali chiqishlar qilib, Qirg'iz otlarini armiya kavaleriya qismlari xizmatiga jalb qilishga hukumat e'tiborini tortishga harakat qilganlar. Buga erishish uchun esa, Turkistondagi mahalliy ot zotlarining ijobiy xislatlarini ko'rsatishga harakat qilganlar.

"Turkiston to'plami" dagi maqolalarning birida, boshqird polkda 15 vyorst masofada og'ir tog' yo'li, botqoqlik, daryo bo'ylab poyga o'tkazilganligi qirg'iz otlari bu masofani oson, qiynalmay bosib o'tgani, yuqori Uralskdan Boshqirdiston markazigacha cho'zilgan 333 vyorst masofadagi poygani qirg'iz otlari 7 sutkada bosib o'tgani, har sutkada 48 vyorst masofa bosilganligi, Orenburgdan Kavkazdagi (1907-yilgi Eron inqilobi voqealari) janglarda qatnashishi uchun ketgan ikki kazak polki jangchilari butun urush davomida va yo'lning og'irligini qiynalmay bosib o'tganliklari, bu otlarning chidamliligi, cho'lda og'ir sharoitlarda ulg'ayishi, -400 S da ham dashtda yashashi qo'lga tez o'rganishi, bu otlar Orenburgda knyaz M.M.Dolgarukov ot zavodida ko'paytirilayotgani arzon vaqtda 40-50 rubl, qimmat vaqtida 60 rublda olish mumkinligi, ingliz ot zotlari qimmatligi uni boqish, tarbiyalash ko'p vaqt, xajat talab qilishi, kavaleriya qismlarida qirg'iz zot otlaridan foydalanish hukumat g'aznasi uchun arzon tushishi, davlat ot zavodlarida ularni yetishtirishga o'tish, yoki, subsidiya berib xususiy ot zavodlari tashkil etish, hech bo'lmaganda

Qirg‘izlarning yaxshi ot yetishtiruvchilarini rag‘batlantirish kabi yo‘llar bilan Qirg‘iz zotli otlarni Armiya kavaleriya qismlariga jalb qilish haqidagi takliflar berilgan.

Qirg‘iz zotli otlarni armiya kavaleriya qisimlariga qabul qilish tarafdorlari va unga qarshi bo‘lganlar ham ko‘pchilikni tashkil etib, matbuot orqali o‘z fikrlarini turli faktlar bilan asoslashga harakat qilganlar. Qirg‘iz otlarini armiya kavaleriya qismlariga jalb etishga qarshi bo‘lganlar hukumatda katta mavqega ega bo‘lib, ular qirg‘iz otlari kavaleriya qisimlariga yaroqsiz ekanligini isbotlashga zo‘r berib uringanlar. Ularning tarafdorlari davlat ot zavodi bosh boshqarmasi vakillariga katta ta’sir o‘tkaza olgan bo‘lsa kerakki, ot zavodi boshqarmasi vakillaridan iborat tuzilgan komissiya To‘rg‘ay, Ural viloyatlari, Qirg‘iz o‘rdalari, Astraxan qalmoqlari orasida bo‘lib, Qirg‘iz otlarini ilmiy, fiziologik jihatdan tadqiq qiladilar. Ularning ma’lumoticha, bu hududlarda 1878-yilda 1,5 mln bosh ot bo‘lib, 1882-1884-yillarda qishning qattiq kelishi, jut kasalligining tarqalishi oqibatida ularning soni keskin kamayib, 1885-yil 1-yanvar holatida 800 ming boshga tushib qolgan. Poyga natijasida qoniqarli (12 vyorstga - 20 daqiqa sarflangan) bo‘lsada, komissiya qirg‘iz zotli otlarning bo‘yi pastligi (1 arshin 14-15 vershk o‘rtacha bo‘yi), kavaleriya qismlarida xizmat qiladigan otlar 2 arshin 1,5 vershk, gvardiyachi Kovaleriya otlari esa 2 arshin 2 vershkdan kam bo‘lmasligi kabilarni asosiy sabab qilib ko‘rsatganlari haqidagi ma’lumotlarni o‘qishimiz mumkin.

1885-yilda “Ruskiy invalid” gazetasida chop etilgan bu maqolaning davomi siftida yana turkum maqolalar mavjudki, ular “Turkiston to‘plami” da anchagina salmoqqa ega. Shunday maqolalarning birida Qirg‘iz otlarining kavaleriya qisimlariga yaroqsizligini qirg‘iz (qozoqlar) larning xo‘jalik hayoti natijasi deb qaralganini bilishimiz mumkin. Muallifning yozishicha qirg‘iz xo‘jaligidan kelib chiqib, qimiz uchun biya sutini sog‘ib olishi, toychaga kam sut qolishi, shuning uchun toychalar ona sutidan to‘ymay past bo‘yli bo‘lib ulg‘ayishi, baland otdagi asrkar past bo‘yli otdagi askardan sovuq qurol bilan bo‘ladigan yakkama – yakka jangda ustun mavqega ega bo‘lishi, keyingi vaqlarda turli ot zotlari haqidagi munozalar ko‘paygani, bu ot zavodlari egalarining foyda ketidan quvishi natijasi ekanligi, Qirg‘izlarga yaxshi, zotdor otlarni tarbiyalash uchun beriladigan davlat yordamlari izsiz ketishi mumkinligi kabi sabablar bilan izolashga uringan.

Davlat va keng jamoatchilik diqqatini tortish maqsadidi Turkiston mahalliy ot zotlari tarafdorlari ham turkum maqolalar, otlarga bag‘ishlangan maxsus adabiyotlar yaratish orqali o‘z harakatlarini davom ettirganlar. Ulardan Turkiston tabiati, otlar, ularning tarqalish hududlari, ot zotlari, ularning a’lohida xususiyatlari va boshqa masalalar keng yoritilgan. Shunday maqolalardan birida, Turkistonda otchilik Yettisuv, Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Zakaspiy va Buxoroda keng taraqqiy qilgani, Turkiston mahalliy otlari uchta katta zotga Qirg‘iz, Qorabayir, Turkman zotli otlarga bo‘linishi, Qirg‘iz otlari Yettisuv, Sirdaryo viloyatlari, Andijon, Namangan uyezdlari, Mang‘ishloq, Krasnavodsk atroflarida tarqalganligi, ular uzun, keng qovurg‘ali ekanligi, og‘ir yuk tashish imkoniyati yuqori ekanligi, qorabayir zotli otlar xalq seleksiyachiligi usuli bilan qirg‘iz va arab otlari chatishtirilishi natijasida vujudga kelganligi, Sirdariyoning janubiy–g‘abiy qismi, Yettisuv, Buxoroda keng tarqalganligi kuchliligi, chidamliligi bois kavaleriyagacha, chegara qo‘shinlari, artileriya qismlariga ham mos tushishi, Turkman otlari esa asosan Zakaspiy viloyatida tarqalgani, nozik ko‘rinsada kuchli, chidamli ekanligi, Taka va Yovmut urug‘lari o‘rtasida qadimdan tez-tez poyga o‘tkazilib turilgani, bu poygalar va chopag‘on, chidamli, ko‘rinishi chiroyli va nozik otlar seleksiyasini uzoq davrlardan buyon yaxshilanishiga xizmat qilganligi haqidagi ma’lumotlarni o‘qish mumkin.

Matbuot sahifalarida chop etilgan maqolalardan tashqari Turkiston ot zotlariga bag‘ishlangan maxsus asarlar yaratilganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Shundaylar sirasiga V.Firsovning “Turkestan i Turkestaniskiy porodi loshadey” nomli asarini kiritishimiz mumkin. Ushbu asarda Turkiston ot zotlari haqida fikr yuritilib, Turkman (Axaltaka) zotli otlar haqida o‘sha davr otlar bilimdonlari deb tan olingan Gayo, Frazer, Guel kabilarning fikrlarini keltirib, bo‘yi 2 arshin 4,5 vershkdan, 2 arshin 7 – 8 vershkkacha bo‘lishi, Sherozdan Tehrongacha bo‘lgan 500 ingliz milini 6 kunda bosgani, turkman ot zotini kelib chiqishini Amir Temur faoliyati bilan bog‘laydi. Muallif fikricha, Amir Temur buyurug‘i bilan 14.000 arab zotli oti mahalliy zotlar bilan chatishtiriladi va turkman zotli otlari kelib chiqadi deydi.

Qorabayir zotli otlarni qadimda Xitoyliklar Davon mamlakati otlari deb atalganlari, ularning eng yaxshilari O‘ratepa va undan 60 vyorst uzoqlikdagi Sangzor atrofida yetishtirilishi, ildamligi, chopqirligi kabi fikrlarni bildiradi.

Ushbu asarda Turkman, Qorabayir zotli otlardan tashqari fors, qorabaxt, turk, qirg‘iz, nayman, qipchoq, targaut, issiqko‘l, qashg‘arka va boshqa zotli otlar haqida ko‘plab fikrlar mavjud. Ayniqsa ularning narxiga katta e’tibor berilgan va armiyaning turli qismlariga ularning qaysi biri mos kelishi haqidagi ma’lumotlar mavjud. Bu yerda nafaqat iqtisodiy, balki harbiy, strategik maqsadlar ham ko‘zlanganligini bilib olishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda XIX asrning oxri – XX asrning boshlarida Turkiston o‘lkasida mavjud bo‘lgan ot zotlari va o‘sha davrda ularning narxi bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltirishni lozim topdik.

т/р	Ot zotlari	Narxi rubl hisobida
1	Turkman (axaltaka)	150 gacha
2	Qorabayir	130 gacha
3	Nayman	60-80 gacha
4	Qirg’iz (Qozoq)	50-70 gacha
5	Mo’g’il va Qoshg’arka	10-25 gacha

Xulosa qilib aytganda, general – gubernator Fon Kaufman buyrug‘i bilan yig‘ila boshlangan “Turkiston to‘plami” Turkiston o‘lkasining XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy tarixini o‘rganishga oid yirik manbalardan biri bo‘lib, mahalliy aholining ming yillar davomida shakllangan o‘ziga xos xo‘jalik va madaniy an’analariga singib ketgan otlar va ularning tarixi haqida ham qimmatli ma’lumotlarni o‘rganishimizga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. “Turkiston to‘plami”. — Toshkent: Turkiston o‘lkasi statistika qo‘mitasi nashri, 1890–1917 yy. (O‘lkadagi mahalliy ot zotlari, ularning tarqalishi va xo‘jalikdagi ahamiyati haqidagi asosiy manba.)

2. Abdullayev, A. O‘zbekistonda otchilik tarixi va mahalliy zotlar rivoji. — Toshkent: “Fan”, 1982.

3. Gumilyov, L.N. Drevniye tyurki. — Moskva: Vostochnaya literatura, 1967. (Turkiston xududidagi ko‘chmanchi xalqlarning otchilik madaniyati haqida ma’lumotlar mavjud.)

4. Xodjanov, M. Turkistonda chorvachilik va ot zotlari (XIX–XX asr boshlari). — Toshkent: “O‘zbekiston tarixi” jurnali, №3, 2015.

5. Vinnikov, V.P. Konevodstvo v Sredney Azii. — Tashkent: SAGU, 1948. (O‘rta Osiyo mahalliy ot zotlari va iqlimga moslashuv xususiyatlari tahlil etilgan.)

6. Ortiqov, Sh. Qadimgi va o‘rta asrlarda Turkistonda otchilik an’analari. — Samarqand: “Zarafshon”, 2003.

7. Polyakov, P.I. Konovodstvo Turkestanskogo kraya. — Sankt-Peterburg: Tip.Voyennogo vedomstva, 1910. (Turkistondagi rus harbiy ma’muriyati davrida mahalliy otlar tavsifi berilgan.)

8. Shoniyozov, K. O‘zbek xalqi etnogenezi. — Toshkent: “Fan”, 2001. (Etnik jarayonlar va otchilik madaniyatining xalq hayotidagi o‘rni haqida.)

9. Tursunov, U. O‘rta Osiyoda ot zotlarining tarixiy tiplari. — Toshkent: “Tarix va madaniyat” jurnali, №2, 2018.

10. Ahmedov, A. Turkistonda qo‘shchi va harbiy otlarning ahamiyati. — Toshkent: “Sharq yulduzi”, №5, 1999.

11.Firsov V. Turkestan i Turkestanskiye porodi loshadey. Turkestanskiy sbornik T - 479. – S.43 – 44

Tursunov Uchqun To'lqin o'g'li
Buxoro xalqaro universiteti psixologiya faoliyat turlari yo'nalishi magistranti

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING SABABLARI VA MOTIVATSION ASOSI

Annotatsiya. *ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimizda eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari, uning kelib chiqish omillari, motivatsion asosi nimadan iborat ekanligi qisqacha yoritib o'tilgan. Jinoyat sodir etishga moyilligi bo'lgan o'smirlarni o'rganishning har tomonlama samarali usullari va ularning psixoprofilaktikasi, psixokorreksiya usullari, ijtimoiy, oilaviy muhitning ahamiyati, ta'siri va ularga beriladigan amaliy tavsiyalar nimalardan iborat ekanligi qisqacha yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *motiv, motivatsiya, ong, biologik asos, tafakkur, me'yor, jinoyatchilik, ijtimoiy-psixologik omil,fazilat, qadriyat, oila*

ПРИЧИНЫ ПРЕСТУПНОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ И ЕЁ МОТИВАЦИОННАЯ ОСНОВА

Аннотация. *В статье кратко рассматриваются причины преступности среди несовершеннолетних, одной из наиболее актуальных проблем современного общества, факторы её возникновения и мотивационная основа. Кратко рассматриваются комплексно эффективные методы работы с подростками, склонными к совершению преступлений, их психопрофилактика, методы психокоррекции, значение и влияние социальной и семейной среды, а также практические рекомендации.*

Ключевые слова: *мотив, мотивация, сознание, биологическая основа, мышление, норма, преступление, социально-психологический фактор, добродетель, ценность, семья*

CAUSES OF JUVENILE DELINQUENCY AND ITS MOTIVATIONAL BASIS

Abstract. *This article briefly discusses the causes of juvenile delinquency, one of the most pressing issues in our society today, its factors of origin, and motivational basis. Comprehensively effective methods of studying adolescents with a tendency to commit crimes, their psychoprophylaxis, psychocorrection methods, the importance and influence of the social and family environment, and practical recommendations for them are briefly discussed.*

Key words: *motive, motivation, consciousness, biological basis, thinking, norm, crime, socio-psychological factor, virtue, value, family*

Kirish. Umumjahon muammolaridan biri hisoblangan voyaga yetmaganlar jinoyachiligini tadqiq qilish borasida ko‘plab xorijiy va hamdo‘stlik mamlakatlarida va shu jumladan Respublikamizda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarlik, alkogolizm va giyohvandlik singari illatlarnining kelib chiqishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy–psixologik omillar, voyaga yetmaganlar jinoyachiligining statistik, demografik, xuquqiy va hududiy xususiyatlari har tomonlama ilmiy tahlil qilishga harakat qilinadi.

Respublikamizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini ilmiy jihatdan o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik, yosh va individual-psixologik, ya’ni yosh davri xususiyatlarining jinoyatchilik xulqi kelib chiqishiga ta’siri masalasi, jinoyatchi shaxsi psixologiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, jinoyatchi shaxsi tipologiyasi, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining biologik, psixofiziologik omillari, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining hududiy, statistik va etnopsixologik xususiyatlari alohida psixologik tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmaganligining guvohi bo‘lamiz. Ushbu holatdan kelib chiqib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillari, sabab va motivlari, yosh va individual-psixologik xususiyatlari hamda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini

oldini olishning ijtimoiy-psixologik muammolari va shu kabilarni o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib oldik.

Adabiyotlar tahlili. Jinoyatchilikni biologik nuqtai nazardan talqin qilishga harakat qiluvchi ta’limot vakillarining fikriga ko‘ra, jamiyat va insoniyat jinoyatchilikka qarshi kurashishga ojizdir. Tug‘ma jinoyatchilik belgilari bilan dunyoga keladigan jinoyatchilarga qarshi kurashning birdan bir yo‘li ularni jismonan yo‘qotish yoki kamdan-kam holatlarda qayta tarbiyalash, tuzatish ishlarini amalga oshirishdir deyiladi. Jumladan, “Jinoyatchilik xulqi bilan nasliy muhrlangan holda tug‘ilgan bolalar va o‘smirlarni qayta tarbiyalashda tarbiya usullari ojizdir” deydi – Lombroza.

Bu yo‘nalishdagi ta’limotlar bugungi kunda ham ayrim mamlakatlarda o‘z ta’sirini yo‘qotmaganligi kuzatiladi.

Jinoyatchilik xulqini biologik nuqtai nazardan talqin qiluvchi ta’limot vakillaridan yana biri Sheldondir. U o‘z tadqiqot va kuzatishlariga asoslanib jinoyatchilarni tashqi belgilariga (yuz tuzilishi, bo‘yi, tanasiga) ko‘ra, quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

Indomorf ko‘rinishli jinoyatchilar - semiz, irodasiz, jismoniy faolligi sust, kamharakat va beg‘am bo‘ladilar.

Mezomorflar - gavdali, suyak muskul tuzilishi rivojlangan, jismoniy faol, irodali, jur’atli kishilardir.

Ektomorflar - ozg‘in, uzun bo‘yli, introvert xususiyatli va kamgap odamlardir.

Muvozanatli tiplar - atrofdagilar e’tiborini ko‘p ham tortmaydigan, unchalik ko‘zga tashlanmaydigan kishilardir.

Biz maqolamizni o’rganish jarayonida quyidagi ilmiy taxmin va farazlarga ko’ra, voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqish sabab va motivlari, uning ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, yosh, jinsiy, hududiy, etnopsixologik xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- voyaga yetmagan yoshdagi jinoyatchilar shaxsiga xos bo‘lgan individual-psixologik xususiyatlar bilan nosog‘lom ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro moslik va ularning bir-birini to‘ldirishi jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga sabab bo‘lishligi ehtimoli mavjud;

- voyaga yetmaganlarning mikro va makro muhitga nisbatan ijtimoiy-psixologik jihatdan moslasha olmasliklari jinoyatchilik xulqining kelib chiqish ehtimolini oshirishi mumkin;

- o‘smirlik yoshi xususiyatlari va o‘tish davri inqirozlari bolalar va o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

- voyaga yetmaganlarning o‘z-o‘zini baholash darajasining pastligi va ularda kelajakka nisbatan qat’iy, mustahkam intilish va qarashlarning yo‘qligi jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi degan ehtimol mavjud;

- voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining hududiy, jinsiy, statistik, demografik, yosh va jinsiy xususiyatlarini o‘rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va tavsiyalarni ishlab chiqishda katta ahamiyat kasb etishi mumkin;

- voyaga yetmaganlarda ijtimoiy foydali faoliyatga nisbatan qiziqishlarning yo‘qligi va g‘ayriijtimoiy ustanovkalar jinoyatchilik xulqining kelib chiqishida omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin;

- voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining motivlari sifatida “moddiy - maishiy sharoitga ega bo‘lishga nisbatan qiziqishning haddan ortiq namoyon bo‘lishi” ya’ni ochko‘zlik, “do‘stlari oldida obro‘ orttirish”, “qasos, o‘ch olish va g‘azab”, “o‘rtoqlari va kattalarga taqlid qilish” va shu kabilar yotadi degan taxmin mavjud;

- voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik xulqi kelib chiqishining oldini olishda ularning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik ora-tadbirlarning ta’sirchanlik darajasi oshishiga xizmat qilishi mumkin deya topdik.

Metodologiya. Maqolamizni empirik qismini ishlab chiqish jarayonida biz quyidagi metodika va so’rovnomalarga yuzlandik.

1. G.Ayzenkning «Shaxs xarakteri xususiyatlarini ekspress diagnostika qilish» testi.
2. K.Leongardning «Xarakter xususiyatlarini o‘rganish» testi.
3. «Ota-onalar xulq-atvori o‘smirlar nazarida» testining Mateychik va Rjichan varianti.

4. Ijtimoiy – psixologik so‘rovnoma.
5. Kontent tahlil.
6. Anketa va suhbat

Olingan natijalarning **statistik ishonchlilik darajasi** Styudentning – t muqarrarlik mezoni bilan tasdiqlandi. Voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga makro va mikro muhitning ta’sir etish darajalari Pirsonning korreliyatsiya formulasi orqali o‘rganildi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, shaxs tipi, uning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi. Ma’naviy-axloqiy jihatdan sust rivojlanganlik va shaxs tipidagi o‘ziga xos xususiyatlar (o‘zgaruvchan xarakterlilik, qo‘zg‘aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur’atsizlik va boshqalar) esa bolalar va o‘smirlarda nizoli vaziyatlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, ota-onalar oilada farzandlari bilan turlicha muomala va munosabatda bo‘lishliklari ma’lum bo‘ldi.Buni jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning o‘z ota-onalari xulq-atvorlari to‘g‘risida bergan ma’lumotlari ham ko‘rsatib turibdi. Bunga ko‘ra, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar tarbiya ko‘rgan oilalarda ota-onalar ko‘pincha farzandlariga “erkinlik berish” asosida muomala munosabatda bo‘lishganliklari kuzatildi. (20,32 %)

Nazarimizda oilada bolalarga haddan ortiq erkinlik berish ularni o‘z bilganicha ish tutishga, qilayotgan ishining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini anglab yetmaslikka olib keladi. Ota-ona nazoratidan, so‘rab tergashidan chetda qolgan o‘smir o‘zini erkin bilib ko‘ngli tusagan ishga qo‘l uradi. Bunday xatti-harakatlar ba’zan noqonuniy bo‘lishi ham mumkin.

Ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari ko‘pincha o‘smirni g‘ayriqonuniy xulq-atvorga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar safiga qo‘shilib ketishga olib keladi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarining ayniqsa, o‘smirlik yoshi davridagi faoliyatlarini, bo‘sh vaqtlarida nimalar bilan shug‘ullanayotganliklarini doimiy ravishda nazorat qilib borishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, o‘smirlik yoshi davridagi psixofiziologik o‘zgarishlar va o‘tish davri xususiyatlari bu yosh ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning o‘ziga xos alohida e’tiborini talab qiladi. Oilada ota-onalarning bu yoshdagi o‘smirlarga nisbatan bo‘ladigan e’tiborsizliklari, tarbiya shunday berilishi kerak deb qarashlari bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishinin kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Oilada ota-onalarning farzandlariga “mustaqil faoliyat yuritish” asosidagi munosabati ham ularda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘lganligi kuzatiladi. (17,42 %)

Yuqorida ta’kidlanganidek, bolani o‘z holicha tashlab qo‘yishlik, ular faoliyatini nazorat qilmaslik holatlari bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Buni bolalar va o‘smirlar jinoyatchiligini ijtimoiy–psixologik o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma natijalari ham ko‘rsatib turibdi. Bunga ko‘ra, bolalar va o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi oilaviy omillar orasida “ota-onalarning oilada farzandlar faoliyatini nazorat qilmasliklari” holati bolalar va o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillar sifatida kuzatiladi. (24,30 %)

Shuningdek oiladagi avtoritar, haddan ortiq qattiqqo‘llik asosidagi munosabat ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.(13,26 %)

Natija va tahlillar. Yuqoridagilardan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, oilada bolalarga pozitiv, direktiv, avtoritar munosabatlarni me’yorida namoyon qilish va bunda bolalar va o‘smirlarning yosh va o‘tish davri xususiyatlarini hisobga olish ular xulqida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi. Aksincha holatlarda esa bolalar va o‘smirlar xulqida o‘ziga xos o‘zgarishlar kelib chiqadi.

“Ota-onalarning xulq-atvori o‘smirlar nazarida” testi natijalari

(foiz hisobida)

№	Baholash shkalalari	11-13 yosh	14-15 yosh	16-17 yosh	O‘rtacha
1	Erkinlik berish asosidagi munosabat(ROZ)	19,62	20,25	22,45	20,45

2	Avtoritar boshqaruvchanlik (DIR)	14,61	13,06	12,42	13,26
3	Qahr-g‘azab asosidagi munosabat (HOS)	33,83	31,27	30,40	32,59
4	Mustaqil faoliyat yuritish asosidagi munosabat (AUT)	16,44	18,45	19,47	17,42
5	Tarbiyada izchillikning yo‘qligi	15,50	16,24	15,25	z16,31

Oilada ota-onalarning bolalarga nisbatan bo‘lgan muomala munosabatlari ko‘rinishlarining korrelyatsion tahliliga ko‘ra,”erkinlik berish asosidagi munosabat”ning o‘rtacha umumiy qiymati 1.58 ga teng bo‘lgan bo‘lsa, standart og‘ish 0.19 ni tashkil qildi. “qahr-g‘azab asosidagi munosabat”da o‘rtacha qiymat 1.68, standart og‘ish 0.20 ni tashkil qiladi. ”Tarbiyada izchillikning yo‘qligi” munosabat ko‘rinishida esa o‘rtacha qiymat 1.48, standart og‘ish 0.18 ni ko‘rsatdi.

Ushbudan ko‘rinadiki, o‘rtacha qiymat va standart og‘ish darajalari ota-ona munosabatlarining qahr-g‘azab asosidagi munosabati ko‘rinishida boshqalariga qaraganda biroz yuqoridir. Bu shundan dalolat beradiki, ota-ona munosabatlarining “qahr-g‘azab asosidagi munosabat”i korrelyatsion tahlilga ko‘ra ham delinkvent xulqning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi asosiy omil ekanligi namoyon bo‘ladi.

Amaliy tavsiyalar. Ota-onalar, oilaning boshqa katta yoshdagi a’zolari, o‘qituvchilar tomonidan bolalar va o‘smirlarga nisbatan qo‘llanilayotgan qattiqo‘l, qo‘pol va adaolatsiz munosabatlariga barham berish.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ko‘pincha ota-onalarning bolalar va o‘smirlar psixologisini bilmasdan turib munosabatda bo‘lishliklari natijasida kelib chiqayotganligidan kelib chiqib, ota-onalarni psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida “Ota-onalar universitetlari” ni tashkil etish;

yoshlarni tibbiy, psixologik, tarbiyaviy, huquqiy, ma’naviy – ma’rifiy sohalardagi ma’lumotlar bilan qurollantirish maqsadida maxsus tadbirlarni uyushtirish;

Xulosa. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish natijalariga ko‘ra, voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqi makro va mikromuhitdagi, jumladan oila, maktab, mahalla, ishlab chiqarish jamoalaridagi nosog‘lom psixologik muhit, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitning va turmush tarzining yomonligi, bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy mavqei darajalarining pastligi ta’sirida kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Zyubin L.M. Tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlar. T.: «O‘qituvchi», 1987, 113 b.

2. Igoshev K.E. Опыт sotsialno-psixologicheskogo analiza lichnosti nesovershennoletnix pravonarushiteley. - M., 1967.S.67-68.

3. Igoshev K.E., Minkovskiy G.M. Semya, deti, shkola. - M., 1989, 448 s.

4. Igoshev K.E. Tipologiya lichnosti prestupnika i motivatsii prestupnogo povedeniya. Gorkiy, 1979, 147 s.

5. Igoshev K.E., Dolgova A.E. Problemы tipologii nesovershennoletnix prestupnikov. - M., 1976. S. 12-18.

6.Ivanov N.Ya. O gipertimnom tipe aksentuatsii lichnosti u podrostkov. V kn.: Nevrozы i pogranichnыe sostoyaniya. - L., 1972. S. 75-79.

Турсунов Искра Токын оглы
Бухарский международный университет Кафедра Психология и общие науки
Магистрант направления Психология

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ И СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ В ВОЗНИКНОВЕНИИ ПРЕСТУПНОГО ПОВЕДЕНИЯ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В этой статье кратко освещаются причины подростковой преступности, которая сегодня является одной из самых спорных во всем мире, всеобъемлющие эффективные методы изучения подростков с предрасположенностью к совершению преступлений и способы их коррекции, значение семейного окружения, влияние и практические рекомендации, которые им даются.*

Ключевые слова: *биологическая основа, сознание, мышление, норма, социально-психологический фактор, добродетель, ценность, правонарушение мотив, мотивация, семья.*

THE ROLE OF SOCIAL ENVIRONMENT AND FAMILY UPBRINGING IN THE EMERGENCE OF DELINQUENT BEHAVIOR AMONG CHILDREN AND ADOLESCENTS

Abstract. *This article briefly covers the causes of juvenile delinquency, which is one of the most controversial issues in the world today, as well as comprehensive and effective methods for studying adolescents with a predisposition to commit crimes and ways to correct them, the importance of family environment, influence, and practical recommendations.*

Key words: *biological basis, consciousness, thinking, norm, socio-psychological factor, virtue, value, offense motive, motivation, family*

BOLALAR VA O‘SMIRLARDA JINOIY XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY MUHIT VA OILA TARBIYASINING ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyoda eng bahsli muammolardan biri hisoblangan o‘smirlar jinoyatchiligining sabablari qisqacha yoritiladi. Shuningdek, jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan o‘smirlarni aniqlash va o‘rganishning kompleks hamda samarali usullari, ularni korreksiyalash yo‘llari, oilaviy muhitning ahamiyati, uning ta’siri hamda beriladigan amaliy tavsiyalar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *biologik asos, ong, tafakkur, me’yor, ijtimoiy-psixologik omil, ezgulik, qadriyat, huquqbuzarlik, motiv, motivatsiya, oila.*

Введение. Исследователи интересуются изучением проблемы преступности уже очень давно. Однако в античные времена исследования по изучению проблемы преступности носили односторонний характер. Поэтому такие исследования не имели научно-методического или профилактического значения. Однако подобные исследования по изучению преступности внесли определённый достойный вклад в научное изучение этой проблемы в более поздние периоды. Согласно научным источникам, научное изучение проблемы преступности получило широкое распространение к концу XVII – началу XVIII веков. Поскольку к этому времени рост преступности в разных странах, особенно среди молодёжи, и увеличение уровня вреда, наносимого преступностью человечеству и обществу, создали необходимость в научных исследованиях проблемы преступности. К XIX веку научные исследования по проблеме преступности достигли пика своего развития. В этот период изучение проблемы преступности осуществлялось по нескольким направлениям. Появление в Германии философских учений Канта и Гегеля привело к формированию немецкой школы криминологии преступного поведения. Согласно учению представителей этой школы, преступное поведение объясняется как продукт воли, желаний и потребностей человека. Поэтому они утверждают, что ограничивать желания и потребности человека

неправильно. Утверждается, что, ограничивая желания и потребности людей, можно не предотвращать преступность, а создавать основу для её роста.

Анализ литературы. Анализ доктрин и источников, выдвигающих идею о наследственной обусловленности преступного поведения, показывает, что интерес к этой проблеме в последние годы ещё более возрос. Противоречивые взгляды, мнения и идеи в этой области часто встречаются в западной прессе и сегодня.

Анализируя доктрины, трактующие роль биологического фактора как основного в происхождении преступного поведения, можно сказать, что, хотя биологический фактор в определённом смысле и оказывает влияние на происхождение преступного поведения, нельзя игнорировать роль социальных, психологических, экономических и политических факторов. Как отмечал в своё время А.Н. Леонтьев: «Человек не рождается с теми или иными признаками генотипически, а формируется, формируется и функционирует в общественных отношениях. Человек есть продукт результатов общественно-исторического и онтогенетического развития».Отсюда ясно, что человек, в том числе и преступник, не рождается с теми или иными чертами характера, а его социально-культурные черты и качества формируются в социальных отношениях. Поэтому было бы неправомерно рассматривать наследственность как главный фактор возникновения преступного поведения.

Представители психологического направления в изучении преступного поведения выдвинули в своих учениях идеи о том, что психологические напряжения, возникающие при взаимодействии личности с окружающей средой, потребности и интересы, побуждающие личность к совершению преступных деяний, неспособность личности адаптироваться к социальной среде, событиям в ней, социальным порядкам и правилам могут оказывать влияние на зарождение преступного поведения у людей. Источники свидетельствуют о том, что в западных странах существуют различные взгляды на факторы, обусловливающие преступное поведение. Некоторые пытаются объяснить причины преступности биологическими факторами, другие же выдвигают доктрины о их зависимости от индивидуально-психологических особенностей человека, процессов его формирования и социальной среды.

Методология. По мнению исследователя В. Джеймса, преступное поведение возникает в результате взаимодействия идентичности человека, то есть его индивидуально-психологических особенностей, и внешней среды, оказывающей на человека определённое воздействие. Он также отмечал, что то, что человек представляет себе как своё, принадлежащее ему, то есть воспринимает своё тело, ментальный мир, членов семьи как свои, является показателем сформированности его идентичности. Непонимание последствий и содержания собственных действий приводит к тому, что человек не осознаёт содержания и последствий совершаемых им преступных действий. В результате человек совершает преступные деяния, не осознавая, являются ли его действия законными или незаконными. Это особенно распространено среди несовершеннолетних. Нездоровая психологическая обстановка в семье, недостатки семейного воспитания и образовательного процесса, условия жизни в обществе, в котором проживают дети и подростки, их психологическая среда не могут не оказывать влияния на формирование преступного поведения несовершеннолетних. Известно, что формирование преступного поведения зависит от различных факторов. Поэтому его исследование требует комплексного подхода к данной проблеме. Поэтому в нашем исследовании был использован ряд методов и методик для изучения социальной среды, влияющей на формирование преступного поведения несовершеннолетних.Известно, что существует определённая сфера влияния между источником преступности несовершеннолетних и социальной средой. Механизм этого взаимодействия, по нашему мнению, проявляется в трёх различных формах.

Во-первых, взаимодействие личности с нездоровой социальной средой приводит к негативизации позитивных установок у подростков; во-вторых, взаимодействие личности с нездоровой социальной средой наделяет человека определёнными ориентирами, не соответствующими социальным нормам, в частности, ролями для выполнения противоправных задач. В-третьих, противоправные ориентиры и распределение ролей

постепенно приводят к возникновению у подростка деформации по отношению к требованиям и нормам социальной среды. Эта деформация вызывает специфические изменения в поведении личности. Именно поэтому большинство детей и подростков, совершающих противоправные действия, находятся на стадии деформации по отношению к социальной среде.

Факторы, связанные с семейным воспитанием и влияющие на развитие нарушений поведения у детей и подростков.
(в процентах)

	Поведенческое отклонение факторы, связанные с семейным воспитанием	12-13 молодой	14-15 молодой	16-17 молодой	Средняя производительность-проволока
1	Недостаток внимания к воспитанию детей в семье и отсутствие контроля за их деятельностью	22.2 0	23.0 6	25, 24	24.3 0
2	Отсутствие у родителей знаний о воспитании детей	7, 66	9.2 6	7, 68	8.4 2
3	Использование неэффективных, устаревших методов семейного воспитания	9.2 4	8.3 3	6.3 2	8.2 1
4	Неиспользование примеров наших национальных ценностей в семейном воспитании	6.4 2	7.2 8	8.1 0	7.4 2
5	Неучет возрастных и индивидуально-психологических особенностей детей и подростков в семейном воспитании	19.4 7	15.5 6	14.2 4	1 5 , 38
6	Недостаточное участие старших в воспитании детей в семье	6.8 6	6.0 2	4.2 0	5.3 1
7	Воспитание детей в одиночку в семье (неполное родительство)	3, 70	4.0 9	5.4 2	4.2 4
8	Ослабление влияния и роли отца в процессе воспитания .	2.7 4	3.6 2	4.2 6	3.4 6
9	Поведение родителей, противоречащее общественным нормам	12.4 3	1 3 ,2 4	1 4 ,2 1	13, 62
10	Неадекватные материальные и бытовые условия	9.2 8	9, 48	10.4 1	9.6 1

Результаты и анализы. Результаты нашего исследования показывают, что незнание родителями возрастных и индивидуально-психологических особенностей детей, воспитания детей в национальном духе в семье, недостатки в использовании национальных ценностей в процессе воспитания приводят к серьезным дефектам в воспитании детей.В семье родители часто пытаются дисциплинировать своих детей, строго наказывая их, запрещая им и не пуская их из дома, когда они делают что-то плохое. Они чрезмерно хвалят и поощряют их, когда ребёнок делает что-то, что им нравится. Они не понимают, какой из используемых ими методов правильный, а какой неправильный. Они считают, что именно так их и следует воспитывать. В результате они неосознанно оказывают негативное влияние на воспитание своих детей. Поэтому родителям необходимо, прежде всего, обладать теоретическими и практическими знаниями о воспитании детей в семье. Для этого им необходимо больше читать педагогическую и психологическую литературу по воспитанию, газеты и журналы. По результатам анкетирования, три четверти родителей детей и подростков с криминальным поведением, участвовавших в нашем исследовании, заявили, что не читали книг, газет и журнальных статей о воспитании. Это свидетельствует о том, что недостаток знаний родителей о воспитании, неиспользование национальных ценностей, обычаев и традиций в

процессе воспитания приводит к нарушению воспитания детей и возникновению у них различных поведенческих отклонений.

Заключение. Не следует забывать, что улучшение социальной среды, то есть семьи, района и школы, также оказывает положительное влияние на профилактику правонарушений среди несовершеннолетних. Кроме того, делая подростков активными участниками процесса перевоспитания, оно способствует формированию стойкого иммунитета к поведенческим дефектам, формированию стремления к осознанной волевой адаптации в социальной среде, социализации личности, формированию стремления к обретению своего места и статуса в жизни.

Использованная литература.

1. Бочкарева Г.Г. Зависимост преступного поведения несовершеннолетних правонару шителей от их податливости групповому влиянию. //Вопросы судебной психологии. - М., 19 71. - № 7. С. 58 - 53.
2. Блекборн Р. Психология криминалного поведения: Учебник / Пер. с англ. – СПБ.: П итер, 2004.
3. Буева Л.П. Социалная среда и сознание личности. - М., МГУ, 1968, 234 с.
4. Василев В.Л. Юридическая психология. Санкт-Петербург. «Питер», 2000, 50 с.
5. Ведерников Н.Г. Личност обвиняемого и подсудимого. - М., 1998. С. 6-7.
6. Вишневская L.Ya., Данилова Е.А. Пют родители - страдают дети. - М., 1977. С. 8.

Xolmuminova Dilshoda Toshpo'latovna
Buxoro xalqaro universiteti Psixologiya (faoliyat turlari yo'nalishi) magistranti

SHAXS KAMOLOTINI TA'MINLASHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sotsial intellektning shaxs kamolotidagi tutgan o'rni, uning funksiyalari va vazifalari, komil insonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, hissiy,axloqiy va intellektual rivojlanishi, shaxsning empatik qobiliyatlarini o'rganishga asoslangan nazariy tushunchalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy intellekt, empatiya, kamolot, komil inson, obyektiv va subyektiv determinant,adekvatlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЛИЧНОСТНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются роль социального интеллекта в развитии личности, его функции и задачи, социально-психологические особенности зрелой личности, эмоциональное, нравственное и интеллектуальное развитие, а также теоретические концепции, основанные на изучении эмпатических способностей личности.*

Ключевые слова*: социальный интеллект, эмпатия, развитие, зрелая личность, объективные и субъективные детерминанты, адекватность.*

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ENSURING PERSONAL DEVELOPMENT

Abstract. *This article highlights the role of social intelligence in personal development, its functions and tasks, the social-psychological characteristics of a well-rounded person, as well as the emotional, moral, and intellectual development of the individual. It is based on theoretical concepts for studying a person's empathic abilities.*

Key words: *social intelligence, empathy, maturity, well-rounded person, objective and subjective determinants, adequacy*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida informatsiya oqimining haddan tashqari ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining tobora jadallashishi, integratsiyaning kuchayib borishi har bir insondan mavjud sharoitlarga moslashishda ruhiy egiluvchanlikni talab qilmoqda. Inson jamiyatda yashar ekan jamiyat ichiga singib boraveradi. Bu uzoq davom etadigan jarayon hisoblanib, insonning psixologik pozitsiyasi ham ayni jarayon bilan muvofiqlashadi. Bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, ahloqiy jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Psixologiyada intellektga berilgan ta'rif xilma-xil. Eng ko'p tarqalgani bu fransuz olimi Jan Piaje ta'rifi. U ko'p yillik tadqiqotlardan kelib chiqib, intellektni insonning masalalar yecha olish qobiliyati, degan xulosaga kelgan. Haqiqatan ham intellekti bor kishi qiyin va murakkab vaziyatlardan yengil va silliq chiqib keta oladi. Hayot kishilar oldiga ko'plab to'siqlar qo'yadi. Ular madaniy, ma'naviy, ijtimoiy, ilmiy va boshqa turda bo'lishi mumkin. Har kim bu to'siqlarni, har xil darajada, pastbalandligiga qarab, har xil «kuch» sarflab yengadi. Yutib chiqqan, muvaffaq inson, shubhasiz aqlliroq, fahm-farosati balandroq kishidir. Boshqacha qilib aytsak intellekt bu insonning umumiy aqliy zakovatidir. Shaxs kamolotida ijtimoiy intellektning asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarga ko'proq e'tibor qaratilgan: o'zgarayotgan sharoitlarda adekvatlikni, moslashishni ta'minlash; taktik va strategik yo'nalishlarda muvaffaqiyatli o'zaro harakatning dastur va rejalarini shakllantirish, joriy vazifalarni bajarish; shaxslararo hodisalarni rejalashtirish va ularning rivojlanishini prognoz qilish; motivasion funksiya; to'satdan ro'y beradigan krizislarni, uzoq vaqt davom etadigan stresslar, o'zini o'zi hurmat qilishiga tahdid soladigan vaziyatlarni yengib o'tishga ko'maklashadigan safarbar qilish funksiyasi; ijtimoiy kompetentlikni kengaytirish; o'zini o'zi

rivojlantirish, o‘zini anglash, mustaqil o‘qish. Sotsial intellektning yana bir o‘ziga xos jihati hisoblanadigan, shaxsning empatik qobiliyatini, ya’ni boshqa odamning holatini yoki ruhiy holatini tushunish qobiliyatini o‘rganish empatiya o‘lchovining rivojlanishiga olib keldi.

Adabiyotlarda yoritilishi: Shaxs kamoloti insonning ijtimoiy, hissiy, axloqiy va intellektual rivojlanishining yuqori darajasini ko‘rsatadi. Shaxs kamoloti quyidagilar bilan tavsiflanadi: yutuqning aniq motivatsiyasi; barqaror "men-konsepsiya"; mas’uliyat; hissiy muvozanat; boshqa shaxs bilan psixologik yaqinlik qobiliyati va uning yuqori moslashuvidan dalolat beruvchi boshqa fazilatlar. I.Grinberger va uning hammualliflarining fikrlariga muvofiq, ijtimoiy psixologik kamolot insonning uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit oldidagi mas’uliyat bilan uning ayni paytdagi mustaqilligining birikmasi sifatida tushuniladi. Tadqiqotchilar ijtimoiy-psixologik kamolot modelini taklif qilishdi. Uning tarkibida shaxs adekvatligi, shaxslararo adekvatlik, ijtimoiy adekvatlik ajratilgan. Bundan tashqari, soxta kamolot tushunchasi ajralib chiqadi (o‘smirda allaqachon ijtimoiy kamolot boshlangan, biroq psixologik kamolotga hali erishilmagan). Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar asosida N. Galambos, kamolotga erishgan o‘smirlar kamolotga erishmagan va soxta kamolotga erishgan tengdoshlaridan o‘zlarining intellektual ko‘rsatkichlari bilan farq qilishini namoyish qilgan. V.M. Rusalovning ta’kidlashicha, kamolot parametri har qanday murakkab tizimli ruhiy hosilaga (inson, shaxs, xarakter, intellekt) ega, inson kamoloti jihatlari ro‘yxatiga esa muallif ma’naviy, fuqarolik va kasbiy kamolotni qo‘shadi. V.M. Rusalovning fikriga ko‘ra, kamolot tushunchasini ikkita jihatdan ko‘rib chiqish mumkin: defenitiv va akmeologik. Alohida ruhiy funksiyalarning definitiv kamolotga erishishi haqida qachonki ularning parametrlari mazkur populyatsiyada jinsiy jihatdan etilgan insonning belgilari darajasiga etishganda gapiriladi. Akmeologik kamolot ruhiy funksiyalar o‘zining eng yuqori nuqtasiga erishishini xarakterlaydi. “Kamolot” tushunchasi ko‘pincha yoshga oid bo‘lgan, etuklik yoki qarilikka mos keladigan rivojlanish bosqichini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday kalitda “kamolot” atamasidan E. Eriksonning epigenetik nazariyasida foydalanilgan. Kamolot deb muallif shaxsning integratsiyasi va yaxlitligiga erishiladigan yoshni aytadi (ikkinchi ego-o‘xshashlik). Bunda barcha o‘tgan yosh bosqichlarida qo‘lga kiritilgan yangi fazilatlar (asosiy ishonch, avtonomiya hissi, tashabbus hissi, mehnatsevarlik va erishish hissi, identifikatsiya, intimlik, mahsuldorlik) shaxs tomonidan yaxlitlikni qo‘lga kiritish va kamolotga erishish sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan olganda “kamolot”- rivojlanishning ma’lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga etilganlikning sifatiy va miqdoriy xarakteristitkasini ma’lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.” Psixologiyaga oid adabiyotlarda “kamolot” tushunchasidan foydalanish kontekstlarini umumlashtirar ekan, N.P. Patturina uning uchta asosiy ma’nosini ajratadi. D.G.Muxamedova (2015) o‘z tadqiqotida shaxsning har bir taraqqiyot bosqichidagi etukligini shu bosqichdagi etakchi faoliyat, uning faolligi, muvaffaqiyatga erishishi ta’minlaydi degan g‘oyani ilgari suradi. Shaxs kamolotini ta’minlash uchun uzoq muddatga tayyorlashga bog‘liqdir. Tayyorgarlik jarayoni shaxsning faoliyatda uyg‘un rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda samarali tayyorgarlik uchun, avvalo, menejerning mukammallikka, professional takomillashuvga, professionallikni shakllantirishga intilishi muhim ahamiyat kasb etadi. A.L.Juravlevning fikriga ko‘ra “ijtimoiy-psixologik kamolot kamolotning umumiy belgilari bilan xarakterlanadi, biroq bu belgilar insonning boshqa insonlar bilan muvofiq o‘zaro ta’sirlari sohalarida ko‘rinadi: nisbiy avtonomlik (o‘ziga etarlilik) va mustaqillik, o‘z hatti-harakatlari uchun ijtimoiy mas’uliyatli bo‘lish va mustaqil qarorlar qabul qila olish qobiliyati, faol ijtimoiy pozitsiya va ijtimoiy rollar va umuman olganda ijtimoiy muhitni egallamoq – komil individ yoki guruh subyektining bu barcha belgilari boshqa insonlarga, ijtimoiy guruhlarga va umuman jamiyatga nisbatan ijobiy yo‘nalganlik bilan xarakterlanadi”. Ko‘rib turganimizdek, qator belgilar deyarli bir xil ko‘rinishda kamolotning har xil turlariga nisbatan qayta-qayta qo‘llanilgan. Qator mualliflar kamolotning ehtimoldagi ikki turdagi mezonini shaxs xarakteristikasi sifatida qayd etishadi: shaxsning jamiyat uchun ahamiyatini belgilaydigan ijtimoiy-yo‘nalishli mezonlar, va hayotdan subyektiv qoniqishga va o‘z rejalarini amalga oshirishga intilishni belgilaydigan individual-yo‘nalishli, intrapsixik mezonlar. Ye.V. Shvenk kamolot mezonlarini tushunishga qaratilgan yondashuvlarning birinchisi mahalliy mualliflarning ishlariga xos, ikkinchisi esa – o‘zlarining kamolot haqidagi tasavvurlarini psixoterapevtik amaliyotlariga asoslaydigan xorijiy tadqiqotchilarga xos deb hisoblaydi. N.N. Malyarchuk va N.V. Semyonova birinchi guruh

mezonlarni “ijtimoiy kamolot” tushunchasiga birlashtirishadi, ikkinchi guruh mezonlarni esa – “shaxs kamoloti” tushunchasiga. Shaxs kamolotiga mualliflar o‘z-o‘zini ifodalashga ko‘mak beruvchi va o‘zida “egosentrik modallik”ka ega bo‘lgan xarakteristikalarni saqlovchi xususiyat deb qarashadi. Ijtimoiy kamolot esa, aksincha, ijtimoiy yo‘nalganlik, umumiy maqsadlarga erishish uchun ishlash qobiliyatini belgilaydi. Bunday yondashuvda “shaxs kamoloti” va “ijtimoiy kamolot” tushunchalarini axloqiy-etik baholashning ahamiyatli ulushi kuzatiladi. Shaxs kamoloti ularning ishlarida salbiy axloqiy baho oladi, zamonaviy ta’limni esa ular haddan tashqari shaxsga yo‘naltirilganlikda ayblashadi. N.I. Leonov va M.M. Glavatskix, aksincha, shaxsning rivojlanishi va uning o‘z-o‘zi bilan, yaqin atrofdagilari bilan va dunyo bilan munosabatlarini har tomonlama o‘rganib, tahlil qilish uchun ijtimoiy- yo‘nalishli va individual yo‘nalishli mezonlarni integratsiyalash zarur deb hisoblashadi. Birinchi guruh mezonlarni ular ijtimoiy kamolotga oid deyishadi, ikkinchi guruh mezonlarni esa – psixologik kamolotga. Shaxs kamoloti tushunchasiga mualliflar integrativ subyektiv sifatlarni kiritishadi: faol hayotiy pozitsiyani, shakllangan o‘xshashlik, individuallikni ochish va o‘z harakatlarining oqibatlari uchun javobgarlik, adekvat o‘z-o‘ziga baho berish va realistik da’volar, hayotga optimistik munosabat. Bu shaxs sifatlari bilan sotsial intellekt integratsiyalashuvini taqozo etadi. Bunday yondashuv shaxs kamolotini o‘rganishda uning individual hamda ijtimoiy olamini eng adekvat tushunish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning xususiyatlari muqarrar tarzda o‘zgaradi, bir-biriga o‘zaro bog‘lanadi, ya’ni ular integratsiyalashadi. Bu jarayonning natijasi sifatida shaxs tuzilmasida yangi, o‘ziga xos, yanada murakkab struktura – shaxsning integral xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu esa shaxs kamoloti integral xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Sotsial intellektning yana bir o‘ziga xos jihati hisoblanadigan, shaxsning empatik qobiliyatini, ya’ni boshqa odamning holatini yoki ruhiy holatini tushunish qobiliyatini o‘rganish empatiya o‘lchovining rivojlanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/pdfs/5013007 [Elektron resurs]. Kirish tartibi: URL: 239

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF- 60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni https://lex.uz/docs/5841063

3. G’oziyev E.G’ “Umumiy psixologiya” O’zbekiston Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi.Darslik.T..:Noshir-2002- 221 bet.

4. Barotov Sh.R. “Umumiy psixologiya” O’zbekiston Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi.Darslik. Durdona nashriyoti.Buxoro-2021

Абдуганиева Дильрабо Шералиевна
Магистрант Бухарского международного университета

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности формирования психологической защиты у подростков, её роль в личностном развитии и влияние социальных и психологических факторов. Особое внимание уделено развитию эмоциональной устойчивости, способности противостоять стрессу и сохранению внутреннего равновесия. Также анализируется значение психологической поддержки со стороны педагогов и родителей в процессе формирования защитных механизмов.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, психологическая защита, личностное развитие, стресс, эмоциональная устойчивость, социальная адаптация, психопрофилактика.*

FEATURES OF THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL DEFENSE CAPABILITIES IN ADOLESCENTS

Abstract. *This article analyzes the peculiarities of developing psychological defense mechanisms in adolescents, their role in personal development, and the impact of socio-psychological factors. The study emphasizes the importance of fostering emotional stability, resilience to stress, and maintaining inner balance. The role of psychological support from teachers and parents in shaping adolescents' defense mechanisms is also discussed.*

Key words*: adolescence, psychological defense, personal development, stress, emotional stability, social adaptation, psychoprophylaxis.*

O‘SMIRLARDA PSIXOLOGIK HIMOYA IMKONIYATLARINING SHAKLLANISH XUSUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smirlarda psixologik himoyaning shakllanish xususiyatlari, uning shaxsiy rivojlanishdagi roli hamda ijtimoiy va psixologik omillarning ta’siri tahlil qilinadi. Emotsional barqarorlikni rivojlantirish, stressga qarshi turish qobiliyati va ichki muvozanatni saqlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish jarayonida pedagoglar va ota-onalar tomonidan ko‘rsatiladigan psixologik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, psixologik himoya, shaxsiy rivojlanish, stress, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, psixoprofilaktika.*

Введение. Современные социально-психологические условия предъявляют повышенные требования к личности подростка, от которого ожидается способность к саморегуляции, эмоциональной устойчивости и конструктивному преодолению трудностей. В этот период происходит активное формирование мировоззрения, самооценки, системы ценностей и поведенческих стратегий, что делает подростков особенно уязвимыми к стрессовым ситуациям и внутренним конфликтам.

Психологическая защита представляет собой важный механизм адаптации, обеспечивающий сохранение эмоционального равновесия и целостности личности. Изучение особенностей формирования и проявления психологических защит у подростков имеет особое значение, так как именно в этом возрасте закладываются основы психической устойчивости и механизмов самосохранения личности.

Актуальность темы определяется необходимостью углублённого анализа факторов, влияющих на развитие психологической защиты в подростковом возрасте, а также поиском эффективных педагогико-психологических условий, способствующих её формированию.

Актуальность темы. Подростковый возраст является критическим этапом становления личности, когда происходит интенсивное развитие самосознания, эмоциональной сферы и механизмов социальной адаптации. В условиях современных социокультурных изменений подростки сталкиваются с повышенным уровнем психологического давления, неопределённости и стрессов, что требует от них высокой степени внутренней устойчивости и способности к саморегуляции.

Формирование психологических механизмов защиты в этом возрасте имеет особое значение, поскольку они способствуют сохранению эмоционального равновесия, защите от деструктивных воздействий и успешному преодолению жизненных трудностей. Недостаточная сформированность психологических защит может привести к повышенной тревожности, агрессивности, внутренним конфликтам и трудностям социализации.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью изучения закономерностей и условий формирования психологической защиты у подростков, а также разработки педагогико-психологических рекомендаций, направленных на поддержку гармоничного личностного развития и укрепление психического здоровья подрастающего поколения.

Анализ литературы. Вопросы формирования психологической защиты личности активно исследовались в трудах отечественных и зарубежных психологов. Основоположниками теории психологических защит являются З. Фрейд, А. Фрейд, К. Хорни, Э. Эриксон, которые рассматривали защитные механизмы как важнейшие компоненты психического функционирования личности, обеспечивающие сохранение её целостности в условиях внутреннего конфликта и внешнего давления.

В трудах А. Фрейд были систематизированы основные виды защитных механизмов (вытеснение, отрицание, проекция, рационализация, регрессия и др.), а также показана их роль в адаптации личности к социальной среде. Современные исследователи - Н. Хаан, Дж. Вайлант, Р. Плутчик - уточнили структуру и функции защит, предложив их типологию с позиций когнитивного и гуманистического подходов.

В отечественной психологии (Л. С. Выготский, А. Н. Леонтьев, Б. Г. Ананьев, К. А. Абульханова-Славская) психологическая защита рассматривается в контексте личностного развития и саморегуляции поведения. Исследователи отмечают, что в подростковом возрасте защитные механизмы начинают активно формироваться как ответ на внутренние противоречия и социальные требования.

Современные узбекские учёные (Ш. Р. Бекмурадов, Н. Т. Жумаева, Д. Т. Тиллаева и др.) подчеркивают важность педагогико-психологической поддержки подростков для развития адаптивных форм защиты и профилактики девиантного поведения.

Обсуждение. Результаты проведённого исследования подтверждают, что подростковый возраст является наиболее чувствительным периодом в формировании психологических механизмов защиты. В это время у личности наблюдаются противоречия между стремлением к самостоятельности и зависимостью от взрослых, что вызывает внутренние конфликты и эмоциональное напряжение.

Психологическая защита у подростков выступает как система бессознательных или частично осознанных стратегий, направленных на сохранение эмоционального равновесия и самоуважения. Анализ показал, что наиболее часто подростки используют такие механизмы, как рационализация, отрицание, проекция и юмор. Эти формы позволяют им адаптироваться к социальным ситуациям, не разрушая внутреннего "Я".

Однако чрезмерное использование неадаптивных защитных механизмов, например вытеснения или агрессии, может привести к трудностям в общении, снижению самооценки и формированию неустойчивых моделей поведения. Поэтому важным направлением педагогико-психологической работы является развитие у подростков осознанных и конструктивных способов саморегуляции и эмоциональной устойчивости.

Особое значение имеет включение в образовательный процесс тренингов и коррекционных программ, направленных на развитие стрессоустойчивости, навыков самопознания и межличностного взаимодействия. Это способствует не только укреплению

психологической защиты, но и формированию позитивного отношения к себе и окружающему миру.

Таблица 1

№	Компонент	Содержание
1	**Объект исследования**	Психологические особенности подростков в процессе формирования механизмов психологической защиты.
2	**Предмет исследования**	Пути, условия и факторы развития психологической защиты у подростков.
3	**Цель исследования**	Выявить специфику формирования механизмов психологической защиты у подростков и определить эффективные пути их развития.
4	**Задачи исследования**	1. Изучить теоретические подходы к проблеме психологической защиты личности. 2. Определить ведущие механизмы защиты, характерные для подросткового возраста. 3. Провести диагностическое исследование особенностей защитных реакций подростков. 4. Разработать рекомендации по развитию адаптивных форм защиты.
5	**Гипотеза исследования**	Если в подростковом возрасте целенаправленно формировать осознанные и адаптивные механизмы психологической защиты, то это способствует повышению эмоциональной устойчивости и личностной зрелости.
6	**Методы исследования**	Теоретические: анализ, синтез, обобщение, сравнение.Эмпирические: наблюдение, анкетирование, тестирование, беседа, анализ поведения.
7	**Методологическая основа**	Положения возрастной и педагогической психологии (Л. С. Выготский, А. Н. Леонтьев, З. Фрейд, А. Адлер, К. Роджерс, Э. Эриксон и др.).
8	**Научная новизна**	Определены ключевые психологические механизмы защиты, свойственные подростковому возрасту; выявлены эффективные способы их формирования в образовательной среде.
9	**Практическая значимость**	Результаты исследования могут быть использованы школьными психологами и педагогами при разработке тренингов и коррекционных программ, направленных на развитие адаптивной психологической защиты у подростков.
10	**Методологические принципы**	Принципы системности, гуманизма, научности, развития личности и индивидуального подхода.

Исследование направлено на изучение психологических механизмов защиты у подростков. Цель - выявить специфику их формирования и определить эффективные пути развития адаптивных форм. Использованы теоретические и эмпирические методы - наблюдение, анкетирование, тестирование, беседа. Методологическая основа опирается на труды Л. С. Выготского, А. Н. Леонтьева, З. Фрейда, А. Адлера, К. Роджерса, Э. Эриксона. В результате определены основные защитные механизмы, свойственные подростковому возрасту, и предложены практические рекомендации для повышения эмоциональной устойчивости и личностной зрелости.



Анализ диаграммы. Диаграмма показывает соотношение значимости основных компонентов исследования, посвящённого формированию механизмов психологической защиты у подростков.

Наибольшие доли занимают «Цель» и «Задачи», что свидетельствует о центральной роли этих компонентов в построении исследования: именно они определяют направление, структуру и логику всего процесса.

«Объект» и «Предмет» исследования занимают устойчивое положение, отражая теоретико-практическую основу анализа.

«Гипотеза», «Методы» и «Методологическая основа» обеспечивают научную достоверность и обоснованность результатов.

«Научная новизна» и «Практическая значимость» демонстрируют прикладной характер исследования, указывая на возможность использования результатов в образовательной и коррекционной практике.

«Принципы» занимают меньшую долю, но придают исследованию методологическую завершённость и внутреннюю логическую связность.

Выводы.

Проведённый анализ подтвердил, что подростковый возраст является критическим этапом личностного становления, когда формируются основы самосознания, эмоциональной устойчивости и механизмов психологической защиты.

Психологическая защита выступает как необходимое условие внутреннего равновесия и адаптации подростка к социальной среде, помогая ему преодолевать внутренние конфликты и стрессовые ситуации.

В ходе исследования выявлено, что наиболее характерными механизмами защиты для подростков являются рационализация, отрицание, проекция и юмор, которые способствуют сохранению позитивного образа «Я».

Избыточное использование неадаптивных форм защиты (вытеснение, агрессия, избегание) может привести к эмоциональной неустойчивости и трудностям социализации, что требует педагогико-психологического сопровождения.

Практические результаты исследования показали эффективность психокоррекционных и тренинговых программ, направленных на развитие осознанных и конструктивных способов саморегуляции и самопознания.

Разработанные рекомендации могут использоваться психологами и педагогами для укрепления эмоциональной устойчивости подростков, профилактики девиантного поведения и гармонизации их личностного развития.

С целью обеспечения психологической устойчивости подростков и поддержки их личностного развития особое значение приобретает формирование навыков осознанности и саморегуляции в образовательном процессе. Включение психологических тренингов, направленных на осознание собственных эмоциональных состояний, развитие самоконтроля и конструктивных способов преодоления стрессовых ситуаций, способствует укреплению внутреннего равновесия подростков. Одновременно важно содействовать формированию адаптивных защитных механизмов, таких как рационализация, позитивное переосмысление, использование юмора и развитие эмпатии, которые обеспечивают личностный рост и эмоциональную стабильность.

Эффективное психологическое сопровождение подростков предполагает организацию регулярных консультаций со школьным психологом, ориентированных на профилактику тревожности, агрессивных проявлений и социальной дезадаптации. Существенную роль в этом процессе играет педагогико-психологическое взаимодействие, основанное на гуманистическом и личностно-ориентированном подходе. Создание атмосферы доверия, принятия и поддержки в образовательной среде способствует формированию у подростков позитивного образа «Я» и повышению их уверенности в себе.

Неотъемлемым компонентом комплексной работы является взаимодействие с родителями, включающее проведение психопросветительских семинаров и тренингов, направленных на развитие навыков эмоциональной поддержки, эффективного общения и понимания возрастных особенностей подростков. Кроме того, целесообразна разработка и внедрение коррекционно-развивающих программ, ориентированных на повышение стрессоустойчивости, развитие коммуникативных умений и формирование конструктивных стратегий разрешения конфликтов.

Важным условием успешной профилактической и коррекционной работы является создание благоприятной школьной среды, обеспечивающей эмоциональный комфорт и чувство защищённости подростков. Регулярное использование психодиагностики и мониторинга уровня сформированности защитных механизмов, самооценки и эмоциональной стабильности позволяет своевременно выявлять отклонения и осуществлять целенаправленную психологическую коррекцию.

Использованная литература.

1. Фрейд З. Введение в психоанализ. - М.: Академический проект, 2020.
2. Хорни К. Невроз и личностный рост. - М.: Прогресс, 2021.
3. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. - М.: АСТ, 2018.
4. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. - М.: Эксмо, 2020.
5. Выготский Л. С. Психология развития человека. - М.: Смыл, 2017.
6. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Смысл, 2018.
7. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. - СПб.: Питер, 2019.
8. Бекмурадов Ш. Р. Психологическая адаптация подростков в образовательной среде. - Ташкент: Фан, 2021.

Olimova Nasiba Baxtiyor qizi
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

BOSHLANGICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY FAOLLIKNI TARBIYALASHDA SINFDAN TASHQARI FAOLIYATNING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishda sinfdan tashqari faoliyatning o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Unda sinfdan tashqari ishlarning o‘quvchilarning shaxsiy faolligini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish, jamoaviy mas’uliyatni his etish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, sinfdan tashqari tadbirlar, to‘garaklar, o‘yinlar va ijodiy loyihalar orqali o‘quvchilarda muloqotchanlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid samarali metod va yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy faollik, sinfdan tashqari faoliyat, boshlang‘ich ta’lim, shaxs kamoloti, jamoaviylik, tashabbuskorlik, muloqot madaniyati, pedagogik yondashuv, ijodiy faoliyat, ijtimoiy moslashuv.*

РОЛЬ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВОСПИТАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются роль и значение внеурочной деятельности в формировании социальной активности учащихся начальных классов. Рассматриваются педагогические возможности внеурочной работы в развитии личной активности учащихся, их участия в социальных отношениях, чувства коллективной ответственности и способности к самостоятельному мышлению. Кроме того, исследуются эффективные методы и подходы, направленные на развитие у школьников коммуникативности, инициативности и социальной адаптации посредством кружков, игр, творческих проектов и различных мероприятий.*

Ключевые слова: *социальная активность, внеурочная деятельность, начальное образование, развитие личности, коллективизм, инициативность, культура общения, педагогический подход, творческая деятельность, социальная адаптация.*

THE ROLE OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN DEVELOPING SOCIAL ACTIVITY AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article analyzes the role and significance of extracurricular activities in shaping social activity among primary school students. It highlights the pedagogical potential of extracurricular work in developing students’ personal initiative, participation in social interactions, sense of collective responsibility, and independent thinking skills. The paper examines effective methods and approaches that foster communication skills, creativity, initiative, and social adaptation through clubs, games, creative projects, and various extracurricular events.*

Keywords: *social activity, extracurricular activities, primary education, personal development, collectivism, initiative, communication culture, pedagogical approach, creative activity, social adaptation.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim - bu bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, jamoaviylik, muloqotchanlik, tashabbuskorlik va mas’uliyat hissi shakllana boshlaydi. Ijtimoiy faollik - bu o‘quvchining o‘z atrofidagi ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatishi, ijtimoiy vazifalarni ongli ravishda bajarishi va o‘z fikrini erkin bildira olish qobiliyatidir.

Zamonaviy ta’lim tizimida dars jarayoni bilan bir qatorda sinfdan tashqari faoliyat ham o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu faoliyat o‘quvchilarning erkin, ijodiy muhitda o‘zlarini namoyon etishlariga, jamoa bilan ishlash

ko‘nikmalarini shakllantirishlariga, o‘z ijtimoiy rolini anglashlariga keng imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari faoliyatning mazmuni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos tashkil etilganda, ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga kuchli turtki beradi.

Bugungi globallashuv, axborot oqimi va raqamli muhit sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy faol bo‘lishi, jamoada o‘z o‘rnini topa olishi, muloqot madaniyatini egallashi katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldida o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning samarali pedagogik yo‘llarini aniqlash, sinfdan tashqari faoliyatning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish vazifasi turadi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayonida sinfdan tashqari faoliyatning o‘rni, uning shakl va usullari, shuningdek, o‘qituvchi, oila va jamoatchilik hamkorligining pedagogik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni tarbiyalash masalasi bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki yosh avlodning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o‘z fikrini erkin bildira olishi, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi va jamoada o‘z o‘rnini topa olishi mamlakatning ijtimoiy barqarorligi hamda ma’naviy taraqqiyotining muhim omilidir.

Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalar asrida o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni erta bosqichdan shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Chunki maktabgacha yoki boshlang‘ich yosh davrida o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his etmagan bola keyingi ta’lim bosqichlarida ham passivlik, muloqotdan chekinish, o‘z fikrini bildirishda ikkilanma holatlarni boshdan kechiradi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy faollikni tarbiyalash nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy-pedagogik vazifadir.

Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni va “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yosh avlodni ijtimoiy faollikka, mustaqil fikrlashga va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga o‘rgatish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, sinfdan tashqari faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini tarbiyalashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Chunki u o‘quv jarayonidan tashqari erkin, quvonchli muhitda kechib, bolalarning tabiiy ehtiyojlari - o‘yin, ijod, muloqot, hamkorlik orqali ijtimoiy tajriba orttirishiga imkon beradi. Bunday faoliyat jarayonida bola jamoada ishlashni, boshqalarga yordam berishni, o‘z fikrini bildirishni, tashabbus ko‘rsatishni o‘rganadi.

Shu boisdan, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni tarbiyalashda sinfdan tashqari faoliyatning o‘rni” mavzusi zamonaviy pedagogika uchun dolzarb, nazariy jihatdan asosli va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishdir. Bu mavzuning o‘rganilishi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, jamoaviy ishlarda faolligi, kommunikativ madaniyatining shakllanishi hamda shaxs sifatida kamol topishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni tarbiyalash masalasi mahalliy va xorijiy pedagogika fanida keng o‘rganilgan bo‘lib, tadqiqotlar mazmuni o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida sinfdan tashqari faoliyatning ahamiyatini chuqur ochib beradi. Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar asosan uchta yo‘nalishda olib borilgan: (1) shaxsning ijtimoiy faolligi va uni shakllantirish nazariyasi, (2) sinfdan tashqari faoliyatning pedagogik imkoniyatlari, (3) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘zbekistonlik olimlar - A. Avloniy, G. Yakubova, Sh. Baratov, M. To‘raeva, N. Jo‘rayev, D. Sobirova, G. Ismoilova va boshqalar - ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllantirishda tarbiyaviy muhitning o‘rni, o‘qituvchi shaxsiy namunasi va jamoaviy faoliyatning tarbiyaviy ahamiyatini yoritganlar.

A. Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida insonni tarbiyalash jarayonida axloq, ijtimoiy madaniyat va mehnatsevarlikning o‘rnini belgilab, tarbiyani jamiyat hayotining asosi deb bilgan. Unga ko‘ra, shaxsning faolligi ijtimoiy qadriyatlarga bo‘lgan hurmat va mehnat orqali shakllanadi.

G. Yakubova o‘z tadqiqotlarida sinfdan tashqari faoliyatni o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rsatadi. U sinfdan tashqari ishlarda o‘yin, musobaqa, ijodiy loyiha kabi faol metodlardan foydalanish ijtimoiy faollikni kuchaytirishini ta’kidlaydi.

Sh. Baratov esa boshlang‘ich ta’limda insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etilgan sinfdan tashqari ishlar bolalarda hamdardlik, muloqotchanlik va mas’uliyat hissini oshiradi, degan xulosaga kelgan.

Chet el pedagoglari orasida J. Dewey, L.S. Vygotskiy, A. Bandura, C. Rogers, A. Maslow, P. Freire, E. Erikson kabi olimlarning qarashlari alohida ahamiyatga ega.

J. Dewey ta’limni hayot bilan bog‘lash g‘oyasini ilgari surgan holda, sinfdan tashqari faoliyatni o‘quvchilar ijtimoiy tajribasini kengaytiruvchi muhim omil sifatida ko‘rsatgan.

L.S. Vygotskiyning ijtimoiy madaniy nazariyasiga ko‘ra, bola rivojlanishi ijtimoiy faoliyat va muloqot orqali amalga oshadi. Shu sababli o‘qituvchi bolani faol ijtimoiy muhitga jalb etishi lozim.

A. Banduraning “ijtimoiy o‘rganish nazariyasi”ga ko‘ra, shaxsning faolligi boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy muhitdan o‘rnak olish orqali shakllanadi.

A. Maslow esa shaxs faolligining asosini insonning o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji bilan bog‘laydi - bu ehtiyoj bolalik davrida aynan sinfdan tashqari ijodiy faoliyat orqali qondiriladi.

P. Freire ta’limni ijtimoiy ongni uyg‘otuvchi jarayon sifatida talqin etib, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini ularning mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘laydi.

Adabiyotlarni umumiy tahlil qilishdan ko‘rinadiki, barcha olimlar o‘quvchining ijtimoiy faolligini tarbiyalashda ta’lim-tarbiya jarayonini faqat bilim berish emas, balki shaxsni ijtimoiy muhitga tayyorlovchi tizim sifatida ko‘rishadi. Sinfdan tashqari faoliyat - bu jarayonning amaliy bosqichi bo‘lib, u o‘quvchining ichki imkoniyatlarini ochadi, ijtimoiy rollarni bajarishga o‘rgatadi va ijtimoiy qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni tarbiyalash samaradorligi sinfdan tashqari faoliyatning maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘qituvchi kompetensiyasi, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro hamkorlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Muhokama.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni tarbiyalash jarayonida sinfdan tashqari faoliyatning o‘rni nihoyatda muhimdir. Chunki bu jarayon o‘quvchilarning o‘qishdan tashqari sharoitda o‘z imkoniyatlarini namoyon etish, jamoa bilan ishlash va ijtimoiy munosabatlarda faol bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari faoliyat o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, mas’uliyat va o‘z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy faolligini oshirishda o‘yin, ijodiy loyiha, to‘garak, musobaqa, madaniy tadbirlar, ekologik aksiyalar kabi faoliyat turlari eng samarali vosita hisoblanadi. Bu faoliyatlar orqali o‘quvchi shaxs sifatida o‘zini anglaydi, ijtimoiy rollarni bajarishga o‘rganadi va jamiyatdagi o‘rnini his etadi. Masalan, “Mehr-shafqat haftaligi”, “Yosh tabiatparvarlar klubi”, “O‘qish bayrami” yoki “Bolalar ijod haftaligi” kabi tadbirlar bolalarda hamdardlik, jamoaviylik va fuqarolik faolligini oshiradi.

Sinfdan tashqari faoliyatning muvaffaqiyati, avvalo, o‘qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy namunaviy pozitsiyasiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘z faoliyati davomida o‘quvchilarda faollik, ijobiy ijtimoiy his-tuyg‘ular, hamkorlik ruhini uyg‘otuvchi muhit yaratishi zarur. Pedagog faqat tashkilotchi emas, balki yetakchi va yo‘lboshchi bo‘lishi, bolalarda ishonch, javobgarlik va tashabbuskorlikni uyg‘otishi kerak.

Shuningdek, ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayonida oila va maktab hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar farzandining ijtimoiy faol bo‘lishi uchun ularni qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etishiga imkon yaratishi, maktab bilan doimiy aloqada bo‘lishi zarur. Maktab va oila o‘rtasidagi hamkorlik bolaning ijtimoiy faolligini mustahkamlashning tabiiy mexanizmini yaratadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalar kirib kelgani sinfdan tashqari faoliyat shakllarini yanada boyitmoqda. Masofaviy to‘garaklar, onlayn musobaqalar, virtual loyihalar orqali

o‘quvchilarda jamoaviy ish, liderlik va axborot madaniyati rivojlanmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, texnologiyalardan pedagogik maqsadlarda oqilona foydalanishi lozim.

Umuman olganda, muhokama jarayonida shuni ta’kidlash mumkin: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy faolligini shakllantirish - bu uzluksiz tarbiyaviy jarayon bo‘lib, u o‘yin, ijod, muloqot va hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari faoliyat bolaning ijtimoiy hayotga tayyorgarligini oshiradi, uning jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglashga, o‘z fikrini erkin bildirishga va boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi. Shu bois u ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida doimiy e’tibor markazida bo‘lishi zarur.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni tarbiyalash - ularning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va hayotda faol pozitsiya egallashini ta’minlovchi eng muhim tarbiyaviy jarayonlardan biridir. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sinfdan tashqari faoliyat bu jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki aynan darsdan tashqari muhitda o‘quvchilar o‘z ijtimoiy tajribalarini boyitadi, jamoa bilan ishlash, tashabbus ko‘rsatish, o‘z fikrini ifodalash, hamdardlik va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning tabiiy qiziqishlari va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Bu faoliyatning muvaffaqiyati o‘qituvchi, oila va jamoatchilikning hamkorlikdagi sa’y-harakatlariga bog‘liqdir. O‘qituvchining shaxsiy namunasi, o‘quvchilarga nisbatan ishonchli munosabati va ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etishdagi pedagogik yondashuvi tarbiyaviy samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardir.

Xulosa qilib aytganda, sinfdan tashqari faoliyat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil fikrlovchi, mas’uliyatli va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishda beqiyos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois, pedagogik amaliyotda bu jarayonni puxta o‘ylangan, tizimli va zamonaviy yondashuvlar asosida yo‘lga qo‘yish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Yakubova G.A. Boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish. - Buxoro: BXU nashriyoti, 2021.
3. Baratov Sh.R. Ta’limda insonparvarlik tamoyillari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Sobirova D.A. Tarbiyaviy jarayonlarda ijtimoiy faollikni shakllantirish metodlari. - Samarqand: SamDTU, 2019.
5. Vygotskiy L.S. Voobrazheniye i tvorchestvo v detskom vozraste. - Moskva: Pedagogika, 1991.
6. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916.
7. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977.
8. Maslow A. Motivation and Personality. - New York: Harper & Row, 1954.
9. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. - London: Continuum, 1970.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022–2026 yillar uchun. - Toshkent, 2022.

Yuldashev Akmal Jamilovich
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

BOJXONADA SHUBHALI HOLATLARNI ANIQLASHDA XULQ-ATVOR TAHLILI VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Maqolada bojxona faoliyatida shaxs xulq-atvorini tahlil qilish orqali shubhali holatlarni aniqlashning psixologik asoslari yoritilgan. Bojxona xodimlarining verbal va noverbal kuzatuv ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda profayling usullarini samarali qo‘llash xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *profayling, bojxona faoliyati, xavfsizlik psixologiyasi, inson xulq-atvori, noverbal aloqa, psixologik kuzatuv, shubhali holat, emotsional intellekt.*

ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ ПРИ ВЫЯВЛЕНИИ СОМНИТЕЛЬНЫХ СИТУАЦИЙ НА ТАМОЖНЕ

Аннотация. *В статье раскрываются психологические основы выявления подозрительных ситуаций через анализ поведения личности в таможенной деятельности. Обоснована необходимость развития вербальных и невербальных наблюдательных навыков сотрудников таможни и эффективного применения методов профайлинга для обеспечения безопасности.*

Ключевые слова: *профайлинг, таможенная деятельность, психология безопасности, поведение человека, невербальная коммуникация, психологическое наблюдение, подозрительная ситуация, эмоциональный интеллект.*

BEHAVIORAL ANALYSIS AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN DETECTING SUSPICIOUS SITUATIONS AT CUSTOMS

Annotation. *The article analyzes the psychological foundations of identifying suspicious behaviors through behavioral analysis in customs activities. It substantiates the importance of developing verbal and nonverbal observation skills of customs officers and effectively applying profiling methods to enhance security and prevent illegal actions.*

Key words: *profiling, customs operations, security psychology, human behavior, nonverbal communication, psychological observation, suspicious situation, emotional intelligence*.

Bugungi globallashuv sharoitida xalqaro savdo aloqalarining kengayishi va odamlar, tovarlar hamda kapitalning erkin harakatlanishi natijasida bojxona organlarining mas’uliyati va nazorat funksiyalari keskin ortmoqda. Bojxona chegaralarida xavfsizlikni ta’minlash nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan ham dolzarb vazifaga aylangan. Bu jarayonda inson omilini chuqur o‘rganish, ayniqsa shubhali holatlarni yutuqsiz texnik vositalardan ko‘ra inson xulq-atvori orqali aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Psixologiya fani nuqtai nazaridan inson xulq-atvori - uning ichki holati, emotsional foni, motivatsiyasi va kognitiv jarayonlarining tashqi ifodasi hisoblanadi. Bojxona tizimidagi xodimlar uchun ushbu xulq-atvorni to‘g‘ri talqin qilish, noverbal belgilar - mimika, jestlar, ko‘z qarashlari, nutqdagi intonatsion o‘zgarishlar orqali shaxs niyatini anglash kasbiy malaka darajasini belgilaydi. Xulq-atvorni tahlil qilish usullari orqali shubhali shaxslarni ilk bosqichda aniqlash, ularning ehtimoliy qonunbuzarlik harakatlarini oldindan prognoz qilish mumkin.

So‘nggi yillarda dunyo amaliyotida “psixologik profayling” tushunchasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. U insonning psixologik portretini xulq-atvori, nutq uslubi va reaksiya tezligi asosida shakllantirishga qaratilgan. Bojxona tizimida ushbu yondashuv xavfni boshqarish tizimi bilan integratsiya qilinganda, shubhali shaxslar va holatlarni tezkor aniqlash imkonini beradi. Masalan, aeroportlarda yoki chegara postlarida maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan

xodimlar shubhali harakatlarni oddiy kuzatuv orqali aniqlab, profilaktik suhbat yoki qo‘shimcha tekshiruv zarurligini belgilay oladi.

Shu nuqtai nazardan, bojxona faoliyatida psixologik tahlilning ahamiyati nafaqat shaxs xulqini baholash, balki xodimlarning emotsional barqarorligini ta’minlash, stressni boshqarish va qaror qabul qilish samaradorligini oshirish bilan ham bog‘liqdir. Psixologik yondoshuv orqali bojxona xodimlarining intuitiv kuzatuv qobiliyatini kuchaytirish, ularning shaxsiy ehsosiy fonini muvozanatlash va vaziyatni xolis baholash qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Mavzunng ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, bojxona tizimida inson xulqini tahlil qilish orqali xavfni oldindan bashorat qilish, korrupsiya va qonunbuzarlik holatlarini erta aniqlash hamda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha samarali psixologik modelni ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu esa nafaqat milliy xavfsizlik tizimi uchun, balki xalqaro hamkorlikdagi bojxona nazoratini takomillashtirish yo‘lida ham muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.


Shuningdek, tadqiqotning dolzarbligi shunda namoyon bo‘ladiki, hozirgi zamon bojxona amaliyotida inson omillariga doir psixologik tayyorgarlik yetarli darajada tizimlashmagan. Bojxona xodimlarining shaxsiy psixologik kompetensiyasini rivojlantirish, xulq-atvorni tahlil qilish malakasini oshirish, stress holatlarida xissiyotni nazorat qilish qobiliyatini mustahkamlash - samarali xavfsizlik tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shu boisdan, ushbu tadqiqotning maqsadi - inson xulq-atvorini psixologik tahlil qilish orqali bojxonada shubhali holatlarni aniqlashning nazariy asoslarini ishlab chiqish, amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash va psixologik yondoshuvning zamonaviy modelini taklif etishdan iborat.

Asosiy qism

1. Xulq-atvor tahlilining psixologik asoslari

Psixologiyada inson xulq-atvori uning ichki holatining tashqi ifodasi sifatida qaraladi. A.Mehrabianning tadqiqotlariga ko‘ra, muloqot jarayonida axborotning 55% noverbal belgilar (mimika, poza, harakatlar), 38% ovoz ohangi va faqat 7% so‘z mazmuni orqali uzatiladi.



A.Mehrabianning tadqiqotiga ko‘ra axborotni uzatilish usullari

P.Ekman tomonidan ishlab chiqilgan “microexpression” nazariyasiga ko‘ra, inson yuzida bir necha soniyalik mikroharakatlar uning haqiqiy his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Bojxona xodimi ana shu belgilarni anglay olishi orqali shaxsning asl maqsadini aniqlashi mumkin. Masalan, xavotir, yolg‘on, qo‘rquv yoki haddan ziyod hayajon belgilarini taniqli harakatlar orqali kuzatish mumkin.

Profayling – shaxsni kuzatish, tahlil qilish va ma’lum psixologik belgilar asosida xavf darajasini baholash tizimidir.

Bojxonada xulq-atvor profaylingi, verbal profayling, hujjat profaylingi, psixofiziologik profayling turlari amalga oshirilishi mumkin.

Tizimda profaylingni joriy etish natijasida bojxona postlarida shubhali shaxslarni erta bosqichda aniqlash orqali qonunbuzarliklarning oldi olinadi, kuzatuv natijalari asosida shaxsni chuqur tekshirish yoki tezkor o‘tkazish haqida ongli qaror qabul qilinadi, tekshiruv jarayonida yuqori xavfli shaxslarga e’tiborni yo‘naltirish orqali vaqt va kuch sarfini kamaytiradi, bojxona xodimlarining psixologik tahlil va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi, bojxona tizimida shaxslarga nisbatan psixologik ta’sir orqali huquqbuzarlikka moyillik kamayadi.

2. Bojxona faoliyatida xulq-atvor tahlilining amaliy ahamiyati

Bojxona xodimining vazifasi faqat hujjatlarni tekshirish bilan cheklanmaydi, balki shaxsning o‘zini tutishini ham baholashni o‘z ichiga oladi. Bojxona postidagi qisqa muloqot davomida shaxsning nutqi, ko‘z qarashi, harakatlari va javob berish tarzi asosiy psixologik signallar hisoblanadi.

Shubhali shaxslarda quyidagi noverbal belgilari kuzatilishi mumkin:


- ko‘z kontaktdan qochish;
- savollarga kechiktirilgan javob berish;
- bezovtalik harakatlari (qo‘lni silkish, labni tishlash, orqaga chekinish);
- ortiqcha terlash yoki ovozning titrog‘i.

Bunday holatlarda psixologik kuzatuv va so‘rov usullari orqali shaxs haqida avvaldan xulosa chiqarish imkoni paydo bo‘ladi. Bojxona amaliyotida ayrim holatlarda ana shunday psixodiagnostik usullar orqali kontrabanda holatlari yoki hujjat soxtalashtirish urinishlari oldi olingan.

Jumladan, Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi xodimlari tomonidan bojxona chegarasi orqali noqonuniy va kontrabanda tovarlarining oldini olish borasida 2025 yilning 9 oyi davomida 1304 ta holatda 94,1 mlrd so‘mlik tovar-moddiy boyliklar ushlab qolingan.

Shu bilan birga, 2,7 kg giyohvandlik vositalari, 270 dona qurol-yaroq, 40 dona taqiqlangan diniy adabiyotlar, 107236 dona tamaki hamda 2120 litr alkogol mahsulotlari, 13572 dona dori vositalari va 69 ming AQSh dollari ekvivalentidagi valyutaning noqonuniy harakati oldi olingan.

Mazkur tahlil bojxona organlarining psixologik holati, kasbiy kompetentligi hamda tizimda profaylingning joriy etilishi davlat xavfsizligi va fuqarolar salomatligi uchun naqadar muhimligining yaqqol namoyon etadi.



Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi xodimlari tomonidan aniqlangan bojxona qoidabilish holatlarini aniqlash tendensiyasi yillar kesimida

Oxirgi 5 yil tahlil qilinganda, bojxona chegarasi orqali qonunbuzilish holatlari yil sayin oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

Buning uchun albatta bojxona xodimlarini stressga bardoshliligini oshirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda bojxona chegarasi orqali harakatlanayotgan fuqarolarning tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutishi, harakati hamda ruhiy holatiga to‘g‘ri baho berish orqali samaradorlikni yanada oshirish imkoni mavjud.

3. Bojxona xodimlarining psixologik kompetensiyasi va tayyorgarligi

Bojxona xodimida yuqori darajadagi diqqat, emotsional barqarorlik va intuitiv tahlil qobiliyati bo‘lishi zarur. Psixologik kuzatuv ko‘nikmasini rivojlantirish uchun muntazam o‘quv mashg‘ulotlari, treninglar va simulyatsiya mashqlarini o‘tkazish tavsiya etiladi.

Shu bilan birga, bojxona xizmatchilari uchun maxsus “Psixologik kuzatuv va xulq tahlili” fanini amaliy ta’lim tizimiga kiritish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali xodimlar insonning verbal va noverbal xulqini to‘g‘ri talqin qilish, stress vaziyatlarda xulosa chiqarish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishlari mumkin.

Profayling samaradorligi xodimlarning psixologik tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq. Shu bois Bojxona instituti va xodimlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish fakuletida psixologik kuzatuv va noverbal aloqa bo‘yicha amaliy treninglar o‘tkazish, profayling simulyatsiyalari va videotahlil usullarini joriy etish, stress boshqaruvi va tezkor qaror qabul qilish psixologiyasini rivojlantirish kabi dasturlarni joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, bojxona tizimida inson xulq-atvorini o‘rganish va tahlil qilish nafaqat shaxsning tashqi reaksiyalarini kuzatish, balki uning ichki psixologik holatini anglash orqali xavfni oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Bojxona xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik yondashuvdan foydalanish - xavfsizlik tizimini mustahkamlash, shubhali holatlarni erta aniqlash hamda qonunbuzarliklarni oldini olishning samarali yo‘li hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson xulq-atvori orqali shubhali shaxsni aniqlashda faqat tashqi belgilarga emas, balki shaxsning emotsional fonidagi o‘zgarishlar, nutqning ritmi va intonatsiyasi, mikroekspressiyalar hamda jestlarning dinamikasiga e’tibor qaratish muhimdir. Bu jarayonda bixevioralizm, kognitiv psixologiya va profayling usullarining integratsiyasi katta amaliy ahamiyatga ega.

Bojxona xodimlarining psixologik tayyorgarligi, emotsional barqarorligi va intuitiv kuzatuv qobiliyati xavfsizlik tizimining sifat ko‘rsatkichini belgilaydi. Shu sababli, kadrlar tayyorlash jarayonida psixologik ta’lim va treninglarning o‘rnini kuchaytirish, xulq-atvorni tahlil qilish bo‘yicha maxsus malaka dasturlarini joriy etish zarur.

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida aniqlangan xulosalar bojxona faoliyatini modernizatsiya qilish jarayonida inson omilini inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ilg‘or psixologik yondashuvlar, ya’ni videopsixodiagnostika, povedencheskiy tahlil va kommunikativ monitoring tizimlarini amaliyotga tatbiq etish, xodimlar ish samaradorligini oshirish bilan birga, xavfni baholashda sub’ektiv xato ehtimolini kamaytiradi.

Shunday qilib, inson xulq-atvori tahliliga asoslangan psixologik modelni bojxona tizimida qo‘llash xavfsizlikni ta’minlashda yangi bosqichni belgilaydi. Bu yondashuv nafaqat shaxsiy kuzatuv malakasini kuchaytiradi, balki axborot texnologiyalari bilan uyg‘un holda ishlab, inson omilining ilmiy asoslangan bahosini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganda, bojxona organlari faoliyatida shaxs xulqini baholashning ilmiy asoslangan usullari ishlab chiqiladi, bu esa milliy xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro standartlarga mos psixologik nazorat tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ekman P. Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. – New York : Times Books, 2003. – 304 p.

2. Mehrabian A. Nonverbal Communication. – New York : Aldine Transaction, 2009. – 230 p.

3. Matsumoto D., Hwang H. C. Microexpressions: A brief review // *Journal of Personality and Social Psychology*. – 2018. – Vol. 115, No. 3. – P. 389–402.

4. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York : Bantam Books, 1995. – 352 p.

5. Abdullayeva Sh., Toshpo‘latov M. Psixologiya va huquqni muhofaza qilish faoliyatida shaxs xulqini baholash usullari : monografiya. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2021. – 184 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar. – Toshkent, 2024. – Elektron resurs.

7. Markov A. V. Profiling in Border Security: Psychological and Analytical Approaches. – Moscow : Security Press, 2020. – 276 p.

Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
“Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish” bo‘limi boshlig‘i
E-mail: jaloliddin1107@mail.ru

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun’iy intellektning (SI) ta’lim sohasidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. SI tizimlarining o‘qitish jarayonini avtomatlashtirish, personallashtirilgan ta’limni ta’minlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘quvchilarning bilim darajasini baholashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, SIning ta’limdagi afzalliklari - 24/7 ta’lim imkoniyati, tezkor qayta aloqa, keng ma’lumotlar bazasi va xatolarga chidamlilik haqida so‘z yuritiladi. Maqolada pedagogik nazoratning zaiflashuvi, ma’lumotlar xavfsizligi, texnologik tengsizlik va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga ta’siri kabi muammolar ham ko‘rsatilgan. Sun’iy intellektning o‘qituvchilar rolining o‘zgarishi, baholash tizimining yangilanishi va yangi ko‘nikmalarning shakllanishi ta’lim jarayoniga ta’siri muhokama qilinadi. Kelajak istiqbollari sifatida individual yondashuv, o‘qituvchilarga yordam, global ta’lim resurslariga kirish va doimiy rivojlanish ta’kidlanadi. Yakunda, SI va insoniy yondashuv uyg‘unligi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ta’limda avtomatlashtirish, personallashtirilgan ta’lim, ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash tizimi, o‘qituvchi roli, texnologik tengsizlik, ma’lumotlar xavfsizligi, mustaqil fikrlash, masofaviy ta’lim, ta’limda innovatsiyalar, ta’limda SI afzalliklari, individual ta’lim yondashuvi, ta’limda SI istiqbollari*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение искусственного интеллекта (ИИ) в сфере образования. Рассматривается автоматизация процесса обучения, обеспечение персонализированного обучения, анализ данных и оценка уровня знаний учащихся с помощью ИИ. Также обсуждаются преимущества ИИ в образовании - возможность обучения 24/7, быстрая обратная связь, широкая база данных и устойчивость к ошибкам. В статье выделяются проблемы, такие как ослабление педагогического контроля, безопасность данных, технологическое неравенство и влияние на самостоятельное мышление учащихся. Анализируется влияние ИИ на изменение роли преподавателя, обновление системы оценки и формирование новых навыков в образовательном процессе. В качестве перспектив отмечаются индивидуальный подход, помощь преподавателям, доступ к глобальным образовательным ресурсам и постоянное развитие. В заключение подчеркивается важность гармонии ИИ и человеческого подхода для повышения качества образования.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, автоматизация в образовании, персонализированное обучение, анализ данных, система оценивания, роль преподавателя, технологическое неравенство, безопасность данных, критическое мышление, дистанционное обучение, инновации в образовании, преимущества ии в образовании, индивидуальный подход к обучению, перспективы ии в образовании.*

THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS: CHALLENGES AND PROSPECTS

Annotation. *This article analyzes the role and significance of artificial intelligence (AI) in the field of education. It examines the automation of the teaching process, the provision of personalized learning, data analysis, and the assessment of students’ knowledge levels using AI. The advantages*

of AI in education - 24/7 learning opportunities, rapid feedback, extensive databases, and error resilience - are also discussed. The article highlights challenges such as weakening pedagogical control, data security, technological inequality, and the impact on students' independent thinking. It explores AI's influence on changing the teacher's role, the modernization of assessment systems, and the development of new skills in the educational process. Prospects such as individual approaches, assistance to teachers, access to global educational resources, and continuous improvement are emphasized. In conclusion, the harmony between AI and human approaches is stressed as essential for enhancing the quality of education.

Key words: *artificial intelligence, automation in education, personalized learning, data analysis, assessment system, role of the teacher, technological inequality, data security, critical thinking, distance learning, innovations in education, advantages of ai in education, individualized learning approach, prospects of ai in education*

Kirish. Mamlakatimizda o‘qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish, rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz ta’lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o‘qitish jarayoniga qo‘llashdan iborat. O‘zbekistonda ta’lim tizimining axborotlashtirilishi xalqaro jamiyatda ham tan olindi.

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining kirib kelishi o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish va bilim olishni yanada samarali qilish imkonini bermoqda. Biroq bu jarayon bir qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada SI’dan ta’limda foydalanishning asosiy muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga oid zamonaviy o‘quv-nazorat dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga bo‘lgan zaruriyat “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganlik natijasida ta’lim tizimida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish rivojlantirildi.

Mamlakatimizda informatika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan ta’lim sifatini oshirish jarayonida nazariy va amaliy asoslarini yaratish, innovatsion usullarni qo‘llash, ta’lim jarayonida noan’anaviy usullardan guruhli va individual usullardan foydalalanishning nazariy asoslariga oid M.Aripov, A.A.Abdukodirov, M.Luttfullayev, N.I.Taylakov, U.Begimqulov, R.Jo‘rayev, N.Azizxo‘jayeva, T.T.Kalekeeva, D.U.Qo‘chqarov, M.X.Allabergenova, F.N.Rahimova, Sh.F.Davronova, I.N.Ruzimurodov, B.B.Mo‘minov, M.B.Xattabovlar kabi olimlarning ishlarini aytish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirayotgan zamonaviy texnologiyalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish hamda samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratib, ta’lim sifati va natijadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qitish jarayonini avtomatlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. SI tizimlari o‘quv materiallarini tahlil qilish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, baholash jarayonlarini amalga oshirish hamda individual ta’lim rejalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Natijada o‘qituvchilar o‘z vaqtini ko‘proq o‘quvchilar bilan individual ishlashga, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltira oladi.

Ta’lim jarayonini personallashtirish sun’iy intellektning muhim afzalliklaridan biri hisoblanadi. SI algoritmlari har bir o‘quvchining o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishi va o‘rganish uslubini inobatga olgan holda moslashtirilgan ta’lim materiallarini taqdim etadi. Bu esa o‘quvchilarning bilimni chuqurroq va samaraliroq o‘zlashtirishiga, mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishining ortishiga yordam beradi. Shuningdek, SI tizimlari o‘quvchilarning faoliyati va natijalarini doimiy

tahlil qilib, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi, bu esa ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Sun’iy intellektning ta’limdagi afzalliklari uning uzluksiz ishlash imkoniyati bilan ham belgilanadi. SI tizimlari kunning istalgan vaqtida faoliyat yurita oladi, bu esa masofaviy ta’lim sharoitida va katta yoshdagi o‘quvchilar uchun qulaylik yaratadi. Bundan tashqari, SI o‘quvchilarning topshiriqlari va ishlarini tezkor tekshirib, natijalar bo‘yicha izoh va tavsiyalar berish imkoniga ega. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash qobiliyati esa o‘quvchilarga turli manbalardan keng qamrovli bilimlarga ega bo‘lish imkonini yaratadi. SI tizimlarining charchamasligi va hissiy holatga bog‘liq bo‘lmasligi o‘qitish sifatining barqarorligini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan ta’limda foydalanish ayrim muammolarni ham keltirib chiqaradi. Testlar, esse va topshiriqlarni avtomatik baholash imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, bu jarayonda o‘qituvchining intuitiv yondashuvi, o‘quvchining psixologik holatini his etish kabi jihatlar to‘liq qamrab olinmasligi mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari SI tizimlarida saqlanishi kiberxavfsizlik va maxfiylik bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltiradi. Texnik vositalar va barqaror internetga bo‘lgan ehtiyoj esa ayrim hududlarda ta’lim imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida tez va oson javob olish imkoniyati o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va izlanish ko‘nikmalarining sustlashishiga sabab bo‘lish ehtimoli mavjud.

Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga ta’siri o‘qituvchining rolini ham o‘zgartirmoqda. O‘qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahatchi va motivator sifatida faoliyat yuritadi. SI tizimlarining individual moslashuvchanligi o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirib, uzluksiz baholash imkonini yaratadi. Bu esa an’anaviy imtihon tizimining o‘rnini bosishi, o‘quvchilarda stress darajasini kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt bilan ishlash o‘quvchilardan ma’lumotlarni tahlil qilish, texnologiyalardan samarali foydalanish va raqamli muhitda hamkorlik qilish kabi yangi ko‘nikmalarni talab etadi.

Kelajakda sun’iy intellekt ta’lim jarayonini yanada shaxsiylashtirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlariga mos ta’lim materiallarini taklif etish orqali o‘rganish samaradorligi oshadi. SI texnologiyalari dars rejalari tuzish, baholash jarayonlarini soddalashtirish va o‘quvchilarning rivojlanishini tahlil qilishda o‘qituvchilarga katta yordam beradi. Shuningdek, turli tillardagi ta’lim materiallarini avtomatik tarjima qilish, ovozli yordamchilar orqali o‘rganish imkoniyatini yaratish ta’limning global integratsiyasini kuchaytiradi. Sun’iy intellekt tizimlarining o‘z-o‘zini o‘rganish va takomillashtirish xususiyati esa ta’lim mazmunining zamon talablariga mos ravishda doimiy yangilanib borishini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijasi va muhokama.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt (SI) ta’lim jarayonida samarali vosita sifatida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Avvalo, SI tizimlari o‘quv jarayonini avtomatlashtirish orqali o‘qituvchilarga individual yondashuvga ko‘proq e’tibor berish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga va o‘quvchilarning bilim darajasining yaxshilanishiga olib keladi. Shuningdek, SI algoritmlari asosida yaratilgan personallashtirilgan ta’lim dasturlari har bir o‘quvchining o‘zlashtirish sur’ati va uslubiga mos keladi, bu ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqotda shuningdek, SI tizimlarining o‘quvchilarning faoliyati va natijalarini tahlil qilishi, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali ta’lim jarayonini takomillashtirishga katta hissa qo‘shayotgani qayd etildi. Bu jarayon o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Biroq, SIning ta’limdagi joriy etilishi bilan bog‘liq ayrim muammolar ham aniqlangan. Pedagogik nazoratning zaiflashuvi, ya’ni o‘qituvchining intuitiv baholashi va psixologik yondashuvining kamayishi ta’lim jarayonida inson omilining o‘rnini to‘liq qoplay olmasligi muammosi mavjud. Bundan tashqari, ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi sohasida xavotirlar paydo bo‘lmoqda, chunki SI tizimlarida katta hajmdagi ma’lumotlar saqlanadi va ular noto‘g‘ri qo‘llanilishi yoki sizib chiqishi mumkin.

Texnologik tengsizlik ham muhim muammo sifatida ko‘rsatildi, chunki zamonaviy qurilmalar va internetga kirish imkoniyati cheklangan hududlarda SI texnologiyalaridan foydalanish qiyinlashadi. Bu esa ta’limdagi imkoniyatlarning noteng taqsimlanishiga olib keladi.

SI o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin - tez va oson javob olish imkoniyati o‘quvchilarning izlanish, tahlil qilish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini kamaytirishi xavfi mavjud.

Shu bilan birga, SI ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning rolini o‘zgartiradi: ular ko‘proq yo‘naltiruvchi va maslahatchi vazifasini bajaradi, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Bu esa ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot SI texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishi katta salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Lekin ularni samarali va mas’uliyat bilan joriy etish, shuningdek inson omili bilan uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uchun zarurdir. Kelajakda SI va inson yondashuvining uyg‘unligi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Xulosa. Sun’iy intellekt ta’lim sohasida ulkan imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Biroq bu texnologiyadan foydalanishda muammolarni e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. SI’ni to‘g‘ri va mas’uliyatli qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin. Kelajakda SI va insoniy yondashuv uyg‘unligi ta’limning yangi bosqichini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent : O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Abduvohidov Sh., Karimova M. Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi. – Toshkent : Iqtisodiyot va moliya instituti nashriyoti, 2023. – 150 b.
3. Mavlonova R., Raxmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent : O‘qituvchi, 2006. – 180 b.
4. Azizxo‘jaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent : O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B. 51–54.
5. Islomov A. Sun’iy intellekt va ta’limning kelajagi. – Toshkent : Ta’lim, 2022. – 120 b.
6. Karimova M. Ta’limda avtomatlashtirish va innovatsiyalar. – Samarqand : Ilm-fan, 2021. – 98 b.
7. Tursunov S. Personallashtirilgan ta’lim va uning ahamiyati. – Buxoro : Ilmiy nashriyot, 2019. – 75 b.
8. Axmedov D. Ma’lumotlarni tahlil qilish va ta’limda qo‘llanilishi. – Namangan : Ta’lim va fan, 2023. – 60 b.
9. Bekqulov J. Sh., Ibragimov I. Sun’iy intellekt asoslari. – Toshkent : O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – 180 b.
10. Xolmatov A. Sun’iy intellekt va ekspert tizimlari. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2021. – 120 b.
11. Raximov B. O‘zbekistonda raqamli ta’lim: imkoniyatlar va cheklovlar. – Samarqand : Samarqand davlat universiteti ilmiy nashriyoti, 2023. – 95 b.

Boltayeva Zilola Bobojonovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

GENDER PEDAGOGIKASI HAMDA TA'LIMDA GENDER TENGLIK MASALALARI

Annotatsiya. *Gender tenglikni ta'minlashda qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va shaffoflik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, o'zaro bir birini tushunish tamoyillari muhim rol o'ynashi, shuningdek qiz va o'g'il bolalar orasidagi gender farqlar va o'xshashliklarni hisobga olishga qaratilgan tadqiqotlar amalda gender pedagogikasi hamda psixologiyasida bir qadar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bu, ayniqsa, jinsiy tarbiya hamda bu jarayonda ruhiy imkoniyatlarni hisobga olish yo'nalishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jinsga asoslangan ta'lim-tarbiya – o'quvchini kelajakdagi hayotga tayyorlashda har tomonlama ta'sir ko'rsatadigan ta'limiy-tarbiyaviy, ma'rifiy vositalar yig'indisi ekanligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *gender tenglik, zo'ravonlik, YUNESKO, xotin-qizlar, qiz va o'g'il, gender farqlar.*

ГЕНДЕРНАЯ ПЕДАГОГИКА И ПРОБЛЕМЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В гендерной педагогике и психологии достаточно широко проводится работа по обеспечению гендерного равенства, в рамках которой отводится важная роль принципам законности, демократии, открытости и гласности, равноправия женщин и мужчин, недискриминации по признаку пола, взаимопонимания, а также исследованиям, направленным на учет гендерных различий и сходств между девочками и мальчиками. Особенно это заметно в сфере полового воспитания и учета в этом процессе психических возможностей. Представлено положение о том, что гендерное воспитание представляет собой совокупность образовательных, воспитательных и образовательных инструментов, оказывающих комплексное воздействие на подготовку учащихся к будущей жизни.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, насилие, ЮНЕСКО, женщины, девочки и мальчики, гендерные различия.*

GENDER PEDAGOGY AND GENDER EQUALITY ISSUES IN EDUCATION

Abstract. *The important role of the principles of legality, democracy, openness and transparency, equal rights of women and men, non-discrimination on the basis of gender, mutual understanding, as well as research aimed at taking into account gender differences and similarities between girls and boys, is being carried out on a fairly large scale in gender pedagogy and psychology in ensuring gender equality. This is especially evident in the area of sexual education and taking into account mental capabilities in this process. Information is provided that gender-based education is a set of educational, educational, and educational tools that have a comprehensive impact on preparing students for future life.*

Key words: *gender equality, violence, UNESCO, women, girls and boys, gender differences.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda o'tgan asrning oxirlarigagina kelib ta'lim jarayonida gender farqlar va o'xshashliklarni hisobga olish haqidagi fikrlar ilgari surila boshlandi. Aslida gender feministik nazariyaning davomi sifatida vujudga kelgan yondashuvdir. YUNESKOning 1998-yil-9 oktabrdagi anjumanida ta'lim tizimining maqsadi zo'ravonlik va zulmdan xoli bo'lgan jamiyatni barpo etish ekanligi e'tirof etildi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullarni qo'llagan holda o'quv dasturlarini qayta ishlab chiqish zarurligi qayd etilgan. Yangidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida erkak va ayollar tengligi, qolaversa, barcha fanlarning gender omillari hisobga olingan. Jahon amaliyotiga asoslangan mazkur

dastlabki urinishlar BMTning «Taraqqiyot» dasturi, YUNESKO, «Ochiq jamiyat» «Ko‘mak» jamg‘armasi instituti tomonidan qo‘llab-quvvatlangan edi. Natijada gender tadqiqotlari kursi Moskva davlat universiteti, Xarkov universiteti va MDH davlatlarining qator oliy ta’lim muassasalari dasturlariga joriy etildi.

BMT Bosh Assambleyasining 2000-yildagi «Xotin-qizlar – 2000: Gender tenglik, taraqqiyot va tinchlik» mavzusidagi maxsus sessiyasi materiallari, Jahon banki tomonidan tayyorlangan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, iqtisodiy rivojlanish bilan gender tenglik o‘rtasida uzviy bog‘lanish mavjud. Mazkur muammoning jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutishini so‘nggi yillarda Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida ushbu sohaga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganligi misolida ham yaqqol kuzatish mumkin.

Gender tenglikni ta’minlashda qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va shaffoflik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, o‘zaro bir birini tushunish tamoyillari muhim rol o‘ynaydi. Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta’minlash mazkur tamoyillarning mohiyatini tashkil etadi. Shu bois, ta’lim, ilm-fan, sport hamda sog‘likni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash maqsadida 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish Strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Metodlar.O‘zbekistonning ba’zi oliy ta’lim muassasalarida 2001-yildan boshlab, tashabbuskor o‘qituvchilar tomonidan maxsus kurslar shaklida gender tadqiqotlarining u yoki bu jihatlarini yorituvchi ma’ruzalar o‘qilmoqda. Bu boradagi tajribalar talabalarning gender tadqiqotlariga qiziqishi kuchli ekanligini ko‘rsatdi. Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida gender tadqiqotlarining o‘rganilishi bo‘lg‘usi mutaxassislar tafakkurining dunyodagi eng yangi tahliliy yutuqlar asosida shakllanishigagina emas, balki mazkur sohaning O‘zbekiston ilm-fanida yanada rivojlanishiga yordam berishi, shubhasiz. Gender farqlar hamda o‘xshashliklar ta’lim jarayonida qiz va o‘g‘il bolalar o‘quv faoliyatidagi o‘xshashliklar va farqlarni hisobga olishga asoslanadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlashga yordam beradi. U yoki bu jinsga mansublik o‘quvchi shaxsining imkoniyatlarini belgilaydi. Qiz va o‘g‘il bolalar orasidagi gender farqlar va o‘xshashliklarni hisobga olishga qaratilgan tadqiqotlar amalda gender pedagogikasi hamda psixologiyasida bir qadar keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Bu, ayniqsa, jinsiy tarbiya hamda bu jarayonda ruhiy imkoniyatlarni hisobga olish yo‘nalishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jinsga asoslangan ta’lim-tarbiya – o‘quvchini kelajakdagi hayotga tayyorlashda har tomonlama ta’sir ko‘rsatadigan ta’limiy-tarbiyaviy, ma’rifiy vositalar yig‘indisidir. Bugungi kunda o‘quv-biluv jarayonida gender farqlar va o‘ziga xosliklarni hisobga olish tabiiy pedagogik hodisa sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq didaktikada ushbu hodisaning ilmiy talqini mavjud emas. O‘quv-biluv jarayonida gender farqlarga oid o‘ziga xosliklarni hisobga olmasdan turib, ta’lim natijasining samaradorligini ta’minlash mumkin emasligi barcha mutaxassislarga ayon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ruhshunoslar bu sohada bir qator yutuqlarni qo‘lga kiritmoqdalar.

Dunyoda ijtimoiy munosabatlar va inson hayotining barcha sohalarida gender masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatda ayol va erkakning teng huquqliligi, ta’limda teng imkoniyatlar yaratish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda gender pedagogikasi alohida o‘rin egallaydi.

Gender pedagogikasi – bu ta’lim jarayonida ayol va erkak o‘quvchilarning psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali ta’lim berish yo‘nalishidir.

1970-yillargacha psixologik-pedagogik fan sifatida biologik jins - individning genetik jihatdan aniqlangan belgilari yig'indisi va ijtimoiy jins - jinsiga qarab shaxsning sotsial-madaniy xususiyatlarini inobatga olish muhimligi ta’kidlana boshlandi.

Keyinchalik jinsiy aloqaning ijtimoiy va madaniy tomonlarini bildirish uchun "gender" tushunchasi taklif qilindi.

Ilgari faqat grammatik jinsni bildirish uchun ishlatilgan va shuning uchun biologiya bilan hech qanday ma'noni keltirib chiqarmagan. Keyinchalik "jins" va "gender" tushunchalarini farqlash g'oyasi turli jamiyatlarda erkak va ayolning nima ekanligini tushunishda sezilarli farqlarni aniqlagan feministik nazariyotchilar va antropologlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Zamonaviy fan "jins" va " gender" tushunchalarini farqlaydi. An'anaga ko'ra, birinchisi odamlarning anatomik va fiziologik xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatiladi, bu ularni erkak yoki ayol sifatida belgilaydi.

Uzoq vaqt davomida jins, ya'ni biologik xususiyatlar ayollar va erkaklar o'rtasidagi psixologik va ijtimoiy farqlarning asosi va asosiy sababi deb hisoblangan.

Ilmiy izlanishlar davom etar ekan, biologik jihatdan erkaklar va ayollar o'rtasida farqlardan ko'ra ko'proq o'xshashliklar borligi ma'lum bo'ldi. Jinsiy dimorfizm jinsiy tabaqalanishning asosi bo'lsa-da, u hech qanday holatda yolg'iz o'zi kamaymaydi va ko'plab tarixiy va ijtimoiy omillarga bog'liq. Ijtimoiy bo'linish haqida rollar, faoliyat shakllari va xulq-atvor va hissiy farqlar antropologlar, etnograflar va tarixchilar erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqladilar.

Butun dunyo bo'ylab ayollar va erkaklar soni va biologik xususiyatlarning asosiy o'ziga xosligi biologik jins ularning ijtimoiy farqlarini tushuntira olmaydi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Shunday qilib, psixologik xususiyatlardagi farqlarni, ijtimoiy majmuini bildiruvchi "gender" atamasi paydo bo'ldi va jamiyat tomonidan ma'lum bir madaniyat doirasidagi o'zaro ta'sir orqali yaratilgan madaniy me'yorlar, shuningdek, sotsial-madaniy jinsiy farqlarni tushunish va talqin qilish jihatlari. Bu murakkab ijtimoiy-madaniy tuzilma: jamiyat tomonidan qurilgan erkak va ayol o'rtasidagi rollar, xatti-harakatlar, aqliy va hissiy xususiyatlardagi farqlardir.

Gender farqlanishlar va tenglik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shadi. Insoniyat taraqqiyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatlarning har tomonlama taraqqiyoti markazida jamiyat rivojlanishining iqtisodiy ko‘rsatkichlarigina emas, balki inson va uning ijtimoiy ma’naviy manfaatlari ham turishi kerakligi alohida o‘rin tutadi. Darhaqiqat, mamlakat taraqqiyotining barqarorligi, jamiyatning barcha sohalaridagi islohotlarning samaradorligi va pirovard natijasida iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasini ta’minlash bevosita ta’lim tizimi va uning darajasiga bog‘likdir. Zero, ta’lim inson kamolotining tarkibiy qismi, jamiyat muammolarini hal qilishning asosiy omili hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ta’lim inson rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni bartaraf etishga mislsiz ta’sir ko‘rsatadi. Maktab ta’lim muassasalarida gender sezgirlikni hisobga olib, o‘g‘il bola va qiz bolalar uchun teng ta’lim-tarbiya olish imkoniyatlarini ta’minlash, ta’lim-tarbiya olishda tenglikni ta’minlash, kamsitish va stereotiplarga barham berishni ta’minlashi muhimdir. Odatda gender munosabatlarining shakllanishi bolalarning jinsiy tarbiyasi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Jinsiy tarbiya - bolalar, o‘smirlar va yoshlarda jins masalalariga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirib borishga qaratilgan tibbiy, psixologik va pedagogik tadbirlar tizimi; tarbiya jarayonining muhim qismi bo‘lib, shaxsning jismoniy, aqliy, ma’naviy va estetik rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq.

Jinsiy tarbiyani bolalarning yoshi, jinsi va malakasiga mos tushadigan qilib olib borish zarur. Ko‘plar jinsiy tarbiyani balog‘at yoshida boshlash kerak deb hisoblashadi. Bu noto‘g‘ri, chunki bunga taalluqli ayrim masalalarni bolaning yoshligidan boshlab hal qila borish kerak. Ko‘pgina ota-onalar jins masalasini muhokama qilish odobdan emas deb o‘ylab yoshlarni qiziqtiradigan masalalar to‘g‘risida so‘zlashmaslikni lozim ko‘rishadi. Natijada, bolalar atrofdagilardan, ko‘pincha tasodifiy manbalardan ko‘r-ko‘rona ma’lumotlar olib, o‘zlarini qiziqtirgan mavzular yuzasidan aksari noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lib qoladilar. Kichikligidan qiz bola o‘g‘il boladan nimasi bilan ajralib turadi, yurish-turishi, kiyinishidan tortib, muomalasigacha tushuntirishi kerak, ammo ikki jinsni hech qachon bir biriga nisbatan kamsitishga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Natijalar va munozara. Bolalarga xuddi shunday tarbiya ta’lim muassasalarida ham hamohang davom etishini ta’minlanishi muhimdir. Maktab ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ta’lim faoliyati davomida ham bunga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero, bolalarning barkamol bo‘lib voyaga yetishlari, ularning kelajakdagi munosabatlarining ijodiy bo‘lishida gender munosabatlarining roli muhimdir. Mana shunday faoliyatni olib borish pedagoglar oldida katta ma’sulyatni yuklaydi. Bu esa gender pedagogikasini va uni vazifalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Gender pedagogikasi – bu ta’lim jarayonida erkak va ayol shaxsining teng huquqliligi va imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan pedagogik yo‘nalishdir. Uning asosiy vazifasi – o‘quv

jarayonida gender tengligini ta’minlash, qizlar va o‘g‘il bolalarda ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash va teng huquqli munosabatni shakllantirishdir.

Gender pedagogikasi nazariy jihatdan bir nechta fanlararo asoslarga ega:

- Falsafiy asoslar – inson huquqlari, tenglik va adolat tamoyillari.
- Sotsiologik asoslar – jamiyatda gender rollari va ularning ijtimoiy ta’siri.
- Psixologik asoslar – qiz va o‘g‘il bolalarning psixik rivojlanishi, shaxsiy xususiyatlari.
- Pedagogik asoslar – ta’lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Gender pedagogikasi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Ta’limda tenglik va imkoniyatlarni ta’minlash.
- O‘quvchilar bilan individual yondashuv.
- Gender stereotiplarini bartaraf etish.
- Qizlar va o‘g‘il bolalarning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash.

Ta’lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma’naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda ta’lim sohasiga yil sayin katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifa ta’lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy ta’limning yuqori bosqichlarigacha bo‘lgan bo‘g‘inlar zimmasiga yuklatilgan. Gender farqlar va tenglik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni esa jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shib, o‘quvchi shaxsining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uchun zarur tarkibiy qism sifatida maydonga chiqadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish jarayonida mavjud o‘quv dasturlarini yangi pedagogik texnologiya va zamonaviy usullarni qo‘llagan holda takomillashtirish eng birinchi vazifa hisoblanadi. Takomillashtirilgan o‘quv dasturlarida o‘g‘il va qiz bolalar tengligi, qolaversa, barcha fanlar bo‘yicha o‘quv materiallarining «Gender» tushunchasi aniq psixologik-pedagogik xarakteristikalarga ega bo‘lmaganligi va pedagogikada yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi aniqlangan.

Bu esa “gender” tushunchasi mohiyatini ta’lim sohasi doirasida aniqlashtirish imkonini beradi. “Genderni” erkak va ayol jinsidagi shaxslar xulq-atvorining shaxsning psixologik ustanovkalari, jamiyat va davlat talablariga muvofiqlashgan xos xarakteristikalari majmui sifatida qarash mumkin.

Pedagogik ma’noda gender – o‘g‘il va qiz bolalarning murakkab ta’limiy sotsiomadaniy birligi bo‘lib, ularning xatti harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o‘quv faoliyatidagi o‘zaro teng va farqli jihatlarini o‘z ichiga oladi. Shu bois keyingi vaqtlarda gender muammosi, uni o‘rganish metodlari pedagoglar e’tiborini ko‘proq jalb etmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda “bolaning ta’lim olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirishni ta’minlash, bola shaxsini shakllantirish, uning ijodiy hamda bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minlash, jamiyatga moslashishi ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston gender tengligi sohasidagi qator xalqaro shartnomalarga a’zo bo‘lib, unda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘ilishi alohida e’tirof etilgan (1948 yil, 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan.). Kamsitishning barcha turlari taqiqlanishi ham belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi to‘g‘risidagi qat’iy norma mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 58-moddasiga muvofiq, davlat xotin-qizlar va erkaklarning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlanishi nazarda tutilgan.

Xususan, gender tenglik munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga bo‘lgan ehtiyoj hamda bu masalada davlat darajasidagi e’tibor natijasida 2019-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun qabul qilinishi bilan qonunchilikga bir qator yangi tushunchalar kiritilib, mavjud ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi.

Jumladan, Qonun bilan “Gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar”, “Gender”, “Gender statistikasi”, “Gender-huquqiy ekspertiza”, “jins bo‘yicha bevosita kamsitish” hamda “jins bo‘yicha bilvosita kamsitish” tushunchalari ochib berildi.

Bundan tashqari, 2021 yil 28 mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi Qarori qabul qilingan bo‘lib, mazkur qarorda ham gender tengligiga erishish bo‘yicha muhim vazifa va chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalari yuzasidan vazifalar belgilangan hamda mazkur sohada mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligi yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

Jumladan, Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. Eng avvalo inosn rivojlanishi va davlat jamiyat rivoji uchun shaxs rivojlanishi muhim. Ta’lim jarayonida gender masalasini kiritilishi, ta’lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish яъни gender tenglik va farqlar inobatga olib tashkil etish, o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga katta ta’sir etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish maqsadida o‘quvchilarning individual o‘ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish muhimdir. Ta’lim-tarbiya jarayoniga gender yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o‘qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir bolaning individual xususiyatlarini tushunishni anglatadi. Gender yondashuvning asosiy vazifasi esa rivojlanishning individual usullarini, bolaning imkoniyatlarini aniqlab, har bir shaxsning faolligini ta’minlashdan iboratligini ham e’tirof etishimiz va e’tibor qaratishimizni ta’lab etadi.

Gender yondashuv quyidagilar bilan bevosita bog'liq:

ta’lim olishda o‘g‘il-qizlarning teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlash;

bolalarning rivojlanishini cheklashi mumkin bo'lgan an'anaviy stereotiplarni bartaraf etish;

shaxsning uyg'un rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat ekanligini inobatga olib, ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishida gender yondashuvni amalga oshirish juda ham muhim va dolzarbdir.

Ta’lim tizimida gender yondashuvni amalga oshirishda bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda hamda amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, xotin-qizlarning ta’lim olishi, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy jihatlarini Gaskell Dj, Maklaren A, Aker S, Stromkvist N.P, Foks M.F. va Xamdan A. kabi xorijlik olimlar tadqiqotlar olib borishgan. MDH mamlakatlari olimlaridan Nogaeva A.M, Shupanova J.M, Agamova N.S, Allaxverdyan A.G. va Shafranova O.I ilmiy ishlarida, O‘zbekistonlik olimlardan, gender tenglik va farqlar asosida ta’lim berish imkoniyatlari G.M.Qurbonova, ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash masalalari bo‘yicha N. Egamberdieva, B. Xonturayev, Sh. Abdiraimova, ta’lim tizimida Sharq mintaliteti asosida gender tenglikning ta’minlanish masalalari bo‘yicha O.M.Musurmanova, ilm-fan sohasida ayollarning rolini oshirish hamda gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni turli madaniyatlar bilan tanishtirishning pedagogik imkoniyatlari to‘g‘risida X.M.Tojiboyeva, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko‘nikmalar билан бирга gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim ekanligi bo‘yicha S.Ch. Xaydarova hamda A.T.Turg‘unovaning ilmiy tadqiqot ishida кеksa avlod ta’limi vositasida oilalarda gender tenglikni ta’minlash tomonidan o‘rganilib, ilmiy xulosalar berilgan.

X.M.Tojiboyevaning gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni turli madaniyatlar bilan tanishtirishning pedagogik imkoniyatlari to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqot ishida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning gender madaniyati o‘ziga xos pedagogik hodisa hisoblanadi. Ma’lumki, ommaviy madaniyat bilan milliy madaniyat orasida o‘ziga xos farqlar mavjud. Shuning uchun ham har bir madaniyatda ayollar va erkaklarning xulq-atvorini belgilab beruvchi qoidalar amal qiladi. Erkaklar va ayollarning jinsiy xususiyatlarga xos bo‘lgan rollar o‘zaro farqlanadi,- deb ta’kidlaydi.

G.M.Qurbonova olib borgan ilmiy izlanishida gender farqlanishlar va tenglik asosida tashkil etish, ta’lim jarayoni jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shishini e’tirof etadi. “Gender yondashuv ta’lim samaradorligiga ko‘rsatuvchi ta’sirini atroflicha yoritgan. Mazkur vazifaning bajarilishini

ta’minlashda o‘quv dasturlarini yangi pedagogik texnologiya asosida hamda zamonaviy usullarni qo‘llagan holda takomillashtirish eng muhim vazifa hisoblab, o‘g‘il va qiz bolalar tengligi, o‘quv materiallarining gender tenglik va farqlar asosida belgilab berilishi muhim ahamiyat kasb etadi”, - deb xulosa qiladi G.M.Qurbonova.

A.T.Turg‘unovaning keksa avlod ta’limi vositasida oilalarda gender tenglikni ta’minlash, ma’naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish omillari buvijonlar (nuroniy, kayvoni, yoshulli) maktabi tajribasi ibrat-namuna, fikrga ishontirish texnologiyasi vitagen ta’lim (hayotiy tajriba, intellektual salohiyatni dolzarblashtirish) tamoyillariga ustuvorlik berish asosida tadqiq qilinishi ko‘p qirrali ilmiy mohiyatga ega ekanligini tadqiq etadi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda gender tenglik masalalari o‘quvchilarning shaxs sifatida to‘laqonli shakllanishi uchun muhim pedagogik va psixologik omil hisoblanadi. Shu davrda bola o‘zini anglash, ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish va shaxsiy “Men” konsepsiyasini shakllantiradi. Shuning uchun ta’lim jarayonida qiz va o‘g‘il bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularni jinsiy stereotiplarga bog‘lab qo‘ymaslik, balki har bir o‘quvchining individual qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish zarurdir.

Amaliyotda gender tenglik masalalari ba’zan darsliklarda stereotip obrazlarning ko‘rinishi, o‘qituvchilarning vazifalarni jinsga qarab taqsimlashi yoki ota-onalarning an’anaviy qarashlari orqali cheklanishi mumkin. Bu esa bolalarda o‘ziga ishonchsizlik, salohiyatni to‘liq namoyon eta olmaslik kabi oqibatlarga olib keladi.

Demak, boshlang‘ich ta’limda gender tenglikni ta’minlash shaxsning barkamol rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, hamjihatlik, mas’uliyat va tenglik tamoyillarini shakllantiradi. Bu jarayon nafaqat ta’lim sifatini, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning muhim garovi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Qurbonova G.M. Gender tenglik va farqlar asosida ta’lim berish imkoniyatlari // Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2015, 12. –B. 59-63.

2.Turg‘unova T.A.Oilalarda gender tenglikni ta’minlashda keksa avlod yoshlar uchun ibrat ko‘zgusi sifatida. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2021, 2 (99).B12.

3.Ногаева, Айнур Муханбетияровна, Жанна Мергенжановна Шупанова.«Ролженшин в сфере образования, науки и обшестве стран Сентралной Азии.» (2016).

4.Агамова НС, Аллахвердян АГ. Российские женшини в науке и висшей школе: историконаучние и науковедческие аспекти. Вопроси истории естествознания и техники. 2000(1):141-53.

5.Шафранова ОИ. Образование, обшественная и профессионалная деятелност женшин Северного Кавказа во второй половине XИX-начале XX в. Ставропол: СГУ. 2004.

6.Qurbonova G.M. Gender tenglik va farqlar asosida ta’lim berish imkoniyatlari // Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2015, 12. –B. 59-63

7.Ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash masalalari [Matn]: Monografiya N.M. Egamberdieva, B.A. Xonturayev, Sh. Abdiraimova – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2024. – 116 b.

8.Tojiboyeva X.M. “Gender madaniyatning zamonaviy shakllarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN2181-1709(R) 2021yil (№1), 180bet.

9.Xaydarova Z.CH. Oliy ta’limda gender tengligi tushunchasi Zamonaviy il-fan va ta’lim istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy Konferensiya to‘plami. 583-587b

10.Turg‘unova T.A.Oilalarda gender tenglikni ta’minlashda keksa avlod yoshlar uchun ibrat ko‘zgusi sifatida. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2021, 2 (99).B12.

11.Tojiboyeva X.M. “Gender madaniyatning zamonaviy shakllarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar” Ta’lim va iinovatsion tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN2181-1709(R) 2021yil (№1), 180bet.

Djurayeva Perdegul Saidovna
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi dotsenti

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI BILAN TABIIY FANLARDAN (SCIENCE) TABIATNI MUHOFAZA QILISH BO‘YICHA «O‘QUV LOYIHASI» ISHLAB CHIQISH

Dars berish - oddiy mahorat emas, bu yangilik topa oladigan san'atdir.
Jusipbek Aymautov

Annotatsiya. *“Loyiha” tushunchasi va “Loyiha ta’limi”ning ma’nosi. Loyihani amalga oshirish bosqichlari. Tabiiy fanlarda (SCIENCE) mavzular bo‘yicha boshlang‘ich ta’limda topshiriqlar tayyorlash va ular bilan ishlash metodikasi. Amaliy tajribalarni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar. Amaliy ish va laboratoriya ishlarini tashkil etishda hamkorlikda ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari.*

Kalit so‘zlar: *"4K" modeli, analitik yondashuv, atrof-muhit, milliy qadriyatlar, targ‘ib qilish, tabiatni muhofaza qilish, mas’uliyatni shakllantirish.*

РАЗРАБОТКА «УЧЕБНОГО ПРОЕКТА» ПО ОХРАНЕ ПРИРОДЫ В ЕСТЕСТВЕННОМ НАПРАВЛЕНИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Понятие «проект» и значение «проектного образования». Этапы реализации проекта. Методика подготовки и работы с заданиями в начальном образовании по предметам естественнонаучного цикла (ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ). Требования к проведению практических экспериментов. Преимущества использования коллаборативных образовательных технологий при организации практических работ и лабораторных работ.*

Ключевые слова: *модель «4К», аналитический подход, окружающая среда, национальные ценности, пропаганда, охрана природы, формирование ответственности.*

DEVELOPMENT OF A "CURRICULAR PROJECT" ON NATURE PROTECTION IN SCIENCE WITHIN THE PRIMARY EDUCATION DIRECTION IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM

Abstract. *The concept of "project" and the meaning of "project education". Stages of project implementation. Methodology for preparing and working with assignments in primary education on topics in natural sciences (SCIENCE). Requirements for conducting practical experiments. Advantages of using collaborative educational technologies in organizing practical work and laboratory work.*

Key words: *"4K" model, analytical approach, environment, national values, advocacy, nature conservation, responsibility formation.*

Kirish. Mavzuning dolzarbligi: malaka oshirish tizimida boshlang‘ich ta’lim fani tinglovchilariga III blok kesimida berilgan 3.5. “Tabiiy (SCIENCE) fanlarda innovatsiya va integratsiya” moduli doirasida ushbu mavzuga oid amaliy mashg‘ulot darslarini tashkil etish tavsiya etiladi. Albatta kirish qismi sifatida "4K" modeli tushunchasi keng muhokama qilinishi, ilmiy jihatdan tavsiflanishi maqsadga muvofiqdir. "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda foydalanish uchun maxsus shartlarni talab qilmaydi. Masalan, o‘quvchilar viktorinalar orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini, ta’limiy o‘yinlar va mashqlar orqali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu usullarni maktablarda qo‘llash imkoniyati yo‘q, deyish to‘g‘ri emas. Ilgari o‘quvchilarning yozuviga ko‘proq e’tibor qaratardik, yozma nutqi ustida ko‘proq ishlardik. Yangi tajribada bolalarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin ifoda etishi

muhimroqdir. O‘quvchilar muammolarga analitik yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z qarashlarini shakllantiradilar.

Loyiha ishining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

Tarbiyaviy: O‘quvchilarning bilimga qiziqishini oshirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish mas’uliyatini shakllantirish;

Tarbiyaviy: bolalarni tabiatni muhofaza qilish, o‘z yurtini va yerini sevish, mehr-oqibat, ezgulik, ekologik tarbiya berish, Ona tabiatga mehr bilan munosabatda bo‘lishga tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: ijodiy qobiliyatlarni, yaxshilik qilish qobiliyatini, fikrlash qobiliyatini, o‘z fikrini erkin ifodalay olish qobiliyatini rivojlantirish.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

“4K” modeli: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlikni o‘lchash vositasi sifatida - akademik hamjamiyat tomonidan qabul qilingan “4K” konsepsiyasi keng qamrovli tadqiq va sinovdan o‘tkazildi, natijada u ko‘plab ta'lim standartlarida keng qo‘llanildi. 2010-yilda Amerika menejment Assotsiatsiyasi o‘z tadqiqotlarida 4K konsepsiyasining dolzarbligini tasdiqladi. “4K” ko‘nikmasi nima? Farzandimizga nima uchun kerak va bu tizim bilan qanday bilimni o‘rganishimiz mumkin? Keling, ushbu savollarga javob topishga harakat qilaylik. 20 yil oldin hech kim SMM mutaxassislari yoki mobil ilovalar ishlab chiquvchisi kabi kasblarning mavjudligini tasavvur qilmagan bo‘lardi. Rivojlangan mehnat bozori davrida bir necha yil ichida qaysi kasblarga talab bo‘lishini aniq bilib bo‘lmaydi, lekin uning o‘zgarishi aniq. Qo‘l mehnati haqida gapirmasa ham, buxgalter va tahlilchilarning ishi ham avtomatlashtiriladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, kelajakdagi ish beruvchilar faqat algoritmlar bilan almashtirib bo‘lmaydigan moslashuvchanlik va ko‘nikmalarga qiziqishadi. Nazariyaga kelsak, 2016-yilda Davosdagi Jahon iqtisodiy forumi prezidenti Klaus Shvab to‘rtinchi texnologik inqilob boshlanganini e'lon qildi. Uning so‘zlariga ko‘ra, endi biz uchun barcha ishlarni robotlar bajaradi va 2020-yilga kelib o‘zini zarur deb hisoblagan har bir ishchi quyidagilarni bilishi kerak: murakkab vazifalarni hal qilish qobiliyati; tanqidiy fikrlash qobiliyatlari; ijodiy fikrlash; odamlarni boshqarish qobiliyati; jamoada ishlash qobiliyati; boshqalarning va o‘zining his-tuyg‘ularini aniqlash va nazorat qilish qobiliyati; o‘z fikrini bildirish, mulohaza yuritish va qaror qabul qilish qobiliyati; mijozga moslashish; muzokaralar olib borish qobiliyati; bir vazifadan ikkinchisiga tezda o‘tish qobiliyati. 2015-yilda 4-10-o‘rinni egallagan tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlar 2020-yilga kelib eng kerakli uchlikka kiradi. Ushbu ko‘nikmalarni Soft Skills (moslashuvchan ko‘nikmalar, professional kompetentsiya) va Hard Skills - "qattiq" kasbiy mahorat deb atashga qaror qilindi. Mamlakatimizda ta'lim bo‘yicha mutaxassislar Davosning eng yaxshi o‘ntadan to‘rtta asosiy malaka tizimlarini qisqartirishdi, keyin ularga "4K tizimi" nomini berishdi: Hamkorlik, muvofiqlashtirish, jamoada ishlash (kollabratsiya); Muloqot, dialog (kommunikatsiya); Ijodkorlik (kreativlik); tanqidiy fikrlash (kritik). Har bir “K”ga alohida izoh beradigan bo‘lsak, tanqidiy fikrlash (Kriticheskoe mishlenie) axborot oqimini boshqarish, sabab-natija munosabatlarini ko‘rish, keraksiz ma’lumotlarni elakdan o‘tkazish va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Muvaffaqiyatsiz qarorlar qabul qilish va uning muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini tushunish. Ijodiy fikrlash (kreativlik) – o‘zgaruvchan vaziyatlarda ishonchli bo‘lish, noan'anaviy qarorlar qabul qilish va vaziyatlarni turli nuqtai nazardan baholash imkonini beradi. Ijodkor odam bajaruvchiga aylanadi. U boshqa odamlarning tashabbuslarini rivojlantirishi va yaxshilashi mumkin. Qiyinchiliklarni yengish uning uchun qiziqarli jumboqga aylanadi.Muloqot – bugungi kunda hamma narsa telefon qo‘ng‘irog‘i yoki bir kunlik yo‘l masofasi, ya'ni 24/7 yoki SMS; muzokaralar olib borish va munosabatlarni o‘rnatish, suhbatdoshni tinglash va o‘z nuqtai nazarini bildirish qobiliyati hayotiy mahoratga aylanadi. Hamkorlik, muvofiqlashtirish, jamoaviy ish professional kompetentsiya bilan chambarchas bog‘liq. Umumiy maqsad va uning natijalarini baholash va unga erishishdagi rollarni aniqlash qobiliyati.

Taqdiqot natijalari 1. Reja mavzusi: Tabiatga sayohat darsining ahamiyati

Ko‘rgazmali qurollar: interfaol doska uchun tayyorlangan slaydlar, tabiat haqidagi maqollar, misralar, gullar, rasmlar, tabiat manzarasi maketi. Sinfdan tashqari mashg‘ulot turi: noan’anaviy

sayohat uslubidagi aks ettirish darsi. Sinfdan tashqari ish usullari: hikoya qilish, tushuntirish, savol-javob, tilak bildirish, munozara, ijodiy ish. Sinfdan tashqari soatning tuzilishi[1]:

I. Tashkiliy qism. II. Sinfdan tashqari mashg‘ulot mavzusi va maqsadini e’lon qilish. III. Talabalarni tabiat qo‘yniga olib chiqing va ularni guruhlarga bo‘ling (3-4 kichik guruh).

1. Barcha tirik mavjudotlarning orzusi – havodir.
2. Hayotning manbai – suvdir.
3. Tabiatning boyligi – o‘simliklardir
4. O‘rmonning go‘zalligi – qushlar.
5. Tabiatning go‘zal mulki – hayvonlardir.

Har bir guruhga vazifa beriladi:

1. Kirish bosqichi (“Bizning guruh”) Har bir guruh o‘z nomi, shiori va emblemasi bilan tanishtiradi. Masalan: “Bilimlilar”, “Yosh tadqiqotchilar”, “Tabiat posbonlari” va boshqalar.

2. Nazariy bosqich (“Tabiat bilan tanishish”). Savol-javob o‘yini yoki viktorina. Mavzular: o‘simliklar, hayvonlar, ekologiya, tabiat hodisalari. Masalan, "Bu qanaqa qush?" - rasm bo‘yicha qushni toping.

3. Ijodiy bosqich (“Tabiat ovozi”). Guruhlar tabiat haqida she’rlar tuzadilar, maqollar aytadilar yoki kichik sahna ko‘rinishlarini namoyish etadilar.

4. Tadqiqot bosqichi (“Tadqiqotchilar”). Har bir guruh tabiatdagi ma'lum bir hodisani o‘rganadi. Masalan, barg turlarini yig‘ish, daraxtlarning yoshini aniqlash, ob-havoni kuzatish.

5. Ekologik bosqich (“Biz tabiatni himoya qilamiz!”). Tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha muhokama yoki ekoloyiha taqdimoti. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha shiorlar va takliflar yaratish.

Dam olish lahzasi: “Tabiat raqsi”. Maqsad: O‘quvchilarning kayfiyatini ko‘tarish, ularning tanalarini chiniqtirish. Ishning borishi: O‘qituvchi o‘quvchilarga turli xil tabiat hodisalarini ko‘rsatib, ularga muvofiq harakat qilishni so‘raydi.

1. Quyosh chiqdi – qo‘llarini yuqoriga cho‘zib, quyoshga cho‘ziladi.
2. Shamol esdi – u yoqdan-bu yoqqa sekin chayqaladi.
3. Barglar tushib ketdi – qo‘llarini aylantirib, sekin pastga egiladi.
4. Yomg‘ir yog‘di – barmoqlarini stolga yoki kaftlarga engil uradi.
5. Kamalak paydo bo‘ldi – qo‘llarini yoy shaklida cho‘zadi. Bu tetiklantiruvchi daqiqa o‘quvchilarning tabiat bilan bog‘liqligini his qilishlariga yordam beradi va ularning darsga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

6. Xulosa (“G‘olibni aniqlash”). Hakamlar (o‘qituvchi yoki o‘quvchilar) guruhlarning ochkolarini hisoblab, g‘olibni aniqlaydilar. Barcha ishtirokchilar maqtovga sazovor bo‘ladi, sertifikatlar yoki sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

IV. (Uyga vazifa). V. “Yurakdan yurakka” Tabiatga tilaklarimiz. VI. Dars xulosasi. Baholash.

II qism. Darsning borishi: (o‘quvchilar aylanada o‘tirishadi, o‘rtaga chiroyli guldastalar qo‘yiladi).

I. Tashkiliy qism: Xayrli tong, bolalar! Har kuni ertalab uyg‘onishingiz bilan derazani ochib, Ona-tabiatga qaraysiz. Ona-tabiat bugun bizni nima bilan xursand qildi, u bizga nima deydi? Shunday qilib, men sizni birga Ona-tabiatga sayohatga taklif qilaman. Maqulmi sizlarga bolajonlar? Bu ajoyib! Bugungi sayohatimiz mavzusi: “Tabiatni asrang!”. Bizning maqsadimiz: Bugun siz bilan birgalikda biz atrof-muhitga muhabbat qadriyatlari haqidagi tushunchamizni kengaytiramiz, tabiatni sevish va himoya qilishni o‘rganamiz, Ona-tabiatga mehr bilan munosabatda bo‘lamiz. Bugun biz tabiat bilan muloqot qilamiz, uni tushunishga harakat qilamiz. Bugun biz Ona-tabiatdan mehr-oqibatni o‘rganamiz! Tabiat – oltin beshik, qadimdan insoniyat va barcha tirik mavjudotlar yashab kelayotgan muhit. Tabiat – ezgulikning bitmas-tuganmas manbaidir. Demak, bugungi darsimizni tabiat bilan suhbatdan boshlaymiz. Keling, barchamiz o‘rnimizdan turib, bu satrlarni birgalikda aytaylik! Xayrli kun, mening quyoshim, dashtim,

[1] Anonashvili Sh.A. Lisenkova S.N. Shatalov V.F. Pedagogik tadqiqotlar. – Olmaota: Rauan, 1990. – 59-62-betlar.

o‘rmonim, Xayrli kun, gullarim, qushlarim, ko‘llarim. Xayrli kun, o‘simliklar, hasharotlar, Xayrli kun, barcha tirik mavjudotlar! Juda yaxshi! Hammamiz o‘tiramiz. Bolalar, umuman tabiat nima? U nimani o‘z ichiga oladi? O‘quvchilar: Havo, suv, o‘simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlar... Demak, sayohatimizning birinchi bekati “Hayot manbai – havo” deb ataladi. Gap navbati o‘quvchilarga beriladi. 1-o‘quvchi: Tabiat boyliklari ichida hayot manbai – havodir. Sizningcha, hayotdagi eng qimmatli narsa nima? Hayotda odamlar qadrli, sen azizsan. Va havo inson uchun hamma narsadan qimmatroq, Havo qimmatli, oladigan nafas qimmat. Haqiqatan ham havodan qimmatroq narsa yo‘q. Kishi nafas olmasdan bir-ikki daqiqagina chidashi mumkin. Shuning uchun ham dono xalqimizda “Havodek zarur” degan naql bor. Ammo bizning havo qanchalik toza ekanligiga hech kim to‘liq javob bera olmaydi. Agar biz gohida Navoiy shahrimizga qarasak, shahar ustida qalin tuman bulutini ko‘ramiz. Avtomobillar, zavod va fabrikalardan chiqadigan tutun havomizning shaffofligini buzadi. Birinchidan, inson Ona-tabiatni ranjitdi, ikkinchidan, o‘ziga qarshi jinoyat qildi. Dunyoga kelgan go‘dak nogiron bo‘lib, hayotni qayg‘u bilan o‘tkazadi. So‘zimning so‘nggida odamlarga aytmoqchiman: Ey, odamlar, Ona-tabiat bizga nafas olish uchun havo bergan, chunki u juda mehribon. Siz uning ishonchini oqlaysiz, havoni ifloslantirmang! O‘qituvchi: Ha, bolajonlar, hayotni havosiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Havoni ifloslantirmaslik har birimizning burchimizdir. Ammo hayotni suvsiz tasavvur qilish mumkinmi?

2-reja: "Hayot manbai – suv". Ikkinchi bekatimiz “Hayot manbai – suv” deb ataladi. Suv qanchalik muhim? 2-o‘quvchi: Suv – tabiat go‘zalligini oshiruvchi, yer yuzini soyali bog‘ga aylantiruvchi boylikdir. “Suvning ham so‘rovi bor”, deydi dono xalqimiz. O‘zbekiston Respublikasida ko‘p daryolar, ko‘llar mavjud bo‘lib, bu mo‘l suvdan behisob va hisobsiz foydalanish suvning kamayishiga olib keldi. Masalan, Sirdaryo Orol dengizini mo‘l-ko‘l suv bilan ta’minlagan. Keyinchalik bu daryo suvidan ko‘p miqdorda sholi va paxta yetishtirildi. Natijada Orol dengizining suvi kamayib, qisqardi. Toraygan suvning tuzi uning ostidan chiqib, quriydi va havoga bug‘lanadi. Orolbo‘yida vaziyat shunday. Kaspiy dengizi esa neft qoldiqlari, baliqlarni zaharlash bilan ifloslangan. Bu ham inson qo‘li bilan qilingan vahshiylik. Ko‘p joylarda ichimlik suvi yetishmaydi. Orol haqida, yurt haqida o‘ylash kerak, Bezovta tabiat yil sayin buzilib bormoqda. Bizni oziqlantirib turgan Ona-tabiatni fuqarolik g‘ururimiz bilan asrashga tayyormiz! Demak, suv tabiatning joni, yerning go‘zalligi, dedik. Va tabiatni nima go‘zal qiladi? Bu – o‘simliklar. Navbatdagi uchinchi bekatimiz “Tabiiy boylik – o‘simliklar” deb nomlanadi. Tabiiy boyliklarning bir guruhi yerdagi go‘zal o‘simliklardir. Ular haqida nima deyishimiz mumkin?

3-o‘quvchi: O‘simliklar va daraxtlar tabiatimizni o‘zgartiradigan momiq gilamga o‘xshaydi. Xalqimiz o‘simliklarni hayotning mazmuni, deb biladi va o‘z g‘amxo‘rligini hech qachon ayamagan. “Otangning moli bo‘lguncha tol bo‘lsin” degan mashhur naql buning dalilidir. Isrofgarchilik tufayli o‘simliklarning ayrim turlari kamayib bormoqda, shuning uchun ularning 300 ga yaqini Qizil kitobga kiritilgan. Agar siz Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklarni noqonuniy yig‘sangiz, har bir namuna uchun jarima to‘laysiz. Mamlakatimizda “Yashil mamlakat” dasturi doirasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir fuqaro ularni asrash muhimligini ongli ravishda anglab yetmasa, ajoyib yam-yashil bog‘imizni hech qanday taqiqlar saqlab qolmaydi, deb o‘ylayman. Shu bois, bu yerda hozir bo‘lgan barchangizni o‘z mintaqangizdagi o‘simliklarni o‘rganishga va ularni himoya qilishga chaqiraman. O‘qituvchi: Darhaqiqat, har birimiz o‘z yurtimizni soyali bog‘ga aylantira olamiz. Bolalar, go‘zal tabiatimizni go‘zal qo‘shiqlarga aylantiradigan nima? (Qushlar). Demak, navbatdagi bekatimiz “O‘rmonning go‘zal qushlari” deb ataladi. Bu haqda qanday fikrdasiz?

4-o‘quvchi. Qushlar – tabiatning ham go‘zalligi, ham qo‘shig‘idir, osmonda uchib yuradi. Ularning go‘zal kuy-qo‘shiqlari qalbimizni erib, beixtiyor o‘ziga rom etadi. Ular bizning qanotli do‘stlarimiz. Ular tabiat qo‘riqchilaridir. Dala va bog‘larning ishonchli hamrohlari. Shuning uchun ota-bobolarimiz qushlarni e’zozlagan. Ular mard o‘g‘illarini lochinga, go‘zal qizlarini oqqushlarga qiyoslaydilar. O‘zbekistonda qushlarning 340 turi mavjud. Ular orasida eng noyob qushlar Qizil kitobga kiritilgan va himoyada. Ota-bobolarimiz qushlarni juda qadrlashgan. Qadim zamonlarda Jung‘or bosqinida qishloq aholisi o‘z yerlarini tashlab chiqib ketgan. O‘sha qishloqda qozoq xalqning To‘le biyi uyidan qimirlamadi, uyini buzib tashlamadi. Qalmoq lashkarboshisi sababini so‘raganida, Tole biy bobo unga uyining tomini ko‘rsatdi. “Kulbamga qaldirg‘och uya quribdi,

lekin jo‘jalari hali yosh, ucha olmaydi”, dedi. Yosh lashkarboshi Tole biyning mehribonligidan mamnun bo‘ldi. Keyin Tole biy boboni xalq “Qaldirg‘och biy” deb atagan, qaldirg‘och esa, “Avliyo qush” laqabini olgan.

3-reja: Qushlar – bizning do‘stlarimiz!

Qozoqlar ham qushlarga qarab ob-havoni bashorat qilishlari mumkin edi.

• Agar qush patlarini puflasa, yomg'ir yog‘adi, havo o‘zgaradi.
• Sariq chumchuq hushtak chalsa, rostdan ham kuz bo‘ladi.
• Qarg‘a qichqirsa, qor yog‘adi.
• Yil qushlari qoplab ketsa, bahor erta keladi.
• Agar kaklik baland ovozda va tez-tez chaqirsa, quyosh isib ketadi.
• Qarg‘a erta bahorda suvga cho‘milsa, quyosh isiydi. Qo‘shiq aytsak qo‘shig‘imiz, izzat qilsak go‘zalligimiz, tabiatning go‘zal qushlarini asrash burchimizdir. Qushlar tabiat qo‘shig‘i desak, tabiatga yana nimalar qo‘shiladi deb o‘ylaysiz? (Hayvonlar). Demak, navbatdagi bekatimiz “Hayvonlar, go‘zal tabiat haykali” deb nomlanadi.

5-o‘quvchi: Hayvonlar tabiatning go‘zal husni, uning go‘zal ko‘rinishidir. Xalqimiz azaldan jonivorlarni ko‘z qorachig‘idek sevib, asrab-avaylab, ko‘zlari tiniq qizlarini “Bo‘tag‘oz” deb atagan. Bugungi kunda o‘ rmonni bezab turgan hayvonlar tobora kamayib bormoqda. Ulardan biri qozoq zaminida tosh davridan beri mavjud bo‘lgan hayratlanarli faunaning vakili sayg‘oqdir. Odamlar uni ko‘pincha kiyik deb atashadi. Uning shoxlarining o‘zi pnevmoniya, yurak kasalliklari va boshqa kasalliklarni davolaydigan shifobaxsh xususiyatlarga ega. Va uning go‘shti juda tez hazm bo‘ladigan gazakdir. Shuning uchun bo‘lsa kerak, qozoqlar bug‘uni “muqaddas hayvon, hosiyatli hayvon” deb atashgan. Ammo bugungi kunda bu muqaddas hayvonlarning juda oz qismi qolgan. Masalan, 1991-yilgi hisobotga ko‘ra, uning aholisi taxminan 700-900 mingni tashkil etgan bo‘lsa, 2009-yildagi oxirgi hisobotga ko‘ra, bor-yo‘g‘i 30,7 mingi bor edi. Sayg‘oqning kamayib ketishining asosiy sababi bu hayvonni brokenerlarning noqonuniy ovlashning keng tarqalishidir. Bugungi kunda “Darvin”, “Intas” kabi turli qo‘riqxonalar tashkil etilib, sayg‘oq, jayron, kulon, arxar va boshqa hayvonlarni muhofaza qilish maqsadida turli ishlar amalga oshirilmoqda. Odamlarning ana shunday g‘amxo‘rligi, mehr-oqibati tufayli o‘rmonlarimiz yana go‘zal jonivorlar bilan to‘lib ketishiga ishonaman. O'qituvchi: Yaxshi bolalar, biz tabiatning ajoyib ijodlariga sayohat qildik. Ona-tabiat bizga kerak bo‘lgan hamma narsani berdi. Nafas olishimiz uchun havo, ichishimiz uchun tiniq suv va barcha zarur narsalarni ato etgan, u bizga ajoyib yashil olamni bergan, o‘rmonlarimiz, to‘qaylarimiz go‘zal bo‘lishi uchun qushlar, go‘zal jonivorlar bergan, bir so‘z bilan aytganda, hayot uchun zarur bo‘lgan hamma narsani Ona-tabiatdan olamiz. Qanchalik mehribon, qanchalik saxovatli, qanchalik keng bo‘lmasin, qalbi ham xuddi shunday mehr va mehrga to‘la. Demak, biz, bolalar, Ona-tabiatdan o‘rgangan mehrimizni endi bir-birimizga bag‘ishlaymiz. O‘yinning nomi: "Mehribon yurak". Dam olish daqiqasida “Mehrni tabiatdan o‘rgan!” yoki “Mehribon yurak” o‘yini. Har bir bola qo‘shnisi yoki do‘stiga uning yaxshi fazilatlarini tavsiflovchi so‘zlarni yozadi va yurakni sovg‘a qiladi. Masalan: Sen mehribonsan, Sen go‘zalsan, Sen aqllisan!..va hokazo. IV. Fikr-mulohazalar.

Munozaralar. 4-reja: "Men tabiatni sevaman!"

"Men tabiatni yaxshi ko‘raman yoki tabiat bilan tanishaman". (Bu loyihaviy topshiriqlar bolalarga oldindan berilgan va ulardan quyidagi qisqacha ishlar tanlab olingan)[1]. "Tabiat! Siz – dunyoda eng go‘zalsiz ne’matsiz! Xushbo‘y havongiz ham, chopayotgan hayvonlaringiz ham, atrofni go‘zal qo‘shiqlarga to‘ldiradigan qushlaringiz ham go‘zal! Men sizdan go‘zallikni o‘rgandim. Inson zoti shunday go‘zalliklar orasida yashash qanchalik baxtli ekanini bilsangiz edi. "Men ba'zan orzu qilaman, agar shoir bo‘lsam, tuprog‘ingizning har bir toshini, har bir bo‘lagini she’rimga kiritgan bo‘lardim. Lekin go‘zalligingizni qalbimning tubida saqlayman! "O‘quvchilarning fikrlarini tinglab: bolalar, tabiat go‘zalligini mana shunday kuylasangiz, Nozim buni she’r bilan shunday ifodalagan. Qani, hamma tinglaylik. Nozim: (interfaol doska bilan

[1] Axmetova G.K., Qoraev Z.A., Muxanbetjanova S.T. Elektron ta'lim joriy etilganda o'qituvchilar malakasini oshirishni tashkil etish metodikasi. Olmaota: OAJ "BAO "Orleu", 2012. 418 b.

tayyorlangan tabiat rasmlari ko‘rsatiladi va bu she’r satrlari sekin musiqa ohangida o‘qiladi). Demak, tabiatga qarash, tabiat bilan muloqot qilish go‘zal. Agar siz Ona-Yerni butun qalbingiz bilan sevsangiz, siz ham dunyodagi eng go‘zal inson bo‘lasiz!

5-reja: "Agar tabiatning so‘zlari tugasa..."

Keling, o‘quvchining “Tabiatning so‘zi tugasa...” mavzusidagi sof qalb kompozitsiyalariga nazar tashlaymiz: Tabiat so‘zlay olsa, biz bilan shunday so‘zlashardi: “Ey, inson!.. Sen mening bag‘rimda o‘sding. Sovutganingda quyoshim bilan isitdim, Issiqda seni daraxtlarim bilan pana qildim. Tiniq, musaffo havomdan nafas olding. Ona zamin seni oziqlantirib, go‘zal zurriyoting avloddan-avlodga o‘tib bormoqda. Go‘zallikni, chiroyilikni men orqali his qilding! Lekin mening sendan jahlim chiqdi. Nega bunday deyapsiz? Bugungi kunimga qarang. Mening havom ifloslangan. Mening suvim loyqa va turg‘un. Mening sayg‘oqlarim va o‘rmonimdagi go‘zal kiyiklarim qayoqqa ketdi? Nega mening dashtda chiroyli sayr qiladigan qushlarim kamayib ketdi? Nega mening baliqlarim qirg‘oqda o‘lmoqda? Bugun mendan hamma narsani olsangiz, kelajak avlodlaringiz qanday omon qoladi? “Suvning ham so‘rovi bor”, deysizlar. Bugun men sizga xuddi shu savolni beraman. Iltimos, javob bering. O‘quvchi aytadi. "Agar tabiat haqida gapiradigan bo‘lsak, Semipalatinsk tabiati va uning bugungi ahvoli haqida shunday degan bo‘lardi: Semey, viloyat aholisi! Qayerda mening yam-yashil o‘rmonim? Siz uning daraxtlarini hisob-kitobsiz kesib tashladingiz. Natijada shaharingizdagi shamol tobora kamayib ketdi. Osmonda qum uchmoqda. Va bu sizning sog‘lig‘ingizga qanchalik zarar yetkazishi haqida o‘ylaysizmi? O‘rmoningni tiklagin insoniyat!". O‘quvchi: "Agar tabiat o‘z fikrini bildirsa, Semipalatinsk poligoni haqida shunday degan bo‘lardi: Odamlar, qanday vahshiylik qilganingizni bilasizmi? Nafaqat havomni zaharladingiz, balki avlodlaringizni ham mayib qildingiz. Bu portlashdan qancha odamlar butun umrini yig‘lab o‘tkazdilar? "Buning uchun kim aybdor?" Sinov maydonchasi texnogen fitnadir, vaqti kelib mening havom tozalanar, lekin siz o‘z avlodlaringizning sog‘lig'ini tiklay olasizmi? Tabiat aytadi: "Agar men rassom bo‘lganimda..." (Bu bo‘limda sinfda yaxshi chizgan o‘quvchilarning rasmlari ko‘rgazmaga qo‘yilib, ularning fikrlari tinglanadi). “Agar men shoir bo‘lsam...” (Bu bo‘limda sinfda she’r yozgan o‘quvchilarning she’rlari tinglanadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar boshqa shoirlarning tabiatga bag‘ishlangan she’rlarini hayajon bilan o‘qiydilar). Tabiiy fandan tayyorlangan “Tabiat – yer Onam” videofilmi tomosha qilinadi va bu borada o‘quvchilarning fikr-mulohazalari tinglanadi.Darsni yakunlash bosqichi: “Tilaklar daraxti ” usuli. Dars yakunida o‘quvchilar tabiatga tilak bildiradilar va quyidagi so‘zlarni doskada osilgan daraxtga navbatma-navbat osadilar. Osmonimiz musaffo bo‘lsin! Osmoningizni bulut qoplamasin! Sizning o‘rmoningiz hayvonlar va qushlarga to‘la bo'lsin! Suvingiz toza bo‘lsin! Daryolaringiz, ko‘llaringiz va dengizlaringiz baliqlarga, suv o‘tlariga to‘lsin! O‘rmonlaringiz qizil va yashil gullarga to‘lsin! Kunlaringiz yorug‘ bo‘lsin! Xor: Tabiat – bizning umumiy uyimiz! Uni himoya qilish har birimizning burchimizdir!

Xulosa va tavsiyalar.

Dunyoda paydo bo‘ladigan har qanday yangilik, yangi loyiha, yangi texnologiyani qabul qilib, o‘zlashtira oladigan jamiyatimiz moliyaviy resurslarga boyligini ko‘rish quvonarlidir. Binobarin, ta’lim sohasidagi asosiy strategiyalar yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, shuningdek, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradigan, sifatli ta’lim olish imkonini beruvchi an’anaviy o‘qitish uslublarini rivojlantirishga asoslangan bo‘lishini istaymiz. Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish zarurligi aniq, lekin ishimiz davomida ular o‘qituvchiga faqat qog‘oz, qalam, doska, bo‘r kabi oddiy vositalar sifatida yordam berishini payqadik. Nafaqat rivojlanish, balki aqlli texnologiyalardan foydalanishni ham hisobga olmasak, ulardan o‘quvchilar hayotida foydalanish bo‘yicha sanitariya-gigiyena me’yorlarini ishlab chiqmasak, qat’iy nazorat o‘rnatmasak, “Internetga qaramlik”, “AKT o‘yinlariga qaramlik” kabi xavfli omillar ham bola ruhiyatiga xavf tug‘diradi. Biz bu omillarni to‘liq taqiqlash bilan hal qila olmaymiz. Sanitariya-gigiyena me'yorlariga muvofiq turli xil asboblar bilan ishlash vaqtini cheklash orqali bolaning salohiyati va texnologiya imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan oqilona qarorlar qabul qilish haqida o‘ylashimiz kerak. Shuningdek, yangi modelning yaxshi ishlashi uchun qanday shartlar mavjud?

Malaka oshirish tizimida boshlang‘ich ta’lim guruhi tinglovchilarimiz bilan taqdim etilgan modul negizida shunday amaliy loyihaviy ishlarni loyiha ishlari va mikrodarslar himoyasida "4K"

modeliga asoslangan innovatsion yondashuvga tayangan holda tashkil etsak ko‘zlangan maqsadlarimizga erishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Vaholanki, "4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda foydalanish uchun maxsus shartlarni talab qilmaydi. Masalan, ta’lim fanlarini o‘qitishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarda viktorinalar orqali tanqidiy fikrlash, mashg‘ulot va mashqlar yordamida muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Bu usullarni maktablarda qo‘llash imkoniyati yo‘q, deyish to‘g‘ri emas. Yangi amaliyotda bolalarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon etishi muhimroqdir. O‘quvchilar muammolarga analitik yondashuv bilan yondashishni o‘rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtai nazarini shakllantiradilar. Zero, Ona-tabiatimizga mehr-oqibatni bolajonlarga oila, kichik maktab yoshidan jajji va murg‘ak qalblariga muhrlar ekanmiz, biz pedagoglar AQShlik jurnalist, yozuvchi Mitchel Devid Elbom. ta’kidlaganidek, "Mehr – bu dunyoni tark etganingdan keyin ham barhayot qolish vositasi", - ekanini doimo yodda tutmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Axmetova G.K., Qoraev Z.A., Muxanbetjanova S.T. Elektron ta'lim joriy etilganda o'qituvchilar malakasini oshirishni tashkil etish metodikasi. Olmaota: OAJ "BAO "Orleu", 2012. 418 b.

2. Anonashvili Sh.A. Lisenkova S.N. Shatalov V.F. Pedagogik tadqiqotlar. – Olmaota: Rauan, 1990. – 59-62-betlar.

3. Ismailov A.A., Daminov X.J., Karimberdiyev Q.K., Islomova Z.Sh. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma. – Toshkent: Sharq, 2019. – 91 b.

4. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. Malikova Y.V. – Toshkent: “Novda Edutaiment” nashriyoti, 2023. – 120 b.

5. Malikova Y.V. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. I qism./Malikova Y.V., S.V.Kosyanenko. – Toshkent: “Novda Edutaiment” nashriyoti, 2023. – 136 b.

http://smart.orleu-edu.kz/

http://zkoipk.kz/

Dusanov Elbek Abdusamatovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
E-mail: elbek.89@inbox.uz

FEATURES OF CYBERBULLING IN GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS AND ADOLESCENTS

Annotation. *In this article, the need to form immunity against cyberbullying in students is considered a pressing issue. A general analysis of the negative impact of cyberbullying on mental and emotional health, social isolation, the impact on physical health, and the impact on learning or work activities will be conducted. It has been shown that the socio-psychological mechanisms for protecting adolescents from the influence of the virtual world are influenced by such psychological characteristics as the principles of the virtual world, overcoming behavior, assessing the qualities of leaving the virtual world, ways to prevent internet addiction, and personality accentuation. Qualities that positively ensure the socio-psychological mechanisms of protecting adolescents from the influence of the virtual world: such factors as constructive perception of information on the Internet, perception of time, awareness of the positive and negative features of the Internet, and understanding of information on the Internet are important. According to factor analysis, the stable positive aspect of protecting adolescents from the influence of the virtual world is associated with such psychological types as dysthymic, emotive, excitable, cycloid, and exalted. The results of scientific research on the consequences of pressure on the psyche of adolescents, ways to combat it, the problem of adolescents addicted to virtual games, and the negative qualities that appear in the behavior of adolescents as a result of virtual games and recommendations on their prevention are given regarding the role of parents, teachers, and society in this regard.*

Key words: *aggressive behavior, internet, cyberbullying, information-psychological, psychological and emotional, security, virtual, computer games, dysthymic scale, emotional, thinking, diagnosis, aggressive consciousness.*

ОСОБЕННОСТИ КИБЕРБУЛЛИНГА У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ШКОЛ И ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается актуальная проблема формирования у учащихся иммунитета к кибербуллингу. Будет проведен общий анализ негативного влияния кибербуллинга на психическое и эмоциональное здоровье, социальную изоляцию, влияние на физическое здоровье, а также влияние на учебную или трудовую деятельность. Показано, что на социально-психологические механизмы защиты подростков от влияния виртуального мира влияют такие психологические характеристики, как принципы виртуального мира, преодолевающее поведение, оценка качеств выхода из виртуального мира, способы профилактики интернет-зависимости, акцентуация личности. Качества, которые положительно обеспечивают социально-психологические механизмы защиты подростков от влияния виртуального мира: важны такие факторы, как конструктивное восприятие информации в Интернете, восприятие времени, осознание положительных и отрицательных особенностей Интернета, понимание информации в Интернете. Согласно факторному анализу, стабильный положительный аспект защиты подростков от влияния виртуального мира связан с такими психологическими типами, как дистимический, эмотивный, возбудимый, циклоидный и возвышенный. Приведены результаты научных исследований по последствиям давления на психику подростков, способам борьбы с ним, проблеме подростковой зависимости от виртуальных игр, а также отрицательным качествам, появляющимся в поведении подростков в результате виртуальных игр, и рекомендациям по их профилактике с учетом роли родителей, учителей и общества в этом вопросе.*

Ключевые слова: *агрессивное поведение, интернет, кибербуллинг, информационно-психологическое, психологическое и эмоциональное, безопасность, виртуальное, компьютерные игры, дистимическая шкала, эмоциональное, мышление, диагностика, агрессивное сознание*

UMUMIY O‘RTA TA`LIM MAKTAB O‘QUVCHILARI VA O‘SMIRLARDA KIBERBULLINGNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarda kiberbullingga qarshi immunitetni shakllantirish zarurati dolzarb masala hisoblanadi. Kiberbullingning ruhiy va hissiy salomatlikka salbiy ta’siri, ijtimoiy izolyatsiya, jismoniy salomatlikka ta’siri, o‘qish yoki ish faoliyatiga ta’siri haqida umumiy tahlil qilinadi. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga virtual olam tamoyillari, yengib o‘tuvchi xulq-atvori, virtual olamdan chiqish sifatlarini baholash, internetga qaramlikni oldini olish yo‘llari va shaxs xarakter aksentuatsiyasi kabi psixologik xususiyatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatishi namoyon bo‘ldi. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ijobiy ta’minlovchi sifatlar: internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, vaqtni idrok etish, internetning ijobiy va salbiy xususiyatlarini anglash hamda internetdagi axborotlarni tushunish kabi omillar muhim ekanligi aniqlandi. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning barqaror jihatdan ijobiyligi faktorli analizga ko‘ra: distim, emotiv, qo‘zg‘aluvchan, sikloid hamda ekzaltr kabi psixologik tiplar bilan bog‘liq ekan. O‘smir ruhiyatiga bo‘lgan tazyiq oqibatlari, u bilan kurashish yo‘llari, virtual o‘yinlariga tobe o‘smirlar muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari va virtual o‘yinlari oqibatida o‘smirlar xulqida paydo bo‘ladigan salbiy sifatlar va ularni oldini olish bo‘yicha bunda ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyatning bu boradagi roli xaqida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *agressiv xulq, internet, kiberbulling, axborot-psixologik, ruhiy va hissiy, xavfsizlik, virtual, kompyuter o‘yinlari, distim shkalasi, emotsional, tafakkur, tashxis, tajovuzkorlik ong.*

Kirish. Bizning dunyomizda axborot texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalariga joriy qilingan. Bugungi kunda ko‘p odamlar internetsiz xayotini tasavvur qila olmaydi. Bir tomondan, internet har xil turdagi ma'lumotlarga deyarli vaqt sarflamasdan kirishni ta'minlaydi. Boshqa tomondan, global tarmoqlar ko‘pincha shaxs va jamiyatga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan internet o‘quvchilarning o‘qishi, mehnati va hayotining muhim qismiga aylandi. Butunjahon kompyuter tarmog‘ining o‘quvchi uchun ochadigan imkoniyatlari cheksizdir.

Bu nafaqat ta’lim xizmatlari va global axborot makonidan ma’lumot olish, balki virtual aloqadir. Internet, albatta, ko‘p foyda keltirgan bo‘lsa-da, u ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, ulardan biri kiberbullingdir. Kiberbulling deb raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan bullingga aytiladi. Bu ijtimoiy media, xabar almashish platformalari, o‘yin platformalari va mobil telefonlarda sodir bo‘lishi mumkin. Bu takroriy xatti-harakatlar bo‘lib, nishonga olinganlarni qo‘rqitish, g‘azablantirish yoki sharmanda qilishga qaratilgan. Axborot texnologiyalari bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ularning ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va kundalik faoliyatimizdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi bilan yoshlar orasida kiberbulling holatlari ortib bormoqda. Kiberbulling – bu shaxsga nisbatan onlayn tarzda sodir etiladigan tahdid, haqorat, tahqirlash va boshqa ruhiy zo‘ravonlik shakllaridir. Bu holat o‘quvchilarning psixik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘smirlarni kiberbullingdan himoya qilish, ularda unga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish bugungi dolzarb masalalardan biridir. Kiberbullingga qarshi immunitet hosil qilishning psixologik mexanizmi o‘quvchilarda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda kiberbullingga qarshi immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmini o‘rganish va samarali usullarni ishlab chiqishdir.

O‘smirlarda kiberbullingga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va ularni mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.Yoshlarni kiberxavfsizlik va axborot ma’daniyati sohasida ongli va mas’uliyatli fuqorolar sifatida tarbiyalashdir. Bu jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Kiberbulling tushunchasini va uning psixologik oqibatlarini o‘rganish. O‘quvchilarda kiberbullingga qarshi ruhiy barqarorlik darajasini aniqlash. Psixologik immunitet tushunchasini tahlil qilish. Kiberbullingga qarshi psixologik immunitetni rivojlantiruvchi omillarni aniqlash.

O‘zbekistonda bu maqsadlarni amalga oshirish uchun turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda masalan, “Cyber 10 day” kabi kompleks targ‘ibot tadbirlari orqali aholining kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarini oshirishga qaratilga faoliyatlar o‘tkazilmoqda. Bu tadbirlar orqali yoshlarni kiberjinoyatlardan himoya qilish, ularni kiberxavfsizlik oid bilimlar bilan ta’minlash va kiberbullingning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Olimlarning fikricha, shaxsda agressiv xulq-atvor shakllanishiga bevosita ijtimoiy muhitning tasiri kuchli ekan. Agressivlik, tajovuzkorlik salbiy xulq ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, sub’ektning-sub’ektga bo‘lgan munosabati tushuniladi.

O‘smirlar orasida uchrab turadigan bulling muammosi ko‘p yillar davomida o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi. Olib borilayotgan turli tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining uchdan bir qismi maktabda doimiy yoki vaqti-vaqti bilan zo‘ravonlikning turli shakllariga duch keladilar. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikning bu shakllari asosan verbal xarakterga ega bo‘lib, baqirish, kamsituvchi so‘zlar, haqoratlash, bezorilik, inson sha’ni va qadr-qimmatini ranjitadigan "qo‘pol" hazillardan iborat. Bugungi kunda o‘quvchilarning chorak qismi jismoniy zo‘ravonlik va jismoniy zo‘ravonlik [12] tahdidlariga duch kelmoqda. Maktabda o‘quvchilar orasida ro‘y beradigan bulling muammolari bilan shug‘ullanuvchi psixologlar (L. S. Alekseyeva, A. A. Bochaver, I. S. Berdishev, O. L. Glazman, S. V. Krivsova, D. A. Kutuzova, V. R. Petrosyans va boshqalar) ning ilmiy tadqiqotlarida aniqlanishicha bu muammo azaliy mavzulardan biri bo‘lgan va shunday bo‘lib qolmoqda.

"Bulling" atamasi ilmiy adabiyotlarda faqat o‘tgan asrning 90-yillari boshlarida paydo bo‘lgan, u dastlab, "mobbing" atamasi sifatida qo‘llanilib bir guruh 1093 odamlar tomonidan bir kishini muntazam ravishda ta’qib qilish uchun ishlatiladigan tushuncha sifatida ta’riflangan [7], hamda birinchi marta shved shifokori Peter-Paul Xaynemann tomonidan ishlatilgan. Rus tadqiqotchisi D. Olveus tomonidan “Maktablardagi bulling" deb nomlangan kitob nashr etilgandan so‘ng, chet ellik psixologlar orasida ham "bulling" fenomeniga katta qiziqish paydo bo‘ldi. [16]. Ushbu mavzu tezda jahon psixologiyasining o‘rganish ob’ektiga aylandi hamda bullingning oldini olish va to‘xtatish sohasidagi pedagogik va psixologik tadqiqotlar tez rivojlana boshladi. Britaniyalik tadqiqotchi D. Leynning izlanishlarida bulling hodisasi yetarlicha batafsil yoritilgan bo‘lib, muallif ushbu xodisaning sabablarini va keltirib chiqargan omillarni o‘z asarlaridan birida ta’kidlagan. [10]. 1990-yillarga qadar bunday tadqiqotlar asosan G’arb olimlari (Geynemann, D. Olveus, Leymann, Pikas, Roland, Orton, Tattum, Leyn, Sparksetal) tomonidan olib borilgan va ular jamoatchilik e’tiborini maktab bezoriligi muammosiga qaratishga harakat qilganlar. Keyinchalik, bullingning namoyon bo‘lishi, qurbonlar va bullerlarning psixologik xususiyatlari va turli mamlakatlarda ushbu muammoni hal qilishning umume’tirof etilgan yondashuvlari tasvirlangan eksperimental ma’lumotlar taqdim etila boshlandi. Rossiya psixologlari amaliyotida bulling muammosi uzoq vaqt davomida "izolyatsiya qilingan" ijtimoiy kamchilikning ko‘rsatkichi sifatida talqin qilingan (to‘liq bo‘lmagan oila, "e’tibordan chetda qolgan maktab", vaqtinchalik qiyinchiliklar) bo‘lsa hozirgi vaqtda shafqatsizlik va zo‘ravonlik moddiy, sinfiy, irqiy, madaniy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy va hokazolardan qat’i nazar, aholining barcha qatlamlari va toifalarida sodir bo‘lishi isbotlandi. Olimlar tomonidan bolaning hayoti va rivojlanishidagi "sensor", ya’ni zo‘ravonlikka nisbatan eng sezgir davrlar aniqlandi. Bu davrlar anatomik-fiziologik, gormonal, emotsional-shaxsiy va psixoijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, bular bolani eng zaif holatga keltiradi. Bu davrlardan biri, o‘smirlik davri hisoblanadi. [1, b. 13-14]. Xorijiy tadqiqotchilar A.A. Bochaver va K.D. Xlomovning ilmiy xulosalariga ko‘ra, asosan boshlang‘ich maktab o‘quvchilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’qibga duch keladi, o‘rta va yuqori sinflarda esa bilvosita ta’qib ko‘proq kuzatiladi.

- Kiberbulling va an'anaviy bezorilik o'rtasidagi yana bir farq shundaki, onlayn bezorilikning chegarasi yo'q. Olimlarning ta'kidlashicha, kiberbulling ko'pincha anonim jabrlanuvchi har doim ham o'z jinoyatchisini bilmaydi, virus tarqalishi qisqa vaqt ichida ko'p odamlarni qamrab oladi, jabrlanuvchiga og'ir azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi.

Ushbu hodisaning anonim tabiati tajovuzkorning mas'uliyatini kamaytiradi, olib tashlaydi, u virtual makonda «yuzma-yuz» ayta olmaydigan yoki qilib bilmaydigan narsani aytadi yoki qiladi. Bundan tashqari, an'anaviy bezorilikda bezorilar o'zlarining xatti-harakatlari jabrlanuvchiga qanday ta'sir qilishini kuzatishi mumkin. Onlayn zo'ravonlik bilan bezovtalanuvchi o'z harakatlarining natijasini, jabrlanuvchining azobini «ko'rmaydi» va zo'ravonlik nishonining barcha oqibatlarini hisobga olmaydi. Shuning uchun, bu tajovuzkorning minimal empatiyasiga va uning jabrlanuvchidan ajralishiga olib kelishi mumkin. Kiberbulling hech qanday o'ziga xos fazilatlarni, masalan, oflayn zo'ravonlik uchun A. Bandura, R. Uolterslarning ta'kidlashlaricha, agressiya motivlangan harakatdir, unda me'yor va qoidalar buziladi, u og'riq va azob chekishga olib keladi. Bu yerda qasddan qilingan va instrumental agressiya farqlanadi.

G'arb psixologlarining ishlarida o'smirlik davri agressiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar tobora kengayib, ko'payib bormoqda. Shu bilan bir qatorda o'smirlarda agressiv xulq shakllanishiga sabab bo'luvchi omillardan biri sifatida kompyuter o'yinlari deb e'tirof etilmoqda. Adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, bu muammo bo'yicha olingan tadqiqot natijalariga qarab ikki xil xulosa kelib chiqishi mumkin: ba'zi tadqiqotchilar kompyuter o'yinlari o'smirda agressiv xulq rivojlanishiga sabab bo'ladi degan fikrni olg'a sursalar, ba'zilari bu fikrga mutlaqo teskari bo'lgan fikrni aytadilar, ya'ni ularning fikricha, kompyuter o'yinlari bilan o'smirning agressivligi o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q, balki kompyuter o'yinlari agressiyaning pasayishiga olib kelar ekan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishimizda biz O'zbekistonda kiberbullik masalasi hali to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, global tadqiqotlar bu hodisaning o'smirlar hayotiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Masalan, 2019-yilda o'tkazilgan tadqiqotda kiberbullikka uchragan o'smirlarning 15% dan ortig'i o'z joniga qasd qilishni o'ylaganini bildirgan.

• Ochiq muloqot: O'smirlar bilan ochiq va samimiy suhbatlar o'tkazish, ularning muammolarini tinglash va qo'llab-quvvatlash muhimdir.

• Onlayn xavfsizlikni o'rgatish: O'smirlarni onlayn xavfsizlik haqida o'rgatish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va zararli kontentdan saqlanishni targ'ib qilish zarur.

• Yordam so'rash: Agar o'smir kiberbullik qurboni bo'lsa, psixolog yoki ijtimoiy xizmatlar bilan bog'lanish tavsiya etiladi.

O'smirlar uchun ota-onalar, do'stlar va o'qituvchilardan iborat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi kiberbullingning salbiy ta'sirlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'smirlar o'z muammolarini ota-onalari va do'stlariga aytib berish orqali stressni kamaytirishlari mumkin. Shuningdek, o'qituvchilar ham muhim qo'llab-quvvatlovchi manba bo'lib, ular o'quvchilarga yordam berishlari mumkin.

Shuni takitlab utish joizki virtual kompyuter o'yinlari bilan o'smirlar agressiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadida A. Bass - A. Darkining agressiyani o'rganishga bag'ishlangan metodikasidan foydalandik, chunki bu metodika psixologik tadqiqotlarda, tashxis amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan klassik metodikalar sirasiga kiradi va o'smirlar agressiyasi bo'yicha to'la ma'lumot bera oladi.

A. Bass-A. Darki metodikasi bo'yicha olingan natijalar tahlili o'smirlarda agressivlikka moyil ekanliklarini va bu o'z navbatida bunday o'smirlarda tajovuzkor xulq rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvni qiyinlashishi mumkinligini ko'rsatdi.

Psixolog Deyvid Grossman O'zining «qotillik haqida» kitobida yozishicha, elektron o'yinlar jangovor tayyorgarlikka o'xshaydi, bunda askarlar qotilliklar oldidan tayyorlanadi. Misol uchun: ko'pgina piyoda askarlarda mashq jarayonida odam figurasi singari nishonlarga qarab o'q uzganlarida, ularda qotillikka qarshi g'azablari yo'qolib ketadi.

Tahlil va natijalar.

D. Olveusning tadqiqotlari asosida, aynan 10-14 yoshda jinslar o'rtasidagi farqlar kuchli yaqqol bo'lib, qizlar o'z psixik va jismoniy rivojlanishida o'g'il bolalardan yuqori bo'lganligi aniqlangan. Shunday qilib, biz ham o'smirlik davridagi yigit va qizlarda bullingga xos xususiyatlarini

chuqurroq tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik hamda 13-14 yoshdagi 32 nafar o‘smir bilan eksperiment o‘tkazdik. Ekperiment davomida quyidagi metodlar qo‘llanildi: Bass-Darki so‘rovnomasi, Konfliktdagi hulq-atvor uslubi test-so‘rovnomasi (K. Tomas).

Kuzatuvlarga ko‘ra, qizlar o‘smirlik davrida manipulyatsiya qilish va zo‘ravonlik holatlarini yashirishga ko‘proq moyil bo‘lishadi, lekin ular shaxsan bu holatlarda har doim ham ishtirok etmaydilar. Shuning uchun, qizlar orasida o‘smirlik davrida ko‘proq "yashirin" bullerlar bo‘lishlari mumkin. O’g‘il bolalar o‘smirlik davrida jismoniy agressiyani ko‘rsatishga moyilliklari bilan ajralib turishadi, bu davrga kelib menning o‘ta rivojlanishi tufayli ham ularda bunday holat ro‘y beradi.

Qizlar o‘g‘il bolalarga nisabatan konfliktli vaziyatlarda murosa qilishga intilishadi. O’g‘il bolalar esa o‘zlarini nimalarga qodir ekanliklarini kuchlari orqali ko‘rsatishga moyil bo‘lib, maktabdagi bulling jarayonida tajavvuzkorliklarini "bulling qurbon"ini shaxsan ta’qib qilishadi, Xorijiy mualliflarning tajribalari va eksperiment natijalariga tayangan holda psixologning maktabdagi zo‘ravonlik holatlarini oldini olish va profilaktika qilish jarayonida o‘smirlarning gender xususiyatlarini ham hisobga olishi zararuligi aniqlandi.

-Xulosa va takliflar.

Xavfsiz maktab muhitini yaratish o‘quvchilarga o‘z tengdoshlari va kattalar tomonidan qadrlanishi va qabul qilinishini his qilishlariga yordam beradi. Shuning uchun zamonaviy jamiyatda odamlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamkorlik qadriyatini shakllantirishga katta ahamiyat berish kerak. O‘quvchi shaxsini muvaffaqiyatli rivojlantirish, uning intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishi o‘quvchilarning ota-onalari va o‘qituvchilari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

O‘smirlarda kiberbullyingga qarshi immunitet shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, o‘z-o‘zini anglash, psixologik chidamlilik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zini boshqarish qobiliyati, ma’lumotlarni saralash va inkor etish kabi mexanizmlar bilan bog‘liqdir. Ushbu mexanizmlarni rivojlantirish orqali o‘smirlarning kiberbullyingga qarshi immunitetini kuchaytirish mumkin.

Shuningdek, yoshlarda insoniy munosabatlar masalasida munozaraga kirisha olish malakasini shakllantirish. Uzluksiz ta’lim tizimida bu fazilatlarni shakllantirish uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida amalga oshirilishi amaliy natija beradi.

Foydalanilgan adabyotlar ro‘yxati.

1. Patchin D., Hinduya S. Yozilgan narsa qoladi. Qanday qilib Internet aloqasini xavfsiz va qulay qilish kerak. Moskva: Mann, Ivanov va Ferber, 2020.

2. Xlomov K.D., Davydov D.G., Bochaver A.A. Rossiya o‘quvchilari tajribasida kiberbulling. Psixologiya va huquq. 2019; T. 9. No 2: 276 - 295.

3. Volkova E.N., Tsvetkova L.A., Volkova I.V. O‘quvchilar zo’ravonligining oldini olish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqishning uslubiy asoslari. Sibir psixologik jurnali. 2019; № 74: 88 - 100.

4. Бурлаков И. «Психология компьютерных игры» «Наука и Жизнь» 1999г. 5.Бурменская Г.В. «Возрастное психологическое консультирование» М.1990г.

6. Бочавер А.А., Хломов К.Д. Буллинг как объект исследований и культурный феномен Психология.Журнал Высшей школы экономики.2013.Т.10.№ 3.С.149—159.

Axmatova Gulxayo
Buxoro xalqaro universiteti magistranti
Navoiy viloyati PMM Ijro intizomi bosh mutaxassisi

IJTIMOIY TARMOQLAR VA O‘SMIRLAR PSIXIKASIDA MULOQOT KO‘NIKMALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolamizda zamonaviy davrda keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasi va ruhiy salomatligiga ko‘rsatayotgan ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu mavzu asosida ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari, ularning yoshlar ongi, xulq-atvori, o‘zini anglash va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlarga yangi bilim va imkoniyatlar berish bilan birga, ularni ruhiy stress, nomutanosiblik hissi va ijtimoiy izolyatsiyaga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, ushbu mavzu orqali yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ongli va muvozanatli bo‘lishga o‘rgatishning ahamiyati ham ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *muloqot, kompyuter o‘yinlari, tolerantlik, Telegram, Instagram, TikTok, Facebook, YouTube, internet qaramligi, o‘smir, ruhiy salomatlik, kiberzo‘ravonlik, psixologik bosim, depressiya*

СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ И КОММУНИКАТИВНЫЕ НАВЫКИ В ПОДРОСТКОВОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. *Целью данной статьи является исследование влияния социальных сетей, широко распространенных в современном мире, на психологию и психическое здоровье молодёжи. В рамках данной темы анализируются положительные и отрицательные стороны социальных сетей, их влияние на сознание, поведение, самосознание и социальные отношения молодёжи. Исследования показывают, что социальные сети, предоставляя подросткам новые знания и возможности, также могут приводить к психическому стрессу, чувству дисбаланса и социальной изоляции. В данной теме также подчёркивается важность обучения молодёжи осознанному и сбалансированному использованию социальных сетей.*

Ключевые слова: *общение, компьютерные игры, толерантность, Telegram, Instagram, TikTok, Facebook, YouTube, интернет-зависимость, подросток, психическое здоровье, кибербуллинг, психологическое давление, депрессия.*

SOCIAL NETWORKS AND COMMUNICATION SKILLS IN ADOLESCENT PSYCHOLOGY

Annotation. *The purpose of this article is to study the impact of social networks, which are widespread in the modern world, on the psychology and mental health of young people. This topic analyzes the positive and negative sides of social networks, their impact on the consciousness, behavior, self-awareness and social relations of young people. Research shows that social media, while providing teenagers with new knowledge and opportunities, can also lead to mental stress, feelings of imbalance, and social isolation. This topic also highlights the importance of educating young people about the conscious and balanced use of social media.*

Key words: *communication, computer games, tolerance, Telegram, Instagram, TikTok, Facebook, YouTube, internet addiction, teenager, mental health, cyberbullying, psychological pressure, depression.*

“Vatson, meni eshityapsizmi, - dedi Bell. - Agar eshitayotgan bo‘lsangiz derazaga kelib shlyapangizni silkiting!”.

1876-yil 10-mart kuni aytilgan bu jumla telefonda yangragan birinchi ibora bo‘lib qoldi. Hali 200 yilcha muqaddam odamlar telefon nimaligini tasavvur ham etisha olmasdi. Ilgari masofaga xabar

uzatishda tutun, hushtak, bong, nog‘ora, qo‘ng‘iroq chalishdan, uzoqroqqa xabar berishda oraliq manzillar, choparlardan foydalanilgan. 20-30 yil oldin, kompyuter, smartfon va turli gadjetlar hayratda qabul qilindi. Ammo bugun oddiy kundalik qurilma sifatida qabul qilamiz va foydalanamiz. Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, bugungi yoshlar ongini shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot olish vositasi, balki o‘smirlar uchun muloqot, ijodkorlik va o‘zini namoyon etish maydoniga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar – Telegram, Instagram, TikTok, Facebook, YouTube kabi platformalar hamda turli xil kompyuter o‘yinlari insonlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bunday vositalar ayniqsa o‘smirlar ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu tarmoqlar orqali o‘smirlar do‘stlar bilan muloqot qiladilar, o‘z fikrlarini bildirishadi, ilhom oladilar va o‘zini namoyon etishga intiladilar. Biroq ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot manbai, balki muloqot uslubini shakllantiruvchi kuchli omil ham hisoblanadi.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya’ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o‘qish, o‘yin, ijod qilish va boshqalar) o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir shakllarini o‘z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma’lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo`lib, unga odam hayoti mobaynida o`rganib boradi. Bugungi kunda to‘g‘ri va maqsadli tanlangan (onlayn) kompyuter o‘yinlari (PUBG, Fortnite, Mobile Legends, Dota, ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlarda muloqot (ovozli chat yoki yozma xabarlar orqali), jamoa bo‘lib ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, kelishuvga erishish, tez qaror qabul qilish, guruhdagi munosabatlarda adolat va mas’uliyat hissi, turli millat vakillari bilan muloqot orqali tolerantlik va madaniy xilma-xillikni qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ammo bu jarayonning salbiy jihatlari ham bor: ularning ruhiy salomatligi, o‘ziga baho berish darajasi va ijtimoiy munosabatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘smir farzand ota-onalari bunday qurilmalarnini sotib olishning ijobiy va salbiy tomonlarida aniq tushunishlari kerak va farzandlarini doimiy o‘z nazoratlariga olishlari zarur. Shundagina bunday qurilmalar o‘quvchiga ijobiy ta’sir qilib, o‘rganilayotgan materialni chuqurroq va ongli ravishda o‘zlashtirishga hissa qo‘shadigan turli xil vositalarni tezda birlashtirish, vaqtni tejash va uni ma’lumot bilan to‘ldirish imkoniyatini beradi. Kompyuter va smartfonlarni o‘yinlarisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa o‘smirlik davrida bunday o‘yinlariga ruju qo‘yish holatlari boshqa davrlarga qaraganda ko‘p va kuchliroq holatlarda kuzatiladi. O‘smirlik - shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib yangi hislar, sezgilar, tuyg‘ular paydo bo‘ladi. Bu davrda o‘smirlar o‘zini anglaydi, hayotdagi o‘rnini topishga urinadi, mustaqil fikrlashni o‘rganadi. Ana shu jarayonda internet va ijtimoiy tarmoqlar ularning dunyoqarashini shakllantiruvchi eng faol manba sifatida kirib keladi. Biroq yosh ong hali to‘liq mustahkamlanmaganligi sababli, virtual olamdagi har qanday ta’sir ularga kuchliroq singadi. O‘smirlik davrida fiziologik va psixologik o‘zgarishlar juda ham keskin sur’atlarda amalga oshiraldi. Inson o‘zining “Meni” ham shu davrda rivojlana boshalaydi. Ular o‘zlarining layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlariga va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. O‘smirlarni yosh niholga o‘xshatish mumkin chunki bu davrda ularni qanday parvarish qilib, ularni qaysi tomonga yo‘naltirsak kelajakda aynan shu yo‘nalishda borib o‘z hayot yo‘llarini davom etadilar.

O‘smirlarda muloqot psixologiyasi ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar an’anaviy suhbatni qisqa, tez va so‘zsiz almashinuv shakliga aylantirdi. Emodzilar, stikerlar, GIF va qisqa videolar orqali fikr bildirish odatga aylandi. Bu holat his-tuyg‘ularni ifoda etishni yengillashtirgan bo‘lsa-da, so‘z boyligi va nutq madaniyatini kamaytirish ehtimolini ham oshirmoqda.

Bu yoshda o‘smir uchun tengdoshlar bilan muloqot qilish ehtiyoji kuchayadi, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan muloqot ehtiyoji esa pasayishi mumkin. Tengdoshlar muhitida o‘smir mustaqillikni his qiladi va o‘z shaxsiy munosabatlarini o‘rnatadi. O‘smirlar o‘z huquqlarini himoya qilishga va kattalar nazoratidan xoli bo‘lishga harakat qilishadi. Ularga yosh bolalardek munosabatda

bo‘lishlariga qattiq norozilik bildirishadi. Muloqotda emotsionallik yuqori bo‘lishi mumkin. Kichik masalalar ham kuchli hissiy reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki o‘smir miyasining rivojlanishi hali tugallanmagan. O‘smirlar shaxsiy chegaralarini belgilashga harakat qiladi. Shuning uchun ular ba’zan qisqa javob berishlari yoki stressni boshqarish uchun suhbatdan qochishlari mumkin. O‘smirlar o‘z shaxsiy xususiyatlarini, jumladan, muloqot uslubini ham tengdoshlari bilan solishtiradi. Bu esa ularda g‘urur hissini shakllantirishga yordam beradi.

Bu davrga kelib ota-onalar bilan o‘smirlarning muloqoti ancha murakkab bo‘lishi va ota-onalar o‘smir bilan muloqot uslubini o‘zgartirmasa, nizolar yuzaga kelishi mumkin. O‘smirlar tengdoshlar muhitiga moslashish uchun katta bosimga duch kelishadi. Bu esa xavotirni, noto‘g‘ri hukm qilinishdan qo‘rqishni va suhbatdan qochishni keltirib chiqarishi mumkin. Ba’zi o‘smirlar xavotir ta’sirida yuzma-yuz muloqotdan qochib, online muloqotga, o‘yinlarga va boshqa bog‘lanishlarga berilib ketishi mumkin. Muloqotdagi muammolar, ichki nizolar va zo‘ravonliklar o‘smirning xarakteridagi salbiy xususiyatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bunday muammolarga duch kelmaslik uchun o‘smirlar bilan muloqot vaqtida murakkab yoki uzoq ko‘rsatmalar berishdan saqlanish, oddiy, tushunarli tilni va qisqa jumlalarni ishlatish tavsiya etiladi. O‘smirning hissiyotlarini (g‘azab, xafagarchilik) tan olish va tushunishga harakat qilish zarur. Bu uning nuqtai nazariga hurmatni bildiradi.

O‘smirlarga mustaqillikni his qilish imkonini berish uchun tanlov qilishga ruxsat berish lozim. Bu ularning ishonchini oshiradi. Atrofdagilarning ovoz ohangi, tana harakatlari va yuz ifodalari o‘smir bilan muloqotga kuchli ta’sir qilishi mumkin. Faqat qiyinchiliklar haqida gaplashish o‘rniga, kun davomida sodir bo‘lgan qiziqarli voqealarni muhokama qilib uning ichki dunyosiga kirish va birgalikda kulish va quvnoq lahzalarni o‘tkazish munosabatlarni mustahkamlaydi.

Internet bugungi kunda cheksiz imkoniyatlar maydoni bo‘lib, undan to‘g‘ri va me’yorida foydalanilganda o‘smirlarning bilim saviyasi, intellektual salohiyati va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, biroq bu jarayon faqat ongli va mas’uliyatli yondashuv asosida amalga oshirilgandagina samarali bo‘ladi. Virtual makondagi imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda o‘smirlar o‘z qobiliyatlarini namoyon etadi, bilimlarini mustahkamlaydi va dunyoqarashini kengaytiradi. Aksincha, internetdan nazoratsiz va cheksiz foydalanish ularning ruhiy holati, o‘zini baholashi hamda ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois bugungi kunda ota-onalar, pedagoglar va jamiyat vakillarining asosiy vazifasi yoshlarni internetdan to‘g‘ri foydalanishga, o‘z ruhiy salomatligini asrashga o‘rgatishdan iboratdir. Zero, sog‘lom fikrlovchi, mustaqil va ongli avlod jamiyat va millat taraqqiyotining eng muhim boyligi hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar va internet resurslari o‘smirlar uchun bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, YouTube, Telegram, TikTok kabi platformalarda turli fanlarga oid video darslar, testlar va interaktiv mashg‘ulotlar mavjud bo‘lib, ular bilim olish jarayonini yanada qulaylashtiradi. Shuningdek, virtual makon o‘smirlar uchun ijodkorlik maydoniga aylanishi mumkin: blog yuritish, musiqiy va tasviriy san’at bilan shug‘ullanish, videomontaj qilish orqali ular o‘zini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli madaniyat vakillari bilan muloqot o‘rnatish esa o‘smirlarning ijtimoiy faolligini oshirib, dunyoqarashini boyitadi. Bundan tashqari, ko‘plab sahifalarda hayotiy maslahatlar, psixologik yordam va ijobiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi motivatsion kontent joylashtirilishi yoshlarning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ayrim kompyuter o‘yinlari ham faqat ko‘ngilochar vosita bo‘lib qolmay, balki jamoaviylik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Masalan, Minecraft o‘yini ijodkorlik va hamkorlik orqali umumiy natijaga erishishni o‘rgatsa, Dota 2 har bir ishtirokchining mas’uliyati va strategiyadagi o‘rnining muhimligini namoyon etadi. PUBG yoki Valorant kabi o‘yinlar esa tezkor fikrlash, muvofiqlashgan harakat va o‘zaro ishonch asosida g‘alabaga erishishni talab qiladi. Bunday o‘yinlarda qatnashish orqali o‘smirlar jamoa ichida o‘z vazifasini anglash, boshqalarning fikrini inobatga olish va umumiy muvaffaqiyat uchun shaxsiy hissasini qo‘shish ko‘nikmalarini egallaydi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning o‘smirlar psixikasiga salbiy ta’siri ham tobora kuchayib bormoqda. Internetga qaramlik, vaqtni behuda sarflash, uyqu rejimining buzilishi va o‘qishga bo‘lgan e’tiborning kamayishi o‘smirning ruhiy holatini izdan chiqaradi. Kiberbulling,

ya’ni virtual muhitda haqorat, tahdid va masxara qilish holatlari depressiya va o‘ziga past baho hissining kuchayishiga olib keladi. Boshqalarning “ideal” hayoti bilan o‘zini doimiy taqqoslash esa psixologik bosim, norozilik, hasad va tushkunlikni yuzaga keltiradi. Ayrim zararli kontentlar giyohvandlik, zo‘ravonlik, suitsid va yengil-elpi qadriyatlarni targ‘ib qilib, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, virtual hayotga haddan ortiq sho‘ng‘ish real muloqotning kamayishiga va ijtimoiy izolyatsiyaga sabab bo‘ladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar va yoshlarning ruhiy salomatligi o‘rtasidagi munosabatlar bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sifatida o‘rganilmoqda. Ayniqsa, 16–17 yoshli o‘smirlar orasida klinik depressiya holatlarining ko‘payishi tashvishli holatdir. Ushbu holatning ortishiga o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, oilaviy muammolar, ijtimoiy bosim, salbiy munosabatlar va ijtimoiy izolyatsiya kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadigan vaqti sezilarli darajada ortgani ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mutaxassislar yoshlarni internetning salbiy ta’siridan himoya qilish uchun bir qator choralarni taklif etadi. Jumladan, media savodxonlikni oshirish orqali yoshlarni tanqidiy fikrlashga va internetdagi axborotni tahlil qilishga o‘rgatish muhimdir. Ta’lim muassasalarida psixologik maslahat markazlarini faoliyatini kuchaytirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, ijtimoiy tarmoqlarga sarflanadigan vaqtni cheklash va sport hamda ijodiy faoliyatga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning farzandlarining internetdagi faoliyatini nazorat qilishi, xavfli saytlarni cheklashi va ochiq, ishonchli muloqotni yo‘lga qo‘yishi ham muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yoshlarimizning ongi va dunyoqarashi shubhali va zararli axborotlar emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan manbalar orqali shakllanishi lozim. Internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizda muhim o‘rin egallagan bo‘lsa-da, ular birinchi darajali ehtiyoj emas, balki ongli ravishda foydalaniladigan vosita bo‘lib qolishi kerak. Internetdan butunlay voz kechish emas, balki undan me’yorida va maqsadli foydalanish yosh avlodni salbiy ta’sirlardan himoya qiladi. Vaqtning eng qimmatli boylik ekanligini anglagan, mustahkam irodali yoshlar internetning turli xurujlariga qarshi immunitetga ega bo‘ladi. Zero, bizga berilgan umrni qanday va nimaga sarflash har bir insonning o‘z qo‘lidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxat.

1. Xaydarov, F. I., Xalilova, N. I. Umumiy psixologiya. – Toshkent: INNOVATSIYA-ZIYO,
2. Nazarova, G‘. R. Rivojlanish psixologiyasi. – Buxoro: Ilm nuri, 2021.
3. Jumaqulova, Sh. Internet tarmoqlaridagi ba’zi saytlarning o‘smir psixikasiga salbiy ta’siri 2024.
4. Kubayev, M. Shaxsdagi internet va kompyuter o‘yinlariga tobelikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 2021.

Hamdamova Ra'no G'ayratovna
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi, Biologiya fan metodisti

QIZIL KITOBGA KIRITILGAN ENDEMIK VA NOYOB O'SIMLIKLARNING POPULYATSION HOLATINI BAHOLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan endemik va noyob o'simlik turlari populyatsiyalarining hozirgi holatini baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi senopopulyatsiyalarning ontogenetik (yosh) va vitalitet (hayotiylik) tuzilmalarini tahlil qilish orqali ularning barqarorligini aniqlashdan iborat. Maqolada populyatsion ontogenetik usullardan foydalanish, jumladan, o'simliklarning yosh holatlarini aniqlash va ontogenetik spektrlarni tuzish, shuningdek, vitalitet tahlili orqali populyatsiyaning holatini baholash metodikasi yoritilgan. Gipotetik populyatsiyalar misolida olingan ma'lumotlar jadvallar, diagrammalar va grafiklar ko'rinishida taqdim etilgan va tahlil qilingan. Noyob turlarni saqlab qolish uchun populyatsiyalar holatini muntazam monitoring qilish va olingan ma'lumotlar asosida tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *qizil kitob, noyob o'simliklar, endemik turlar, populyatsiya, senopopulyatsiya, ontogenetik struktura, vitalitet tahlili, monitoring, bioxilma-xillikni saqlash.*

ASSESSMENT OF THE POPULATION STATUS OF ENDEMIC AND RARE PLANTS INCLUDED IN THE RED BOOK

Abstract. *This article considers scientific and methodological approaches to assessing the current state of populations of endemic and rare plant species included in the Red Book of Uzbekistan. The main goal of the study is to determine the stability of cenopopulations by analyzing their ontogenetic (age) and vitality (vitality) structures. The article covers the use of population ontogenetic methods, including determining the age status of plants and constructing ontogenetic spectra, as well as the methodology for assessing the state of the population through vitality analysis. The data obtained on the example of hypothetical populations are presented and analyzed in the form of tables, diagrams and graphs. The need for regular monitoring of the state of populations and the development of nature protection measures based on the data obtained is emphasized in order to preserve rare species.*

Key words: *Red Book, rare plants, endemic species, population, coenopopulation, ontogenetic structure, vitality analysis, monitoring, biodiversity conservation*

ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ ПОПУЛЯЦИЙ ЭНДЕМИЧНЫХ И РЕДКИХ РАСТЕНИЙ, ЗАНЕСЕННЫХ В КРАСНУЮ КНИГУ

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yordamchi maktablarda tahsil olayotgan maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion tarbiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish texnologiyasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Korreksion ta’sirning samaradorligini oshirish uchun ta’lim jarayoniga ijtimoiy faoliyat elementlarini integratsiyalash zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *korreksion tarbiya, ijtimoiy moslashuv, ta’lim texnologiyasi, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar.*

ТЕХНОЛОГИЯ ИНТЕГРАЦИИ КОРРЕКЦИОННОГО ВОСПИТАНИЯ И СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ НА УРОКАХ ВСПОМОГАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически и практическими аспектами анализируется технология интеграции коррекционной работы и социальной адаптации учащихся с особыми образовательными потребностями, обучающихся в специализированных вспомогательных школах. Обосновывается необходимость интеграции элементов социальной деятельности в образовательный процесс для повышения эффективности коррекционного воздействия.*

Ключевые слова: *коррекционное воспитание, социальная адаптация, образовательные технологии, обучающиеся с особыми потребностями.*

TECHNOLOGY OF INTEGRATING CORRECTIONAL EDUCATION AND SOCIAL ADAPTATION IN SPECIAL SCHOOL LESSONS

Abstract. *This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the technology for integrating correctional education and social adaptation processes for students with special educational needs studying in specialized auxiliary schools. The necessity of integrating elements of social activities into the educational process to enhance the effectiveness of correctional intervention is substantiated.*

Key words: *corrective education, social adaptation, educational technology, students with special needs.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa maxsus ehtiyojli bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Yordamchi maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning rivojlanish xususiyatlari ularning intellektual, emotsional va ijtimoiy faoliyatlarida muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Shu bois, bu toifadagi o‘quvchilarga ta’lim berishda nafaqat bilim berish, balki ularning shaxsiy fazilatlarini, muomala madaniyatini va jamiyatga moslashuvini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv esa korreksion tarbiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlarining uyg‘un holda olib borilishini taqozo etadi.

Amaliyotda bu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirishda ta’lim texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish samaradorlikni oshiradi. Yordamchi maktab sharoitida korreksion tarbiya elementlarini dars mazmuniga integratsiyalash, o‘quvchilarning kundalik hayotga tayyorlanishini ta’minlash bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy moslashuv darajasini ham oshiradi. Bu esa individual yondashuv, differensial ta’lim uslublari va pedagogik innovatsiyalarni birgalikda qo‘llash orqali

amalga oshiriladi. Shu jihatdan, korreksion-pedagogik faoliyatni ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish yordamchi maktablarda samarali ta'lim va tarbiya berishning muhim omilidir.


Metodlar. Korreksion tarbiya texnologiyasi, imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, inklyuziv ta'lim tamoyillarini amalga oshirish va korreksion pedagogikaning huquqiy hamda metodik asoslarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda, o'quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari inobatga olinadi. Yillar davomida yosh avlodni tarbiyalash masalasi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Sharq mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr al-Farobiy va al-Biruniy ham rivojlanishida nogironligi bo'lgan bolalarning kognitiv faoliyatiga oid qimmatli fikrlar bildirishgan. Ibn Sino birinchi bo'lib aqliy funksiyalar ma'lum markazlar faoliyatiga bog'liq ekanligini taklif qilgan.

Rossiyalik pedagog, psixolog olim L. S. Vygotskiy korreksion tarbiya masalalariga katta e'tibor qaratgan va uning nazariyalari bolalar psixologiyasi, ayniqsa, rivojlanish nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning korreksion tarbiya sohasidagi ishlari asosan bir qancha yo'nalishlarda olib borilgan:

Masalan: **Psixologik rivojlanish va muloqotning roli:** ushbu yo'nalishda Vygotskiy rivojlanish nogironligi bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishiga ijtimoiy muloqotning ta'sirini o'rganib, bu jarayonda bolalar o'zlariga hamroh bo'lgan kattalar yoki tengdoshlar yordamida kognitiv va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkinligini ko'rsatgan. U, xususan, bolalarning fikrlash va tushunish qobiliyatlari ijtimoiy o'zaro aloqalar orqali shakllanadi, deb ta'kidlagan.

Keyingi asosiy yo'nalishlaridan biri **"Hududiy rivojlanish" (ZPD) nazariyasi:** Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan eng muhim konseptsiyalardan biri bu "hududiy rivojlanish" (ZPD – Zone of Proximal Development) nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra, bolalar o'zlarining mustaqil ravishda bajaradigan vazifalari va yordam bilan bajariladigan vazifalari o'rtasida farq bor. Korreksion tarbiya jarayonida bu zonani aniqlash va bolalarga mos yordam ko'rsatish kerak. Bu nazariya, ayniqsa, rivojlanishida nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval ilmiy asoslari



Yordamchi maktab o'quvchilarining individual xususiyatlarini, rivojlanish darajasini, ijtimoiy moslashuv va korreksion ehtiyojlarini aniqlash uchun amalga oshiriladigan tizimli va ilmiy asoslangan tadqiqotlar majmuasidan biri bu diagnostik bosqich hisoblanadi. Diagnostik bosqichda o'quvchilarning kognitiv, emotsional-irodaviy, nutqiy va jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari chuqur o'rganiladi. Bu jarayon nafaqat bola hozirda nimalarga qodirligini, balki uning rivojlanish istiqbollarini ham aniqlashga xizmat qiladi. O'qituvchi va mutaxassislar ZPD tamoyillariga tayangan holda bolaning mustaqil bajarishi mumkin bo'lgan vazifalar va qo'llab-quvvatlash orqali bajara oladigan faoliyat turlarini aniqlab, individual ta'lim-tarbiya rejasini ishlab chiqadilar. Natijada, korreksion ishlar maqsadli, tizimli va samarali yo'naltirilgan bo'lib, har bir o'quvchining imkoniyatlari bosqichma-bosqich kengaytiriladi. Diagnostikaning puxta tashkil etilishi korreksion-ta'lim jarayonini maqsadli rejalashtirish, rivojlanish dinamikasini kuzatib borish va har bir bolaning real imkoniyatlariga tayangan holda samarali pedagogik yordam ko'rsatish imkonini beradi. Mutaxassislar- defektolog, psixolog, logoped va ijtimoiy pedagoglar - Vygotskiyning ZPD

tamoyillariga tayanib, bolaning mustaqil bajarishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari hamda kattalar yoki tengdoshlar yordami bilan egallashi mumkin bo‘lgan ko‘nikmalar o‘rtasidagi farqni aniqlaydilar.

2-jadval Kuzatuv kartasi

Kuzatuv kartasi - o‘quvchining asosiy rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli kuzatuv va baholash uchun mo‘ljallangan hujjat hisoblanadi.

№	Diagnostik mezonlar	Baholash (1-5 ball)	Izohlar
1. 2. 3. 4. 5. 6.	Kongnitiv faoliyat Nutq va muloqot qobiliyati Ijtimoiy moslashuv Emotsional barqarorlik Xulq-atvor Jismoniy rivojlanish va motorika	M: 5 ball juda yaxshi 4 ball yaxshi 3 ball o‘rta 2 ball past ko‘rsatkich 1 ball juda past	Diqqatni jamlash, xotira va fikrlash darajasi Til qobiliyati, so‘z boyligi, ifoda imkoniyati Guruh bilan ishlash Stressga chidamlilik Ijtimoiy qoidalarni qabul qilish Motor ko‘nikmalar

Kuzatuv kartasi yordamida o‘quvchilarning individual rivojlanish darajasi, xulq-atvori, nutq va ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari tizimli ravishda aniqlanadi. Bu esa korreksion pedagogik yordamni maqsadli va samarali tashkil etishga imkon beradi.

Ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan, kuzatuv kartasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Monitoring funksiyasi - o‘quvchining rivojlanish jarayonini bosqichma-bosqich qayd etish va dinamikasini tahlil qilish.

Diagnostika funksiyasi - mavjud bilim va ko‘nikmalar darajasini belgilash, muammoli nuqtalarni aniqlash.

Prognoz funksiyasi - o‘quvchining keyingi rivojlanish ehtiyojlarini ilmiy asosda oldindan belgilash.

Korreksion funksiyasi - aniqlangan natijalarga ko‘ra ta’lim mazmuni va usullarini moslashtirish, rivojlantiruvchi choralarni ishlab chiqish.

Refleksiv funksiyasi - o‘quvchi va pedagogning o‘z faoliyatini baholashi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyalarini shakllantirishi kuzatiladi.

Kuzatuv kartasi nafaqat baholash vositasi, balki ta’lim jarayonini ilmiy asosda boshqarish, o‘quvchining individual o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va rivojlanishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvni amalga oshirishda muhim metodik hujjat hisoblanadi.

Natijalar. Mazkur maqolada keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarda korreksion tarbiya ishlarini tashkil etish texnologiyasining qo‘llanilishi ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Birinchidan, individual yondashuv va maxsus metodikalar yordamida o‘quvchilarning o‘rganish jarayonidagi qiyinchiliklari sezilarli darajada kamayadi hamda ularning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi. Ikkinchidan, sinf xonalarining va ta’lim muhitining moslashtirilishi bolalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Bu esa ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasiga yordam beradi. Yuqoridagi 1- diagnostik jadvalda ko‘rsatilganidek diagnostik tahlil yordamida o‘quvchilarning psixologik-pedagogik holati aniq tasvirlanib, ularga individual va samarali yordam ko‘rsatish uchun asos yaratiladi.

2-jadvaldagi Kuzatuv kartasi natijasida o‘quvchida bu nafaqat bolaning rivojlanish ko‘rsatkichlarini baholash vositasi, balki korreksion-pedagogik ishlar samaradorligini oshiruvchi, ilmiy asoslangan metodik yondashuv hisoblanadi. Kuzatuv orqali aniqlangan holatlar o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Lev Semyonovich Vygotskiy (1896–1934) tomonidan ishlab chiqilgan Yaqin Rivojlanish Zonasi (ZPD) nazariyasi ta’lim va tarbiya jarayonlarida ijtimoiy-madaniy muhitning ahamiyatini ta’kidlaydi hamda shaxsning potensial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda o‘rganish jarayonining

muhimligini ko‘rsatadi. ZPD konsepsiyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning mavjud rivojlanish darajasi bilan mustaqil bajaradigan vazifalari va yordam bilan bajarishi mumkin bo‘lgan vazifalari orasidagi farq aniqlanadi. Bu farq ularning potensial rivojlanish maydonini tashkil etadi. Natijada, pedagoglar o‘quvchilarning haqiqiy imkoniyatlarini aniqlab, shaxsiylashtirilgan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va diagnostika usullari ZPDga asoslanib ishlab chiqilgan. Bu esa ta’lim jarayonida individual ehtiyojlarni hisobga olish va o‘quvchilarning qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa. Maqolada ta’kidlanganidek, korreksion tarbiya ishlarini tashkil etish texnologiyasi ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarda rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olib, ularning ta’lim olishdagi qiyinchiliklarini kamaytiradi va motivatsiyasini oshiradi. Mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar, shuningdek, Vygotskiyning ZPD nazariyasi kabi zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, korreksion tarbiya texnologiyasining amaliy samaradorligini ta’minlashda asosiy ilmiy poydevor vazifasini bajaradi. Pedagoglarning malakasini oshirish va ta’lim muhitini moslashtirish orqali ta’lim sifatini yanada yaxshilash mumkinligi aniqlandi.

Yordamchi maktab sharoitida korreksion tarbiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini uyg‘unlashtirish zamonaviy maxsus pedagogikaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni faqat bilim bilan qurollantirishni emas, balki ularni real hayotga, mustaqil faoliyatga va jamiyatda munosib o‘rin egallashga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Korreksion o‘quv-tarbiya jarayoniga differensial yondashuv, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan metodlar hamda ijtimoiy tajribani bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmlari asos qilib olinadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yordamchi maktabda korreksion tarbiyani ijtimoiy moslashuv bilan integratsiya qilish ta’lim mazmunini individuallashtirish, turli rivojlanish darajasiga ega bolalarning ehtiyojlarini hisobga olish va har bir o‘quvchi uchun mos pedagogik sharoit yaratish orqali yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi. Bu esa o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichiga, kasb-hunar egallashga hamda jamiyatda to‘laqonli hayot kechirishiga zamin yaratadi. O‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, muloqot ko‘nikmalarini, kundalik hayotga oid amaliy malakalarni va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini mustahkamlaydi. Dars jarayonida korreksion vazifalar bilan ijtimoiy moslashuv elementlarining uyg‘unlashuvi o‘quvchi shaxsida mustaqillik, mas’uliyat, o‘ziga bo‘lgan ishonch va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Korreksion ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik jarayonning tizimli rejalashtirilishi, diagnostika natijalariga tayangan holda individual rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va ularni izchil tatbiq etishga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarni chuqur o‘rganish, ularning rivojlanish dinamikasini muntazam monitoring qilish va pedagogik strategiyalarni moslashtirib borish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quvchilarning intellektual va psixologik rivojlanishiga ko‘maklashadi, balki ularda mustaqil fikrlash, shaxsiy faollik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Korreksion ta’limning ilmiy asoslangan tashkiliy mexanizmlarini qo‘llash yordamchi maktabdagi ta’lim sifatining barqaror oshishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy maxsus pedagogikaning rivojlanish tendensiyalari o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan individual ta’lim traektoriyalarini yaratishni talab etadi. Bu esa pedagoglardan o‘quvchilarning bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy holati, kommunikativ imkoniyatlari hamda ijtimoiy kompetensiyalarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Integrativ metodlar va inklyuziv yondashuv elementlarini korreksion ta’lim bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning rivojlanish sur’atini tezlashtiradi va ularni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy muhitning qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida shakllantirilishi bolaning shaxsiy rivojini yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan ta’limni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy va huquqiy tashabbuslarning mazmun-mohiyatini tasdiqlaydi va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kelajakda, korreksion tarbiya ishlarini yanada samarali tashkil etish uchun pedagoglarning malakasini oshirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish hamda o‘quvchilarning individual rivojlanishiga ko‘proq e’tibor qaratish zarur.

Korreksion tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish istiqbollari sifatida ilmiy-metodik resurslarni kengaytirish, psixologik-pedagogik xizmatlarni modernizatsiya qilish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli diagnostika vositalari, adaptiv ta’lim platformalari va multimodal o‘quv resurslarining qo‘llanilishi rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, korreksion-ta’limiy jarayonning oilaviy muhitda davom ettirilishini ta’minlash o‘quvchining rivojlanish samaradorligini yanada oshiradi. Bularning barchasi yordamchi maktablarda korreksion tarbiyani yuqori sifat bosqichiga olib chiqish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Raxmatova, X. A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent, 2021.
2. Raxmanova, V. S. Defektologiya asoslari (korreksion pedagogika). – Toshkent: Niso Poligraf, 2017.
3. Khan, S. A. The use of assistive technologies in special education. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
4. Solovyova, T. A., Arinushkina, A. A., Kochetova, A. A. Educational Management and Special Educational Needs. – Springer, 2024.
5. Raximov, A. A., Otamurotov, I. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishni takomillashtirishda xalq hunarmandchiligidan foydalanish “Inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyat sari: strategiyalar, tajribalar va zamonaviy texnologiyalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2024-yil 17-may.
6. Qodirova, F. U., Pulatova, D. A. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. – Chirchiq: Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2022.

Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
E-mail:bunyoddilfuz@gmail.com

O'YIN ORQALI RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM METODLARINI JORIY ETISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida o'yin orqali rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini joriy etishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Muallif tomonidan o'yin faoliyatining bola shaxsining har tomonlama - intellektual, ijtimoiy, nutqiy, jismoniy va emosional rivojlanishidagi o'rni yoritilgan. O'yin metodi orqali ta'lim jarayonini tashkil etishning afzalliklari, o'yin turlarining ta'limiy ahamiyati, shuningdek, didaktik, rolli, ijodiy, konstruktor, harakatli va ilmiy o'yinlarning tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi imkoniyatlari keng yoritib berilgan.*

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin faoliyatini to'g'ri rejalashtirish va metodik jihatdan asoslash bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, ijtimoiylashuv, hamkorlikda ishlash, muammoni hal qilish va hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, maqolada ta'lim amaliyotida o'yin metodlarini qo'llashda uchraydigan muammolar – resurslarning cheklanganligi, metodik yondashuvlarning bir xilligi va tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi darajasi tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *o'yin, rivojlantiruvchi ta'lim, maktabgacha ta'lim, o'yin metodlari, didaktik o'yin, rolli o'yin, ijodiy o'yin, harakatli o'yin, pedagogik texnologiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, bolalar rivoji, kompetensiyaviy yondashuv.*

INTRODUCTION OF DEVELOPMENTAL EDUCATION METHODS THROUGH GAMES

Abstract. *This article analyzes the scientific, theoretical and practical foundations of the introduction of developmental educational methods through play in the preschool education system. The author highlights the role of play activities in the comprehensive development of the child's personality - intellectual, social, speech, physical and emotional. The advantages of organizing the educational process through the play method, the educational value of types of games, as well as the educational and developmental capabilities of didactic, role-playing, creative, constructive, active and scientific games are widely highlighted.*

The results of the study show that proper planning and methodological substantiation of play activities serve to form in children the skills of independent thinking, creativity, socialization, teamwork, problem solving and making the right decisions in life situations.

The article also analyzes the problems encountered in the use of game methods in educational practice - limited resources, uniformity of methodological approaches, and the level of professional training of educators, and provides suggestions and recommendations for their elimination.

Key words: *game, developmental education, preschool education, game methods, didactic game, role-playing game, creative game, action game, pedagogical technology, person-centered education, child development, competency-based approach.*

ВНЕДРЕНИЕ МЕТОДОВ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБУЧЕНИЯ ЧЕРЕЗ ИГРЫ

Аннотация. *В статье анализируются научно-теоретические и практические основы внедрения игровых методов обучения в систему дошкольного образования. Автором освещается роль игровой деятельности во всестороннем развитии личности ребенка – интеллектуальном, социальном, речевом, физическом и эмоциональном. Широко освещаются преимущества организации образовательного процесса игровым методом,*

воспитательная ценность игровых видов, а также образовательные и развивающие возможности дидактических, ролевых, творческих, конструктивных, подвижных и научных игр.

Результаты исследования показывают, что грамотное планирование и методическое обоснование игровой деятельности способствуют формированию у детей навыков самостоятельного мышления, творчества, социализации, командной работы, решения проблем и принятия правильных решений в жизненных ситуациях.

В статье также анализируются проблемы, возникающие при использовании игровых методов в образовательной практике – ограниченность ресурсов, однообразие методических подходов, уровень профессиональной подготовки воспитателей, и даются предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: *игра, развивающее обучение, дошкольное образование, игровые методы, дидактическая игра, ролевая игра, творческая игра, подвижная игра, педагогическая технология, личностно-ориентированное обучение, развитие ребенка, компетентностный подход.*

Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning intellektual, ijtimoiy, nutqiy, jismoniy va emosional salohiyatini ochish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida bola rivojining asosi shakllanishi inobatga olinsa, bu jarayonda ta’limning shakl va uslublari, metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shular orasida eng samarali va tabiiy yondashuvlardan biri bu – o‘yin orqali rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini joriy etishdir.

O‘yin – bu bolalar uchun tabiiy ehtiyojdir. Bola o‘yin orqali atrof-muhitni o‘rganadi, muloqot qiladi, harakatlanadi, his-tuyg‘ularini ifodalaydi va ijod qiladi. Rivojlantiruvchi o‘yinlar esa bolada muayyan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, tafakkur, tasavvur, xotira, nutq, diqqat, motorika kabi psixologik funksiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogikada konstruktiv, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o‘yin metodlarini ta’lim jarayoniga joriy qilish orqali nafaqat bolalarning bilim olishini, balki ularning mustaqil fikrlash, ijod qilish, guruhda ishlash va hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini ham shakllantirish mumkin.

Shuningdek, milliy dastur va konsepsiyalarda ham maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda o‘yin texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Xususan, 2030-yilgacha mo‘ljallangan Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish strategiyasi ham innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, o‘yin asosidagi ta’lim shakllarini keng joriy etishni nazarda tutadi.

Demak, bu mavzuni o‘rganish orqali:

bolalar rivojlanishida o‘yin metodlarining ilmiy-nazariy asoslari aniqlanadi;

real ta’lim jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinadi;

ilg‘or tajriba va tavsiyalar ishlab chiqiladi;

pedagoglarga amaliy ko‘mak beriladi.

Mazkur loyiha nafaqat maktabgacha ta’lim tizimi uchun dolzarb, balki ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi metodik yechimlarni taklif etish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik nuqtayi nazardan, o‘yin – bu ta’limning tabiiy shakli hisoblanadi. U orqali ta’limiy maqsadlar yengil va quvnoq tarzda, bolalarning faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi. O‘yin metodi – didaktikaning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, quyidagi pedagogik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

Bilim berish: O‘yin orqali bola yangi axborotlarni tezroq va qiziqarli tarzda o‘zlashtiradi. Masalan, ranglar, sonlar, shakllar, harflar o‘yinda yaxshiroq esda qoladi.

Ko‘nikmalarni shakllantirish: O‘yinlar orqali nutq, mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, muvofiqlashtirish, eslab qolish, ifodali fikrlash kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Ijtimoiylashtirish: Guruhli o‘yinlar orqali bola jamoadorlik, tengqurlari bilan muloqot qilish, navbat kutish, nizolarni hal qilish kabi ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarini egallaydi.

Tarbiya berish: O‘yin orqali axloqiy, estetik, irodaviy sifatlar (mehr-shafqat, halollik, sabr-toqat, g‘alabaga intilish) tarbiyalanadi.

O‘yin turlari va ularning ta’limiy ahamiyati
Turli o‘yin turlari bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi

O‘yin turi	Ta’limiy ahamiyati
Didaktik o‘yinlar	Bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash
Rolli o‘yinlar	Ijtimoiy rollarni tushunish, emotsional sezgirlik
Harakatli o‘yinlar	Jismoniy rivojlanish, koordinatsiya, tezlik
Dramatik o‘yinlar	Ijodiylik, ifodali nutq, tasavvur
Qurilish-o‘yinlari	Fazoviy fikrlash, mantiqiy tartib, mehnatga bo‘lgan munosabat

O‘yin va rivojlantiruvchi ta’lim uyg‘unligi

Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy tamoyillari hisoblangan individual yondashuv, faoliyatga tayangan o‘rganish va bolaga erkinlik berish jarayoni aynan o‘yin faoliyatida eng samarali tarzda amalga oshadi. O‘yin bolaning tabiiy ehtiyojlariga mos bo‘lgan faoliyat turi bo‘lib, u bolani faollikka undaydi, tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘yin jarayonida bolaning nutqi, diqqat-e’tibori, xotirasi va tafakkuri quvnoq hamda erkin muhitda shakllanadi, bu esa bilimlarni oson va mustahkam o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

O‘yin faoliyatining muhim turlaridan biri rolli o‘yinlar bo‘lib, ular bolalarga turli ijtimoiy vazifalarni bajarish, muloqot qilish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Rolli o‘yinlar orqali bola turli kasblar va ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi, empatiya va ijtimoiy tushunish qobiliyati shakllanadi. Masalan, “doktor va bemor” o‘yini orqali bolalar sog‘liqni saqlash haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo‘lib, o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o‘rganadi. “Do‘kon va xaridor” o‘yini esa savdo-sotiq jarayoni, narx belgilash va muloqot madaniyatini anglashga yordam beradi. Bunday o‘yinlar bolalarda turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Konstruktor o‘yinlari bolalarning fazoviy tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va ijodkorligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Lego bloklari va qurilish o‘yinlari orqali bolalar shakl, o‘lcham va tuzilishlar bilan ishlashni o‘rganadi, muammoli vaziyatlarda yangicha yechim topishga harakat qiladi. “Qurilish maydoni” kabi o‘yinlar bolalarda fazoviy tasavvurni mustahkamlab, obyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni anglashga yordam beradi.

San’at va ijodiy o‘yinlar bolalarning tasavvuri, estetik didi va hissiy intellektini rivojlantiradi. Rasm chizish, bo‘yash, kollaj yaratish kabi faoliyatlar orqali bola o‘z fikr va his-tuyg‘ularini vizual shaklda ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Musiqiy va raqsli o‘yinlar esa ritmni his qilish, jismoniy harakatlarni uyg‘unlashtirish va emotsional ifodani kuchaytiradi. Bunday o‘yinlar bolalarda o‘z-o‘ziga ishonch va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Ilm-fan va tabiatga oid o‘yinlar bolalarning atrof-muhitni bilishiga, tabiat hodisalarini tushunishiga xizmat qiladi. Ekologik o‘yinlar orqali bolalarda tabiatni asrash, ekologik mas’uliyat va kuzatuvchanlik shakllanadi. “Qushlar va o‘simliklar” kabi o‘yinlar biologik bilimlarni kengaytirsa, kichik tajribalar orqali o‘tkaziladigan ilmiy o‘yinlar bolalarni fizika va kimyo asoslari bilan tanishtiradi hamda ilmiy tafakkurni rivojlantiradi.

Jismoniy va harakatli o‘yinlar bolalarning sog‘lom rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Futbol, basketbol kabi jamoaviy o‘yinlar koordinatsiya, tezkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Ko‘prikdan o‘tish” kabi harakatli o‘yinlar esa muvozanatni saqlash va motor ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida markazlar asosida tashkil etilgan o‘yinli faoliyat ham yuqori samaradorlikka ega. Qurish-yasash va matematika markazida konstruktorlar, geometrik shakllar va sanash o‘yinlari orqali mantiqiy tafakkur va raqam tushunchalari rivojlanadi. Til va nutq markazida so‘z boyligini oshiruvchi, dialogli va hikoya tuzishga yo‘naltirilgan o‘yinlar og‘zaki nutqni va muloqot madaniyatini shakllantiradi. San’at markazida rang, shakl va kompozitsiya bilan ishlash orqali estetik va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Sahnalashtirish va drammalashtirish markazida ertaklarni

sahnalashtirish orqali nutq ifodaliligi, empatiya va ijtimoiy rollarni anglash kuchayadi. Ilm-fan va tabiat markazida esa tajribalar va kuzatuvlar asosida ilmiy tafakkur va sabab-oqibat munosabatlarini tushunish shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat ko‘ngilochar faoliyat, balki shaxsiy, intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishning muhim pedagogik vositasidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘yin orqali rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini tizimli va innovatsion asosda joriy etish bolalarning tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va ijodiy salohiyatini samarali rivojlantiradi. Shu bilan birga, mavjud ta’lim amaliyotida metodik yondashuvlarning bir xilligi, didaktik o‘yin resurslarining yetarli emasligi va tarbiyachilar ijodkorligining cheklanganligi kabi muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish o‘yin orqali ta’lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar to’plami.

1. Axmedova, M., Qo‘shqarova, Z. Didaktika: nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

2. To‘raqulova, G. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020. 3. Qodirova, M., Zokirova, M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Noshir, 2019.

4. Zunnunova, D. S. Didaktik o‘yinlar orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish Pedagogik mahorat, 2022, № 3, B. 45–50.

5. Bahromova, D. M. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashda didaktik o‘yinlarning roli Maktabgacha ta’lim muammolari, 2021, № 2.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”ga oid qaror va farmonlari. – Elektron manba: www.lex.uz

7. Vygotskiy, L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 2004.

8. Smirnova, E. O. Igra v zhizni rebenka. – Moskva: Mozaika-Sintez, 2017.

9. Piaget, J. Rebenok i realnost′: Problemy detskoy psikhologii. – Moskva: Eksmo, 2007.

Akramov Eldor Parmonovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi metodik xizmat bo‘limi
geografiya va iqtisod fani metodisti,
Usmanov Otabek Latibovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi metodik xizmat bo‘limi tarix
Davlat va huquq asoslari fani metodisti

GEOGRAFIYA VA TARIX FANLARINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI - TA’LIMNING ENG MUHIM TAMOYILLARIDAN BIRI

Annotatsiya. *Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, geografiya va tarix darslarida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lsa, o‘quvchilarning dars jarayonida toliqishi ularni turli xil faoliyat turlariga yo‘naltirish orqali kamayadi. Maktab ta’limida fanlarning integratsiyasi, ya’ni fanlararo aloqalar orqali amalga oshirilishi, o‘quvchilarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.*

Kalit so‘zlari: *geografiya, tarix, fanlararo aloqa, integratsiya, ta’lim tamoyili, o‘quv jarayoni, tizimli yondashuv, dunyoqarash, ijodiy fikrlash, o‘quvchilarning qiziqishi.*

THE INTEGRATION OF GEOGRAPHY AND HISTORY IS ONE OF THE MOST IMPORTANT PRINCIPLES OF EDUCATION

Annotation. *The relevance of the topic lies in the fact that the interconnection between geography and history classes can reduce student fatigue during the learning process by directing them towards various types of activities. The integration of subjects in school education, through interdisciplinary connections, enhances students' interest in acquiring new knowledge.*

Key words: *geography, history, interdisciplinary connections, integration, educational principles, learning process, systematic approach, worldview, creative thinking, student interest.*

ИНТЕГРАЦИЯ ГЕОГРАФИИ И ИСТОРИИ - ОДИН ИЗ ВАЖНЕЙШИХ ПРИНЦИПОВ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Актуальность темы заключается в том, что взаимосвязь между уроками географии и истории может снизить утомляемость учащихся в процессе обучения, направляя их на различные виды деятельности. Интеграция предметов в школьном образовании, осуществляемая через междисциплинарные связи, повышает интерес учащихся к усвоению новых знаний.*

Ключевые слова: *география, история, междисциплинарные связи, интеграция, образовательные принципы, учебный процесс, системный подход, мировоззрение, креативное мышление, интерес учащихся.*

Bugun maktab ta’limining samaradorligini hayotiy ko‘nikmalar va real dunyoqarash bilan boyitish masalasi fanlararo integrativ yondashuvni keng qo‘llashni taqozo etmoqda. Aytish mumkinki, zamonaviy ta’limdagi metodologik yondashuvlarning asosini integrativ yondashuvlar tashkil etadi. Ilmiy tahlillarga ko‘ra, integratsiya metodologiya tarkibida, bu fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va uyg‘unlikni ta’minlovchi jarayondir.

Fanlararo aloqalar - zamonaviy maktab ta’limining eng muhim tamoyillaridan biridir. Odatda biz, o‘qituvchilar, tabiiy fanlar hamda ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi fanlarning o‘zaro bog‘liqligi tamoyilini amalda tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelamiz. Geografiya va tarix boshqa fanlardan farqli o‘laroq, keng fanlararo aloqalar doirasiga ega. Zamonaviy ta’lim jarayonida nafaqat alohida fanlarni o‘rganish, balki ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘ra bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon fanlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli, maktab fanlarini ham bir-biridan ajratilgan holda o‘qitish yetarlicha samarali bo‘lmasligi mumkin.

Tarixiy voqealarning geografik sabablari: turli mamlakatlar va sivilizatsiyalarning rivojlanishi, urushlar, savdo yo‘llarining shakllanishi kabi ko‘plab tarixiy hodisalar geografik omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Geografiya fanining tarixiy mazmuni: geografiya fanining o‘zida ham tarixiy ma'lumotlar mavjud. Masalan, har bir hududning tabiatini, landshaftini tushunish uchun uning shakllanish tarixi haqida ma'lumotga ega bo‘lish zarur.

Geografiya va tarix - o‘quvchilarga atrofdagi dunyoni anglashga yordam beradigan ikki asosiy fan hisoblanadi. Tarixiy voqealarni ularning geografik sharoiti bilan bog‘liq holda o‘rganish o‘quvchilarga o‘tmishning yanada to‘liq manzarasini ko‘rish imkonini beradi. Fanlararo aloqalarni amalga oshirish o‘quv materialini takroran o‘rganish zaruratini bartaraf etadi, vaqtni tejaydi hamda o‘quvchilarda umumta’limiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi, ta’limning amaliy yo‘naltirilganligini oshiradi.

Fanlararo aloqalar yordamida nafaqat ta’lim, rivojlantirish va tarbiyaviy vazifalar yangi, sifat jihatidan yuqori darajada hal etiladi, balki real hayotdagi murakkab muammolarga kompleks yondashuv va ularni hal etish uchun poydevor yaratiladi. Bilish faoliyatining umumlashgan xususiyati esa olingan bilim va ko‘nikmalarni aniq vaziyatlarda, alohida masalalarni ko‘rib chiqishda, o‘quv jarayonida hamda sinfdan tashqari faoliyatda, shuningdek, kelajakdagi mehnat, ilmiy va ijtimoiy hayotda keng qo‘llash imkonini beradi.

Fanlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yishda ikki bosqich ajratiladi: boshlang‘ich va tayyorgarlik bosqichlari:

Birinchi bosqich - mavzuni keng fanlararo asosda o‘rganishni boshlash davriga to‘g‘ri keladi. Ushbu bosqichlarning mohiyati quyidagilardan iborat: bu bosqich o‘quvchilarning umumiy yo‘nalishini va ularning mavzuni o‘rganishga psixologik tayyorgarligini ta’minlaydi. Shu maqsadda mavzuni o‘rganish boshida o‘quvchilarni mavzuning integrativ mazmunini anglashga, uni yoritishda boshqa fanlardagi bilimlardan foydalanish zarurligini tushunishga, shuningdek, bu jarayon qanday tashkil etilishi kerakligini idrok etishga yo‘naltirilgan ishlar olib boriladi. Darslarda geografik tushunchalarni tarixiy voqealar bilan bog‘lash, dars tuzilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar dars jarayoniga faolroq kirishadi, ma’lum voqealarning yuzaga kelgan davrlarini eslay boshlaydilar. Yoki aksincha, tarix fanida Birinchi jahon urushi bilan bog‘liq mavzuni o‘rganishda, mojaroga ta’sir ko‘rsatgan geografik omillar - davlatlarning joylashuvi, chegaralari va tabiiy resurslari haqida eslab o‘tish dolzarb ahamiyat kasb etadi.[1]

Geografik xaritadagi belgilar ortida ipak yo‘li bo‘ylab harakatlanayotgan karvonlarni, go‘zal shaharlar va qal’alarni, sersuv daryolarni va eng muhimi - asrlar davomida o‘zining go‘zalligi bilan insonlarni hayratga solgan buyuk dengiz-ko‘lni ko‘rish mumkin.

Qaysi mavzuni muhokama qilmaylik, dars davomida biz integratsiyalashgan darslarning ahamiyatini tobora chuqurroq anglaymiz. Bunday darslar o‘quvchilarga o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakni yaxshiroq tushunishga yordam beradi - bunda makoniy (geografik) va zamoniy (tarixiy) jihatlar birgalikda hisobga olinadi. Aholi va xo‘jalik geografiyasining zamonaviy xususiyatlarini ko‘plab hollarda muayyan hududning tarixiy rivojlanishini inobatga olmasdan tushunib bo‘lmaydi. Shu boisdan geografiya darslarining ilmiy darajasini oshirishda tarix fani bilan o‘zaro aloqalarning roli juda katta.

Ikkinchi bosqich - tayyorgarlik bosqichi - bu o‘qituvchining o‘quv jarayonini qurishida boshqa fanlarning yetakchi g‘oyalari mazmuniga tobora chuqurroq kirib borish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida o‘qituvchilar o‘rtasida yanada keng va chuqur hamkorlik aloqalarini shakllantiradi. Natijada, fanlararo aloqalarni amalga oshirish bo‘yicha ishlar faqat dars bilan cheklanib qolmaydi, balki fanlararo seminarlar, ekskursiyalar, yozma nazorat ishlari va turli konferensiyalarni tashkil etishga olib keladi.

Integratsiyaning ilmiy asoslari

1. Tarixiy jarayonlar geografik omillarsiz yuzaga kelmaydi.

Har qanday tarixiy hodisa geografik makon bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, davlatlarning shakllanishi, iqtisodiy taraqqiyot darajasi, harbiy strategiya va hatto madaniy qadriyatlarning rivojlanishida ham geografik omillar asosiy rolni o‘ynaydi. Iqlim sharoiti aholining turmush tarzini

[1] Abdullayev I. Fanlararo ta’lim va pedagogik integratsiya // O‘zbekistonda ta’lim islohotlari, 2019, №2

belgilagan, relyef esa qaysi hududda qaysi kasb egalari ko‘proq yashashini yoki qaysi yo‘nalishlar orqali savdo karvonlari harakatlanishini ko‘rsatib bergan.

Masalan, O‘rta Osiyo tarixida Amudaryo va Sirdaryo vohalarining mavjudligi sug‘orma dehqonchilik madaniyatining erta shakllanishiga, shahar sivilizatsiyasining rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Qadimgi Sug‘diyonaning chorrahada joylashuvi faqat geografik afzallik emas, balki diplomatik va iqtisodiy ustunlik ham yaratgan. Undan o‘tgan karvonlar Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy almashinuvni kuchaytirib, hududning siyosiy ahamiyatini oshirgan.

Xuddi shu kabi, dengiz bo‘yida joylashgan davlatlar (masalan, Afinaning qadimgi Yunonistondagi yuksalishi) dengiz savdosidan foydalanib tezroq iqtisodiy taraqqiy etgan. Aksincha, tog‘li hududlarda joylashgan davlatlarda siyosiy markazlashuv jarayoni sekinroq kechgan, chunki tabiiy to‘siqlar ichki integratsiyani qiyinlashtirgan. Bu misollar geografiyaning tarixiy voqealarni shakllantiruvchi asosiy omil ekanini yaqqol isbotlaydi.

2. Geografiya tarixni vizual va mantiqiy tushuntiradi

Tarixiy jarayonlarni tushuntirishda xarita eng kuchli didaktik vositalardan biri hisoblanadi. Chunki voqealar joylashgan hududni ko‘rish o‘quvchida “fazoviy idrok”ni faollashtiradi va ma’lumotlarni tizimlashtirishni osonlashtiradi. Vizual taqdimot natijasida o‘quvchi harbiy yurishlar qanday yo‘nalishdan borganini, davlat hududlarining qaysi geografik omillar sabab kengaygan yoki qisqarganini, migratsiya jarayonlarining nimadan kelib chiqqanini chuqurroq tushunadi.

Ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlanishicha, vizual materiallar bilan boyitilgan tarixiy darslar o‘quvchilarning eslab qolish ko‘rsatkichini 40–60 foizga oshiradi. Masalan, Aleksandr Makedonskiyning yurishlarini faqat matn orqali o‘rganish o‘quvchilarda to‘liq tasavvur uyg‘otmaydi, ammo uning qo‘shinlari qaysi tog‘ tizmalari oshib o‘tganini, qaysi daryo vodiylari orqali janubga yo‘l olganini xarita orqali ko‘rsatish voqeani jonlantiradi.

Shuningdek, interaktiv xaritalar, GIS tizimlari (Geographic Information System) - bu geografik ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, tahlil qilish, vizuallashtirish va boshqarish uchun mo‘ljallangan kompyuter texnologiyalari majmuasidir. virtual rekonstruksiyalar va harakatlanadigan (dinamik) xaritalar yordamida tarixiy davrlarni fazoviy o‘rganish yanada samarali bo‘lib, bu metod o‘quvchilarda mantiqiy tahlil, sabab–natija va vaqt-makon tushunchalarini birgalikda shakllantiradi.

3. Tarix geografiyani mazmun bilan boyitadi

Geografiyaning “quruq hududiy ma’lumotlari” tarixiy jarayonlar bilan bog‘langanda o‘quvchi joy nomining ma’naviy, siyosiy va madaniy mazmunini anglaydi. Bu “kognitiv xarita”ni shakllantirishda juda samarali.

Geografiya ko‘pincha hududiy ma’lumotlardan iborat bo‘lib ko‘rinadi: daryo, tog‘, cho‘l, dengiz, iqlim turi - bularning o‘zi yetarli ma’no bermaydi. Tarixiy jarayonlar bilan bog‘langanida esa bu geografik obyektlar o‘zining ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy mazmunini kasb etadi.

Masalan, Orol dengizi haqida gap ketganda nafaqat geografik obyekt sifatida, balki ekologik fojia, iqtisodiy inqiroz, migratsiya jarayoni va ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq tarixiy-geografik kompleks sifatida qaraladi. Shu tariqa geografiya tarix orqali mazmunini kengaytiradi va o‘quvchida yangi tasavvur hosil bo‘ladi.

Yoki “Samarqand” deganda faqat geografik joy emas, balki ilm-fan markazi, Temuriylar davri uyg‘onishi, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, Ipak yo‘lidagi diplomatik markaz kabi mazmuniy qatlamlar yodga tushadi. Bu esa geografik o‘rganishni bir tomonlama emas, balki ko‘p qatlamli ma’naviy mazmun bilan boyitadi.

Tarixiy voqealar bilan to‘ldirilgan geografik ma’lumotlar o‘quvchilarning “kognitiv xarita” – ya’ni dunyo haqidagi mental tasavvurlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu orqali o‘quvchi hududlarni nafaqat joylashuv nuqtayi nazaridan, balki tarixiy rolini inobatga olgan holda anglaydi.

Xulosa. Geografiya darslarini tarix bilan integratsiya qilish juda muhimdir, chunki bu o‘quvchilarning tafakkur tuzilishiga va yaxlit dunyoqarashini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday darslar o‘quvchilarning charchashini va zo‘riqishini kamaytiradi, ularni turli faoliyat turlariga yo‘naltiradi; yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqishni oshiradi; tasavvur, diqqat, tafakkur, nutq va xotirani rivojlantiradi; o‘quv materialini yanada chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi; geografiyaning nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar bilan ham o‘zaro

aloqalarini mustahkamlaydi; bilimlar tizimlilik xususiyatiga ega bo‘ladi; ko‘nikmalar umumlashgan bo‘lib, bilimlarni kompleks qo‘llashga, ularni sintez qilishga, g‘oyalar va uslublarni bir fandan boshqasiga o‘tkazishga yordam beradi, bu esa ta’limga ijodiy yondashuvning asosini tashkil etadi; o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarida dunyoqarashni kengaytirishga yo‘naltirish xususiyati kuchayadi; shaxsning har tomonlama rivojlanishiga erishiladi.

Geografiya va tarix fanlarining o‘zaro integratsiyasi - ta'limning muhim tamoyili bo‘lib, bu fanni o‘rganishda o‘tmish voqealarining joy va hudud bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tarixda sodir bo‘lgan voqealarni joyning tabiati, geografik xususiyatlari va iqlimi ta'sirida tushunish, geografik omillarning (masalan, daryolar, tog‘lar, iqlim) tarixiy jarayonlarga ta'sirini o‘rganish ta'limning samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar o‘tmish voqealarini yanada chuqurroq va puxtaroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish o‘quvchilarda kengroq dunyoqarashni shakllantiradi. Ma'lumotlarni vizuallashtirish va aniqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun xaritalardan foydalanish o‘quv jarayonini boyitadi. Geografiya va tarix fanlarining integratsiyasi – bu shunchaki ikki fan materialini qo‘shish emas, balki yangi didaktik tizim yaratish demakdir. Bu tizim o‘quvchilarda tarixiy jarayonlar va geografik makonning o‘zaro bog‘liqligini chuqur tushunishga imkon beradi, ularni global fikr yuritishga o‘rgatadi. Bugungi tezkor axborot asrida bunday yondashuv pedagogning innovatsion salohiyatini namoyon qiladi va ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdullayev, I. Fanlararo ta’lim va pedagogik integratsiya O‘zbekistonda ta’lim islohotlari, 2019, № 2.

2. Karimov, J. Tarixni o‘rganishda geografik omillar ahamiyati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

3. Xudayberdiyeva, M. Geo-ta’lim – fanlararo yondashuvning yangi bosqichi O‘zbekiston pedagogika jurnali, 2022, № 3.

4. Anderson, M., Holt, R. The Chrono-Spatial Framework in Social Studies Education. – London: Routledge, 2018.

5. National Geographic Education. Geography and History: Integrating Spatial and Temporal Thinking. – Washington, DC, 2019.

6. UNESCO. Teaching History and Geography through Integrated Approaches. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.

Sevdiyor Otaqulov Rizoqulovich
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi
Jismoniy tarbiya va CHQBT fanlari metodisti
E-mail: rizoqulovjavoxir@gmail.com

JISMONIY TARBIYA FANINI O‘QITISHDAGI ASOSIY MODELLAR

Annotatsiya. *An’anaviy modelda o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘rsatmalar beradi va ular shu ko‘rsatmalarga muvofiq harakat qiladi. Samaradorlik modeli esa o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga mo‘ljallangan. Ushbu modellar jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchilarning rivojlanishi va o‘qitishning samaradorligini oshirish uchun qo‘llaniladi.*
Kalit so‘zlari: *innovatsion metodlar, moslashuvchanlik, yangi yondashuvlar tajriba sinovlari, jamoa bilan ishlash, hamkorlik, jamoaviy ruh, sport madaniyati.*

THE MAIN MODELS OF TEACHING PHYSICAL EDUCATION

Annotation. *In the traditional model, the teacher gives instructions to students, and they act according to these instructions. The effectiveness model is designed for the gradual development of students' physical abilities. These models are used in the process of physical education for the development of students and increasing the effectiveness of teaching.*
Key words: *innovative methods, adaptability, experimental testing of new approaches, teamwork, cooperation, team spirit, sports culture.*

ОСНОВНЫЕ МОДЕЛИ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В традиционной модели учитель дает указания учащимся, и они действуют в соответствии с этими указаниями. Модель эффективности предназначена для поэтапного развития физических способностей учащихся. Эти модели используются в процессе физического воспитания для развития учащихся и повышения эффективности обучения.*
Ключевые слова: *инновационные методы, гибкость, экспериментальные испытания новых подходов, работа в команде, сотрудничество, командный дух, спортивная культура.*

Jismoniy tarbiya fanini o‘qitish hozirgi kunda nafaqat o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, balki ularning sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta’minlashning muhim qismidir. Jismoniy tarbiya darslari bolalar va yoshlarning umumiy sog‘lig‘ini yaxshilash, sport madaniyatini shakllantirish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonda turli pedagogik modellar qo‘llaniladi, har biri o‘ziga xos yondashuv va uslubga ega. O‘quvchilarni faollikka jalb qilish, harakat madaniyatini singdirish va ularning individual ehtiyojlarini qondirish uchun ushbu modellarni to‘g‘ri tanlash o‘qituvchining asosiy vazifasidir. Shuningdek, jismoniy tarbiya jismoniy faollikni hayotiy odat sifatida shakllantirishda, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga zamin yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya o‘quvchilarga faqat mashqlarni o‘rgatish bilan chegaralanmaydi, balki ularga muloqot qilish, jamoada ishlash, o‘z-o‘zini boshqarish kabi qobiliyatlarni ham rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli, o‘qituvchilar turli modellarni qo‘llagan holda, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantiruvchi va ularga sog‘lom hayot tarzini singdiruvchi samarali darslar tashkil etishi zarur.

An’anaviy (klassik) o‘qitish modeli.

An’anaviy o‘qitish modeli ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan klassik yondashuv bo‘lib, o‘qituvchi markazida bo‘lgan ta’lim jarayoniga asoslanadi. Bu modelda o‘qituvchi asosiy bilim beruvchi, yo‘naltiruvchi va nazorat qiluvchi sifatida faoliyat yuritadi. O‘quvchilar esa tinglovchi va ijrochi sifatida ishtirok etishadi, ular o‘qituvchining ko‘rsatmalariga rioya qilib, tayyor bilimlarni qabul qilishadi. O‘qituvchi asosiy boshqaruvchi rolni bajaradi. U mavzuni tushuntiradi, ko‘rsatmalar

beradi va o‘quvchilarning harakatlarini nazorat qiladi. Darsning mazmuni va ketma-ketligi oldindan rejalashtirilgan bo‘lib, har bir bosqichda qattiq rioya qilinadi. O‘quvchilarga oldindan belgilangan bilimlar uzatiladi. O‘qitish jarayoni ko‘pincha bir tomonlama bo‘lib, o‘qituvchi ma’lumotni taqdim etadi, o‘quvchilar esa bu ma’lumotni o‘zlashtirishga intiladi. O‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot cheklangan bo‘lishi mumkin.O‘qituvchi ta’lim jarayonini kuzatib boradi va o‘quvchilarni baholash orqali ularning bilim darajasini aniqlaydi. Baholash ko‘pincha o‘zlashtirilgan bilimlar darajasiga qarab amalga oshiriladi.

Afzalliklari:

- Ma‘lumotlarni tizimli va aniq yetkazish imkonini beradi.
- O‘qituvchi dars jarayonini to‘liq nazorat qiladi, bu esa intizomni saqlashda yordam beradi.
- Tashkiliy jihatdan qulay va katta guruhlar bilan ishlashda samarali.

Kamchiliklari:

- O‘quvchilarning individual qobiliyat va qiziqishlariga kam e’tibor qaratiladi.
- O‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari kamroq rivojlanadi.
- Bir tomonlama o‘qitish o‘quvchilarning faolligini cheklashi mumkin.

Ushbu model ayniqsa nazariy bilimlarni o‘rgatishda samarali hisoblanadi, lekin zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘qitishning interfaol usullari va o‘quvchi faoliyatiga asoslangan modellarni ham qo‘llashni taklif etiladi.

2. Qobiliyatga asoslangan model (Skill-based model)

Qobiliyatlarga asoslangan model jismoniy tarbiya fanida har bir o‘quvchining individual jismoniy qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim yondashuvidir. Ushbu modelda har bir o‘quvchining jismoniy imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va qobiliyatlari inobatga olinadi va shunga muvofiq mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan birga, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va motivatsiyasi ham ortadi. Individual yondashuv: Har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatlari va jismoniy holatiga qarab mashqlarni bajaradi. Bu jarayonda ularning har biriga mos keladigan vazifalar va mashqlar belgilanadi. Shu tariqa, qobiliyat darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar ham rivojlanish imkoniga ega bo‘ladi. Rag‘batlantirish va motivatsiya: Ushbu modelda o‘quvchilarni rag‘batlantirish va o‘z yutuqlarini ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi. Har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda muvaffaqiyat qozonadi, bu esa ularda motivatsiyani oshiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Bosqichma-bosqich rivojlantirish: O‘quvchilar murakkablik darajasi bo‘yicha o‘z mahoratlarini bosqichma-bosqich oshirib boradilar. Har bir o‘quvchi o‘z darajasiga mos mashqlarni bajarar ekan, asta-sekin yuqoriroq darajalarga ko‘tariladi. Jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Bu model o‘quvchilarning jismoniy ko‘nikmalarini (kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik, muvozanat, tezlik va boshqalar) yaxshilashga qaratilgan. Mashqlar ularning qobiliyatlarini kuchaytirish va rivojlantirishga mos ravishda tanlanadi. O‘z-o‘zini baholash va maqsad qo‘yish: O‘quvchilar o‘z rivojlanishlarini o‘zlari baholab, keyingi maqsadlarni belgilashga undaladi. Bu usul orqali ular o‘z yutuqlarini ko‘rib, o‘z maqsadlariga qanday erishishni o‘rganadilar.

- Har bir o‘quvchiga moslashuvchanlik: O‘quvchilar qobiliyatlaridan qat’i nazar, darslarda o‘z qobiliyatlariga mos ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- O‘z-o‘zini rivojlantirish: O‘quvchilar o‘z shaxsiy maqsadlari va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Jamoaviy ishlash imkoniyati: Garchi o‘quvchilar individual rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishsa ham, bu model jamoaviy mashg‘ulotlarga ham e’tibor qaratadi, bu esa ularning ijtimoiy va kommunikatsion ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Qobiliyatlarga asoslangan model, ayniqsa, jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy va shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bu yondashuv nafaqat harakat ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

3. Jamoaviy o‘yinlar modeli (Sport education model)

Jamoaviy o‘yinlar modeli jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jamoaviy faoliyat orqali rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘qitish yondashuvidir. Ushbu modelning asosiy maqsadi o‘quvchilarga jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va

birgalikda muvaffaqiyatga erishish hissini uyg‘otishdir. Jamoaviy o‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy rivojlanadi, balki ijtimoiy va kommunikatsion qobiliyatlarini ham mustahkamlaydilar. Hamkorlikka asoslangan o‘yinlar: Bu modelning markazida o‘quvchilarning birgalikda ishlashi va umumiy maqsadga erishish uchun hamkorlik qilishi yotadi. Har bir jamoa a’zosi umumiy natijaga hissa qo‘shadi va jamoaviy muvaffaqiyat uchun mas’uliyatni bo‘lishadi. Jamoaviy ruh va liderlik: Jamoaviy o‘yinlarda o‘quvchilar bir-biriga yordam berishadi, vazifalarni bo‘lib olishadi va o‘yin davomida bir-birlariga maslahat beradilar. Bu jarayon jamoaviy ruhni rivojlantiradi va liderlik qobiliyatlarini oshiradi. Strategik fikrlash va tezkor qarorlar: O‘yin davomida o‘quvchilar vaziyatga qarab tezkor va samarali qarorlar qabul qilishadi. Jamoaviy o‘yinlarda ko‘p hollarda taktik rejalashtirish va strategik fikrlash talab etiladi. Har tomonlama rivojlanish: Jamoaviy o‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy, emosional va intellektual qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Bu jarayonda ular bir-biriga ishonch bildirish, yordam berish va birgalikda muammolarni hal qilishni o‘rganadilar.Raqobat va sport madaniyati: Jamoaviy o‘yinlar modelida raqobat elementlari bo‘lishi mumkin. Bunda o‘quvchilar bir-birlariga hurmat bilan yondashish, sport etikasiga rioya qilish va sog‘lom raqobat muhitida o‘zini sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

- O‘zaro yordam va ishonchni rivojlantirish: O‘quvchilar jamoada birgalikda ishlash orqali bir-biriga ishonch hosil qiladi va o‘zaro yordam ko‘rsatadi.

- Liderlik va mas'uliyat: O‘quvchilar jamoa oldida javobgarlikni his qilib, liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

- Jismoniy va ruhiy rivojlanish: Jamoaviy o‘yinlar nafaqat jismoniy sog‘lomlashtirishga, balki ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ham yordam beradi.

- Motivatsiya va raqobatbardoshlik: Jamoa bilan birgalikda muvaffaqiyatga erishish o‘quvchilarda katta motivatsiya hosil qiladi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Jamoaviy o‘yinlar modeli nafaqat o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi, balki ularni jamiyat bilan samarali muloqot qilishga, hamkorlikka va mas’uliyatli bo‘lishga o‘rgatadi.

Sog‘lom turmush tarzi modeli (Health-based model)

Jismoniy tarbiya fanida o‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga va uni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvidir. Ushbu modelning asosiy maqsadi o‘quvchilarga sog‘lom hayot kechirish uchun kerakli ko‘nikma va bilimlarni o‘rgatish, ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlashdir. Sog‘lom turmush tarzi modeli faqatgina jismoniy mashqlarga emas, balki to‘g‘ri ovqatlanish, dam olish, gigiyena va zararli odatlardan voz kechish kabi hayotiy muhim jihatlarga ham e’tibor qaratadi. Jismoniy faollikning ahamiyati: Ushbu modelda o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish va kundalik hayotda jismoniy mashqlarni odatga aylantirishga katta e’tibor qaratiladi. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarga muntazam mashqlar va sport bilan shug‘ullanishning sog‘liq uchun foydalari tushuntiriladi. O‘quvchilarga zararli odatlar, masalan, chekish, spirtli ichimliklar iste’moli, nosvoy va boshqa zararli moddalarning sog‘liqqa zararli ta’siri haqida tushunchalar beriladi. Bu orqali o‘quvchilarni zararli odatlardan himoya qilish va ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish ko‘zda tutiladi. Ruhiy va ijtimoiy salomatlik: Sog‘lom turmush tarzi modeli faqat jismoniy sog‘liq bilan cheklanib qolmaydi, balki ruhiy va ijtimoiy farovonlikka ham e’tibor beradi. Stress bilan kurashish, emotsional boshqaruv va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatlari shakllantiriladi. Sog‘lom turmush tarzi modeli o‘quvchilarda sog‘lom turmushga oid odatlarni shakllantirish orqali ularning umumiy rivojlanishi va farovonligini ta’minlaydi. Ushbu model orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lishadi, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan ham o‘zlarini rivojlantiradilar, jamiyatda faol va sog‘lom insonlar bo‘lib yetishadilar.

O‘quvchilar tomonidan boshqariladigan model (Student-centered model)

O‘quvchilar tomonidan boshqariladigan model jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil ravishda jismoniy faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishda ishtirok etishiga asoslangan ta’lim modeli hisoblanadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi boshqarish va mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Mustaqil qaror qabul qilish: O‘quvchilar o‘yinlar va mashg‘ulotlarning qoidalari, mazmuni va davomiyligi bo‘yicha o‘zlari qaror qabul qiladilar. Bu ularda mustaqil fikrlash va

vaziyatlarni boshqarish qobiliyatini shakllantiradi.O‘zini-o‘zi baholash: O‘quvchilar o‘z faoliyatlarini tahlil qilib, natijalarni baholaydilar va keyingi darslar uchun xulosa chiqaradilar. Bu usul ularga o‘z harakatlarini yaxshiroq tushunishga va rivojlantirishga yordam beradi. Mas’uliyat va jamoaviy ishlash: O‘quvchilar mashg‘ulotlar uchun mas’uliyatni bo‘lishib olishadi va bu ularning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Har bir jamoa o‘z natijalari va yutuqlari uchun mas’uliyatni sezadi, bu esa ularni yanada jipslashtiradi. O‘quvchilar tomonidan boshqariladigan model o‘quvchilarda liderlik, mas’uliyat va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim modelidir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishidan tashqari ularni ijtimoiy jihatdan ham shakllantiradi, jamoada ishlash qobiliyatlarini kuchaytiradi va ularni qaror qabul qilishda ishonchliroq qiladi.

Tajriba asosidagi o‘qitish modeli.

Jismoniy tarbiya fanida tajriba asosidagi o‘qitish modeli o‘quvchilarga nazariy bilimlarni bevosita amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirish imkonini berishga qaratilgan. Mazkur yondashuv o‘quvchilarni real vaziyatlar bilan to‘qnash keltirish, ularning shaxsiy tajribasiga tayangan holda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiradi. Tajriba asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘lib, mustaqil fikrlash, muammo yechish va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish uchun interaktiv mashqlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, gamifikatsiya elementlarini joriy etish, ya’ni ballar, mukofotlar va musobaqalar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin. Shuningdek, real hayotdagi vaziyatlarni aks ettiruvchi simulyatsiyalar mashqlarni mazmunan boyitib, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

O‘quvchilar faolligini oshirishda guruhli ishlar va rolli o‘yinlar samarali vosita hisoblanadi. Jamoalarda ishlash o‘quvchilarga muammolarni birgalikda hal qilish, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Rolli o‘yinlar esa o‘quvchilarning ijodkorligini kuchaytirib, ularni turli vaziyatlarda o‘zini sinab ko‘rishga undaydi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tajriba asosidagi o‘qitish modelining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Virtual haqiqat (VR) texnologiyalari yordamida virtual sport mashg‘ulotlarini tashkil etish, shuningdek, jismoniy faollikni kuzatish va baholashga mo‘ljallangan mobil ilovalardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bunday texnologiyalar ta’lim jarayonini zamonaviy va interaktiv shaklda olib borishga imkon beradi.

Yangi metodlarni qo‘llash ham dars samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kross-dissiplinar yondashuv orqali jismoniy tarbiyani boshqa fanlar, masalan, matematika yoki san’at bilan integratsiya qilish o‘quvchilarning bilimlarini kengaytiradi va ularni turli yo‘nalishlarda fikrlashga undaydi. Onlayn platformalarda tashkil etilgan interaktiv kurslar va mashqlar esa ta’limning moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Tajriba asosidagi o‘qitish modelida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarga o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatini berish ularning mas’uliyatini oshiradi. Dars mavzulari bo‘yicha muzokaralar va bahslar o‘tkazish esa fikr almashish, dalillash va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yaratish va kreativlikni rag‘batlantirish ham mazkur modelning muhim jihatlaridan biridir. O‘quvchilarga o‘zlari qiziqqan mavzular bo‘yicha shaxsiy loyihalar yaratish imkonini berish, mashqlarni noodatiy va ijodiy usullarda bajarishga undash ularning tashabbuskorligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, darslar uchun munosib muhit yaratish, jumladan, ochiq havoda mashg‘ulotlar o‘tkazish yoki maxsus sport zallaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Motivatsion muhit, o‘quvchilarning yutuqlarini e’tirof etish va rag‘batlantirish ham muhim omil hisoblanadi.

Sog‘lom va do‘stona raqobat muhitini shakllantirish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Sport musobaqalari va jismoniy faoliyatga oid ijodiy raqobatlar o‘quvchilarda sog‘lom raqobat, o‘z ustida ishlash va jamoada muvaffaqiyatga erishish istagini rivojlantiradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, tajriba asosidagi o‘qitish modeli jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda samarali yondashuv

hisoblanadi. An’anaviy model tizimlilikni ta’minlasa, qobiliyatlarga asoslangan model individual ehtiyojlarni inobatga oladi, jamoaviy o‘yinlar modeli hamkorlikni rivojlantiradi, sog‘lom turmush tarzi modeli salomatlikni mustahkamlaydi, o‘quvchilar tomonidan boshqariladigan model esa liderlik va mas’uliyatni shakllantiradi. Innovatsion va tajribaga asoslangan modellar darslarni yangilab, ularni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Interaktivlik, texnologiyalar, yangi metodlar va o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’lim jarayonini yanada jalb etuvchi va motivatsiyalovchi qiladi hamda o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Usmonxo‘jayev, T. S., Aliyev, M. B. Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatlari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2006.

2. Rajabov, T. Sportning olimpiya turlaridan muntazam shug‘ullanuvchilar, yosh o‘qituvchilar va murabbiylar uchun tavsiya. – 2006.

3. Soatov, N. X., Nadjimov, F. F. Maktabda jismoniy tarbiya. – Toshkent, 2015.

4. Ataev, A. K., Belov, R. A. Sportivno-massovaya rabota po mestu jitelstva. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

5. Rafiyev, X. Jismoniy madaniyat va sport atamalarining ruscha–o‘zbekcha lug‘ati. – Toshkent, 1998.

Pulotov Abdurayim Murotovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Fanlarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
E-mail: abdurayimpm@mail.ru

USING MODERN PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC METHODS IN ASSESSING STUDENTS' KNOWLEDGE IN MATHEMATICS

Annotation. *This article analyzes the role, advantages, and possibilities of practical application of modern pedagogical diagnostic methods in determining the level of students' knowledge in mathematics, and discusses the theoretical and practical foundations for developing effective diagnostic methods based on diagnostic tests, digital assessment tools, assessment criteria, and formatted approaches.*

Keywords: *student assessment, modern assessment methods, pedagogical diagnostics, digital assessment tools, formative and summative assessment.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ ПРИ ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ ПО МАТЕМАТИКЕ

Аннотация. *В статье анализируются роль, преимущества и практическое применение современных методов педагогической диагностики при определении уровня знаний учащихся по математике, рассматриваются теоретические и практические основы разработки эффективных методик диагностики на основе диагностических тестов, цифровых оценочных средств, критериев оценки и форматных подходов.*

Ключевые слова: *оценка знаний учащихся, современные методы оценки, педагогическая диагностика, цифровые инструменты оценки, формирующее и итоговое оценивание.*

MATEMATIKA FANIDAN O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY PEADAOGIK TASHXIS METODLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matematika fanidan o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashda zamonaviy pedagogik tashxis usullarining o‘rni, afzalliklari va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi hamda diagnostik testlar, raqamli baholash vositalari, baholash mezonlari va formatlashgan yondashuvlar asosida samarali tashxis metodikasini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari to‘g’risida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘quvchilar bilimini baholash, zamonaviy baholash metodlari, pedagogik tashxis, raqamli baholash vositalari, formativ va summativ baholash.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda matematika faniga oid chuqur, izchil va tizimli bilimlarni shakllantirishdir. Matematika - nafaqat hisob-kitob va formulalar majmuasi, balki mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va tahliliy yondashuvni shakllantiruvchi intellektual maydon hisoblanadi. Shu boisdan ham bu fan bo‘yicha ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimini aniqlash, tahlil qilish va rivojlantirishda zamonaviy pedagogik tashxis metodlariga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

An’anaviy baholash usullari ko‘pincha o‘quvchining bilim darajasini umumiy tarzda aks ettirsa-da, ularning fikrlash jarayoni, xatolar ustida ishlash qobiliyati yoki shaxsiy rivojlanish dinamikasini to‘liq namoyon qila olmaydi. Bu esa o‘qituvchini o‘quvchi haqidagi aniq ma’lumotlardan uzoqlashtiradi va ta’lim jarayonining individuallashtirilishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, zamonaviy ta’limda pedagogik tashxis metodlarini joriy etish matematika fanini o‘qitish sifatini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniq hamda samarali baholash eng muhim pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, matematika fani

mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va murakkab masalalarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradigan tayanch fan sifatida o‘quvchilar bilimini to‘g‘ri tashxis qilishni talab etadi.

Matematika ta’limida tashxis va zamonaviy baholash metodlarini qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning natijalarini yaxshilaydi, balki ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi va o‘qituvchi faoliyatining metodik jihatdan takomillashuviga zamin yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ta’lim tizimida an’anaviy baholash usullari bilan bir qatorda, quyidagi zamonaviy metodlar keng qo‘llanilmoqda:

- formatativ baholash (jarayon davomida baholash);
- summativ baholash (oraliq yoki yakuniy baholash);
- elektron test sinovlari;
- diagnostik kartalar;
- portfoliolar asosidagi baholash;
- o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashi.

Bu usullar o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning tahlil qilish, muammoni hal qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini ham baholash imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik diagnostika vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, test tizimlari, elektron baholash platformalari va formatlashgan baholash metodlarining tatbiqi matematika fanida o‘quvchilar bilim darajasini chuqurroq tahlil qilish, ularning o‘zlashtirishidagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularga mos individual yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Matematika fanidan o‘quvchilar bilimini baholash jarayonida zamonaviy pedagogik tashxis metodlaridan foydalanish masalalari bo‘yicha so‘nggi yillarda respublikamizda va xorijda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda pedagogik tashxisning o‘quvchilarning fanni o‘zlashtirish darajasini aniq belgilash, bilim sifatini baholash va o‘quv jarayonini takomillashtirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda matematika fanida baholash tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning individual rivojlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash, differensial yondashuv asosida tashxis natijalarini tahlil qilish kabi jihatlar yoritilgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan pedagogik tashxisning psixologik-pedagogik asoslari, testologiya va o‘quv natijalarini o‘lchashning ilmiy mezonlari haqida keng ma’lumotlar berilgan.

Xorijiy ilmiy manbalarda pedagogik tashxisni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning innovatsion usullari, matematika ta’limida formatif (jarayonli) baholash, diagnostik testlar, adaptiv baholash tizimlari kabi zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy etish yo‘llarini tahlil qilganlar.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, matematika fanidan o‘quvchilar bilimini baholashda zamonaviy pedagogik tashxis metodlaridan foydalanish ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotchilar ushbu metodlarning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi hamda milliy ta’lim tizimiga integratsiyasi bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirgan bo‘lsalar-da, ayniqsa, o‘qituvchilarning zamonaviy tashxis metodlarini qo‘llashga tayyorligini oshirish, matematik diagnostika vositalarini mahalliy sharoitga moslashtirish masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. An’anaviy baholashda asosiy e’tibor o‘quvchining to‘g‘ri javobiga va ball yig‘ishiga qaratiladi. Bu yondashuv o‘quvchining qanday o‘rganganini emas, balki nimani o‘rganganini aniqlashga xizmat qiladi. Ammo bu usulda o‘quvchining mukammal tushunishi, tahlil qilish qobiliyati va real muammolarni yechishdagi yondashuvlari baholanmaydi.

Zamonaviy baholash yondashuvlari – formativ (jarayon davomida baholash) va summativ (oraliq yoki yakuniy baholash) usullar orqali o‘quvchilarning rivojlanishini doimiy kuzatish imkonini beradi. Ayniqsa, formativ baholash o‘qituvchiga o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularga individual yondashuvni qo‘llashga yordam beradi.

Tashxisiy baholash – bu o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini chuqur tahlil qilish va aniqlashga qaratilgan baholash turi bo‘lib, o‘quvchilardagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularga mos ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu baholash turining asosiy maqsadi – o‘qituvchiga dars jarayonini moslashtirish, o‘quvchiga esa o‘z o‘rganish jarayonini nazorat qilish imkoniyatini yaratishdir. Tashxisiy baholash o‘qituvchining nafaqat baholovchi, balki yo‘naltiruvchi rolini ham kuchaytiradi.

Matematika ta’limida pedagogik tashxisning metodologik asoslari, tahlili va natijalari

Pedagogik tashxis ta’lim jarayonida o‘quvchining rivojlanish darajasi, bilimlar tizimi, mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyati hamda muammo yechish malakasini chuqur o‘rganishga qaratilgan ilmiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Matematika fanida pedagogik tashxis nafaqat o‘quvchining nazariy bilimlarini aniqlash, balki ularning amaliy qo‘llash ko‘nikmalari, mantiqiy umumlashtirish, tahlil qilish va isbotlash qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash va ta’lim mazmunini moslashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda matematika fanida pedagogik tashxisni amalga oshirishda bir qator zamonaviy va samarali metodlardan foydalanilmoqda. Jumladan, diagnostik testlar Bloom taksonomiyasi asosida tuzilib, o‘quvchilarning bilimlarni bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish darajalarida o‘zlashtirish holatini aniqlashga imkon beradi. Raqamli platformalar, xususan Google Forms, Quizizz, Moodle va Kahoot kabi vositalar orqali testlarni tashkil etish va natijalarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, portfel va loyiha ishlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni turli yondashuvlar asosida hal etish ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qilsa, baholash rubrikalari aniq mezonlar asosida shaffof va asosli baholashni ta’minlaydi.

Mazkur metodlar orqali nafaqat yakuniy baho, balki o‘quvchining rivojlanish dinamikasi, bilimlaridagi o‘zgarishlar va individual yutuqlari aniqlanadi. Bu esa matematika ta’limini individuallashtirish va differensiallashtirish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik tashxis metodlari o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri, ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan bir qatorda, ijtimoiy hamkorlik va mas’uliyat kabi shaxsiy sifatlarini ham baholash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, amaliyotda qator muammolar mavjudligi aniqlanmoqda. Jumladan, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik tashxis metodlarini qo‘llashga yetarli darajada tayyor emasligi, milliy o‘quv dasturlari bilan xalqaro baholash standartlari (PISA, TIMSS) o‘rtasidagi tafovutlar, shuningdek, diagnostika vositalari va texnik infratuzilmaning yetarli emasligi ta’lim jarayonida zamonaviy tashxisni samarali joriy etishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli matematika ta’limida pedagogik tashxisning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarni maxsus malaka oshirish kurslari va amaliy treninglar orqali tayyorlash, milliy ta’lim tizimini xalqaro baholash standartlariga moslashtirish hamda diagnostika jarayonlarini raqamlashtirish zarur hisoblanadi.

Matematikada raqamli pedagogik tashxis quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, ilmiy asoslangan mezonlar orqali bilim darajasini obyektiv baholash; ikkinchidan, joriy diagnostika ma’lumotlari asosida o‘quvchilarning tipik xatolari, vaqt sarfi va yechim strategiyalarini aniqlash; uchinchidan, o‘qituvchining metodik, texnik va psixologik tayyorgarligi. Tadqiqot metodologik asos sifatida shaxsga yo‘naltirilgan, milliy-madaniy, integrativ, konstruktivistik va tizimli yondashuvlarni o‘zida mujassam etib, matematika fanida pedagogik tashxisning samarali modellarini ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy pedagogik tashxis metodlari – differensial testlar, diagnostik savollar, interfaol viktorinalar, elektron platformalar hamda matematik loyihalar va ijodiy ishlar o‘quvchilarning bilim sifati va mantiqiy tafakkurini sezilarli darajada rivojlantiradi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, zamonaviy tashxis metodlari joriy etilgan sinflarda o‘quvchilarning matematik masalalarni yechish tezligi va aniqligi 15–20 foizga oshgan, mantiqiy isbotlash va fikrni asoslash ko‘nikmalari mustahkamlangan. Shuningdek, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish va guruhda ishlash samaradorligi sezilarli darajada yaxshilangan.

So‘rovnoma va suhbatlar natijalari ham muhim tendensiyalarni aniqladi. Respondent o‘qituvchilarning 83 foizi zamonaviy diagnostik texnologiyalardan foydalanish baholash jarayonining samaradorligini oshirishini ta’kidlagan bo‘lsa, 75 foizi adaptiv testlar o‘quvchilarning individual tayyorgarlik darajasini hisobga olish imkonini berishini qayd etdi. Biroq, 71 foiz respondent o‘zbek tilida sifatli diagnostik topshiriqlar bankining yetishmasligini, 64 foizi esa metodik qo‘llanmalarning kamligini asosiy muammo sifatida ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, matematika fanida zamonaviy pedagogik tashxis metodlari o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini doimiy monitoring qilish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va individual yondashuvni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tashxis jarayonida faqat yakuniy natijalarni emas, balki o‘quvchining mantiqiy fikrlash strategiyasi, ijodiy yondashuvi va muammo yechish jarayonini baholash ta’lim sifatini oshiradi. Shu bois, diagnostik tahlil asosida moslashtirilgan dars rejalarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasiga tayangan holda pedagogik qarorlar qabul qilish hamda bilim bilan bir qatorda mantiqiy, ijodiy, kommunikativ va shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini qamrab olgan kompleks baholash tizimini yaratish ilmiy-amaliy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Бестужев-Лада, И. В. Рабочая книга по прогнозированию. – М.: Мысль, 1983. – 430 с.
2. Брушлинский, А. В. Мышление и прогнозирование (логико-психологический анализ). – М.: Мысль, 2004. – 229 с.
3. Венецкий, И. Г. Математико-статистический анализ контроля учебного процесса по математике в вузе с применением ЭВМ. – М.: НИИВШ, 1975. – 63 с.
4. Klauer, K. I. (Hg.). Handbuch der Pädagogischen Diagnostik. – Düsseldorf: Schwann, 1978.
5. Ингенкамп, К. Педагогическая диагностика / Пер. с нем. – М.: Педагогика, 1991. – 240 с. – (Зарубежная школа и пед.).
6. Pulotov, A. M. O‘quvchilar bilimi darajasini aniqlashda pedagogik tashxis usullaridan foydalanish // Pedagogik mahorat, ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2024, № 10, B. 69–72. ISSN 2181-6833.
7. Pulotov, A. M. Pedagogik tashxisda milliy tarbiya qadriyatlarini qo‘llashning metodik asoslari // Fan va ta’lim integratsiyasi, ilmiy jurnal, 2025, № 10, B. 203–207. ISSN 2992-9210

Rahmonov Ulfat Ubaydullayevich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fizika va astronomiya fani metodisti,
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING PEDAGOGIK NAZARIY ASOSLARI VA LOYIHA FAOLIYATINING DIDAKTIK MOHIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy ta’lim paradigmasi bo‘lgan kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini va uni amaliyotga tatbiq etishning samarali vositasi sifatida loyiha faoliyatining didaktik mohiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuvning tarixiy rivojlanish bosqichlari, asosiy tamoyillari va uning an’anaviy ta’limdan farqli jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, loyihaga asoslangan ta’limning didaktik tizimi, uning bosqichlari, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zgargan rollari hamda baholash mezonlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Natijalar qismida an’anaviy va innovatsion yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan, kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanish bosqichlari diagramma shaklida keltirilgan va O‘zbekistonning PISA-2022 xalqaro baholash dasturidagi natijalari OECD o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanib, kompetensiyaviy ta’limning dolzarbligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, loyiha faoliyati, didaktik mohiyat, pedagogik nazariya, ta’lim texnologiyalari, PISA, kompetensiya, loyihaga asoslangan ta’lim.*

PEDAGOGICAL THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE COMPETENCE-BASED APPROACH AND THE DIDACTIC ESSENCE OF PROJECT ACTIVITIES

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations of the competency-based approach, a modern educational paradigm, and the didactic essence of project-based activity as an effective tool for its practical implementation. The study examines the historical stages of development of the competency-based approach, its main principles, and its differences from traditional education. Additionally, the didactic system of project-based learning, its stages, the changed roles of teacher and student, and assessment criteria are highlighted based on scientific sources. In the results section, a comparative analysis of traditional and innovative approaches is provided, the development stages of the competency-based approach are presented in a diagram, and the relevance of competency-based education is substantiated by comparing Uzbekistan's results in the PISA-2022 international assessment program with the OECD average.*

Key words: *competency-based approach, project activity, didactic essence, pedagogical theory, educational technologies, PISA, competence, project-based learning.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА И ДИДАКТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы компетентностного подхода, современной образовательной парадигмы, и дидактическая сущность проектной деятельности как эффективного инструмента его практической реализации. В исследовании рассматриваются исторические этапы развития компетентностного подхода, его основные принципы и отличия от традиционного образования. Также на основе научных источников освещается дидактическая система проектно-ориентированного обучения, его этапы, изменившиеся роли учителя и ученика, а также критерии оценивания. В разделе результатов представлен сравнительный анализ традиционного и инновационного подходов, этапы развития компетентностного подхода изображены в виде диаграммы, а актуальность компетентностного образования обоснована сравнением результатов Узбекистана в международной программе оценки PISA-2022 со средними показателями по ОЭСР.*

Ключевые слова: *компетентностный подход, проектная деятельность, дидактическая сущность, педагогическая теория, образовательные технологии, PISA, компетенция, проектно-ориентированное обучение.*

Kirish. Jahon ta’lim tizimida ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar, jumladan, O‘zbekiston ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi, o‘qitish jarayoniga yangicha yondashuvlarnijoriy etishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi shunchaki bilimlar majmuasiniberish emas, balki o‘quvchilarda egallangan bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Aynan shu maqsadlarga erishishda kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra, ta’lim natijalariga e’tiborni qaratadi va bu natijalar o‘quvchining amaliy faoliyatga tayyorligi bilan o‘lchanadi. Ushbu yondashuvni amaliyotga samarali tatbiq etishning eng maqbul vositalaridan biri bu loyihaga asoslangan ta’lim (Project-Based Learning - PBL) texnologiyasidir. Loyiha faoliyati o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, mustaqil tadqiqot olib borish va ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi O‘zbekistonning PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi va natijalarni yaxshilashga intilishi bilan ham belgilanadi. PISA tadqiqotlari aynan o‘quvchilarning funksional savodxonligini, ya’ni bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini baholaydi. Shu bois, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslarini va loyiha faoliyatining didaktik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish hamda ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunning muhim ilmiy-pedagogik vazifasi hisoblanadi.

Asosiy qism.

1. Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik-nazariy asoslari

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim nazariyasi va amaliyotiga XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan bo‘lib, uning dastlabki ilmiy asoslari tilshunoslik sohasida faoliyat olib borgan Noam Chomsky nomi bilan bog‘liq. Olim “kompetensiya” tushunchasini shaxsning til haqidagi ichki bilimlari va ularni real nutqiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati o‘rtasidagi farqni ifodalash uchun qo‘llagan. Keyinchalik mazkur tushuncha pedagogika va psixologiya fanlariga tatbiq etilib, ta’lim jarayonining natijaga yo‘naltirilgan modelini shakllantirishda muhim metodologik asosga aylandi.

Kompetensiyaviy yondashuv an’anaviy “bilim, ko‘nikma, malaka” (BKM) triadasidan kengroq mazmunga ega bo‘lib, u faqat bilimni egallashni emas, balki ushbu bilimlarni turli vaziyatlarda samarali qo‘llay olish, muammolarni hal qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Pedagog olim B. Xodjayev ta’kidlaganidek, mazkur yondashuv ta’lim natijalarini “Bilim – Ko‘nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik” kabi o‘zaro uzviy bog‘liq bosqichlar tizimi sifatida tahlil qilishni talab etadi. Bu esa ta’lim jarayonini shaxsning real hayotiy ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat ta’lim standartlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirilishi lozim bo‘lgan tayanch kompetensiyalar aniq belgilab berilgan. Jumladan, kommunikativ kompetensiya shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqotga kirisha olishini, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq ifodalashini ta’minlaydi. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi esa turli manbalardan zarur axborotni izlab topish, tahlil qilish va undan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi doimiy ta’lim olishga, shaxsning jismoniy, ma’naviy va intellektual kamolotiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi jamiyat hayotidagi jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish qobiliyatini shakllantiradi. Umummadaniy kompetensiyalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, madaniy merosni asrab-avaylashni nazarda tutadi. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda ulardan foydalanish kompetensiyasi esa aniq hisob-kitoblarga asoslangan qarorlar qabul qilish va ilmiy-texnik taraqqiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Ushbu tayanch kompetensiyalar barcha fanlar orqali integrativ tarzda shakllantirilib, o‘quvchining hayotiy muvaffaqiyati uchun mustahkam zamin yaratadi.

2. Loyiha faoliyatining didaktik mohiyati va tamoyillari

Loyiha faoliyati yoki loyihaga asoslangan ta’lim kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim amaliyotiga joriy etishning eng samarali didaktik vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari amerikalik faylasuf va pedagog John Dewey nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u ta’lim jarayoni shaxsning bevosita tajribasi va amaliy faoliyatiga tayangan holda tashkil etilishi lozimligini ta’kidlagan.

Loyihaviy faoliyat muayyan muammoni hal qilish yoki aniq amaliy natijaga erishishga qaratilgan, o‘quvchilar tomonidan mustaqil yoki guruhda bajariladigan, vaqt va resurslar bilan chegaralangan ijodiy-tadqiqot jarayonidir. An’anaviy darslardan farqli ravishda, bu yondashuvda o‘quvchi bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil izlanish va faoliyat jarayonida egallovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg‘unlashadi, muammolarni hal qilish va kasbiy kompetensiyalar shakllanadi.

Loyihaviy faoliyatning didaktik tuzilmasi odatda bir necha izchil bosqichlardan iborat. Tayyorgarlik bosqichida loyiha mavzusi, maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalar belgilanib, o‘quvchilarning qiziqishlari hamda real hayotiy muammolar asosiy mezon sifatida tanlanadi. Rejalashtirish bosqichida ish rejasi ishlab chiqilib, vazifalar taqsimlanadi, zarur resurslar va axborot manbalari aniqlanadi. Amalga oshirish bosqichida o‘quvchilar ma’lumot to‘plash, tahlil qilish, tajribalar o‘tkazish va amaliy faoliyatni bajarish orqali loyihani hayotga tatbiq etadi, bunda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va maslahatchi vazifasini bajaradi. Natijalarni rasmiylashtirish bosqichida olingan xulosalar umumlashtirilib, taqdimot uchun tayyorlanadi. Taqdimot va baholash bosqichida loyiha natijalari ommaga taqdim etilib, oldindan belgilangan mezonlar asosida baholanadi. Yakuniy refleksiya bosqichida esa o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilib, yutuq va kamchiliklar bo‘yicha xulosalar chiqaradi.

Mazkur jarayonda o‘qituvchining roli bilim uzatuvchidan maslahatchi va motivatorga, o‘quvchi esa passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi va ijodkorga aylanadi. Bu holat kompetensiyaviy yondashuv doirasida belgilangan tayanch kompetensiyalarning samarali shakllanishini ta’minlab, ta’lim jarayonining sifat va natijadorligini oshiradi.

Natijalar va muhokama


Kompetensiyaviy yondashuv va loyiha faoliyatining an’anaviy ta’limdan afzalliklarini yaqqolroq ko‘rsatish uchun ularning qiyosiy tahlilini keltiramiz.

1-jadval. An’anaviy va kompetensiyaviy/loyihaviy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Mezonlar	An’anaviy yondashuv	Kompetensiyaviy, Loyihaviy yondashuv
Ta’lim maqsadi	Bilim, ko‘nikma va Malakalarni shakllantirish.	Kompetensiyalarni (bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini) rivojlantirish.
O‘qituvchining roli	Bilim manbai, nazoratchi.	Fasilitator, yo‘naltiruvchi, maslahatchi, hamkor.
O‘quvchining roli	Passiv qabul qiluvchi, yod oluvchi.	Faol tadqiqotchi, muammo yechuvchi, ijodkor.
Ta’lim mazmuni	Fanga oid, asosan nazariy bilimlar.	Fanlararo, amaliyotga yo‘naltirilgan, hayotiy muammolarga asoslangan.
Asosiy metodlar	Tushuntirish, ma’ruza, suhbat.	Loyiha, keys-stadi, guruhlarda ishlash, interaktiv metodlar.
Baholash	Asosan yakuniy natijani (bilimni) baholash.	Jarayon va natijani birgalikda, oldindan belgilangan mezonlar asosida baholash.


Kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanish tarixini quyidagi diagrammada ko‘rish mumkin. Bu jarayon bir necha o‘n yilliklarni o‘z ichiga olib, nazariyadan amaliyotga bosqichma-bosqich o‘tishni aks ettiradi.

1-diagramma. Kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanish bosqichlari



Ushbu yondashuvlarning O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun naqadar dolzarbligini PISA-2022 xalqaro baholash dasturi natijalari ham ko‘rsatib turibdi. PISA o‘quvchilarning yodlagan bilimlarini emas, balki ularni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish, ya’ni funksional savodxonligini o‘lchaydi. Bu esa kompetensiyaviy ta’limning asosiy maqsadidir.

1-grafik. PISA-2022 natijalari: O‘zbekiston va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o‘rtacha ko‘rsatkichlari taqqoslamasi



Grafikdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston o‘quvchilarining natijalari barcha yo‘nalishlar bo‘yicha OECD mamlakatlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ancha past. Bu holat ta’lim jarayonida nazariy bilim berishdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga o‘tish zaruriyatini yaqqol ko‘rsatadi. Loyiha faoliyati kabi interaktiv metodlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish kabi PISAda baholanadigan muhim kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. An’anaviy yondashuvdan voz kechib, kompetensiyaviy ta’lim va loyihaga asoslangan o‘qitishni keng joriy etish orqali kelgusi PISA tadqiqotlarida yuqoriroq natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’limning nazariy poydevori bo‘lsa, loyiha faoliyati uning amaliyotdagi yorqin namoyonidir. Ushbu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiradi va birgalikda ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirishga qodir.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim maqsadlarini aniqlashtirib, o‘quvchi shaxsida qanday qobiliyatlar shakllanishi kerakligini belgilab bersa, loyiha faoliyati shu qobiliyatlarni amalda, real hayotiy muammolar orqali rivojlantirish uchun didaktik mexanizmni taqdim etadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida munosib o‘rin egallash uchun ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv va loyiha faoliyatini tizimli ravishda integratsiya qilish strategik ahamiyatga ega. Bu o‘z navbatida, pedagoglardan o‘z kasbiy mahoratini doimiy oshirib borishni, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishni va o‘quv jarayonida o‘z rolini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Kelgusi tadqiqotlar turli fanlar kesimida loyihaviy ta’lim modellarini ishlab chiqish, kompetensiyalarni baholashning aniq va shaffof mezonlarini yaratish hamda pedagog kadrlarni ushbu yo‘nalishda qayta tayyorlash metodikasini takomillashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi : PF–5712-son Farmon, 2019-yil 29-aprel. – Toshkent, 2019.
2. Xasanova D. K. Kompetensiyaviy yondashuvning amalga oshish bosqichlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2024. – Vol. 4, No. 3. – B. 245–252.
3. Saidova N. Pedagogikada loyihaviy faoliyat tushunchasi va tuzilmasi // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – No. 1. – B. 88–95.
4. Saidova N. Ta’lim jarayonida loyihaviy yondashuv: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’siri // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – No. 2. – B. 41–49.
5. Navro‘zov I. N. Loyiha metodi asosida o‘qitishning asosiy maqsadi va samaradorligi // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2021. – № 6. – B. 56–62.
6. Arziqulov H. N. Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences. – 2023. – No. 2. – B. 113–120.
7. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 482 p.
8. Qorayev S. B., Tirkashev N. I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy jihatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – Vol. 3, No. 1. – B. 1071–1078.

Ravshanova Orzigul Sayfullayevna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SHE’RIY SAN’ATLARNING TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida she’riy san’atlarning tahlili, xususan poetik tilning ifoda vositalari, fonetik, leksik, stilistik imkoniyatlari yoritiladi. XX asrning 40-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda ayniqsa she’riyat tili, estetik-ta’sirchanlik imkoniyatlari alohida e’tiborga loyiqdir. She’rda ohangdorlik qofiyalarning, xushohanglikka xizmat qilishi, fonemalarning uyg‘unligi she’riy nutqning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, poetik nutq, stilistik figura, tashbeh, epitet, metafora, fonetik uyg‘unlik, it obrazi, vafodorlik ramzi, lirik obraz, ko‘chma ma’no.*

THE ANALYSIS OF POETIC DEVICES IN UZBEK LINGUISTICS

Аннотация. *В данной статье рассматривается анализ поэтических средств выражения в узбекском языкознании, в частности, фонетические, лексические и стилистические возможности поэтического языка. С 40-х годов XX века в узбекском языкознании началось изучение языка художественных произведений, при этом особое внимание уделяется языку поэзии и его эстетическому воздействию. В поэзии мелодичность, служение рифм гармонии и согласованность фонем рассматриваются как важнейшие компоненты поэтической речи.*

Ключевые слова: *художественный текст, поэтическая речь, стилистическая фигура, сравнение, эпитет, метафора, фонетическая гармония, образ собаки, символ верности, лирический образ, переносное значение.*

АНАЛИЗ ПОЭТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Abstract. *This article explores the analysis of poetic expression tools in Uzbek linguistics, focusing on the phonetic, lexical, and stylistic capacities of poetic language. Since the 1940s, the study of literary language has been established in Uzbek linguistics, with particular attention given to the language of poetry and its aesthetic impact. In poetry, melodiousness, the role of rhyme in harmony, and the phonemic coherence are considered essential components of poetic speech.*

Key words: *literary text, poetic speech, stylistic figure, simile, epithet, metaphor, phonetic harmony, dog image, symbol of loyalty, lyrical image, figurative meaning.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini lingvistik jihatdan o‘rganish XX asrning 40-yillaridan boshlab alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Bu yondashuv she’riyat tilining fonetik, leksik, sintaktik va stilistik qatlamlarini chuqur tahlil qilishga imkon yaratdi. Ayniqsa, poetik nutqning ohangdorligi, ritmik qurilishi va estetik ta’sir kuchi tilshunoslik nuqtai nazaridan muhim tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda.

She’r san’ati o‘ziga xos til vositalari orqali hayotga munosabatni his-tuyg‘ular bilan ifodalash, o‘quvchiga estetik zavq ulashish vazifasini bajaradi. Bu jarayonda tashbeh, epitet, metafora, omonimik shakldoshlik kabi stilistik figuralar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Iqbol Mirzo ijodida bu vositalarning poetik nutqdagi funksiyasi, obraz yaratishdagi ta’siri va semantik tovlanishi alohida e’tiborga loyiq.

Mazkur maqolada Iqbol Mirzo she’rlari misolida badiiy til vositalarining qo‘llanish xususiyatlari, ularning poetik nutqdagi estetik va semantik yuklamalari tahlil qilinadi. Tadqiqot she’riyat tilining lingvistik jihatdan o‘rganilishi, stilistik figuralarning funksional imkoniyatlari va badiiy ifoda darajasini aniqlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Bu borada bir qator

tilshunos olimlar tomonidan poetik nutqning lingvistik xususiyatlari, stilistik figuralarning funksional imkoniyatlari va badiiy til vositalarining estetik ta’siri chuqur tahlil qilingan.

G‘. Rahmatullayev, N. Madrahimov, S. Sultonsaidova kabi olimlar o‘zbek tilining stilistik qatlamlarini, ayniqsa badiiy matnlarda qo‘llaniladigan tashbeh, metafora, epitet, ko‘chma ma’no kabi vositalarning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida she’r tilining ohangdorligi, ritmik qurilishi va semantik tovlanishi alohida e’tiborga olingan.

O. Sharipova va M. Jo‘rayev tomonidan stilistik figuralarning sintaktik va leksik shakllari, ularning poetik nutqdagi roli, shoirlik mahorati bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, stilistik figuralarning badiiy obraz yaratishdagi o‘rni, ularning hissiy ta’sir kuchi va estetik funksiyasi yoritilgan.

Iqbol Mirzo ijodi tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilganida, uning she’rlarida omonimik shakldoshlik, tashbehi sareh, aks-teskari o‘xshatish, epitetlar kabi stilistik vositalarning mahorat bilan qo‘llanishi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Shoirning “itdek” va “vafodor itdek” misralari orqali bir so‘zning turli semantik qirralarini ifodalashi, poetik nutqning obrazlilik darajasini oshirgan.

Badiiy tilning semantik imkoniyatlari haqida yozilgan maqolalarda so‘z ma’nosining tovlanishi, ko‘chma ma’nolar, so‘z o‘yinlari va ma’noviy san’atlar she’riyatda fikrni obrazli ifodalashda qanday xizmat qilishi yoritilgan. Bu jihatlar shoirning individual uslubini shakllantirishda muhim omil sifatida ko‘riladi.

Ushbu adabiyotlar O‘zbek she’riyatida til vositalarining estetik va semantik jihatdan qanday ishlatilishini, stilistik figuralarning poetik nutqdagi funksiyasini va shoirlik mahoratini yoritadi. Tadqiqotlar she’r tilining lingvistik tahliliga asoslanib, badiiy ifoda darajasini aniqlashda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganish XX asrning 40-yillaridan boshlandi. She’r poetik nutq talablari asosida ohang jihatdan ma’lum bir tartibga solingan, hayotga munosabatni his-tuyg‘ular vositasida ifodalaydigan, o‘quvchiga estetik ta’sir etadigan, muayyan ritmik qurilishga ega bo‘lgan ijod mahsulidir. She’riyatda ohangdorlik yoki hushohanglikni ta’minlash eng birinchi shart hisoblanadi. Unda so‘zlar tarkibida qatnashuvchi tilning eng kichik birligi – fonemalar ham, qofiyalar ham xushohanglikka xizmat qilishi lozim. Bularning hammasiga til vositalari orqali erishiladi. She’r san’ati hozirgi tilshunoslikka tegishli manbalarda goh ritorik figuralar, goh sintaktik figuralar, goh stilistik figuralar tarzida taqdim etiladi. Keng ma’noda bu tushunchalar doirasiga ko‘chimlar ham, stilistik figuralar ham kiritiladi.

She’riyatda sadoqat, vafodorlik ramzini ifodalashda it obrazidan keng foydalaniladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida bu obraz deyarli har bir shoir lirikasida yetakchi o‘rinlardan biri hisoblanadi. Ba’zan ruhiy kechinmalar, ziddiyatli tushkun holatlar, itning holatiga qiyoslanadi. Shoirlar it obrazini lirik qahramonga o‘xshatishga bevosita tashbeh-tashbehi sareh usulini qo‘llaydilar:

Meni itdek haydadi ayol,
Meni vafodor itdek… ketmadim
(Iqbol Mirzo, “Muhabbatsiz visol haqida hikoya”)

Iqbol Mirzo qalamiga mansub misralarda it obrazi ikki ma’noda o‘xshatish vazifasini bajargan. Birinchi misrada itdek – it kabi xor qilib, ikkinchi misrada esa it vafodor epiteti bilan sadoqat ramzi ma’nosini anglatgan. Shoir tildagi lug‘aviy birliklarning ma’no qirralarini mukammal anglashi va ularni matnda muvaffaqiyatli qo‘llashi tufayli “it” tashbehining omonimik shakldoshlik holati yuzaga kelgan hamda original shaklda tashbeh yaratilan. Har uchala misolda o‘xshatish vositalari-dek, -day qo‘shimchalari orqali yaratilgan.

Iqbol Mirzo she’rlarida tashbehning bir nechta turlari ishtirok etib, so‘zlardagi ohangdoshlik o‘xshatishlarning ta’sirchanligini oshiradi:

Qachondir osmonni ag‘darardi ham
Dimog‘im achishdi ko‘zga keldi nam:
Meni yelkasida ko‘targan akam-
Qaddi kamon bo‘pti allaqachonlar.
Qachondir ko‘zida ko‘rgandim yulduz.
Yuzi olma kabi tarang va qirmiz,

Menga ro‘molchasin bergan o‘sha qiz-
Rangi somon bo‘pti allaqachonlar. (Iqbol Mirzo, “Qachondir”)

“Qaddi kamon” birikmasi ko‘chma ma’noda “egilgan” ma’nosini anglatsa-da, ushbu misrada u “qarigan”, “yoshi o‘tgan” ma’nosini ifodalash uchun qo‘llangan. Keying misrada tashbehi aks-teskari o‘xshatish mavjud. “Qachondir ko‘zida ko‘rgandim yulduz” misrasi orqali ko‘zlari yulduz birikmasi “porloq” ma’nosida kelgan. Tashbehi sareh “yuzi olma kabi” birikmasida aks etib, keyingi so‘zlar “tarang va qirmiz” olma uchun epitet vazifasini bajargan.

Shoir “muhabbat izhor qilmoq”, “ko‘ngil bermoq” tushunchasining umuman yangicha ifodasini yaratgan. “Menga ro‘molchasin bergan o‘sha qiz” misrasi shoir tomonidan mahorat bilan qo‘llanishi she’rning ta’sirchanligini oshirgan. Oxirgi misradagi “rangi somon” epiteti “qarigan”, “keksaygan” ma’nosini ifodalagan.

O‘zbek tilida so‘z ma’nosining tovlanishi asosida qator so‘z o‘yinlari qo‘llanadi. So‘z ma’nosining ko‘chishiga asoslangan san’atlar badiiy adabiyotda ma’noviy badiiy san’at sifatida shakllanadi. Ma’noviy san’atlar she’riyatning asosiy tasviriy vositalaridan biri bo‘lib, shoir uchun fikrni obrazli, ifodalash, mazmunli rang – barang uslubiy ko‘rinishlarida bayon qilishda imkoniyat yaratadi.

She’riyat tilining badiiy-estetik imkoniyatlarini tahlil qilishda fonetik uyg‘unlik, leksik tovlanish va stilistik figuralarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tashbeh san’ati orqali shoirlar abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar bilan bog‘lab, o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi. Bu jarayonda epitetlar obrazga rang, hissiyot va mazmun yuklaydi, metaforalar esa fikrni chuqurlashtiradi.

Iqbol Mirzo ijodida bu vositalarning uyg‘unligi she’rning ohangdorligini, ritmik tuzilishini va semantik chuqurligini ta’minlaydi. Shoirning “Qachondir” she’rida o‘tmish va hozirgi holat kontrasti orqali inson hayotining o‘tkinchiligi, yoshlikning go‘zalligi va qarilikning sokinligi poetik tarzda ifodalangan. Bu misralarda aks-teskari tashbeh, ko‘chma ma’no, epitet va ritmik qurilish bir butunlikda ishlatilgan.

Bundan tashqari, o‘zbek she’riyatida it obrazi orqali sadoqat, vafodorlik, ba’zan esa xorlik ramzlari ifodalanadi. Bu obrazning omonimik shakldoshlikda qo‘llanishi shoirning til imkoniyatlarini chuqur anglaganini ko‘rsatadi. “Itdek haydadi” va “vafodor itdek ketmadim” misralari orqali bir so‘zning ikki qirrali ma’nosi poetik nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

She’r tilidagi bunday stilistik yondashuvlar o‘zbek tilshunosligida badiiy tilning lingvistik tahlili yo‘nalishini yanada boyitadi. Bu esa tilshunoslik va adabiyotshunoslikning integratsiyalashgan yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasi va muhokama.

Tadqiqot natijalari

She’r tilining ohangdorligi, ritmik qurilishi va estetik ta’sir kuchi tilshunoslik nuqtai nazaridan muhim tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda.

Iqbol Mirzo she’rlarida tashbehning bir nechta turlari ishtirok etib, so‘zlardagi ohangdoshlik o‘xshatishlarning ta’sirchanligini oshiradi.

“Itdek haydadi” va “vafodor itdek ketmadim” misralarida it obrazi ikki qirrali ma’noda qo‘llanilib, omonimik shakldoshlik orqali poetik ta’sir kuchaytirilgan.

“Qachondir” she’rida “qaddi kamon”, “ko‘zida yulduz”, “yuzi olma kabi” kabi birikmalar orqali tashbeh, epitet va aks-teskari o‘xshatishlar uyg‘un tarzda qo‘llanilgan.

Shoir “menga ro‘molchasin bergan o‘sha qiz” misrasi orqali “muhabbat izhor qilmoq” tushunchasini yangicha ifodalagan.

“Rangi somon” epiteti orqali qarilik ramzi poetik tarzda ifodalangan.

Ma’noviy san’atlar – ko‘chma ma’nolar, so‘z o‘yinlari va stilistik figuralar she’riyatda fikrni obrazli ifodalashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

She’r tilining lingvistik tahlili O‘zbek tilshunosligida XX asrning 40-yillaridan boshlab alohida yo‘nalish sifatida shakllangan. Bu yondashuv she’rni nafaqat estetik, balki fonetik, sintaktik va stilistik jihatdan ham o‘rganishga asos bo‘lgan.

Poetik nutqning ohangdorligi she’riyatda asosiy talab sifatida belgilangan. Fonemalar, qofiyalar va stilistik figuralar she’rning musiqiyligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Tashbeh san'ati Iqbol Mirzo she'rlarida keng qo'llanilgan bo'lib, u orqali shoir obrazlarni chuqur ma'no yuklab ifodalagan. Ayniqsa, "it" obrazi orqali sadoqat va xorlik ramzlari birgalikda yoritilgan.

Omonimik shakldoshlik orqali bir so'zning turli ma'nolarda qo'llanishi poetik ifodaning ta'sirchanligini oshirgan. "Itdek" va "vafodor itdek" misralari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Tashbehi sareh va aks-teskari o'xshatishlar she'rda obrazli fikrni kuchaytirgan. "Qaddi kamon", "ko'zida yulduz", "yuzi olma kabi" kabi birikmalar orqali shoir o'tmish va hozirgi holatni kontrast tarzda yoritgan.

Epitetlar orqali shoir obrazlarga rang va hissiy tus bergan. "Rangi somon" kabi ifodalar orqali qarilik, o'tgan yoshlik ramzlari berilgan.

Ma'noviy badiiy san'atlar – ko'chma ma'nolar, so'z o'yinlari va stilistik figuralar she'riyatda fikrni obrazli va estetik tarzda ifodalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

Muhokama

Mazkur tadqiqot Iqbol Mirzo she'riyatida til vositalarining poetik san'at darajasida qo'llanishini yoritadi. Shoirning badiiy mahorati, ayniqsa tashbeh va epitetlardan foydalanishdagi nozik didi, she'r tilining estetik va semantik qatlamlarini chuqurlashtiradi. "It" obrazining ikki qirrali talqini – xorlik va sadoqat – o'quvchida kuchli hissiy rezonans uyg'otadi. Bu holat shoirning til imkoniyatlarini chuqur anglaganini va ularni badiiy maqsadga muvaffaqiyatli yo'naltirganini ko'rsatadi.

Shuningdek, "Qachondir" she'rida o'tmish va hozirgi holatni kontrastlash orqali inson hayotining o'tkinchiligi, yoshlikning go'zalligi va qarilikning sokinligi poetik tarzda ifodalangan. Tashbehning turli shakllari – sareh, aks-teskari, epitetli – she'rda ohangdorlikni kuchaytirib, obrazlarning ta'sirchanligini oshirgan.

Umuman olganda, bu tadqiqot o'zbek she'riyatida til vositalari orqali estetik ifoda yaratishning nazariy va amaliy jihatlarini ochib beradi. Iqbol Mirzo misolida ko'rilgan til san'atlari O'zbek tilshunosligida poetik nutqni o'rganishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda O'zbek she'riyatida til vositalarining badiiy ifoda yaratishdagi o'rni tahlil qilindi. Ayniqsa, Iqbol Mirzo she'rlari misolida tashbeh, epitet, omonimik shakldoshlik, aks-teskari o'xshatish kabi stilistik figuralarning poetik nutqdagi funksiyasi yoritildi. She'r tilining ohangdorligi, ritmik qurilishi va estetik ta'sir kuchi tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy asar tilini o'rganish nafaqat adabiy, balki lingvistik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Til vositalari orqali yaratilgan obrazlar, ularning semantik tovlanishi va stilistik ko'rinishlari she'riyatning mazmuniy chuqurligini oshiradi. Iqbol Mirzo ijodida bu jihatlar yuksak darajada namoyon bo'lib, o'zbek she'riyatida til san'atining imkoniyatlari kengligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. N.G'afurov. Badiiy matn lingvistikasi. Toshkent: Fan nashriyoti 2008-yil
2. N.Jo'rayev. She'riyat tilining badiiy xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. 2013-yil
3. Iqbol Mirzo. Qachondir. G'afur G'ulom nomidagi nashriyoti. 2007-yil
4. Iqbol Mirzo. Muhabbatsiz visol haqida hikoya. Toshkent: Yozuvchi. 2005-yil
5. Sultonsaidova S., Sharipova O. O'zbek tili stilistikasi. - Toshkent: Yurist-Media Markazi, 2009. - 112 bet.
6. Rahmatullayev G'. O'zbek tilining izohli stilistik lug'ati. - Toshkent: Fan, 1981. - 240 bet.
7. Madrahimov N. She'riyatda til vositalari. - Toshkent: O'qituvchi, 1996. - 180 bet.
8. Jo'rayev M. Badiiy til va obrazlilik. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003. - 156 bet.
9. Sharipova O. Til va uslub. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. - 128 bet.
10. Iqbol Mirzo. Muhabbatsiz visol haqida hikoya. - Toshkent: Yozuvchi, 2001. - 96 bet.
11. Iqbol Mirzo. Qachondir. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. - 104 bet.

Saidova Saida Zoyir qizi
Navoiy viloyat Pedagogik mahorat markazi texnologiya fani metodisti
Buxoro xalqaro universiteti pedagogika nazariyasi tarixi yo'nalishi magistranti
E-mail: ssaidova2304@gmail.com

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inson tafakkuri, kreativ tafakkurni rivojlantirish, texnologiya fanining rivojlanish tarixi, texnologiya fanini o'qitishda STEAM yondashuvining ahamiyati va uning o'quvchilar hayotidagi o'rni hamda ulardan hayotiy ko'nikma hosil qilish tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar. *texnologiya fani, STEAM yondashuvi, kreativ tafakkur, muhandislik, fikrlash, innovatsion metodlar, mohirlik, yaratuvchilik, san'at.*

DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING IN TECHNOLOGY LESSONS

Abstract. *This article analyzes the development of human thinking, creative thinking, the history of the development of technology, the importance of the STEAM approach in teaching technology, its role in students' lives, and the development of life skills in them.*

Key words: *technology, STEAM approach, creative thinking, engineering, thinking, innovative methods, skill, creativity, art.*

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. *В статье анализируется развитие человеческого мышления, творческого мышления, история развития технологий, значение STEAM-подхода в обучении технологиям, его роль в жизни учащихся и формировании у них жизненных навыков.*

Ключевые слова: *технология, STEAM-подход, творческое мышление, инженерия, мышление, инновационные методы, мастерство, креативность, искусство.*

Kirish. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi.U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur - inson miyasining alohida funksiyasi bo'lib, bu jarayonda inson fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash jarayoni nutq shaklida namoyon bo'ladi. Bu shaklda o'quvchi o'zi uchun qiziq bo'lgan ma'lumotlar haqida fikr yuritadi mulohaza qiladi yangilik kiritadi o'z g'oyalari bilan boyitgan holda tafakkur qiladi.

O'quvchi tafakkuri – atrof –muhitni, o'quv jarayonini, hayotiy hodisalarni idrok etishi, tahlil qilishi, solishtirishi va o'zi mustaqil xulosaga kelish jarayonidir. Aynan shu jarayon o'quv faoliyatining muhim psixologik asosi hisoblanadi. O'quvchi tafakkurining asosiy xususiyatlari mavjud bo'lib, ular faollik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik, tanqidiy tafakkur, ijodiy tafakkur bilan yondashish, mantiqiy tafakkur turlarini o'z ichiga oladi. Dars davomida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga ba'zi omillar ta'sir etadi, bu omillar o'z o'rnida o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchining mahorati, metodikasi, yangi uslublar, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyat uchun izlanishga bo'lgan ehtiyoji, o'quv dasturi, kitoblar, raqamli texnologiyalar, electron darsliklar va hayotiy tajriba, hayotiy etuvchi omil hisoblanadi ko'nikma va shu bilan birga oila, maktab, jamiyat, sinf jamoasi muhiti ta'sir.

Kreativlik – bu yangi g'oyalarni o'ylab topish, mavjud g'oyalarni bog'lash va o'ziga xos yechimlar topish qobilyati bo'lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik, yangilikni o'zida mujassam etishdir. Kreativlik muammoga yangicha yondashish, boshqalardan ajralib turish, muvaffaqiyatga erishishda

bu qobilyat juda muhim hisoblanadi. Kreativ fikrlashning mohiyati shundaki, bu yaratuvchanlik, ijodkorlik, muammoni turli tajribalar bilan bog'lab yechim topish. Bizga o'quvchilarga kreativlik nima uchun kerak, inson o'z sohasida yangi, kutilmagan g'oyalar bilan muvaffaqiyat qozona oladi. Hozirgi bir xillikdan zerikkan jamiyatda kreativ fikrlar oladigan shaxslar qadrlanadi va o'z o'rnini topa oladi. Muammoni har xil usullar bilan hal etishga imkon beradi va rivojlantiradi. Inson o'zida kreativlikni rivojlantirish orqali yangilikni o'rganishi, tasavvurini kengaytirishi va hattoki qat'iyatlilikni shakllantira oladi.

Kreativ tafakkur – bu insonning mavjud bilim va ko'nikmasini noodatiy shaklda qo'llash, yangi g'oya va innovatsion yechimlar ishlab chiqish, muammolarga yangicha yondashish, mavjud muammolarni yangidan tahlil qilish qobilyatidir. Kreativ tafakkurning asosiy jihatlari mavjud bo'lib, quyidagilardan iboratdir.Oddiy bo'lmagan, ilgari qo'llanilmagan fikrlarni targ'ib etish – yangilik yaratish.Muammoga va vaziyatga qarab turlicha yondashib yechim topa olish - moslashuvchanlik.Boshqalardan farqlanuvchi, takrorlanmas g'oyalarni ilgari surish darajasida fikrlash.Noodatiy usullar orqali muammoni hal qilishning samarali yechimni topish.Borliqdagi narsalarni yangicha shaklda fantaziya va tasuvvur bilan ko'ra olish.Oddiy narsadan (chiqindilardan) yangi, kerakli mahsulot san'at asari yaratish.O'quv mashg'ulotlari davomida muammoni hal qilishda turli yo'llarni sinab ko'rish darsni faqat nazariy asosda emas, balki turli xil interaktiv o'yinlar,zamonaviy metodlar orqali o'rgatish.Kreativ tafakkur insonni yangilikka intiluvchan, ijodkorlik salohiyatiga ega, innovatsion yondashuvi keng shaxs sifatida rivojlantiradi.

Texnologiya so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib "mohirlik", "yaratish", "san'at" degan ma'nolarni anglatadi. Texnologiya fani shunday fanki , qurilish, transport, sanoat,qishloq xo'jaligi va yana bir qancha sohalarda mahsulotlarga ishlov berish, qayta ishlash, ishlab chiqarish, mahsulatlarni yangilash bilan shug'ullanadi. Shundan ma'lumki, texnologiya fani juda qadim tarixga ega bo'lib, inson taraqqiy topishi bilan bog'liq holda bir necha davrga bo'linadi. Qadimgi davr, o'rta asr, uyg'onish davri va yangi davr, sanoat inqilobi, XX asr, XXI asr texnologiyasi.Bular o'z ichiga rivojlanish davridan kelib chiqqan holda turli buyumlar ishlab chiqish, qayta ishlash, toshdan mehnat qurollari yasashni, keyinchalik esa metallni qayta ishlab buyumlar, asboblar yasash texnologiyasi, dehqonchilik va chorvachilikda yer haydash, ekinlarni sug'orish bilan rivojlanib bordi. O'z davriga kelib o'rta asrlarda hunarmandchilik rivojlanib temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik, yog'och o'ymakorligi rivojlana boshladi. Insoniyat yashab yangiliklarga intilar ekan o'z-o'zidan yangi ixtirolar vujudga kela boshlaydi, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda energiya turlariga asos solina boshlandi. Shamol generatorlari, suv tegirmonlari shular jumlasiga kiradi. Aynan shu davrga kelib Beruniy, Ibn Sino, Farobiy kabi sharq allomalari texnika va texnologiyafani uchun yirik kashfiyotlani amalga oshirganlar. Uyg'onish davri va yangi davr texnologiyasida muhandislik, astranomiya, mexanika va ijtimoiy taraqqiyotga o'z ta'sirini ko'rsatdi bu davrda ham mashhur olimlar o'z ixtirolarini yaratganlar masalan, Leonardo da Vinchi uchish apparati, mexanik qurilmalar, Yoxann Gutenberg kitob bosish texnologiyasini yaratgan. Shundan keyin texnologiyada mexanizatsiyalash rivojlanib temir yo'llar, bug' mashinalari, paraxodlar, elektr tokini ishlab chiqarish va undan foydalanish yo'lga qo'yildi. Ketma–ketlikda avtomobilsozlik, samalyot, kemasozlik, radiotexnika,telefon, atom energiyasi foydalanilgan. Texnologiya fani integratsiyalashgan holda informatika, kibernetika, raqamli texnologiyalar, internet, sun'iy intelekt va robototexnika birgalikda foydalanilib kelinmoqda. Texnologiya fani insoniyat rivojlanishi bilan birga shakllanib, oddiy mehnat qurollaridan boshlab sun'iy intellektgacha taraqqiy topdi. Bugungi kunga kelib esa, texnologiya fani nafaqat ishlab chiqarish, balki sanoat, ta'lim, tibbiyot, transport, aloqa va kundalik hayotda ham o'rni juda muhimdir. Texnologiya fani amaliy fanlar qatorida bo'lganligi uchun o'quvchilarning kreativ taffakurini rivojlantirish uchun juda qulay fan hisoblanadi. Fikrlashni ko'rinadigan qilish uchun esa, o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini ravshan qilishda kognitiv shogirdlik (o'qituvchi faqat bilim berish emas, balki ularning bilim olishi va har qanday muammoni hal qilish jarayonini o'rgatishdir) kabi usullardan foydalanish va bu ularga o'zlarining ijodiy fikrlashlarini tahlil qilish bu o'rinda o'z-o'zidan refleksiv(o'z- o'zini tahlil qilish) amaliyotni amalga oshiriladi va yaxshilash imkonini beradi.

Metodlar. Texnologik xarita va chizma chizib loyiha asosida ishlash metodi. O'quvchilarda tasavvur va tushunchani shakllantirish uchun qo'llaniladi, bunda o'quvchilar tasavvuridagi buyumni

yasash uchun namuna ko'rishadi chizmasini chizishadi va 3D modellar yordamida tushunib bosqichma bosqich loyiha asosida amaliy ish bajariladi.

Natijalar. Loyiha metodi asosida o'quvchilar 1-bosqichda yasalayotgan buyum haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ladi(buyum nima, u dastlab qayerda ixtiro qilingan ,) 2-bosqichda texnologik xarita tayyorlanadi va shu asosida kerakli jihozlar tashkil etiladi. 3-bosqichda tayyorlov bosqichi bo'lib, unda buyum to'liq holatda yasaladi.4-bosqich taqdimot bosqichi bo'lib, tayyor buyum taqdim etiladi.Natijada o'quvchi ham chizma ham tarix hamda konstruktorlikni o'rganib o'zlashtiradi. Bunda fanlararo integratsiya holati amalga oshadi.

Usullar va texnikalar.

Ijodiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishda qo‘llaniladigan usullar va texnikalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarga noodatiy yondashuvi hamda innovatsion yechimlar topish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda dastlabki bosqichlarda aqliy hujum (brainstorming) usulidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod tanqidsiz muhitda imkon qadar ko‘p g‘oyalarni ilgari surishni nazarda tutadi. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan g‘oyalar, hatto eng g‘ayrioddiy va dadil bo‘lsa ham, rag‘batlantiriladi. Keyingi bosqichda esa g‘oyalar belgilangan mezonlar asosida guruhlanib, tahlil qilinadi va baholanadi.

Loyihaga asoslangan usul o‘quvchilarga g‘oyadan real natijaga o‘tish imkonini beradi. Muammoni hal qilish yoki yangi mahsulot yaratishga qaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Bu jarayonda zamonaviy raqamli vositalardan, masalan, Canva kabi onlayn dizayn platformalaridan foydalanish loyihalarning vizual va mazmuniy sifatini oshiradi.

Ijodiy fikrlashni kuchaytirishda sun’iy cheklovlar usuli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Cheklangan vaqt, material yoki vositalar sharoitida vazifani bajarish o‘quvchilarni yanada innovatsion va samarali yechimlar izlashga majbur qiladi. Bu esa ularning moslashuvchanlik va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot va tajriba faoliyati turli materiallar, texnikalar va formatlar bilan ishlashni rag‘batlantiradi. O‘quvchilarning turli ommaviy axborot vositalari va formatlarda asarlar yaratishi ijodiy jarayonni boyitib, yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Shuningdek, tahlil va qayta ishlash usuli orqali mavjud obyekt yoki g‘oyalarni chuqur o‘rganish, ularning elementlarini yangicha usulda birlashtirish va takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Texnologiya darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish ham kreativlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ertak bilan ishlash jarayonida uni faqat qayta hikoya qilish emas, balki ertak syujeti asosida hunarmandchilik buyumi yoki dizayn loyihasini yaratish o‘quvchilarning fanlararo tafakkurini kengaytiradi.

Ijodiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarur. Tanqidsiz madaniyat ijodkorlikni bo‘g‘ib qo‘ymaslik uchun muhim bo‘lib, g‘oya yaratish bosqichida har bir fikr qadrlanishi lozim. Ta’lim jarayonida faqat yakuniy natijaga emas, balki izlanish, tajriba va ijodkorlik jarayonining o‘ziga ham e’tibor qaratilishi o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Shuningdek, o‘quvchilarga mustaqil qaror qabul qilish va o‘z tanlovlari uchun javobgarlikni his etish imkonini berish ularning o‘ziga ishonchini oshiradi.

Didaktik o‘yinlar, xususan “Brainstorming”, “Eng noodatiy yechim”, “Bir buyum – o‘nta funksiyasi”, “Qanday bo‘lardi agar…?” kabi o‘yinlar o‘quvchilarning kreativ tafakkurini samarali rag‘batlantiradi. Bu o‘yinlar qo‘rquvni kamaytirib, barcha g‘oyalarni qadrlashga asoslangan ijobiy muhitni shakllantiradi.

Shuningdek, loyiha va dizayn faoliyati ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Maketlar yaratish, konstruktorlik ishlari, mahsulot dizayni va funksional buyumlar ishlab chiqish jarayonida o‘quvchilar nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada ularning ijodiy salohiyati, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari va innovatsion fikrlashi izchil ravishda rivojlanadi.

O‘quvchi g’oya – eskiz – model – mahsulot bosqichlarini mustaqil amalga oshira oladi.

Xulosa. Texnologiya darslarida o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining eng dolzarb masalalaridan biridir. Zamonaviy jamiyat va ishbilarmonlik muhiti o‘zgaruvchan va murakkab bo‘lgani sababli, faqatgina fakt va nazariy bilimga ega bo‘lgan shaxslar emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, ijodiy g‘oyalarni ishlab chiqa oladigan va ularni amalda

qo‘llay oladigan mutaxassislar talab qilinadi. Shu bois, texnologiya fanini o‘qitish jarayonida kreativ tafakkurini shakllantirish pedagogik va psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega.

Texnologiya darslari nafaqat texnik bilimlarni o‘rgatadi, balki o‘quvchilarda muammolarni hal qilish, yangicha yondashuvlarni topish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, loyiha usuli, innovatsion texnologiyalar, interfaol o‘quv mashg‘ulotlari va raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarni yangi g‘oyalar ishlab chiqishga rag‘batlantirish mumkin. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va individual yondashuvi ham ijodiy tafakkur rivojida muhim omildir. Har bir o‘quvchi o‘z qobiliyatiga mos vazifalar, erkin tanlov va ijodiy topshiriqlar orqali o‘z salohiyatini namoyon qilishi kerak.

O‘quvchilarda kreativ tafakkur rivojlanishi nafaqat texnologiya fanidagi bilimlarni chuqurlashtiradi, balki ularning hayotiy ko‘nikmalari, mas’uliyat hissi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini ham oshiradi. Shu sababli, texnologiya darslarida ijodiy yondashuvlarni muntazam qo‘llash, darslarni interfaol va loyihaviy shaklda tashkil etish, shuningdek, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish — samarali ta’limning asosiy mezonlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya darslarida kreativ tafakkurini rivojlantirish nafaqat o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qiladi, balki o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish qobiliyatlarini shakllantirish orqali ularni kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lishiga tayyorlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon ta’lim sifatini oshirish va innovatsion jamiyat talablariga javob beradigan malakali kadrlarni yetishtirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Beers S. 21st Century Skills: Preparing Students for Their Future. – Alexandria, VA : ASCD, 2016. – 243 p.

2. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Integrative Education // Pupils’ Attitudes Towards Technology. – 2008. – P. 335–358.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim sohasiga oid qarorlar va farmonlar [Elektron resurs]. – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi. –URL: https://lex.uz

4. Normurodov Sh. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion metodlar. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2022. – 120 b.

5. Nazarova L. Ta’lim: kecha, bugun va ertaga [Elektron resurs] // Vikipediya, erkin ensiklopediya. –URL: https://uz.wikipedia.org

6. Vikipediya. O‘zbekcha bo‘lim [Elektron resurs]. –URL: https://uz.wikipedia.org

Xalilov Shaxobiddin Fayziyevich
доцента Навоийского инновационного университета PhD
E-mail: shaxobiddin77@gmail.com,
Mirzaqobilova Lola Niyatqobilovna
учительница центра педагогического мастерства Навоийской области
E-mail: lolamirzaqobilova@gmail.com

СРАВНЕНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ТЕОРИИ ТОЛСТЫХ И ТОНКИХ ОБОЛОЧЕК ДЛЯ ЗАГЛУБЛЕННЫХ ОРТОТРОПНЫХ ЦИЛИНДРИЧЕСКИХ ОБОЛОЧЕК

Аннотация. *В работе рассматривается сравнение результатов теории толстых и тонких оболочек для заглубленных ортотропных цилиндрических оболочек влияние сейсмических волн на ортотропную цилиндрическую оболочку, расположенную в вязкоупругой среде. В более ранней работе [1] авторы изучали динамическую реакцию захороненной бесконечной ортотропной цилиндрической оболочки под возбуждением продольных сжимающих волн, распространяющихся в окружающей бесконечной среде. Была использована формулировка теории толстой оболочки, включающая эффект деформации сдвига и вращательной инерции. Для динамического случая Сузуки [2] и Чонан [3,4] сравнили реакцию цилиндрической оболочки, полученную из теорий толстой и тонкой оболочек. Однако ни одна из этих бумаг не касалась захороненных снарядов. По наилучшим знаниям авторов, существует только одна работа [5], также приписываемая Чонану, в которой обсуждаются различия между результатами теорий толстых и тонких оболочек для захороненных цилиндрических оболочек. В справке [5] использовалась несовершенная связь между оболочкой и окружающей средой. Основной акцент делается на влиянии несовершенного сцепления, а не на параметры (состояние) почвы, которые приняты постоянными. Далее, в данной работе результаты ограничены только сравнением радиальных перемещений, в то время как известно [6] что наиболее частой причиной неисправности при сейсмическом сотрясении подземных трубопроводов является чрезмерное осевое перемещение. Таким образом, похоже, нет работы, в которой сравнивались бы реакции захороненных ортотропных (или даже изотропных) толстых и тонких цилиндрических оболочек в различных почвенных условиях. Поэтому основной целью сравнения результатов теории толстой и тонкой оболочек в данной работе является изучение характера вариации как качественных, так и количественных различий между двумя результатами при изменении жесткости окружающего грунта. Другим важным соображением является то, как изменения результатов из-за вариации параметров ортотропии сравниваются с различиями в результатах из-за использования теории тонких или толстых оболочек.*

Ключевые слова: *оболочка, жидкость, вязкоупругая среда, сейсмические волны, гармоническая функция, модифицированные функции Бесселя первого и второго рода.*

CHUQURLASHGAN ORTOTROPIK SILINDRIK QOBIQLAR UCHUN QALIN VA YUPQA QOBIQLAR NAZARIYASI NATIJALARINI TAQQOSLASH

Annotatsiya*. Ishda qovushqoq-elastik muhitda joylashgan ortotropik silindrik qobiqqa seysmik to‘lqinlarning ta’siri chuqurlashgan ortotropik silindrik qobiqlar uchun qalin va yupqa qobiqlar nazariyasi natijalarini taqqoslash ko‘rib chiqilgan. Avvalgi ishda [1] mualliflar atrofdagi cheksiz muhitda tarqaladigan bo‘ylama siquvchi to‘lqinlar ta’sirida ko‘milgan cheksiz ortotropik silindrik qobiqning dinamik reaksiyasini o‘rganishgan. Siljish deformatsiyasi va aylanma inersiya ta’sirini o‘z ichiga olgan qalin qobiq nazariyasining ta’rifidan foydalanildi. Dinamik holat uchun Suzuki [2] va Chonan [3,4] qalin va yupqa qobiqlar nazariyalaridan olingan silindrik qobiq reaksiyasini taqqosladilar. Biroq bu qog‘ozlarning birortasi ham ko‘milgan snaryadlarga tegishli*

emasdi. Mualliflarning eng yaxshi bilimlariga ko'ra, Chonan tomonidan yozilgan faqat bitta ish [5] mavjud bo'lib, unda ko'milgan silindrsimon qobiqlar uchun qalin va yupqa qobiqlar nazariyalari natijalari o'rtasidagi farqlar muhokama qilinadi.

Tayanch iboralar: *qobiq, suyuqlik, qovushqoq-elastik muhit, seysmik to'lqinlar, garmonik funksiya, birinchi va ikkinchi tur modifikatsiyalangan Bessel funksiyalari.*

COMPARISON OF THE THICK AND THIN SHELL THEORY RESULTS FOR DEEP ORTHOTROPIC CYLINDRICAL SHELLS

Abstract. *The work compares the results of thick and thin shell theory for embedded orthotropic cylindrical shells and examines the influence of seismic waves on an orthotropic cylindrical shell located in a viscoelastic medium. In an earlier work [1], the authors studied the dynamic reaction of a buried infinite ortotropic cylindrical shell under the excitation of longitudinal compressive waves propagating in the surrounding infinite medium. The formulation of the thick shell theory, including the effect of shear deformation and rotational inertia, was used. For the dynamic case, Suzuki [2] and Chonan [3,4] compared the reaction of a cylindrical shell obtained from the thick and thin shell theories. However, none of these papers touched upon the buried shells. According to the best knowledge of the authors, there is only one work [5], also attributed to Chonan, which discusses the differences between the results of thick and thin shell theories for buried cylindrical shells.*

Key words: *shell, liquid, viscoelastic medium, seismic waves, harmonic function, modified Bessel functions of the first and second kind.*

Формулирование и охватывание уравнений.

Порядок и детали формулировки задачи осесимметричного отклика бесконечно длинной ортотропной круговой цилиндрической оболочки, погруженной в линейно-упругую, однородную и изотропную бесконечную среду и возбужденной продольным материалом, движущимся вдоль оси оболочки, уже были представлены авторами в предыдущей работе [1]. Поэтому в данной работе даны только те описания и уравнения, которые считаются необходимыми для полноты.

Уравнения толстой оболочки

В справочнике [1] была использована толстая оболочечная модель, включающая в себя влияние вращательной инерции и деформации сдвига. Для описания геометрии оболочки была выбрана цилиндрическая полярная система координат, совпадающая с осью оболочки. Соотношения напряжения и деформации для материала оболочки были приняты следующим образом:

$$\sigma_{xx} = E_{x1}\varepsilon_{xx} + E_{\nu 1}\varepsilon_{\theta\theta},\ \sigma_{\theta\theta} = E_{\nu 1}\varepsilon_{xx} + E_{\theta 1}\varepsilon_{\theta\theta},\ \sigma_{xr} = G_{x1}2\varepsilon_{xr} \qquad (1)$$

с E_{x1}, $E_{\theta 1}$, $E_{\nu 1}$ и G_{x1} в качестве четырех независимых модулей. Для оболочки со средним радиусом R, толщиной h и плотностью ρ_0, и возбуждаемой плоским продольным материалом с длиной волны $A = (2\pi/\xi)$ и скоростью $c(=w/\xi)$, движущимся вдоль оси оболочки в среде, окончательные уравнения реакций оболочки получены в виде:

$$\left[[Q] - \bar{\mu}[P] - \Omega^2[N]\right]\{Z\} = -\bar{\mu}[P]\{F\} + \bar{\mu}\{H\}\left(1 + \bar{h}/2\right), \qquad (2)$$

где $\Omega^2 = \left(\rho_0 hR/G_{x1}\right)w^2 = \chi^2\beta^2\bar{c}^2\bar{h}\bar{\mu}\bar{\rho}$ представляет собой квадрат неразмерной частоты с

$$\bar{h} = h/R,\ \bar{\rho} = \rho_0/\rho_m,\ \bar{\mu} = \mu/G_{x1},\ \bar{c} = c/c_1,\ \beta = \xi R = 2\pi R/A,\ \chi^2 = c_1^2/c_2^2 = 2(1-m)/(1-2m)$$

(m - Пуассоновское отношение окружающей среды) и $c_1 = \left\{ (\lambda + 2\mu) / \rho_m \right\}^{1/2}$ и $c_2 = \left(\mu / \rho_m \right)^{1/2}$ как скорости продольной и скользящей волн соответственно в среде в зависимости от Ламе константы $(\lambda \text{ and } \mu)$ (J и J) и плотность ρ_m, , среды (окружающей почвы).

Элементы матриц $[Q], [N], \{Z\}, \{F\} \; и \; \{H\}$ были найдены как

$$Q_{11} = \bar{h}\left(\eta_1 / \eta_3\right)\left(1 + \bar{h}/12\right) + \bar{h}k^2\beta^2, \quad Q_{12} = -2i\beta k^2, \quad Q_{13} = i\bar{h}\beta\eta_2/\eta_3$$

$$Q_{21} = -Q_{12}, \; Q_{22} = \left(4/\bar{h}\right)\left(\frac{1}{12}\bar{h}^2\left(\beta^2/\eta_3\right) + k^2\right), \quad Q_{23} = \frac{1}{6}\bar{h}^2\beta^2/\eta_3,$$

$$Q_{31} = -Q_{13}, \; Q_{32} = Q_{23}, \; Q_{33} = \bar{h}\beta^2/\eta_3;$$

$$N_{11} = N_{33} = 1, N_{12} = N_{13} = N_{21} = N_{31} = 0, \; N_{22} = \frac{1}{3}, \; N_{23} = N_{32} = \bar{h}/6;$$

$$F_1 = \bar{c}_1 I_1(\alpha_1), \; F_2 = 0, F_3 = i\beta I_0(\alpha_1);$$

$$H_1 = \left[\left(I_0(\alpha_1)\right)\left(\gamma^2\chi^2 - 2\beta^2\right) + 2\bar{c}_1 I_1(\alpha_1) / \left(1 + \bar{h}/2\right) \right], \; H_2 = H_3 = 2i\bar{c}_1\beta I_1(\alpha_1);$$

$$\{Z\} = [W \; V \; U]^T = \left[\left(\bar{w}_0/d_0\right) \quad \left(\bar{\psi}_x \, h/2d_0\right) \quad \left(\bar{u}_0/d_0\right) \right]^T \tag{3}$$

А компоненты $[P]$ были

$$P_{11} = \left(1 + \bar{h}/2\right)\left[\bar{c}_2 \left\{ \gamma^2\chi^2 K_0(\alpha_1) K_0(\alpha_2) / D \right\} - 2/\left(1 + \bar{h}/2\right) \right],$$

$$P_{12} = -P_{21} = P_{13} = -P_{31} = -i\left(1 + \bar{h}/2\right)\beta\left[\left\{ \gamma^2\chi^2 K_1(\alpha_2) K_0(\alpha_1) / D \right\} + 2 \right],$$

$$P_{22} = P_{33} = P_{23} = P_{32} = \left(1 + \bar{h}/2\right)\left[\bar{c}_1\gamma^2\chi^2 K_1(\alpha_1) K_1(\alpha_2) / D \right], \tag{4}$$

где I_n и K_n $(n = 0,1)$ представляют собой модифицированные функции Бесселя первого и второго рода соответственно, а другие константы в уравнениях (3) и (4) были определены как

$$D = \bar{c}_1\bar{c}_2 K_1(\alpha_1) K_0(\alpha_2) - \beta^2 K_0(\alpha_1) K_1(\alpha_2), \; \alpha_1 = \bar{c}_1\left(1 + \bar{h}/2\right),$$

$$\alpha_2 = \bar{c}_2\left(1 + \bar{h}/2\right), \; \bar{c}_1 = \beta\sqrt{1 - \left(c/c_1\right)^2}, \quad \bar{c}_2 = \beta\sqrt{1 - \left(c/c_2\right)^2},$$

$$\gamma = \left(c/c_1\right)\beta, \; k = \pi/\sqrt{12}$$

(корректирующий коэффициент сдвига),

$$\eta_1 = E_{\theta 1}/E_{x1}, \; \eta_2 = E_{\nu 1}/E_{x1}, \; \eta_3 = G_{x1}/E_{x1},$$

Эти являются параметрами безразмерной ортотропии.

В векторе перемещения $\{z\}$, определенном в уравнениях (3), $\bar{w}_0$ и $\bar{u}_0$ представляют собой, соответственно, радиальные и осевые перемещения оболочки на ее средней поверхности, а d_0 - постоянная, зависящая от интенсивности падающей волны и имеющая размерность длины.

В случае плоской продольной волны, движущейся под углом ϕ с осью оболочки, кажущаяся скорость волны вдоль оси оболочки будет $\left(c = c_1 / \cos\phi\right)$.. Значение c/c_1, следовательно, всегда будет больше 10 и, поскольку аргументы I_n и K_n мнимые, они будут преобразованы соответственно в J_n и Y_n,.

Уравнения тонкой оболочки

Для тех же геометрических координат и обозначений для описания различных величин, и следуя процедуре и шагам, описанным в [1], окончательные уравнения ответов для тонкой оболочки можно выразить следующим образом:

$$\left[\left[Q^{'}\right]-\bar{\mu}\left[P^{'}\right]-\Omega^2\left[N^{'}\right]\right]\left\{Z^{'}\right\}=-\bar{\mu}\left[P^{'}\right]\left\{F^{'}\right\}+\bar{\mu}\left\{H^{'}\right\}\left(1+\bar{h}/2\right) \quad (6)$$

что точно идентично уравнениям (2).

Элементы матриц $\left[Q^{'}\right],\left[P^{'}\right],\left[N^{'}\right],\left\{Z^{'}\right\},\left\{F^{'}\right\}$ и $\left\{H^{'}\right\}$ определяются следующим образом:

$$Q_{11}^{'}=\left(1/\eta_3\right)\left(\bar{h}\eta_1\left(1+\bar{h}^2/12\right)+\bar{h}^3\beta^4/12\right),\ Q_{12}^{'}=\left(i\bar{h}\beta/\eta_3\right)\left(\eta_2+\bar{h}^2\beta^2/12\right),$$

$$Q_{21}^{'}=-Q_{12}^{'},\ \ Q_{22}^{'}=\bar{h}\beta^2/\eta_3;$$

$$P_{11}^{'}=P_{11},\ P_{12}^{'}=P_{12},\ \ P_{21}^{'}=-P_{12}^{'},\ P_{22}^{'}=P_{22};$$

$$N_{11}^{'}=N_{22}^{'}=1,\ \ N_{12}^{'}=N_{21}^{'}=0;$$

$$F_1^{'}=F_1,\ \ F_2^{'}=F_3;\quad H_1^{'}=H_1,\ \ H_2^{'}=H_2;$$

$$\left\{Z^{'}\right\}=\left[W\ \ U\right]^T=\left[\left(\bar{w}_0/d_0\right)\ \ \left(\bar{u}_0/d_0\right)^T\right]. \quad (7)$$

Результаты и обсуждение.

Во всех результатах, представленных на рисунках 1-7, соотношение плотностей оболочки и почвы, $\bar{\rho}$, и соотношение Пуассона почвы, m, поддерживалось постоянным: $\bar{\rho}=0\cdot30\ и\ m=0\cdot25$.. Во всех диаграммах, кроме диаграммы на рисунке 1, отношение толщины оболочки к радиусу $\bar{h}$, принято равным 0,10.

На рисунках 1 и 2 показаны графики критических скоростей $\bar{c}$, и параметра длины волны β, при $\bar{h}=0\cdot05\ и\ 0\cdot10,$ соответственно. Поскольку критические скорости волн практически не подвержены влиянию из-за изменений η_1 и η_2, в обеих этих фигурах в качестве параметра принят только η_3.




Рисунок 1. Критическая скорость волны $(\bar{c})$ против длины волны (β) с η_3 в качестве параметра.

$\bar{h} = 0.05,\ \bar{\rho} = 0 \cdot 30,\ \eta_1 = 0 \cdot 50,\ \eta_2 = 0 \cdot 05,\ m = 0 \cdot 25,\ \bar{\mu} = 10 \cdot 0, - -, .$ теория толстой оболочки; -, теория тонкой оболочки




Рисунок 2. Критическая скорость волны $(\bar{c})$ против длины волны (β) с η_3 как параметром $\bar{h} = 0 \cdot 10,$. другие параметры и ключ как Рисунок 1.

Далее, поскольку критические скорости волн существуют только в очень твердых (каменистых) грунтовых условиях, графики на рисунках 1 и 2 даны только для $\bar{\mu} = 10 \cdot 0$. Для $\bar{\mu} = 1 \cdot 0$, хотя это не показано на рисунках, истинные критические скорости волн существуют только при $\eta_3 = 0 \cdot 20$, и даже тогда в ограниченном диапазоне β от 4 до 8. Из рисунков 1 и 2 видно, что критические скорости волн, предсказанные обеими теориями, весьма различны. В случае толстой оболочки критические скорости волн непрерывно уменьшаются с увеличением β в то время как для тонкой оболочки они сначала уменьшаются, а затем снова начинают двигаться вверх, достигая минимума. Графики критических скоростей волн для тонкой оболочки, следовательно, принимают почти U -образную форму (см. рис.1) . Далее, в случае толстой оболочки критические скорости волн существуют на всем диапазоне β (до 40), тогда как для тонкой оболочки, с другой стороны, уменьшение η_3 сужается вниз по диапазону β, на котором существуют резонирующие скорости волн. Различия между критическими скоростями волн из двух теорий оболочек становятся значительнее при более высоких значениях β (скажем, свыше 15 или около того) и с уменьшением η_3. Кроме того, как ожидалось и видно из рисунка 2, эти различия увеличиваются с увеличением h. На рисунках 3-7 показаны сравнения осевых перемещений для двух моделей оболочек в разных условиях грунта и для фиксированной кажущейся скорости волны $(\bar{c} = 5 \cdot 0)$. Для состояния рыхлой почвы $(\bar{\mu} = 0 \cdot 10)$ это сравнение показано на рисунках 3 (а) и 3 (б) и 4, где в качестве параметров приняты соответственно η_1, η_2 и η_3. Из этих графиков видно, что в мягкой почве обе модели оболочек дают практически одинаковые значения осевого перемещения U, но изменения параметров ортотропии η_1, η_2 и η_3 приводят к существенным различиям в результатах как для тонких, так и для толстых оболочек.

Для очень твердой почвы $(\bar{\mu} = 5 \cdot 0)$ эти сравнения показаны на рисунках 5-7. Из этих цифр видно, что различия между предсказаниями теорий тонкой и толстой оболочек достаточно значительны, если жесткость грунта больше жесткости оболочки. Однако

изменения параметров ортотропии η_1, η_2 и η_3 теперь оказывают гораздо меньшее влияние на различия, наблюдаемые между результатами теорий толстой и тонкой оболочек. Действия η_1 и η_2 практически незначительны. На рисунке 7 показано, что разница между результатами для толстых и тонких оболочек увеличивается с увеличением η_3. Это происходит потому, что увеличение η_3 оказывает противоположное влияние на осевые перемещения тонких и толстых оболочек.




Рисунок 3. Осевое смещение (U) против длины волны (β) при $\bar{c} = 5{\cdot}0\,\text{c}$ (a) η_1 в качестве параметра. Если не указано иное, параметры и ключ как на рис. 2. (a)
$\eta_2 = 0{\cdot}05, \eta_3 = 0{\cdot}02; (b)\ \eta_3 = 0{\cdot}50, \eta_3 = 0{\cdot}02.$




Рисунок 4. Осевое смещение (U) против длины волны (β) при $\bar{c} = 5{\cdot}0\,\text{c}$ η_3 в качестве параметра. Параметры и ключ как Рисунок 2.

Результаты, полученные для радиальной реакции W, не показали существенной разницы между предсказаниями теорий толстой и тонкой оболочек, независимо от состояния грунта и скорости волны $\bar{c}$. Поэтому графики радиальной реакции здесь не включены.

Далее, с увеличением скорости волны $\bar{c}$ обнаруживается, что различия между реакциями толстых и тонких оболочек становятся все более заметными.

Заключение.

Основные выводы работы можно перечислить следующим образом. При обеих моделях оболочки реальные резонансные скорости волн существуют только тогда, когда окружающая почва имеет более высокий модуль жесткости, чем материал оболочки (т.е. $(\bar{\mu}>1)$.




Рисунок 5. Осевое смещение (U) против длины волны (β) при $\bar{c}=5\cdot0$ с η_3 в качестве параметра. За исключением $\bar{\mu}=5\cdot0$, $\eta_3=0\cdot02$ и n как показано, параметры и ключ как на рис. 2.




Рисунок 6. Осевое смещение (U) против длины волны (β)при $\bar{c}=5\cdot0$ с η_2 в качестве параметра. За исключением n=5.0, n3=0.02 и n2 как показано, параметры и ключ как на рис. 2.

Однако для случаев, когда такие критические скорости волн существуют, значения, полученные из обеих теорий, значительно отличаются, когда β больше почти 14 или около того. Эта разница увеличивается с увеличением $\bar{h}$. (II) Осевое смещение оболочки может быть значительно отчуждено, когда выбор варьируется от толстой оболочки к тонкой. (a) аппроксимация или наоборот. Величина разницы зависит от состояния грунта вокруг оболочки. (a) В более мягкой среде $(\bar{\mu}=0\cdot10)$, практически одинаковые осевые перемещения получаются из обеих моделей оболочки; но в таких условиях грунта изменения параметров ортотропии $(\eta_1,\eta_2\,и\,\eta_3)$приводят к значительным изменениям осевых перемещений. (b) Для $\bar{\mu}>1\cdot0\,(-5\cdot0)$различия в U , полученные теорией толстой и тонкой оболочек, достаточно значительны; по сравнению с этим, вариации в $\eta_2\,и\,\eta_3$не приводят к какому-либо заметному изменению значения осевого перемещения; вариация в η_1 не вызывает никакой разницы в осевом перемещении вообще в осевом перемещении.

Литература.

1. Singh V. P., Upadhyay P. C., Kishor B. On the dynamic response of buried orthotropic cylindrical shells // *Journal of Sound and Vibration.* 1987. Vol. 113. P. 101–115.
2. Suzuki S. Dynamic behavior of thin cylindrical shells subjected to transient inner pressures—effects of shearing force and rotatory inertia // *Nuclear Engineering and Design.* 1979. Vol. 51. P. 423–429.
3. Chonan S. Response of a fluid-filled cylindrical shell to a moving load // *Journal of Sound and Vibration.* 1977. Vol. 55. P. 419–430.
4. Chonan S. Response of prestressed, orthotropic thick cylindrical shell subjected to a pressure pulse // *Journal of Sound and Vibration.* 1984. Vol. 93. P. 31–38.
5. Kubo K., Katayama T., Ohashi M. Lifeline earthquake engineering in Japan // *Journal of the Technical Councils of the American Society of Civil Engineers.* 1979. P. 221–238.
6. Muleski G. E., Ariman T., Aumen C. P. A shell model of a buried pipe in a seismic environment // *Journal of Pressure Vessel Technology.* 1979. Vol. 101. P. 44–50.
7. Селезнев В. Е., Алёшин В. В., Прялов С. Н. Основы численного моделирования магистральных трубопроводов. М.: КомКнига, 2005. 496 с.
8. Wang L. R. Vibration frequencies of buried pipelines // *Journal of the Technical Councils of the American Society of Civil Engineers.* 1978. Vol. 104. P. 71–89.
9. Селезнев В. Е., Алёшин В. В., Прялов С. Н. Математическое моделирование магистральных трубопроводных систем. Дополнительные главы. М.: МАКС Пресс, 2009. 356 с.
10. Сафаров И. И., Умаров А. О., Эсанов Н. К. Колебания заглубленных цилиндрических труб, изолированных мягким грунтом // *Материалы X Международной конференции по неравновесным процессам в соплах и струях.* Москва, 25–31 мая 2014 г. С. 424–426.

Xoshimova Muhayyoxon Salimjon qizi
Andijon davlat pedogogika instituti
Pedogogika yo'nalishi magistranti

KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNI TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur ishda klaster yondashuvi asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik asoslari, mazmuni va qo'llanilish mexanizmlari yoritilgan. Ta'lim jarayonida klaster texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv va mustaqil tahlil ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *klaster yondashuvi, talabalarni tayyorlash, pedagogik faoliyat, ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiya, pedagogik metodika, ta'lim texnologiyalari, didaktik jarayon, innovatsion yondashuv.*

METHODOLOGY FOR PREPARING STUDENTS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY IN THE EDUCATION SYSTEM BASED ON THE CLUSTER APPROACH

Annotation. *In this work, the methodological foundations, content, and mechanisms of applying the cluster approach to preparing students for pedagogical activity are highlighted. It is shown that the use of cluster technology in the educational process plays an important role in developing students' logical thinking, systematic approach, and independent analytical skills.*

Key words*: cluster approach, student preparation, pedagogical activity, education system, professional competence, pedagogical methodology, educational technologies, didactic process, innovative approach.*

МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной работе освещены методические основы, содержание и механизмы применения кластерного подхода в подготовке студентов к педагогической деятельности. Показано, что использование кластерной технологии в образовательном процессе играет важную роль в формировании у обучающихся логического мышления, системного подхода и навыков самостоятельного анализа.*

Ключевые слова: *кластерный подход, подготовка студентов, педагогическая деятельность, система образования, профессиональная компетентность, педагогическая методика, образовательные технологии, дидактический процесс, инновационный подход.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Pedagogik faoliyatning samaradorligi, avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga, o'quv jarayonini tizimli tashkil eta olishiga va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan ongli ravishda foydalana bilishiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, klaster yondashuvi hozirgi kunda nafaqat o'quv jarayonini optimallashtirish, balki talabalarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, muammoni turli burchakdan ko'ra olish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan eng samarali innovatsion texnologiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ayniqsa, pedagogik jarayonni zamonaviy metodlar asosida takomillashtirishga qaratilgan strategik vazifalar, ta'lim sifatini oshirishning bosh omillaridan biri sifatida ilg'or yondashuvlarning joriy etilishini taqozo etmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" g'oyasi, ta'lim jarayonida yangicha fikrlovchi, tashabbuskor, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash

mas'uliyatini yanada kuchaytirib, pedagogik faoliyatga metodik innovatsiyalarni tatbiq etish zarurligini belgilab berdi[1]. Jumladan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "bugungi zamon o'qituvchidan faqat bilim berishni emas, balki yoshlarning mustaqil fikrlashi, izlanishi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishni talab qiladi."

Kasbiy tanlov va saralash – kasbiy faoliyatning alohida turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga bo‘lgan psixofizioligik me’yoriy talablar (saralash) asosida shaxsni har tomonlama o‘rganish tizimidir.

Kasbiy moslashish – ishlab chiqarishda kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvoffaqiyatli ravishda kasbni egallashi uchun shart sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan choralarning kompleks tizimidir.

Professiografiya – (axborot, tashxis, korreksiyalovchi, shakllantiruvchi) va kasbiy tashxis (shaxsni o‘rganishning psixologik, psixofiziologik, tibbiy va boshqa usullarining majmui) kasbga yo‘naltirishning axborot uslubiy ketma-ketligining asosi hisoblanadi.

Shaxsni kasbga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- kasb-hunarga yo‘naltirishning davlat tizimini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, uslubiy-axborot, moddiy-texnik va moliyaviy imkoniyatlarini rivojlantirish, faoliyatning ilmiy-metodik va me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlanganligiga erishish;

- davlat va hududlar bosqichida kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi tuzilmalari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish;

- kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi faoliyatiga kompleks yondashish, uning ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalganligini kuchaytirish;

- kasbga yo‘naltirish xizmatini amalga oshiruvchi davlat tizimini mustahkamlash va nodavlat tashkilotlar tizimini tashkil etish;

- kasbga yo‘naltirish sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakalarini oshirish;

- hozirgi zamon talablariga javob beradigan me’yorlar va standartlar majmuasini ishlab

chiqish, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining shakl va usullarini doimiy yangilab borish;

- o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish uchun zaruriy huquqiy-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, amaldagi qonunchilik aktlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar kiritish;

- kasbga yo‘naltirish sohasida tajribalar almashish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

- amaldagi ta’lim tizimi bo‘linmalarida, yoshlarning ijtimoiy xizmat, davlat bandlik xizmati, ishlab chiqarish va aholini ijtimoiy himoyalash tashkilotlarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil qilish, kengaytirish va takomillashtirishda faol ishtirok etish;

- kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari bilan band bo‘lgan mutaxassislarning mehnat samaradorligini oshirish, ularning moddiy va ma’naviy manfaatdorligini oshirishning amaliy shakllarini joriy etish.

Kasb tanlashga yo‘naltirish ishlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagicha:

Birinchi bosqich (maktabgacha ta’lim yoshi) – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda (katta guruh) mehnat bilan band bo‘ladigan insonlarga, ularning mashg‘ulotlariga, shuningdek qo‘llaridan keladigan faoliyat turlari bo‘yicha dastlabki mehnat ko‘nikmalarini ijobiy, hissiy-ta’sirchan shakllantirsh;

Ikkinchi bosqich (1-4 sinflar) – kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilishga oid va o‘yin ko‘rinishidagi ijtimoiy-foydali mehnat faoliyatini amalga tadbiq qilish orqali, mehnatga hurmat, uning inson hayotida va jamiyatda tutgan o‘rnini anglashini, ota-onalarining kasblariga hamda ommaviy kasblarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish;

Uchinchi bosqich (5-7 sinflar) – o‘smirlarda kasbiy yo‘nalganlik bo‘yicha kasb tanlash va jamiyatdagi o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqishi, qobiliyati, ijtimoiy qadriyatlarning izlanuvchan-sinchkov ko‘rinishlarin shakllantirish;

To‘rtinchi bosqich (8-9 sinflar) – o‘quvchilarda kasbiy o‘zlikni anglashni shakllanish davri, ya’ni o‘quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma’noga egaligini tushunib etishi, qadriyatlar to‘g‘risidagi o‘z tasavvurlarini, faoliyat sohasini tanlashning jamiyat maqsadlari bilan qiyoslay olishini shakllantirish davri;

Beshinchi bosqich (akademik lisey va kasb-hunar kollejlarining birinchi kurs o‘quvchilari) – ijtimoiy-kasbiy maqomni aniqlanish, ya’ni aniq bir mehnat faoliyati sohasidagi bilim va ko‘nikmalar haqida har taraflama tasavvurlarni shakllantirish, ularni o‘zlashtirishga kirishish, ishlab chiqarish mehnat jamoasining tartib-qoida va qadriyatlariga qo‘shilishni shakllantirish davri;

Oltinchi bosqich (kasb-hunar kollejlarining oxirgi kurs o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari) – kasbiy faoliyatga kirishish. Bu kasbiy faoliyatga jiddiy tayyorgarlik hamda mehnat jamoasidagi ish va tajribaning shakllanish davri.

Yettinchi bosqich (katta yoshdagi mehnat bilan band bo‘lgan odamlar, ishsizlar) – shaxsiy imkoniyatlar va oldingi kasbiy-ijtimoiy tajribalarni hisobga olgan holda, zarurat bo‘lganda boshqa kasbiy faoliyatga qayta yo‘naltirish.

O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash ishlari sistemsida kasb xaqida axborot, kasb xaqida konsultasiya berish, kasbga layokatini aniqlash va o‘rgatish ishlari katta ahamiyatga ega.

Kasb xaqida axborot. O‘quvchilarni kasblar haqidagi bilimlar bilan tanishtiriladi, ularning xalq xo‘jaligida tutgan o‘rni haqida tasavvur beriladi, shuningdek ma’lum kasblarni egallash uchun o‘quvchi o‘zida qanday xususiyatlarni tarkib toptirish lozimligini bilib oladi.

Kasb haqida konsultasiyalar. Kasb haqida konsultasiyalarning vazifasi, shaxsning salomatligi, anatomo-fiziologik va sosial-psixologik sifatlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida, yuqori sinf o‘quvchilariga ularning qobiliyatiga mos kasb guruhlani va ixtisoslarni tavsiya qilishdir.

Kasbga layoqatni aniqlash. Bu jarayonda o‘quvchining sog‘ligi, dastlabki tayyorgarlik darajasi, psixo-fiziologik xususiyatlariga ko‘ra qaysi kasb talablariga mos kelishi aniqlanadi. Kasbga layoqatni aniqlash maxsus tashkil etilgan tadqiqot jarayoni bo‘lib, bu ish bilan maxsus o‘quv yurtlari va ishlab chiqarish tashkilotlari shug‘ullanadi.

Kasbga ko‘niktirish. Bu yosh ishchi mutaxassislarni unumli mehnatga sharoitiga moslashtirishdir. Bu bevosita ish o‘rinlarida, amaliy faoliyatida xal qilib boriladi. Kasbga ko‘niktirishda yosh ishchi yoki mutaxassisning mazkur korxona, muassasa xaqidagi dastlabki aniq

tasavvur etishi, shaxsiy manfaatlarning mehnat davomida qondirib borilishi katta ahamiyatga ega. Kasbga ko‘nikish o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning yakunlovchi qismidir.

Kasbga yaroqlilik – odam bilan uning ishi, kasbi o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikdir. Ayni mana shu muvofiqlik bo‘lgan taqdirdagina “odam – kasb” formulasini ro‘yobga chiqarish imkoni tug‘iladi.

Har qanday kishining o‘zigagina xos bo‘lgan muayyan shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar mavjud bo‘ladi. Tanlanayotgan kasbning shaxsga nisbatan qo‘yadigan talablariga mana shu shaxsiy sifatlar qay darajada mos kelishiga qarab odamning u yoki bu kasbga yaroqliligi to‘g‘risida bir qarorga kelish mumkin. Kasbga yaroqlilikni to‘rt xil darajaga bo‘lib, ularni bir-biridan farq qilish mumkin.

1. Yaroqsizlik (mazkur kasbga yaroqsizlik). U vaqtincha ham bo‘lishi mumkin yoki amaliy jihatdan ro‘yobga chiqmaydigan bo‘lishi ham mumkin. Kishining salomatligi yomon bo‘lganda, u yoki bu sohadagi ishga o‘sha kishining sog‘lig‘i, vrachlarning nuqtai nazariga qaraganda to‘g‘ri kelmaydi, deb topilgan hollarda kasbga yaroqsizlik to‘g‘risida gapirish mumkin.

2. Yaroqlilik (u yoki bu kasb yohud guruhga yaroqlilik). Kasbga yaroqlilikning ushbu darajasi Shu bilan ajralib turadiki, bunda biror sohadagi mehnatga nisbatan monelik qiluvchi omillar bo‘lmaydi, lekin ayni mahalda kishida mazkur kasbga yaqqol ko‘zga tashlanib turgan mayllar ham bo‘lmaydi. “Siz mana shu kasbni tanlashingiz mumkin. Ajab emas, siz shu sohada yaxshi mutaxassis bo‘lib etisharsiz” – deb tasalli beriladi bu kasbni tanlagan kishilarga. Bu jihatdan kasbga yaroqlilik darajasini ham yuqoridagi ta’rifdan bilib olish mumkin.

3. Mos kelish (u yoki bu faoliyat sohasiga odamning mos kelishi). Bunday hollarda odamning ayrim shaxsiy fazilatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu fazilatlar muayyan kasb yoki kasblar guruhi talablariga aniq (shubhasiz) mos keladi. Masalan, biror kishida muayyan bir sohada u yoki bu mehnat obyektiga masalan, biologiya, texnika va hokazo obyektlarga nisbatan qiziqish bo‘lishi yohud biror sohada o‘zini amaliy ishda sinab ko‘rish vaqtida ba’zi bir yutuqlarni qo‘lga kiritgan kishilardagi muvofiqlik, o‘z kasbiga mos kelish buning misolidir. Kasbga yaroqlilikning bu darajasidagi kishilarga nisbatan Shunday deb murojaat qilish mumkin: “Siz mana shu kasbni tanlasangiz bo‘ladi, siz yaxshi mutaxassis bo‘lib etishishingiz mumkin”.

4. Havas (mazkur kasbga, faoliyat sohasiga). Ishga havasi (rag‘bati) bo‘lgan bunday kishini mehnatchi sifatida inson taraqqiyotining mazkur bosqichida kasbga yaroqlilikning oliy darajasi deb hisoblash mumkin. Bu erda gap odamni boshqalardan ajratib turadigan sifatlar to‘g‘risida bormoqda. Kishi taxminan o‘zi bilan bir xil sharoitda ishlayotgan va o‘qiyotgan tengdoshlaridan yaqqol ajralib turadi. Kasbga yaroqlilikning bunday darajasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “Siz faoliyatning shu sohasida, ha, ayni mana shu sohada yaxshi mutaxassis bo‘lib etishasiz”.

Kasb professiogrammasi – to‘g‘ri kasb tanlashning mazmuni harakterini iloji boricha ko‘proq bilishni hamda bo‘lg‘usi mehnat faoliyati jarayonidagi munosabatlar to‘g‘risida, iloji boricha to‘laroq ma’lumotga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Kasb to‘g‘risida eng muhim manbalardan biri professiogramma hisoblanadi. Professiogramma kasbga berilgan harakteristika bo‘lib unga kasb odamning shaxsiy fazilatlari, aqliy psixologik jismoniy va boshqa fazilatlariga quydagi asosiy talablarni o‘z ichiga oladi.

Barcha professiogrammalar taxminan quyidagi ko‘rinishda tuziladi.

1. Kasbning nomi.
2. Kasbning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va o‘rni.

Mehnatning turi: Qo‘l mehnati mexanizasiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan mehnat.

1. Texnologiya predmeti va mahsuloti.
2. Ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va mahorat.
3. Ish sharoiti va ish joyi.
4. Mehnat rejimi va dam olish rejimi.
5. Kasbning sog‘liqqa to‘g‘ri kelmasligi haqida medissina xulosasi.
6. Shaxsning irodaviy ishchanlik va boshqa fazilatlariga qo‘yiladigan talablar.
7. Kasbning shaxsning umumiy madaniyat darajasini shakllanishiga, aqliy qobiliyatlarining rivojlanishi, xarakteriga va shu kabi sifatlariga ko‘rsatadigan ta’siri.
8. Professional o‘sish iqbollari.
9. Turdosh kasblar.

Har bir o‘smir, har bir mehnat yo‘li qanday boshlanishi to‘g‘risida o‘ylar ekan o‘zi uchun mo‘ljallangan kasbning professiogrammasini tuzish lozim bo‘lgan kasb jihatidan muhim sifatlarni belgilab olishga yordam beradi. Masalan, Stanoklar va avtomat liniyalari sozlovchisi kasbiga oid professiogramma.

Sozlovchilik kasbi – eng yangi istiqbolli kasblardan biridir. Usanoatda murakkab avtomat qonunlar bilan bir vaqtda paydo bo‘ldi.

Sozlovchining ishlab chiqarishdagi asosiy vazifasi – stanoklarni va avtomat liniyalarni ma’lum bir turdagi maxsulotga ishlab berishga tayyorlashdan iborat. Sozlovchi detallariga sinov tariqasida ishlab berish tadbiri amalga oshiriladi va asbob uskunalarini ishini kuzatib boradi.

Berilgan parametrlardan qandaydir chekinishni sezganda sozlovchi mashinaning qayeri buzilganligini aniqlaydi. Hamda o‘z bilimini mahoratini va malakalariga, tajribalariga tayangan holda u kamchiliklarini yo‘qotib mashinani tuzatadi.

Stanoklar va avtomat liniyalarini sozlovchisi yuksak darajada texnik bilim olgan va ko‘rib eslab qolish hotirasiga ega bo‘lgan kishi bo‘lmog‘i kerak.

Turli tuman texnik vazifalarini hal qilish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni bajarayotgan sozlovchi uchun mantiqiy jihatdan to‘g‘ri o‘ylash va ijodiy fikrlash g‘oyat muhim.

Sozlovchilar mashinasozlik, metallga ishlov berish korxonalarida va boshqa shunga o‘xshash joylarda mehnat qiladilar.

Yoshlarninig kasb-hunar egallashlariga ko‘maklashish, ularni butun sanoat, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, xo‘jalik va madaniy qurulish ishlariga jalb qilish har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashning muhum shatri ekanligini unutmasligimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz : O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. — Toshkent : O‘zbekiston, 2016. — 56 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. — Toshkent : O‘zbekiston, 2017. — 102 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent : O‘zbekiston, 2017. — 488 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmon // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. — 2017. — № 6. — 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida : 2017-yil 15-martdagi 140-son Qaror // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. — 2017. — № 11. — 167-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida : 2017-yil 6-apreldagi 187-son Qaror // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. — 2017. — № 14. — 230-modda.

7. Sharipov Sh. S., Vorobyov A. I., Muslimov N. A., Ismoilova M. Kasb ta’limi pedagogikasi : o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2005. — 58 b.

8. Sharipov Sh. S. [va boshq.] Mehnat ta’limi : umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. — Toshkent : Sharq, 2012. — 240 b.

9. Sharipov Sh. S., Qo‘ysinov O. A., Abdullayeva Q. Texnologiya : umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. — Toshkent : Sharq, 2017. — 240 b.

A'zamova Gulasal Sodiq qizi
Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: gulasalazamova91@gmail.com

DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING TALQINLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada "diskurs" tushunchasining turli talqinlari hamda uning til tizimi va kommunikatsiya jarayonidagi funksiyalari yoritilgan. Diskurs til, tafakkur va ijtimoiy-madaniy omillar birligining murakkab ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, u ma'no yaratish va nutq faoliyatida kontekstual, psixologik hamda ijtimoiy omillarning o'zaro aloqasini ifodalaydi.*

Kalit so'zlar: *diskurs, ma'no, nutq, kontekstual, madaniy, psixologik, ijtimoiy, ramziy, zo'ravonlik, parol (parole), ekstralingvistik, freym, semantika, matn, sinxron, til, kompetensiya, generativ.*

ПОНЯТИЕ ДИСКУРСА И ЕГО ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются различные интерпретации понятия «дискурс» и его функции в языковой системе и коммуникации. Особое внимание уделяется комплексному характеру дискурса как единства языковых, когнитивных и социокультурных факторов, а также его роли в формировании смыслов в процессе речевой деятельности.*

Ключевые слова: *дискурс, значение, речь, контекстуальный, культурный, психологический, социальный, символический, насилие, пароль (parole), экстралингвистический, фрейм, семантика, текст, синхронный, язык, компетенция, генеративный.*

THE CONCEPT OF DISCOURSE AND ITS INTERPRETATIONS

Annotation. *This article examines various interpretations of the concept of "discourse" and highlights its functions within the language system and the process of communication. Discourse is interpreted as a complex phenomenon representing the unity of language, cognition, and socio-cultural factors. At the same time, it reflects the interrelation of contextual, psychological, and social factors in the processes of meaning-making and speech activity.*

Key words: *discourse, meaning, speech, contextual, cultural, psychological, social, symbolic, violence, parole, extralinguistic, frame, semantics, text, synchronic, language, competence, generative.*

Kirish. Diskurs (Discourse) atamasi lotinchadagi *discursus* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yugurish", "harakatlanish", "aylanib yurish" yoki "fikrlash" ma'nolarini anglatadi. Keyinchalik bu atama fransuz tilida *discours* shaklida mustahkamlanib, "nutq", "suhbat" yoki "yozma yoki og'zaki bayonot" ma'nolarida qo'llanilgan.

Asosiy qism. Dastlab, lingvistikada "diskurs" atamasi klassik ritorika doirasida, xususan, mantiqiy fikrlash san'ati, nutqni to'g'ri tuzish va uni samarali ifodalash bilan bog'liq holda ishlatilgan. Qadimgi faylasuflar, ayniqsa Aristotel, nutq aktlarining tuzilishi va maqsadga muvofiqligini muhokama qilib, *logos* (nutq/aql) ni fikrni tartibli ifodalash vositasi sifatida ko'rgan.

O'rta asrlar va Uyg'onish davri lingvistikasida "diskurs" asosan mantiqiy mulohaza va fikr yuritish ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, XX asrga kelib bu atama tubdan yangi ma'noga ega bo'la boshladi. Aynan shu davrda diskurs tushunchasi tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslikda kontekstual, madaniy, psixologik va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hodisa sifatida o'rganila boshlandi.

Bugungi kunda "diskurs" so'zi shunchaki nutq yoki matn emas, balki quyidagicha talqin etiladi:

- Til va tafakkur o'rtasidagi ko'prik;
- Siyosiy-ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllangan aloqa shakli;

• Tilda kontseptual tuzilmalar, bilim va mafkuraning mujassamlanishi.

Diskurs atamasi lingvistik, kognitiv va kommunikativ yondashuvlarda turli xil ma’nolarga ega bo‘lib, aynan shu ko‘p funksiyalilik uni ilmiy tahlil obyekti sifatida ahamiyatini oshiradi.

XX asr tilshunoslikda diskurs tushunchasining tubdan yangilanishi va kengayishi davri bo‘ldi. Bu davrda til nafaqat grammatik birliklar tizimi, balki ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy kontekstlarda faoliyat ko‘rsatuvchi vosita sifatida o‘rganila boshlandi. Aynan shu bosqichda diskurs tahlili mustaqil ilmiy fan sohasi sifatida rivojlandi.

Adabiyotlar tahlili.

Diskurs tushunchasining kengayishiga bir qancha nazariy maktablar va olimlar bebaho hissa qo‘shdilar:

1. Mishel Fuko (Michel Foucault) diskursni bilimlarni ishlab chiqarish, hokimiyatni mustahkamlash va ijtimoiy tartibni yaratish mexanizmi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har bir tarixiy davrda muayyan "diskursiv rejim" mavjud bo‘lib, u bizning voqelikni qanday tushunishimizni belgilab beradi. Fuko uchun diskurs – hokimiyat, bilim va ijtimoiy amaliyotlarning uchlik birligini shakllantiruvchi kuchdir.

2. Jak Derrida (Jacques Derrida) diskursni chegaralanmagan, doimiy o‘zgaruvchan va kontekstual hodisa sifatida ko‘radi. Uning dekonstruksiya nazariyasi diskurs matnlarining ko‘p qatlamli ma’nolarini ochishga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv ma’noning izchilligini rad etadi va uni doimiy talqinga ochiq deb hisoblaydi.

3. Yurgen Xabermas (Jürgen Habermas) diskursni kommunikativ harakat doirasida o‘rganadi. U diskursni asossiz hukmronlikdan xoli bo‘lgan, shaxslar o‘rtasidagi erkin, axloqiy-ratsional aloqa vositasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, ideal diskurs barcha ishtirokchilarga o‘z fikrini bildirish uchun teng imkoniyat beradi va haqiqatni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

4. Per Burdye (Pierre Bourdieu) ilgari surgan yondashuvga ko‘ra, diskurs ijtimoiy sohada hokimiyat va ustunlikni saqlab turish vositasidir. U nutqiy amaliyotlarni "simvolik zo‘ravonlik" deb ataydi va ularni ijtimoiy kapital hamda hukmronlik bilan bog‘laydi.

Bu nazariyalar birgalikda diskursni shunchaki lingvistik birliklar to‘plami emas, balki bilim, hokimiyat, mafkura va madaniyatni shakllantirish hamda uzatish mexanizmi sifatida qarash uchun asos yaratdi. Til endilikda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi vosita sifatida talqin etilmoqda. Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik bu nazariy qarashlardan foydalanib, diskursni inson tafakkuri, kontseptual tizim va madaniy bilimlar bilan bog‘liq murakkab tuzilma sifatida o‘rganadi.

Muhokama.

Tilshunoslikda "matn" va "diskurs" tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladi. Biroq, kognitiv, pragmatik va sotsiolingvistik yondashuvlarda ular o‘rtasida aniq chegaralar mavjud. Matn – grammatik va sintaktik jihatdan tuzilgan hamda yakunlangan yozma yoki og‘zaki nutq birliklari to‘plamidir. Matn statik, ya’ni yakunlangan tuzilma bo‘lib, tahlil uchun qat’iy chegaralangan birlik bo‘lib xizmat qiladi. Diskurs esa yanada keng va murakkab tushunchadir. U nafaqat lingvistik birliklarning o‘zaro aloqasini, balki ularning ijtimoiy, madaniy va kognitiv kontekstlarda qo‘llanilishini ham o‘z ichiga oladi. Diskurs – bu tilning jamiyatda amaliy qo‘llanilishini, uning hokimiyat bilan aloqasini va muloqotda ishlatiladigan nutq strategiyalarini ochib beruvchi kontseptual hodisadir.

Diskurs tushunchasi tilshunoslikdagi turli nazariy maktablar tomonidan turlicha talqin etilgan. Tilni faqat ichki tuzilma sifatida o‘rganuvchi strukturalist va generativ yondashuvlar diskursga tor nuqtai nazardan yondashsa, kognitiv semantika va tanqidiy diskurs tahlili maktablari diskursni til, tafakkur va ijtimoiy kontekst birligi sifatida ko‘rib chiqadi. Quyida eng muhim nazariy yo‘nalishlar va ularning namoyandalari – Ferdinand de Sossyur, Noam Xomskiy, Charlz Fillmor, Jorj Lakoff va Teun A. van Deykning diskursga bo‘lgan yondashuvlari tahlil qilinadi. Har bir olimning til va diskursni qanday tushunishi, ularning til tizimi, inson tafakkuri va kontekstga bog‘liqligi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Sossyur va Xomskiy asos solgan struktural va generativ yondashuvlar hamda kognitiv yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar ham tahlil qilingan.

Ferdinand de Sossyur (Ferdinand de Saussure, 1857–1913) XX asr tilshunosligida strukturalistik paradiqmaning asoschisi bo‘lgan olimdir. Sossyur tilni uning ichki tuzilmasi nuqtai nazaridan o‘rganishni yoqlagan holda, uning birliklari (belgilari) sintagmatik va paradigmatik

munosabatlar orqali aniqlanishini ko‘rsatdi. U lingvistik belgini belgilovchi (tovush yoki yozma shakl) va belgilanuvchi (tushuncha, mazmun) ga ajratdi, ularning bog‘liqligi ixtiyoriy ekanligini va jamiyat tomonidan qabul qilingan kelishuvga asoslanishini ta’kidladi. Shuningdek, Sossyurning langue (til tizimi) va parole (nutq amaliyoti) dikotomiyasi tilshunoslikda muhim burilish nuqtasi bo‘ldi – *langue* jamiyatdagi umumiy til qoidalari tizimini, *parole* esa bu tizimning individual ko‘rinishini, ya’ni haqiqiy nutq aktlarini anglatadi. Bu farqlash tilni sinxron holatda, ya’ni vaqtning muayyan nuqtasidagi tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Sossyur yondashuvida diskurs atamasi bevosita markaziy o‘rin tutmasa-da, uning *parole* tushunchasi diskurs g‘oyasiga yaqin turadi. Strukturalistik model doirasida diskurs, ya’ni tilning muayyan kontekstdagi qo‘llanilishi, *parole* ning bir qismi, til tizimining ikkilamchi hodisasi sifatida qaraladi. Sossyur tilni o‘rganishda kontekst va ijtimoiy omillardan ko‘p jihatdan abstraksiya qildi: u sinxron til tizimiga e’tibor qaratdi, nutq jarayonidagi o‘zgaruvchanlik va individuallikka (*parole*) kam e’tibor berdi. Biroq, Sossyur tomonidan o‘rnatilgan tushunchalar keyinchalik boshqa yondashuvlar uchun nazariy asos bo‘ldi.

Xususan, keyingi diskurs tahlili tadqiqotchilari tilning aynan *parole* jihatiga – jonli nutq va matnga e’tibor qaratib, tilni keng ijtimoiy-kontekstual sohada o‘rganishni boshladilar. Sossyurning belgilar tizimi haqidagi g‘oyalari semiotika va post-strukturalizmda rivojlantirilib, diskursiv belgining tarkibini tushunish uchun foydali bo‘lsa-da, ta’kidlash lozimki, zamonaviy diskurs tahlili to‘g‘ridan-to‘g‘ri strukturalistik usullardan emas, balki ularning tanqidi va evolyutsiyasidan kelib chiqqan.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikka struktural yondashuvni kiritgan Sossyur diskurs tushunchasini tizim nuqtai nazaridan bilvosita yoritib berdi va keyingi diskurs nazariyalari uchun mustahkam asos yaratdi.

Noam Xomskiy (Noam Chomsky, 1928 yilda tug‘ilgan) tilshunoslikda navbatdagi inqilobni – generativ grammatika nazariyasini boshlab berdi. Garchi u Sossyur kabi til tizimini abstrakt tarzda tushunishga intilgan bo‘lsa-da, uning yondashuvi psixolingvistik va mantiqiy tuzilmalarga asoslangan edi. Xomskiyning birinchi muhim ishi “Sintaktik tuzilmalar” (*Syntactic Structures*, 1957) til qoidalarini aniq formal qoidalarga – generativ grammatikaga rasmiylashtirib, cheklangan qoidalar to‘plami yordamida cheksiz sondagi gaplarni hosil qilish mumkinligini ko‘rsatdi. Uning nazariyasida har bir gapning tashqi tuzilmasi ostida semantik va sintaktik munosabatlarni belgilovchi chuqur tuzilma yotadi. Masalan, Xomskiyning generativ grammatikasida chuqur tuzilma – bu gapning mavhum sintaktik-semantik ifodasi bo‘lib, u transformatsion qoidalar orqali tashqi tuzilmaga – ya’ni haqiqiy tovush yoki yozma shaklga aylanadi. Bu model tilning ichki kognitiv mexanizmlarini aks ettirishga intiladi va Xomskiy nazariyasida lingvistik kompetensiya (bilim) tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. U Sossyurning *langue/parole* farqiga ergashgan holda, kompetensiya (ongdagi nutq qobiliyatining ideal tizimi) va performans (nutqning haqiqiy ko‘rinishi) ni ajratdi. Xomskiy tilshunoslik birinchi navbatda kompetensiya – ideal til bilimini o‘rganishi kerak, deb hisobladi; nutq jarayonidagi tasodifiy xatolar va individuallik (*performans*) markaziy tahlil doirasidan tashqarida qolishi lozim edi. Uning “Sintaksis nazariyasining jihatlari” (*Aspects of the Theory of Syntax*, 1965) asari bu kompetensiya konseptsiyasini va tug‘ma universal grammatika g‘oyasini yanada rivojlantirib, har bir tilning chuqur tuzilmasida universal qoidalar mavjudligini ta’kidladi.

Xomskiy yondashuvida diskurs va kengroq kontekst masalalari nazariy model doirasidan tashqarida qoladi, chunki u lingvistik tahlil doirasini gap darajasidagi formal tizim bilan cheklaydi. Uning kompetensiya va performans ni ajratishi tufayli, haqiqiy nutq jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, masalan, kontekst, maqsad va vaziyat, til tizimiga taalluqli bo‘lmagan (ekstralingvistik) hodisalar, deb qaraladi, ya’ni til tizimidan tashqarida deb hisoblanadi. Garchi generativ grammatika doirasida bog‘langan gaplar, matn darajasidagi mantiqiy izchillik va pragmatik ma’no masalalari maxsus transformatsion qoidalar yordamida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, ular diskurs tahlilining alohida predmeti sifatida rivojlanmadi. Pragmatika (tilning kontekst va maqsadga bog‘liq jihatlari) Xomskiy nazariyasida ikkinchi darajali deb hisoblandi va tilning ijtimoiy funksiyalari modelga integratsiya qilinmadi. Natijada, diskurs – ya’ni bir nechta gaplar, matn va nutq birligi – generativizmda *performans* ning bir qismi sifatida qaralib, mustaqil tahlil obyekti bo‘lmadi. Bu strukturalizm va generativizmga xos bo‘lgan umumiy cheklov bo‘lib, keyingi funksional va kognitiv yo‘nalishlar

ushbu yondashuvlarning chegaralarini kengaytirishga intildi. Xulosa qilib aytganda, Xomskiy tilni formal kognitiv tizim sifatida o‘rgandi, universal grammatik prinsiplarni va til qobiliyatining chuqur tuzilmasini aniqladi, ammo diskursning kontekstual va kommunikativ jihatlari uning modelida yetarli darajada yoritilmadi.

Charlz J. Fillmor (Charles J. Fillmore, 1929–2014) 1970-yillardan boshlab kognitiv semantika va Freym Semantikasi (*Frame Semantics*) yondashuvini rivojlantirgan amerikalik tilshunosdir. U dastlab generativ grammatikadan kelib chiqqan Keys Grammatikasi (*Case Grammar*) nazariyasini taklif qilib, fe’llar va gap tuzilishlarini semantik rollar orqali tahlil qildi. Xususan, Fillmorning “Keys uchun argument” (*The Case for Case*, 1968) maqolasi fe’l uchun zarur bo‘lgan semantik rol kategoriyalarini va ularning sintaksis bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Keyinchalik, Fillmor til ma’nosini yanada chuqurroq tushuntirish uchun Freym Semantikasi tushunchasini ishlab chiqdi. Uning fundamental maqolasi “Freym Semantikasi” (*Frame Semantics*, 1982) so‘z va iboralarning ma’nosi ular tegishli bo‘lgan bilim sohasi – ya’ni freym – orqali aniqlanishini ilmiy asosladi. Freym – bu inson ongida muayyan voqea yoki vaziyat haqida shakllangan kontseptual tuzilmadir; inson biror so‘z yoki gapni tushunganda, uning ongida o‘sha vaziyatga tegishli bilimlar majmuasi faollashadi.

Freym Semantikasiga ko‘ra, har qanday so‘z yoki gapning ma’nosini to‘liq anglash uchun u qo‘llanilayotgan vaziyat yoki mantiqiy soha (freym) ni bilish kerak. Masalan, ingliz tilidagi “I’m going to the store” (Do‘konga ketyapman) gapi oddiy bayonot bo‘lib tuyulishi mumkin, lekin u xarid qilish freymini faollashtiradi: bu freymga xaridor, sotuvchi, pul va transport kabi “rollar” kiradi. Tinglovchi bu gapni aynan shu bilim sohasi orqali talqin qilgani uchun, kontekstdan gapiruvchining do‘konga nimadir sotib olish uchun ketmoqchiligini tushunadi.

Demak, so‘z ma’nosi faqatgina uning lug‘aviy ta’rifi bilan cheklanmaydi, balki uning ortida turgan yashirin entsiklopedik ma’lumot – freym – orqali anglanadi. Shu tariqa, Fillmor lingvistikada semantik makon va kontekstning rolini oshirdi, ma’noni tushuntirishni struktural shakldan kognitiv mazmunga o‘tkazdi. Uning ishi keyinchalik kognitiv tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlariga (masalan, Konstruksiya Grammatikasi) asos bo‘lib, lingvistik birliklarni ularning kontekstual ma’nosi bilan birgalikda o‘rganish metodologiyasini kiritdi. Fillmor va uning hamkasblari tomonidan yaratilgan FrameNet loyihasi (1980–90-yillar) minglab freymlarni ifodalovchi so‘zlarni empirik ravishda kuzatib, Freym Semantikasining tilshunoslikni kompyuter korpuslari va leksikografiya bilan bog‘lashdagi samaradorligini namoyish etdi.

Xulosa. Fillmor tilni inson tajribasi va bilimi asosida tushuntirdi, semantik freymlar diskursni anglashning hal qiluvchi vositasi ekanligini ilmiy asosladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Дейк Т.А. Ван. Дискурс и власть: Релевантность идей и понятий. – Москва: Книжный дом, 2013. – С. 34.
2. Фуко М.. Археология знания. – Киев: Ника-Центр, 2018. – С. 78-85.
3. Деррида Ж.. О грамматологии. – Москва: АСТ, 2021. – С. 112.
4. Хабермас Ю.. Теория коммуникативного действия. – Москва: Весь Мир, 2016. – С. 50-55.
5. Бурдье П.. Социология социального пространства. – Москва: Институт экспериментальной социологии, 2007. – С. 130.
6. Chomsky N. *Syntactic Structures*. The Hague: Mouton.1957. – P. 52.
7. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, MA: MIT Press. 1965. – P. 81.
8. Fillmore C. J.. The Case for Case // Universals in Linguistic Theory. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. – P. 1-88.
9. Fillmore C. J.. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin, 1982. – P. 111-137.
10. Fillmore C. J.. Frame Semantics and the Nature of Language // Annals of the New York Academy of Sciences, 1976. – P. 112.

Akmalova Zulfiya Nigmatullayevna
O‘zbekiston jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o’qituvchisi
E-mail: zulfiyanigmatullaevna86@gmail.com

CHARACTERISTICS OF ENGLISH LANGUAGE ACQUISITION AMONG UZBEK- AND RUSSIAN-SPEAKING STUDENTS: AN ETHNOCULTURAL ANALYSIS BASED ON THE CASE OF THE UNIVERSITY OF WORLD ECONOMY AND DIPLOMACY

Abstract. *This article examines the process of English language acquisition among ethnically diverse learners with Uzbek and Russian as their first languages at the University of World Economy and Diplomacy. The study analyzes linguistic transfer, learning strategies, motivation, and sociocultural factors that shape the development of communicative competence. Comparative results highlight similarities and differences between the two groups, offering pedagogical implications for designing effective ESL instruction in multilingual academic settings.*

Key words: *foreign language acquisition, ESL learners, Uzbek L1, Russian L1, multilingual education, communicative competence, language transfer, UWED.*

O‘ZBEK VA RUS TILLI TALABALARDA INGLIZ TILINI O‘ZLASHTIRISH XUSUSIYATLARI: JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI MISOLIDA ETNOMADANIY OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida tahsil olayotgan o‘zbek va rus ona tili sohibi bo‘lgan talabalar orasida ingliz tilini o‘zlashtirish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot til transferi, o‘quv strategiyalari, motivatsiya va sotsiokultural omillarni ko‘rib chiqadi hamda ikki guruh o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlaydi. Olingan natijalar ko‘p tilli ta’lim muhitida samarali ESL o‘qitish metodikasini ishlab chiqish uchun muhim tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *chet tilini o‘zlashtirish, ESL, o‘zbek ona tili, rus ona tili, ko‘p tilli ta’lim, kommunikativ kompetensiya, til transferi, JWED.*

ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА ОВЛАДЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКОМ В ЭТНИЧЕСКИ РАЗНОРОДНОЙ СРЕДЕ: НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ С РОДНЫМИ УЗБЕКСКИМ И РУССКИМ ЯЗЫКАМИ, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ КАК ВТОРОЙ ЯЗЫК В УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ДИПЛОМАТИИ

Аннотация. *В статье рассматривается процесс освоения английского языка студентами с родными узбекским и русским языками, обучающимися в Университете мировой экономики и дипломатии. Анализируются особенности языкового трансфера, учебные стратегии, мотивационные и социокультурные факторы, влияющие на формирование коммуникативной компетенции. Сравнительное исследование выявляет сходства и различия между группами и предлагает методические рекомендации для эффективного обучения английскому языку в многоязычной образовательной среде.*

Ключевые слова: *изучение иностранного языка, ESL, узбекский родной язык, русский родной язык, многоязычное образование, коммуникативная компетентность, языковой трансфер, УМЭД.*

Introduction. In the context of global integration and international academic mobility, English has become a key medium of communication for students pursuing studies in diplomacy, international relations, and world economy. The University of World Economy and Diplomacy (UWED) represents a linguistically and culturally diverse educational environment where students with Uzbek and Russian as their first languages (L1) study English as a second language (ESL). Investigating the specific features of their foreign language acquisition is essential for designing

pedagogical strategies that align with learners' linguistic backgrounds, cognitive preferences, and sociocultural identities.

In multilingual educational environments, the acquisition of English as a second language (ESL) is shaped by learners' linguistic backgrounds, sociocultural experiences, cognitive strategies, and motivational profiles. Uzbekistan's growing emphasis on English proficiency in diplomacy, international relations, law, and global communication has made ESL education a central component of the curriculum at the University of World Economy and Diplomacy (UWED). The student population at UWED is linguistically diverse, with significant groups of Uzbek L1 and Russian L1 speakers. Understanding how these two groups acquire English is crucial for developing effective, differentiated pedagogical strategies and for improving learning outcomes. This study explores the linguistic, psychological, and pedagogical factors influencing English language acquisition among Uzbek-medium and Russian-medium learners. It provides an in-depth comparative analysis of their strengths, challenges, learning preferences, and sociocultural orientations, thereby offering a comprehensive framework for optimizing instruction in multilingual ESL classrooms.Language acquisition research consistently shows that the structural properties of a learner's first language (L1) significantly influence their second language (L2) development. Uzbek and Russian differ sharply:

This article examines the linguistic, psycholinguistic, and sociocultural factors influencing English language acquisition among Uzbek and Russian L1 learners at UWED. The study focuses on comparative aspects of learning strategies, typical language difficulties, communicative competence development, and the role of motivation and learning environment.

Foreign language acquisition (SLA) is shaped by multiple factors, including L1–L2 typological distance, learning motivation, cultural identity, learning strategies, and instructional approaches. Contemporary SLA theories—such as socio-cultural theory (Vygotsky), communicative competence (Hymes, Canale & Swain), input–interaction–output models (Long, Swain), and multilingualism frameworks—provide a foundation for understanding the learning processes of ethnically diverse groups.

Foreign language acquisition among Uzbek and Russian learners at the University of World Economy and Diplomacy is shaped by a complex interaction of linguistic, psycholinguistic, and sociocultural factors. One of the most significant elements influencing ESL learning outcomes is L1 typology. Uzbek belongs to the Turkic language family and is characterized by an agglutinative structure as well as a predominantly SOV (subject–object–verb) word order. In contrast, Russian is a Slavic language with a synthetic morphological system, an extensive case structure, and a relatively flexible word order. These typological distinctions affect how learners perceive and internalize English grammar, syntax, phonology, and pragmatics.

Language transfer and interference are evident across both groups. Uzbek and Russian learners frequently rely on their native linguistic patterns when producing English, which results in a variety of structural and phonological errors. Additionally, sociocultural attitudes toward English differ depending on family background, type of schooling, and level of exposure to English-language media. These sociocultural variations shape learners' motivation, confidence, and openness toward language learning. Understanding these interrelated factors enables educators to adjust teaching strategies to better support the distinct needs of each learner group.

The object of the study is Uzbek and Russian L1 students studying English as a second language at UWED. The purpose of the research is to analyze and compare the linguistic, motivational, and pedagogical aspects of English language acquisition among ethnically diverse learners and to identify instructional strategies that can effectively address their challenges.

Methods. The investigation incorporates several methodological tools, including CEFR-based diagnostic testing, surveys and questionnaires examining learning habits and motivational patterns, semi-structured interviews, classroom observation, and analysis of written and spoken language samples. These methods together provide a comprehensive view of learners' linguistic strengths, weaknesses, and learning behaviors.

Results. The findings demonstrate that Uzbek L1 students tend to struggle with several specific features of English. The most common issues include the incorrect use or complete omission of articles, oversimplified use of English verb tenses, and difficulties adjusting to the English SVO word

order. Phonological challenges also arise, particularly in producing the sounds /θ/, /ð/, /v/, and /w/, which do not exist or differ significantly in Uzbek phonology.

On the other hand, Russian L1 students typically face different sets of difficulties. Because Russian lacks an article system, learners often misuse or inconsistently apply English articles. Case-driven prepositional structures in Russian frequently interfere with English syntax, while confusion between English perfect forms and the Russian verbal aspect system (вид) leads to tense-related errors. Russian students also experience phonological challenges related to stress placement and vowel reduction, reflecting the influence of Russian prosodic patterns.

Discussion. Despite these differences, both groups share several challenges, particularly in acquiring academic vocabulary and developing pragmatic competence in English. These skills are essential for effective communication in academic and professional contexts but require consistent exposure to authentic materials and purposeful communicative practice.

Motivational factors also distinguish the two groups. Uzbek learners often display strong instrumental motivation, driven by career aspirations in government institutions, diplomacy, international organizations, and foreign-affiliated companies. Opportunities for scholarships, academic mobility, and the national policy emphasis on English proficiency further reinforce their commitment to mastering the language.

Overall, the comparative analysis highlights the need for differentiated, culturally responsive, and linguistically informed instructional approaches. Such approaches can significantly enhance both the efficiency and quality of English language acquisition among ethnically diverse learners at UWED.

Russian learners often demonstrate a combination of instrumental and integrative motivation, which can be explained by several socio-cultural and educational factors. These include greater exposure to English-language media, a strong interest in employment opportunities abroad or in international organizations, as well as family language culture and early experiences with bilingualism. As a result, Russian students tend to develop a more flexible and communicative orientation toward English language learning.

In terms of learning strategies, Russian learners commonly employ memorization, note-taking, group discussion, digital tools, and autonomous self-study. At the same time, clear differences can be observed when comparing them with Uzbek learners. Uzbek students are more likely to rely on structured instruction, grammar-oriented learning, and consistent teacher guidance, reflecting a traditionally teacher-centered educational model. In contrast, Russian students more frequently use immersive strategies such as independent reading, extensive exposure to authentic materials, and online interaction with native or proficient speakers of English.

These contrasts indicate the necessity of differentiated instruction, especially in multilingual and multicultural academic contexts. In a diverse learning environment such as University of World Economy and Diplomacy (UWED), a one-size-fits-all approach to ESL instruction may limit learning outcomes for certain student groups.

To enhance the efficiency of ESL instruction in such settings, several pedagogical strategies are recommended. First, contrastive linguistic instruction can help address language-specific difficulties arising from learners' first languages. Second, communicative and task-based language teaching (TBLT) should be emphasized to develop real-life speaking and writing skills. Third, Content and Language Integrated Learning (CLIL) is particularly effective for teaching discipline-specific subjects such as international law, politics, and diplomacy. In addition, the use of authentic materials, including speeches, policy briefs, and diplomatic documents, can increase learner engagement and contextual understanding. Mixed-group collaborative projects are also recommended to foster intercultural competence and peer learning. Finally, the integration of digital learning tools—such as Quizizz, Padlet, learning management systems, and podcasts—supports learner autonomy and promotes independent study.

Overall, adapting ESL instruction to learners' motivational profiles and strategic preferences significantly contributes to more effective and inclusive language education.

Conclusion.

Foreign language acquisition among ethnically diverse learners at UWED demonstrates that linguistic background, sociocultural identity, and motivational factors significantly shape ESL learning outcomes. Uzbek and Russian L1 students exhibit both shared and distinct challenges in grammar, phonology, vocabulary, communicative competence, and learning strategies. Addressing these differences through differentiated, culturally sensitive, and communicatively oriented pedagogy can significantly enhance language proficiency and prepare learners for successful participation in global academic and professional environments.

The findings highlight the importance of integrating SLA theory, multicultural pedagogy, and modern instructional technologies into the teaching process at institutions specializing in global studies and diplomacy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1(1). – P. 1–47.
3. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
4. Long M. The Role of the Linguistic Environment in Second Language Acquisition // Handbook of Second Language Acquisition. – San Diego: Academic Press, 1996. – P. 413–468.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
6. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 807 p.
7. Lightbown P. M., Spada N. How Languages Are Learned. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 240 p.
8. Larsen-Freeman D., Long M. An Introduction to Second Language Acquisition Research. – New York: Longman, 1991. – 398 p.
9. Gass S., Selinker L. Second Language Acquisition: An Introductory Course. – New York: Routledge, 2008. – 497 p.
10. Benson P., Voller P. Autonomy and Independence in Language Learning. – London: Longman, 1997. – 248 p.
11. Bialystok E. Communication Strategies: A Psychological Analysis of Second-Language Use. – Oxford: Blackwell, 1990. – 224 p.
12. Auer P., Wei L. Handbook of Multilingualism and Multilingual Communication. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2007. – 648 p.
13. Block D. The Social Turn in Second Language Acquisition. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2003. – 211 p.

Xudaybergenova Malika
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti doktoranti
E -mail: maaliikhudaibergenova@mail.ru

FINLYANDIYADA MUSIQA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING TARIXIY-NAZARIY ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqoladan maqsad Finlyandiya ta’lim tizimini O’zbekiston nuqtai nazaridan muhokama qilish va fuqarolar, ayniqsa o’rta daromadli mamlakatlar aholisi, Finlyandiya tizimidan nimalarni o’rganishi mumkinligi ko’rib chiqishdir. Ma’lumki, ta’lim har bir mamlakatning madaniy qismiga kiradi, shu sababli, Finlyandiya ta’lim tizimini boshqa joyda aynan shu ko’rinishda joriy etib bo’lmaydi. Biroq, shubhasiz, mahalliy madaniyatga moslashtirib, O’zbekistonda qo’llanilishi mumkin bo’lgan jihatlari mavjud. Finlyandiya va O’zbekistondagi ta’limning turli modellarini taqqoslanib, Finlyandiyadan o’rganishimiz mumkin bo’lgan jihatlar, xususan, barqaror kelajak va oddiy kundalik hayotiy ko’nikmalarni o’zlashtirish imkoniyatlari haqida xulosa chiqariladi. Asosiy manbaa sifatida Ratih Adiputrining Finlyandiya ta’lim tizimiga Indoneziya nuqtai nazarini taqdim etuvchi kitobi, shuningdek muallifning O’zbekiston ta’lim tizimini o’rganish, O’zbekistonda fin ta’lim tizimining pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilish bo’yicha yozilgan maqolalar va tezislaridan foydalanildi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa savodxonligi, fin ta’lim tizimi, ilm musiqa ta’limi kelib chiqishi, musiqa ta’limi, O’zbekiston musiqa ta’limi, PISA dasturi.*

HISTORICAL AND THEORETICAL ASPECTS OF ORGANIZING MUSIC LESSONS IN FINLAND

Abstract. *The aim of this article is to examine the Finnish education system from an Uzbekistan perspective and explore what citizens, particularly those in middle-income countries, can learn from the Finnish model. It is well-known that education forms part of each country's cultural fabric, therefore the Finnish education system cannot be directly replicated elsewhere in its exact form. However, there are undoubtedly aspects that can be adapted to local culture and applied in Uzbekistan. By comparing various educational models in Finland and Uzbekistan, conclusions are drawn about elements we can learn from Finland, specifically regarding opportunities for a sustainable future and the acquisition of basic everyday life skills. The main sources utilized were Ratih Adiputri's book, which presents an Indonesian perspective on the Finnish education system, as well as the author's articles and theses on studying the Uzbek education system and analyzing the pedagogical conditions for implementing the Finnish education system in Uzbekistan.*

Key words: *musical literacy, Finnish education system, origins of music education in science, music education, music education in Uzbekistan, PISA program.*

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ МУЗЫКИ В ФИНЛЯНДИИ

Аннотация. *Цель данной статьи - рассмотреть систему образования Финляндии с точки зрения Узбекистана и обсудить, чему граждане, особенно жители стран со средним уровнем дохода, могут научиться у финской системы. Известно, что образование является частью культуры каждой страны, поэтому систему образования Финляндии невозможно внедрить в другом месте в точно таком же виде. Однако, несомненно, существуют аспекты, которые можно адаптировать к местной культуре и применить в Узбекистане. Путем сравнения различных моделей образования в Финляндии и Узбекистане, делается вывод о том, какие аспекты мы можем перенять у Финляндии, в частности, касающиеся возможностей для устойчивого будущего и освоения простых повседневных жизненных навыков. В качестве основного источника была использована книга Ратих Адипутри, представляющая индонезийскую точку зрения на систему образования Финляндии, а также*

статьи и тезисы автора, посвященные изучению системы образования Узбекистана и анализу педагогических условий для внедрения финской системы образования в Узбекистане.

Ключевые слова: *музыкальная грамотность, финская система образования, происхождение музыкального образования, музыкальное образование, музыкальное образование в Узбекистане, программа PISA.*

Kirish. Fin ta’lim tizimi PISA sinovlaridagi muvaffaqiyatlaridan so’ng butun dunyoga mashhur bo’lib ketdi. Shulardan biri 2018-yilda bo’lib o’tgan va unda 79 ta mamlakat ishtirok etgan bo’lib, fin o’quvchilari savodxonlik, matematika va tabiiy fanlar bo’yicha ko’p mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq natija ko’rsatishgan. Hozirgi kunda O’zbekiston ta’lim tizimida ham ushbu PISA dasturida o’quvchilar yaxshi natijalar ko’rsatishi uchun ko’plab islohotlar qilinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib “PISA” Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish belgilab qo‘yilgan. Xo’sh, fin ta’lim tizimi bu natiga qanday erishgan degan savol hammani qiziqtirmoqda.

Finlyandiya modelida tizim “moslashuvchanlik” va “xilma-xillik” ni kafolatlaydi. “Keng qamrovli bilim” ga e’tibor qaratadi va “kasbiy mahurat orqali ishonch” ga tayanadi. [1]

Ta’limagi bunday xilma-xillik ishonch tushunchasidan kelib chiqib, o’qituvchilarga o’z sinflarida moslashuvchanlik va mustaqillik beradi. Milliy asosiy o’quv dasturi keng ko’rsatmalar berib, mahalliy mustaqillikni ta’minlaydi. [2]

Mavzuning o’rganilganlik darajasi. Shu o’rinda “o’quv dasturi” so’ziga to’xtalib o’tsak, o’quv dasturi so’zi lotincha *“currere”* so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “yugurmoq” ma’nosini anglatadi. Qadimdan bu so’z yugurish, poyga va bosib o’tish kerak bo’lgan yo’l ma’nolarini ham ifodalagan. O’quv dasturining zamonaviy tushunchasi Jon Dyuining ta’lim haqidagi g’oyalariga asoslanadi. U bu g’oyalarni o’zining “Maktab va jamiyat” hamda “Bola va o’quv dasturi” nomli kitoblarida bayon etgan. Dyuining o’quv dasturi g’oyalari bolaning umumiy rivojlanishiga asoslangan bo’lib, bolaning shaxsiy tajribasi va o’rganilgan masalalarning uning hayotidagi ahamiyatini ta’kidlaydi. [3]

Musiqa – inson his-tuyg’ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o’ziga hos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg’ulariga faol ta’sir etadi. Musiqa ham fan, ham san’atdir.[4]

Finlyandiyada maktab yoshidagacha bo’lgan bolalarning yarmi uydan tashqarida, ya’ni bolalar bog’chasi yoki oilaviy bog’chalarda parvarishlanadi. 64 foizi bolalar bog’chasiga qatnaydi. Mahalliy hokimiyat organlari qonunga ko’ra, ehtiyoji bo’lgan barcha bolalarni kunduzi qarov bilan ta’minlashlari shart. Kunduzi qarov markazlarida bolalar hamshiralari va bog’cha tarbiyachilari ishlaydi, tarbiyachilar esa pedagogika oliy o’quv yurtlarida tayyorlanadi. Ularning o’quv dasturida musiqa ta’limi ham mavjud.[5]

Tadqiqotning metodologiyasi. O’zbekistonda ta’lim standartlashtirilgan testlarga va savodxonlik va matematik ko’nikmalarga ko’proq e’tibor qaratgan. Afsuski, O’zbekistonda savodxonlikka urg’u berilsa-da, maktablarda o’qish faoliyati kam rag’batlantiriladi. Jamoat kutubxonalari emas, balki savod markazlari-yu, ovqatlanadigan kafe va yemakxonalar odatiy tashrif buyuriladigan joylar hisoblanadi. Shuningdek, O’zbekiston madaniy xilma-xillikni va turli etnik guruhlar an’analarini qabul qilish g’oyasini targ’ib qilishga intilsa-da, bu madaniy jihatlar maktab darslarida o’rgatilmaydi. Bu esa mahalliy madaniyatni o’zlashtirgan Finlyandiya yondashuvidan farq qiladi. Masalan: o’rta maktabda otlarga g’amxorlik qilish(otlarni tozalash, oziqlantirish va kasal bo’lganda parvarish qilish) ko’nikmalari maktab tomonidan 10 ta dars krediti bilan taqsimlangan bo’lsa, markaziy Finlyandiyada o’rmonchilik, Aland orollarida baliqchilik va Laplandiyada bug’uchilik kabi mahalliy ahamiyatga ega amaliyotlarni o’rganish maktablar va mahalliy hokimiyat tomonidan qo’llab-quvvatlanadi. Bu esa bilimlarni avloddan avlodga uzatilishini va an’analarning davomiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. [5]

Tahlil va natijalar. Finlyandiya ta’lim tizimida tenglik ustuvor bo’lib, barcha maktablar sifati bir-biriga o’xshash, o’qituvchilar magistrlik darajasiga ega. O’zbekistonda esa aksariyat “eng yaxshi” maktablar mamlakatning yirik shaharlarida, asosan poytaxt Toshkent va viloyatlarning markaziy shaharlaridadir. Geografik va ijtimoiy xilma-xillik tufayli chekka va qishloq joylardagi o’quvchilar markazlashtirilgan standart o’quv dasturini o’zlashtirishda qiyinchiliklarga duch

kelishadi. Ko'pincha chekka hududlardagi maktablarda asosiy infratuzilma yetarli emas: o'rindiqlar, stollar va kitoblar yetishmaydi. Ba'zilarida binolarda hatto tegishli hojatxonalar, tom va devorlar ham yo'q.

Fin zamonaviy maktab musiqasini haqli ravishda ko'p qirrali deb ta'riflash mumkin, o'quvchilar iloji boricha xilma-xil musiqa madaniyatlari bilan tanishtiriladi. Umumta'lim maktabi uchun belgilangan maqsadlar ijobiy munosabatlarni shakllantirish, qiziqish uyg'otish, tinglash ko'nikmasini rivojlantirish, mahoratni oshirish va musiqa orqali muloqot qilishdan iboratdir. Umuta'lim va o'rta maktablarda asosiy fanlararo mavzulardan biri xalqaro tushunishni tarbiyalash bo'lib, musiqa boshqa madaniyatlarni anglash, qabul qilish va o'rganishning juda samarali vositasidir. Shu bois musiqa darslarida o'quvchilar barcha mamlakatlar va qit'alar musiqasi ostida qo'shiq aytadilar, cholg'u asboblarini chaladilar va raqsga tushadilar. Musiqa dasturi musiqa nazariyasi asoslarini ham o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Finlyandiya va O'zbekiston ta'lim tizimlari orasida sezirarli farqlar mavjud. O'zbekiston o'z ta'lim tizimini yaxshilash uchun Finlyandiyadan nimalarni o'rganishi mumkin? Albatta, O'zbekiston Finlyandiya ta'lim modelini to'liq nusxalay olmaydi, lekin uning eng yaxshi tajribalaridan foydalanishi mumkin. Bular jumlasiga o'qituvchilar malakasi, mahalliy o'quv dasturini geografik-madaniy yondashuv bilan moslashtiruvchi tizim kiradi. Shuningdek, bu tizim mahalliy maktab tumanlari, shaharlar yoki mintaqalar darajasida o'zgarishlarni joriy etishga intiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarga hunarmnadchilik va musiqa kabi fanlarni o'rganish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston va boshqa ta'lim tizimini rivojlantirishni xohlagan davlatlar eng avvalo o'qituvchilarning malakasi va kompetensiyasiga sarmoya kiritishi kerak. Bu o'qituvchilikni hurmatli kasb sifatida tanlashni rag'batlantiruvchi turli loyiha va dasturlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Malakali o'qituvchilar tayyorlagandan so'ng, o'quvchilar bir xil ta'lim standartlarini olishini ta'minlash uchun maktablardagi o'qituvchilarga o'quv dasturlari va baholashda mustaqillik berilishi mumkin.

Mahalliy hokimiyat va maktablar o'z darslarida mahalliy madaniyatni aks ettirishi uchun hamkorlik qilishlari ham mumkin. Malakali o'qitish va mahalliy xususiyatlarga urg'u berish orqali o'quvchilarning ta'limi mahalliy madaniyat uchun yanada mazmunli va barqaror bo'ladi. Bu yo'nalish madaniyatni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kupiainen, Marco, Sjögreen, Björn (2009) A Cartesian Embedded Boundary Method for the Compressible Navier-Stokes Equations. Journal of Scientific Computing, 41. 94-117 doi:10.1007/s10915-009-9289-x

2. Mira Kalalahti and Janne Varjo. Revisiting universalism in the Finnish education system. Research on Finnish Society Advance access (2020), pp. 1–16

3. John Dewey "The School and Society" The School and Society Being three lectures. 1915. urn:oclc:record:1084322477

4. Asafyev B.V. muzilkalnaya forma kak protsess. L.: Gusud. Muz.izd.,1973g.,-24str

5. Ratih Adiputri. Finnish education system as seen from an Indonesian perspective., Finnish Journal of Social Research Advance access (2021), pp. 1–8 https://doi.org/10.51815/fjsr.111110

6. Janne Säntti, Jari Salminen Development of teacher education in Finland 1945-2015. Hungarian Educational Research Journal 2015, Vol. 5(3) 1–14 © The Author(s) 2015. DOI: 10.14413/herj.2015.03.01.

7. Autio, V.M. (1990). Opetusministeriön historia 5. Jälleenrakentamisen ja kasvun kulttuuripolitiikka 1945 1946. Helsinki. Opetusministeriö.

8. Ahonen, S. (2003). Yhteinen koulu. Tasa-arvoa vai tasapäisyyttä. Tampere: Vastapaino.

9. Rinne, R. (1986). Kansanopettaja mallikansalaisena: opettajuuden laajeneminen ja opettajuuden rekrytointimekanismit Suomessa 1851-1986 virallisen kuvausaineiston ilmaisemana. Turun yliopiston kasvatustieteiden tiedekunta. A. Tutkimuksia; 108.

10. Alasuutari, P. (1996). Toinen tasavalta: Suomi 1946-1994. Tampere: Vastapaino.

Toshpo'latova Marjona Latif qizi
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

O‘SMIRLIK DAVRIDA EGOISTIK XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlik davrida egoistik xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar, uning namoyon bo‘lish shakllari va ijtimoiy-pedagogik oqibatlari tahlil qilinadi. Egoizmning o‘smir shaxsida paydo bo‘lish jarayoni individual psixologik xususiyatlar, oilaviy tarbiya, tengdoshlar guruhi bosimi va shaxslararo munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq ekani ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda o‘smirlarning "Men-konsepsiyasi", o‘zini qadrlash darajasi, psixologik himoya mexanizmlari hamda emotsional yetuklik egoistik tendensiyalarning rivojlanishida muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, egoistik xatti-harakatlarning konstruktiv va destruktiv ko‘rinishlari o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularni kamaytirish bo‘yicha psixoprofilaktik yondashuvlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik, egoizm, egoistik xulq-atvor, psixologik omillar, “Men-konsepsiyasi”, o‘zini qadrlash, emotsional yetuklik, shaxslararo munosabatlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭГОИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические факторы, влияющие на формирование эгоистического поведения в подростковом возрасте, а также особенности его проявления и социально-педагогические последствия. Показано, что возникновение эгоизма у подростков тесно связано с индивидуальными психологическими характеристиками, семейным воспитанием, давлением группы сверстников и системой межличностных отношений. В исследовании подчёркивается роль «Я-концепции», уровня самооценки, механизмов психологической защиты и эмоциональной зрелости в развитии эгоистических тенденций. Кроме того, раскрываются различия между конструктивными и деструктивными формами эгоистического поведения, предлагаются психопрофилактические подходы по их снижению.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, эгоизм, эгоистическое поведение, психологические факторы, «Я-концепция», самооценка, эмоциональная зрелость, межличностные отношения.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS AND MANIFESTATION CHARACTERISTICS OF EGOISTIC BEHAVIOR IN ADOLESCENCE

Abstract. *This article examines the psychological factors influencing the development of egoistic behavior during adolescence, along with the key characteristics of its manifestation and its socio-pedagogical implications. The emergence of egoism in adolescents is shown to be closely linked to individual psychological traits, family upbringing, peer pressure, and patterns of interpersonal relationships. The study emphasizes the roles of self-concept, self-esteem, psychological defense mechanisms, and emotional maturity in shaping egoistic tendencies. Furthermore, distinctions between constructive and destructive forms of egoistic behavior are identified, and psychoprophylactic strategies for reducing excessive egoistic tendencies are proposed.*

Key words: *adolescence, egoism, egoistic behavior, psychological factors, self-concept, self-esteem, emotional maturity, interpersonal relationships.*

Kirish. O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va psixologik jihatdan dinamik bosqichlardan biri bo‘lib, unda shaxsning o‘zini anglash jarayoni, “Men-konsepsiyasi”ning shakllanishi va ijtimoiy mavqeini belgilashga bo‘lgan ehtiyoj keskin kuchayadi. Mazkur davrda

kuzatiladigan xatti-harakatlar, emotsional reaktivlik, mustaqillikka intilish hamda o‘z pozitsiyasini himoya qilish kabi tendensiyalar ko‘pincha egoistik xulq-atvor bilan uyg‘unlashib kechadi. Egoizmning o‘smirlarda namoyon bo‘lishi — ularning tabiiy rivojlanish jarayonining bir qismi bo‘lishi bilan birga, psixologik omillar majmuasi ta’sirida shakllanadigan muayyan xulq tizimidir.

Psixologik adabiyotlarda egoistik xatti-harakatlar ikki yirik guruhga bo‘linadi: konstruktiv egoizm va destruktiv egoizm. Birinchi tur o‘smirning shaxsiy chegaralarini belgilashi, o‘z fikrini himoya qila bilishi, o‘z manfaatini anglash va o‘zini qadrlash kabi ijobiy jihatlarni o‘z ichiga olsa, ikkinchisi — o‘zgalar ehtiyojini inkor etish, empatiyaning sustligi, xudbinlik, munosabatlarda agressivlik yoki passiv tajovuzkorlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shu bois egoistik xulq-atvorning psixologik ildizlarini aniqlash, uning rivojlanish mexanizmlarini o‘rganish o‘smirlar bilan ishlovchi psixolog, pedagog, ota-ona va mutaxassislar uchun dolzarb masala hisoblanadi.

O‘smirning shaxsiy rivojlanishida oilaviy munosabatlar, tarbiya uslubi, ota-ona bilan emotsional aloqa sifati muhim o‘rin tutadi. Avtoritar yoki ortiqcha erkalashga asoslangan tarbiya, nazoratning haddan tashqari kuchli yoki zaif bo‘lishi egoistik tendensiyalarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, tengdoshlar guruhi ta’siri, ijtimoiy tarmoqlardagi virtual rollar va zamonaviy o‘smirlarning shaxslararo muloqotga bo‘lgan yondashuvi egoizmning ko‘rinishlariga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda o‘zini qadrlash darajasi past bo‘lsa, ular ko‘pincha himoya mexanizmi sifatida egoistik xulq-atvorga murojaat qiladi.

O‘zbekiston psixologik tajribasida o‘smirlik davri masalalariga katta e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, egoizmning psixologik omillari va uning o‘ziga xos ko‘rinishlari bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy-amaliy jihatdan ahamiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, globallashuv, raqamli kommunikatsiya, individualizmning kuchayishi va oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida o‘smirlar o‘rtasida egoistik xulq-atvorning ko‘payishi kuzatilmoqda. Shuning uchun mazkur mavzuni o‘rganish nafaqat nazariy asoslar, balki amaliy psixologik xizmat, tarbiyaviy yondashuvlar va profilaktik chora-tadbirlar uchun ham muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘smirlik davri shaxsning psixologik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va identifikatsiyasi jarayonida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Mazkur davrda shaxsning “Men-konsepsiyasi” keskin o‘zgarishlarga uchraydi, mustaqillik va avtonomiya uchun kurash kuchayadi, emotsional holatlar beqarorligi esa xulq-atvorning turli shakllarda ifodalanishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, egoistik xulq-atvorning kuchayishi o‘smirlarda keng uchraydigan psixologik holat sifatida ilmiy jamoatchilikning e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy jamiyatda individualizmning ortishi, raqamli kommunikatsiya vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zini namoyon qilish imkoniyatlari o‘smirlarning psixologik ehtiyojlari va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa egoistik tendensiyalarning yanada kuchayishiga zamin yaratmoqda.

Egoizmning o‘smirlik davrida namoyon bo‘lishi ko‘p hollarda tabiiy rivojlanishning bir qismi sifatida qaralsa-da, uning me’yordan ortiq darajada kuchayishi shaxslararo munosabatlarda ziddiyatlar, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari, empatiya darajasining pasayishi, agressiv xulq-atvor yoki passiv tajovuzkor reaksiyalar kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois mazkur masala nafaqat psixologik nazariya, balki ta’lim-tarbiya jarayonida ham dolzarb hisoblanadi. O‘smirlarning oila, maktab va tengdoshlar bilan munosabatlaridagi keskinliklar ko‘pincha egoistik reaksiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat pedagogik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni, psixologik xizmatni takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston sharoitida o‘smirlik psixologiyasi sohasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, egoistik xulq-atvorning psixologik determinatsiyasi, uning konstruktiv va destruktiv yo‘nalishlarini farqlash, shuningdek, raqamli makonning o‘smir xulq-atvoriga ta’siri yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Globallashuv davrida yoshlarning qadriyatlari, ijtimoiy yo‘nalganligi, shaxsiy chegaralar va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar mazkur mavzuni o‘rganishni yanada muhim qilib qo‘ymoqda. O‘smirlik davridagi egoistik tendensiyalar so‘nggi yillarda kuchayib, oila va maktab muhitida konfliktlar, kommunikativ qiyinchiliklar, o‘quvchilar o‘rtasidagi raqobatchilikning noto‘g‘ri shakllanishi va shaxslararo masofa buzilishi kabi holatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, egoistik xulq-atvorning shakllanishida individual psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda oilaviy tarbiya uslublari, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, tengdoshlar guruhi ta'siri, ommaviy axborot vositalari va internetdagi psixologik modellar muhim rol o'ynaydi. Bu omillarni kompleks o'rganish, o'smirlarda egoistik tendensiyalarning oldini olish va ularni ijtimoiy barqaror xulq-atvorga yo'naltirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, unda psixologik, emotsional va ijtimoiy o'zgarishlar juda intensiv kechadi. Ilmiy adabiyotlarda o'smirlik vaqtida "Men-konsepsiyasi"ning shakllanishi, identifikatsiya jarayoni va mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj kuchayishi egoistik xulq-atvorning namoyon bo'lishiga zamin yaratishi qayd etiladi. E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida o'smirlik "identifikatsiya — rol chalkashuvi" bosqichi sifatida ko'rsatiladi; u o'smirning kimligini anglashga bo'lgan intilishining kuchayishi va shu jarayonda egoistik reaktsiyalarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi. D. Elkind tomonidan ishlab chiqilgan "adolésent egotsentrizm" tushunchasi o'smirlarning o'zini haddan tashqari markazga qo'yishi, "xayoliy auditoriya" va "shaxsiy mif" kabi psixologik fenomenlar orqali egoistik xulq-atvor kuchayishi bilan bog'lanadi. J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi ham o'smirlar abstrakt tafakkurga o'tishi bilan o'z g'oyalarini mutlaq deb bilishga moyillik kuchayishini ta'kidlaydi.

Egoizm tushunchasi psixologiyada ko'p qirrali talqin qilinadi. A. Adlerning individual psixologiyasida egoistik xulq-atvor ko'pincha kompensatsiya mexanizmi sifatida qaralib, past o'zini qadrlashni yashirishga qaratilgan psixologik himoya shakli sifatida ko'riladi. Z. Freydning psixoanalitik yondashuviga ko'ra, egoistik reaksiyalar insonning instinktiv ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, "Id"ning ustunlik qilishi holatida kuchayadi. Zamonaviy adabiyotlarda egoizm ikki turga bo'linadi: konstruktiv egoizm — shaxsiy chegaralarni belgilay olish, o'z fikrini himoya qilish, ichki mustaqillikni shakllantirish; destruktiv egoizm esa boshqalarni inkor etish, empatiya pasayishi, ijtimoiy munosabatlarda ziddiyatlar, manipulyativ xatti-harakatlar bilan ifodalanadi. Bu farqlash egoizmning o'smirlardagi salbiy ko'rinishlarini kamaytirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar oila omilining egoistik xulq-atvor shakllanishidagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Baumrindning tarbiya uslublari modeli bo'yicha avtoritar, ortiqcha erkalovchi yoki e'tiborsiz tarbiya o'smirlarda egoistik tendensiyalarni kuchaytiradi. Avtoritar tarbiya keskin psixologik himoya mexanizmlarini faollashtirsa, ortiqcha erkalash o'smirni "markaziy figura" sifatida his qilishiga olib keladi. Emotsional sovuq muhit esa ehtiyojlarning ichkariga qaratilishiga sabab bo'ladi. O'zbekiston psixolog olimlari — N. Jo'rayeva, M. Raxmatova, R. Rasulov va boshqalar — o'smirlarning oiladagi munosabatlar tizimiga sezgir ekanligini, oiladagi nomutanosiblik egoistik reaksiyalarni tez kuchaytirishini qayd etgan.

Tengdoshlar guruhi o'smirlikning eng kuchli psixologik determinantlaridan biri hisoblanadi. C. Cooley tomonidan ishlab chiqilgan "ko'zgudagi men" **KONSEPTSIYA**siga ko'ra, o'smir o'zini tengdoshlar bahosi orqali idrok etadi, bu esa o'zini tasdiqlash ehtiyojining kuchayishiga, shu bilan birga egoistik xulq-atvorning ortishiga sabab bo'ladi. O'smirlar o'rtasidagi ijtimoiy mavqe uchun kurash, raqobatchilikning salbiy ko'rinishlari, guruh ichidagi psixologik bosim egoizmning kuchayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maktabning ijtimoiy-madaniy muhiti ham egoistik xulq-atvor shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash past bo'lgan maktab muhitida o'smirlar ko'proq agressiv va egoistik reaktsiyalar namoyon qiladi.

Raqamli makonning o'smir psixologiyasiga ta'siri so'nggi yillarda eng ko'p muhokama qilinayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. S. Turkle (2015), J. Twenge (2017) kabi tadqiqotchilar internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'smir ongida "virtual men" obrazini yaratishi, o'zini tashqi baholarga bog'lab qo'yish, like va followerlar orqali o'zini qadrlashga urinishi egoistik tendensiyalarni kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Virtual makonda narcisistik tendensiyalar, boshqalarga taqqoslash, o'zini idealizatsiya qilish holatlari o'smirlarda empatiya darajasining pasayishi bilan uyg'unlashadi.

Individning psixologik xususiyatlari — impulsivlik, emotsional labillik, past empatiya, past o'zini qadrlash va kuchli psixologik himoya mexanizmlari — egoistik xulq-atvorning shakllanishida markaziy o'rin tutadigan omillar sifatida ko'rsatiladi. Rosenbergning o'zini qadrlash modeli (1965),

Anna Freydning himoya mexanizmlari tasnifi (1946), Buss va Perryning agressiya modeli (1992) o‘smirlarning ichki psixologik jarayonlari bilan egoizm rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur yoritadi. Hoffmanning empatiya nazariyasi (1978) esa empatiya pastligi destruktiv egoizmga olib kelishini ilmiy asoslarni ko‘rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlar ham mazkur mavzuni ilmiy asosda o‘rgangan. O‘zbekiston psixologiyasida G. Qodirova, S. Yo‘ldoshev, A. Jalilova kabi olimlarning ishlarida o‘smirlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojida egoistik xulq-atvorning paydo bo‘lishi oilaviy, ijtimoiy va emotsional omillar majmuasi bilan izohlab berilgan. Tadqiqotlarda globallashuv, texnologik rivojlanish va oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi sharoitida o‘smirlarda individualizmning kuchayishi qayd etiladi.

Muhokama. O‘smirlik davri shaxsning psixologik shakllanishida tub burilish yasovchi bosqich bo‘lib, ushbu davrda yuzaga keladigan o‘zgarishlar o‘smirning xulq-atvori, emotsional reaksiyalari va ijtimoiy munosabatlarni o‘ziga xos tarzda namoyon etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, egoistik xulq-atvorning shakllanishi o‘smirlik davrida tashqi ijtimoiy omillar va ichki psixologik mexanizmlarning murakkab o‘zaro ta’siri orqali yuzaga keladi. Egoizmning konstruktiv va destruktiv ko‘rinishlari o‘smir shaxsining ichki ehtiyojlari, o‘zini baholash darajasi, oilaviy munosabatlar sifati va tengdoshlar guruhi bilan o‘zaro munosabatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotda aniqlanganidek, o‘smirlarda egoistik xatti-harakatlar ko‘pincha o‘zini anglash jarayonining kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu E. Erikson tomonidan ta’riflangan identifikatsiya inqirozi bilan uyg‘unlashadi. Mazkur davrda o‘smir mustaqillikka intiladi, o‘zining ichki “Men” obrazini izlaydi va bu jarayonda o‘zgalar fikriga sezgir bo‘lib qoladi. Agar ushbu ehtiyoj qondirilmasa yoki noto‘g‘ri yo‘naltirilsa, egoistik xatti-harakatlar kuchayib, konstruktivdan destruktiv yo‘nalishga o‘tishi mumkin.

Psixologik diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, past o‘zini qadrlash darajasiga ega bo‘lgan o‘smirlar egoistik xatti-harakatlarni himoya mexanizmi sifatida qo‘llashga moyil. Bu holat shuni anglatadiki, egoizm ko‘pincha ichki noaniqlik, xavotir, o‘zini qadrsiz his qilish yoki o‘z yutuqlarini real baholay olmaslik kabi psixologik holatlardan kelib chiqadi. Bunday o‘smirlar tashqi tan olinishga kuchli ehtiyoj sezadi va tengdoshlar e’tiborini jalb qilish maqsadida xudbinlik, o‘zini ustun qo‘yish, manipulyativ xulq-atvor kabi strategiyalardan foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri — oilaviy tarbiya uslublarining egoistik xulq-atvorga ta’sirini aniqlashdir. Avtoritar tarbiya sharoitida ulg‘aygan o‘smirlar ko‘pincha tajovuzkor, hukmronlikka moyil, o‘z fikrini faqat keskin shaklda himoya qiluvchi bo‘lib shakllanadi. Aksincha, haddan tashqari erkalash orqali tarbiyalangan o‘smirlar o‘zini markaziy figura sifatida ko‘rib, boshqalarga nisbatan ehtiyotsiz, talabchan va ortiqcha o‘ziga ishonchi baland bo‘lgan xatti-harakatlar namoyon qiladi. Shu bois oilaviy tarbiya egoistik xulq-atvorning asosiy ijtimoiy determinantlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tengdoshlar guruhi ta’siri ham egoistik reaktsiyalarni shakllantirishda o‘ta ahamiyatli ekanligi tadqiqot natijalarida ko‘rindi. Ijtimoiy maqom uchun kurash, raqobatning sog‘lom bo‘lmagan shakllari va guruh ichidagi psixologik bosim o‘smirning o‘zini tasdiqlashga qaratilgan xatti-harakatlarini kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, “xayoliy auditoriya” fenomeni mavjud bo‘lgan o‘smirlarda egoistik xulq-atvor tashqi ko‘rinish va jamiyat bahosiga xizmat qiluvchi vosita sifatida shakllanadi. Bu holat shaxsning ichki ehtiyojlari va tashqi ko‘rinish o‘rtasidagi nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Raqamli makonning o‘smirlar psixologiyasiga ta’siri haqida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllanadigan virtual imij egoistik xatti-harakatlarning sezilarli kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. O‘smirlar o‘z sahifalarida o‘zlarini idealizatsiya qilishga, o‘zlarini boshqalardan ustun ko‘rsatishga intiladi; like va followerlar soni ularda o‘zini qadrlashning sun’iy mezoniga aylanadi. Bu jarayonlar naturalistik empatiyaning pasayishiga, real ijtimoiy munosabatlarda soddalikning yo‘qolishiga olib keladi. Virtual makon egoizmning nafaqat psixologik mexanizmlarini, balki uning ijtimoiy ko‘rinishlarini ham kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, egoistik xulq-atvorga ta’sir etuvchi asosiy omillar:

1. o‘zini anglash jarayonidagi murakkab kechinmalar;

2. oilaviy tarbiya uslubi va emotsional aloqa sifati;
3. tengdoshlar guruhi va maktab muhitining psixologik bosimi;
4. raqamli makonning shaxs idrokiga ta’siri;
5. shaxsning individual temperament va xarakter xususiyatlari;
6. o‘zini qadrlash va empatiya darajasi.

Muhokamadan ko‘rinadiki, egoistik xulq-atvor biror bitta sababning natijasi emas, balki kompleks psixologik-hayotiy omillar o‘zaro ta’sirining murakkab mahsulidir. Shuning uchun egoistik xulq-atvorga faqat salbiy nuqtai nazardan baho berish to‘g‘ri emas. Tadqiqotda egoizmning konstruktiv jihatlari ham mavjudligi aniqlangan: shaxsiy chegaralarni saqlash, o‘z fikrini dadil himoya qilish, mustaqil qaror qabul qilish, psixologik barqarorlikni ta’minlash — bular konstruktiv egoizmning namoyon bo‘lishlari bo‘lib, o‘smirning shaxs sifatida mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Destruktiv egoizm esa empatiya pastligi, agressiv xatti-harakat, o‘z manfaatini haddan tashqari ustuvor qo‘yish, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari va konfliktlarga olib kelishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari o‘smirlar bilan ishlovchi psixolog va pedagoglar uchun egoistik xulq-atvorni to‘g‘ri baholash va unga individual yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Egoistik xatti-harakatlarning ildizlari aniqlansa, ular konstruktiv yo‘nalishga o‘tkazilishi va o‘smirning o‘zini anglash jarayoni sog‘lom shakllantirilishi mumkin.

1-jadval

O‘smirlarda egoistik xulq-atvorning asosiy psixologik omillari

№	Ko‘rsatkich	Natija (%)	Qisqa izoh
1	Konstruktiv egoizm	34%	O‘z fikrini himoya qiladi, mustaqillik kuchli.
2	Destruktiv egoizm	28%	Empatiya past, tajovuz yoki xudbinlik mavjud.
3	Past o‘zini qadrlash	41%	Destruktiv egoizmning asosiy omili.
4	Agressivlik/impulsivlik	32%	Keskin reaksiyalar egoizmni kuchaytiradi.
5	Empatiya pastligi	45%	O‘zgani tushunmaslik — destruktiv egoizm manbai.
6	Tengdoshlar bosimi	52%	Status uchun kurash egoizmni oshiradi.
7	Avtoritar tarbiya	37%	Tajovuzkor egoizm shakllanadi.
8	Ortib ketgan erkalash	29%	“Men markazman” sindromi yuzaga keladi.
9	Raqamli makondagi narcisizm	47%	Like/followerga bog‘liqlik egoistik xulqni kuchaytiradi.

1-jadvalda o‘smirlarda egoistik xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy psixologik omillar umumlashtirilgan. Jadvaldan ko‘rinadiki, egoistik xatti-harakatlarning shakllanishi biror bitta sabab bilan emas, balki bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘plab psixologik va ijtimoiy omillar majmuasi bilan izohlanadi.

Birinchidan, konstruktiv egoizm (34%) va destruktiv egoizm (28%) o‘smirlar xulqida bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi egoizmning ikki tomonli psixologik hodisa ekanini ko‘rsatadi. Konstruktiv egoizm mustaqillik, shaxsiy fikr va chegaralarni belgilash bilan bog‘liq bo‘lsa, destruktiv egoizm empatiya pastligi, agressivlik va xudbinlik bilan namoyon bo‘lishi aniqlangan.

Jadvaldagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri — tengdoshlar bosimi (52%) bo‘lib, bu o‘smirlar xulq-atvorining aksariyati tengdoshlar guruhi ta’siri ostida shakllanishini ko‘rsatadi. Status uchun kurash va guruh ichidagi raqobat egoistik reaksiyalarni kuchaytiruvchi yetakchi omillar sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, past o‘zini qadrlash (41%) va empatiya pastligi (45%) destruktiv egoizmning psixologik ildizlarini tashkil qilishi aniqlangan. Past o‘zini qadrlovchi o‘smirlar ko‘pincha o‘zini himoya qilish yoki boshqalardan ustun ko‘rsatish uchun xudbinlikka murojaat qiladi. Empatiyaning pastligi esa boshqalar tuyg‘usini hisobga olmaslikka olib keladi.

Oilaviy tarbiya omillari — avtoritar nazorat (37%) va ortiqcha erkalash (29%) — egoistik xulq-atvor rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Avtoritar tarbiya tajovuzkor egoizmga, erkalash esa o‘zini haddan tashqari markazga qo‘yish ehtimoliga olib keladi.

Zamonaviy sharoitda muhim omillardan biri bo‘lgan raqamli makondagi narcisizm (47%) ko‘rsatkichining yuqoriligi ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlar xulqiga kuchli ta’sir qilishini tasdiqlaydi. Like va followerga bog‘liq bo‘lgan o‘zini qadrlash egoistik xulq-atvorni kuchaytiradigan omil sifatida qayd etilgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida egoistik xulq-atvorning shakllanishi ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, shaxsning individual xususiyatlari, oilaviy tarbiya sifati, tengdoshlar guruhi bosimi va raqamli makondagi faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Empirik ma’lumotlar egoistik xatti-harakatlarning konstruktiv (ijtimoiy moslashuvga yordam beruvchi) va destruktiv (konflikt va moslashuv qiyinchiliklarini kuchaytiruvchi) shakllarga ega ekanini tasdiqladi.

Tadqiqotda aniqlanganidek, past o‘zini qadrlash, empatiya darajasining pastligi va emotsional labillik destruktiv egoizmning asosiy psixologik manbalari sifatida namoyon bo‘ladi. Tengdoshlar guruhi bosimi va raqamli makondagi narcisistik motivlar esa egoistik xulq-atvorning tashqi rag‘batlantiruvchi omillari bo‘lib xizmat qiladi. Oilaviy tarbiya uslublari, xususan, avtoritar nazorat yoki ortiqcha erkalovchi munosabatlar egoistik tendensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘smirlik davrida konstruktiv egoizmning shakllanishi shaxsning mustaqil fikrlashi, o‘z pozitsiyasini himoya qilishi va shaxsiy chegaralarni belgilashi uchun zarur bo‘lsa-da, destruktiv egoizmning kuchayishi ijtimoiy moslashuvning buzilishi, konfliktlarga moyillik, agressiv reaktivlik va empatiya pasayishi kabi salbiy holatlarga olib keladi. Shu bois egoistik xulq-atvorni baholashda uning mazmuni, sababi va namoyon bo‘lish konteksti chuqur tahlil qilinishi muhim.

Amaliy tavsiyalar

O‘smirlik davrida egoistik xulq-atvorning shakllanishi va namoyon bo‘lishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unga oila, ta’lim muassasalari, psixologik xizmat va keng ijtimoiy muhit birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ushbu muammoni samarali bartaraf etish va oldini olish uchun kompleks yondashuvni talab etuvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Avvalo, oilaviy muhit o‘smir shaxsining shakllanishida yetakchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onalar tomonidan muvozanatli tarbiya uslubini qo‘llash, ya’ni haddan tashqari qat’iylik yoki ortiqcha erkalashdan qochish, bolaning sog‘lom shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘smir bilan doimiy emotsional aloqani mustahkamlash, uning fikrini tinglash va hurmat qilish oilada ishonchli munosabatlarni shakllantiradi. O‘zaro muloqot madaniyatining rivojlanishi empatiya va ijtimoiy sezgirlikni kuchaytirib, egoistik xatti-harakatlarning kamayishiga yordam beradi. Shuningdek, ota-onalarni psixologik jihatdan ma’rifatlantirish, egoizmning tabiiy va patologik shakllarini farqlashga o‘rgatish tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi.

Ta’lim muassasalarida esa o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik holatini tizimli kuzatib borish muhim ahamiyatga ega. Maktab psixologlari tomonidan egoistik xulq-atvorni aniqlashga qaratilgan muntazam diagnostik monitoring olib borilishi, muammoni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. O‘quvchilar o‘rtasida empatiya, ijtimoiy mas’uliyat va muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan treninglar tashkil etish, sinf jamoalarida sog‘lom ijtimoiy iqlimni shakllantirishga xizmat qiladi. Tengdoshlar bosimini kamaytirish va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi. Shuningdek, konfliktlarni konstruktiv hal etish uchun mediatsiya texnikalarini o‘rgatish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhim profilaktik chora hisoblanadi.

O‘smirlar bilan bevosita ishlovchi psixologlar faoliyatida esa individual va kompleks yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim. Egoizm darajasini aniqlashda shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy omillarni birgalikda tahlil qilish muammoning asl sabablarini aniqlashga yordam beradi. Past o‘zini qadrlashga ega o‘smirlar bilan ishlashda o‘z-o‘zini qadrlashni oshirishga qaratilgan psixokorrektsion dasturlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Agressivlik va impulsivlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlarda esa emotsional boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida e’tibor talab qiladi. Destruktiv egoizmni kamaytirish jarayonida kognitiv–xulq-atvor terapiyasi elementlaridan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Keng ijtimoiy muhit darajasida ham profilaktik va ma'rifiy ishlarni kuchaytirish zarur. Ommaviy axborot vositalari orqali o'smirlik psixologiyasi, sog'lom shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy mas'uliyat mavzularida keng jamoatchilikka mo'ljallangan ma'rifiy materiallar yaratish muhimdir. Yoshlar o'rtasida sog'lom kommunikatsiyani targ'ib qiluvchi ijtimoiy loyihalarni rivojlantirish, shuningdek, egoistik xulq-atvorning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan profilaktik dasturlarni ishlab chiqish jamiyatda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur amaliy tavsiyalarni izchil va tizimli ravishda amalga oshirish o'smirlar orasida egoistik xulq-atvorning oldini olish, empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish hamda sog'lom shaxs shakllanishini ta'minlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York : W. W. Norton, 1968. – 336 p.
2. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York : Basic Books, 1972. – 192 p.
3. Elkind D. Children and Adolescents: Interpretive Essays on Jean Piaget. – New York : Oxford University Press, 1967. – 256 p.
4. Adler A. Understanding Human Nature. – New York : Hazelden Publishing, 1931. – 300 p.
5. Rosenberg M. Society and the Adolescent Self-Image. – Princeton : Princeton University Press, 1965. – 326 p.
6. Hoffman M. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. – Cambridge : Cambridge University Press, 2000. – 331 p.
7. Baumrind D. Child Care Practices Anteceding Three Patterns of Preschool Behavior // *Genetic Psychology Monographs*. – 1967. – Vol. 75. – P. 43–88.
8. Twenge J. M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy—and Completely Unprepared for Adulthood. – New York : Atria Books, 2017. – 384 p.
9. Turkle S. Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age. – New York : Penguin Press, 2015. – 448 p.
10. Turaqulov B. O'smirlik psixologiyasi. – Toshkent : O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2018. – 220 b.

Umurzakova Dilfuza Ilxomovna
Oriental universiteti Samarqand kampusi
Tillar 2-kafedrasi dotsenti, pegagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA TOLERANTLIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA SOFT SKILLS KO'NIKMALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida tolerantlik tafakkurini shakllantirish va soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilardan nafaqat bilim berish, balki turli madaniy va ijtimoiy kelib chiqishga ega bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ishlash qobiliyati talab etiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kommunikativ kompetensiya, empatiya, moslashuvchanlik va muloqot madaniyati kabi soft skills elementlari o'qituvchilarning tolerant shaxsini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *tolerantlik tafakkuri, soft skills, ingliz tili o'qituvchisi, kasbiy kompetensiya, empatiya, kommunikativ ko'nikmalar, multikulturalizm, pedagogik ta'lim*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НАВЫКОВ SOFT SKILLS В РАЗВИТИИ ТОЛЕРАНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье анализируется взаимосвязь формирования толерантного мышления и развития «мягких» навыков в профессиональной подготовке будущих учителей английского языка. В современной системе образования от учителей требуется не только передавать знания, но и уметь эффективно работать со студентами из разных культурных и социальных групп. По результатам исследования установлено, что такие «мягкие» навыки, как коммуникативная компетентность, эмпатия, гибкость и культура общения, имеют решающее значение в формировании толерантной личности учителя.*

Ключевые слова: *толерантное мышление, «мягкие» навыки, учитель английского языка, профессиональная компетентность, эмпатия, коммуникативные навыки, мультикультурализм, педагогическое образование*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF SOFT SKILLS IN DEVELOPING TOLERANT THINKING AMONG PROSPECTIVE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the relationship between the formation of a tolerant mindset and the development of soft skills in the professional training of future English language teachers. In the modern education system, teachers are required not only to impart knowledge, but also to be able to work effectively with students from different cultural and social backgrounds. According to the results of the study, it was found that soft skills such as communicative competence, empathy, flexibility and communication culture are of decisive importance in the formation of a tolerant personality of teachers.*

Key words: *tolerant mindset, soft skills, English language teacher, professional competence, empathy, communicative skills, multiculturalism, pedagogical education*

Kirish. Jahon hamjamiyatining globallashuvi va turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayishi zamonaviy ta'lim tizimiga yangicha talablar qo'ymoqda. XXI asrda ingliz tili o'qituvchisi nafaqat tilshunoslik va metodika sohasida chuqur bilimlarga ega mutaxassis, balki har xil madaniy, diniy va ijtimoiy kelib chiqishga ega bo'lgan talabalar bilan samarali hamkorlik qila oladigan tolerant shaxs bo'lishi zarur [1]. Tolerantlik tushunchasi UNESCO ta'rifiga ko'ra, boshqa odamlarning qadriyatlari, e'tiqodi va madaniyatiga hurmat ko'rsatish, ularni qabul qilish va tushunishni anglatadi [2]. Shu bilan birga, soft skills yoki "yumshoq ko'nikmalar" tushunchasi kasbiy faoliyatda

muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan shaxslararo munosabatlar, kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash va hissiy intellekt kabi universal qobiliyatlarni o'z ichiga oladi [3]. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ushbu ikki komponent – tolerantlik tafakkuri va soft skills ko'nikmalari – bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning integratsiyasi pedagogik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xorijiy tillar o'qituvchilarini tayyorlashda an'anaviy yondashuv asosan lingvistik va metodologik kompetensiyalarga e'tibor qaratadi, biroq shaxslararo ko'nikmalar va tolerant munosabatlarni shakllantirishga yetarli darajada ahamiyat berilmaydi. Bu esa mutaxassislarning amaliy faoliyatda turli qiyinchiliklarga duch kelishiga, jumladan multikultur sinflarda ishlashda muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, ushbu maqolaning maqsadi soft skills ko'nikmalarining bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tolerantlik tafakkurini rivojlantirishdagi o'rnini nazariy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan bo'lib, xorijiy va mahalliy ilmiy manbaлapni sistematik tahlil qilish orqali mavzu bo'yicha nazariy asoslarni shakllantirish maqsad qilingan. Soft skills konsepsiyasi birinchi marta 1960-yillarda AQSh harbiy ta'lim tizimida texnik ko'nikmalardan farqli ravishda shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarni tavsiflash uchun ishlatilgan [4]. Keyinchalik bu tushuncha biznes va ta'lim sohalariga keng tarqaldi. Zamonaviy tadqiqotchilar soft skills tarkibiga turli xil ko'nikmalarni kiritadilar, lekin asosiy elementlar sifatida kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash qobiliyati va moslashuvchanlik ta'kidlanadi [5]. Robles tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, zamonaviy ish beruvchilar kadrlar tanlaganda hard skills bilan bir qatorda soft skills xususiyatlariga ham katta ahamiyat berishadi, xususan, muloqot madaniyati va jamoaviy ishlash ko'nikmalari ustuvor hisoblanadi [6].

Tolerantlik tafakkuri konsepsiyasi esa pedagogika va psixologiya fanlarida alohida tadqiqot ob'yekti sifatida XX asr oxiridan boshlab faol o'rganila boshlandi. Asmolov va uning hammuallifilarining ishlarida tolerantlik shaxsning integral xususiyati sifatida tahlil qilingan bo'lib, u kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga oladi [7]. Pedagogik kontekstda tolerantlik o'qituvchining professional faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim mezondır. Rus olimi Soldatova tolerant shaxsning psixologik portretini ishlab chiqqan bo'lib, unda empatiyanost, ochiqlik, moslashuvchanlik va boshqalarga hurmat kabi xususiyatlar asosiy belgilar sifatida ko'rsatilgan [8]. O'zbek tadqiqotchilari ham so'nggi yillarda bu mavzuga katta e'tibor qaratmoqdalar. Jumladan, Yo'ldoshev va Mahmudova o'z ishlarida multikultur muhitda ishlash uchun o'qituvchilarning tolerant sifatlarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan [9].

Ingliz tili o'qituvchilari kontekstida tolerantlik muammosi ayniqsa dolzarb hisoblanadi, chunki til o'rgatish jarayoni bevosita madaniyatlararo muloqot bilan bog'liq. Byram o'zining madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modelida tilni o'rgatish nafaqat lingvistik tizimni o'zlashtirishni, balki boshqa madaniyatlarni tushunish va hurmat qilishni ham o'z ichiga olishi kerakligini ta'kidlaydi [10]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soft skills va tolerantlik tafakkuri o'rtasida kuchli korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Xususan, hamdardlik – soft skillsning asosiy komponenti – ayni paytda tolerant munosabatlarning ham bazasi hisoblanadi. Kommunikativ ko'nikmalar boshqa kishilarning nuqtai nazarini tushunish va qabul qilish imkonini beradi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri tolerantlikka olib keladi. Emotsional intellektning yuqori darajasi esa turli xil vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish va boshqalarning hissiyotlariga sezgir bo'lishni ta'minlaydi, bu multikultur muhitda ishlash uchun zarurdir. Moslashuvchanlik va ochiqlik xususiyatlari esa yangi madaniy kontekstlarga tez moslashish va stereotiplardan xoli bo'lishga yordam beradi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar asosan nazariy tahlilga yoki alohida pedagogik tajribalarga bag'ishlangan bo'lib, soft skills va tolerantlik tafakkurining integratsiyalashgan rivojlanish mexanizmlari yetarlicha o'rganilmagan.

Natijalar va muhokama.

Adabiyotlar tahlili natijalariga asoslanib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tolerantlik tafakkurini rivojlantirishda soft skills ko'nikmalarining to'rtta asosiy ta'sir mexanizmi aniqlanadi. Birinchidan, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi bevosita madaniyatlararo tushunishni

osonlashtiradi. Samarali kommunikatsiya nafaqat til vositalarini to'g'ri qo'llashni, balki suhbatdoshning madaniy kodlarini tushunishni, nonverbal signallarni to'g'ri talqin qilishni va kontekstga mos muloqot strategiyalarini tanlashni ham o'z ichiga oladi. Bu ko'nikma ayniqsa ingliz tili o'qituvchilari uchun muhimdir, chunki ular doimiy ravishda turli xil madaniy kelib chiqishga ega talabalar bilan ishlaydilar. Kommunikativ ko'nikmalarning yuqori darajasi o'qituvchiga har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan effektiv muloqot o'rnatish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida o'zaro hurmat va tushunish muhitini yaratadi. Ikkinchidan, emotsional intellektning rivojlanishi tolerant munosabatlarning asosidir.

Goleman va boshqa tadqiqotchilar ko'rsatib berganlaridek, emotsional intellekt o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga mos javob berish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchilar uchun bu ko'nikma muayyan ahamiyatga ega, chunki dars jarayonida turli xil emotsional holatlar va vaziyatlar yuzaga keladi. Yuqori emotsional intellektga ega o'qituvchi stressli vaziyatlarda xotirjam qola oladi, talabalarning his-tuyg'ulariga sezgir bo'ladi va ularga qo'llab-quvvatlash ko'rsata oladi, bu esa sinf ichida psixologik xavfsizlik va qabul qilish muhitini yaratadi. Uchinchidan, tanqidiy fikrlash va refleksiv faoliyat o'qituvchilarga o'z stereotiplari va qarashlari ustidan ishlash imkonini beradi. Har bir inson ma'lum darajada madaniy stereotiplarga ega bo'ladi, lekin tanqidiy fikrlash ko'nikmasi bu stereotiplarni anglash, ularning ob'ektivligini baholash va zarur hollarda qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Refleksiv amaliyot o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, xatoliklarni aniqlash va tolerantlik nuqtai nazaridan o'z xatti-harakatlarini baholash imkonini beradi. Bu jarayon doimiy professional o'sish va shaxsiy rivojlanishning muhim komponenti hisoblanadi. To'rtinchidan, jamoaviy ishlash va hamkorlik ko'nikmalari multikultur muhitda samarali faoliyat yuritish uchun zarurdir. Zamonaviy ta'lim jarayoni ko'pincha guruh ishlari, loyihalar va hamkorlikdagi topshiriqlar asosida tashkil etiladi. Jamoaviy ishlash ko'nikmalariga ega o'qituvchi turli xil shaxslar o'rtasida hamkorlikni tashkil qila oladi, mojarolarni konstruktiv hal qiladi va barcha ishtirokchilarning fikrlarini hisobga olgan holda konsensusga erishadi. Bu ko'nikmalar bevosita tolerant xulq-atvorning amaliy namoyon bo'lishi hisoblanadi, chunki ular har bir jamoa a'zosining qadriyati va hissasini tan olishni talab qiladi.

Muhokama jarayonida ta'kidlash kerakki, soft skills va tolerantlik tafakkurining integratsiyasi bir martalik tadbirlar orqali emas, balki muntazam va maqsadli pedagogik ta'sir orqali amalga oshirilishi kerak. Bu jarayon oliy ta'lim muassasalarida maxsus dasturlar va o'quv kurslarini ishlab chiqishni talab qiladi. Xususan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash dasturlariga madaniyatlararo kommunikatsiya, konfliktologiya, psixologiya va pedagogik aksiologiya kabi fanlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, amaliy tajriba va pedagogik amaliyot davomida talabalar real multikultur muhitda ishlash tajribasini to'plashlari, turli vaziyatlarni tahlil qilishlari va o'z faoliyatlari ustida refleksiya qilishlari zarur. Mentorlik tizimi ham muhim rol o'ynaydi, chunka tajribali o'qituvchilar o'z tajribalarini ulashish va yosh mutaxassislarga yo'l-yo'riq ko'rsatish orqali ularning professional va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadilar. Shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish va davomiy ta'lim ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyoda madaniy kontekstlar va ijtimoiy dinamika doimiy o'zgarib turadi, shuning uchun o'qituvchilar yangi bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda o'zlashtirib borishlari kerak. Bu esa ochiqlik, qiziquvchanlik va o'rganishga tayyorlik kabi soft skills xususiyatlarini talab qiladi, ular ayni paytda tolerantlikning ham muhim komponentlari hisoblanadi.

Moslashuvchanlik va ochiqlik xususiyatlari zamonaviy ta'lim muhitining dinamik tabiatiga mos keladigan o'qituvchilarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik amaliyotda doimiy ravishda yangi vaziyatlar, kutilmagan muammolar va o'zgaruvchan talablar yuzaga keladi, ayniqsa multikultur sinflarda ishlashda bu holat yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Moslashuvchanlik ko'nikmasi o'qituvchiga o'z ish uslubini turli xil talabalar guruhlariga moslashtirishga, yangi pedagogik yondashuvlarni qabul qilishga va o'zgarishlarga qarshi turish o'rniga ulardan samarali foydalanishga yordam beradi. Ochiqlik esa yangi tajribalar, g'oyalar va qarashlarga qiziqish bilan yondashishni, o'z fikr-qarashlarini kengaytirishga tayyorlikni va intellektual rivojlanishga intilishni anglatadi. Bu xususiyatlar o'qituvchiga o'z talabalarining madaniy, diniy va ijtimoiy xususiyatlarini nafaqat qabul qilish, balki ulardan o'z pedagogik arsenalini boyitish uchun foydalanish imkonini

beradi. Moslashuvchan va ochiq o'qituvchi har bir talabaning noyobligini boylik sifatida qabul qiladi va bu xilma-xillikni ta'lim jarayonini boyitish uchun resurs sifatida ishlatadi. Bundan tashqari, bu xususiyatlar o'qituvchining professional faoliyatida yuzaga keladigan stress va emotsional yuklanishni kamaytiradi, chunki u turli vaziyatlarni tahdid emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladi. Natijada, moslashuvchanlik va ochiqlik nafaqat o'qituvchining shaxsiy farovonligini ta'minlaydi, balki sinf muhitida ijobiy, qabul qiluvchi va inklyuziv atmosfera yaratishga ham xizmat qiladi, bu esa barcha talabalarning akademik muvaffaqiyati va shaxsiy rivojlanishi uchun zaruriy sharoitdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, soft skills ko'nikmalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tolerantlik tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, tanqidiy fikrlash va hamkorlik qilish qobiliyati kabi soft skills elementlari nafaqat pedagogik samaradorlikni oshiradi, balki to'g'ridan-to'g'ri tolerant shaxsning shakllanishiga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili va nazariy umumlashtirish asosida aniqlandi ki, bu ikki komponent – soft skills va tolerantlik – bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, ularning integratsiyalashgan rivojlanishi zamonaviy o'qituvchining professional portretining ajralmas qismidir. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xorijiy tillar o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarini takomillashtirish, soft skills va tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar va amaliy mashg'ulotlarni joriy qilish zarurdir.

Bundan tashqari, pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning refleksiv faoliyatini rag'batlantirish, ular uchun multikultur muhitda ishlash imkoniyatlarini yaratish va doimiy professional rivojlanish tizimini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, soft skills ko'nikmalarini rivojlantirish orqali tolerant, ochiq fikrli va professional jihatdan tayyor ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash zamonaviy ta'limning muhim vazifasi hisoblanadi va bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston ta'lim tizimining sifat va samaradorligini oshirishga muhim hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Deardorff D. K. Manual for Developing Intercultural Competencies: Story Circles. – London : Routledge, 2020. – 224 p.
2. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. – Paris : UNESCO, 1995. – 16 p.
3. Cimatti B. Definition, Development, Assessment of Soft Skills and Their Role for the Quality of Organizations and Enterprises // International Journal for Quality Research. – 2016. – Vol. 10, No. 1. – P. 97–130.
4. Klaus P. Communication Breakdown // California Job Journal. – 2010. – Vol. 28, No. 1248. – P. 1–9.
5. Schulz B. The Importance of Soft Skills: Education beyond Academic Knowledge // Journal of Language and Communication. – 2008. – Vol. 2, No. 1. – P. 146–154.
6. Robles M. M. Executive Perceptions of the Top 10 Soft Skills Needed in Today's Workplace // Business Communication Quarterly. – 2012. – Vol. 75, No. 4. – P. 453–465.
7. Асмолов А. Г., Солдатова Г. У., Шайгерова Л. А. О смыслах понятия «толерантность» // Век толерантности. – 2003. – № 1–2. – С. 8–18.
8. Солдатова Г. У. Психология межэтнической напряженности. – Москва : Смысл, 2008. – 320 с.
9. Йўлдошев У. Р., Маҳмудова Н. А. Бўлажак ўқитувчиларда толерантлик маданиятини шакллантириш // Педагогика ва психология журнали. – 2021. – Т. 3, № 2. – Б. 45–52.
10. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon : Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

Jaqsımuratova Elmira Sarsenovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARINING MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Maqolada tajriba guruhida milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida ijobiy qayd etilgan o'zgarishlar, milliy qadriyatlar va an'analarni bolalarga o'rgatishning ularning rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekanligini, Qoraqalpoq xalqining boy madaniy qadriyatlari maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy o'zlikni shakllantirish va rivojlantirishda juda muhim rol o'ynashini ko'rsatilgan. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni o'rganish bolalar ongida qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi, bu esa ularni xalqning madaniy merosiga hurmat va sadoqat bilan qarashga o'rgatadi. Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos oilaviy qadriyatlari va tarbiyaviy an'analari bolalarning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Oilada milliy tarbiya berish orqali bolalarda o'ziga xoslik va shaxsiy qadriyatlar shakllanadi, bu esa ularning jamiyatdagi o'rnini anglashiga katta ta'sirini tekgizadi.*

Kalit so'zlar*: an'analar, qadriyat, oilada bola tarbiyasi, qoraqalpoq xalq dasurlari, milly o'zlikni shakllantirish va h.k.*

ВЛИЯНИЕ ТРАДИЦИЙ КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В статье показано, что положительные изменения, отмеченные в процессе формирования национальных ценностей в экспериментальной группе, обучение детей национальным ценностям и традициям имеет большое значение в их развитии, богатые культурные ценности каракалпакского народа играют очень важную роль в формировании и развитии национальной идентичности у детей дошкольного возраста. Изучение национальных ценностей, обычаев и традиций усиливает интерес и мотивацию в сознании детей, что учит их уважать и преданно относиться к культурному наследию народа. Уникальные семейные ценности и воспитательные традиции каракалпакского народа имеют большое значение в развитии детей. Благодаря национальному воспитанию в семье у детей формируются самобытность и личностные ценности, что оказывает большое влияние на понимание ими своего места в обществе.*

Ключевые слова*: традиции, ценности, воспитание детей в семье, каракалпакские народные традиции, формирование национальной идентичности и т.д.*

THE INFLUENCE OF KARAKALPAK FOLK TRADITIONS ON THE PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. *The article highlights the positive changes observed in the process of forming national values in the experimental group. It emphasizes the great importance of teaching children national values and traditions for their development. The rich cultural values of the Karakalpak people play a crucial role in shaping and developing national identity in preschool children. The study of national values, customs, and traditions strengthens interest and motivation in children's minds, which instills respect and loyalty towards the cultural heritage of their people. The unique family values and educational traditions of the Karakalpak people are of significant importance in children's development. Through national upbringing in the family, children develop individuality and personal values, which greatly influences their understanding of their place in society.*

Key words*: traditions, values, child-rearing in the family, Karakalpak folk customs, formation of national identity, etc.*

Qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosi va an'analari asrlar davomida shakllanib, har bir avlodga milliy qadriyatlarni o'rgatishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Maktabgacha yoshdagi

bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni, ayniqsa, o‘zining amaliy jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayon milliy madaniyat va an’analarni kundalik hayotga integratsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bu uslub maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yanada qiziqarli va o‘zlashtirilishi oson bo‘lgan shaklda milliy qadriyatlarni singdirishga yordam beradi.

Amaliy jihatlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

O‘yin faoliyatlari orqali qadriyatlarni shakllantirish: O‘yin bolalar psixikasi va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Qoraqalpoq xalqining milliy o‘yinlari, masalan, “Oramal o‘yini” yoki “Aqbiyke”, bolalarda jamoaviylik, mehr-oqibat, birdamlik kabi qadriyatlarni o‘zlashtirishda yordam beradi.

Milliy ertak va afsonalar asosida ta'lim: Qoraqalpoq xalqining milliy ertak va afsonalari bolalarga milliy qadriyatlarni tushuntirishning muhim vositasidir. Ertak qahramonlarining jasorati, halolligi, va fidoyiligi orqali bolalar o‘zlarining milliy qahramonlariga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

Madaniy tadbirlar va marosimlarda ishtirok: Bolalarning milliy qadriyatlar bilan tanishuvi ularning jamiyatdagi tadbir va marosimlarda ishtiroki orqali yanada boyitiladi. Milliy bayramlarda faol qatnashish, milliy kiyimlar kiyish, musiqa va raqslar orqali bolalar o‘zlarining madaniy ildizlari bilan bog‘lanib, milliy qadriyatlarni amaliy tarzda o‘zlashtiradilar.

Milliy hunarmandchilik va amaliy san'at orqali o‘rganish: Bolalarni milliy hunarmandchilik bilan tanishtirish, masalan, milliy gilam to‘qish yoki loydan buyumlar yasash kabi mashg‘ulotlar orqali ular o‘z madaniyatiga qiziqishni rivojlantiradi. Bu faoliyatlar nafaqat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki milliy qadriyatlarni amaliy jihatdan qo‘llash imkonini ham beradi.

Xalq an’analari maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. An’anaviy qadriyatlar va urf-odatlar asosida ishlab chiqilgan korreksion dastur bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantiradi, ularning o‘z-o‘zini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatlarini kuchaytiradi.

Shunga o‘xshash korreksion dasturlar quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Madaniy qadriyatlarni o‘rgatish: Bolalarga xalq ertaklari, maqollar, qo‘shiqlar va an’anaviy o‘yinlar orqali urf-odatlar bilan tanishtirish. Bu bolalarda milliy g‘urur va madaniy merosga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

Hissiy intellektni rivojlantirish: An’anaviy hikoyalar va rolli o‘yinlar yordamida bolalarning hissiy xabardorligi va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyati rivojlanadi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni kuchaytirish: Jamoaviy o‘yinlar va guruh faoliyatlari orqali bolalar muloqot qilish, muammolarni birgalikda hal qilish va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi.

O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish: Ota-bobolarimizning hayotiy hikoyalari va ularning jasoratlari orqali bolalar o‘zlariga ishonishni, muammolarni yengishga qodir ekanliklarini anglaydi.

Axloqiy qadriyatlarni singdirish: Xalq an’analari orqali bolalar mehr-oqibat, halollik, kamtarlik va hurmat kabi asosiy axloqiy qadriyatlarni ichki dunyosiga singdiradi.

Xullas, xalq an’analariga asoslangan korreksion dastur bolalarning hissiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, ularda milliy madaniyatga hurmat va ijobiy o‘zini anglashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bunday dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyaviy ehtiyojlariga moslashgan holda ishlab chiqilishi muhim.

Bu amaliy uslublar maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda sezilarli samara beradi. Ushbu jarayon bolalarning shaxsiy rivojlanishi va o‘z milliyligini anglashiga yordam berib, ularni jamoat hayotiga tayyorlaydi. Shu bilan birga, amaliy jihatlar milliy qadriyatlarni faqat o‘rganish emas, balki ularni kundalik hayotda qo‘llashga qaratilgan.

1-jadval.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur darajasini aniqlash” so‘rovnomasi orqali olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=200)

Omillar	Guruhlar	Treningdan oldingi		Treningdan keyingi		Farqlanish	
		M1	S1	M2	S2	t	p
Tasavvur darajasi	Tajriba guruhi (n=90)	3,5	1,5	5,5	1,6	-2,5	0,05

	Nazorat guruhi (n=110)	4,2	1,7	4,8	1,9	-1,4	0,14
Semantik moslashuvchanlik	Tajriba guruhi (n=90)	3,3	1,4	5,4	1,1	-2,6	0,05
	Nazorat guruhi (n=110)	3,8	1,3	4,3	1,3	-1,2	0,16
Obrazli moslashuvchanlik	Tajriba guruhi (n=90)	3,7	1,1	5,7	1,5	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=110)	4,1	1,9	4,6	1,2	-1,6	0,13

“Maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur darajasini aniqlash” so‘rovnomasi bo‘yicha olingan qiyosiy natijalar tahliliga ko‘ra, “tasavvur darajasi” ($t=-2,5$; $p<0,05$), “semantik moslashuvchanlik” ($t=-2,6$; $p<0,05$) hamda “obrazli moslashuvchanlik” ($t=-2,5$; $p<0,05$) omillari bo’yicha ahamiyatli farqlar kuzatildi. Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra tajriba guruhimizdagi bolalarda ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tasavvur darajasi bo‘yicha tajriba guruhidagi bolalarda ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi. Ushbu omil bolalarning atrof-muhitni, hodisalarni va milliy qadriyatlar asosida aniqroq tasavvur qilish qobiliyatining rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Milliy qadriyatlar va an’analar asosida olib borilgan mashg‘ulotlar natijasida bolalarda milliy meros va urf-odatlar haqida kengroq va chuqurroq tasavvurlar shakllangan. Qoraqalpoq xalq an’analari orqali berilgan bilimlar bolalarning idrok qobiliyatini kengaytirib, ularning tasavvur dunyosini boyitdi. Bolalar milliy qadriyatlar va an’anaviy hayotiy voqealar asosida o‘z tasavvurlarini qurishga muvaffaq bo‘ldilar, bu esa ularning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘quv jarayonida interaktiv metodlar qo‘llanilishi bolalarning turli obrazlarni va hayotiy vaziyatlarni yaxshiroq tasavvur qilishlariga imkon berdi. Bu natijalar bolalarda ijodiy tasavvur qobiliyatining rivojlanishiga olib keldi, ular milliy an’analarning ramziy ma’nolarini tushunishga muvaffaq bo‘ldilar. Umuman olganda, bolalarning tasavvur darajasi milliy qadriyatlar orqali mustahkamlandi, bu ularning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Semantik moslashuvchanlik omili bo‘yicha ham tajriba guruhidagi bolalarda ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Bolalar milliy qadriyatlar va an’analar orqali yangi tushunchalarni semantik jihatdan qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Ushbu moslashuvchanlik bolalarning milliy qadriyatlar asosida turli tushunchalar va so‘zlarni izohlashda aniqlik va moslashuvchanlikni oshirishga olib keldi. Milliy an’analar va madaniyat bilan tanishgan bolalar o‘zlarining so‘z boyligini kengaytirib, milliy qadriyatlarni so‘z va tushunchalar orqali anglashda muvaffaqiyatliroq bo‘ldilar. Bu moslashuvchanlik ularning so‘zlar va atamalarni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini oshirdi, bu esa umumiy lingvistik rivojlanish uchun muhimdir. Milliy qadriyatlar orqali bolalar semantik jihatdan yanada moslashuvchan bo‘lib, turli tushunchalarni izohlashda kengroq ma’lumotlarni o‘zlashtira olish qobiliyatini shakllantirdilar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalar milliy qadriyatlar va an’analar orqali yangi tushunchalarni o‘zlashtirishda samarali metodlarni qo‘llagan. Bu jarayon bolalarda semantik jihatdan turli vaziyatlarga moslashish va so‘zlar orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatini kuchaytirdi.

Obrazli moslashuvchanlik omili ham tajriba guruhidagi bolalarda sezilarli darajada rivojlandi. Ushbu omil bolalarning tasviriy va obrazli fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam berdi. Milliy qadriyatlar va an’analar asosida olib borilgan mashg‘ulotlar bolalarda turli obrazlarni shakllantirish va ularni to‘g‘ri moslashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keldi. Milliy an’analar orqali bolalar o‘z tasavvurlarini kengaytirib, obrazli tafakkur qobiliyatlarini oshirishdi. Bolalar turli milliy marosimlar va qadriyatlarga oid obrazlarni mustaqil ravishda shakllantirib, ularni o‘z hayotiy tajribalariga moslashtira boshladilar. Bu obrazli moslashuvchanlik bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirib, ularning o‘z fikrlarini obrazlar orqali ifoda etishiga yordam berdi. Qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosiga asoslangan obrazli o‘yinlar va tadbirlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Shu tariqa, obrazli tafakkur bolalarning turli hayotiy vaziyatlarni tushunishda va milliy qadriyatlarga mos

tushunchalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bolalarning obrazli moslashuvchanligi milliy qadriyatlar asosida rivojlanib, ularning umumiy kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, tajriba guruhidagi bolalarda “tasavvur darajasi”, “semantik moslashuvchanlik” va “obrazli moslashuvchanlik” omillari bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar qayd etilgan. Bu o‘zgarishlar milliy qadriyatlar va an’analar asosida olib borilgan psixologik va pedagogik faoliyat natijasida yuzaga kelgan. Milliy qadriyatlarni bolalarga singdirish ularning tasavvur qobiliyatlari va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, bolalar o‘zlarining semantik va obrazli tafakkurlarini mustahkamlash orqali o‘z dunyoqarashlarini kengaytirdilar va shaxsiy rivojlanish jarayonida ijobiy qadamlar qo‘ydilar.

2-jadval.

“Qoraqalpoq xalq an’analariga yo‘nalganlikni aniqlash so‘rovnomasi”orqali olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=200)

Omillar	Guruhlar	Treningdan oldingi		Treningdan keyingi		Farqlanish	
		M1	S1	M2	S2	t	p
Milliy qadriyatlarga qiziqish va motivatsiya	Tajriba guruhi (n=90)	3,1	1,6	5,2	1,9	-2,1	0,05
	Nazorat guruhi (n=110)	3,7	1,9	3,9	1,5	-1,6	0,12
Oilaviy ta’sir va milliy tarbiya	Tajriba guruhi (n=90)	3,1	1,7	5,8	1,4	-2,3	0,05
	Nazorat guruhi (n=110)	3,6	1,8	5,4	1,2	-1,7	0,14
Oilaviy ta’sir va milliy tarbiya	Tajriba guruhi (n=90)	3,9	1,4	4,3	1,1	-2,2	0,05
	Nazorat guruhi (n=110)	3,9	1,7	4,4	1,6	-1,7	0,12

«Qoraqalpoq xalq an’analari yo‘nalganlikni aniqlash so‘rovnomasi» bo‘yicha olingan qiyosiy natijalar shuni ko‘rsatdiki, «milliy qadriyatlarga qiziqish va motivatsiya» ($t=-2,1$; $p<0,05$), «oilaviy ta’sir va milliy tarbiya» ($t=-2,3$; $p<0,05$) hamda «o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy faollik» ($t=-2,2$; $p<0,05$) omillari kesimida ahamiyatli farqlar aniqlandi. Ushbu farqlar tajriba guruhidagi bolalarda ijobiy o‘zgarishlar yuz berganidan dalolat beradi. Xususan, milliy qadriyatlarga qiziqish va motivatsiyaning kuchayishi bolalarda o‘z milliy ildizlarini chuqurroq his qilish, qadriyatlarni amaliy hayotda qo‘llashga intilish bilan izohlanadi. Oilaviy ta’sir va milliy tarbiyaning kuchliroq namoyon bo‘lishi esa ularning o‘zini hurmat qilish, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish va shaxsiy qadriyatlarni anglashida muhim psixologik omil bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi tajriba guruhidagi bolalarda jamoaviy hamkorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va hissiy barqarorlikning rivojlanganini ko‘rsatdi. Demak, milliy qadriyatlar va Qoraqalpoq xalq an’analariga tayangan holda tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon bolalarda psixologik rivojlanishga samarali ta’sir ko‘rsatmoqda.

Milliy qadriyatlarga qiziqish va motivatsiya omili bo‘yicha tajriba guruhidagi bolalar milliy qadriyatlarni o‘rganishga va ularni o‘z hayotlariga tatbiq etishga nisbatan yuqori darajada qiziqish bildirgan. Ushbu qiziqish, milliy an’analar, madaniyat va urf-odatlar haqida chuqurroq bilimga ega bo‘lishga bo‘lgan motivatsiyani oshirgan. Milliy qadriyatlar bolalar ongida ular o‘z madaniyati va xalqining merosini tushunishga va qadriga yetishga intilishlariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Qoraqalpoq xalqining boy merosi va an’anaviy urf-odatlari, bolalarda shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy muhitga moslashishga xizmat qiladigan motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Oilaviy ta’sir va milliy tarbiya omili bo‘yicha ham tajriba guruhidagi bolalarda ijobiy o‘zgarishlar qayd etilgan. Oilada milliy qadriyatlarning singdirilishi bolalar psixologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ularning milliy tarbiya asosida shakllanishi kuzatilgan. Ota-onalar tomonidan milliy qadriyatlarning faol o‘rgatilishi bolalarda o‘z madaniyatiga va an’analariga nisbatan ijobiy

munosabat shakllanishiga olib elgan. Bolalar oilaviy ta'sir orqali milliy qadriyatlarni o'rganib, ularni kundalik hayotda qo'llashni o'zlashtirganlar, bu esa ularning madaniy identifikatsiyasini kuchaytirgan. Milliy tarbiya oilada o'z o'rnini topgan bolalarda o'z xalqining qadriyatlarini qadrlash hissi shakllangan.

O'zaro munosabatlar va ijtimoiy faollik omili bo'yicha ham tajriba guruhidagi bolalar o'z tengdoshlari bilan munosabatlarni yaxshiroq rivojlantirishga muvaffaq bo'lgan. Milliy qadriyatlar asosida ijtimoiy faollikni rivojlantirish bolalarda jamiyatda o'z o'rnini anglash va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini kuchaytirgan. Turli milliy tadbirlar va an'anaviy marosimlarda ishtirok etish bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirgan, bu esa ularning jamiyatga moslashuvchanligini oshirishga yordam bergan. Bolalar o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlaydigan milliy qadriyatlar va urf-odatlar asosida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirgan.

Umuman olganda, ushbu qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan. Bu esa milliy qadriyatlar va an'analarni bolalarga o'rgatishning ularning rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Qoraqalpoq xalqining boy madaniy qadriyatlari maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy o'zlikni shakllantirish va rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni o'rganish bolalar ongida qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi, bu esa ularni xalqning madaniy merosiga hurmat va sadoqat bilan qarashga o'rgatadi. Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos oilaviy qadriyatlari va tarbiyaviy an'analari bolalarning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Oilada milliy tarbiya berish orqali bolalarda o'ziga xoslik va shaxsiy qadriyatlar shakllanadi, bu esa ularning jamiyatdagi o'rnini anglashiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpoq xalqining milliy qadriyatlari bolalarning psixologik rivojlanishi, tasavvur dunyosi va shaxsiy o'sishi uchun ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu qadriyatlarni singdirish orqali bolalarda milliy g'urur, madaniy anglash va jamiyatga moslashuvchanlik kuchayadi. Qoraqalpoq xalq an'analari maktabgacha yoshdagi bolalar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ularning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Jaksimuratova E.S. Research on the Relationship of the Older Population to National Traditions. //Journal of Chemical Health Risks, www.jchr.org, JCHR (2023) 13(4), – P. 2428-2433 | ISSN:2251-6727.

2. Jaksimuratova E.S. Respublikaning maktabgacha ta'lim muassasalarida xalq an'analarni foydalanishi. //O'zMU xabarlari. – Toshkent. 2022. №1/6/1. – B. 63-65. ISSN:2181-7324.

3. Jaksimuratova E.S. Qoraqalpoq xalq an'analari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarni shaklllantirishning amaliy jihatlari. //Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. – Buxoro, 2025. № 3. – B. 54-58. ISSN:3030-3710.

4. Жаксымуратова Э.С. Формирование ценностных ориентаций у старших дошкольников на основе каракалпакских народных традиций. //Proceedings of Global Technovation. 6th International Multidisciplinary Scientific Conference. – Chicago, USA. 2021. - С. 96-98.

5. Жаксымуратова Э.С. Методы выявления ценностных ориентаций у старших дошкольников на основе каракалпакских народных традиций. //In an Multidisciplinary "International Conference on Research in Sciences, Education and Humanities", published with Conference a International Database. – Basel, Switzerland. 2021. – С. 29-30.

6. Жаксымуратова Э.С. Qoraqalpoq xalq an'analari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari // "Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi № 7.– Toshkent-2025. -B. 51-52.

Boqijonov Rasuljon Ravshanjon o‘g‘li
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi

KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARNING XARAKTERI VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ko‘zi ojiz o‘quvchilarning xarakter xususiyatlari va ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ko‘rish imkoniyatining cheklanishi bolalarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, muloqot ko‘nikmalari hamda o‘z-o‘zini anglash jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqilligi, irodaviy sifatlari, ijtimoiy tajribani egallashi va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarining shakllanishi maxsus pedagogik yondashuvlar asosida izohlanadi. Tadqiqotda ko‘zi ojiz bolalar bilan ishlashda qo‘llaniladigan psixologik yordam shakllari, reabilitatsion texnologiyalar va inklyuziv ta’limning samarali strategiyalari ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zi: *taktil xotira testi, o‘z-o‘zini boshqarish, moyillik, ortiqcha ehtiyotkorlik, yuqori darajadagi mojarolilik*

ХАРАКТЕР И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЕМ ЗРЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются характерологические особенности незрячих учащихся и социально-психологические механизмы их развития. Раскрывается влияние нарушения зрения на эмоциональную устойчивость, социальную адаптацию, коммуникабельность и формирование самосознания. Особое внимание уделяется развитию самостоятельности, волевых качеств, усвоению социального опыта и установлению межличностных отношений со сверстниками. В исследовании также анализируются формы психологической помощи, методы реабилитации и эффективные стратегии инклюзивного образования для учащихся с нарушением зрения.*

Ключевые слова: *тест тактильной памяти, саморегуляция, склонность, чрезмерная осторожность, высокий уровень конфликтности.*

CHARACTER TRAITS AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS

Annotation. *This article examines the character traits of visually impaired students and the social-psychological mechanisms underlying their development. It highlights how visual impairment affects emotional stability, social adaptation, communication skills, and the formation of self-awareness. The study also explains the development of independence, volitional qualities, acquisition of social experience, and peer interaction based on specialized pedagogical approaches. In addition, the paper analyzes forms of psychological support, rehabilitation methods, and effective strategies of inclusive education for visually impaired learners.*

Key words: *tactile memory test, self-regulation, inclination, excessive caution, high level of conflict.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 18.04.2022 yildagi PQ-209-son qarori Mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning izchilligi va tizimliligini ta’minlash, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarning ta’lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko‘maklashish hamda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ishlab chiqilgan.Shu boisdan ush bu maqolada ko‘zi ojiz o‘quvchilarning xarakteri va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari haqidayoritilgan.

Umumta'lim maktabida kompensatsion mexanizmlarni shakllantirish samaradorligining yuqori ko‘rsatkichlariga erishish faqat nogiron bolaning psixologik rivojlanishining haqiqiy darajasini har tomonlama tashxislash, shuningdek, ko‘rish qobiliyati zaif bolalarning imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan rivojlanishni psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish sharti bilan mumkin.

Kichik maktab yoshi nogiron bolalarning kompensatsion imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, nafaqat etarli bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, balki maxsus bilimlarni, yo‘naltirish usullarini, kommunikativ, motivatsion va shaxsning faoliyat tomonlarini shakllantirish uchun eng samarali hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu toifadagi bolalarning psixologik rivojlanishini har tomonlama o‘rganish muammosi umumiy ta'lim maktabi samarali psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosi sifatida juda dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Hozirgi kunda bola shaxsining shakllanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rish patologiyasiga bog‘liq emas, deb hisoblanadi. Ushbu xulosa L.S. Vygotskiyning insonning biosotsial tabiati va shaxsining ijtimoiy sharoitga bog‘liqligi haqidagi ta’limotiga asoslanadi[4]. L.S. Vygotskiy har qanday nuqson insonning atrof-muhit bilan munosabatini o‘zgartiradigan omil ekanini ko‘rsatgan[4]. Organik nuqson ijtimoiy munosabatlarni buzib, insonning ijtimoiy mavqeini o‘zgartiradi, natijada ko‘rlarda shaxsiy xususiyatlarning ayrim jihatlari yuzaga keladi – masalan, ko‘r insonlardan qochish, asrab-avaylashga moyillik, ortiqcha ehtiyotkorlik, yuqori darajadagi mojarolilik va boshqalar.

Biroq ko‘rlarning emotsionalligi (emotsional tajribalarining kuchi va chuqurligi) bo‘yicha ikki xil fikr mavjud: ba’zi olimlar ko‘rlar ko‘r odamlarga qaraganda kamroq emotsional deb hisoblasalar, boshqalar esa ko‘rlarning emotsional hayoti ko‘r odamlarnikiga qaraganda yanada kuchliroq deb hisoblaydilar. Shu nuqtai nazardan, A.G. Litvakning pozitsiyasi qiziqarli: u ko‘rlarning emotsionalligi aynan emotsiyaga asos bo‘lgan ehtiyojlarning xususiyatiga bog‘liq deb hisoblaydi. Agar emotsional tajriba shunday ehtiyojdan kelib chiqsa, uni qondirish ko‘r odam uchun ham mumkin bo‘lsa, ko‘r va ko‘r odamlar orasidagi emotsionallik farqi sezilmaydi (masalan, musiqani tinglash paytida paydo bo‘ladigan tajribalar). Biroq, ko‘rish analizatorining normal ishlashini talab qiladigan ehtiyojlar paydo bo‘lganda, ko‘rlik emotsiyaning chuqurligiga ma’lum ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokama. Ko‘zi ojiz o‘quvchilarning moslashuvini oshirishda psixokorreksion mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Emotsional barqarorlikni oshirishga qaratilgan mashqlar, ijtimoiy ko‘nikmalar treningi, guruhiy psixologik mashg‘ulotlar, stressni boshqarish dasturlari bolaning psixik barqarorligini kuchaytiradi. Bundan tashqari, rolli o‘yinlar, kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, o‘zaro tushunishni shakllantirish mashqlari ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilarning moslashuvini oshirish omillari orasida maxsus diagnostik metodikalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. “Taktil xotira testi” (R. Amirxanjan modifikatsiyasi) orqali o‘quvchilar taktil obrazlarni qay darajada eslab qolishi, sensor kompensatsiya darajasi, predmetlarni farqlash qobiliyati aniqlanadi. Taktil xotira yaxshi rivojlangan o‘quvchilar ijtimoiy vaziyatlarga tez moslashadi, fazoviy tasavvurlari keng, muloqot jarayonida ko‘proq ishonchli bo‘ladi. Shu bois taktil xotira diagnostikasi moslashuvni baholashda muhim o‘ringa ega.

Ijtimoiy moslashuvning yana bir tarkibiy qismi — axborotni qayta ishlash va tahlil qilish ko‘nikmasi. Ko‘zi ojiz o‘quvchilar ko‘pincha eshitish va taktil idrok orqali olingan axborotni umumlashtirishda qiynaladi, chunki ko‘rish orqali vizual yaxlitlikni qabul qilish imkoniyati yo‘q. Shu sababli ularga audio-matnlar, taktil modellar, relyefli kartalar yordamida axborotni qayta ishlashga o‘rgatish muhim.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilarning ijtimoiy va psixologik moslashuvini oshirish omillarini umumlashtirib aytganda, mazkur jarayon murakkab, ko‘p komponentli va izchil yondashuvni talab qiladigan tizimli faoliyat ekanini ko‘rish mumkin. Moslashuvni ta’minlovchi asosiy omillar sifatida sensor kompensatsiya, kommunikativ malaka, emotsional barqarorlik, ijobiy “Men-konsepsiya”, mustaqil harakatlanish, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, pedagogning individual yondashuvi, maxsus treninglar, moslashtirilgan ta’lim muhiti hamda psixodiagnostik monitoring jarayonlari muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, moslashuv jarayonida bolaning individual psixologik xususiyatlari — temperament turi, asab tizimi kuchi, impulsivlik darajasi, tashqi stimullarga reaksiyalari ham hisobga olinishi lozim. Har bir o‘quvchining ehtiyojiga qarab differensial yondashuv qo‘llash, individual reabilitatsiya dasturi yaratish, pedagogik yordamni individuallashtirish katta samara beradi.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilarning moslashuv jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun maktab, oila va psixologik xizmatning yaqin hamkorligi zarur. Pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning umumiy yondashuvi, bir-birini to‘ldiruvchi faoliyati bolaning ijtimoiy hayotga faol kirishiga zamin yaratadi. Bunda pedagogik monitoring, doimiy diagnostika, psixokorreksion va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, muntazam nazorat, ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlashning izchil tizimi samarali natija beradi.

Shu maqsada biz o‘quvchilardan mualliflik “O‘z-o‘zini boshqarish mini-intervyusi” metodikasini o‘tkazdik. O‘z-o‘zini boshqarish mini-intervyusi (O‘OB–10) ni o‘tkazishdan asosiy sabab — ko‘zi ojiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xarakteri va psixologik rivojlanishidagi eng muhim komponent bo‘lgan “o‘z-o‘zini boshqarish” darajasini aniq, ishonchli va ilmiy asosda aniqlashdir.

1-jadval.

O‘z-o‘zini boshqarish mini-intervyusi (O‘OB–10) bo‘yicha natijalar

Hudud / Maktab	Respondentlar soni (N)	O‘rtacha ball (Mean)	SD (Standart og‘ish)
Toshkent shahar, 37-maktab-internat	35	10.8	3.12
Samarqand viloyati, ko‘zi ojiz bolalar maktabi	20	11.4	2.95
Qoraqalpog‘iston R., Nukus maxsus maktab-internati	25	9.7	3.45
Jami	80	10.63	3.17

Hududlar bo‘yicha olingan o‘rtacha ballar ko‘rish nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini boshqarish darajasi hududlar kesimida sezilarli farqlanishini ko‘rsatadi. Toshkent shaharidagi 37-maktab-internat o‘quvchilari eng yuqori o‘rtacha ball — 10.8 ga ega bo‘lib, bu ularda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari nisbatan barqaror shakllanganini bildiradi. Ushbu natija poytaxtdagi maxsus ta’lim muassasalarida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimining yaxshi yo‘lga qo‘yilgani, korreksion mashg‘ulotlar muntazam o‘tkazilgani yoki o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori ekani bilan izohlanadi. Standart og‘ishning (SD=3.12) o‘rtacha darajada bo‘lishi guruh ichida farqlar mavjud bo‘lsa-da, u keskin emasligini ko‘rsatadi.

Samarqand viloyatidagi ko‘zi ojiz bolalar maktabi o‘quvchilarida o‘rtacha ball 11.4 bo‘lib, natija Toshkentga yaqin. Bu hududda o‘quvchilar o‘rtasida o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari ancha yaxshi shakllanganligini bildiradi. SD=2.95 bo‘lishi esa guruh ichidagi farqlarning nisbatan kichikligini va o‘quvchilarning psixologik barqarorligi bir xil darajada ekanini ko‘rsatadi. Bu natijalar Samarqanddagi maxsus maktabda korreksion ta’limning samarali yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahridagi maxsus maktab-internat o‘quvchilarida esa o‘rtacha ball 9.7 bo‘lib, boshqa hududlarga nisbatan pastroq natija qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarishning ayrim komponentlari — emotsional barqarorlik, irodaviy jarayonlar va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarida ma’lum qiyinchiliklar mavjudligini bildiradi. SD=3.45 bo‘lishi esa guruh ichidagi farqlar keng ekanini, ya’ni ba’zi o‘quvchilarda ko‘nikma yaxshi shakllangan bo‘lsa, boshqalarida yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Umumiy natijalar bo‘yicha 80 nafar o‘quvchi orasida o‘rtacha ko‘rsatkich 10.63 bo‘lib, SD 3.17 ni tashkil etdi. Bu esa ko‘zi ojiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari o‘rtacha darajada shakllanganini, ammo hududlar kesimida sezilarli farqlar

mavjudligini ko‘rsatadi. Natijalar shuni anglatadiki, ayrim hududlarda korreksion-pedagogik jarayonlarning samaradorligi yetarli darajada bo‘lsa, boshqa hududlarda ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qo‘shimcha treninglar, psixologik dasturlar va individual yondashuv zarur.

Ko‘zi ojiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvining asosiy tayanch mexanizmlaridan biri – bu taktil xotira, ya’ni qo‘l barmoqlari orqali sezilgan predmet va shakllarni eslab qolish hamda qayta tanish qobiliyatidir. Ko‘rish analizatori faoliyatining cheklanganligi sababli, aynan taktil sezgi va taktil xotira kompensator mexanizmlarning markazida turadi. Shu bois, ular o‘quv jarayonida fazoviy tasavvur, predmetlarni farqlash, yozish- o‘qish jarayonlari (Braille tizimida), orientatsiya va mustaqil harakatlanish ko‘nikmalarining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘zi ojiz o‘quvchilarning xarakterini o‘rganishda ilmiy metodologiya asosiy ahamiyatga ega. Bu metodologiya psixologik, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlarni birlashtiradi. Shu bilan birga, individual xususiyatlarni hisobga olish va turli metodlarni integratsiyalash orqali ishonchli natijalarga erishish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasida asosiy e’tibor ko‘zi ojiz bolalarning sezgi xususiyatlariga qaratiladi. Masalan, vizual sezgi bilan bog‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni qabul qilish va tahlil qilish qobiliyati, teginish va eshitish sezgisi orqali olingan tajribalarni o‘rganish metodlari samarali hisoblanadi. Shu orqali xarakterning turli komponentlari – mas’uliyat, qat’iyat, mustaqillik va ijtimoiy moslashuv – aniqlanadi.

Tadqiqotda ijtimoiy va psixologik moslashuvni oshirish omillari alohida e’tibor bilan ko‘rib chiqildi. Bolalarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi, oilaviy muhit, o‘qituvchilar bilan muloqot va do‘stlar bilan munosabatlari ularning xarakterini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning individual qiyinchiliklarga qarshi kurashish mexanizmlari ham ijtimoiy moslashuvni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdullayeva, Q. Defektologiya asoslari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2019.
2. Raxmonqulova, M. Maxsus pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
3. Bozorov, B. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
4. Vygotsky, L. S. Defectology and Developmental Psychology. – New York: Springer, 2018.
5. Trofimova, L., & Shevchenko, N. Psikhologiya detey s narusheniyami zreniya. – Moskva: Academia, 2017.
6. Lowenfeld, B. The Visually Handicapped Child in School. – Springfield: Charles C. Thomas Publisher, 2016.
7. Hatlen, P. The Core Curriculum for Blind and Visually Impaired Students. Journal of Visual Impairment & Blindness, 2018.
8. Holbrook, M. C., & Koenig, A. J. (Eds.). Foundations of Education for Blind and Visually Impaired Children and Youth. New York: AFB Press, 2017.
9. Warren, D. H. Blindness and Early Childhood Development. – New York: Oxford University Press, 2015.
10. Sodiqova, S. Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2021.
11. World Health Organization. World Report on Vision. – Geneva: WHO, 2019.
12. Corn, A. L., & Erin, J. (Eds.). Foundations of Low Vision: Clinical and Functional Perspectives. – New York: AFB Press, 2020.

Saparova Aysanem Ajiniyazovna
Qoraqalpoq davlat universiteti matematika fakulteti
matematik tahlil kafedrasi, stajyor o‘qituvchi
E-mail: saparovaaysanem09@gmail.com

VIZUAL DASTURLASH TILINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada vizual dasturlash tillarining mohiyati, ularning asosiy funksional xususiyatlari, an’anaviy matnli dasturlashdan farqlari, o‘quv jarayonidagi afzalliklari va qo‘llash samaradorligi tahlil qilingan. Adabiyotlar sharhi, metodologik yondashuvlar, tahlil va natijalar orqali vizual dasturlashning zamonaviy IT ta’limidagi o‘rni asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *vizual dasturlash, blokli dasturlash, Scratch, o‘quv jarayoni, algoritmlash.*

ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ВИЗУАЛЬНЫХ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются сущность визуальных языков программирования, их ключевые функциональные особенности, отличия от текстовых языков и эффективность применения в образовательном процессе. Через анализ литературы, методологические подходы и результаты исследования обоснована роль визуального программирования в современной IT-образовательной среде.*

Ключевые слова: *визуальное программирование, блочное программирование, Scratch, образовательный процесс, алгоритмизация.*

MAIN CHARACTERISTICS OF VISUAL PROGRAMMING LANGUAGES

Abstract. *This article examines the nature of visual programming languages, their key functional features, differences from text-based programming, and their effectiveness in the educational process. Through literature review, methodological approaches, analysis, and results, the article justifies the role of visual programming in modern IT education.*

Key words: *visual programming, block-based coding, Scratch, learning process, algorithmization.*

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivoji bilan dasturlashni o‘rgatish usullari ham sezilarli darajada yangilanmoqda. An’anaviy matnli dasturlash tillari boshlang‘ich o‘rganuvchilar uchun murakkab bo‘lgani sababli, oxirgi yillarda vizual dasturlash — bloklar orqali kuzatib bo‘ladigan, intuitiv interfeysga ega dasturlash tillari keng qo‘llanilmoqda. Vizual dasturlashning asosiy maqsadi — dasturlashni soddalashtirish, o‘quvchilarning algoritmik fikrlashini shakllantirish va dasturlash jarayonini ko‘rgazmali qilishdir. Ushbu maqola vizual dasturlash tillarining xususiyatlarini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda vizual dasturlash masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar sonining sezilarli darajada ortgani ushbu yo‘nalishning ta’lim amaliyotidagi dolzarbligidan dalolat beradi. Xususan, Resnick va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Scratch platformasining pedagogik imkoniyatlari chuqur tahlil qilinib, mazkur muhit bolalarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda algoritmik tafakkurni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslab berilgan. Mualliflar vizual bloklar asosida ishlash o‘quvchilarning dasturlash jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va murakkab tushunchalarni soddaroq idrok etishiga yordam berishini ta’kidlaydilar.

Code.org tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, vizual blokli dasturlash vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda algoritmik yondashuv va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtacha 35–40 foizga yaxshilanganini ko‘rsatib, vizual dasturlash muhitlarining ta’lim jarayonidagi amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jonassen tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa vizual dasturlash muhitlarining kognitiv yukni kamaytirishdagi roli alohida e'tirof etiladi. Muallif vizual vositalar yordamida dasturlash asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning diqqatini ortiqcha sintaksis muammolaridan xalos etish, asosiy tushunchalarni tezroq va samaraliroq o'zlashtirish imkoniyati yaratilishini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar — R. Jo'rayev va M. Qayumovlarning ilmiy ishlarida ham informatika ta'limida vizual dasturlashning o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Ular vizual muhitlarning o'quvchilar uchun qulayligi, motivatsiyani oshirishi hamda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishdagi samaradorligini ta'kidlab, ushbu yondashuvni zamonaviy ta'lim talablariga mos deb hisoblaydilar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, vizual dasturlash texnologiyalari o'quv jarayonida bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.


Mazkur tadqiqotda vizual dasturlash tillarining asosiy xususiyatlarini o'rganish va baholashda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, taqqoslovchi tahlil metodi orqali vizual va an'anaviy matnli dasturlash tillarining didaktik va funksional jihatlari solishtirildi. Pedagogik kuzatuv metodi yordamida vizual dasturlash muhitlarida ishlayotgan o'quvchilarning faolligi, qiziqishi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi monitoring qilindi. Shuningdek, adabiyotlarni tizimli o'rganish asosida xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilinib, mavjud yondashuvlar umumlashtirildi. Tadqiqotning amaliy qismida esa Scratch, App Inventor va Blockly muhitlarida kichik test loyihalar ishlab chiqilib, ularning o'quv jarayonidagi samaradorligi eksperimental yo'l bilan baholandi.

O'tkazilgan tahlillar natijasida vizual dasturlash dasturlash jarayonini matnli kod yozmasdan, balki grafik elementlar, bloklar, tugmalar va diagrammalar yordamida tashkil etishga asoslangan zamonaviy yondashuv ekanligi aniqlandi. Bunda dasturchi yoki o'quvchi an'anaviy kod yozish o'rniga tayyor bloklarni sudrab qo'yish, ularni mantiqiy ketma-ketlikda ulash va shartlarni grafik ko'rinishda belgilash orqali dastur tuzadi. Ushbu yondashuv dasturlashni o'rganishni soddalashtiradi, xatolar sonini kamaytiradi va o'quvchilarning mantiqiy hamda algoritmik fikrlashini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-jadval. Vizual dasturlash tillarining asosiy xususiyatlari

Asosiy xususiyat	Tavsif	Misol / Ilovalar
Blokli dasturlash interfeysi	Buyruqlar matn emas, balki rangli bloklar shaklida bo'ladi. Sintaksis xatolarini kamaytiradi.	Scratch, Blockly, App Inventor
Ko'rgazmalilik va intuitivlik	Foydalanuvchi bloklar ketma-ketligini ko'zi bilan kuzatadi. Algoritm qanday ishlashini vizual tushunishga yordam beradi.	Scratch, Blockly
Sintaksis xatolarining deyarli yo'qligi	Bloklarni noto'g'ri biriktirish imkonsiz. Sintaksis avtomatik nazorat qilinadi.	Blockly, App Inventor
Ta'limga yo'naltirilganlik	Bolalar, o'quvchilar va boshlovchilar uchun mo'ljallangan.	Scratch, App Inventor
Tezkor o'rganish imkoniyati	Kod bloklari orqali mantiqiy bog'lanishlarni tez anglash o'quv jarayonini osonlashtiradi.	Scratch, Blockly
Dastur yaratish jarayonining vizualligi	Algoritm oqimi bloklar xaritasi orqali ko'rinadi, mantiqiy jarayonlarni aniq tushunishga yordam beradi.	Blockly, Scratch
Multimedia imkoniyatlari	Animatsiya, ovoz va rasmlar bilan ishlashni qo'llab-quvvatlaydi.	Scratch, App Inventor
Real loyihalar yaratish imkoniyati	Mobil ilovalar, animatsiya, o'yinlar, web-loyihalar yaratish mumkin.	App Inventor, Scratch, Blockly

Ushbu 1-jadvalda vizual dasturlash tillarining asosiy xususiyatlari, ularning tavsifi va misol dastur yoki ilovalar keltirilgan. Jadval yordamida foydalanuvchilar blokli dasturlashning afzalliklarini va qaysi vazifalar uchun mosligini vizual ravishda tushunishlari mumkin.



1-rasm. Scratch va App Inventor dasturlash vositalaridan foydaluvchilar koʻrsatkichi

1-rasmda Scratch va App Inventor dasturlash vositalarining 2020–2024 yillar oralig‘idagi millionlab foydalanuvchilar sonini ko‘rsatilgan. Scratch dasturi bo‘yicha foydalanuvchilar soni barqaror o‘sib, 2024 yilda 160 millionga yetgani, App Inventor uchun esa foydalanuvchilar soni nisbatan barqaror bo‘lib, 2024 yilda 40 million atrofida saqlangani, ikkita dastur foydalanuvchilari sonini yillar kesimida solishtirish imkonini berilgan [4].

Taqqoslovchi tahlil metodi.

2-jadval. Vizual va matnli dasturlash tillari xususiyatlarini solishtirish

Xususiyat	Vizual dasturlash	Matnli dasturlash
Kodlash usuli	Rangli bloklar	Matn
Sintaksis xatolari	Deyarli yo‘q	Ko‘p, o‘rganish talab qiladi
O‘rganish tezligi	Tez, boshlovchilar uchun qulay	Sezilarli, asoslarni bilish talab qilinadi
Ko‘rgazmalilik	Vizual, algoritm oqimi ko‘rinadi	Cheklangan, natija faqat bajarilgandan keyin ko‘rinadi
Real loyihalar	Animatsiya, o‘yin, mobil ilovalar	Kompleks tizimlar, ilmiy va sanoat loyihalari

Vizual dasturlash tillari boshlang‘ich va ta’lim uchun qulay, sintaksis xatolari kam va algoritmni ko‘rgazmali tarzda tushuntirilgan. Matnli dasturlash tillari esa murakkab va professional loyihalar uchun mos, lekin o‘rganish va xatolarni tuzatish ko‘proq vaqt talab qiladi [5].

Pedagogik kuzatuv metodi.

Faollik darajasi o‘quvchining vizual dasturlash platformasida faol ishlagan vaqti, mashqlar va loyihalarda ishtirok etish chastotasi orqali aniqlanadi hamda foizlarda ifodalanadi. Topshiriqlarni bajarish ko‘rsatkichi berilgan vazifalar soni va ularning muvaffaqiyatli bajarilishi nisbatiga asoslanadi. O‘zlashtirish darajasi esa o‘rganilgan mavzularni tushunish va amaliy ko‘nikmalarni egallash darajasini aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida tuzilgan vizual monitoring o‘qituvchiga har bir o‘quvchining faoliyatini individual tarzda kuzatish, zarur hollarda qo‘shimcha ko‘rsatmalar berish yoki metodik yordam ko‘rsatish imkonini yaratadi.

Adabiyotlarni tizimli o‘rganish metodi asosida vizual dasturlash muhitlarida o‘quvchilarning faolligi va bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni bo‘yicha qator xalqaro va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilindi. Resnick va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Scratch platformasi yordamida boshlang‘ich dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish samarali ekani aniqlanib, vizual

bloklar orqali algoritmlarni oson tushunish, o‘quvchilar faolligi va motivatsiyasining oshishi qayd etilgan. Weintrop va hammualliflar Blockly hamda App Inventor muhitlarining o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash va kreativ loyiha yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatgan. Maloney va hammualliflar Scratch muhitida gamifikatsiya elementlaridan foydalanish topshiriqlarni bajarish sonining ortishi va o‘zlashtirish darajasining yaxshilanishiga olib kelishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Mahalliy tadqiqotlar ham ushbu xulosalarni tasdiqlaydi. Abdullayeva tomonidan olib borilgan izlanishlarda Scratch va App Inventor platformalarida o‘quvchilarning faolligi 60–90 foiz oralig‘ida, o‘zlashtirish darajasi esa 55–85 foiz oralig‘ida ekani aniqlangan. Karimovning tadqiqotlarida vizual dasturlashni boshlang‘ich va o‘rta ta’limda qo‘llash o‘quvchilarning kreativ loyihalar yaratish faolligini oshirishi, Scratch va Blockly eng ko‘p qo‘llaniladigan platformalar ekani, App Inventor esa amaliy loyihalarni ishlab chiqishda yuqori samaradorlikka ega ekani qayd etilgan. Toshkent shahar ta’lim boshqarmasi tomonidan olib borilgan tajribalar ham oliy ta’lim muassasalari va kollejlarda Scratch hamda App Inventor asosida tashkil etilgan kurslar talabalarning faolligi va topshiriqlarni bajarish darajasining platformaga bog‘liq holda oshishini ko‘rsatgan.

Eksperiment natijalari metodiga ko‘ra, o‘quvchilarning Scratch, App Inventor va Blockly muhitlarida amaliy loyihalar yaratish jarayonidagi faolligi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasi baholandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu platformalarning boshlang‘ich va o‘rta darajadagi o‘quvchilar uchun qaysi biri samaraliroq ekanini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Olingan natijalar xalqaro va mahalliy tadqiqotlar bilan uyg‘un kelib, Scratch va Blockly vizual jihatdan sodda va tushunarli muhit yaratishini, App Inventor esa amaliy loyihalar orqali o‘zlashtirishni kuchaytirishini ko‘rsatdi. Pedagogik kuzatuv va amaliy loyihalarni birgalikda qo‘llash o‘quvchilarning faolligi va bilim darajasini aniqlashda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi.

O‘rganilgan manbalar va amaliy kuzatuvlar natijasida vizual dasturlash o‘quvchilarning algoritmik fikrlash darajasini o‘rtacha 25–40 foizga oshirishi aniqlandi. Matnli dasturlashni o‘rganishdan avval vizual muhitda ishlagan o‘quvchilar ko‘proq ishonch, yuqori motivatsiya va kreativ yondashuv namoyon etadilar. Blokli dasturlash dasturchilikka kirish jarayonini soddalashtirib, murakkab sintaksis bilan bog‘liq to‘siqlarni bartaraf etadi hamda o‘qituvchilar uchun ta’lim jarayonini nazorat qilish va tushuntirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu tariqa vizual dasturlash tillari boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida, shuningdek, IT sohasiga kirish kurslarida samarali ta’lim vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, vizual dasturlash tillari zamonaviy ta’limning muhim komponenti bo‘lib, o‘quvchilarning algoritmik va kreativ fikrlashini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Blokli interfeyslarning sodda, intuitiv va samarali tuzilishi yangi boshlovchilar uchun qulay o‘quv muhitini yaratadi. Vizual dasturlashdan foydalanish o‘rganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi, dasturlashga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi va dasturiy tafakkurning izchil shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Resnick M., Maloney J., Monroy-Hernández A. va boshq. Scratch: Programming for all // Communications of the ACM. – 2009. – T. 52, № 11. – B. 60–67.

2. Code.org. The impact of block-based programming on computer science education. – Washington, 2020.

3. Jonassen D. Learning to solve problems with visual programming tools // Educational Technology Research & Development. – 2015. – T. 63, № 4. – B. 547–564.

4. Wing J. Computational thinking // Communications of the ACM. – 2006. – T. 49, № 3. – B. 33–35.

5. Jurayev R., Qayumov M. Informatika ta’limida zamonaviy yondashuvlar // O‘zbekiston pedagogik jurnali. – 2019. – № 4(2). – B. 112–118.

6. Papert S. Mindstorms: Children, computers, and powerful ideas. – Nyu-York, 1993.

7. Google. Blockly Documentation. – 2023.

8. MIT Media Lab. Scratch programming environment: Theory and practice. – 2023.

Usmonova Kumush Baxodirovna
Zarmed university, PhD teacher
E-mail: kumushusmonova55@yandex.com

CHALLENGES AND OPPORTUNITIES IN DEVELOPING REFLECTIVE COMPETENCE IN THE UZBEK EFL CONTEXT

Abstract. *Reflective competence is mainly used to prepare future English language teachers for effective pedagogical practice. Recently the Republic of Uzbekistan has performed huge reforms in the sphere of education, all of which focus on developing teachers' training, as well as integrating international norms, and expanding communicative language teaching. Nevertheless, the improvement of reflective competence among EFL learners and pre-service teachers continues to be inadequately learned. This article looks into the main obstacles happening in the Uzbek context, including limited reflective culture, teacher-centered instruction, assessment systems focused on testing, and insufficient methodological training. At the same time, the very article emphasizes crucial possibilities, including CEFR-based curricula, increased digitalization, AI-assisted feedback tools, the credit–module system, and the growing interest of students in technology-enhanced learning. The study discusses that reflective competence can be successfully improved through structured reflective tasks, digital portfolios, peer observation, microteaching, and AI-supported self-assessment. Practical recommendations for teacher educators, policymakers, and practitioners are provided.*

Key words: *EFL teacher, teacher-centered instruction, Uzbek EFL context, e-portfolio, Padlet, Google Classroom, reflective journaling, self-evaluation, AI tools, CEFR standards, digital technologies, reflective competence, Credit–Module System.*

ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В УЗБЕКСКОМ КОНТЕКСТЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Аннотация. *Рефлексивная компетенция в основном используется для подготовки будущих преподавателей английского языка к эффективной педагогической практике. В последнее время Республика Узбекистан провела масштабные реформы в сфере образования, все из которых направлены на развитие подготовки учителей, интеграцию международных стандартов и расширение коммуникативного подхода в преподавании языков. Тем не менее, развитие рефлексивной компетенции среди изучающих английский язык и студентов-практикантов по-прежнему остается недостаточно изученным. В данной статье рассматриваются основные препятствия, существующие в узбекском контексте, включая ограниченную культуру рефлексии, обучение, ориентированное на преподавателя, системы оценки, сосредоточенные на тестировании, и недостаточную методическую подготовку. В то же время статья подчеркивает важные возможности, включая учебные программы на основе CEFR, повышение цифровизации, инструменты обратной связи с поддержкой ИИ, кредитно-модульную систему и растущий интерес студентов к технологиям в обучении. Исследование показывает, что рефлексивную компетенцию можно успешно развивать с помощью структурированных рефлексивных заданий, цифровых портфолио, взаимного наблюдения, микропреподавания и самооценки с поддержкой ИИ. Предлагаются практические рекомендации для преподавателей, политиков в сфере образования и практикующих специалистов.*

Ключевые слова: *преподаватель английского языка как иностранного (EFL), обучение, ориентированное на преподавателя, контекст преподавания английского языка в Узбекистане, электронное портфолио, Padlet, Google Classroom, рефлексивные журналы, самооценка, инструменты с поддержкой ИИ, стандарты CEFR, цифровые технологии, рефлексивная компетенция, кредитно-модульная система.*

O‘ZBEK TIL TA’LIMI (EFL) SHAROITIDA REFLEKSIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. *Refleksiv kompetentlik asosan kelajakdagi ingliz tili o‘qituvchilarini samarali pedagogik faoliyatga tayyorlashda qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, ularning barchasi o‘qituvchilar tayyorlash tizimini rivojlantirish, xalqaro me’yorlarni joriy etish hamda kommunikativ til o‘qitishni kengaytirishga qaratilgan. Shunga qaramay, EFL o‘rganuvchilari va bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish masalasi yetarli darajada o‘rganilmaganligicha qolmoqda. Ushbu maqolada o‘zbek ta’lim kontekstida uchraydigan asosiy to‘siqlar, jumladan, refleksiv madaniyatning yetishmasligi, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’lim modeli, testga asoslangan baholash tizimlari hamda metodik tayyorgarlikning yetarli emasligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada CEFR asosidagi o‘quv dasturlari, raqamlashtirish jarayonining kuchayishi, sun’iy intellekt yordamida fikr-mulohaza berish vositalari, kredit–modul tizimi hamda talabalar orasida texnologiyaga asoslangan ta’limga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi kabi muhim imkoniyatlar yoritib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, refleksiv kompetentlikni tuzilmaviy refleksiv topshiriqlar, raqamli portfellar, tengdoshlarni kuzatish, mikroo‘qitish va sun’iy intellektga asoslangan o‘z-o‘zini baholash orqali samarali rivojlantirish mumkinligi asoslab beriladi. Maqolada o‘qituvchi tayyorlovchilar, ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar va amaliyotchi pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *EFL o‘qituvchisi, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘zbek EFL konteksti, elektron portfel, Padlet, Google Classroom, refleksiv kundalik yuritish, o‘z-o‘zini baholash, sun’iy intellekt vositalari, CEFR standartlari, raqamli texnologiyalar, refleksiv kompetentlik, kredit–modul tizimi.*

Introduction. Reflection has become a crucial element in today’s teacher education. Scientitst including John Dewey, Donald Schön, and Thomas Farrell feel that reflective thinking makes it easy for teachers to analyze their actions, evaluate their pedagogical decisions, and regularly develpo their professional competence. In the sphere of foreign language teaching, reflective competence enables teachers to comprehend learner needs, adapt instructional strategies, and foster autonomy.

In Uzbekistan, the transition to the credit–module system as well as the modernization of higher education, the implementation of CEFR standards, and the focus on communicative competence—have increased the necessity for reflective teachers. Even though the concept of reflection is common to many instructors, its integration into EFL teacher training still stays limited. In spite of continuous reforms, reflective competence is not fully enhanced among EFL students and pre-service teachers yet. Many of them depend on memorization-based learning, traditional lesson formats, and teacher-centered instruction. The change towards reflective practice requires both cultural and methodological transformation.

This article analyzes the difficulties and opportunities concerning improvement of reflective competence in the Uzbek EFL context and suggests practical recommendations for developing reflective teacher education. In the article the following research questions will be analyzed:

1. What difficulties make it hard to develop reflective competence among EFL teachers in Uzbekistan?
2. What factors help introduce and support reflective practice in the Uzbek EFL context?
3. What teaching methods can be used to improve teachers’ reflective competence effectively?

Dewey describes reflection as “active, persistent, and careful consideration,” while Schön emphasizes the process of thinking in and on action. Farrell highlights reflective practice as a structured and ongoing teacher development approach. These theories underline reflection as an intentional activity requiring analysis, interpretation, and self-awareness.

Reflective Competence in EFL Teaching. It is clear to us that in language education, reflection is learnt and taught through: reflective journals, self-assessment and peer-assessment, teaching portfolios, microteaching, lesson study, classroom observations. Research shows that teachers with

reflective competence show higher instructional flexibility, developed classroom management, and deeper metacognitive awareness.

Studies in Uzbekistan mainly emphasize on general teacher competencies and the CEFR framework, however, very few of them offer definite models for reflective practice. Reflective journals, digital portfolios, and AI-supported feedback have not enough discussion.

It is clear to us that the majority of classrooms in Uzbekistan still depend on lecturing. Students seldom analyze their own learning, take part in reflective discussions, or get reflective feedback. Main part of the exams demand memorization, not analysis. As a result, students undervalue reflective journaling and self-evaluation. Moreover, in the local area other are that platforms like e-portfolio, Padlet, or Google Classroom are not used adequately. Technical challenges and limited digital literacy also shorten the effectiveness of reflective tasks. The following opportunities can be included in the teaching field:

1. A CEFR-based curriculum plays a crucial role in fostering reflective competence, as it actively promotes self-assessment, learner autonomy, and continuous self-improvement, thereby creating a natural environment for reflection. The Credit–Module System further supports this process by providing flexibility in curriculum design, allowing the integration of reflective tasks such as teaching portfolios, microteaching sessions, and reflective essays into teacher education programs. In addition, the growing use of AI-based technologies significantly enhances reflective practice. Tools such as ChatGPT, Grammarly, Notion, and Otter.ai offer timely and personalized feedback, model reflective writing, and assist students in critically re-evaluating their learning experiences.

Students' strong interest in digital technologies also represents a major advantage. Most young learners are highly accustomed to using smartphones, applications, and online platforms, which makes the implementation of digital reflection both accessible and engaging. Moreover, the presence of University Innovation and Pedagogical Excellence Centers in many higher education institutions provides valuable institutional support, as these centers can serve as platforms for reflective workshops, professional development sessions, and teacher training activities.

The research findings indicate that reflective practice in the Uzbek EFL context is shaped by both cultural and structural factors. Traditional teacher authority and teacher-centered instructional models often limit students' reflective engagement. However, ongoing educational reforms, particularly the integration of CEFR standards, offer strong potential for change. Digitalization and the use of AI-based tools represent a significant step forward, creating opportunities to modernize reflective practices and align them with international standards. A comparison with global studies reveals that many of the challenges observed in Uzbekistan are similar to those found in other developing educational systems. Nevertheless, Uzbek learners' strong interest in technology provides a distinctive advantage for the successful implementation of reflective approaches.

Based on the findings, several practical recommendations can be proposed for teachers and teacher educators. Teachers should be encouraged to maintain simple reflective journals guided by clear questions such as what was successful, why it worked, and what could be improved in future lessons. Peer observation and regular feedback discussions should be systematically incorporated into teacher training. Microteaching sessions followed by group reflection can further enhance reflective awareness. It is also advisable to introduce a compulsory course on reflective practice, require digital teaching portfolios during teaching internships, and organize training workshops focused on reflection and metacognitive skills. In addition, assessment systems should be updated to evaluate reflective skills alongside subject knowledge. Finally, local universities should support research on reflective teaching and actively develop and implement digital tools that facilitate reflective learning.

In conclusion, reflective competence is essential for preparing future English language teachers who are capable of critical thinking, self-evaluation, and continuous professional development. Although Uzbekistan faces several challenges, including a limited reflective culture, teacher-centered approaches, and insufficient methodological training, substantial opportunities for growth exist. With the support of CEFR standards, digital technologies, AI-based tools, and ongoing educational reforms, reflective competence can be successfully enhanced. The systematic integration

of reflective tasks, targeted teacher training, and technology-enhanced reflection will contribute to more effective, modern, and sustainable EFL teacher preparation.

References.

1. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath, 1933. – 301 p.
2. Schön D. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
3. Farrell T. S. C. Reflective Practice in ESL Teacher Education. – London: Routledge, 2019. – 168 p.
4. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume with New Descriptors. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 224 p.
6. Richards J. C., Lockhart C. Reflective Teaching in Second Language Classrooms. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 218 p.
7. Brookfield S. D. Becoming a Critically Reflective Teacher. – Hoboken: Jossey-Bass, 2017. – 304 p.

Usmonova Nargiza Raximjonovna
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi,
Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi

RUS QIZLARINI OILAGA TAYYORLASH JARAYONIDA ETNIK STEREOTIPLAR VA PSIXOLOGIK USTANOVKALARNING AMALIY JIHATDAN O‘RGANILISHI

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot rus qizlarini oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida shakllanadigan etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarning amaliy jihatdan o‘rganilishiga bag‘ishlangan. Zamonaviy globallashuv va madaniyatlararo aloqalar kuchayib borayotgan bir sharoitda etnik qadriyatlar, urf-odatlar va an’anaviy ijtimoiy rollarning shaxs psixologiyasiga ta’sirini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda rus etnomadaniy muhitida shakllangan oilaviy qadriyatlar, ayollarning oiladagi roli, nikohga bo‘lgan munosabat hamda ijtimoiy kutilmalar psixologik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi.*

Ishda etnik stereotiplarning rus qizlarining oilaviy hayotga tayyorgarligi, shaxsiy mas’uliyatni anglash, turmush qurishga nisbatan ustanovkalari va kelajakdagi oila modelini tasavvur etish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy muhit, oila tarbiyasi, ommaviy axborot vositalari va madaniy an’analar orqali uzatiladigan stereotiplarning psixologik mexanizmlari ochib beriladi. Tadqiqotda so‘rovnoma, suhbat, psixologik testlar va empirik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar rus qizlarini oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida psixologik moslashuvni kuchaytirish, salbiy stereotiplarni kamaytirish hamda ijobiy oilaviy ustanovkalarni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oilaviy psixologiya, gender tadqiqotlari va madaniyatlararo ta’lim sohalari uchun ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: *psixologik ustanovkalar, oilaviy uyushganlik, etnik stereotip, hissiy yaqinlik, munosabatlar egiluvchanligi, maishiy rollar.*

ПРАКТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭТНИЧЕСКИХ СТЕРЕОТИПОВ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСТАНОВОК В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ РУССКИХ ДЕВУШЕК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *Данное исследование посвящено практическому изучению этнических стереотипов и психологических установок в процессе подготовки русских девушек к семейной жизни. В условиях современных социокультурных изменений и усиления межкультурных контактов особую значимость приобретает анализ влияния этнических традиций, культурных норм и социальных ожиданий на формирование личности и семейных ценностей. В работе рассматриваются особенности этнокультурной среды, в которой формируются представления русских девушек о браке, семье и роли женщины в семейной системе.*

Особое внимание уделяется анализу этнических стереотипов, определяющих отношение к браку, распределению семейных ролей, материнству и ответственности за семейное благополучие. Исследуются психологические установки, формирующиеся под воздействием семьи, ближайшего социального окружения, образовательной среды и средств массовой информации. Показано, что устойчивые этнические стереотипы могут как способствовать формированию позитивных семейных ценностей, так и ограничивать личностное развитие и гибкость жизненных установок.

В эмпирической части исследования использованы методы анкетирования, психологического тестирования, интервью и качественного анализа. Полученные результаты позволяют выявить особенности психологической готовности русских девушек к семейной жизни, а также определить факторы, способствующие или препятствующие успешной социальной и семейной адаптации.

Практическая значимость исследования заключается в возможности использования его результатов при разработке программ психологической подготовки к семейной жизни, профилактики семейных конфликтов и формирования осознанных семейных установок у молодежи.

Ключевые слова: *психологические установки, семейная сплоченность, этнический стереотип, эмоциональная близость, гибкость отношений, бытовые роли.*

PRACTICAL STUDY OF ETHNIC STEREOTYPES AND PSYCHOLOGICAL ATTITUDES IN THE PROCESS OF PREPARING RUSSIAN GIRLS FOR FAMILY

Abstract. *This study focuses on the practical examination of ethnic stereotypes and psychological attitudes involved in preparing Russian girls for family life. In the context of globalization and increasing intercultural interaction, understanding how ethnic traditions, cultural norms, and social expectations influence personal development and family-related attitudes has become particularly important. The research explores the ethnocultural foundations shaping Russian girls' perceptions of marriage, family values, and women's roles within the family system.*

Special attention is given to the analysis of ethnic stereotypes that influence attitudes toward marriage, the distribution of family roles, motherhood, and responsibility for family well-being. The study examines psychological attitudes formed through family upbringing, social environment, educational institutions, and mass media. It is emphasized that ethnic stereotypes can play a dual role: on the one hand, they may support the development of stable family values, while on the other hand, they may restrict personal flexibility and adaptive behavior in modern social conditions.

The empirical part of the research employs questionnaires, psychological tests, interviews, and qualitative analysis methods. The findings reveal key characteristics of psychological readiness for family life among Russian girls and identify factors that facilitate or hinder successful family and social adaptation.

The practical significance of the study lies in its potential application for developing psychological training programs aimed at preparing young women for family life, reducing the negative impact of rigid stereotypes, and fostering balanced and conscious family attitudes. The results are valuable for specialists in family psychology, gender studies, and intercultural education.

Key words: *psychological attitudes, family cohesion, ethnic stereotype, emotional closeness, relational flexibility, everyday roles.*

Jahon ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oila institutini mustahkamlashda er-xotinning oiladagi mavqei, ayollarning oiladagi o‘rni, erxotinning o‘zaro bir-birini tushunishi, hissiy yaqinligi va shaxslararo munosabatlarining oilaviy munosabatlar mustahkamligiga ta‘sir darajasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, oilalar mustahkamligini ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik omillaridan oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oila qadriyatlari, oila qurish motivining etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada oilaning barbod bo‘lishi xolatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash ishiga alohida ilmiy, amaliy, innovatsion hamda yangicha yondashuv orqali yechimlarini topish masalalari davrning dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy jamiyatda oila instituti shaxs ijtimoiylashuvining asosiy makoni hisoblanadi. Ayollarni, xususan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni turli ijtimoiy, madaniy, etnik va psixologik omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu jarayonda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, rus qizlarini oilaga tayyorlash masalasi tarixiy-madaniy an’analar, jamiyatda mavjud gender rollari va ommaviy ongda shakllangan tasavvurlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Etnik stereotiplar — muayyan etnik guruh vakillariga nisbatan jamiyatda shakllangan barqaror tasavvurlar, umumlashtirilgan baholar va kutilmalardir. Rus qizlariga nisbatan mavjud stereotiplar ko‘pincha ularning oiladagi roli, onalikka munosabati, mustaqillik darajasi va hissiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda ifodalanadi.

Tarixiy jihatdan rus madaniyatida ayol obrazi bir vaqtning o‘zida ham mehnatkash, ham oilaparvar, ham ma’naviy tayanch sifatida shakllangan. Shu bilan birga, sovet davrida gender tengligi

g‘oyasi kuchayishi natijasida ayolning ijtimoiy faolligi, kasbiy o‘zini namoyon etishi muhim qadriyat sifatida ilgari surilgan. Bu holat rus qizlarini oilaga tayyorlashda ikkilamchi ustanovkalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Psixologik ustanovkalar — shaxs ongida shakllangan, muayyan vaziyatlarda muayyan tarzda fikrlash va harakat qilishga tayyorlik holatidir. Rus qizlarida oilaga nisbatan shakllangan psixologik ustanovkalar ko‘pincha ota-ona oilasi modeli, tarbiya uslubi, ta’lim tizimi va ommaviy axborot vositalari ta’sirida rivojlanadi.

Ayrim hollarda etnik stereotiplar psixologik ustanovkalarning mustahkamlanishiga xizmat qilib, qizlarda oilaviy hayotga nisbatan ideallashtirilgan yoki aksincha, salbiy kutilmalarni shakllantirishi mumkin. Masalan, “rus ayoli hamma narsaga chidamli bo‘lishi kerak” degan tasavvur o‘z ehtiyojlarini inkor etishga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Globallashuv, individualizmning kuchayishi va gender rollarining qayta ko‘rib chiqilishi natijasida rus qizlarini oilaga tayyorlash jarayonida yangi tendensiyalar kuzatilmoqda. An’anaviy stereotiplar tanqidiy qayta baholanib, shaxsiy rivojlanish, emotsional intellekt va teng sheriklikka asoslangan oila modeliga e’tibor ortmoqda.

O’z davrining yetuk namoyondasi Abdurauf Fitrat oila asoslari to’g’risidagi mulohazalarida nikoh masalasida to’xtaladi. U avvalo deydi: «...Odamda ikki xil mavjudlik bor. Biri shaxsiy borliq, ikkinchisi ijtimoiy mavjudlik». U shaxsiy mavjudlikka odamning vujudi va manfaatlarini kiritadi. Ijtimoiy mavjudlik esa insoniyatdir, deydi va qayd etadi: «...Odam o’rtasidagi jinsiy munosabat Bani Odamning (insoniyatning) ijtimoiy borlig’ini ta’minlaydigan sababdir. Agar u tamoman dunyodan ko’tarilsa, bashariyatning inqirozga duch kelishi aniq» [132].

Fitrat nikohni (turmush qurish yoki uylanishni) hirsiy instinktni qoniqtirish deb emas, balki odamzotning davomiyligini ta’minlaydigan ijtimoiy odat deb tushuntiradi. To’g’ri fikr, chunki odamning hayvonlardan farqli o’laroq madaniyligi ana shu Nikoh masalasiga madaniy munosabatda bo’lishida bilinadi.

Oilaning poydevori, uning mustahkam qal’asi, er-xotinni mahkam bog‘lovchi rishtasi nikoh bo‘lib, uning tufayli hayotda halol va xaromni ajratish, er-xotinning haq-huquqlariga rioya etish, oila tuzish, inson naslining davomiyligini ta’minlash, yosh avlod tarbiyasi masalalari azaliydir.

“Nikoh” so‘zi lug‘atda “qo‘shish”, “yaqinlik”, “bog‘lanish” ma’nolarini anglatadi. Nikohdan asosiy maqsad zurriyot qoldirish va xaromdan saqlanish, asosiy shartlardan biri kelinga kuyov tomonidan ma’lum bir hadya mahr berilishidir. Nikohsiz qo‘shilish zino hisoblanadi.

Islom dinida nikohdan asosiy maqsad zurriyot qoldirish va xaromdan saqlanish bo‘lib, nikohsiz qo‘shilish zino hisoblanadi. Shu o‘rinda: asosiy shartlardan biri kelinga kuyov tomonidan ma’lum bir hadya – mahr berilishi; nikoh – bu Allohning amri; Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam)ning sunnatlari bilan guvohlar xuzurida bog‘lanadigan muqaddas rishta ekanligi hamda nikohning uchta asosiy sharti bor ekanligini bilish o‘rinlidir:

1. “Iyjob va qabul”, bu- birining so‘z bilan so‘rashi va narigi tarafning ushbu taklifga rozi bo‘lishi. Iyjob va qabul oshkoralik ila taklif etilishi lozim. Bunda: yigit “Jufti halollikka qabul qildim”, qiz esa “Juftu halollikka bag‘ishladim”, deyishadi.

2. Turmush qurish, nikoh o‘qiyotganda ikki erkak guvohlikka ishtirok etishi lozim, guvohlar bo‘lmagan holdagi o‘qilgan nikoh hisobga olinmaydi.

3. Mahrning tasdiqlanishi, bu eri hisobidan xotiniga taqdim qilinadigan hadya va uning hajmi qandayligi kelishib belgilanishi shart. (Ming afsuski, hozirgi paytda ayrim insonlar nikohning asosi bo‘lgan mana shu uchta shartni unutib qo‘ymoqdalar).

Nikohda qanday insonlar guvoh bo‘lishi, ularga qo‘yilgan shart, guvohligi qabul bo‘lishi uchun ularning adolatli insonlar bo‘lishi talab qilingan. Aslida esa guvohlikka kelayotgan yoshlar shu mas’uliyatni to‘liq bilishmaydi, yoki ular faqat imzo chekish uchun kelishadi. Shu bois kuyov jo‘ra bilan birga yoshi katta va kuyovga yaqin qarindoshlardan va kamida ikki kishi bo‘lishi maqsadli bo‘lar edi. Kelin tomonidan ham 18, 19 yoshli qizlar bilan birga ko‘pni ko‘rgan yoshi katta onaxonlar guvoh sifatida birga ishtirok etishi zarurdir. Mahr masalasida ham nafaqat yoshlar, balki yoshi kattalarning ham to‘liq tushunchaga ega emaslik xolatlari kuzatiladi. Gohida nikohdan keyin berish sharti bilan nikohlari o‘qilgandan keyin ham mahrni bermaslik, natijada pushaymonlik kabi xolatlar ko‘payishi, shu tufayli nizolar yuzaga kelishi achinarli holdir.

Fitrat bu masala to'g'risida fikr yuritar ekan, o'sha paytda islom olamida keng tarqala boshlagan «uylanmasdan (turmushga chiqmasdan) yolg'iz o'tish» illatini tanqid qiladi. Nikoh qurishning islomda farzligini Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislari bilan asoslab ko'rsatadi[126;42 b.]. Bu o'sha davr uchun eng maqbul yo'l edi. Fitrat keltirgan hadislardan biri shunday: «Sizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidir». Agar e'tibor berilsa, bu hadis zamirida odamiylikni saqlashdek g'oya bor. Kishi oilasi bo'lsa insoniyat dardiga o'zini sherik his etadi. Yolg'iz, so'qqabosh odam esa egoistga aylanib boradi. Shu sababli Fitrat o'sha davr sharoitidan kelib chiqib nikohsizlikning oldini olishga eng maqbul usul bilan kurashadi. Bundan tashqari, Fitrat masalaning ilmiy jihatiga ham e'tiborni qaratib deydi: «...Qodir Xudo uylanish mehnatidan qochib izdivojini (nikohidagi kishini) tark etmasliklari uchun odamlarga shaxvatni berib, ularning mijozlariga uni singdirgan, toki shaxvat talabi bilan odamlar bir-birlarini xoxlab uylansinlar». Demak, oila qurish insonni badkirdorlikdan saqlaydi, shaxvat tuyg'usini madaniy jilovlashda asos bo'ladi.

Fitratning oila qurishni, ya'ni qonuniy nikohni har tomonlama tashviq-targ'ib qilishida «ma'naviy yetuk va madaniyatli oila» tizimini yuzaga keltirish va uning vositasida jamiyat rivojini yaratishdek ulug' maqsad bo'lgan. Aks holda u oila qurmaslikning oqibatida mana shunday illatning kelib chiqishi to'g'risida so'zlamagan bo'lar edi: "Majburan uylanmaganlar (turmushga chiqmaganlar) albatta shaxvat talablarini daf qilolmay quyidagi uchta yomon amalga giriftor bo'lishadi: zino, Lut qavmi amaliyo va o'z-o'zini qondirish (gomoseksualizm). Zino avlodni yo'q qiladi. Lut qavmi amali va o'z-o'zini qondirish (gomoseksualizm) – bu urug'ni yo'q qilish demakdir». Demak, bundan salkam yuz yil muqaddam Fitrat masalani to'g'ri qo'ya olgan va uning yechimini qoniqarli darajada bera olgan. Fitrat oila qurish (nikoh) masalasidagi fikrini kuchli dalillar bilan yoritadi.

Psixologik tayyorgarlikda faqatgina maishiy rollarga emas, balki muammolarni hal etish, muloqot madaniyati, konfliktologiya va ota-onalik kompetensiyalariga ham ahamiyat berilmoqda. Bu esa etnik stereotiplarning ta'sirini kamaytirish va sog'lom oilaviy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu test yordamida qo'lga kiritilgan natijalar shahar hududida yashovchi 21-23 yoshli talabalarning (n=70), Namangan davlat universitetining talabalarida hamda 21.-23 yoshli talabalarning (n=50) Farg'ona davlat universitetida ta'lim olayotgan yoshlarning natijalari tahlil qilindi. Bu o'rinda isbot talab qilgan tadqiqotimiz bo'yicha yangiligimiz shundan iborat ediki, bizningcha, Namangan hududida yashovchi va Farg'ona hududida yashovchi yoshlarning fikri va ularda yashash muhiti bilan muayyan farqlar kuzatilib, bu farq eng avvalo oiladagi ma'naviy muhit, uning qanchalik uyushganligi va farzandlarning istiqbolda oilaviy munosabatlar tizimidagi o'z o'rni haqidagi ijtimoiy tasavvurlarida aks etadi. Biz bu yangilikning hayotiy kuzatishlar asosida ham bilishimiz mumkin edi, lekin empirik kutishlarimizda uyushganlikning aniq mezonlari va chegaralarini bilish ham biz uchun amaliy ahamiyat kasb etishini inobatga olib, tajriba – sinov ishlarini balog'at yoshidagi yoshlarda o'tkazishni maqsadga muvofiq deb topdik.

1-jadval

«Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish» bo'yicha hududlar natijalari

Shkala	Hudud	n	O'rtacha	Dispersiya	t
Oilaviy uyushganlik	Farg'ona	50	35,9	32,7	3,8***
	Namangan	70	31,8	34,3	
Munosabatlarning egiluvchanligi	Farg'ona	50	31,9	20,7	2,1*
	Namangan	70	30,2	18,8	

*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibtiki, "Oilaviy uyushganlik" shkalasi bo'yicha natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi t=3.8***, p<0,001. Bunga ko'ra Farg'ona hududida yashovchi yoshlardan namangan hududida yashovchi yoshlarda o'rtacha arifmetik jihatdan past bo'lib unga sabab shahar hududida yashovchi yoshlarning atrof

muhitni tez idrok etishlari, ular o'zga jinslarga erkin muloqotda bo'lishlari, yoshlarda qaror qabul qilishning tezligi, odatiy ishlarni bajarish borasida turlicha fikrlar bo'lishi mumkinligi mavjudligi aniqlandi.

Namangan hududidagi Oliy ta'limda tahsil olib kelayotgan yoshlar ularda oilaviy uyushganlik bo'yicha ularda diniy qarashning bir xilligi, kattalarga nisbatan emotsional egiluvchanliklari, oiladagi barcha ishlarning to'g'ri taqsimlanganligi, o'zini tutish qoidalarini o'zgarib turishi aniqlandi.

"Munosabatlarning egiluvchanligi" shkalasi bo'yicha natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi t=2.1*, p<0,0.5. Bunga esa, oiladagi liderlik bo'yicha oilalarda tarbiyalanayotgan yoshlar oilada har bir oila a'zolari rollarining mavjud bo'lishligini qanchalik qo'llab-quvvatlanishga nisbatan istagini o'rganishga qaratilgan uslublarning mavjud bo'lishi "Qo'llab-quvvatlanishga nisbatan motivatsiyani o'rganish metodikasi"ning mantig'i shundayki, uning yordamida shaxsni o'rab turgan yaqin insonlarining doimiy qo'llab-quvvatlovi, rag'batiga ega bo'lish va ularning ko'nglidagiday xatti-harakat qilishga moyilligi darajasini o'rganish mumkinligi, oilalarida qadimdan erkak kishining o'rni muhim bo'lib kelganligi chunki erkak oila boshlig'i va xaloskori sifatida og'ir ishlarni bajarish, muammolarni hal etishi lozim.

Oilani moddiy tomondan ta'minlash, turmush o'rtog'i va farzandlarining yurish-turishi, odobi va boshqa tarbiyaviy jihatlariga mas'ullik ham ularning vazifasi sanaladi. Sinaluvchi qizlarimiz tasavvurida ham ularning kelajakdagi oilasida ham ota rolining muhim bo'lishligi ularning bergan javoblarida aniqlandi. Shuningdek, yoshlarda oiladagi har qanday yumushlarni birgalikda bajarishlari bu o'zaro ota-ona va farzandlarni o'rtasidagi psixologik iqlimni ijobiy bo'lishi bilan birga bir-birlariga qiyin paytlarda g'amxo'rlik qilish, qo'llab-quvvatlash va tinchlantirish hamda yuzaga keladigan noaniqlikni tushunishlariga yordam berishlari, birgalikda vaqt o'tkazishlari uchun imkon berishlari sabab bo'ladi.

Bunga esa, ota-ona o'z farzandlarida maqsadga intiluvchanlik, botirlik, ishga mas'uliyat bilan yondashish xislatlarini shakllantirib borish ham katta ahamiyatga ega. Bunda yoshlarni yoshi ulg'aygan sari oilaviy hayotga tayyorlash, ularni yangi oilada odob–axloq meyorlariga, urf-odatlariga oila yumishlariga va hayotning nozik sohalariga puxta tayyorlab borish vazifasi ham oiladan, ayniqsa onadan juda katta mehnat va metn irodani talab etadi.

2-jadval

«Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish» bo'yicha jinslar natijalari

Shkala	jins	n	O'rtacha	Dispersiya	t
Oilaviy uyushganlik	ayol	75	33,3	38,9	-0,5
	erkak	45	33,9	35,4	
Munosabatlarning egiluvchanligi	ayol	75	30,9	20,2	0,02
	erkak	45	30,9	20,6	

Navbatdagi «Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish» bo'yicha jinslar bo'yicha taqqoslab chiqilganda o'g'il va qizlarda farq aniqlanmadi. Bunga sabab ularning yoshlarining o'xshashligi, maqsadlarning yoshga nisbatan teng taqsimlanganligi, har ikki ns vakillaring oilada tarbiyalanayotgan yoshlar tasavvurida bolalarning individual va yosh xususiyatlariga ko'proq e'tiborli eknaliklari, yoshga bog'liq o'zgarishlarni yaqqolroq tasavvur qilishliklari yuqori bo'lishiga, oila a'zolariga har bir a'zosi qaysidir xatoga javob berishda uni kattalar bilan maslahatlashib, oilada sog'lom muhitni hukmronlik qilinishi istaklarning mavjudligi aniqlandi.

Rus qizlarini oilaga tayyorlash jarayonida etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ularni ilmiy tahlil qilish stereotiplarning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash, shuningdek, zamonaviy jamiyat talablariga mos psixologik tayyorgarlik modellarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Oilalarning uyushganlik va oilaviy munosabatlarning egiluvchanlik darajasi oila mustahkamliigni ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar sifatida ifodalanadi,

oilalarda oila boshlig'i sifatida erkakning mavqie, nufuzi, ta'sirchanlik darajasi, oilaviy munosabatlardagi «hissiy yaqinlik», yoshlarning kelajakdagi oilasini demokratik, uyushgan tarzdagi tasavvurlari oila mustahkamligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida : PQ-4190-son qaror, 2019 yil 13 fevral. – URL: https://lex.uz
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – 3-jild. – Toshkent : O'zbekiston, 2019. – 400 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari. – 4-jild. – Toshkent : O'zbekiston, 2020. – 400 b.
4. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy risolalar. – Toshkent : Fan, 1987. – 78 b.
5. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafot-ul qulub (Qalblar kashfiyoti). – Ikkinchi kitob. – Toshkent : Minhoj nashriyoti, 2004. – 336 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. – Toshkent : Adolat, 2000. – 446 b.
7. Avesto : tarixiy-adabiy yodgorlik / Asqar Mahkam tarj. – Toshkent : Sharq, 2001. – 384 b.
8. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent : O'qituvchi, 1992. – 160 b.

Matchanova Dilbar Yusupboyevna
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: matchanovadilbar94@gmail.com

TALABALARDA FABBING XULQ-ATVORINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fabbing xatti-harakatlarining asosini tashkil etuvchi psixologik xususiyatlar va uning talabalarning shaxslararo munosabatlariga ta'siri o'rganiladi. Ko'rib chiqilgan asosiy psixologik omillar qatoriga smartfonlarga qaramlik, biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi, ijtimoiy xavotir va o'zini tuta bilish kiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, smartfonlardan haddan tashqari foydalanish va yuqori biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi darajalari fabbingning ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, bu yuzma-yuz muloqotga, muloqot sifatiga va tengdoshlar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir qiladi.*

Kalit so'zlar: *fabbing, psixologik xususiyatlar, talabalar, shaxslararo munosabatlar, smartfonlarga qaramlik, ijtimoiy xavotir, biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi, o'zini tuta bilish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФАББИНГОВОГО ПОВЕДЕНИЯ У СТУДЕНТОВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ

Аннотация. *Три статьи рассматривают основные аспекты лечения фабинга и его влияние на межличностные отношения студентов. Зависимость от шопинга, страх сдаться, социальная защищенность и самоконтроль связаны с фабингом. Страх сдаться и боязнь сдаться связаны с общением лицом к лицу, качеством общения и отношениями со сверстниками.*

Ключевые слова: *фабинг, здравоохранение, студенты, межличностные отношения, зависимость от смартфонов, социальные аспекты, страх сдаться, самоконтроль.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PHUBBING BEHAVIOR AMONG STUDENTS AND ITS IMPACT ON INTERPERSONAL RELATIONSHIPS

Abstract. *Three articles examine the underlying treatment of fabbing and its impact on students' interpersonal relationships. The addiction to shopping, fear of giving up, social security, and self-control are all related to fabbing. Fear of giving up and fear of giving up are related to face-to-face communication, quality of communication, and peer relationships.*

Key words: *fabbing, healthcare, students, interpersonal relationships, smartphone addiction, social, fear of giving up, self-control.*

Kirish. Smartfonlarning kundalik hayotga tez integratsiyalashuvi talabalarning muloqot qilish, o'rganish va ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish usulini o'zgartirdi. Ushbu qurilmalar qulaylik va ulanishni ta'minlasa-da, ular shuningdek, smartfonlar bilan aloqa qilish foydasiga hozirgi hamrohlarni e'tiborsiz qoldirish - fabbingning paydo bo'lishiga olib keldi. Fabbing nafaqat zamonaviy ijtimoiy odob-axloq masalasi, balki chuqurroq psixologik naqshlarni ham aks ettiradi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fabbing xatti-harakatlariga smartfonlarga qaramlik, biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi, ijtimoiy xavotir va o'zini past tuta bilish kabi omillar ta'sir qiladi. Ushbu xususiyatlarga ega talabalar real dunyo muloqotidan ko'ra virtual o'zaro ta'sirlarni ustuvor deb bilishadi, bu esa shaxslararo munosabatlarning zaiflashishiga, empatiyaning pasayishiga va potentsial ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Bundan tashqari, tez-tez fabbing qilish ishonchni yo'qotishi, muloqot samaradorligini pasaytirishi va akademik sharoitlarda guruh hamkorligiga ta'sir qilishi mumkin.

Smartfonlarga qaramlikning tobora ko'proq tarqalishini hisobga olgan holda, fabbingni keltirib chiqaradigan psixologik xususiyatlarni va uning shaxslararo munosabatlarga ta'sirini tushunish juda muhimdir. Ushbu tadqiqot universitet talabalari orasida ushbu asosiy mexanizmlarni o'rganishga va

muvozanatli raqamli xulq-atvor va ijtimoiy o'zaro ta'sirni yaxshilashga yordam beradigan strategiyalarni ishlab chiqish uchun tushunchalar berishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. "Telefon" va "sichqoncha bilan gaplashish" so'zlaridan kelib chiqqan "phubbing" atamasi smartfon bilan aloqa qilish foydasiga jismoniy mavjudligidagi odamlarni e'tiborsiz qoldirish harakatini anglatadi[1]. Bu xatti-harakatlar ijtimoiy munosabatlarga, ayniqsa universitet talabalari orasida salbiy ta'siri tufayli katta e'tiborga sazovor bo'ldi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "phubbing" smartfonga qaramlik, biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi (biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi), ijtimoiy xavotir va o'zini tuta bilish kabi psixologik xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq[2].

Smartfonga qaramlik "phubbing"ning asosiy omili hisoblanadi. Smartfondan majburiy foydalanishni namoyon etadigan talabalar ko'pincha raqamli muloqotni yuzma-yuz muloqotdan ustun qo'yadilar, bu esa shaxslararo munosabatlarning zaiflashishiga va empatiyaning pasayishiga olib keladi[3]. Xuddi shunday, biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi - foydali tajribalarni qo'ldan boy berish haqidagi keng tarqalgan tashvish - talabalarni ijtimoiy tarmoqlar va onlayn tarmoqlarni doimiy ravishda kuzatib borishga undaydi, bu esa o'z navbatida fabbing xatti-harakatlarini kuchaytiradi[4].

Ijtimoiy xavotir yana bir muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy muhitda yuqori xavotirga ega bo'lgan talabalar to'g'ridan-to'g'ri muloqotdan qochish uchun smartfonlardan foydalanishlari mumkin, bu esa fabbingga qo'shimcha hissa qo'shadi[5]. Aksincha, o'zini o'zi boshqarish himoya omili bo'lib xizmat qiladi, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati kuchliroq bo'lgan shaxslar fabbing bilan shug'ullanish ehtimoli kamroq va mazmunli ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish ehtimoli ko'proq[6].

O'zbekiston sharoitida so'nggi tadqiqotlar va rasmiy hisobotlar yoshlar orasida smartfonlardan foydalanishning psixologik ta'sirini o'rganib chiqdi. Toshpo'latov va Rahimova[7] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, smartfonlardan haddan tashqari foydalanish talabalarning muloqot qobiliyatlari, tengdoshlar bilan munosabatlari va hissiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shunday, Karimova[8] talabalarning 70% dan ortig'i ijtimoiy yig'ilishlar paytida telefonlarini tez-tez tekshirib turishlarini tan olishlarini ta'kidlaydi, bu esa fabbing xatti-harakatlarining o'sib borayotgan tendentsiyasini aks ettiradi. "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-609-sonli Farmoni, 2020-yil)[9] va Vazirlar Mahkamasining ta'lim muassasalarida raqamli gigiena bo'yicha 710-sonli qarori[10] kabi milliy tashabbuslar smartfonlardan haddan tashqari foydalanishning psixologik va ijtimoiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan.

Xalqaro tadqiqotlar ham aralashuvlar uchun ko'rsatmalar beradi. O'zini o'zi boshqarish, biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi xabardorligi va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar fabbingni kamaytirishi va shaxslararo o'zaro ta'sirlarni yaxshilashi ko'rsatilgan[11]. Bundan tashqari, 2019–2027 yillarga mo'ljallangan Raqamli ta'lim bo'yicha harakatlar rejasi kabi Yevropa siyosat doiralari psixologik tushunchalar va raqamli savodxonlik tashabbuslarini akademik sharoitlarga integratsiya qilish uchun eng yaxshi amaliyotlarni taqdim etadi[12].

Umuman olganda, ham xalqaro, ham O'zbekiston tadqiqotlari fabbingga psixologik, ijtimoiy va ekologik omillarning kombinatsiyasi ta'sir qilishini ko'rsatadi. Mahalliy tadqiqotlarni global tadqiqot va siyosat yondashuvlari bilan integratsiya qilish, fubbingni kamaytirish va talabalarning shaxslararo munosabatlarini yaxshilash uchun samarali strategiyalarni taqdim etishi mumkin.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda universitet talabalari o'rtasidagi fabbing xatti-harakatlarining psixologik xususiyatlari va uning shaxslararo munosabatlarga ta'sirini o'rganish uchun miqdoriy tadqiqot dizayni qo'llaniladi. O'zbekistondagi bir nechta universitetlardan kelgan 250 nafar bakalavr talabalaridan iborat namunaviy so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma quyidagilarni o'lchaydigan standartlashtirilgan shkalalarni o'z ichiga oldi:

- Smartfonlarga qaramlik (Smartfonlarga qaramlik shkalasi yordamida),
- Narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi (biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi),
- Ijtimoiy xavotir,
- O'zini tuta bilish va
- Yuzma-yuz muloqotda fabbing xatti-harakatlarining chastotasi va ta'siri.

Ma'lumotlar tahlili demografik xususiyatlar va fabbingning tarqalishini o'rganish uchun tavsiflovchi statistika yordamida, shuningdek, fabbing xatti-harakatlarining muhim psixologik bashorat qiluvchi omillarini aniqlash uchun korrelyatsiya va ko'p regressiya tahlillari yordamida o'tkazildi. Axloqiy mulohazalarga qat'iy rioya qilindi, jumladan, xabardor rozilik, ixtiyoriy ishtirok va ishtirokchilarning javoblarining maxfiyligi.

Metodologiya psixologik xususiyatlar va fabbing o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, uning talabalarning shaxslararo munosabatlariga ta'sirini chuqur tushunishga imkon beradi. Topilmalar fabbingni kamaytirish va sog'lom ijtimoiy muloqotni rivojlantirish uchun maqsadli aralashuvlarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning raqamli qurilmalarga va doimiy onlayn aloqaga bog'liqligi real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarga xalaqit berishi mumkin. Kuchli biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquviga ega bo'lgan shaxslar ijtimoiy tarmoqlarni doimiy ravishda kuzatib borishga majbur bo'lishadi, bu ularning e'tiborini bevosita ijtimoiy kontekstlardan chalg'itishi mumkin. Ijtimoiy xavotir bu xatti-harakatni yanada kuchaytiradi, chunki ba'zi talabalar potentsial stressli yoki noqulay ijtimoiy vaziyatlarga duch kelishdan ko'ra qurilmalari bilan muloqot qilishni afzal ko'rishlari mumkin.

Boshqa tomondan, o'zini tuta bilish fabbingni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'z impulslarini boshqarishga qodir talabalar, hatto raqamli chalg'ituvchi narsalar bilan o'ralgan bo'lsa ham, yuzma-yuz muloqotda mazmunli ishtirok etishlari mumkin. Bu o'zini o'zi boshqarish va smartfondan foydalanish haqida xabardorlikni oshirish ijtimoiy o'zaro ta'sir sifatini yaxshilashi mumkinligini ta'kidlaydigan tadqiqotlar bilan mos keladi.

Amalda, bu topilmalar raqamli savodxonlik, vaqtni boshqarish va ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatishni birlashtirgan ta'lim dasturlarining muhimligini ko'rsatadi. Talabalarni raqamli odatlari haqida mulohaza yuritishga undash va biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi va xavotirni boshqarish strategiyalarini taqdim etish fabbingni kamaytirishga va shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bunday choralarni universitet siyosati va milliy raqamli tashabbuslarga integratsiya qilish sog'lom talabalar jamoalarini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Natijalar. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, universitet talabalari orasida fabbing odatiy holdir. Respondentlarning qariyb to'rtdan uch qismi shaxsiy suhbatlar paytida vaqti-vaqti bilan yoki tez-tez smartfonlarini tekshirib turishlarini xabar qilishdi. Psixologik omillar tahlili shuni ko'rsatdiki, smartfonga yuqori darajada qaramlik, biror narsani o'tkazib yuborishdan kuchli qo'rqish va ijtimoiy xavotirning yuqori darajasi tez-tez fabbing bilan bog'liq. O'zini yuqori darajada ushlab tura oladigan talabalar bu xatti-harakatlarda kamroq ishtirok etishlarini xabar qilishdi.

Keyingi statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, smartfonga qaramlik fabbingga eng katta ta'sir ko'rsatgan, undan keyin biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi va ijtimoiy xavotir. O'zini o'zi boshqarish muhim himoya omili sifatida paydo bo'ldi, bu talabalarning tengdoshlarini e'tiborsiz qoldirib, mobil telefondan foydalanish ehtimolini kamaytiradi. Bu natijalar fabbing tasodifiy odat emas, balki asosiy psixologik tendentsiyalarni aks ettirishini ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ta'kidlaydiki, fabbinlik universitet talabalari orasida keng tarqalgan hodisa bo'lib, unga psixologik omillar kuchli ta'sir qiladi. Smartfonlarga juda bog'liq bo'lgan, tez-tez biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvini boshdan kechiradigan yoki ijtimoiy xavotirga duch keladigan talabalar fabbinlik bilan shug'ullanishga ko'proq moyil bo'ladilar, bu esa ularning shaxsan muloqot qilishlari va tengdoshlar bilan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Aksincha, o'zini yaxshi nazorat qila oladigan talabalar fabbinlikka moyilligi pastroq bo'lib, mazmunli ijtimoiy aloqalarni saqlab qolishadi. Ushbu topilmalar fabbinlik shunchaki yomon ijtimoiy odob-axloq masalasi emas, balki chuqurroq psixologik naqshlarni aks ettirishini ko'rsatadi. Ushbu asosiy omillarni bartaraf etish sog'lom muloqot odatlarini rivojlantirish va talabalar o'rtasida qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni yaratish uchun juda muhimdir.

Tavsiyalar. Universitetlar talabalarni fabbinlikning psixologik va ijtimoiy oqibatlari haqida xabardor qiladigan, smartfonlardan ongli foydalanishning muhimligini ta'kidlaydigan dasturlarni amalga oshirishlari kerak. Vaqtni boshqarish, maqsadlarni belgilash va raqamli o'zini o'zi boshqarish bo'yicha treninglar talabalarga smartfonlardan samarali foydalanishni boshqarishga yordam beradi. Talabalarga ijtimoiy xavotirni engishda va biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvini kamaytirishda

yordam berish, shu bilan ularning real hayotdagi o'zaro munosabatlarini yaxshilash uchun maslahat xizmatlari mavjud bo'lishi kerak. Universitetlar raqamli chalg'ituvchi omillarsiz hamkorlik va muloqotni rag'batlantiruvchi guruh faoliyati, seminarlar va ijtimoiy tadbirlar orqali yuzma-yuz muloqotni rivojlantirishlari mumkin. Ta'lim muassasalari ushbu choralarni kengroq strategiyalarga integratsiya qilishlari, mas'uliyatli raqamli xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydigan izchil asos yaratish uchun "Raqamli O'zbekiston 2030" kabi milliy tashabbuslar bilan moslashtirishlari kerak.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali universitetlar talabalarga onlayn va oflayn hayotlarini muvozanatlashda, yolg'on gapirish xatti-harakatlarini kamaytirishda va shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashda yordam berishi mumkin, natijada talabalarning umumiy farovonligi va ijtimoiy hamjihatligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Chotpitayasunondh V., Douglas K.M. Qanday qilib "fubbing" normaga aylanadi: Smartfon orqali rad etishning oldingi holatlari va oqibatlari // Inson xulq-atvoridagi kompyuterlar. 2018. 84-jild. 131–139-betlar.
2. Karadağ E., Tosuntash Ş.B., Erzen E. Universitet talabalari orasida smartfondan foydalanish va fubbing muammosining determinantlari // Xulq-atvorga bog'liqlik jurnali. 2015. 4(2)-jild. 75–83-betlar.
3. Przepiorka A., Blachnio A., Cudo A. Fubbing va ijtimoiy xavotir o'rtasidagi munosabatlar // Hozirgi psixologiya. 2019. 38-jild. 145–155-betlar.
4. Przybylski A.K., Murayama K., DeHaan C.R., Gladwell V. Biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvining motivatsion, hissiy va xulq-atvor o'zaro bog'liqligi // Inson xulq-atvoridagi kompyuterlar. 2013. 29-jild. 1841–1848-betlar.
5. Elhai J.D., Dvorak R.D., Levine J.C., Hall B.J. Smartfonlardan muammoli foydalanish: xavotir va depressiya bilan munosabatlarning kontseptual umumiy ko'rinishi va tizimli tahlili // Affektiv buzilishlar jurnali. 2017. 207-jild. 251–259-betlar.
6. Mehroof M., Griffiths M.D. Onlayn o'yinlarga qaramlik: hissiyotlarni izlash, o'zini tuta bilish va ijtimoiy xavotirning roli // Inson xulq-atvoridagi kompyuterlar. 2010. 26-jild. 1590–1597-betlar.
7. David M.E., Roberts J.A. Fabbed va yolg'iz: Smartfondan foydalanish, ijtimoiy chetlanish va onlayn tarmoqlarga bog'lanish // Inson xulq-atvoridagi kompyuterlar. 2017. 75-jild. 269–276-betlar.
8. Toshpo'latov S., Rahimova N. Smartfondan foydalanishning talabalarning ijtimoiy munosabatlariga psixologik ta'siri // O'zbek psixologiya tadqiqotlari jurnali. 2021. 12(3)-jild. 45–58-betlar.
9. Karimova M. Universitet talabalari orasida ijtimoiy muloqot va mobil qurilmalarga qaramlik // Toshkent davlat universiteti axborotnomasi. 2022. 8(1)-jild. 22–35-betlar.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PD-609-sonli Farmoni, “Raqamli O'zbekiston 2030 strategiyasi”, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 710-sonli qarori. 2021.
12. Yevropa Komissiyasi. Raqamli ta'lim bo'yicha 2019–2027 yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasi. Bryussel: Yevropa Komissiyasi, 2019. 24 b.

Payziyeva Mastura Nigmatullayevna
Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi kata o'qituvchisi

TALABALARDA KASBIY KOMPETENSIYALAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishining psixologik jihatlari tahlil qilingan. Unda kasbiy kompetensiya tarkibiy qismlari, ularning talabaning shaxsiy rivoji, motivatsiyasi, emotsional-intellektual tayyorgarligi va refleksiv faoliyati bilan bog'liqligi asoslab beriladi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor ahamiyati, psixologik qo'llab-quvvatlashning o'rni hamda talabalarda kasbiy yo'naltirilganlikni shakllantirish omillari yoritilgan. Shuningdek, maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlar, individual-differensial xususiyatlar va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish strategiyalari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetensiya, psixologik rivojlanish, motivatsiya, refleksiya, emotsional-intellektual salohiyat, kommunikativ ko'nikmalar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические аспекты формирования и развития профессиональных компетенций у студентов. Анализируются структурные компоненты профессиональной компетентности, их взаимосвязь с личностным развитием студента, мотивацией, эмоционально-интеллектуальной готовностью и рефлексивной деятельностью. Отмечается значимость компетентностного подхода в современном образовательном процессе, роль психологической поддержки и факторы формирования профессиональной направленности. В работе также изучены психологические механизмы развития профессиональных компетенций, индивидуально-типологические особенности студентов и стратегии развития коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, психологическое развитие, мотивация, рефлексия, эмоционально-интеллектуальный потенциал, коммуникативные навыки.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCES IN STUDENTS

Annotation. *This article examines the psychological aspects of the formation and development of professional competencies among university students. It analyzes the structural components of professional competence and their relationship with students' personal development, motivation, emotional-intellectual readiness, and reflective activity. The study highlights the significance of the competency-based approach in modern education, the role of psychological support, and the factors that shape students' professional orientation. Additionally, the article explores the psychological mechanisms influencing the development of professional competencies, individual differences, and strategies for enhancing communication skills.*

Key words: *professional competence, psychological development, motivation, reflection, emotional–intellectual capacity, communication skills.*

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda oliy ta'lim muassasalari oldida turadigan eng muhim vazifalardan biri — talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Kasbiy kompetensiya nafaqat kasbga oid bilim va ko'nikmalar majmuasi, balki shaxsning psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasi, kommunikativ madaniyati, emotsional

barqarorligi hamda refleksiv fikrlash darajasini o‘z ichiga oladi. Shu bois talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini chuqur psixologik asoslash, ularni shakllantiruvchi mexanizmlar va omillarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv o‘quv jarayonining markazida talabaning shaxsiy rivojini qo‘yadi. Bunda talabaning kasbga bo‘lgan ichki qiziqishi, o‘zini kasbiy sohada namoyon qilishga intilishi, maqsad qo‘yish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, emotsional-intellektual salohiyatning rivojlanishi, stressga bardoshlilik, moslashuvchanlik, muloqotga kirisha olish va jamoada samarali ishlash kabi psixologik omillar talabaning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardandir.

Ushbu maqolada talabalarda kasbiy kompetensiyalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik jihatlar, ularning mexanizmlari va shakllanish bosqichlari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning individual xususiyatlari, motivatsion holati va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik strategiyalar yoritiladi. Mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili talabalarning kasbiy shakllanish jarayonini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Talabalarda kasbiy kompetensiyalar rivojlanishining psixologik jihatlarini ilmiy asosda o‘rganish, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va mexanizmlarni aniqlash hamda kompetensiyalarni rivojlantirishga oid samarali psixologik yondashuv va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni, tarkibiy qismlari va ilmiy asoslarini tahlil qilish, talabalarda kasbiy kompetensiyalar shakllanish jarayoniga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni ilmiy asoslash, talabalarning motivatsion, emotsional-intellektual va refleksiv xususiyatlarining kasbiy rivojlanishdagi rolini o‘rganish, individning shaxsiy va individual-differensial xususiyatlari kasbiy kompetensiyalar rivojiga ko‘rsatadigan ta’sirini tahlil qilish, talabalarda kommunikativ kompetensiya va kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik mexanizmlarini o‘rganish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening, maslahat va rivojlantiruvchi metodlarning samaradorligini aniqlash hamda olingan natijalar asosida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqot talabalarda kasbiy kompetensiyalar rivojlanishining psixologik jihatlarini kompleks yondashuv asosida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, metodologiya bir nechta ilmiy-nazariy asoslar va empirik usullar majmuasidan tashkil topadi.


Mazkur tadqiqot bir qator zamonaviy ilmiy yondashuvlarga tayangan holda olib borildi. Jumladan, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabaning bilimlari, ko‘nikma va malakalari, motivatsiyasi hamda shaxsiy sifatlari o‘zaro bog‘liq yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning individualligi, psixologik ehtiyojlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olish imkonini berdi. Faoliyat yondashuvi esa kasbiy kompetensiyalarning shaxsning real faoliyatdagi ishtiroki orqali shakllanishini asoslashga xizmat qildi. Tadqiqotning metodologik poydevorini psixologik rivojlanish nazariyalari tashkil etib, xususan, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, A. Bandura, D. Super va boshqa olimlarning ishlari motivatsiya, identifikatsiya, refleksiya hamda ijtimoiy o‘rganish jarayonlarini tushuntirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va statistik metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari orqali mavjud ilmiy qarashlar sarhisob qilindi hamda kompetensiya modeli va kasbiy rivojlanish konsepsiyalari chuqur nazariy tahlildan o‘tkazildi. Empirik tadqiqotlar doirasida so‘rovnomalar va psixologik testlar orqali talabalarning motivatsiyasi, kasbiy yo‘nalganligi, muloqot ko‘nikmalari va boshqa psixologik xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, talabalar va pedagog-psixologlar bilan intervyular o‘tkazildi, o‘quv jarayonida talabalar faoliyati kuzatildi hamda refleksiya darajasi va emotsional-intellektual tayyorgarlikni baholovchi diagnostik metodikalardan foydalanildi. Statistik tahlil bosqichida deskriptiv statistika ko‘rsatkichlari, korrelatsion va faktor tahlillari yordamida psixologik omillar bilan kompetensiya darajasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlanib, olingan natijalar grafik shaklda vizuallashtirildi.

Tadqiqot ilmiylik, obyektivlik, komplekslik va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyillariga asoslandi. Natijalar psixologik qonuniyatlarga tayangan holda tahlil qilinib, shaxsiy fikrlardan

mustaqil ravishda qayd etildi hamda kasbiy kompetensiyalar shaxsning turli psixologik xususiyatlari bilan uyg‘unlikda o‘rganildi. Tadqiqot natijalarining real ta’lim jarayonida qo‘llanish imkoniyati alohida e’tiborga olindi.

Empirik tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 18–23 yoshli, turli yo‘nalishlardagi talabalar ishtirokida olib borildi. Shuningdek, pedagog-psixologlar va o‘qituvchilarning fikrlari ham tahlil jarayoniga jalb etildi. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi ko‘plab psixologik omillar bilan bog‘liq ekani ilmiy manbalar asosida tasdiqlandi. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari A. Xutorskoy, J. Raven va E.F. Zeer tadqiqotlarida kompetensiyani shaxsning bilimlari, ko‘nikmalari va psixologik tayyorgarligining integrallashgan tizimi sifatida talqin etilishi bilan izohlanadi. Shaxsning kasbiy rivojlanishi va faoliyatga tayyorlanishi masalalari L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev va K. Rogers nazariyalarida motivatsiya va faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi orqali asoslangan. Talabalarda kasbiy o‘zini anglash, identifikatsiya va motivatsiyaning shakllanishi esa D. Super, A. Bandura va D. Holland konsepsiyalari bilan izohlanadi. Mahalliy olimlar Sh. Toshpo‘latov, A. Jabborov va M. Rasulovlarning ilmiy ishlari esa kommunikativ ko‘nikmalar, emotsional barqarorlik va refleksiv tafakkurning kasbiy kompetensiyalar rivojidagi muhim rolini tasdiqlaydi.



Talabalarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanish jarayoni faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki sifat jihatidan ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Kompetensiyaning psixologik komponentlari talabaning individualligi, motivatsion holati, emotsional barqarorligi, kommunikativ madaniyati va refleksiv fikrlash darajasida namoyon bo‘ladi. Ushbu sifat tahlili yuqoridagi O‘tkazilgan tadqiqot natijalari kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillarning ichki mazmunini ochib beradi. Xususan, motivatsiya darajasining sifat tahlili talabalarning aksariyati kasbni ongli ravishda tanlaganini va o‘zlarini kelajakdagi kasbiy faoliyatda tasavvur qilishlari uchun ichki ishonch mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, talabalarning motivatsiyasi asosan ichki omillarga, ya’ni kasbga bo‘lgan qiziqish, o‘zini rivojlantirishga intilish va shaxsiy maqsadlarga tayanadi. Tashqi motivatsiya omillari, jumladan ota-

onalar talabi yoki ijtimoiy bosim mavjud bo‘lsa-da, ularning ta’siri nisbatan pastroq ekani kuzatildi. Motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda dars jarayonidagi faollik, tashabbuskorlik va mustaqil o‘rganishga intilish ancha yuqori bo‘lib, bu motivatsiya kasbiy kompetensiyalarning shakllanishida asosiy drayver ekanini tasdiqlaydi.

Kommunikativ ko‘nikmalarning sifat tahlili talabalar orasida kommunikativ kompetensiya darajasi o‘rtacha va yuqori ekanini ko‘rsatdi. Bu holat ularga guruhda samarali ishlash, o‘z fikrini ravon va aniq bayon qilish hamda muammolarni muloqot orqali hal etish imkonini beradi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, muloqotga erkin kirisha oladigan talabalar rahbarlik qilish, tashabbus ko‘rsatish va jamoani boshqarish ko‘nikmalariga ko‘proq ega bo‘ladi. Aksincha, muloqotda qiyinchilikka duch keladigan talabalar tortinchoqlik, o‘z fikrini himoya qilishda ikkilanish holatlarini namoyon etadi. Bu esa kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus treninglar va rolli o‘yinlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Refleksiya darajasining sifat tahlili reflektiv fikrlashning, ya’ni talabaning o‘z bilimlari va faoliyatini tanqidiy baholay olish qobiliyatining kasbiy rivojlanishdagi muhim rolini ochib berdi. Yuqori refleksiya darajasiga ega talabalar o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniq anglaydi, xatolar ustida ishlashga moyil bo‘ladi va o‘z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib boradi. Past refleksiya darajasiga ega talabalar esa xatolarni takrorlashga moyil bo‘lib, o‘z-o‘zini baholash jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat refleksiyaning murakkab kasbiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatini oshirishini ko‘rsatadi.

Emotsional barqarorlikning sifat tahlili stressga chidamli talabalar murakkab topshiriqlarni ishonch bilan bajarishini, emotsional beqaror talabalar esa tashvish, ishonchsizlik va vaziyatdan chetlashish holatlarini ko‘proq namoyon etishini ko‘rsatdi. Jamoaviy faoliyat jarayonida emotsional barqaror talabalar mojarolarga kam kirishib, konstruktiv muloqotni saqlab qolishga intiladi. Bu esa psixologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar, xususan autotrening va relaksatsiya texnikalarining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kasbiy yo‘nalganlikning sifat tahlili talabaning o‘z kasbida o‘zini ko‘rish darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Kasbiy yo‘nalganligi yuqori bo‘lgan talabalar kelajak rejalari aniq, maqsadlari ravshan va o‘zini rivojlantirishga faol intiladi. Aksincha, kasbiy yo‘nalganligi past bo‘lgan talabalar qaysi sohada faoliyat yuritishini aniq tasavvur qila olmaydi, bu esa ularda beqarorlik holatlarini kuchaytiradi. Ushbu holat kasbiy identifikatsiyaning kasbiy kompetensiyalar shakllanishidagi muhim ahamiyatini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari talabalarning kasbiy kompetensiyalari psixologik omillar bilan bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi. Eng muhim omillar sifatida motivatsiya, kommunikativlik, refleksiya va emotsional barqarorlik ajralib turadi. Kasbiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun talaba shaxsiga yo‘naltirilgan psixologik treninglar, konsalting faoliyati, jamoaviy mashg‘ulotlar hamda refleksiyaga asoslangan metodlardan kompleks foydalanish zarur ekanligi asoslab berildi.Xulosa qilib aytganda tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanish jarayoni ko‘p omilli, murakkab va izchil psixologik mexanizmlarga tayanadi. Kompetensiya faqat bilim va ko‘nikmalar majmui emas, balki shaxsning motivatsion, emotsional, ijtimoiy va refleksiv xususiyatlarining integratsiyalashgan ko‘rinishidir. Shu sababli, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni har bir talabaning individualligi, faoliyatga munosabati va ichki tayyorgarligini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, motivatsiya darajasi kasbiy rivojlanishning bosh omili bo‘lib, talabaning o‘qishga bo‘lgan ichki qiziqishi, maqsadlarni aniq belgilashi va mustaqil o‘rganishga tayyorligi kompetensiyalarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kommunikativ ko‘nikmalar va muloqot madaniyatining rivojlanganligi talabaning jamoada ishlash qobiliyatini, o‘z fikrini asoslab berish va kasbiy vaziyatlarni to‘g‘ri tahlil qilish imkoniyatini ta’minlaydi.

Shuningdek, refleksiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘z faoliyatidagi xatolarni tahlil qilish, o‘zini baholash va kelgusi faoliyatni rejalashtirishda ustunlikka ega bo‘lishadi. Emotsional barqarorlik esa stressli vaziyatlarda bosimga bardosh berish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va muloqotda barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Bu komponentlarning barchasi talabaning kelajakdagi kasbiy kompetent mutaxassis sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun psixologik yondashuvlarning uyg‘unligi, interaktiv treninglar, refleksiv mashqlar, kommunikativ o‘yinlar, motivatsion dasturlar va professional yo‘naltirish tizimining mavjudligi zarurdir. Bu jarayonni sifatli tashkil etish ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni, psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirishni va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga doimiy yordam berishni talab qiladi.

Natijada, talabalarda shakllangan kasbiy kompetensiyalar nafaqat ularning o‘quv faoliyatida, balki real amaliyotda ham muvaffaqiyatli ishlashga, jamiyat ehtiyojlariga mos keluvchi raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – Москва, 2003.
2. Raven J. Competence in Modern Society. Oxford: Oxford Psychologists Press, 1997.
3. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва: Смысл, 2005.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2004.
5. Super D. The Psychology of Careers. New York: Harper & Row, 1957.
6. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
7. Toshpo‘latov Sh., Jabborov A., Rasulov M. Kasbiy rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

Ashurova Sitora Erkinovna
PhD student of Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: sita.ashurova@gmail.com

THE LEXICOGRAPHY OF SPECIALIZED TERMINOLOGY: ANALYSIS OF HORTICULTURAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *This article explores the lexicography of professional terminology within the IMRAD framework, emphasizing the processes of compiling, structuring, and standardizing terminological dictionaries. It discusses the theoretical foundations of terminological lexicography, methods of systematizing specialized vocabulary, and the role of comparative and descriptive analysis in organizing professional terms. The paper also highlights the importance of lexicographic tools in various fields, particularly in linguistics, horticulture, and technical sciences, while illustrating how dictionaries serve as both a result and a tool of lexicological studies. Practical implications of term dictionaries for researchers, teachers, and students are also considered.*

Key words: *terminology, lexicography, specialized dictionary, standardization, comparative analysis, descriptive method, professional vocabulary, linguistics.*

ЛЕКСИКОГРАФИЯ СПЕЦИАЛЬНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ: АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ САДОВОДСТВА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье рассматривается лексикография профессиональной терминологии в рамках структуры IMRAD, уделяя внимание процессам составления, систематизации и стандартизации терминологических словарей. Анализируются теоретические основы терминологической лексикографии, методы систематизации специализированной лексики, а также роль сравнительного и описательного анализа в организации терминов. Особое внимание уделяется значению лексикографических ресурсов в различных областях, в частности в лингвистике, садоводстве и технических науках. Подчеркивается, что словари выступают как результат, так и инструмент лексикологических исследований. Рассматриваются практические возможности использования терминологических словарей исследователями, преподавателями и студентами.*

Ключевые слова: *терминология, лексикография, специализированный словарь, стандартизация, сопоставительный анализ, описательный метод, профессиональная лексика, языкознание.*

MAXSUS TERMINOLOGIYA LEKSIKOGRAFIYASI: INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI BOG'CHILIK TERIMLARINI TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada IMRAD uslubi asosida soha terminlari leksikografiyasi o‘rganilgan bo‘lib, terminologik lug‘atlarni tuzish, tizimlashtirish va standartlashtirish jarayonlariga e’tibor qaratilgan. Terminologik leksikografiyaning nazariy asoslari, maxsus lug‘atlarni tuzish usullari, shuningdek, terminlarni tartibga solishda taqqoslovchi va tavsifiy tahlilning o‘rni yoritib berilgan. Maqolada lug‘atlarning lingvistika, bog‘dorchilik va texnik fanlardagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi hamda ular leksikologik tadqiqotlarning ham natijasi, ham vositasi ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, terminologik lug‘atlardan tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va talabalar uchun amaliy foydalanish imkoniyatlari ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *terminologiya, leksikografiya, ixtisoslashtirilgan lug‘at, standartlashtirish, qiyosiy tahlil, tavsif usuli, kasbiy lug‘at, tilshunoslik.*

Introduction. Terminology is one of the most rapidly developing areas of linguistics, as it directly reflects the progress of science, technology, and culture. Every scientific field forms its own

terminological system, which requires systematic description and standardization. The study of terminology in linguistics is closely connected with lexicology and lexicography, since terms must be recorded, explained, and classified in dictionaries. However, as noted by Z. I. Komarova (1991, p. 25), there is still no single universal definition of the term "term," and scholars interpret it differently depending on the field of study.

Terminological lexicography is a branch of applied lexicography that deals with the collection, description, systematization, and presentation of special terms in dictionaries. According to E. Wüster (1979, pp. 41–43), the father of modern terminology, the standardization of terms is essential for scientific communication. M. Teresa Cabré (1999, pp. 33–35) also emphasizes that terminology should be studied both as a linguistic and cognitive phenomenon, since terms not only denote objects but also represent conceptual structures.

In Uzbek linguistics, terminological lexicography has also received attention. A. Madvaliev (2008, p. 112) points out that one of the main problems in Uzbek lexicography is the lack of systematized bilingual terminological dictionaries, especially in fields such as horticulture and agriculture. The "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" (2006, p. 104) provides definitions of many horticultural terms, but it lacks comparative equivalents in English. This creates challenges for translators, researchers, and practitioners.

Horticultural terminology is particularly important because it reflects centuries-old agricultural traditions and modern innovations. Terms such as "ampelografiya", "bachki", "nav", and "na’matak" are widely used in Uzbek horticultural practice, and their accurate description in dictionaries is essential for both theoretical linguistics and practical agriculture. Bahodir Karimov (2020, pp. 72–73) stresses that precise understanding of terms helps farmers apply correct techniques in pruning, grafting, and planting.

The aim of this paper is to analyze the lexicography of horticultural terms in English and Uzbek within the framework of IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion). The study employs eight methods of lexicographic analysis: descriptive, comparative, etymological, semantic, structural, contextual, terminographic, and relevance to horticulture. The results contribute to the development of bilingual lexicographic resources and enhance the standardization of specialized terminology.

Methods. The research employs eight complementary methods of lexicographic analysis that allow for a multidimensional study of terms:

1. Descriptive method – provides a scientific explanation of the meaning of the term.
2. Comparative method – analyzes the English equivalent of the Uzbek term.
3. Etymological method – traces the origin of the term.
4. Semantic (component) analysis – examines the components of meaning within the term.
5. Structural (morphological) analysis – studies the word-formation structure of the term.
6. Contextual analysis – investigates how the term functions in real texts (academic, professional, or colloquial).
7. Terminographic method – looks at how the term is represented in dictionaries.
8. Relevance to horticulture – shows the practical significance of the term for the field of horticulture.

Data for the research were collected from Uzbek and English dictionaries, textbooks, and scientific works, including "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" (2006), B. Karimov’s "Bog‘dorchilik asoslari" (2020), and specialized English horticultural glossaries. Selected terms were analyzed according to the above-mentioned methods, and dictionary definitions were compared across languages.

Results

In this section, several horticultural terms are analyzed in detail:

1. Ampelografiya (Ampelography)

1	Descriptive:	The study of grapevine varieties based on leaf, cluster, and berry morphology.
2	Comparative:	Eng. Ampelography – scientific description of grape varieties.

3	Etymological:	From Greek ampelos (vine) + grapho (write).
4	Semantic:	Components – grapevine + description/science.
5	Structural:	Formed by root (ampelo-) + suffix (-grafiya).
6	Contextual:	Used in viticulture to classify grapevine cultivars.
7	Terminographic:	Defined in “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006, p. 104).
8	Relevance:	Important for grape breeding and wine industry.

2. Bachki (Side shoot / water sprout)

1	Descriptive:	A lateral branch growing on a tree trunk or vine that is usually removed.
2	Comparative:	Eng. Water sprout / side shoot.
3	Etymological:	Native Uzbek word, related to “bachka” (small offshoot)
4	Semantic:	Meaning – “extra branch not useful for yield.”
5	Structural:	Simple root word.
6	Contextual:	In horticultural practice, bachki shoots are pruned to ensure fruit development.
7	Terminographic:	Mentioned in Karimov (2020, pp. 72–73).
8	Relevance:	Crucial for proper pruning techniques.

3. Nav (Variety / cultivar)

1	Descriptive:	A plant group with stable hereditary traits.
2	Comparative:	Eng. variety, cultivar.
3	Etymological:	From Persian nau – “new, type.”
4	Semantic:	Meaning components – plant + distinct hereditary traits.
5	Structural:	Simple word.
6	Contextual:	Used in breeding and seed production.
7	Terminographic:	Defined in “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (2006, p. 104).
8	Relevance:	Relevance: Basis of plant breeding and agricultural classification.

4. Na’matak (Rosehip / wild rose)

1	Descriptive:	A wild shrub with red berries, used in medicine and horticulture.
2	Comparative:	Comparative: Eng. Rosehip (fruit), wild rose (plant).
3	Etymological:	Persian origin.
4	Semantic:	Meaning – wild rose + fruit with medicinal value.
5	Structural:	Compound word (nam + atak in historical roots).
6	Contextual:	Used in folk medicine and modern horticulture.
7	Terminographic:	Listed in Uzbek dictionaries.
8	Relevance:	Important for landscape design and pharmacology.

Discussion. The analysis shows that Uzbek horticultural terms often lack direct equivalents in English, which creates challenges in translation and dictionary-making. For example, the term “bachki” has two possible English equivalents (“water sprout” and “side shoot”), depending on context. Similarly, “nav” can be translated as “variety” or “cultivar”, with subtle differences in meaning. This demonstrates the need for context-sensitive bilingual terminological dictionaries.

Another challenge is synonymy and polysemy within terminology. In Uzbek, the same concept may be expressed by multiple terms (e.g., “nav” and “tur”), while in English, standardized usage is preferred. According to Cabré (1999, p. 34), terminological consistency is essential for effective communication between specialists.

The study also reveals structural differences. Uzbek terms are often native or borrowed from Persian, while English terms are mainly of Greek or Latin origin. This etymological divergence requires careful lexicographic treatment to ensure accuracy.

Finally, modern lexicography increasingly relies on electronic and digital resources. As Madvaliev (2008, p. 115) notes, the development of online bilingual terminological dictionaries is

vital for education, research, and practice. For horticulture, specialized glossaries with definitions, illustrations, and equivalents would greatly facilitate international cooperation.

Conclusion. This study demonstrates that the lexicography of specialized terminology, particularly in horticulture, requires a systematic and multidimensional approach. The eight methods of analysis provide comprehensive insights into the meaning, structure, and usage of terms. Comparative study of English and Uzbek terms highlights semantic gaps, synonymy, and etymological differences.

The results underline the necessity of bilingual horticultural dictionaries that incorporate detailed definitions, contextual usage, and standardized equivalents. Such resources would not only contribute to linguistic research but also support agricultural practice and international communication.

As Wüster (1979, p. 42) emphasized, "terminology is the foundation of scientific communication." Therefore, the lexicography of horticultural terms should continue to develop in both theoretical and practical directions, ensuring accurate representation and effective usage across languages.

References.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – T.: O'zME, 2006. – 104-bet.
2. Karimov, B. "Bog'dorchilik asoslari". – T.: 2020. – 72–73-betlar.
3. Komarova, Z. I. "Terminovedenie" . – Moskva: Vysshaya shkola, 1991. – 25-bet.
4. Cabré, M. T. "Terminology: Theory, Methods and Applications". – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – pp. 33–35.
5. Wüster, E. "Einführung in die Allgemeine Terminologielehre und Terminologische Lexikographie". – Wien: Springer, 1979. – pp. 41–43.
6. Madvaliev, A. " O'zbek tilining terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari" . – Toshkent: Fan, 2008. – pp. 112–115.

Bayjonov Furqat Baxramovich
Oriental universiteti dotsenti

QIZLARNI OILAGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining pedagogik jihatlarini o‘rganadi. Oila va jamoatchilik o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni tashkil etish orqali, qizlarga oilaviy hayotni tashkil etish, ularni oilaviy munosabatlar va oilaviy xo‘jalikni boshqarish kabi amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish muhimligini ta’kidlaydi. O‘zbekiston Respublikasida oilaning mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati va oilalarni qo‘llab-quvvatlash, shu bilan birga, ta’lim, tibbiyot, huquqshunoslik va boshqa sohalarda amaliy yordamni tashkil etish kerakligi ko‘rsatilgan. Ushbu maqola qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila, ta’lim muassasalari, jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni muvaffaqiyatli tashkil etishning tamoyillarini, usullarini va tajribalarini o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *qizlarni tayyorlash, mustaqil oilaviy hayot, pedagogika, oila va jamoatchilik hamkorligi, ijtimoiy tarbiya, oila muhitida tarbiya, oilaviy munosabatlar, amaliy ko‘nikmalar.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *Данная статья рассматривает педагогические аспекты процесса подготовки девушек к самостоятельной семейной жизни. Подчеркивается важность обучения девушек организации семейного быта, формированию семейных отношений и управлению семейным хозяйством посредством творческого сотрудничества между семьёй и общественностью. Отмечается необходимость государственной политики, направленной на укрепление института семьи в Республике Узбекистан, поддержку семей, а также организацию практической помощи в сфере образования, медицины, юриспруденции и других областях. В статье изучаются принципы, методы и опыт успешного взаимодействия семьи, образовательных учреждений, общественности и государственных органов в подготовке девушек к самостоятельной жизни.*

Ключевые слова: *подготовка девушек, самостоятельная семейная жизнь, педагогика, сотрудничество семьи и общества, социальное воспитание, воспитание в семье, семейные отношения, практические навыки.*

PEDAGOGICAL ASPECTS OF PREPARING GIRLS FOR FAMILY LIFE

Abstract. *This article explores the pedagogical aspects of preparing girls for independent family life. It emphasizes the importance of teaching girls practical skills such as organizing family life, managing family relationships, and handling household affairs through creative collaboration between the family and the community. The paper highlights the need for state policies in the Republic of Uzbekistan aimed at strengthening the family institution, supporting families, and providing practical assistance in education, healthcare, law, and other areas. The article examines the principles, methods, and experiences of effective cooperation among families, educational institutions, the community, and government bodies in preparing girls for independent living.*

Key words: *preparation of girls, independent family life, pedagogy, family and community cooperation, social education, upbringing in the family, family relations, practical skills.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridayoq Respublika hukumati tomonidan oilalar mustahkamligini ta’minlash, farovonligini oshirish, oila muhitida har jihatdan yetuk, komil insonni tarbiyalash masalalarining davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanishi bu borada qator ijobiy ishlarni amalga oshirishga imkon beradi. Jamoatchilik imkoniyatlari, shuningdek, nomlari yuqorida qayd etib o‘tilgan muassasalarning faoliyat yo‘nalishlari mazmuni bilan tanishib chiqish asosida qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va

jamoatchilik o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik samarali natijalarni beradi degan xulosaga keldik. Qizlarni mustaqil hayoga tayyorlash borasida oila va jamoatchilik o‘rtasida ijodiy hamkorlikni qaror toptirishdan ko‘zlangan maqsad-qizlarga oilaviy hayotni tashkil etish, oilada sog‘lom muhitni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari haqida ma’lumotlar berish, ularda oilaviy munosabatlarni tashkil etish hamda oila xo‘jaligini yuritish borasida muayyan amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, bu yo‘lda oilaga nazariy va amaliy jihatdan yordam ko‘rsatish, oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Bizning nazarimizda, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasidagi oila va jamoatchilik hamkorligini qo‘yidagi yo‘nalishlarda olib borish so‘z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimga ega bo‘lishini ta’minlaydi[1]:

1. Oilada qizlar tarbiyasini tashkil etish, ularda ijtimoiy-g‘oyaviy, axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, estetik, gigienik hamda sog‘liqni saqlash borasidagi nazariy bilimlarni oshirish, shuningdek, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish imkonini beruvchi manbalar bilan ta’minlash, uslubiy yordam ko‘rsatish.

2. Muayyan masalalarda mutaxassis maslahati hamda amaliy yordami (masalan, huquqshunos, psixolog, pedagog, iqtisodchi hamda tibbiyot xodimlari tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘mak)ni uyushtirish.

3. Ota-onalar ishtirokida qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammolariga bag‘ishlangan suhbat, uchrashuv, seminar, ma’ruza va bahsmunozaralarni tashkil etish.

4. Qizlarda zukkolik, donolik, chaqqonlik, uddaburonlik, tashabbuskorlik kabi xislatlar, shuningdek, nafosat his tuyg‘ularini tarbiyalashga yordam beruvchi turli tanlovlarni o‘tkazish.

5. Qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash borasidagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirish.

Oila va jamoatchilik o‘rtasida yuzaga kelgan hamkorlikning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, mavzu doirasida yuzaga kelgan muammolarni o‘z vaqtida ko‘ra olish, ularni o‘z vaqtida hal etishga intilish, muayyan muammolarni hal etishda hamjihatlik ko‘rsatish, mukammal ishlab chiqilgan dastur asosida faoliyat yuritish, ilg‘or tajribalarni aniqlash va ularni ommalashtirishning tezkor amalga oshirilishi kabi holatlar qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda borasida bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Demak, qizlarni mustaqil hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik o‘rtasida ijodiy hamkorlikni yuzaga keltirish davr talabi sanaladi. Zero, qizlarning barkamol, yetuk inson bo‘lib yetishishlari, ularning tafakkur va dunyoqarashining kengayishi samarali, maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan ijtimoiy tarbiya natijasi sanaladi. Oilada tarbiyalanayotgan bolalarning ma’naviy-axloqiy kamoloti ota-onalarning hayotiy tajribasi, ma’naviy axloqiy qiyofasi, bilim hamda pedagogik mahoratga egalik darajasi ta’sirida yuzaga kelsada, mazkur jarayonda oilalar va ularda olib borilayotgan tarbiya mazmunining jamiyat tomonidan qo‘llab quvvatlanayotganligiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq. Shu bois oila va jamoatchilik o‘rtasida qaror topgan ijtimoiy hamkorlik oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish, oila muhitida kamol topayotgan farzandlarning ijtimoiylashuvi, ya’ni, davlat, jamiyat, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning o‘zaro aloqalari asosida tashkil etiluvchi ijtimoiy munosabatlar mazmunini chuqur anglab yetish, fuqarolik burchlari va haq huquqlarini bilish imkoniyatini yaratadi. Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida oila hamda jamoatchilik hamkorligi asosida tashkil etiladigan faoliyat subyektlari sifatida oila, mahalla fuqarolar Kengashi, ta’lim muassasalari (umumiy o‘rta ta’lim maktablari, kasb hunar kollejlari, akademik litseylar, qo‘shimcha ta’lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlari), mahalla (tuman, shahar, viloyat, Respublika) xotin qizlar Qo‘mitasi, turli kasbiy yo‘nalishlarda muayyan ixtisosliklar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishni yo‘lga qo‘yayotgan o‘quv markaz (kurs)lari (xususan, “Mashhura”, “Halima”, “Zukko” hamda turli madaniyat saroylari qoshida faoliyat yurituvchi o‘quv markaz (kurs)lari, shuningdek, ommaviy axborot nashrlari (xususan, “Saodat”, “Mashhura”, “Sanam”, “Yosh kuch” kabi jurnallar, “Turkiston”, “Oila va jamiyat” kabi gazetalar) ishtirok etadilar. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni subyektlarining faoliyatlari quyidagi mazmunda namoyon bo‘ladi[2]:

1. Nikoh va oila munosabatlari, oilaviy hayotni tashkil etish, uy xo‘jaligini boshqarish, oila a’zolari o‘rtasidagi muomala (qaynota-kelin, qaynona-kelin, qaynsingil-kelin, qayni-kelin, turmush o‘rtog‘i va ayol, ona va bolalar) ni tashkil etish, turli taom va pishiriqlar pishirish, mehmon kutish, tikish bichish ishlarini bajara olish, oila a’zolari salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, shaxsiy

gigiyenani saqlash qoidalari xususida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lish, shaxsiy gigiyenani saqlash (xususan, hayz sikli davrida o'zini tutish qoidalariga amal qilish), biologik qovushishning mohiyatini tushunish, tartibsiz intim munosabatlarining inson organizmiga salbiy ta'siri, turli xil tanosil (venerologik) kasalliklar zaxm (sifilis), so'zak, shankr, trixomonoz, granulema, SPID, shuningdek, bepushtlik kabi kasalliklarning keltirib chiqaruvchi omillar, ushbu kasalliklar kelib chiqishining oldini olish chora tadbirlari (xususan, nikohdan oldin kelin hamda kuyovlarning maxsus tibbiy ko'rikdan o'tishlarini ta'minlash), ixtiyorsiz homiladorlikning oldini olish, farzandlar tarbiyasini yo'lga qo'yish, oila byudjetini yaratish, undan oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish kabi masalalar yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni berishga qaratilgan ma'ruza, seminar, trening, suhbat, uchrashuv, ko'rik tanlov, bahs, munozara va davra suhbatlarini tashkil etish, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi mavzular yuzasidan esa ota-onalar hamda qizlar o'rtasida tushuntirish, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish.

2. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida oilalarga amaliy metodik yordam ko'rsatish, ya'ni, ta'lim hamda tibbiy muassasalari, davlat turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi nashriyotlar, chunonchi, Abu Ali ibn Sino nomidagi, Fan, o'qituvchi va Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotlari) kabi subyektlar, shuningdek, tadqiqot etilayotgan yoki turdosh muammolar yuzasidan tadqiqotchilar tomonidan olib borilayotgan izlanishlar mohiyati, yakunlari to'g'risidagi ilmiy, ilmiy ommabop, ommabop hamda metodik asarlarning yaratilishiga erishish, mavjud muammolar bo'yicha mutaxassis psixolog, pedagog, huquqshunos, fiziolog va tibbiyot xodimlarining yordamlarini uyushtirish.

3. Oila muhitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ko'zga tashlangan muammolarni barataraf etishga qaratilgan davolash (profilaktik) yoki tiklash (reabilitatsiya) ishlarini yo'lga qo'yish (qizlarda balog'at yoshi davrida yuzaga kelgan ayrim ginekologik kasalliklarning oldini olish, davolash (profilaktika) ishlarini tashkil etish, oilalarni bu borada moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlash.

Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida oila, mahalla, ta'lim va tibbiy muassasalar, davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida tashkil etiladigan faoliyat muvaffaqiyati quyidagi quyidagi tamoyillarga amal qilingan sharoitda ta'minlanadi[3]:

1. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining ishtirokchilari bo'lgan subyektlar faoliyatidagi maqsad birligi hamda ular imkoniyatlarining yagona maqsad sari yo'naltirilganligi.

2. Mazkur subyektlar tomonidan olib borilayotgan faoliyat mazmunining g'oyaviyligi hamda ilmiy dalillar bilan boyitilganligi.

3. Nazariy bilimlarni berishga qaratilgan tadbirlar mazmunidan amaliy faoliyat ko'nikma va malakalarni hosil qiluvchi metodlarning o'rin olishi.

4. Oila muhitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatning tizimli, uzviy hamda maqsadga muvofiq tashkil etilishi.

5. Oila muhitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qizlarning yosh, psixologik, fiziologik hamda individual xususiyatlarini inobatga olish.

6. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida muayyan subyektlar faoliyatini o'zaro uyg'unlashtira olish va mazkur faoliyatlarni ularning mazmuniga ko'ra qo'llab-quvvatlanishi hamda rag'batlantirilishiga erishish.

7. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida joylarda qo'lga kiritilgan yutuq va tajribalarni ommalashtirish.

Oila, mahalla, ta'lim hamda tibbiy muassasalar, shuningdek, ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi ijodiy hamkorlik asosida yo'lga qo'yiluvchi qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyat muvaffaqiyatini quyidagi obyektiv va subyektiv omillar mavjudligi kafolatlaydi:

1. Qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasining muayyan jamiyatda ijtimoiy muammo sifatida e'tirof etilishi.

2. Oila muhitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini samarali yo'lga qo'yish imkonini beruvchi pedagogik shart sharoitlarning yaratilganligi.

3. Ota-onalarning qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining nazariy hamda amaliy asoslari to‘g‘risida yetarli darajada bilim, shuningdek, boy hayotiy tajribaga ega ekanliklari.

4. So‘z yuritilayotgan jarayon ishtirokchilari hisoblangan subyektlarning o‘z faoliyatlari yo‘nalishlari va mazmuniga tayangan holda bir birlarini moddiy, ma’naviy, metodik hamda kasbiy malaka nuqtai nazaridan qo‘llab quvvatlay olishlari.

5. Ommaviy axborot vositalarining xizmatlaridan oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida tashkil etilayotgan jarayonda unumli, samarali foydalanish.

6. Qizlarda oilaviy hayot, uning mohiyati, mustahkam oilani shakllantirish, oila a’zolari o‘rtasida samimiy, o‘zaro ishonch va hamfikrlilik va hamkorlikka asoslangan oilaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish borasida muayyan tushunchalarga ega bo‘lish, pazandalik, tikish bichish ishlarining sir asrorlarini o‘rganish, shaxsiy gigiyena, shuningdek, oila a’zolarining sog‘liklarini saqlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish borasidagi qiziqish va ehtiyojlar yuzaga kelishi hamda ularni qondirish yo‘lida amaliy faoliyatlarning tashkil etilishi, ya’ni, muammo doirasida uyushtirilayotgan tadbirlarning samaradorligini oshirishga yordam beruvchi shaxsiy tashabbuslarning ilgari surilishi, qizlarni mustaqkam oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining ishtirokchilari bo‘lgan subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarga nisbatan qizlarda aks ta’sir va ijtimoiy faolliklarining namoyon bo‘lishi.

Mamlakatimizda yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda shu jamiyatning fuqarolari bo‘lgan ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunday xislatlarga ega bo‘lgan barkamol shaxs esa oilada shakllanadi. Shuning uchun ham jamiyat mustahkam, sog‘lom oila bo‘lishidan manfaatdordir.

Haqiqatan ham, har bir shaxs dastlab oilada shakllanadi va o‘zi tarbiya topgan oila an’analari uning hayotida jamiyat taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oilani mustahkamlash, bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muammolardan hisoblanmoqda. Zero, oila har bir xalqning an’analari, milliy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazib, ularning rivojlanishiga yordam beradigan, avlodlar uzviyligini ta’minlaydigan, unda kamol topayotgan har bir yoshni zamon talabi darajasida barkamol etib tarbiyalaydigan ijtimoiy institutdir.

Zero, oila – mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon ajdodlarimiz tajribasini o‘zlashtirish orqali amalga oshadi. Oiladagi sog‘lom muhit – milliy mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o‘zaro hurmat va ahillikni ta’minlash – milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi. Ba’zi yoshlar bu ta’sirga berilganligining sabablaridan biri ko‘pchilik ota-onalar bu zararli oqimlarga qarshi bo‘la turib, uning mohiyatini o‘z farzandlariga tushuntira olmaganlar. Chunki farzand tarbiyasi har doim jamiyat ijtimoiy hayotidagi muhim masalalardan biridir. Ota-ona farzandlarining kelajakda jamiyatda tutadigan o‘rnini aniq his eta olsa, uni to‘g‘ri tarbiyalashga harakat qiladi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar oilaviy hayotni ham chetlab o‘tmaydi. U farzandlar tarbiyasiga ham ta’sir etib, uning shakllanishi, kerak bo‘lganda Vatan ravnaqi, oila sha’ni uchun kurashib, illatlarga murosasiz, mard va jasur insonlar bo‘lib yetishishiga imkoniyat yaratadi. Ana shunda farzandlar tarbiyasida otaonalarning xalq pedagogikasiga tayanishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Холматова М. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш омиллари. -Т.: 2000.- 21 б.
2. Xalilova Sh.T. O‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.f.n. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2001. – 22 b.
3. Sultonova G. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo‘llari. //Uzluksiz ta’lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. –T.: №3, 2023. 40-42 betlar.

Jabborova Malohat Azimovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALAR AKADEMIK O‘ZLASHTIRISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI: SHAXSIY, KOGNITIV VA EMOTSIONAL OMILLAR INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalar akademik o‘zlashtirishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik determinantlar – shaxsiy, kognitiv va emotsional omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Maqolada shaxsiy xususiyatlar (mas’uliyatlilik, o‘ziga ishonch, motivatsiya), kognitiv jarayonlar (diqqat, xotira va boshqa jarayonlar) hamda emotsional holatlar (stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritib beriladi. Psixologik determinantlarning integratsiyalashgan holda namoyon bo‘lishi talabaning o‘quv faoliyatidagi samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlarning ahamiyatini oshirish va talabalar akademik muvaffaqiyatini ta’minlashda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *akademik o‘zlashtirish, psixologik determinantlar, shaxsiy xususiyatlar, kognitiv jarayonlar, emotsional barqarorlik, motivatsiya, stressni boshqarish, integratsiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ АКАДЕМИЧЕСКОЙ УСПЕШНОСТИ СТУДЕНТОВ: ИНТЕГРАЦИЯ ЛИЧНОСТНЫХ, КОГНИТИВНЫХ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ КОМПОНЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье системно анализируются основные психологические детерминанты, влияющие на академическую успеваемость студентов, а именно личностные, когнитивные и эмоциональные факторы. В исследовании раскрывается взаимосвязь между личностными характеристиками (ответственность, уверенность в себе, мотивация), когнитивными процессами (внимание, память и другие процессы) и эмоциональными состояниями (стрессоустойчивость, эмоциональная стабильность). Научно обосновывается, что интегрированное проявление психологических детерминант способствует повышению эффективности учебной деятельности студентов. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости усиления значимости психологических подходов в образовательном процессе и применения комплексного подхода для обеспечения академической успешности студентов.*

Ключевые слова: *академическая успеваемость, психологические детерминанты, личностные характеристики, когнитивные процессы, эмоциональная стабильность, мотивация, управление стрессом, интеграция.*

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF ACADEMIC PERFORMANCE AMONG STUDENTS: INTEGRATION OF PERSONAL, COGNITIVE, AND EMOTIONAL VARIABLES

Annotation. *This article provides a systematic analysis of the main psychological determinants affecting students’ academic achievement, including personal, cognitive, and emotional factors. The study examines the interrelationship between personal characteristics (responsibility, self-confidence, motivation), cognitive processes (attention, memory, and other processes), and emotional states (stress resilience, emotional stability). It is scientifically substantiated that the integrated manifestation of psychological determinants enhances the effectiveness of students’ learning activities. The research findings highlight the importance of strengthening psychological approaches in the educational process and demonstrate the necessity of a comprehensive approach to ensuring students’ academic success.*

Key words: *academic achievement, psychological determinants, personal characteristics, cognitive processes, emotional stability, motivation, stress management, integration.*

Kirish. Akademik o‘zlashtirish — bu talabaning bilim, ko‘nikma, malaka va ularni amaliy qo‘llash qobiliyatlarini egallash darajasini ifodalovchi murakkab psixologik-pedagogik jarayondir. Bu jarayon faqatgina o‘qitish sifati bilan belgilanmaydi, balki talabaning shaxsiy xususiyatlari, kognitiv jarayonlari va emotsional holatlari kabi psixologik determinantlarning murakkab integratsiyasi orqali shakllanadi. Bu determinantlar o‘zaro o‘zini to‘ldiruvchi va ta’sir ko‘rsatadigan omillar bo‘lib, talabalar o‘rtasida akademik natijalarning katta farqlanishiga olib keladi.

Psixologik determinantlar talabaning akademik muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim ichki omillar majmui bo‘lib, ular shaxsiy, kognitiv va emotsional komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu determinantlar talabaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati, ichki motivatsiyasi, fikrlash jarayonlari, stressga chidamliligi hamda emotsional intellekt darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Psixologik determinantlar insonning xulq-atvori, fikrlashi, motivatsiyasi va hissiy holatiga ta’sir ko‘rsatib, uning akademik va kasbiy faoliyatidagi samaradorligini belgilaydi. Determinantlarning integratsiyasi esa turli psixologik omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shaxsning ichki resurslari faollashib, yuqori natijalarga erishish imkonini beradigan murakkab jarayon hisoblanadi.

Talabalarning akademik o‘zlashtirishiga ta’sir etuvchi psixologik determinantlar tarkibiga birinchi navbatda shaxsiy xususiyatlar kiradi. Intizom, mas’uliyat, qat’iyatlilik, ochiqlik va ijtimoiylik kabi sifatlar talabaning o‘quv jarayonidagi barqarorligini ta’minlaydi. Shaxsiy xususiyatlar insonning o‘zini boshqarish qobiliyati, stress va qiyinchiliklarga munosabati hamda kundalik vazifalarni samarali bajarishida namoyon bo‘ladi. Stressga chidamlilik, vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olish kabi shaxsiy psixologik resurslar akademik muvaffaqiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, doimiy stress va salbiy emotsiyalar o‘quv jarayonidagi natijalarni pasaytirishi mumkin.

Kognitiv determinantlar talabaning bilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, diqqat, idrok, xotira va tafakkur kabi psixik funksiyalarning rivojlanganlik darajasini qamrab oladi. Ushbu jarayonlar samarali ishlaganda talaba bilimni tezroq va chuqurroq o‘zlashtiradi, muammolarni tahlil qilish va yechim topishda faol bo‘ladi. Motivatsion determinantlar esa talabaning maqsad sari intilishini belgilaydi. Ichki motivatsiya o‘quv faoliyatidan shaxsiy qoniqish olish, bilimga qiziqish va o‘zini rivojlantirish istagi bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya baholar, stipendiya, mukofot yoki ijtimoiy rag‘batlar orqali shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan ichki motivatsiya akademik muvaffaqiyatning barqaror va uzoq muddatli omili hisoblanadi.

Emotsional va stress bilan bog‘liq determinantlar talabaning akademik faoliyatidagi muhim tarkibiy qismlardan biridir. Emotsional barqarorlik, moslashuvchanlik va stressni boshqarish qobiliyati yuqori bo‘lgan talabalar murakkab vaziyatlarda ham samarali ishlashga qodir bo‘ladi. Psixologik determinantlar integratsiyalashgan holda namoyon bo‘lganda shaxsning umumiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Masalan, kognitiv determinantlar va motivatsiyaning uyg‘unlashuvi bilimni tez va samarali o‘zlashtirishga olib keladi, shaxsiy xususiyatlar va emotsional barqarorlik esa qiyinchiliklar oldida qat’iyatni kuchaytiradi. Metakognitiv ko‘nikmalar bilan motivatsiyaning integratsiyasi esa o‘z bilish jarayonini boshqarish va maqsadga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, shaxsiy, kognitiv va emotsional determinantlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, talabaning akademik o‘zlashtirishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori ichki motivatsiya shaxsiy qat’iyat va emotsional barqarorlikni mustahkamlab, kognitiv jarayonlarning samarali ishlashiga yordam beradi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar motivatsiya, stress darajasi, shaxsiy xususiyatlar, kognitiv strategiyalar va emotsional intellekt talabalarning akademik muvaffaqiyatini ta’minlovchi yetakchi omillar ekanini tasdiqlaydi. Ushbu omillarning o‘zaro integratsiyasi talabaning individual muvaffaqiyat profilini shakllantirib, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda optimallashtirish imkonini beradi.

Shaxsiy psixologik omillar akademik muvaffaqiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida talabaning maqsadga erishishini osonlashtiradi. O‘z-o‘zini boshqarish va motivatsiya talabaning bilim olishi va topshiriqlarni vaqtida bajarishiga yordam beradi. O‘qish davomida yuzaga keladigan

charchoq va stressni kamaytiradi, moslashuvchan va stressni boshqarish qobiliyatiga ega talabalar imtihonlar paytida osonroq konsentratsiya qiladilar. Qiyinchiliklar oldida qat'iyatni oshiradi, o'ziga ishonch akademik muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan qat'iyatni shakllantiradi. Ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi, psixologik resurslar yangi g'oyalar yaratish va muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. O'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, ichki motivatsiya va psixologik barqarorlik talabalarni faol va izchil o'rganishga undaydi.

Shaxsiy psixologik xususiyatlar talabaning akademik muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Ular qiyinchiliklarni yengib o'tish, o'rganish jarayonini samarali boshqarish va maqsadga erishish uchun asos bo'ladi.

2. Kognitiv determinantlar. Kognitiv determinantlar – bu insonning bilim olish, fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir qiluvchi ichki psixologik omillar. Ular shaxsning kognitiv (bilish) jarayonlarini shakllantiradi va motivatsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin.

Kognitiv determinantlar talabaning bilish jarayonlari (diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur) bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonlar talabaning ma'lumotni qabul qilish, eslab qolish va qo'llash qobiliyatlarini belgilaydi. Diqqatning yo'naltirilishi, metakognitiv strategiyalar va muammolarni hal etish ko'nikmalari akademik natijalarga bevosita ta'sir qiladi.

Talabaning kognitiv motivatsiyasi — bu bilim olishga bo'lgan ichki intilish bo'lib, u o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, shu bilan birga metakognitiv strategiyalar o'quv jarayonini nazorat qilish va rejalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

3. Emotsional determinantlar. Emotsional intellekt — bu o'z va boshqalar his-tuyg'ularini idrok etish, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Emotsional intellekt yuqori bo'lgan talabalar stressli vaziyatlarda ham o'z faoliyatini barqaror davom ettiradi va o'quv jarayonida ijobiy natijalarga erishadi. Emotsional intellekt talabalarning akademik yutug'iga va psixologik farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Emotsional holat va akademik natijalar. Talabalarning kayfiyati, stress darajasi va umumiy psixologik holati ularning akademik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Salbiy emotsiyalar — motivatsiyaning pasayishi, konsentratsiyaning pastligi va natijada akademik natijalarning pasayishi bilan bog'liq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalar akademik o'zlashtirishining samaradorligi nafaqat intellektual salohiyatga, balki shaxsiy, kognitiv va emotsional omillarning o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishiga ham bevosita bog'liqdir. Shaxsiy motivatsiya va o'ziga ishonch kognitiv jarayonlarni faollashtirsa, emotsional barqarorlik va stressni boshqarish qobiliyati o'quv jarayonidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishda muhim rol o'ynaydi. Psixologik determinantlarning integratsiyasi talabaning o'z-o'zini boshqarish, bilimlarni chuqur o'zlashtirish va akademik muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli, ta'lim tizimida talabalarning psixologik resurslarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control.1997.
2. Zimmerman, B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement.2002.
3. Петровский А.В., Ярошевский М. Г. Психология. 2015. Москва: Издательство «Академия».
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 2018. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
5. Jalolov J.J. Pedagogik psixologiya. 2020. Toshkent: "Innovatsiya–Ziyo" nashriyoti.
6. Jabborova M.A. Исследование детерминант академической успеваемости студентов в мировой психологии // «Вестник интегративной психологии». Выпуск 30, 2023. г. Бухара - Ярославль. №29. – С. 456-460.
7. Jabborova M.A. Talabalar akademik o'zlashtirishining psixologik determinantlari dolzarb muammo sifatida // "Tarbiya va ta'lim jarayonining ijtimoiy hamda pedagogik-psixologik muammolari: taklif va yechimlar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. - Toshkent. 2022 y. - B. 263-267.

Rajabov Murodil Jumaboyevich
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA “QORA” VA “YORQIN” SHAXS UCHLIKLARINING MANIPULYATIV STRATEGIYALARI

Annotatsiya. *Maqolada shaxsning manipulyativ xulqi “qora uchlik” (Makiavellizm, narsissizm, psixopatiya) va “yorqin uchlik” (insonparvarlik, fazilatparvarlik, kantianizm) konstruktlari asosida tahlil qilingan. “Qora uchlik” strategiyalari qisqa muddatli foyda va ishonchsizlikni kuchaytirsa, “yorqin uchlik” hamkorlik va ishonchni mustahkamlaydi. O‘zbekiston sharoitida bu konstruktlarning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi va sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs psixologiyasi; manipulyatsiya; qora uchlik (Dark Triad); yorqin uchlik (Bright Triad); shaxslararo munosabatlar; ijtimoiy psixologiya; ishonch; hamkorlik; milliy qadriyatlar.*

МАНИПУЛЯТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ ТРИАД "ТЕМНОЙ" И "СВЕТЛОЙ" ЛИЧНОСТИ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. *В статье анализируется манипулятивное поведение личности на основе конструктов "тёмной триады" (макиавеллизм, нарциссизм, психопатия) и "светлой триады" (гуманизм, добродетельность, кантианство). Стратегии "тёмной триады" усиливают краткосрочную выгоду и недоверие, в то время как "светлая триада" укрепляет сотрудничество и доверие. Освещено значение этих конструктов в гармонизации с национальными ценностями и формировании здоровой социальной среды в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *психология личности; манипуляция; тёмная триада (Dark Triad); светлая триада (Bright Triad); межличностные отношения; социальная психология; доверие; сотрудничество; национальные ценности.*

MANIPULATIVE STRATEGIES OF THE "DARK" AND "LIGHT" PERSONALITY TRIADS IN INTERPERSONAL RELATIONSHIPS

Annotation. *This article analyzes manipulative behavior of individuals based on the constructs of the "Dark Triad" (Machiavellianism, narcissism, psychopathy) and the "Bright Triad" (humanism, virtue, Kantianism). The strategies associated with the "Dark Triad" enhance short-term gain and foster distrust, while the "Bright Triad" reinforces cooperation and trust. The significance of these constructs in harmonizing with national values and shaping a healthy social environment in the context of Uzbekistan is highlighted.*

Key words: *personality psychology; manipulation; Dark Triad; Bright Triad; interpersonal relationships; social psychology; trust; cooperation; national values.*

Psixologiyada shaxsning manipulyativ xulqi va uning shaxslararo munosabatlarga ta’siri zamonaviy tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Insonlararo muloqot jarayonida ongli yoki ongsiz tarzda turli xil ta’sir o‘tkazish, o‘z manfaatini ilgari surish, boshqalarni boshqarish yoki, aksincha, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash kabi mexanizmlar namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, “qora shaxs uchligi” (Dark Triad) va “yorqin shaxs uchligi” (Bright Triad) konstruktlari zamonaviy psixologiyada shaxsning ijtimoiy aloqalardagi xatti-harakatlarini tushuntirishda muhim ilmiy asos sifatida qo‘llanilmoqda.

Mazkur konstruktlar ilk bor 2002-yilda kanadalik olimlar Delroy L. Paulhus va Kevin M. Williams tomonidan ilmiy adabiyotga kiritilgan bo‘lib, ular shaxsning manipulyatsiyaga moyilligi, ijtimoiy strategiyalarni tanlash uslublari hamda muhitga ko‘rsatadigan psixologik ta’sirini ilmiy asosda tadqiq etish imkonini berdi. Keyingi yillarda bu tushunchalar turli mamlakatlarda shaxslararo

munosabatlar, ijtimoiy psixologiya, rahbarlik psixologiyasi hamda ta’lim va boshqaruv sohalarida qo‘llanila boshladi.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu masala alohida dolzarblik kasb etmoqda. Globallashuv va ijtimoiy hayotning tezkor o‘zgarishlari jarayonida shaxslararo munosabatlarning sifati nafaqat oilaviy muhit, balki ta’lim tizimi, mehnat jamoalari, davlat xizmatlari va fuqarolik jamiyati institutlarida ijtimoiy barqarorlik va o‘zaro ishonchni ta’minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan muhim normativ-huquqiy hujjatlar psixologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6099-sonli Farmoni (2020-yil, *“Ilm-fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”*) shaxs psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlar va inson omilini chuqur ilmiy tadqiq etishning strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjat psixologik tadqiqotlarda empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilish va natijalarni ilmiy jihatdan asoslab berish zaruratini kuchaytirdi. Shuningdek, PQ–3775-sonli Qaror (2018-yil, *“O‘zbekiston Respublikasida psixologik xizmatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*) amaliy psixologik xizmatlar tizimini rivojlantirish orqali shaxslararo munosabatlarda uchraydigan manipulyativ xulq-atvor, stress va ijtimoiy-psixologik muammolarning oldini olishga qaratilgan muhim vazifalarni belgilab berdi. Mazkur qaror psixologik tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirish, ularni real ijtimoiy muhitda qo‘llash imkonini kengaytirdi. Bundan tashqari, PF–5847-sonli Farmon (2019-yil, *“Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlar”*) hamda PQ–4348-sonli Qaror (2019-yil, *“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va psixologik xizmatlarni rivojlantirish”*) ta’lim muassasalarida psixologik muhitni sog‘lomlashtirish, yoshlar orasida samarali muloqot madaniyatini shakllantirish, manipulyatsiya va agressiv xulq-atvorning oldini olishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar psixologik tadqiqot natijalarini tizimli ravishda tavsiflash va ularni ilmiy-amaliy nashrlar orqali keng jamoatchilikka yetkazish zaruratini yanada dolzarb etmoqda.

Shaxsning “qora” va “yorqin” uchliklari orqali namoyon bo‘ladigan manipulyativ xulq shakllarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bir tomondan, bu tadqiqotlar ijtimoiy muhitda salbiy manipulyatsiya oqibatlarini yumshatish va ularning oldini olishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ijobiy manipulyatsiya (rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash, ilhomlantirish) mexanizmlarini rivojlantirish orqali jamiyatda hamjihatlik, o‘zaro ishonch va barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi [2]

Bu jihatlar quyidagi jadvalda “Qora uchlik” va “Yorqin uchlik”ning shaxslararo munosabatlardagi **manipulyatsiya strategiyalari** orqali aniqroq ko‘rinadi:

1-jadval.

“Qora” va “Yorqin” shaxs uchliklarining shaxslararo munosabatlarda manipulyatsiya strategiyalari

Asosiy mezon	Qora shaxs uchligi (Dark Triad)	Yorqin shaxs uchligi (Bright Triad)
Tarkibiy unsurlar	**Makiavellizm, narsissizm, psixopatiya**. Paulhus & Williams (2002) ta’riflaganidek, bu xususiyatlar shaxsning manipulyatsiya va o‘z manfaatini ustun qo‘yishga moyilligini belgilaydi [4].	**Insonparvarlik, fazilatparvarlik (halollik), kantianizm**. Kaufman va boshq. (2019) “Bright Triad”ni insonni qadrlash, ijtimoiy mas’uliyat va etik yondashuv bilan bog‘laydi [9].
Manipulyatsiya yo‘nalishi	Shaxsiy foydani maksimal qilish, boshqalardan foydalanish. Jonason & Webster (2010) tadqiqotlariga ko‘ra, qora uchlik egalari ko‘proq “qaramlik yaratish” va “ustunlikni saqlash”ga intiladi [7].	O‘zaro manfaat yaratish, qo‘llab-quvvatlash. Hughes (2018) ta’kidlaganidek, yorqin uchlik egalari ijtimoiy aloqalarda “win-win” tamoyiliga amal qiladi [6].
Kommunikatsiya uslubi	Qorqitish, aldash, emotsional bosim. Baughman va boshq. (2012) qora uchlik egalari ko‘pincha “yashirin psixologik o‘yinlar” orqali boshqarishini isbotlagan [1].	Ochiq muloqot, samimiylik, rag‘batlantirish. Roberts (2019) ijobiy psixologiya asosida yorqin uchlik shaxslar atrofidagilarda ishonch uyg‘otishini ko‘rsatgan]4[.

Ta’sir strategiyasi	Instrumental – boshqalarni vosita sifatida ko‘radi. Pilch & Turska (2015) qora uchlik egalari ko‘pincha tashkilotlarda “instrumental aloqa”ni qo‘llashini aniqlagan [13].	Hamkorlik – boshqalarni sherik sifatida qadrlash. Peterson (2020) yozishicha, yorqin uchlik shaxslar ijtimoiy kapitalni mustahkamlash orqali samarali jamoa yaratadi [12].
Qisqa muddatli natija	Tezkor foyda, ammo uzoq muddatda ishonch yo‘qoladi. Campbell va boshq. (2005) narsissistik xatti-harakatlar dastlab jozibador bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan salbiy baholanadi [2] .	Barqaror ishonch va hamjihatlik. Kaufman (2019) ta’kidlaganidek, yorqin uchlik uzoq muddatli barqaror ijtimoiy ishonch yaratadi[9] .
Munosabatlarga ta’siri	Konfliktlar, ishonchsizlik, manipulyatsiyaga qarshi himoya reaksiya. Jones & Paulhus (2011) qora uchlik shaxslar ko‘proq nizoli va toksik aloqalarga moyilligini ko‘rsatgan [8].	Sog‘lom muhit, qo‘llab-quvvatlash, hamjihatlik. Diener (2018) yorqin uchlik egalari boshqalarga ijobiy emotsional ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan [3].
Psixologik oqibat	Boshqalarda xavotir, shubha, o‘zini qadrsiz his qilish. Hare (1999) psixopatiya yuqori bo‘lgan shaxslar bilan aloqada odamlar ko‘pincha o‘zini “manipulyatsiya qilingan” deb his qiladi [5].	Boshqalarda ishonch, motivatsiya, ijobiy o‘zini baholash. Fredrickson (2001) “broaden-and-build” nazariyasi orqali ijobiy ta’sir salomatlik va ishonchni mustahkamlaydi, deya ta’kidlaydi [4].
O‘zbekiston sharoitida ko‘rinishi	Oilada “avtoritar nazorat”, tanqid orqali hukmronlik, jamoalarda esa formal rahbarlikning “zo‘r berish” shakli. Bu Paulhus (2014) nazariyasidagi “dominant manipulyatsiya”ga yaqin 10.	Mahalla qadriyatlari asosida qo‘llab-quvvatlash, mehr-shafqat, maslahat va o‘zaro yordam. Bu “yorqin uchlik”ning ijtimoiy muhitda milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi.

“Qora” va “Yorqin” shaxs uchliklarining shaxslararo munosabatlarda manipulyatsiya strategiyalarini keng ma’noda tahlil qilinganga ular quyidagicha namoyon bo’ladi.

Psixologiyada shaxsning manipulyativ xatti-harakatlarini tushuntirishda “qora shaxs uchligi” (Dark Triad) va “yorqin shaxs uchligi” (Bright Triad) konstruktlari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. “Qora shaxs uchligi” tushunchasi ilk bor Delroy L. Paulhus va Kevin M. Williams (2002) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u uchta asosiy shaxsiy xususiyatni o‘z ichiga oladi: makiavellizm, narsissizm va psixopatiya [10, 421–426]. Makiavellizm – ijtimoiy aloqalarda manipulyativ strategiyalarni ongli qo‘llash, maqsad sari har qanday yo‘l bilan intilish va boshqalarni vosita sifatida ko‘rish bilan tavsiflanadi. Narsissizm – o‘zini markazda ko‘rish, yuqori darajadagi o‘zini qadrlash va doimiy ravishda e’tibor va maqtov kutish bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat ko‘pincha “ideal qiyofa yaratish” orqali manipulyatsiyada namoyon bo‘ladi. Psixopatiya esa empatiyaning pastligi, emotsional sovuqlik va ijtimoiy qoidalarga bepisand munosabat bilan xarakterlanadi. Bunday shaxslar ko‘pincha tahdid, qo‘rqitish yoki bevosita nazorat orqali boshqalarga ta’sir ko‘rsatadi (Hare, 1999; Paulhus & Williams, 2002) [11, 421–426].

Aksincha, “yorqin shaxs uchligi” Kaufman va hamkorlari (2019) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u shaxsning ijobiy ijtimoiy fazilatlarini aks ettiradi [9]. Bu uchlik uch asosiy tamoyilni qamrab oladi: insonparvarlik (gumanizm), fazilatparvarlik (halollik, shaffoflik) va kantianizm. Insonparvarlik – mehr-shafqat, qo‘llab-quvvatlash va boshqalarni qadrlash orqali ijtimoiy aloqalarda konstruktiv ta’sir o‘tkazish; fazilatparvarlik esa shaxsiy manfaatdan ustun tarzda adolat va halollikka sodiq qolish, shu orqali axloqiy namuna yaratish bilan bog‘liq. Kantianizm tamoyili esa Immanuil Kant etikasi asosida insonni hech qachon vosita emas, balki maqsad sifatida qabul qilishni, hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishni ifodalaydi (Kaufman et al., 2019). Demak, qora uchlik shaxsning manipulyatsiyaga moyilligini va boshqalarni ekspluatatsiya qilish xususiyatini ifodalasa, yorqin uchlik insoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlikka asoslangan ta’sir strategiyalarini belgilaydi [9].

Qora uchlik vakillari manipulyatsiyani, avvalo, shaxsiy foydani maksimal darajada ta’minlash vositasi sifatida qo‘llashadi. Ularning asosiy strategiyasi boshqalarni qaram qilish, o‘z ustunligini saqlab qolish va shaxsiy manfaat hisobiga boshqa tomonlarni ekspluatatsiya qilishdan iborat.

Jonason va Webster (2010) tadqiqotlariga ko‘ra, qora uchlik yuqori bo‘lgan shaxslar manipulyativ xatti-harakatlarni ongli ravishda tanlaydi va ular uchun boshqalar ko‘proq “vosita” sifatida xizmat qiladi [7, 420–432]. Bu turdagi manipulyatsiya qisqa muddatli foyda keltirishi mumkin, ammo uzoq muddatda ijtimoiy aloqalarni buzadi va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Yorqin uchlik vakillari esa mutlaqo boshqa yondashuvga ega bo‘lib, manipulyatsiyani ijobiy psixologik ta’sir shaklida qo‘llashadi. Ularning asosiy maqsadi – o‘zaro manfaat yaratish, sog‘lom hamkorlikni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy ishonchni mustahkamlashdir. Hughes (2018) buni “win-win” strategiyasi deb ta’riflaydi, chunki u tomonlarning har ikkisi yoki hatto ko‘pchiligi uchun foydali natijani ta’minlaydi [6, 673–689]. Bunday manipulyatsiya klassik salbiy ma’noda emas, balki rag‘batlantirish, ilhomlantirish va ishonchni oshirish shaklida namoyon bo‘ladi.

“Qora” va “yorqin” shaxs uchliklarining kommunikatsiya va ta’sir strategiyalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning shaxslararo munosabatlarda qo‘llaydigan usullari keskin farq qiladi. Qora uchlik vakillari odatda yashirin va manipulyativ kommunikatsiya uslublarini qo‘llashadi. Ularning muloqotida qo‘rqitish, aldash, emotsional bosim va “psixologik o‘yinlar” ustuvor o‘rin tutadi. Baughman va hamkorlarining (2012) tadqiqotlari buni isbotlab, qora uchlik shaxslari ijtimoiy aloqalarda ongli ravishda manipulyativ til va yashirin strategiyalardan foydalanishini ko‘rsatadi [1, 537-540]. Natijada ular o‘zlariga vaqtincha ustunlik beruvchi, ammo uzoq muddatda ishonchsizlik va ziddiyatlarni kuchaytiruvchi kommunikatsiya modelini shakllantiradilar. Aksincha, yorqin uchlik egalari ochiq muloqot, samimiylik va ijobiy motivatsiya orqali ta’sir ko‘rsatishga intiladi. Roberts (2019) ta’kidlaganidek, bunday shaxslar atrofidagilarda ishonch uyg‘otuvchi va konstruktiv ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi kommunikatsiya uslubidan foydalanadilar [4].

Ta’sir strategiyalarida ham ikki uchlik keskin farq qiladi. Qora uchlik vakillari odatda instrumental yondashuvni qo‘llashadi, ya’ni boshqalarni shaxsiy maqsad sari olib boruvchi vosita sifatida ko‘radilar. Pilch va Turska (2015) o‘z tadqiqotlarida buni tashkilot kontekstida isbotlab, qora uchlik shaxslar “instrumental aloqa” orqali hamkasblarni faqat o‘z manfaatlari uchun yo‘naltirishini qayd etishgan. Yorqin uchlik esa buning aksi bo‘lib, hamkorlik strategiyasiga asoslanadi. Ular boshqalarni sherik sifatida qadrlaydi va birgalikda faoliyat yuritishni ijtimoiy kapitalni oshirish vositasi deb biladilar. Peterson (2020) fikricha, yorqin uchlikning bu yondashuvi nafaqat individual, balki jamoaviy rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u ijtimoiy ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi [12, 109–117].

Qisqa muddatli natijalarga e’tibor qaratilganda, qora uchlik manipulyatsiyasi odatda tezkor foyda keltiradi. Ularning jozibador yoki dominant ko‘rinadigan xulqi dastlab ijobiy taassurot uyg‘otishi mumkin. Campbell va hamkorlari (2005) narsissistik xatti-harakatlar misolida shuni isbotlaganki, dastlabki joziba vaqt o‘tishi bilan salbiy baholanishga, ishonchsizlik va uzoq muddatli aloqalarning yemirilishiga olib keladi [2, 1358–1368]. Yorqin uchlik esa aksincha, qisqa muddatli daromadni emas, balki barqaror ishonch, hamjihatlik va ijtimoiy barqarorlikni shakllantiradi. Kaufman va hamkorlarining (2019) tadqiqotlarida qayd etilishicha, yorqin uchlik asosidagi strategiyalar uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlik va ijobiy psixologik muhitni yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [9].

Shaxslararo munosabatlarda “qora uchlik”ning oqibatlari ko‘pincha konfliktlar, o‘zaro ishonchsizlik va manipulyatsiyaga qarshi himoya mexanizmlarining faollashuvi bilan ifodalanadi. Jones va Paulhus (2011) o‘z tadqiqotlarida qora uchlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar ko‘proq nizoli, toksik va hissiy jihatdan beqaror aloqalarda ishtirok etishini qayd etishgan [8, 249–268]. Ularning muloqoti va ijtimoiy strategiyalari ko‘pincha boshqa insonlarning himoya reaktsiyasini qo‘zg‘atadi: masalan, o‘zini himoya qilish, hissiy masofa saqlash yoki hatto qarshi manipulyatsiyaga murojaat qilish. Natijada, ijtimoiy aloqalar chuqurlashmaydi, balki beqaror va ziddiyatli tus oladi.

Aksincha, “yorqin uchlik” shaxslar sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular qo‘llab-quvvatlash, mehr-muruvvat va hamjihatlikka tayanadi. Diener (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijobiy emotsiyalar nafaqat individual farovonlikni, balki ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishini ham ta’minlashi ilmiy asoslab berilgan [3, 210–219]. Shunday qilib, yorqin uchlikning ta’siri ijtimoiy kapitalni oshirish, konstruktiv hamkorlikni rivojlantirish va jamoaviy birdamlikni mustahkamlashda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qora uchlik vakillari bilan uzoq muddatli aloqalar insonning psixologik salomatligiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday shaxslar bilan muloqotda bo‘lgan insonlarda

ko‘pincha xavotir, doimiy shubha va o‘zini qadrsiz his qilish holatlari kuchayadi. Hare (1999) psixopatiya ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan shaxslar bilan munosabatlar odatda boshqalarda “manipulyatsiya qilingan” va “ekspluatatsiya qilingan” hissini kuchaytirishini qayd etgan. Bu esa o‘z navbatida, emotsional charchoq, stress va ijtimoiy ishonchsizlikni kuchaytiradi.

Yorqin uchlik vakillari bilan o‘zaro munosabat esa mutlaqo boshqa psixologik oqibatlarni yuzaga keltiradi. Ular ishonchni mustahkamlaydi, motivatsiyani oshiradi va ijobiy o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi. Fredrickson (2001) tomonidan ishlab chiqilgan “broaden-and-build” nazariyasiga ko‘ra, ijobiy emotsiyalar insonning kognitiv va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytiradi, sog‘lom o‘zaro munosabatlarni rivojlantiradi hamda ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi. Shunday qilib, yorqin uchlik asosidagi aloqalar nafaqat individual, balki jamoaviy farovonlikka ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4, 218–226].

O‘zbekiston jamiyatida qora uchlikning namoyon bo‘lish shakllari ko‘proq oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda kuzatiladi. Oilaviy kontekstda bu avtoritar nazorat, qattiq tanqid va emotsional bosim ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Jamoalarda esa u rasmiy rahbarlikning “zo‘r berish” yoki haddan tashqari buyruqbozlik shaklida namoyon bo‘ladi. Ushbu holatlar Paulhus (2014) tomonidan ta’riflangan “dominant manipulyatsiya” modeliga yaqin bo‘lib, shaxsning o‘z ustunligini saqlab qolishga qaratilgan strategiyalardan dalolat beradi.

Biroq, yorqin uchlikning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan shakllari ham mavjud. Mahalla institutlari, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari va oilaviy qadriyatlar asosida shakllangan qo‘llab-quvvatlash, mehr-shafqat, maslahat va o‘zaro yordam madaniyati yorqin uchlikning ijtimoiy hayotdagi yaqqol ko‘rinishlaridan biridir. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, jamiyatda o‘zaro ishonch va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, O‘zbekiston sharoitida yorqin uchlik qadriyatlari milliy an’analar bilan uyg‘unlashgan holda ijobiy ijtimoiy va psixologik muhitni shakllantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Baughman H. M., Jonason P. K., Lyons M., Vernon P. A. Liar liar pants on fire: Cheater strategies linked to the Dark Triad // Personality and Individual Differences. – 2012. – Vol. 52(5). – P. 537–540.

2. Campbell W. K., Bush C. P., Brunell A. B., Shelton J. Understanding the social costs of narcissism: The case of the tragedy of the commons // Personality and Social Psychology Bulletin. – 2005. – Vol. 31(10). – P. 1358–1368.

3. Diener E. Happiness and well-being: Integrating research across disciplines // Journal of Positive Psychology. – 2018. – Vol. 13(3). – P. 210–219.

4. Fredrickson B. L. The role of positive emotions in positive psychology: The broaden-and-build theory of positive emotions // American Psychologist. – 2001. – Vol. 56(3). – P. 218–226.

5. Hare R. D. Without conscience: The disturbing world of the psychopaths among us. – New York: Guilford Press, 1999. – 236 p.

6. Hughes J. Bright-side personality traits and cooperative strategies in social interactions // Journal of Personality and Social Psychology. – 2018. – Vol. 115(4). – P. 673–689.

7. Jonason P. K., Webster G. D. The Dirty Dozen: A concise measure of the Dark Triad // Psychological Assessment. – 2010. – Vol. 22(2). – P. 420–432.

8. Jones D. N., Paulhus D. L. Differentiating the Dark Triad within the interpersonal circumplex // Handbook of interpersonal psychology / Eds. L. M. Horowitz, S. Strack. – Hoboken, NJ: Wiley, 2011. – P. 249–268.

9. Kaufman S. B., Yaden D. B., Hyde E., Tsukayama E. The Light vs. Dark Triad of personality: Contrasting two very different profiles of human nature // Frontiers in Psychology. – 2019. – Vol. 10. – Article 467.

10. Paulhus D. L. Toward a taxonomy of dark personalities // Current Directions in Psychological Science. – 2014. – Vol. 23(6). – P. 421–426.

11. Paulhus D. L., Williams K. M. The Dark Triad of personality: Narcissism, Machiavellianism, and psychopathy // Journal of Research in Personality. – 2002. – Vol. 36(6). – P. 556–563.

Sobirov Feruz Xalil o'g'li
Buxoro xalqaro universiteti Tarix yo'nalishi o'qituvchisi,
Islomov Nurullo Nurali o'g'li
Buxoro xalqaro universiteti Tarix yo'nalishi talabasi

ISLOM DINING O'ZBEKISTONGA KIRIB KELISHI VA O'ZBEK ULAMOLARNING ILMIY MEROSI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Islom dining O'zbekiston hududiga kirib kelish jarayoni, bu davrda shakllangan ilmiy muhit, o'zbek ulamolarining hayoti, ilmiy merosi hamda ularning jahon ilm-faniga qo'shgan hissasi tahliliy yoritiladi. Shu orqali O'zbekistonning islomiy sivilizatsiyadagi o'rni va roli yanada chuqurroq ochib beriladi O'zbekiston hududi qadimdan insoniyat sivilizatsiyasining markazlaridan biri hisoblanadi. Bu zaminda qadimiy shaharlar — Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz, Marv kabi ilm va madaniyat markazlari shakllangan. Har bir tarixiy davrda mazkur hududda turli e'tiqod va diniy qarashlar mavjud bo'lgan: zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik va boshqa diniy oqimlar bu yerda ma'lum davrlar davomida keng tarqalgan. Shu boisdan ham Markaziy Osiyo xalqlari tarixida din va ma'naviyat masalasi doimo muhim o'rin tutgan. Islom dini bu mintaqaga kirib kelgan davrdan boshlab xalq hayotining barcha jabhalarini-diniy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalarni tubdan o'zgartirdi. VIII asrda arab xalifaligi tomonidan boshlangan fathlar natijasida Islom dini Markaziy Osiyoga, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududiga kirib keldi. Biroq bu jarayon faqat harbiy yurishlar orqali emas, balki keyinchalik tinch yo'l bilan, savdogarlar, ulamolar va sayyohlar orqali ham keng tarqaldi. Natijada Islom dini nafaqat diniy e'tiqod sifatida, balki ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohalarining rivojiga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi.Islom dini insonni ma'rifat, adolat va haqiqat sari chorlovchi, ilmni esa eng yuksak qadriyat sifatida e'tirof etuvchi din sifatida xalq qalbiga chuqur kirib bordi. Qur'on oyatlarida "ilm izlash"ning fazilati ta'kidlangan bo'lib, bu tushuncha musulmon olimlari faoliyatining asosiy g'oyasiga aylandi. Shu boisdan ham IX–XII asrlar davomida O'zbekiston hududida ilm-fan, falsafa, huquq, tibbiyot, matematika, astronomiya va tilshunoslik sohalarida buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ularning asarlari nafaqat musulmon dunyosida, balki Yevropa va Osiyoda ham o'rganilgan va qadr topmoqda. Islom dining O'zbekistonga kirib kelishi jarayoni, ulamolarning ilmiy merosi va ularning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini o'rganish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biridir. Zero, bu mavzu nafaqat diniy yoki tarixiy ahamiyatga ega, balki milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni asrash va yosh avlodni ma'rifatparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *Quron, xalifalik, Islom, Imom Buxoriy, qori, fiqh, din, Movarounahr, Motrudiy*

ПРОНИКНОВЕНИЕ ИСЛАМА В УЗБЕКИСТАН И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ УЗБЕКСКИХ УЛЕМОВ

Аннотация. *В данной статье анализируется процесс проникновения ислама на территорию Узбекистана, сформировавшаяся в этот период научная среда, жизнь и научное наследие узбекских учёных, их вклад в мировую науку. Это позволит ещё больше раскрыть место и роль Узбекистана в исламской цивилизации. Территория Узбекистана издавна считалась одним из центров человеческой цивилизации. На этой земле древние города, такие как Бухара, Самарканд, Хива, Термез, Мерв, являлись очагами науки и культуры. В каждый исторический период в этом регионе существовали различные верования и религиозные воззрения: зороастризм, буддизм, манихейство, христианство и другие религиозные течения были широко распространены здесь в определённые периоды. Поэтому вопрос религии и духовности всегда играл важную роль в истории народов Центральной Азии. С того времени, как ислам проник в этот регион, он коренным образом изменил все стороны жизни людей - религиозную, культурную, социальную, политическую и духовную сферы. В результате завоеваний, начатых Арабским халифатом в VIII веке, ислам проник в Центральную Азию, в том числе на территорию современного Узбекистана. Однако*

этот процесс происходил не только военными походами, но и мирным путём – через купцов, учёных и путешественников. В результате ислам оказал огромное влияние не только как религиозное верование, но и на развитие науки, культуры и литературы. Ислам, как религия, призывающая людей к просвещению, справедливости и истине, признающая науку высшей ценностью, глубоко проник в сердца людей. В аятах Корана подчёркивается добродетель «стремления к знаниям», и эта концепция стала основной идеей деятельности мусульманских учёных. Поэтому в IX–XII веках в Узбекистане процветали выдающиеся учёные в области естественных наук, философии, права, медицины, математики, астрономии и лингвистики. Их труды изучаются и ценятся не только в мусульманском мире, но и в Европе и Азии. Изучение процесса проникновения ислама в Узбекистан, научного наследия учёных и их вклада в мировую цивилизацию остаётся одной из актуальных тем и сегодня. Ведь эта тема имеет не только религиозное и историческое значение, но и играет важную роль в осознании национальной идентичности, сохранении духовных ценностей и воспитании подрастающего поколения в духе просветительства.

Ключевые слова: *Коран, Халифат, Ислам, Имам Бухари, чтеец, юриспруденция, религия, Мавараннахр, Матруди,*

THE SPREAD OF ISLAM IN UZBEKISTAN AND THE SCIENTIFIC HERITAGE OF UZBEK SCHOLARS

Annotation. *This article analyzes the process of the introduction of Islam into the territory of Uzbekistan, the scientific environment formed during this period, the life and scientific heritage of Uzbek scholars, and their contribution to world science. This will further reveal the place and role of Uzbekistan in Islamic civilization. The territory of Uzbekistan has long been considered one of the centers of human civilization. On this land, ancient cities such as Bukhara, Samarkand, Khiva, Termez, and Merv formed centers of science and culture. In each historical period, various beliefs and religious views existed in this region: Zoroastrianism, Buddhism, Manichaeism, Christianity, and other religious movements were widespread here for certain periods. Therefore, the issue of religion and spirituality has always played an important role in the history of the peoples of Central Asia. Since the time when Islam entered this region, it has radically changed all aspects of people's life - religious, cultural, social, political, and spiritual spheres. As a result of the conquests initiated by the Arab Caliphate in the 8th century, Islam entered Central Asia, including the territory of present-day Uzbekistan. However, this process spread not only through military campaigns, but also later peacefully, through merchants, scholars and travelers. As a result, Islam had a huge impact not only as a religious belief, but also on the development of science, culture and literature. Islam, as a religion that calls people to enlightenment, justice and truth, and recognizes science as the highest value, has deeply penetrated the hearts of the people. The verses of the Quran emphasize the virtue of "seeking knowledge", and this concept has become the main idea of the activities of Muslim scientists. Therefore, during the 9th-12th centuries, great scholars in the fields of science, philosophy, law, medicine, mathematics, astronomy and linguistics flourished in Uzbekistan. Their works are studied and appreciated not only in the Muslim world, but also in Europe and Asia. The study of the process of the introduction of Islam into Uzbekistan, the scientific heritage of scholars and their contribution to world civilization is still one of the relevant issues today. After all, this topic is not only of religious or historical importance, but also plays an important role in understanding national identity, preserving spiritual values, and educating the younger generation in the spirit of enlightenment.*

Key words: *Quran, Caliphate, Islam, Imam Bukhari, reciter, jurisprudence, religion, Mawarounahr, Matrudi*

Islom dinining o‘zbekistonga kirib kelishi va ilk bosqichlar.

Islom dini O‘zbekiston hududiga VIII asrning boshlarida, aniqrog‘i 712-yilda Arab xalifaligi qo‘mondonlaridan biri — Qutayba ibn Muslim al-Bahiliy tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar natijasida kirib keldi. Bu davrda Movarounnahr (Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi hudud) o‘zining

mustaqil shahar-davlatlari bilan mashhur edi. Xorazm, Buxoro, Samarqand, Termiz, Shosh (Toshkent) kabi shaharlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan, o‘ziga xos e’tiqod va qadriyat tizimiga ega markazlar edi.Arablar dastlab bu hududga siyosiy va harbiy maqsadlarda kirib kelgan bo‘lsalar-da, ularning asosiy maqsadi Islom dinini yoyish va yagona diniy-ideologik birlikni ta’minlash edi. Shu sababli, dastlab Islom dini kuch ishlatish yo‘li bilan joriy etildi. Ammo keyinchalik, mahalliy aholi orasida bu dinning insonparvarlik, adolat va ma’naviyatga asoslangan g‘oyalari asta-sekin qabul qilina boshladi. Shu tariqa Islom dini mintaqaning ijtimoiy-madaniy hayotiga singib bordi.Islom dini kirib kelganidan so‘ng, Movarounnahr xalqlari hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Birinchidan, arab tili diniy va ilmiy til sifatida tarqala boshladi. Qur’on, hadis, fiqh (shariat huquqi), tafsir (Qur’on sharhi), aqida (e’tiqod ilmi) kabi fanlar o‘qitila boshlandi. Ikkinchidan, madrasalar, masjidlar, kutubxonalar, vaqf (xayriya) tizimlari tashkil etildi. Uchinchi jihatdan, Islom qadriyatlari asosida yangi axloqiy va huquqiy me’yorlar shakllandi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy hayotini tartibga solish, adolatli boshqaruvni ta’minlash va ilm-fan rivoji uchun zamin yaratdi.Dastlabki davrda Islom diniga qarshi ayrim qarshiliklar bo‘lgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan arab, fors va mahalliy turkiy xalqlar o‘rtasida madaniy uyg‘unlashuv yuz berdi. Natijada, Islom dini faqat tashqi e’tiqod emas, balki ichki dunyoqarash, axloq va madaniyat tizimi sifatida qabul qilindi. Bu jarayon natijasida Movarounnahr musulmon olamining eng muhim ilm-fan va ma’naviyat markazlaridan biriga aylandi.Islom dini kirib kelgan ilk asrlarda O‘zbekiston hududida Qur’on o‘qitiladigan maskanlar, hadis va fiqh o‘rganiladigan madrasalar faoliyat ko‘rsata boshladi. Shu bilan birga, arab tili bilan bir qatorda fors va turkiy tillarda ham diniy va ilmiy asarlar yaratilgan. Bu esa islom madaniyatining o‘zbek xalqi milliy madaniyatiga singib ketishiga olib keldi.VIII–X asrlarda O‘zbekiston hududida diniy ilmlar bilan bir qatorda tabiiy fanlar ham rivoj topdi. Islomning “ilm talab qilish har bir musulmonga farz” degan g‘oyasi xalq orasida keng yoyildi. Shu sababli, madrasalarda diniy fanlar bilan bir qatorda mantiq, tibbiyot, matematika, falsafa, astronomiya kabi sohalar ham o‘qitilgan.Arab istilosi natijasida shakllangan madaniy sintez — arab, fors va turkiy xalqlarning ilmiy hamkorligi tufayli O‘zbekiston islomiy dunyoning eng muhim markazlaridan biriga aylandi. X especially Buxoro, Samarqand va Termiz kabi shaharlar “Sharqning Bag‘dodi” deb atalgan darajada ilm-fan markaziga aylangan. Aynan shu muhitda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi buyuk allomalar yetishib chiqdi.Shunday qilib, Islom dinining O‘zbekistonga kirib kelishi faqat diniy tarixiy hodisa emas, balki mintaqa ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini butunlay o‘zgartirgan tarixiy jarayondir. Bu davrda shakllangan islomiy ilmiy muhit keyinchalik butun musulmon dunyosiga ta’sir ko‘rsatgan yuksak ilmiy maktablarning vujudga kelishiga asos bo‘ldi.

Islom davrida shakllangan ilmiy muhit va ulamolar yetishib chiqishining shart-sharoitlari.

Islom dini O‘zbekiston hududiga kirib kelgach, diniy hayot bilan bir qatorda ilmiy va ma’naviy muhit ham tubdan o‘zgardi. Islom dini insonni faqat ibodatga emas, balki tafakkur, o‘rganish, izlanish va ijodga chorlovchi din sifatida xalq qalbida mustahkam o‘rnashdi. Qur’on oyatlarida “ilm egallaganlar bilan bilmaganlar teng bo‘lurmi?” (Zumar surasi, 9-oyat) degan da’vat butun musulmon dunyosida, shu jumladan Movarounnahrda ham ilm-fan rivojiga kuchli turtki berdi. Madrasalar va ilmiy markazlar faoliyati IX–XII asrlarda Buxoro, Samarqand, Termiz, Marv, Nasaf (Qarshi) kabi shaharlar Islom sivilizatsiyasining eng yirik ilmiy markazlariga aylandi. Bu davrda madrasalar nafaqat diniy ta’lim beruvchi muassasalar, balki ilm-fanning turli sohalarini o‘rgatuvchi ilmiy akademiyalar vazifasini o‘tagan. Madrasalarda Qur’on, hadis, fiqh, tafsir, aqida bilan bir qatorda mantiq (manṭiq), falsafa (hikmat), astronomiya (hay’at), tibbiyot (tibb), algebra (hisob) va geometriya kabi fanlar o‘qitilgan. Buxoroda Somoniylar davrida madrasalar soni ko‘payib, ulamolar o‘rtasida ilmiy musobaqalar o‘tkazilgan. Samarqandda esa keyinchalik Amir Temur va Ulug‘bek davrida bu an’ana yangi bosqichga ko‘tarildi. Ulug‘bek madrasasi o‘z davrida Sharqning eng ilg‘or ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, unda nafaqat diniy ilmlar, balki matematika va astronomiya ham chuqur o‘rganilgan. Bu joyda Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va Ali Qushchi kabi olimlar faoliyat yuritgan. Madrasalarda o‘quv tizimi qat’iy intizom asosida tashkil etilgan. Talabalar (toliblar) bir necha bosqichda ta’lim olib, keyinchalik o‘qituvchilik darajasiga ega bo‘lgan. Ustoz-shogird an’anasi ulamolar orasida eng muhim ta’lim tizimi bo‘lgan. Bu tizim bugungi kungacha saqlanib, islomiy ta’limning poydevorini tashkil etadi. Kutubxonalar va yozma manbalar boyligi

Islom davrida yozma manbalar va kutubxonalar ilm-fan rivojida asosiy o‘rinni egallagan. Buxoro, Samarqand va Xorazmda yuzlab, ayrim manbalarda minglab qo‘lyozmalar to‘plangan kutubxonalar mavjud bo‘lgan. Bu kutubxonalar o‘z davrida bilimlar xazinasi hisoblangan. Masalan, Buxoro kutubxonasida arab, fors va turkiy tillarda yozilgan ilmiy risolalar, Qur’on tafsirlari, fiqh asarlari, tibbiyot, matematika, falsafa, mantiq va astronomiyaga oid qo‘lyozmalar saqlangan. O‘sha davrda kutubxona mudirlari (xazinachilar) ham o‘z davrining yetuk olimlari bo‘lgan. Ular kitoblarni tartibga solish, ko‘chirish va tarqatish bilan shug‘ullangan. Kitobat san’ati (qo‘lyozma nusxalar tayyorlash) ham aynan shu davrda rivoj topgan. Xattotlar (xatlar yozuvchi ustalar) Qur’on, hadis va ilmiy risolalarni nafis xatlar bilan ko‘chirib, ularni bezakli shaklda tayyorlaganlar. Bu madaniyat bugungi o‘zbek yozma merosining poydevorini yaratgan. Ilmiy munozaralar va fikr almashish madaniyati Islom olamida “bahs-munozara” madaniyati ilmiy taraqqiyotning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan. Har bir madrasa yoki majlisda olimlar o‘zaro ilmiy bahslar olib borishgan. Ular Qur’on tafsirlari, hadis rivoyatlari, fiqhiy masalalar, mantiqiy muammolar haqida fikr almashishgan. Bu an’ana talabalarning tafakkurini o‘tkirlashtirgan, mustaqil fikrlashni shakllantirgan va ilmiy aniqlikni oshirgan. Masalan, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abu Mansur Samarqandiy kabi allomalar o‘z davrida bahs-munozaralar orqali ilmiy ta’limotlarini boyitganlar. Bu an’ana keyinchalik Markaziy Osiyoda ilmiy tafakkurning mustahkamlanishiga katta hissa qo‘shdi.

Siyosiy hokimiyat tomonidan ilmga ko‘rsatilgan e’tibor.

Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar va Temuriylar davrida ilm-fan va ulamolarga nisbatan g‘oyat hurmat bilan munosabatda bo‘lingan. Masalan, Ismoil Somoniy Buxoroni ilm markaziga aylantirgan, ulamolar uchun madrasalar, masjidlar va kutubxonalar qurdirgan. Amir Temur esa har bir zabt etilgan shaharni faqat harbiy kuch bilan emas, balki ilm-fan bilan obod qilishga intilgan. U olimlarni o‘z saroyiga taklif etgan, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan. Ulug‘bek esa o‘z davrining eng yirik ilmiy akademiyasini tashkil etgan. Uning rahbarligida astronomiya sohasida noyob ilmiy natijalar qo‘lga kiritilgan. Ayniqsa, “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” asari o‘sha davrda dunyoda eng mukammal yulduz xaritasi sifatida tan olingan.

Ilm va din uyg‘unligi.

Islom davrida ilm va din bir-biriga zid emas, balki uyg‘un tushunchalar sifatida qaralgan. Ulamolar nafaqat diniy hukmlar bilan cheklanib qolmay, balki tabiat, inson va jamiyat haqidagi ilmlarni ham o‘rganganlar. Shu sababli, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Marg‘inoniy kabi olimlar diniy fanlar bilan bir qatorda mantiq, falsafa va tarix sohalarida ham chuqur izlanishlar olib borishgan. Shu tariqa, Islom davrida O‘zbekiston hududida ilm-fan rivoji uchun qulay ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy muhit yaratildi. Ulamolar nafaqat diniy sohada, balki ijtimoiy, tabiiy va falsafiy ilmlarda ham jahon miqyosidagi yutuqlarga erishdilar.

Mashhur o‘zbek ulamolari: hayoti, ilmiy faoliyati va merosi.

Islom dini kirib kelganidan so‘ng O‘zbekiston hududi musulmon olamining eng yirik ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Ayniqsa IX–XII asrlarda Movarounnahrda shakllangan diniy va ilmiy muhit buyuk allomalar yetishib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bu ulamolar o‘z davrida faqat diniy masalalar bilan emas, balki huquq, falsafa, axloq, mantiq, tarix, tibbiyot kabi fanlar bilan ham shug‘ullanganlar. Ularning asarlari bugungi kunda ham jahon islomshunoslik ilmida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Quyida o‘sha buyuk ulamolar hayoti, ilmiy faoliyati va ularning tarixiy merosi tahliliy tarzda yoritiladi.

Imom Buxoriy (810–870)

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy Islom olamining eng buyuk muhaddislaridan biridir. U 810-yilda Buxoro shahrida tug‘ilgan. Yoshligidan ilmga qiziqqan, Qur’onni yod olgan va hadis ilmini chuqur o‘rganishga kirishgan. 16 yoshida u onasi va akasi bilan haj safariga boradi va keyinchalik uzoq yillar davomida Makka, Madina, Damashq, Basra, Bag‘dod, Nishopur kabi shaharlarni kezib, hadis rivoyatchilaridan ilm o‘rganadi. Imom Buxoriy 600 mingdan ortiq hadisni to‘plagan, ularning ichidan 7 mingdan ortig‘ini “Sahih al-Buxoriy” nomli asariga kiritgan. Bu kitob hadis ilmi bo‘yicha eng ishonchli manba hisoblanadi. U har bir hadisni qabul qilishdan oldin raviylarning (rivoyatchilarning) ishonchliligini, ularning hayoti va obro‘sini chuqur o‘rgangan. Shu sababli uning metodologiyasi “muhaddislik ilmida oltin mezon” sifatida tan olingan. Imom Buxoriy

asarlarida inson axloqi, adolat, halollik va iymon masalalariga katta e'tibor bergan. U ilmni faqat nazariy emas, amaliy hayotda qo'llash kerakligini ta'kidlagan. "Sahih al-Buxoriy" asari bugungi kunda ham musulmon madrasalarida asosiy manba sifatida o'qitiladi. Uning merosi o'zbek xalqining diniy-ma'naviy hayotida chuqur iz qoldirgan.

Imom Termiziy (824–892)

Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy IX asrda yashagan buyuk hadis olimi va faqihdir. U Termiz shahrida tug'ilgan. Yoshligidan hadis ilmini o'rganishga kirishgan va Buxoro, Nishopur, Basra, Kufa, Makka kabi shaharlarni kezib ilm o'rgangan. U Imom Buxoriyning shogirdi bo'lib, hadis ilmining nozik jihatlarini aynan undan o'rgangan. Imom Termiziyning eng mashhur asari "Al-Jome' as-Sahih" yoki "Sunan at-Termiziy" bo'lib, u hadis ilmidagi oltita eng asosiy to'plamdan biri (Kutub as-Sitta) hisoblanadi. U hadislarni nafaqat rivoyat jihatidan, balki fiqhiy ma'nosi va amaliy ahamiyati bo'yicha ham tahlil qilgan. Shu sababli uning hadislarida diniy hukmlar bilan birga axloqiy va ijtimoiy saboqlar ham mujassam. Imom Termiziy o'z asarlarida hadislarni mantiqan izohlashga harakat qilgan, u "hadis orqali fiqhni anglash" tamoyilini ilgari surgan. Uning asarlari musulmon olamida hadis ilmining rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Imom Termiziy bugungi kunda ham O'zbekiston islomshunosligining faxridir.

Abu Mansur Moturidiy (870–944)

Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Moturidiy Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tug'ilgan. U islom aqida (e'tiqod) ilmining eng yirik namoyandalaridan biridir. Uning asos solgan Moturidiylik ta'limoti hozirgi Markaziy Osiyo, Turkiya, Kavkaz, Hindiston va boshqa mintaqalardagi millionlab musulmonlar e'tiqodining asosi hisoblanadi. Moturidiylik oqimi aql va vahiyni uyg'un holda tushuntiradi. Abu Mansur Moturidiy o'z asarlarida inson aqli orqali ham haqiqatni anglash mumkinligini ta'kidlaydi. U "Kitob at-Tavhid" asarida e'tiqod, qismat, inson erkinligi va Allohning adolati kabi masalalarni chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, inson o'z amallariga mas'ul va Alloh unga aql berib, to'g'ri yo'lni tanlash imkonini bergan. Moturidiylik maktabi O'zbekiston diniy tafakkurining asosini tashkil etadi. Ulamoning asarlari bugungi kunda ham islomiy ilohiyot fakultetlarida o'qitiladi. U nafaqat diniy, balki falsafiy tafakkur rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan.

Burhoniddin Marg'inoniy (1135–1197)

Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr al-Marg'inoniy XII asrda Marg'ilon shahrida tug'ilgan. U fiqh (islom huquqi) sohasida butun musulmon olamida tan olingan buyuk olimdir. U Buxoro va Samarqand madrasalarida tahsil olgan, keyinchalik fiqh ilmi bo'yicha mashhur mudarris (o'qituvchi) sifatida faoliyat yuritgan. Uning eng mashhur asari — "Al-Hidoya" ("Yo'l-yo'riq") bo'lib, bu fiqh ilmining eng mukammal qo'llanmalaridan biridir. Ushbu asar nafaqat diniy hukmlar tizimini, balki inson jamiyatidagi ijtimoiy va huquqiy masalalarni ham yoritadi. "Al-Hidoya" asari keyingi asrlar davomida musulmon huquqshunoslari tomonidan asosiy manba sifatida foydalanilgan. Bugungi kunda ham bu asar O'zbekiston, Pokiston, Hindiston va boshqa mamlakatlardagi islomiy universitetlarda o'qitilmoqda.Marg'inoniy o'z davrida faqat fiqhshunos emas, balki siyosiy tafakkur egasi sifatida ham tanilgan. U adolatli jamiyat qurilishi uchun shariatning ilmiy asosda qo'llanishini targ'ib qilgan. Ulamoning asarlari musulmon dunyosida qonuniylik va axloqiy tamoyillarni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan.

Shayx Muhammad Sodiq (XIX–XX asr)

Shayx Muhammad Sodiq — O'zbekistonning zamonaviy islomiy tafakkurida o'z o'rniga ega bo'lgan ma'rifatparvar ulamo. U XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan. Uning faoliyati Rossiya imperiyasi va sovet bosimi davrida ham islomiy qadriyatlarni saqlab qolish, diniy ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan. Shayx Muhammad Sodiq diniy maktablarda ta'lim bergan, ko'plab shogirdlarni tarbiyalagan va diniy-ma'rifiy risolalar yozgan. U o'z asarlarida Islom dinining insonparvarlik tamoyillarini, axloqiy poklikni, ilmning ahamiyatini targ'ib qilgan. Uning ta'limotlari milliy o'zlikni saqlash va diniy yangilanish g'oyalarini ilgari surgan. Ulamoning faoliyati o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muhitida diniy va ma'naviy uyg'onish jarayonida muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda ham Shayx Muhammad Sodiqning ma'naviy merosi O'zbekiston madaniy hayotida chuqur iz qoldirgan.

Shayx Alijon Qori (XX–XXI asr)

Shayx Alijon Qori O‘zbekistonning zamonaviy islomiy ta’lim va ma’naviyat sohasida mashhur ulamolardan biridir. U diniy ta’limni xalq orasida targ‘ib etish, yoshlarni ilm va axloq ruhida tarbiyalash bilan shug‘ullanadi. U ko‘plab diniy darsliklar, risolalar, va ma’ruzalar muallifi bo‘lib, ularning asosiy maqsadi — Qur’on va hadis asosida inson axloqini yuksaltirish, diniy savodxonlikni oshirishdir. Shayx Alijon Qori diniy masalalarni zamonaviy ijtimoiy hayot bilan uyg‘unlashtirish tarafdori sifatida tanilgan. Uning nutqlarida tinchlik, bag‘rikenglik, halollik va mehr-oqibat g‘oyalari doimo ilgari suriladi. Bugungi kunda Shayx Alijon Qori O‘zbekistonda islomiy ta’limni rivojlantirish, yoshlarni ekstremistik g‘oyalardan himoya qilish va sog‘lom diniy muhitni mustahkamlash yo‘lida faol ishlamoqda. U zamonaviy o‘zbek ulamolari orasida e’tiborli o‘ringa ega.

Ulamolarning ilmiy va diniy merosining hozirgi o‘rni.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar, diniy meros va tarixiy xotirani qayta tiklash jarayoni boshlandi. Uzoq yillar davomida e’tibordan chetda qolgan yoki taqiqlangan islomiy manbalar, qo‘lyozmalar va ulamolar merosi bugungi kunda yana ilmiy muomalaga qaytmoqda. Bu jarayon o‘zbek xalqining ma’naviy tiklanishida, milliy o‘zlikni anglashida va yosh avlodni ma’rifat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillikdan keyingi diniy-ma’naviy uyg‘onish 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, diniy ta’lim sohasida keng islohotlar amalga oshirildi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Moturidiy kabi buyuk allomalar merosini o‘rganish, ularning asarlarini qayta nashr etish va xalq orasida targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratildi. Imom Buxoriy nomidagi xalqaro markaz, Imom Termiziy ilmiy-tadqiqot markazi, Islom sivilizatsiyasi markazi kabi muassasalar tashkil etildi. Bu markazlarda ulamolar merosini chuqur ilmiy tahlil qilish, ularni zamonaviy talqin asosida xalqaro miqyosda targ‘ib etish ishlari olib borilmoqda. Bu jarayon O‘zbekistonning diniy-ma’naviy sohada mustaqil siyosat yuritayotganini, islomiy qadriyatlarni milliy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirishga intilayotganini ko‘rsatadi. Ulamolar merosining ta’lim tizimidagi o‘rni; Bugungi kunda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari, madrasalar va islomiy institutlarda buyuk ulamolarimizning asarlari o‘qitilmoqda. Toshkent islom instituti, Buxoro islom akademiyasi, Termiz davlat universitetining islomshunoslik fakulteti va boshqa ta’lim maskanlarida “Moturidiylik ta’limoti”, “Hadis ilmi”, “Fiqh asoslari”, “Islom falsafasi” kabi fanlar asosida chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda. Ulamolarning asarlari zamonaviy yoshlar uchun diniy saboq manbai bo‘lish bilan birga, ularni ilmga, halollikka, insonparvarlikka undaydi. Ayniqsa, Moturidiy ta’limotining asosiy g‘oyasi — aql va e’tiqod uyg‘unligi — bugungi globallashuv davrida diniy murosasozlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlarda joylashgan madrasalar va yangi qurilgan islomiy akademiyalar ulamolar merosini o‘rganish, qo‘lyozmalarni restavratsiya qilish va raqamlashtirish ishlari bilan shug‘ullanmoqda. Bu orqali asrlar osha yetib kelgan bilim xazinasi kelajak avlodga yetkazilmoqda.

Ulamolar merosining jamiyat hayotidagi ahamiyati

Bugungi O‘zbekiston jamiyatida ulamolar merosi nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va axloqiy yo‘nalishda ham katta o‘rin tutadi. Ularning asarlari insonparvarlik, adolat, halollik, tinchlik va mehr-oqibat g‘oyalarini ilgari suradi. Shu bois ulamolarning fikrlari zamonaviy axloqiy tarbiya, milliy mafkura va ma’naviy siyosatda ham asosiy manba sifatida qo‘llanilmoqda. Masalan, Imom Buxoriyning hadislaridagi “insonlar uchun eng yaxshisi — boshqalarga foydasi tegadiganidir” degan g‘oya bugungi kunda ham O‘zbekiston jamiyatida faol insonlik mezoni sifatida talqin etiladi. Marg‘inoniyning “Al-Hidoya” asarida esa adolat, huquq va inson erkinligi masalalari yoritilgan bo‘lib, bu tushunchalar hozirgi konstitutsion qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan. Ulamolar merosining xalqaro miqyosda tan olinishi. So‘nggi yillarda o‘zbek ulamolarining merosi xalqaro miqyosda keng e’tirof etilmoqda. Imom Buxoriy, Moturidiy va Marg‘inoniy nomidagi ilmiy konferensiyalar BMT, ISESCO, OIC (Islom hamkorlik tashkiloti) doirasida o‘tkazilib, ularning asarlari ingliz, arab, turk, fors va rus tillariga tarjima qilinmoqda. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan “Imom Moturidiy yili” deb e’lon qilinishi bu boradagi eng muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Shu munosabat bilan Samarqandda Moturidiy markazi qayta ta’mirlandi, uning “Kitob at-Tavhid” asari zamonaviy tarjimada nashr etildi. Ulamolar merosining xalqaro maydonda tan olinishiga sabab — ularning ilmiy yondashuvining umuminsoniy qadriyatlarga mosligi, bag‘rikenglik va aql-idrokka asoslanganligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy diniy ta’lim va ulamolar merosining uyg‘unligi

Bugungi kunda O‘zbekiston hukumati tomonidan diniy ta’lim tizimi yangicha yondashuv asosida rivojlantirilmoqda. Islom dini faqat diniy e’tiqod emas, balki madaniy, ma’naviy va ilmiy meros sifatida qaralmoqda. Ulamolarning asarlari zamonaviy ta’lim dasturlariga integratsiya qilinmoqda.Yoshlar o‘rtasida “Imom Buxoriy saboqlari”, “Moturidiy merosi”, “Al-Hidoyadan saboqlar” kabi tanlovlar, ilmiy musobaqalar o‘tkazilmoqda. Bu nafaqat diniy bilimlarni mustahkamlaydi, balki yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytiradi. Bugungi kunda o‘zbek ulamolari merosi O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy poydevori sifatida qadrlanadi. Ularning ilmiy va diniy qarashlari zamonaviy ijtimoiy, huquqiy, falsafiy masalalarda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Eng muhimi, bu meros yosh avlodni yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Islom dinining O‘zbekiston hududiga kirib kelishi bilan mamlakat hayotida tub ijtimoiy, madaniy va ilmiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu jarayon natijasida ilm-fan, ma’naviyat va adabiyotda yangi davr boshlandi. Movarounnahr o‘lkasi IX–XII asrlarda nafaqat musulmon olamining, balki butun insoniyat sivilizatsiyasining eng ilg‘or markazlaridan biriga aylandi. O‘sha davrda yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Shayx Muhammad Sodiq kabi allomalar o‘z asarlari bilan diniy va dunyoviy ilmlarni uyg‘unlashtirib, o‘zbek ilm-fanining poydevorini yaratdilar. Islom dini O‘zbekiston xalqi tafakkurida chuqur ildiz otib, uni nafaqat diniy e’tiqod sifatida, balki axloqiy, madaniy va ma’naviy qadriyat sifatida mustahkamladi. Shu bois bugungi kunda ham bu meros millatimizning ma’naviy immunitetini shakllantirishda beqiyos o‘rin tutadi. O‘zbek ulamolarining ilmiy merosi yosh avlodni ilmga, adolatga, insonparvarlikka va Vatanga sadoqatga da’vat etadi. Bu meros milliy o‘zlikni anglash, diniy bag‘rikenglikni rivojlantirish hamda global diniy muammolarga ilmiy yondashishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi O‘zbekiston hukumati tomonidan diniy-ma’naviy sohada olib borilayotgan siyosat, ulamolarimiz merosini o‘rganish va targ‘ib etish bo‘yicha yaratilgan shart-sharoitlar bu qadriyatlarning kelajakda ham barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Ilm-fan, ta’lim va ma’naviyat sohalarida bu merosdan foydalanish orqali nafaqat diniy bilim, balki milliy g‘urur va ma’rifatli jamiyat barpo etish yo‘lida muhim natijalarga erishish mumkin. Shunday qilib, Islom dinining O‘zbekistonga kirib kelishi va o‘zbek ulamolarining ilmiy merosi nafaqat tarixiy haqiqat, balki bugungi taraqqiyot, ma’naviy yangilanish va kelajak istiqbolining asosiy omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdullayev, M. Islom tarixi va madaniyati. Toshkent: 2018.
2. Hasanov, S. Markaziy Osiyoda Islom dini. Samarqand: 2015.
3.Muhammad al-Buxoriy. Sahih al-Bukhari (tarjima va sharhlar). Toshkent: 2020.
4. Karimov, A. Imom Termiziy va hadis ilmi. Toshkent: 2019.
5. Saidov, O. Burhoniddin Marg‘inoniy va uning ilmiy merosi. Samarqand: 2017.
6. Usmonov, R. O‘zbek ulamolari tarixi. Toshkent: 2021.
7. Tashkent Islamic Studies Journal. 2022-yil, 1-son.
8. Islom sivilizatsiyasi markazi rasmiy nashrlari. Toshkent, 2023.
9. www.islom.uz
10. www.madaniyat.uz

Akatova Guzal Baxodirovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Ta'lim sifati nazorati bo'limi bosh mutaxassisi,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA MULOQOT MADANIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kasbiy kompetentlik va muloqot madaniyatining o'zaro bog'liqligi, kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida muloqot madaniyatining ahamiyati, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni hamda samarali kasbiy muloqotni rivojlantirish usullari tahlil etiladi. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda muloqot madaniyatining asosiy jihatlari ham yoritib berilgan. Tadqiqotda kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismlari, o'qituvchi va mutaxassis shaxsida muloqot madaniyatini shakllantirish bosqichlari yoritilgan. Natijada kasbiy kompetentlikning rivojida muloqot madaniyatining yetakchi omil sifatidagi roli asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetentlik, muloqot madaniyati, kommunikativ kompetentlik, kasbiy rivojlanish, pedagogik muloqot.*

КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация*. В данной статье анализируются взаимосвязь профессиональной компетентности и культуры общения, значение культуры общения в процессе формирования профессиональной компетентности, ее роль в современной системе образования, а также методы развития эффективного профессионального общения. В формировании профессиональной компетентности раскрываются и основные аспекты культуры общения. В исследовании освещаются компоненты коммуникативной компетентности, этапы формирования культуры общения в личности педагога и специалиста. В результате обосновывается роль культуры общения как ведущего фактора в развитии профессиональной компетентности.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, культура общения, коммуникативная компетентность, профессиональное развитие, педагогическое общение.*

COMMUNICATION CULTURE IN FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE

Annotation. *This article analyzes the relationship of professional competence and communication culture, the importance of communication culture in the process of forming professional competence, its role in the modern educational system and methods of developing effective professional communication. Cultural aspects of communication throughout the process of the development of professional competence is highlighted as well. The study highlights the components of communicative competence, the stages of the formation of a culture of communication in the person of a teacher and a specialist. As a result, the role of communication culture as a leading factor in the development of professional competence is justified.*

Key words: *professional competence, communication culture, communicative competence, professional development, pedagogical communication.*

Kirish. Bizning hayotimiz aloqa bilan to'ldirilgan. Sotsiologlarning fikriga ko'ra, o'rtacha odam muloqot qilish uchun 70% vaqt sarflaydi. Biz uyda, ishda, universitetda, kafeda,transportda, kutubxonada va hokazolarda muloqot qilamiz.

Do'stlar, qarindoshlar, tanishlar va begonalar bilan fikrlashamiz. Biz og'zaki va yozma ravishda muloqot qilamiz. Biz so'zsiz va jonli muloqot qilamiz. Aloqasiz hayotimiz tasavvurga ega emas ekan. Shuning uchun ham jamoat hayotida, ham shaxsiy hayotda muloqotning roli juda katta.

"Muloqot" tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning

o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi. Yoki muloqot - odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirining yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni.

Muloqot madaniyati va kasbiy kompetentlikning o‘zaro bog‘liqligi.

Muloqot madaniyati — bu shaxslararo o‘zaro aloqada muloqot vositalarini ongli ravishda tanlash va ulardan samarali foydalanishga asoslangan, maqsadli muloqotni ta’minlovchi bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlar majmuasidir. U suhbat jarayonida suhbatdoshga ta’sir ko‘rsatishni oldindan bashorat qilish, og‘zaki va yozma muloqot orqali zarur axborotni to‘g‘ri qabul qilish va yetkazish imkonini beradi. Muloqot madaniyatini egallash, ayniqsa, bo‘lajak pedagoglar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki o‘qituvchi faoliyati doimo o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish, o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va pedagogik ta’sir ko‘rsatishni talab etadi. Aynan muloqot jarayoni orqali o‘quvchilarga bilim beriladi, ularning ilmiy dunyoqarashi, yuksak e’tiqodi va ijobiy axloqiy sifatlari shakllantiriladi.

Kasbiy kompetentlik esa shaxsning o‘z kasbiga oid nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy sifatlarining uyg‘unligidan iborat bo‘lib, uning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyatini belgilaydi. Ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi muloqot madaniyati hisoblanadi. Chunki u insonning kasbiy faoliyat jarayonida turli subyektlar bilan o‘zaro aloqalarni to‘g‘ri tashkil etish, samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va nizolarning oldini olish imkonini beradi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida muloqot madaniyati kommunikativ kompetentlik, empatiya, etik muomala va ijtimoiy moslashuv tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Kasbiy faoliyatda muloqot madaniyatining past darajada bo‘lishi ish samaradorligining pasayishiga, tushunmovchilik va nizolarning yuzaga kelishiga olib keladi. Aksincha, yuqori darajadagi kommunikativ madaniyat mutaxassisga o‘z fikrini aniq va ravon ifodalash, hamkasblar bilan samarali hamkorlik qilish, o‘quvchi yoki talabalar bilan ishonchli psixologik aloqani o‘rnatish imkonini beradi. O‘qituvchi faoliyatida esa muloqot madaniyati pedagogik jarayonni boshqarish va tarbiyaviy ta’sirni samarali amalga oshirishning asosiy vositasidir.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda muloqot madaniyatini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi: kommunikativ treninglar va rolli o‘yinlar yordamida muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash; refleksiya va o‘z-o‘zini tahlil qilish madaniyatini shakllantirish; axloqiy me’yorlar va kasbiy etikani o‘rgatish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida zamonaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida muloqot madaniyatining asosiy jihatlari sifatida, avvalo, tinglash va tushunish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Hamkorni diqqat bilan tinglash va uning fikrini to‘g‘ri anglash kasbiy samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, o‘z fikrini aniq, ravon va tushunarli shaklda ifoda eta olish noto‘g‘ri talqinlarning oldini oladi. Kasbiy muloqotda hurmat va odob-axloq qoidalariga rioya qilish, turli vaziyatlarga moslashuvchan yondashish, qarama-qarshi fikrlarni inobatga olish ham muhim hisoblanadi. Muloqot madaniyati nizolarni konstruktiv tarzda hal qilish, tanqidni to‘g‘ri qabul qilish va uni madaniyat bilan ifoda etish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, muloqot madaniyati kasbiy kompetentlikning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyati, jamoada ishlash samaradorligi va ijtimoiy munosabatlar sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik muloqot madaniyati talabalarning kommunikativ o‘zaro munosabatlarining umumiy madaniyatini shakllantirish uchun, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan. O‘z nutqini barkamol rivojlantirish, boshqalar bilan o‘zaro munosabat qilish, shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish qobiliyati ota-onalarga farzandlariga madaniy aloqani samarali ravishda singdirishga imkon beradi. Ba’zida shaxs madaniyati uning tarbiyasi, aql-zakovati bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos xususiyat sifatida baholanadi. Biroq, nazariy darajada madaniyat jamiyatning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, insoniyat tomonidan erishilgan tarixiy rivojlanish darajasini ifodalaydi, bu insonning atrof-muhitga va jamiyatga nisbati bilan belgilanadi.

Shuningdek, ko‘pchilik madaniyatni shaxs va umuman jamiyatning ijodiy ifodasi sifatida qabul qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. A. Nayn ta’biriga ko‘ra, “...muvafaqiyatga erishish uchun muloqot qilishni o‘rganmoq lozim”. Bu fikrning tasdig‘ini xorijiy amaliy tajribalarda, xususan, D. Karnegi asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Ularda samarali muloqot yuritish malakasini egallagan xodimlar kasbiy faoliyatda muvafaqiyat qozonganligiga ko‘plab misollar keltirilgan. Ko‘rinadiki, kasbiy muloqotning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati nihoyatda muhim. Ish yuzasidan tashkilotlar vakillari, jismoniy shaxslar, xorijiy hamkorlar, hamkasblar, rahbarlar va qo‘l ostidagi xodimlar bilan kundalik muloqot yuritish zaruriyati ma’lum darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni taqozo etadi. Kasbiy ehtiyoj yuzasidan muomala-muloqot qilish deyarli barcha sohalarda zarur, biroq ularning ayrimlarida muloqot g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Jumladan, shifokorlar, pedagoglar, psixologlar, bank xizmatchilari, soliq xodimlari, biznes vakillari, jurnalistlar, blogerlar, san’atkorlar va boshqa soha vakillarining faoliyati nafaqat hamkasblari bilan muloqot qilish, balki yoshi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, kasbi, fe’l-atvori har xil bo‘lgan ko‘plab insonlar bilan muomalada bo‘lishni taqozo etadi. Shu bois mazkur sohalarda xodimlarning nutq madaniyati, muloqot yuritish malakasini shakllantirish va muntazam rivojlantirib borishga yuqori talablar qo‘yiladi

Talabalarda kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim muhitida amalga oshirilgani bois, u tabiiy kasbiy muloqot muhitidan farq qiladi. Bu esa kasbga yo‘naltirilgan muloqotga o‘rgatishning samarali usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bunda kasbiy leksika va terminologiyani o‘rganishning o‘zi yetarli emas, biroq ulardan kasbiy muloqot jarayonida to‘g‘ri foydalanish, hamkasblari va atrofdagilar bilan maqsadli muloqot yuritishni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy kompetentlikning 40–60 foizi aynan kommunikativ malakalar bilan bog‘liq (A.G. Asmolov, 2021; H. Spencer & S. Spencer, 1993). Kompetentlikning mohiyati va tuzilishini sinchkovlik bilan o‘rganish bizga ikkita, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqada bo‘lgan darajalarni ajratish imkonini berdi:

Birinchi daraja bevosita muloqotning o‘zida kommunikativ kompetentlilikning namoyon bo‘lishini belgilab beradi, ya’ni insonning kommunikativ xulq-atvorida;

Ikkinchisi, o‘qituvchi kasbiy motivatsiyasining o‘ziga xos lingvistik kompetensiya haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozuv) bo‘yicha ko‘nikmalar egallashni nazarda tutadi. Kommunikativ kompetentlilikni talaba shaxsiga oid murakkab tavsifnoma sifatida ham tushunish mumkin, u kommunikativ kompetensiyalarni, ruhiy-pedagogik kompetensiyalarni, shaxsning boshqa insonlar bilan muloqotida ko‘rinadigan ruhiy holatlarini qamrab oladi – bularning barchasi insonning kommunikativ xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Aynan kommunikativ xulq-atvor muloqot uchun zarur bo‘lgan alohida ruhiy-pedagogik kompetensiyalarni qamrab oladi. Lekin shunga qaramay, bu yerda yetakchi o‘rin umuman olganda talabada yo‘nalishni aniqlash va asoslash uchun javob beruvchining muloqot qilishga ehtiyojini anglatuvchi kommunikativ qadriyatlarga tegishli bo‘ladi. Shuningdek, kommunikativ kompetentlilikka ma’lum vaziyatlarda kommunikativ harakatlarni sifatli va foydali tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda shaxsning ichki imkoniyatlarining alohida tizimi sifatida ham qaraladi. Kommunikativ kompetentlilikni mukammal egallash deganda “real vujudga kelgan kommunikativ vaziyatga muvofiq muloqot jarayoniga kirishishga tayyorlikni” tushunish kerak. Ta’kidlash joizki, kompetentlilik shakllanganligining asosiy ko‘rsatkichi fikr-mulohazalarni ravon, yaxlit va mantiqan izchil bayon qilish mahorati bo‘lib, bunda muloqot tilining ifodali hamda aniq muloqot bo‘yicha sheriklarning kommunikativ faolligining har qanday turini tushunish va mos ravishda javob qaytarish layoqatidan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv davrida har bir mutaxassisdan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki samarali muloqot qila olish, jamoada ishlash, muammoni hal etishda madaniy yondashuvni qo‘llay bilish ham talab etiladi. Shu bois kasbiy kompetentlikni shakllantirishda muloqot madaniyatini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Muloqot madaniyati insonning o‘z kasbiy faoliyatida kommunikativ, etik va psixologik jihatdan yetuk bo‘lishini ta’minlaydi. Muloqot

madaniyati — kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ajralmas qismi bo‘lib, u mutaxassisning shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyat samaradorligi, jamoaviy muhit, shuningdek, shaxsiy yetuklik darajasi ortadi. Shuning uchun har qanday sohada kasbiy ta’lim jarayonida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Kasbiy kompetentlikni oshirish uchun doimiy ravishda muloqot madaniyatini rivojlantirish, treninglar va amaliy mashg‘ulotlar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1 Ochilova G. O., Akbarova S. Sh. Kasbiy kompetentlik. – Toshkent : Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022.

2 Asmolov A. G. Psixologiya lichnosti i kompetentnostnyy podxod. – Moskva : Akademiya, 2021.

3 To‘xtasinova D. M. Zamonaviy ta’limda kasbiy kompetentlikning ahamiyati. – Toshkent : TDPU, 2021.

4 Groxiyev V. S. Pedagogik muloqot madaniyati. – Moskva : Akademiya, 2007.

5 Hasanov A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik muloqot madaniyati. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2020.

6 Xodjayev Sh. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent : O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2019.

Mardanov Uktamjon Rustamovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktori,
Buxoro xalqaro universiteti magistranti

BADIIY MATNDA QO‘LLANGAN TERMINLAR LINGVOPOETIKASI (OYDIN HOJIYEVA SHE’RIYATI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqimizning sevimli shoirasi Oydin Hojiyeva she’rlarida mahorat bilan qo‘llangan sohaviy terminlarning lingvopoetik tahlili keltiriladi. Tahlil jarayonida terminning ilmiy ma’nosi poetik matnda o‘zgarishi va emotsional ta’sir vositasiga aylanishi ochib beriladi. Tahlilga tortilgan she’rlarda terminlar milliy qadriyatlar, mehnat, tabiat va ma’naviyat bilan uzviy bog‘langanligi, ular orqali shoira xalqona tafakkur elementlarini ham yangicha badiiy shaklda ifodalaganligi misollar asosida yoritib beriladi. Misralardagi terminlar faqat leksik ma’no anglatibgina qolmay, balki pragmatik vazifa bajarish uchun ham xizmat qilganligi dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *sohaviy terminlar, lingvopoetika, leksik ma’no, pragmatik vosita, badiiylik, antroposentrik paradigma, lisoniy tafakkur, til vositalari, mazmuniy birlik, kompozitsion markaz.*

LINGUPOETICS OF TERMS USED IN ARTISTIC TEXT (ON THE EXAMPLE OF THE POETRY OF OYDIN HAJIYEVA)

Annotation*. This article presents a linguopoetic analysis of the specialized terms skillfully used in the poems of our beloved poetess Oydin Hojiyeva. In the process of analysis, the scientific meaning of the term is transformed in the poetic text and transformed into a means of emotional impact. In the analyzed poems, the terms are inextricably linked with national values, labor, nature and spirituality, and through them the poetess expresses elements of folk thinking in a new artistic form. It is proved that the terms in the verses not only have a lexical meaning, but also serve to fulfill a pragmatic task.*

Key words*: specialized terms, linguopoetics, lexical meaning, pragmatic means, artistry, anthropocentric paradigm, linguistic thinking, language means, substantive unity, compositional center.*

ЛИНГВОПОЭТИКА ТЕРМИНОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ (НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ ОЙДИН ГАДЖИЕВОЙ)

Аннотация*. В данной статье представлен лингвопоэтический анализ специализированных терминов, искусно использованных в стихотворениях нашей любимой поэтессы Ойдин Ходжиевой. В процессе анализа научное значение термина трансформируется в поэтическом тексте и превращается в средство эмоционального воздействия. В анализируемых стихотворениях термины неразрывно связаны с национальными ценностями, трудом, природой и духовностью, и через них поэтесса выражает элементы народного мышления в новой художественной форме. Доказано, что термины в стихах не только имеют лексическое значение, но и выполняют прагматическую задачу.*

Ключевые слова*: специализированные термины, лингвопоэтика, лексическое значение, прагматические средства, художественность, антропоцентрическая парадигма, языковое мышление, языковые средства, предметное единство, композиционный центр.*

Kirish. Lingvopoetika – bu badiiy matnning til vositalari orqali estetik ta’sir hosil qilish mexanizmini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishidir. U tilshunoslik va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida shakllangan bo‘lib, so‘zning obraz yaratish, hissiy ta’sir o‘tkazish va ma’naviy mazmun hosil qilish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Jahon tilshunosligida badiiy asar tiliga munosabat va til birliklarining asar matnidagi vazifasini atroflicha tadqiq etishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Xususan, XX asrning ikkinchi

yarmidan boshlab, badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika masalalari bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu an’ana o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan holda davom etib kelmoqda. Tadqiqotlarida badiiy matn tili, poetik semantika, konnotativ ma’no, stilistik funksiyalar va estetik ifoda vositalari chuqur tahlil qilingan. Lingvopoetika bugungi kunda nafaqat badiiy asar tilining tahlili, balki terminologik qatlamning estetik jihatdan namoyon bo‘lishini ham o‘rganadi.

Terminologiya – bu maxsus fan, texnika yoki kasb-hunar sohalariga oid so‘z va iboralarning tizimidir. Tilshunoslikda terminlar leksik qatlamning alohida turini tashkil etadi, ular ilmiy aniqlik, qat’iylik va mantiqiy izchillik bilan ajralib turadi. Sohaviy termin esa ma’lum bir ilmiy yoki ishlab chiqarish sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin badiiy nutqda ham ishlatilishi mumkin bo‘lgan birlikdir.

Bugungi kunda tilshunoslar terminlarning ikki qirrali mohiyatiga e’tibor qaratganlar: bir tomondan, ular ilmiy tushunchalarni ifodalaydi, ikkinchi tomondan esa, kontekstga kirganda badiiy obrazga aylanadi. Demak, termin – bu faqat aniqlik vositasi emas, balki ma’naviy, madaniy va poetik ifoda imkoniyatiga ega lingvistik birlikdir.

Oydin Hojiyeva she’rlarida bu hodisa ayniqsa kuchli ifodalangan. Shoira ilmiy terminlarni ruhiy va falsafiy ma’nolar bilan boyitadi, bu esa uning she’riyatini zamonaviy, konseptual va chuqur falsafiy qatlam bilan boyitadi. Natijada, terminlar nafaqat lingvistik, balki estetik, kognitiv va madaniy mazmunni ham o‘zida mujassam etadi.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: lingvopoetik tahlil, kontekstual tahlil, semantik tahlil, komparativ, statistik va komponent tahlil metodlari.

Natijalar. Ko‘pgina ilmiy ishlarda leksik sath birligi hisoblangan terminning bir ma’noliligi, badiiylikni ifodalay olmasligi qayd qilingan. Sevimli shoiramiz Oydin Hojiyeva she’riyatining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida terminlarning tasvir tiniqligini ta’minlashshdagi, nutqning ta’sirchanligini, ekspressivligini oshirishdagi imkoniyati juda katta ekanligiga amin bo‘ldik. Badiiy matnda terminlar nafaqat nutqning to‘la anglanishi uchun zarur bo‘lgan axborotni beradi, balki tinglovchi uchun mavhum bo‘lgan jihatlarga aniqlik kiritadi, his-tuyg‘ularni ifodalaydi.

Terminlarning badiiy matnda poetik aktuallashish imkoniyatlarini Oydin Hojiyeva she’rlari misolida ochib berishga urindik.

Yuragimning kungay adirlarida
Lalmi bug‘doy kabi unar sevinchlar,
Qay dushmanim toshday bag‘irlarida
Har kun qayrab chiqar tuhmat – qilichlar.

Oydin Hojiyeva she’riyatida sohaviy terminlar obraz yaratishning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoira ilmiy terminlarga ruhiy, falsafiy va madaniy mazmun yuklab, ularni poetik obraz sifatida transformatsiya qiladi.

Terminlar shoira she’riyatida nafaqat mazmuniy birlik, balki kompozitsion markaz sifatida ham xizmat qiladi. Shoiraning ko‘plab she’rlarida ilmiy termin poetik ritmni belgilaydi va asosiy semantik yadroni tashkil etadi.

Oydin Hojiyeva she’rlarida poetik matnning markazida dehqonchilik, bog‘dorchilik, ma’danshunoslik va boshqa sohaviy terminlar mahorat bilan qo‘llangan bo‘lib, ularning lingvopoetik ahamiyati juda kuchli. Shoiraning yuqoridagi she’rida lirik qahramon o‘z ruhiy olami va hayotiy tajribasini o‘simliklar dunyosi, don yetilishi hodisalar orqali ifodalaydi. Bu esa matnning semantik qatlamini chuqurlashtirib, konseptual obrazlarni yaratadi. Shoira she’rlarida *“bug‘doy”, “lalmi bug‘doy”, “bug‘doy doni”, “bug‘doy noni” terminlari* faol qo‘llangan bo‘lib, hayot, rizq, baraka, umr timsoli sifatida talqin qilinadi. O‘zbek poeziyasida don va non obrazlari muqaddaslik, poklik, tiriklik ramzi sifatida qo‘llanadi. Kitobxon ongida “baraka”, “mehnat”, “umid” pragmatik effektini hosil qiladi. “Lalmi bug‘doy” aslida sug‘orilmasdan, faqat tabiiy yog‘ingarchilik bilan o‘sadigan nav ma’nosini ifodalaydi. Nutqiy parchada qo‘llangan “Lalmi bug‘doy kabi unar sevinchlar” – metaforik ramziy ma’no kasb etib, quvonchning tabiiy, samimiy, mehnat bilan bog‘liq ravishda unib-o‘sishini ifodalaydi.

Bug‘doy doni bo‘ldim oftobro‘yada

Maysaday ko‘kladim, tomir otdim men…
Yurak chigit bo‘ldi, jon – himoyada,
Qora sovuqda ham nurga botdim men…

Ijodkorning turkum she’rlaridan olingan misollarni tahlilga tortamiz. *“Oftobro‘yada bug‘doy doni bo‘ldim”* – haroratning yetilishi donning pishishi uchun zarur bo‘lgani kabi, lirik qahramonning pishiq, yetuk bo‘lib borishi go‘zal tarzda tasvirlangan. *“Maysaday ko‘kladim”* – hayotiy kuchning bahor kabi qayta tirilishi. *“Tomir otdim”* – mustahkamlanish, hayotga chuqur ildiz qo‘yish. *“Yurak chigit bo‘ldi”* – yurakning ilk umid, imkoniyat urug‘i sifatidagi talqini. *“Qora sovuqda ham nurga botdim”* misrasidagi “qora sovuq” o‘zining sof ma’nosidan tashqari hayot sinovlari, qiyinchilik ma’nosini anglatadi. Bu antitezaga asoslangan kuchli poetik obrazdir. Mazkur ifoda og‘ir sharoitda ham ruhiy irodani saqlash ma’nolarida qo‘llangan bo‘lib, terminlar vositasida shaxsiy rivojlanishning metaforik obrazini yaratiladi. She’rda qo‘llangan *oftobro‘ya, bo‘g‘doy doni, maysa, ko‘klamoq, chigit, nur, qorasovuq* kabi terminlar insonning ruhiy o‘sishi va hayotiy tajribasining chuqurlashuvi jarayonini o‘simlik ontogeneziga qiyoslaydi.

Umr – yombi oltin, bug‘doy doniday
Maydalama uni tegirmonlarda,
Allohning farzi bor, aziz jonlarda. (Umr bu…)

Mazkur misralardagi *“Umr – yombi oltin, bug‘doy doniday”* ifodasida umrning qimmati quyma oltinga, bug‘doy doniga qiyoslangan. *“Maydalama uni tegirmonlarda”* misrasida esa hayotning qadrli lahzalarini behuda sarflamaslikka ishora qilingan. Mazkur misralarda qo‘llangan turli sohaga oid terminlar orqali Alloh bergan ulug‘ ne’mat – umrni behuda narsalarga sarflamaslik haqidagi qimmatli fikrlar yoritilgan. Misralarda ma’danshunoslik, dehqonchilik sohasiga oid terminlar badiiy tasvir vositasi vazifasini bajargan. Bug‘doy – baraka**,** mehnat**,** pishganlik timsoli bo‘lib, u lirik qahramonning ruhiy dunyosining pokligini anglatadi.

Oydin Hojiyeva she’rlarida faol qo‘llangan bug‘doy deyarli har bir o‘rinda metaforik xarakter kasb etib, *umr***,** *so‘z***,** *sevinch***,** *taqdir* kabi mavhum tushunchalarga ekvivalent qilib qo‘yiladi. Bu hol lingvopoetika nuqtayi nazaridan terminning badiiylikka aylanishi – deteminologizatsiya jarayoni hisoblanadi.

Bug‘doy nonim bo‘lmasa,
Bug‘doygina so‘zim bor,
Har so‘zimda chiylagan,
Yam-yashil ildizim bor.

Bug‘doy oziq-ovqat mahsulotining asosiy xomashyosi. Badiiy kontekstda uning ma’nosi kengayib, ma’naviy oziq**,** so‘zning pokligi timsoliga aylantiriladi. So‘zning “non” darajasidagi muqaddasligi misralarga singdiriladi.

Keyingi misralarda sohaviy terminlar (chiylash/chiylagan, ildiz) badiiy matn tarkibida lingvopoetik maqsadda semantik kengayish, ko‘chma ma’no, ramziy-metaforik yuklama hosil qilgan. Chiylash – o‘simlikshunoslikda niholning yer yorib chiqishi, ko‘karish jarayonidir. Shoira so‘zni tirik organizmga qiyoslaydi; so‘z “ko‘karadi”, “jonlanadi”, “o‘sadi”. Natijada so‘zning biologik jarayonlar bilan metaforik uyg‘unligi yaratiladi. Terminologik birlik poetik semantika hosil qiladi: so‘z – tiriklik belgisi. Bunda ijodkor nutqining tabiatga yaqin, milliy mentalitetga mosligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. She’rning keyingi misralari ham shunda monand. *“Yam-yashil ildizim bor”* ildiz botanikaga oid termin bo‘lib, asl ma’nosi o‘simlikni ushlab turuvchi, oziqlantiruvchi yer osti qismi. Bu o‘rinda “ildiz” ruhiy tayanch**,** milliy negiz**,** o‘zlikning asosi sifatida qo‘llangan bo‘lib, shaxsning ma’naviy ildizi, ruhiy oziqlanish manbai sifatida tasvirlangan. Epitet tarzida kelgan “*yam-yashil” leksemasi* bag‘oyat hayotbaxshlik, yangilanish, kuch-quvvat ma’nolarini o‘zida mujassam etgan. She’rda qo‘llangan qishloq xo‘jaligi va botanika terminlari ma’no kengaytirib, ruhiy, ma’naviy mazmunga ega bo‘ladi. Ya’ni ular denotativ mazmunidan yiroqlashib, pragmatik ma’no kasb etadi.

Bug‘doy – so‘z, chiylash – fikrning tug‘ilishi, ildiz – o‘zlikning manbai sifatida talqin etiladi va xalqona obrazlilikni kuchaytiradi, matnga tabiiylik, milliy ruh, hayotiylik bag‘ishlaydi.

Sen gullading – bog‘im atir-anbarim,
Qirqog‘ayni gulim – boshga chanbarim,

So‘nmas bahor, to‘kin yozim, gavharim,
Boshim uzra osmon bo‘ldi lojuvard.

QIRQOG‘AYNI – atirgulning baland bo‘lib o‘sadigan, mayda sergul turi.

U shoiraning bir nechta she’rlarida o‘ziga xos tarzda qo‘llangan.

LOJUVARD [f. – qimmatbaho ko‘k tosh; moviy, zangori] 1 To‘q ko‘k, yashilga moyil havorang tusli mayda donador, shishasimon yaltiroq mineral. 2 Tiniq ko‘k, tiniq ko‘k tusli [1].

GAVHAR (f. –qimmatbaho tosh; marvarid) ma’danshunoslik terminining tilimizda quyidagi ma’nolari mavjud: 1) tarashlab sayqal berilgan olmos; umuman qimmatbaho toshlarning umumiy nomi; javhar. 2) *ko‘chma* Qimmatli, bebaho, nodir narsa [1].

Baytda bir-biriga bog‘langan metaforalar ketma-ket qo‘llangan. *Qirqog‘ayni* guli badiiy nutqda faol qo‘llanib, jipslik, birdamlik, go‘zallik, baraka, do‘stlik, poklik ramzi sifatida talqin qilinadi. *Boshga chambar* – sharaf yoki yuqori maqom timsoli. So‘nmas bahor, to‘kin yoz – inson umri; gavhar – benazir qadrli narsa; lojuvard osmon – ma’naviy yuksalish metaforik ma’nolarni o‘zida aks ettiradi.

Xulosa va tavsiyalar.

Poetik matn tabiatida lisoniy birliklarning faqat kommunikativ emas, balki estetik, badiiy va pragmatik vazifa bajarishi muhim o‘rin tutadi. Lingvopoetika shoir tilidagi leksik birliklarning qanday qilib badiiy obrazga, semantik ramzga, hissiy ta’sir vositasiga aylanishini o‘rganadi. Kuzatganimizdek, Oydin Hojiyeva she’rlarida turli sohaviy terminlar: *bug‘doy, lalmi, chigit, maysa, tomir otmoq, yombi, gavhar, lojuvard, qirqog‘ayni, tegirmon* kabilar poetik kontekst orqali yangi ma’no kasb etib, lirik qahramon dunyoqarashini konseptual tarzda ifodalashga xizmat qiladi. She’rning semantik makoni asosan hayot, tabiat, mehnat va baraka tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular lirik subyekt ruhiyatining asosiy manzarasini yaratadi. Tahlillar natijasida aniq bo‘ldiki, sohaviy terminlar shoiraning lingvopoetik tizimida markaziy o‘rin tutadi. Chunki terminlarning lingvopoetik ma’nosi badiiy matnda namoyon bo‘ladi. Ular tasvir tiniqligini ta’minlashga, badiiylikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati : 5 jildda. 1-jild. – Toshkent : O‘zME ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati : 5 jildda. 2-jild. – Toshkent : O‘zME ilmiy nashriyoti, 2006. – 785 b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati : 5 jildda. 3-jild. – Toshkent : O‘zME ilmiy nashriyoti, 2007. – 687 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati : 5 jildda. 4-jild. – Toshkent : O‘zME ilmiy nashriyoti, 2008. – 606 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati : 5 jildda. 5-jild. – Toshkent : O‘zME ilmiy nashriyoti, 2008. – 591 b.
6. Hojiyeva O. Shom shu’lalari. – Toshkent : Sharq, 2010.

Murtozoyeva Dilafruz Muxiddinovna
Navoiy shahar 8-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi
Buxoro xalqaro universiteti magistri

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik qobiliyat tushunchasi va uning turlari, o'qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarning shakllanish jarayoni, uning psixologik asoslari hamda bu qobiliyatlarni rivojlantirish omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlari va ularning kasbiy mahoratga ta'siri yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik qobiliyat, psixologik xususiyat, kasbiy mahorat, empatiya, kommunikativ kompetensiya, refleksiya.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация*. В данной статье анализируется процесс формирования педагогических способностей у педагогов, его психологические основы, а также факторы развития этих способностей. Также освещаются индивидуально-психологические особенности личности педагога и их влияние на профессиональную компетентность.*

Ключевые слова: *педагогические способности, психологическая характеристика, профессионализм, эмпатия, коммуникативная компетентность, рефлексия.*

FORMATION OF PEDAGOGICAL ABILITIES IN FUTURE TEACHERS

Annotation. *This article analyzes the process of formation of pedagogical abilities in Teachers, its psychological foundations, as well as the factors for the development of these abilities. Also, the individual-psychological characteristics of the personality of the teacher and their impact on professional skills are covered.*

Key words: *pedagogical ability, psychological trait, professional skills, empathy, communicative competence, reflection.*

Kirish. Ta'lim jarayonining samaradorligi, avvalo, o'qituvchining kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlariga bog'liq. Bugungi kunda o'qituvchidan nafaqat bilim va metodik tayyorgarlik, balki yuksak pedagogik qobiliyatlar ham talab etiladi. Qobiliyat-shaxsning individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixiksifatlar yig'indisidir. Zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak. Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holda olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi. Qobiliyat insonning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatlar majmuidir. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchining kasbiy shakllanishi jarayonida psixologik jihatdan qulay muhit yaratish va individual xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi. Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim - bu ilmiy mutolaalar natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Pedagogik qobiliyatlar, deb ataladigan qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional- irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir-birini hosil qiladi. Psixologiyada qobiliyatlarga shunday ta'rif beriladi: Qobiliyatlar- shaxsning

mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatdir. Pedagogik psixologiyada o‘qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o‘rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib boriladi. Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta’kidlab o‘tganidek, pedagogik jaroyon o‘qituvchi- tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o‘quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog‘liq. Bola shaxsning rivojlanishida o‘qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta’lim va tarbiya jaroyonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi.

Pedagogik qobiliyat tushunchasi va uning turlari

Pedagogik qobiliyatlar o‘qituvchining o‘quvchilarga samarali ta’sir ko‘rsatish, ularni o‘qitish, tarbiyalash hamda ruhlantirish imkonini beruvchi psixologik sifatlar majmui hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlar o‘qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutib, ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Qobiliyat o‘qituvchining individual imkoniyatlarini ifodalaydi va bir xil sharoitda faoliyat yuritayotgan pedagoglar orasida natijadorlik jihatidan sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qobiliyatli o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatida qobiliyati sust bo‘lgan pedagoglarga nisbatan yuqori yutuqlarga erishadilar.

Mashhur psixolog Govard Gardner qobiliyatni inson intellektlarining majmui sifatida talqin etib, uning bir nechta jihatlarini ajratib ko‘rsatgan. Ushbu intellekt jihatlarining ayrimlari pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Psixolog olima Olga Matveyeva mazkur jihatlarni psixologik texnologiyalar asosida modifikatsiya qilib, ularning o‘qituvchi kasbiy faoliyatida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi hamda pedagogik qobiliyatlarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi.

Birinchidan, muloqot qilish, ya’ni kommunikativ qobiliyat o‘qituvchining o‘quvchilar bilan dars jarayonida va darsdan tashqari faoliyatda samarali muloqot o‘rnatishiga, sinfda ijobiy psixologik muhit yaratishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, voqealarni oldindan ko‘ra olish qobiliyati o‘qituvchining pedagogik sergakligi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning ruhiy holatini, ichki dunyosini chuqur anglash va ularning imkoniyatlarini bashorat qila olishida namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, eshitish va his qilish qobiliyati musiqiy ohangni, nutq intonatsiyasini sezish, eshitilgan ma’lumotni xotirada saqlash, badiiy matnlarni ifodali o‘qish bilan tavsiflanadi. To‘rtinchidan, kinestetik qobiliyat o‘qituvchining o‘z harakatlarini muvofiqlashtira olishi, tana harakatlari va mimikasi orqali ta’sir ko‘rsatishida, pedagogik jarayonda vaqt va harakat sur’atini his etishida namoyon bo‘ladi. Beshinchidan, mantiqiy qobiliyat sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, muammolarni tahlil qilish, muhim va ikkinchi darajali jihatlarni farqlash bilan bog‘liqdir. Oltinchidan, shaxsning ichki qobiliyati o‘z-o‘zini anglash, ichki kechinmalarni tushunish va boshqarish, mustaqil fikr yuritish hamda qat’iyatlilik bilan tavsiflanadi.

Psixolog olimlar B. M. Teplov, K. K. Platonov, A. V. Petrovskiy va boshqalarning fikriga ko‘ra, qobiliyatlar iqtidor, layoqat va mahorat orqali rivojlanib boradi. Pedagogik faoliyatda qobiliyatlar didaktik, kommunikativ, perseptiv, tashkiliy, refleksiv va empatik qobiliyatlar kabi asosiy turlarga bo‘linadi. Didaktik qobiliyat o‘quv materialini tushunarli, tizimli va qiziqarli tarzda yetkazishni ta’minlasa, kommunikativ qobiliyat o‘quvchi va ota-onalar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Perseptiv qobiliyat o‘quvchilarning ruhiy holatini anglashni, tashkiliy qobiliyat esa ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni ta’minlaydi. Refleksiv qobiliyat o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi va xatolardan xulosa chiqarishiga imkon bersa, empatiya o‘quvchilarga nisbatan mehr, tushunish va hamdardlik hissini namoyon etadi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga aql-idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik, tanqidiy fikrlash, nutq madaniyati, notiqlik san’ati, aktyorlik xususiyatlari, mimika va pantomimikadan samarali foydalanish, shuningdek, pedagogik takt va nazokat kabi yordamchi xususiyatlar ham kiradi. Qobiliyat ko‘nikma va malakalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ko‘nikmalar o‘qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida shakllangan tajriba asosida vujudga kelgan mukammal ish usullari bo‘lsa, malakalar ongli faoliyat natijasida avtomatlashgan kasbiy harakatlar yig‘indisini ifodalaydi.

Qobiliyat, ko‘nikma va malakalar uyg‘unligi pedagogik mahoratni yuzaga keltiradi. Faqatgina qobiliyatga ega bo‘lib, zarur ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lmagan o‘qituvchi yuqori natijalarga erisha olmaydi. Shu bilan birga, yetarli darajada rivojlangan ko‘nikma va malakalar qobiliyatdagi ayrim kamchiliklarni to‘ldirishi mumkin. Pedagogikada qobiliyat imkoniyat sifatida qaralib, uning zarur darajasi ta’lim va tarbiya jarayonida, amaliy faoliyat davomida takomillashib boradi.

Qobiliyatlarning shakllanishi shaxsning individual psixologik xususiyatlari, temperament, xarakter, emotsional barqarorlik, tafakkur turi va motivatsiya bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘qituvchining empatik hissi va emotsional intellektining rivojlanganligi pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi. Psixologik tadqiqotlar o‘qituvchining diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi psixik jarayonlarni ongli ravishda boshqara olishi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta’minlashini ko‘rsatadi.

Pedagogik qobiliyatlar tabiiy iqtidor bilan bir qatorda, o‘qituvchining kasbiy tajribasi, refleksiyasi va o‘z ustida muntazam ishlashi natijasida rivojlanadi. Shu sababli pedagogik oliy ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlar, psixologik treninglar, kuzatish va tahlil faoliyatiga alohida e’tibor qaratish pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar ham pedagogik qobiliyatlarning negizini tashkil etadi: mehribonlik, sabr-toqat, emotsional barqarorlik, mas’uliyatlilik, o‘z fikrini erkin ifoda etish, optimizm va ijtimoiy faollik. Bular o‘quvchilarning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ular bilan ishonchli munosabat o‘rnatishga yordam beradi.

O‘qituvchi dars berar ekan, avvalo uni puxta rejalashtirishi lozim. Shuningdek mavzuni qisqa vaqt ichida, kam kuch sarflab, Davlat ta’lim standartlari asosida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tushuntirishi muhim. Pedagog o‘zi dars berayotgan sinf jamoasiga singib, ular bilan samimiy bevosita aloqa o‘rnatishi, har bir o‘quvchini alohida shaxs sifatida ko‘rib uning qobiliyatlarini aniqlagan holda jamoat ishlari hamda to‘garaklarga jalb etishi kerak. O‘quvchilar jamoasi bilan doimo fikr almashib ularni fikrlarini e’tiborga olishi ahamiyatli. O‘qituvchi tarbiyalanuvchilarga talab qo‘yishi va jamoani adolat bilan boshqarib yetakchilikni o‘z qo‘liga olishi lozim. Sinf jamoasining norasmiy sardorni doimo kuzatib yurishi, sinfdagi har bir tarbiyalanuvchini ruhiy holatini, o‘zlashtirish darajasini to‘g‘ri baholab yechimlar berishi zarur. Pedagoglar nafaqat o‘zining mutaxassislik fani balki u fanga bog‘liq bo‘lgan fanlarni ham bilishi muhim hisoblanadi.

O‘qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so‘z bilan og‘zaki ta’sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi so‘zlar, notiqlik san’ati asosida ta’sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, taqiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o‘quvchining erkin mulohazalarini ma’qullash yoki nojo‘ya harakatlari uchun ayblash so‘zning og‘zaki ta’sir etuvchi komponentlaridir. So‘z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma’lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta’sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko‘rishi lozim. Ishontirish metodini qayta tarbiyalash, ya‘ni qarash va munosabatlarni shakllantirishda qo‘llash, u yoki bu xislatlarni namoyish qilish zarur bo‘lgan maxsus vaziyatlar yaratish orqali amalga oshirilishi ham mumkin. Tasodifiy vaziyatlar quyidagi yo‘llar bilan yaratiladi: darsda o‘quvchiga kutilmagan savol berish, darsdan tashqaridagi noto‘g‘ri xatti-harakatiga iqror bo‘lishiga majbur qilish, o‘yinda esa harakat qilishga undash. Maktab hayotida tasdiqlanganidek, ba’zan o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga sharoit bo‘lmagani uchun ham tarbiyasi og‘irlar qatoriga qo‘shilib qolar ekan. Undan darsda onda-sonda so‘rashadi: o‘qituvchi uning bilimiga ishonmaydi, dars paytida unga e‘tibor berishga vaqtdan qizg`anadi. Agar o‘quvchiga tez-tez murojaat qilinsa, unga o‘z fikrini bayon qilish taklif etilsa, uning xulqida shakllanib qolgan stereotiplar asta-sekin o‘zgara boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik qobiliyat - o‘qituvchi shaxsining kasbiy yadro qismini tashkil etuvchi murakkab psixologik tizimdir. Qobiliyatlarni shakllantirish jarayoni yillar davomida uzluksiz o‘z ustida ishlash, refleksiya va amaliy tajriba bilan boyib boradi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi o‘z faoliyatida nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar ruhiyatini anglovchi, ularni ruhlantiruvchi shaxs sifatida shakllanishi zarur. Har bir inson o‘zining turli xil qobiliyatlari bilan yaratiladi, hayotiy tajribasi, malakasi orqali ushbu qobiliyatlar sayqallanib boradi. Ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchining shaxsiy harakterlari orqali o‘z qobiliyatlarini kashf etadi. Agarda yuqorida

ta'kidlab o'tilgan qobiliyatlarning bir nechtasi mujassam bo'lmasa, u holda ta'lim beruvchining o'z shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiquvchi bo'shliqni to'ldirishga yordam beradi

Bo'lajak o'qituvchi barcha pedagogik qobiliyat turlarini o'zida rivojlantirishi lozim. Barcha qobiliyat turlarini bir o'qituvchi qisqa muddatda shakllantira olmasligi mumkin. Qobiliyat asta sekin yillar davomida rivojlanib boradi. Mahoratli o'qituvchi ish faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlardan o'zida rivojlangan pedagogik qobiliyati orqali chiqib ketishi lozim. Inson qachonki kutilmagan vaziyat yoki muammoga duch kelsagina, qanday qobiliyati mavjudligini bila oladi. Biz pedagogik qobiliyati shakllangan, rivojlanishdan to'xtamaydigan o'qituvchini "mahoratli o'qituvchi", deb atashimiz mumkin. Chunki, mahoratli o'qituvchi rivojlanishdan, o'sishdan to'xtamaydi va tajriba, malakasi oshgani sari sayqallanib boradi.

Har bir inson o'ziga xos turli xil qobiliyatlar bilan dunyoga keladi. Ushbu qobiliyatlar shaxsning hayotiy tajribasi, ta'lim jarayoni hamda amaliy faoliyati davomida bosqichma-bosqich rivojlanib, sayqallanib boradi. Inson o'z qobiliyatlarini faqatgina real hayotiy vaziyatlarga duch kelganidagina to'liq anglay boshlaydi, chunki muayyan sharoit va talablar shaxsning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida beruvchi (subyekt) ham oluvchining individual-psixologik xususiyatlari, xarakteri va ehtiyojlari orqali o'z qobiliyatlarini kashf etadi. Mazkur jarayon ikki tomonlama bo'lib, muloqot va hamkorlik davomida har ikkala tomonning kompetensiyalari rivojlanadi. Agar yuqorida qayd etilgan qobiliyatlarning ayrimlari yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, beruvchining shaxsiy qobiliyatlari, tajribasi va moslashuvchanligi ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Shu sababli qobiliyatlar statik holatda emas, balki dinamik jarayon sifatida namoyon bo'lib, shaxsning faol ishtiroki, ijtimoiy muhit va amaliy tajriba orqali takomillashib boradi. Bu holat kasbiy faoliyatda kompetentlikni shakllantirishning muhim psixologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1 Azizxodjayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent : Moliya, 2003.

2 Nishanova Z. T., va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – Toshkent : O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018.

3 Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. – Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2011.

4 Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent : O'zbekiston, 1999.

5 Ziyouz elektron kutubxonasi [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: http://www.ziyouz.com

Hamroyeva Anora Faxreddenovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi
E-mail: jalolidin0308@gmail.com

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MULTIMEDIADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqola maktabgacha ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalarining o'rni va ahamiyati haqida tushuncha berilgan. Unda texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga ta'siri, tarbiyachilarning yangi ko'nikmalarga ega bo'lish zarurati, multimediadan foydalanishning pedagog va bolalar uchun beradigan imkoniyatlari batafsil yoritilgan. Interfaol doskalar, planshetlar va kompyuterlardan o'yinli mashg'ulotlarda foydalanishning afzalliklari, mashg'ulotlarning vaqt cheklovi, ko'z gimnastikasi kabi sog'liqni saqlash masalalari ham ko'tarilgan. Innovatsion texnologiyalar barkamol shaxs shakllantirishdagi roli ta'kidlanib, xulosada axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishi, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirish orqali ta'lim samaradorligini yuksaltirishi qayd etilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari, interfaol doskalar, planshetlar, innovatsion texnologiyalar, tarbiyachi ko'nikmalari, o'yinli mashg'ulotlar, bolalar rivojlanishi, barkamol avlod, individual yondashuv, ta'lim samaradorligi.*

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МУЛЬТИМЕДИА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. *Статья дает представление о роли и значении современных информационно-коммуникационных технологий и мультимедийных средств в дошкольном образовании. В ней подробно освещено влияние стремительного развития технологий на образовательный процесс, необходимость обладания воспитателями новыми навыками, возможности, которые предоставляет использование мультимедиа для педагогов и детей. Рассмотрены преимущества применения интерактивных досок, планшетов и компьютеров в игровых занятиях, а также вопросы охраны здоровья, такие как ограничение времени занятий и гимнастика для глаз. Подчеркивается роль инновационных технологий в формировании гармонично развитой личности, а в заключении отмечается, что эффективное использование информационных технологий служит интеллектуальному, творческому и социальному развитию детей, а повышение профессиональной квалификации воспитателей способствует росту эффективности образования.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, информационно-коммуникационные технологии, мультимедийные средства, интерактивные доски, планшеты, инновационные технологии, навыки воспитателя, игровые занятия, развитие детей, гармонично развитое поколение, индивидуальный подход, эффективность образования.*

THE IMPORTANCE OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES AND MULTIMEDIA IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation. *The article provides an overview of the role and importance of modern information and communication technologies and multimedia tools in preschool education. It thoroughly covers the impact of rapid technological development on the educational process, the necessity for educators to acquire new skills, and the opportunities that multimedia usage offers for both teachers and children. The advantages of using interactive whiteboards, tablets, and computers in play-based activities are discussed, along with health-related issues such as time limitations for*

sessions and eye exercises. The role of innovative technologies in shaping a well-rounded personality is emphasized, and the conclusion states that effective utilization of information technologies contributes to children's intellectual, creative, and social development, while enhancing educators' professional qualifications improves overall educational effectiveness.

Key words: *preschool education, information and communication technologies, multimedia tools, interactive whiteboards, tablets, innovative technologies, educator skills, play-based activities, child development, well-rounded generation, individual approach, educational effectiveness.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va multimedia vositalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan, maktabgacha ta’limda ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir. Bolalarni mustaqil fikr yuritishga, mushohada qilishga, mutolaa qilishga o‘rgatishda o‘qituvchilar oldiga katta mas’uliyat qo‘yiladi. O‘qituvchi o‘qitishdan o‘qishni o‘rgatishga, bilim berishdan o‘quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga yordam berishi lozim. Ya’ni, o‘qituvchi bolani ehtiyoj tug‘dirishdan, muhit yaratishga va undan mas’ulyatni his qilishni o‘rgatish kerak. Bu esa o‘qituvchidan tashabbuskorlikni, mustaqil fikrlashni, o‘z faniga oid bilimni puxta bilishi, kuzatuvchanlikni, ijodiy tasavvurni tarbiyalashga layoqatini faollashtirish zarur. Shunday layoqatga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z ish faoliyatida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashi bolalarda yuqori bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishga olib keladi. Maktabgacha ta’limda AKT va multimediadan foydalanish bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelgan holda o‘yinli mashg‘ulotlar, interfaol doskalar, planshetlar va animatsiyali materiallar orqali amalga oshirilmoqda. Bu usullar nafaqat bolalarning qiziqishini oshiradi, balki individual yondashuvni ta’minlab, mustaqil fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ushbu maqola maktabgacha ta’limda axborot texnologiyalari va multimedia vositalarining afzalliklari, tarbiyachilar va bolalar uchun beradigan imkoniyatlari, innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada tarbiyachilarning zarur ko‘nikmalari, mashg‘ulotlarni tashkil etish tamoyillari va jamiyat kelajagi – barkamol avlod shakllantirishdagi roli batafsil ko‘rib chiqiladi. Natijada, AKTdan samarali foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini yuksaltirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimiz ta’lim tizimida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish va kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga oid zamonaviy o‘quv nazorat dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga bo‘lgan zaruriyat oshdi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’limda axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan ta’lim sifatini oshirish jarayonida nazariy va amaliy asoslarini yaratish, innovatsion usullarni qo‘llash, ta’lim jarayonida noan’anaviy usullardan guruhli va individual usullardan foydalalanishning nazariy asoslariga oid E.E.Nabiev, O.A.Abduganiyev, S.Rahimova, N.Kh.Sanokulova, Z.Nuriddinova, G.M.Nazirova, R.Yu.Khaydarov, Sh.U.Khabibullaeva kabi olimlarning ishlarini aytish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ta’lim sohasiga chuqur kirib borishi hayotimizning barcha jabhalarida bo‘lganiday maktabgacha ta’limda ham muhim o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu jarayon pedagoglarning bilim va malakalarini doimiy ravishda takomillashtirishni, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda kompyuter va multimedia vositalaridan foydalanilmoqda, chunki bu dars jarayonini qiziqarli, samarali va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi o‘quv jarayonining bevosita tashkilotchisi sifatida bolalar Maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiziqarli, xavfsiz va rivojlantiruvchi muhit yaratishi, didaktik materiallar, o‘yin vositalari, uslubiy qo‘llanmalar hamda elektron resurslarni puxta o‘rganib, ularni maqsadga muvofiq qo‘llay olishi lozim. Zamonaviy axborot

texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun tarbiyachilar bir qator muhim kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Jumladan, ishchi dasturlar va texnologik xaritalarni ishlab chiqish, o‘yinli mashg‘ulotlar va ijodiy topshiriqlar tayyorlash, metodik ko‘rsatmalar hamda nazorat materiallarini yaratish, shuningdek, bolalarning o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish ana shunday zarur ko‘nikmalar sirasiga kiradi.

Maktabgacha ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish tarbiyachiga mashg‘ulotlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida modellashtirish, bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha axborot manbalaridan foydalanish hamda nazariy materiallarni o‘yinli va mustaqil faoliyat bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi. Multimedia texnologiyalari bolalar uchun esa o‘yinga va yangi bilimlarga qiziqish uyg‘otish, o‘z faoliyatini nazorat qilish, ensiklopedik axborotlarni tez va qiziqarli shaklda olish, materialni o‘z individual tezligi va qulayligiga mos ravishda o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bolalarda zamonaviy texnologiyalarga nisbatan qiziqish va ulardan ongli foydalanish ehtiyoji shakllanadi.

Multimedia tushunchasi obyekt va jarayonlarni an’anaviy matn shaklida emas, balki fotorasm, video, chizma, animatsiya va ovoz vositalari yordamida namoyish etishni anglatadi. Interfaol doskalar va planshetlar maktabgacha ta’lim muassasalarida elektron materiallarni katta ekranda ko‘rsatish uchun samarali texnik vositalardan hisoblanadi. Katta ekranda taqdim etilgan axborot bolalar tomonidan yaxshiroq idrok etiladi, bu esa ularning fikrlash qobiliyati, mustaqil faoliyati va guruhdagi hamkorligini rivojlantiradi. Bunday ta’lim muhiti bolalarda o‘ziga ishonch, tengdoshlar bilan ijobiy munosabat va yangi bilimlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi va o‘yinli faoliyatga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Shu sababli kompyuter va multimedia vositalaridan asosan rivojlantiruvchi o‘yinli mashg‘ulotlarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda mashg‘ulotlar davomiyligi 15–20 daqiqadan oshmasligi, ular tayyorgarlik, asosiy va yakuniy bosqichlardan iborat bo‘lishi lozim. Yosh bolalarning ko‘rish va diqqat tizimi hali to‘liq shakllanmaganini inobatga olib, ko‘z gimnastikasi mashqlarini muntazam takrorlash va bolalarni bunga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta’limda barkamol shaxsni shakllantirishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Innovatsiya yangi yondashuvlar, metod va texnologiyalar orqali ta’lim samaradorligini oshirish jarayonini anglatadi. Bugungi jamiyatda intellektual salohiyat va ijodiy fikrlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, innovatsiyalar ta’lim tizimini tubdan yangilashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida interfaol o‘yinlar, animatsiyali materiallar va multimedia asosidagi mashg‘ulotlarning keng joriy etilishi bolalarning diqqatini jamlash, ko‘nikmalarini rivojlantirish va qobiliyatlarini namoyon etishga imkon yaratadi. Tarbiyachining innovatsion faoliyati esa ijodiy motivatsiya, kreativlik va kasbiy yangiliklarga intilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taradi.

Tadqiqot natijasi va muhokama.

Maktabgacha ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bolalarning o‘quv faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kompyuter va multimedia vositalaridan foydalanilgan mashg‘ulotlarda bolalarning diqqatini jamlash, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalari rivojlanmoqda.

Interfaol doska, planshet va elektron resurslar orqali o‘tkazilgan mashg‘ulotlar bolalarda o‘ziga ishonchni oshiradi, guruhda hamkorlik qilishni kuchaytiradi va yangi bilimlarga qiziqishni rag‘batlantiradi.

Rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar 15–20 daqiqa davomida tashkil etilganda bolalarning qiziqishi pasaymaydi, ko‘z salomatligi va diqqat tizimi saqlanadi.

Innovatsion texnologiyalar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish nafaqat bilim berish, balki bolalarda o‘yin orqali o‘rganish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu esa ta’limning tabiiy va qiziqarli shaklini ta’minlaydi.

Pedagoglar uchun axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish va ulardan foydalanish kasbiy kompetensiyaning muhim qismi hisoblanadi. Ular didaktik materiallarni elektron shaklda tayyorlash, interfaol mashg‘ulotlarni modellashtirish va bolalarning o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish orqali ta’lim sifatini oshiradilar.

Multimedia vositalari bolalarga ensiklopedik axborotni tez va qiziqarli shaklda olish imkonini beradi. Bu esa bolalarning o‘z tezligiga mos ravishda o‘rganish va mustaqil faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan yangilashga, bolalarda kreativlik va intellektual salohiyatni shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interfaol o‘yinlar, animatsiyali materiallar va multimedia asosidagi mashg‘ulotlar an’anaga aylanishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bolalarning qiziqishini oshiradi, individual yondashuvni ta’minlaydi va barkamol avlodni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimediadan samarali foydalanish bolalarning qiziqishini oshiradi, individual yondashuvni ta’minlaydi va ularning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarbiyachilar yangi texnologiyalarni o‘zlashtirib, bolalar ruhiyatiga mos mashg‘ulotlar tashkil etishi orqali ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini yanada yuksaltirishi mumkin. Bu esa jamiyatimizning kelajagi – barkamol avlodni shakllantirishda muhim qadam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent : O‘zbekiston, 2021.
2. Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash // O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy ishlari. – Toshkent, 2018. – B. 45–52.
3. Karimova N. Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar va metodlar // TDPU ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2020. – B. 120–128.
4. Shodmonov H. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari // SamDU ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand, 2019. – B. 67–74.
5. Yuldasheva D. Maktabgacha ta’limda multimedia vositalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik asoslari // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2023. – B. 33–40.
6. Qodirova M. Maktabgacha ta’limda interfaol metodlardan foydalanish // TDPU ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021. – B. 89–95.
7. Jo‘rayev B. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va pedagogik mahorat // Fan va ta’lim masalalari. – Toshkent, 2017. – B. 101–110.
8. Xolmatova S. Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi o‘yinlar va ularning ahamiyati // Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2020. – B. 56–62.
9. Mavlonova R., Raxmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent : O‘qituvchi, 2006.
10. Azizxo‘jaeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent : O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B. 51–54.
11. Rustamov B. Ta’limda zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent : O‘qituvchi, 2020. – 150 b.

“BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo’yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbaasi ko’rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo’lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo’lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so’zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo’lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo’lsa ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo’limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e’tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so’zdan iborat bo’lishi kerak) (3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo’lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot uyi*. Elektron manzili. URL:
2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:
3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti "O'quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)

https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so'zdan iborat bo'lishi kerak. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**

Kalit so'zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)

NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo'lishi shart)

Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Elektron manzili. URL:
2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:
3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O'ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

4	**Abdullayev Shahzodjon Zokirjonovich** Oila psixoterapiyasida virtual reallik texnologiyalarining qo‘llanishi
10	**Abdullayev Shaxobiddin Abduali o‘g‘li** Ijtımoıy tarmoqlar orqalı zamonavıy o‘zbek tılı leksıkası va muloqot uslublarınıng o‘zgarıshı
14	**Aytmuratov Baxtiyar Turg‘anbayevich** O‘quv faoliyatida talabalarning metarefleksiv tafakkurini rivojlantirishning kognitiv-psixologik mexanizmlarI
19	**Boltayeva Sarvinoz Ziyadullayevna** Nofilologık ta’lım yo‘nalıshı talabalarınıng ınglız tılını o‘qıtıshda kommunıkatıv kompetensıyalarını takomıllashtırısh
22	**Eshmuratov Umidjon Temurovich** Milliy mentalitet vositasi sifatida aforizmlar ingliz va o‘zbek an’analari sotsiolingvistik qiyosi
27	**Kamilova Madina Xamidjanovna** Oila va jamiyatda huquqiy savodxonlikni shakllantirishda psixologik strategiyalar
31	**Jumaqulova Nargiza Sunatulla qizi** Ta’limda gender **KONSEPTSIYA**sining asosiy jihatlari
34	**Qo‘yliyev Ulug‘bek Ravshanovich** Bo’lajak tarix fani o’qituvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari
38	**Raxmanova Dildora Abdinabiyevna** Aka-uka Grimmlarning “Rapunsel” ertagining stilistik va konseptual tahlili
45	**Sharipova Sitora Shahriddin qizi** Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik kompetentligining o‘ziga xos xususiyatlari
49	**Suvonkulov Alisher Zayirivich** Bo’lajak tarix o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda tarix to‘garaklarning metodik imkoniyatlari
53	**Tojiboeva Gulxumor Raxmanjanovna,** **Rafikova Munisa Nematjon kizi** Nizolarning oldini olish ta’lim sub’ektlari faoliyatining mazmuni sifatida (maktab misolida)
59	**Usmonov Rahim Raxmonali o’g’li** Yuk mashinasi haydovchilari orasida chekish va uning haydovchilarning ruhiy salomatliklariga ta’siri
64	**Musayeva Nodira Nizomovna, Rahmonova Madina Alijonovna** Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish
68	**Рахмонкулов Азизбек Устумкул угли** Образ природы в художественном мире поэтов бодлера и блока
74	**Sayfullayeva Nafisa Zoyirovna** Modallık unıversal kategorıya sıfatıda o'rganılıshı
78	**Abdiraxmonova Feruza Qahramonovna** Boshlang‘ıch sınf o‘quvchılarıda o‘qıb tushunish malakasını rıvojlantırıshda matn tıpları va ularnıng o‘quv jarayonıdagı ahamıyatı
83	**Achilova Mohlaroyim Uktam qizi** Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari
88	**Adizova Mashhura Abdurahmonovna** Umumiy o ‘rta ta’limda inkluziv ta’lim tashkil qilishning ahamiyati
93	**Ashurova Nigora G‘afurovna** O‘zbek lingvomadaniyatini ifodalovchi ba’zi metaforalar tahlili

96	**Ganiyeva Mehrigiyo Istamovna** O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning muhim xususiyatlari (boshlang'ich ta'lim tizimi misolida)
101	**Halimova Dilnoza Farhod qizi** Lev Tolstoy dunyoqarashida islomiy haqiqatlarning aks etishi
106	**Karimova Muxlisa Ja'far qizi, Saidov Sh.X.** Siyosiy mediadiskursda nutq kompressiyasining ta'sirchanlik va manipulyativlik omili sifatidagi roli
110	**Kozimova Mehriniso Akbarali qizi** Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang'ich ta'limga tayyorligini shakllantirishga ta'sir etuvchisi omillar.
114	**Avezova M.S.** Ta'lım paradıgmaları
117	**Yusupov Firdavs Furqat o'g'li, Kamolova Manzura O'ktam qizi** Bozor mexanizmi va talab–taklifning iqtisodiy ahamiyati
122	**Isrofilova Sayida Tolibovna** O'smirlarning o'zini-o'zi psixologik himoya qilishida oilaviy muhit va tarbiyaning roli
126	**Murodova Nigina Iskandarovna** Talabalarning ijodiy o'zini namoyon qilishida emotsional intellektning ahamiyati
130	**Ramazonova Mashhura Oybek qizi** Maktabgacha yoshdagi bolalarning moslashuv darajasini baholashning psixodiagnostik metodlari
135	**Mavlonova Gulchehra G'ulomovna** Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish
140	**To'xsanova Nargiza Tolibovna** Yosh avlodnı ıjtımoıy hımoyalashda tarbıyavıy muassasalarnıng o'rnı va ahamıyat
144	**Nasullayeva Madinabonu** Pedagogik texnologiyalar orqali o'quv motivatsiyasini rivojlantirishning samarali yo'llari
149	**Nozimova Iroda O'ktamovna** Ta'lim jarayonida motivatsiyani shakllantirishning psixologik asoslari
153	**Nurullayeva Lola Mahmudovna** Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini motivatsion va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish
158	**G'iyosova O'g'iloy Sulton qizi** The improved aspects of literacy teaching methodology in the new alphabet textbooks
163	**Qosimova Ergashxon Komoldin qizi** Talim va tarbiya uzluksizligining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati
166	**Ro'ziyeva Nigina Otabekovna** Olıy ta'lım tızımıda muammolı vazıyatlarnı boshqarıshnıng samaralı metodları va amalıy yondashuvlar
171	**Saidova Dildora Raxmatovna** Ekologık ta'lım va tarbıyada ınson va tabıat munosabatınıng qadrıy asosları
175	**Seydullayev Maxmud Satiniyazovich** Yosh sportchilarda umumiy (aerob) chidamlilikni rivojlantirish.
180	**Sharipov Ilhom Ibodovich** Bo'lajak jısmonıy tarbıya fanı o'qıtuvchılarını kasbıy pedagogık faolıyatga tayyorlashnı mazmunını takomıllashtırısh
185	**Shodiyeva Dilafro'z Husenovna**

	Maktabda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining o‘quvchi shaxsiy rivojlanishiga psixologik ta’sir
189	**Ro’ziyeva Shodiya Abdullayevna** The concept of "beauty" in linguistics: its application in uzbek and english proverbs and national-cultural characteristics
192	**Tobakabulova Nesibeli Kaxarovna** Imkoniyati cheklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional zo‘riqishlar namoyon bo‘lishining psixologik determinantlari
196	**Orziyev Mahmud Zaynievich, Sobirov Feruz Xalil o’g’li** Turkiston mahalliy ot zotlari xususida (“Turkiston to‘plami” materilallari asosida)
200	**Tursunov Uchqun To’lqin o’g’li** Voyaga yetmaganlar jınoyatchılıgınıng sababları va motıvatsıon asosı
204	**Турсунов Искра Токын оглы** Роль социальной среды и семейного воспитания в возникновении преступного поведения детей и подростков
208	**Xolmuminova Dilshoda Toshpo’latovna** Shaxs kamolotini ta’minlashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
211	**Абдуганиева Дильрабо Шералиевна** Особенности формирования возможностей психологической защиты у подростков
216	**Olimova Nasiba Baxtiyor qizi** Boshlangich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni tarbiyalashda sinfdan tashqari faoliyatning o‘rni
220	**Yuldashev Akmal Jamilovich** Bojxonada shubhali holatlarni aniqlashda xulq-atvor tahlili va psixologik yondashuvlar
224	**Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich** Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish: muammolar va istiqbollar
228	**Boltayeva Zilola Bobojonovna** Gender pedagogikasi hamda ta’limda gender tenglik masalalari
234	**Djurayeva Perdegul Saidovna** Malaka oshirish tizimida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida bilan tabiiy fanlardan (science) tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha «o‘quv loyihasi» ishlab chiqish
241	**Dusanov Elbek Abdusamatovich** Features of cyberbulling in general secondary school students and adolescents
246	**Axmatova Gulxayo** Ijtimoiy tarmoqlar va o‘smirlar psixikasida muloqot ko‘nikmalari
250	**Hamdamova Ra’no G‘ayratovna** Qizil kitobga kiritilgan endemik va noyob o‘simliklarning populyatsion holatini baholash
256	**Xamrayev Ilyos Radjabboyevich** Yashil iqtisodiyot sharoitida yashil energetika innovatsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish
261	**Jurayeva Lobarxon, Hamroyev Nozimjon** O‘quvchılarnı axborot texnologıyaları orqalı ınklyuzıv ta’lım olısh psıxologıyası
265	**Turayeva Xusnora Ixtiyorovna, Astanakulov Kamalitdin Maxkamovich** Yordamchi maktab darslarida korreksion tarbiya va ijtimoiy moslashuvni uyg‘unlashtirish texnologiyasi
270	**Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi** O‘yin orqali rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini joriy etish.
274	**Akramov Eldor Parmonovich, Usmanov Otabek Latibovich** Geografiya va tarix fanlarining o‘zaro integratsiyasi - ta’limning eng muhim tamoyillaridan biri

278	**Sevdiyor Otaqulov Rizoqulovich** Jismoniy tarbiya fanini o‘qitishdagi asosiy modellar
283	**Pulotov Abdurayim Murotovich** Using modern pedagogical diagnostic methods in assessing students' knowledge in mathematics
287	**Rahmonov Ulfat Ubaydullayevich** Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik nazariy asoslari va loyiha faoliyatining didaktik mohiyati
292	**Ravshanova Orzigul Sayfullayevna** O‘zbek tilshunosligida she’riy san’atlarning tahlili
296	**Saidova Saida Zoyir qizi** Texnologiya darslarida o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish
300	**Xalilov Shaxobiddin Fayziyevich, Mirzaqobilova Lola Niyatqobilovna** Сравнение результатов теории толстых и тонких оболочек для заглубленных ортотропных цилиндрических оболочек
308	**Xoshimova Muhayyoxon Salimjon qizi** Klaster yondashuvi asosida talabalarni ta'lim tizimida pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi
313	**Abbosova Muqaddas Baxtiyorovna** Inglız va o‘zbek tıllarıda assertıv nutqıy aktlarnıng pragmatık va kognıtıv jıhatları
317	**Aripov Ixtiyor Yusupovich** O‘quvchilarni kasbiy diagnostika qilish orqali kasbni to‘g‘ri va ongli tanlash kompetentliligini shakllantirish
325	**A’zamova Gulasal Sodiq qizi** Diskurs tushunchasi va uning talqinlari
329	**Akmalova Zulfiya Nigmatullayeva** Characteristics of English Language Acquisition among Uzbek- and Russian-Speaking Students: An Ethnocultural Analysis Based on the Case of the University of World Economy and Diplomacy
333	**Xudaybergenova Malika** Finlyandiyada musiqa darslarini tashkil etishning tarixiy-nazariy aspektlari
336	**Toshpo'latova Marjona Latif qizi** O‘smırlık davrıda egoıstık xulq-atvornıng psıxologık omılları va namoyon bo‘lısh xususıyatları
343	**Umurzakova Dilfuza Ilxomovna** Bo'lajak ınglız tılı o'qıtuvchılarıda tolerantlık tafakkurını rıvojlantırıshda soft skılls ko'nıkmalarınıng o'rnı va ahamıyatı
347	**Jaqsımuratova Elmira Sarsenovna** Qoraqalpoq xalq an’analarının maktabgacha tarbıya yoshıdagı bolalar psıxologık rıvojlanıshıga ta’sırı
352	**Boqijonov Rasuljon Ravshanjon o‘g‘li** Ko‘zi ojiz o‘quvchilarning xarakteri va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari
356	**Saparova Aysanem Ajiniyazovna** Vizual dasturlash tilining asosiy xususiyatlari
360	**Usmonova Kumush Baxodirovna** Challenges and opportunities in developing reflective competence in the uzbek efl context
364	**Usmonova Nargiza Raximjonovna** Rus qizlarini oilaga tayyorlash jarayonida etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarning amaliy jihatdan o‘rganilishi
370	**Matchanova Dilbar Yusupboyevna**

	Talabalarda fabbıng xulq-atvorınıng psıxologık xususıyatları va unıng shaxslararo munosabatlarga ta’sırı
374	**Payziyeva Mastura Nigmatullayevna** Talabalarda kasbiy kompetensiyalar rivojlanishining psixologik jihatlari
379	**Ashurova Sitora Erkinovna** The lexicography of specialized terminology: analysis of horticultural terms in english and uzbek
383	**Bayjonov Furqat Baxramovich** Qızlarnı oılaga tayyorlashnıng pedagogık jıhatları
387	**Jabborova Malohat Azimovna** Talabalar akademik o‘zlashtirishining psixologik determinantlari: shaxsiy, kognitiv va emotsional omillar integratsiyasi
390	**Rajabov Murodil Jumaboyevich** Shaxslararo munosabatlarda “qora” va “yorqin” shaxs uchliklarining manipulyativ strategiyalari
395	**Sobirov Feruz Xalil o’g’li, Islomov Nurullo Nurali o’g’li** Islom dinining o‘zbekistonga kirib kelishi va o‘zbek ulamolarning ilmiy merosi
402	**Akatova Guzal Baxodirovna** Kasbıy kompetentlıknı shakllantırıshda muloqot madanıyatı
406	**Mardanov Uktamjon Rustamovich** Badiiy matnda qo‘llangan terminlar lingvopoetikasi (oydin hojiyeva she’riyati misolida)
410	**Murtozoyeva Dilafruz Muxiddinovna** Bo‘lajak o‘qıtuvchılarda pedagogık qobılıyatlarnı shakllantırısh
414	**Hamroyeva Anora Faxreddenovna** Maktabgacha ta’lım tashkılotlarıda zamonavıy axborot texnologıyaları va multimediadan foydalanıshnıng ahamıyatı

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
№ 12-son, 2-qism 2025

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Buxoro xalqaro universiteti
ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2025.
№ 12-son, 2-qism. 425-b.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОҲНОМА

№ 855722 Фаол

"BUXORO XALQARO UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

27.06.2025 10:32
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувоҳнома № 855722

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Viloyat	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ilmiy-amaliy jurnal 12-son, 2-qism Buxoro - 2025. -468 b. **БУХАРСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ** научно-практический журнал Выпуск 12, часть 2 Бухара - 2025. - 424 с.	Jurnal Buxoro xalqaro universiteti muassisligidagi nashr hisoblanadi **Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.** OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi 28.12.2025 Qog‘oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 26.5. Buyurtma № 352. Adadi - 60 Bahosi kelishilgan narxda. «Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahar O‘zbekiston Mustaqilligi ko‘chasi, 70/2 uy. Tel: 0(365) 222-46-46